SHAHAR MIKROIQLIMINI YAXSHILASHDA TOM USTI BOG‘LARI UCHUN O‘SIMLIKLARNI TANLASHNING ASOSIY MEZONLARI

Karimov Ulug‘bek Nurmamatovich
Kadirova Navruza Barakayevna
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Maqolada shahar mikroiqlimini yaxshilashda tom usti bog‘lari uchun o‘simliklarni tanlashning asosiy mezonlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu mezonlar asosida tom usti bog‘lari uchun to‘g‘ri o‘simliklarni tanlashning ahamiyati, qo‘llash tamoyillari va xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются основные критерии выбора растений для садов на крышах с целью улучшения городского микроклимата, а также подчеркивается важность выбора правильных растений для садов на крышах на основе этих критериев, принципы применения и выводы.

Annotation. The article examines the main criteria for selecting plants for rooftop gardens to improve urban microclimates, and outlines the importance of selecting the right plants for rooftop gardens based on these criteria, principles of application, and conclusions.

Kalit so‘zlar: mikroiqlim, estetik, ekologik, ekotizim, kontsentratsiya, vegetatsiya, morfologik, biotsenoz, gabitus, ekzotik, landshaft.

Ключевые слова: микроклимат, эстетический, экологический, экосистема, концентрация, растительность, морфологический, биоценоз, габитус, экзотика, ландшафт.

Keywords: microclimate, aesthetic, ecological, ecosystem, concentration, vegetation, morphological, biocenosis, habitus, exotic, landscape.

Kirish. Shahar mikroiqlimini yaxshilashda tom usti bog‘lari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat estetik ko‘rinish va ekologik muvozanatni ta’minlaydi, balki shahar iqlimini sog‘lomlashtirishda ham katta rol o‘ynaydi. Tom usti bog‘lari shahar hududlarida yashash muhitini yaxshilash, havoning sifatini oshirish, issiqlikni kamaytirish, shuningdek, yomg‘ir suvi yig‘ish kabi foydali funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, tom usti bog‘larini yaratishda o‘simliklarni tanlash juda muhimdir, chunki ularning turli xususiyatlari mikroiqlimga ta’sir ko‘rsatadi.

Tom usti bog‘lari – bu shaharlar va urbanizatsiya jarayonlari davomida tabiiy yashash muhitini saqlab qolish va ekologik balansni ta’minlashga yordam beruvchi zamonaviy yondashuvdir. Shahar mikroiqlimini yaxshilashda, ayniqsa issiqlik oraliqlarini kamaytirish va havoning ifloslanishini pasaytirish borasida tom usti bog‘larining roli katta. Ushbu bog‘lar, shuningdek, turli ekotizimlarni qo‘llab-quvvatlaydi va turli o‘simlik turlari uchun yashash muhitini yaratadi.

Asosiy qism. Shahar muhitidagi sun’iy asoslarda xususan, balkon, lodjiyalarda ayniqsa turar joy va jamoat binolarining tom ustida o‘simliklar yerdagiga qaraganda ular uchun odat bo‘lib qolgan sharoitdan boshqacha bo‘lgan mikroiqlim, tog‘nikiga yaqinlashadi: yuqori quyosh radiatsiyasi, shamol uncha katta bo‘lmagan tuproq qatlamining majburiy qattiq asosi xuddi tog‘lardagi kabi tuproq birdan haroratning keskin o‘zgarishlariga uchraydi.

O‘simliklar yozda issiqlikdan, havoning quruqligidan va namlik yetishmasligidan, qishda esa tuproqning muzlab qolishligidan aziyat chekadi. Ular uchun jiddiy xavfni shamol ham yuzaga keltiradi ya’ni, tezligi balandligi bo‘yicha o‘sib boradi: balandligi bir necha qavat yuzada esa u yer sathiga qaraganda 1,5 - 2 marotaba balanddir, 16 - 20 qavatli binolarning tomi ustida esa yer sathidagiga qaraganda 5 marotabagacha oshuvchi shamol tezligi kuzatiladi. Shamol o‘simliklarga nafaqat mexanik shikast bermasdan, yerdagiga nisbatan ham ayniqsa tezroq tuproqning suvini quritadi. U yaproqlar yuzasidan bug‘lanishni kuchaytiradi va o‘simlikning o‘zini haroratini pasaytiradi. O‘simliklarning mo‘’tadil rivojlanishi esa tegishlisiz issiqlik miqdori va ma’lum haroratsiz mumkin emas, qaysiki ular ayniqsa qish vaqtida shikastsiz o‘tkazishga qodirdir.

Ildiz tizimlarini sovuqqa chidamliligiga, qoidaga muvofiq novdalarga qaraganda ko‘proq kamdir. Masalan, oq akatsiyaning ildizlari 6-7^{0}C haroratlarda shikastlanadi. Ko‘proq sovuqqa chidamli Sibir o‘simliklari hisoblanadi, masalan, Sibir olmasi -25^{0}C sovuq haroratga, qora qarag‘ay esa -33^{0}C sovuq haroratgacha bardosh bera oladi.

O‘simliklar uchun qish davomidagi haroratning o‘zgaruvchanligi ham binoning o‘zidan, pastdan tom ustining qizishi kabilar noqulaydir. Bahorda va yozda tom usti yuzasidagi havo harorati yerdagiga nisbatan yuqoridir, kuzda bu farqlar kamayadi, qishda esa qor uyumlari tufayli bir oz yuqori bo‘ladi. Tom ustidagi qor qoplamasi har doim ham zaruriy qalinlikdagi qoplamani tashkil qilavermaydi va konteynerlardagi tuproq o‘simliklari bilan butun chuqurligi bo‘yicha muzlab qolishi mumkin. Tom usti yuzasidagi nisbiy namlik yerdagiga qaraganda 5-10 % past bo‘ladi, yozda esa u 14 % gacha ko‘payadi, tunda va ochiq obu havoda ushbu farq 15-20 % gacha yetadi.

Shunday ekan, tom usti sharoitida o‘simliklar iqlimning o‘zgarishiga duch kelishi yerga nisbatan anchagina kam xususiyatga egadir. Ijobiy omil bo‘lib, balki faqat balandlikdagi havodagi o‘simliklar uchun zararli kontsentratsiya (biror manbaning- qo‘yuqlik, to‘yinganlik, boyiganlik darajasi) moddalarini kamaytirish hisoblanadi [4].

Tom usti bog‘laridagi o‘simliklar shunchalik iqlimning salbiy ta’sirini o‘z boshidan kechiradi, biroq o‘zlari ham shahardagi xususan, bino tomida ma’lum mikroiqlimni yaratishga imkon beradi.

O‘simliklar namlikni yutib, havoning namligini oshirib, uni asta-sekin bug‘lantiradi. Hisoblab chiqilganda, 1 m^2 maysazordan soatiga 200 g gacha suv bug‘lanadi, hamda bu ham ko‘kalamzorlashtirilmagan tom ustiga qaraganda maysazorni faqat sug‘orish hisobiga quruq ob-havoda 3 foizdan 16 foizgacha o‘zgarishi mumkin va bir vaqtda yomg‘ir kanalizatsiyasiga oqova suv ancha kamayadi. Oddiy tom ustiga qaraganda ushbu oqova suv tushuvchi yog‘ingarchilikni 70 foizgacha, tom usti bog‘laridan bor yo‘g‘i 40 foizni, o‘tli tom ustlaridan esa to‘liq yo‘q bo‘ladi. Bug‘lanish ma’lum sovutish hodisasini ham yaratadi. Bundan tashqari, daraxtlar, butalar va bog‘ uskunalari ko‘rinishidagi to‘siqlarga o‘zining yo‘lida uchrashib, shamol tezligi pasayadi, tom ustida esa bu pasayish 70 foizgacha yetadi, shamolning ayrim shiddatlari esa, tezlikni 0,5 m/s gacha kamaytiradi.

Biologlar va botaniklarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tom ustidagi bog‘larda o‘tqazilgan o‘simliklar xuddi o‘sha turdagilarni yerda o‘suvchilariga nisbatan o‘zini o‘zgacha tutadi. Bahorda ularning faol o‘sishi yernikiga qaraganda 3-12 kun avval boshlanadi, modomiki, tuproqning erishi va qizib ketishi tezroq sodir bo‘ladi. Manzarali butalarning gullashining boshlanishi shunchalik erta boshlansa, ko‘pchilik turlar o‘ziga xoslik beruvchi gullashni davom ettirilishini saqlab qoladi.

Yaproqlarning kuzgi libosi ularda ham 4-10 kun avval paydo bo‘ladi va yerdagi sharoitlarga qaraganda faolroq bo‘ladi, mevalar (daryo yoqasi zaranggi, oq deren, spireya, vangutta) ham tezroq pishadi. Shunday qilib, ba’zi tom usti bog‘laridagi o‘simliklarda umumiy vegetatsiya (o‘simliklar uchun maxsus vaqt, bu davrda ular to‘liq rivojlanish bosqichidan o‘tadi- o‘sish, kurtaklash va barglash, gullash, meva berishdan boshlab to barglar to‘liq tushgunga qadar) davri ko‘payadi. Bunda chetan(рябина)larda ko‘proq, masalan 139 kundan 180 kungacha, bodrezak(калина)larda 179 kundan 207 kungacha (Minskdagi Markaziy botanika bog‘ining ma’lumotlari asosida).

Sun’iy asoslardagi bog‘lar uchun o‘simliklarni tanlashda chidamli va bardoshli, shu bilan birga tog‘li hududlar uchun xos bo‘lgan afzallikni beruvchi barcha

xususiyat hamda jihatlarni e'tiborga olmoq lozim. Bularga ayniqsa yer yopar o't-o'simliklar yoki past bo'yli daraxtlar va butalar hamda chirmashib o'suvchi lianasifat o'simliklar misoldir.

Tom ustidagi bog'lar uchun o'simliklarni tanlashning asosiy mezonlari uchta deb atash mumkin: ekologiya, biotsenoz va manzaraviylik. O'simliklarni tanlash birinchi navbatda unish shartlari bilan uning biologiyasini moslashuvidan kelib chiqib (bu esa ekologik mezon hamdir) aniqlanishi lozim. Ikkinchidan, o'simliklarning yashovchanlik biotsenozlarini qobiliyatli tarkiblarini yaratish haqida g'amxo'rlik qilmoq lozim.

Tom usti bog'i qaysi joyda yaratilayotganda ushbu hudud uchun uning tabiati to'g'ri kelmaydigan noodatiy o'simliklardan foydalanish mumkin, ammo sharti bilan, ular introduktsiyalashgan (biror iqlim sharoitida yashaydigan o'simlikni boshqa iqlimliga ko'chirish, moslashtirish) iqlimlashtirishning dastlabki bosqichi, ya'ni ularga begona muhit va iqlimga muvofiqlashtirilib o'stiriladi. Ammo ushbu g'ayriodatiy (ekzotik) kelgindilarning odatiylari "qadrdon" o'simliklari bilan bir guruhda bir butun holga keltirish ko'proq munozaralidir: hattoki ular o'zlarining manzarali xususiyatlari bilan bir-biriga to'g'ri kelsalar ham muvaffaqiyatli biotsenozni va bir-biri bilan yashamoqni tashkil qilishi dargumondir. Shuning uchun ularni alohida kompozitsiyalar ko'rinishida umumlashtirish, ifodalash lozim.

Bu vaqtda esa ko'pincha landshaft dizaynerlari eng muhim nafosat (estetik) mezonlari deb hisoblaydilar. U har qaysi o'simliklarning turini uning o'simlik morfologiyasi ya'ni, balandligini inobatga olib, tashqi ko'rinishini, shox-shabbasining ko'rinishiga, shoxlashi va barglar bilan qoplanish tabiatiga, po'stlog'i, yaprog'i, gullari va mevalarining tusiga, gullarining hidiga har qaysi turini bir-biriga munosabatini mavsumiy va yoshga bog'liq o'zgarishlariga asoslangan. Mazmunan ushbu mezon landshaft dizayni obyektlarini har qaysi o'simliklarining kompozitsiyalariga qo'llanilsa bo'ladi, ammo tutashgan, yuqori panjaralar bilan chegaralangan tom ustini uncha katta bo'lmagan bog'i muhitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. O'simliklar bunday bog'da yaqin masofadan batafsil ko'zatish mumkin. Uning morfologik belgilari bilan aniqlanuvchi o'simliklarning tashqi ko'rinishi (gabitusi) har qaysi tur uchun xarakterlidir, ammo har qaysi namuna faqat o'ziga xoslik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin va bu bilan ham hisoblashishga to'g'ri keladi. Ayrim hollarda eng katta manzarali tassurot naq nostandart o'tqaziladigan ko'chatlardan foydalanilib erishiladi, egilgan poyali, noodatiy ko'rinishdagi shox-shabbali, eshilgan butoqli, ya'ni "fizionomik qiyofa" deb ataluvchi o'simliklar esa, o'simliklarning buzilmas birligi haqida va ularni qattiq sharoitlarda o'sishidan guvohlik beradi.

O'zbekiston shaharlaridagi ekspluatatsiyali tomlari uchun daraxt va butalarning assortimenti yetarlicha katta ko'lamdadir. Agar bino-inshoot tom konstruktsiyasi katta yuklanishlarga mo'jallangan bo'lsa, ko'paytirilgan hajmdagi tuproq substratini imkoniyati bo'lsa, tuproqning unumdorligida turli navlarning talabi inobatga olinsa, hamda tom ustidagi bog' shamoldan ishonchli himoyalansa, shundagina kengayishi mumkin. Shular bilan ham hisoblashish kerakki, ya'ni sun'iy asoslardagi bog'larda daraxtlar o'shanday chidamlilikka ega bo'lmasa, tabiiy tuproqqa o'tqazilgan o'sha navlar bo'lsa, ularni ham ma'lum vaqtdan keyin albatta almashtirish kerak bo'ladi [1].



Katta daraxt uchun konteyner, umuman olganda, yashil tom yopish uchun ishlatiladigan bir xil strukturaviy qatlamlar va materiallarni o'z ichiga oladi, lekin qo'shimcha ravishda, qattiq sovuq yoki haddan tashqari qizib ketganda ildiz tizimini himoya qilish uchun bir necha bosqichli izolyatsiyalash qo'llaniladi:

1 - konteyner devori (beton yoki polimer materiallar); 2 drenaj; 3 - gidroizolyatsiya; 4 - ildizga qarshi qatlam; 5 - pishiq g'ishtli himoya izolyatsiya; 6 - gidroizolyatsiya qatlami (parapet yaqinida joylashganda); 7 - beton qoplamali plita; 8 - substrat; 9 - filtr qatlami; 10 - sug'orish trubkasi; 11 - drenaj qatlamidan ortiqcha suvni olib tashlash uchun maxsus quvur [2].

Ko'pgina baland butalar o'sayotib uncha katta bo'lmagan daraxtlar o'lchamiga erishadi va xuddi ba'zi daraxtlar kabi ma'lum sharoitlarda ko'p poyalik ko'rinishni hosil qiladi va bu bilan yirik butani eslatadi. Masalan, ko'pincha, joy tanlamaydigan beor, murakkab tabiiy sharoitlarda va nihoyatda manzarali kumushsimon yaproqli buta uncha katta bo'lmagan qomati raso igna bargli jiyda shakllanib boradi. Tom ustidagi bog'larda xuddi shunday daraxtlarday gullovchi va mashhur do'lana ham chiroyli o'sadi.

Baland bo'lmagan yer bag'irlagan qayrag'och, aksincha, ildiz navdalari va qiyofasi bo'yicha daraxtga nisbatan butaga yaqindir, garchi o'sayotib, yetarlicha keng shox-shabbani hosil qiladi. Yaproqli daraxtlar

tuproq qatlamining (kamida 100 sm) katta qalinlikka muhtojligi bilinadi va qoplamaga yumaloqlangan tuprog‘i bilan katta yuklamaga ega bo‘ladi.



Tom usti bog‘ida o‘simliklar mobil (harakatlanuvchan) yoki statsionar (tomga mahkamlangan, turg‘un) idishlar(guldon, vazon, konteyner)ga joylashtiriladi. Katta maydonni egallagan ko‘chatlar statsionar shaklda umumiy beton chegara bilan o‘ralgan grafik chizma: A - umumiy perspektiv ko‘rinish; B – bosh rejadagi harakatlanish maydoni va ko‘kalamlar tarxi.

O‘zbekiston me’yoriy hujjatlarida uncha katta bo‘lmagan bitta daraxtning og‘irligi 10 kg.dan 20 kg.gacha qabul qilinadi.

Bunda nam tuproqning og‘irligi konteynerni 1,2x1,2x0,5 m o’lchamida 1300 kg ni tashkil etadi (konteynerning og‘irligini hisobga olmaganda).

Albatta bu ko‘rsatkichlar aniq ashyolar uchun oydinlashtiriladi, xususan, qachon yengil substratlardan foydalanilganda.

Tom ustida o‘simliklarning rivojlanishi uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratish, yerdagiga qaraganda ancha qiyinroqdir va asosiy qiyinchilik oziqlanadigan tuproq hajmining chegaralanganligidan iboratdir. Ayniqsa, daraxtlardagi va yirik butalardagi ildiz tizimlarining me’yoriy rivojlanishini to‘xtatib turadi. Biroq ushbu hajmni oshirishning bir necha usullari mavjuddir.

Birinchi navbatda, bu tuproq sathini mahalliy ko‘tarishdir, uncha katta bo‘lmagan do‘nglik ko‘rinishida qo‘shimcha tuproq solmoqdir. Ba’zida bunday tepalik toshlar chorqirra toshlar bilan mahkamlanadi. Ammo ko‘proq har xil turli ildiz tizimlaridan iborat bir necha o‘simliklardan iborat guruhlarni o‘tqazish uchun turli balandlikdagi konteynerlardan foydalaniladi. Bunday usul daraxtlarning serildiz tizimlari uchun yaroqlidir.

O‘simliklarni o‘qli ildiz tizimlari uchun tom ustini kamroq ko‘kalamzorlashtirishga harakat qilinsa, avvalroq tomyopma qurilmasida ko‘proq chuqurroq idishlar mo‘ljallaniladi. Oxirgisi ko‘proq chuqurlashtirilgan yoki yer osti inshootlarining tom ustilari bog‘lariga to‘g‘ri keladi, qayerda sharoit eng qulay bo‘lsa, yer ustidagi sharoitga yaqinlashadi, hamda amaliy jihatdan o‘simliklarning barcha turlaridan foydalaniladi, shu bilan birga yirik o‘lchamli daraxtlarni ham o‘simlik assortimentini chegaralamaslik mumkin [3].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, tom usti bog‘larini yaratishda eng muhim jihatlardan biri - to‘g‘ri o‘simliklarni tanlashdir. Shahar iqlimi ko‘pincha quruq va issiq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’sir qiladi. Tom usti bog‘lari uchun o‘simliklarni tanlashda quyidagi mezonlarni hisobga olish lozim:

-*Iqlimga moslashuvchanlik*: Shahar sharoitida o‘simliklar nafaqat yuqori haroratga bardosh bera olishlari, balki turli ob-havo sharoitlariga, masalan, shamol, yog‘ingarchilik va quruqlikka qarshi chidamliligi bo‘lishi kerak.

-*To‘g‘ri ildiz tizimi*: Tom usti bog‘larida o‘simliklarning ildiz tizimi nihoyatda muhimdir. Ildizlar ortiqcha og‘irlik yaratmasligi va binoning tomiga zarar yetkazmasligi kerak. Shuning uchun ildiz tizimi yengil va samarali rivojlanishga imkon beradigan o‘simliklar tanlanishi kerak.

-*Suv tejash va sug‘orish ehtiyoji*: Shahar hududlarida suv manbalari cheklangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun tom usti bog‘lari uchun suvni tejash imkoniyatiga ega o‘simliklar tanlanishi muhimdir. Bunday o‘simliklar kamroq suv talab qilishi, lekin shuningdek, yomg‘ir suvi yig‘ishga yordam beradigan xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

-*Tuproqning yengilligi va o‘sish sharoitlari*: Tom usti bog‘lari uchun maxsus o‘simliklar tanlanishi kerak, chunki ular qalin tuproqda yoki qiyin sharoitlarda yaxshi o‘sishi kerak. Tuproqning yengilligi, namlikni

ushlash va o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlar juda muhimdir.

-*Estetik va dekorativ ahamiyat*: Tom usti bog‘lari faqat ekologik jihatdan foydali bo‘lishi kerak emas, balki estetik nuqtai nazardan ham shaharni bezashda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun o‘simliklar rang-barang, turli xil shakllarda bo‘lishi, shahar arxitekturasi va landshaftiga mos kelishi zarur.

-*Biologik xilma-xillikni ta’minlash*: Tom usti bog‘lari o‘simliklar va hayvonlar uchun yangi yashash joylari bo‘lishi mumkin. Bu o‘simliklar, o‘z navbatida, mahalliy hayvonlar va qushlarni jalb qilishga yordam beradi, bu esa ekologik muvozanatni ta’minlaydi.

Shaharlarning kengayishi bilan birga, tom usti bog‘lari shahar iqlimini yaxshilash, yashil maydonlarni kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. O‘simliklar tanlashdagi to‘g‘ri yondashuv ekologik manfaatlarni birlashtirib, shaharni yashil va barqaror qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Н.А Шпак. Цветник на крыше. - М.: ООО Ц27 «Издательство АСТ»; Донецк: «Сталкер», 2004. - 110.
2. Н. П. Титова. Сады на крышах. Олма-пресс гранд. 2003 г.
3. Osmundson T. Roof Gardens.Design and Construction. N-Y., 1999.
4. Торчик В. Сады на крышах. Минск, 1989.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HOVLI TIPIDAGI TURAR JOY BINOLARI HUDUDINI REJALASHTIRISH ASOSLARI

Karimov U.N. katta o‘qituvchi,
Sobirjonova B.B.
Dizayn: landshaft dizayni-2024-UZB-01 guruh talabasi.
SamDAQU

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston iqlimi va madaniy sharoitida hovli tipidagi turar joy binolari hududini rejalashtirish masalalari o‘rganilgan. An’anaviy me’moriy yondashuvlar va zamonaviy talablar asosida hududni funksional zonalarga ajratish, ekologik omillarni hisobga olish hamda yashash uchun qulay muhit yaratish usullari tahlil qilinib, hududiy genplan bo‘yicha amaliy taklif modeli va xulosalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы планировки территории жилых домов усадебного типа в климатических и культурных условиях Узбекистана. На основе традиционного архитектурного подхода и современных требований проанализированы методы функционального зонирования, учёта экологических факторов и создания комфортной жилой среды. Также представлены практические предложения и выводы по генеральному плану участка.

Annotation. This article explores the planning issues of courtyard-type residential areas within the climatic and cultural context of Uzbekistan. Based on traditional architectural approaches and modern requirements, the study analyzes methods of functional zoning, consideration of environmental factors, and the creation of a comfortable living environment. Practical proposals and conclusions related to the site master plan are also presented.

Kalit so‘zlar: orientatsiya, topografik xarita, relyef, mikroiqlim, hovli uyining tashqi hududiy konseptual genplan maketi, kichik bog‘.

Ключевые слова: ориентация, топографическая карта, рельеф, микроклимат, внешнетерриториальная концептуальная модель генерального плана дворового дома, небольшой сад.

Keywords: orientation, topographic map, relief, microclimate, external territorial conceptual master plan model of the courtyard house, small garden.

Kirish. O‘zbekiston sharoitida hovli tipidagi turar joy binolari eng keng tarqalgan yashash maskanlaridan biridir. Bu turdagi binolar, ayniqsa, qishloq joylarida va kichik shaharlarda keng qo‘llaniladi. Iqlim sharoiti, milliy urf-odatlar, aholining turmush tarzi va iqtisodiy imkoniyatlari hovli tipidagi uylarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Turar joy binolarini loyihalash - bu nafaqat arxitektura va qurilish me’yorlariga amal qilishni, balki odamlarning qulay yashashi, xavfsizligi va ekologik talablarni ham inobatga olgan holda ularni optimal tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Hovli uylari loyihalanayotganda bino joylashuvi, ichki rejalashtirish, quyoshning harakatlanish orientatsiyasi, shamol harakati, issiqlik izolyatsiyasi kabi tabiiy iqlim omillari tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Hovli tipidagi uylarni loyihalashda asosiy me’yoriy va funksional talablarni chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy ehtiyojlar asosida takomillashtirish va bu yo‘nalishda samarali yechimlarni ishlab chiqish

zarur bo‘lib, bu loyihalar orqali aholining hayot darajasini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda arxitektura merosini saqlagan holda yangi zamonaviy yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining 15.10.2019 yildagi 480-son buyrug‘iga asosan turar joy binolari qo‘llanish sohasi, umumiy ko‘rsatmalar (sanitariya-gigiyena talablari, yoritilganlik, insolyatsiya va shamollatish), turar joy uylari va ularning tarkibiy qismlari (turar - joy uylarning tiplari, xonadonlar, xo‘jalik xonalari va imoratlari), ixtisoslashtirilgan turar joylar (yotoqxonalar, qariya va nogironlar uy-internatlari, qariyalar va kreslo - aravachada nogironi bor oilalar uchun ixtisoslashtirilgan kvartiralar), yong‘in xavfsizligi, evakuatsiya yo‘llari (evakuatsiya yo‘llari, 28 m dan baland binolarga qo‘shimcha talablar), yashalmaydigan qavatlar, liftlar, chiqindilarni yo‘qotish, muhandislik jihozlari (umumiy qoidalar, ovqat tayyorlash uchun uskunalar, sovuq va issiq suv ta’minoti, oqovalashtirish, isitish, ventilyatsiya va havoni konditsionerlashtirish, elektrotexnika qurilmalari, aloqa va signalizatsiya), energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik kabi asoslari ko‘rib chiqilgan [1].

Yuqorida keltirilgan davlat miqyosidagi sohaga oid buyruqlar ijrosini ta’minlashda qurilish- loyiha tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari xususan, Samarqand davlat arxitektura – qurilish universitet talabalari kasbiy malakalarini oshirishda “Arxitektura dizayni 1” kabi fundanental fanlardan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Hovli tipidagi turar joy binolari hovli hududi ko‘kalamini loyihalashda Geodeziya rejasi(topografik xarita- masshtab asosida yaratilgan hudud va uning relyefi)ni tuzgandan so‘ng, hududni loyihalash ishlari boshlanadi. Barcha yer osti kommunikatsiyalari (gaz quvuri, suv ta’minoti, kanalizatsiya va boshqalar) hisobga olinadi. Masalan, yotqizilishi 0,8 m chuqurlikda amalga oshiriladigan tarmoq gaz quvurining maydonida joylashganida, texnik foydalanish shartlariga ko‘ra, gaz quvuridan 1,5 m dan yaqinroq masofada kuchli ildiz tizimiga ega daraxtlar(sharq chinori, oddiy eman, zarang va b.)ni ekish taqiqlanadi.

Daraxtlar va boshqa o‘simliklarga alohida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerak. Voyaga yetgan daraxtni yo‘q qilish, qonunni buzish (tegishli mahalliy hokimiyat organlarining ruxsatisiz kesish) bilan bir qatorda, har doim katta, tuzatib bo‘lmaydigan yo‘qotishdir, chunki uni o‘stirish uchun bir muncha yillar kerak bo‘ladi. Hududda barcha daraxtlar, ayniqsa qimmatbaho turlar, reja bo‘yicha joylashtirilishi va foydali yukni ko‘tarishi kerak. Masalan, shimol tomonda joylashganida, ular uning maydonini soya qilmaydi va bog‘ ekinlarini yetishtirishga xalaqit bermaydi, lekin ayni paytda sovuq shamollardan va ba’zi hollarda ko‘cha yoki yo‘l hovli yaqinida joylashgan bo‘lsa, shovqin va changdan himoya qiladi. Daraxtlar janubiy tomonda joylashgan bo‘lsa, hudud sezilarli vaqt davomida soyalanadi, ayniqsa tushda, bu uning ushbu qismida dam olish maskani yoki o‘yin maydonchasini yaratish uchun qulaydir. Va agar ularning soyasi uyning yoki verandaning tomiga tushib qolsa, bu yomon emas.

Loyihalashda mikroiqlimni hisobga olish juda muhim, bu ko‘p jihatdan manba joylashgan hududga bog‘liq. Misol uchun, pasttekisliklarda qattiq qishda harorat baland hududga qaraganda 5-6^{0}C ga past bo‘ladi va daraxt meva va rezavorlar (ayniqsa qishga chidamli bo‘lmagan) muzlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. Bunday joylarda ko‘p miqdorda namlikning to‘planishi ham o‘simliklarning qishki chidamliligiga salbiy ta’sir qiladi, shuning uchun bu yerda buta ekinlari va sabzavotlar yetishtirilishi kerak.

Hududning mikroiqlimi ko‘p jihatdan uning asosiy yo‘nalishlarga va mavjud ko‘chatlarga nisbatan yo‘nalishiga bog‘liq. Hovlining shimoliy tomonida zich shox-shabbali daraxtlarni yoki mustahkam panjaralarni joylashtirish meva va sabzavod ekinlarini shiddatli shimoliy shamollardan ishonchli himoya qiladi. Uni, ayniqsa kichik maydonda, daraxtlar, to‘siq shaklida zich butalar bilan ekish yoki uni har tomondan mustahkam panjara bilan to‘sish havoning turg‘unligini keltirib chiqaradi, havo va tuproq namligini oshiradi va hovlining butun mikroiqlimiga salbiy ta’sir qiladi. Bu hodisalar respublikaning markaziy va shimoliy hududlarida ko‘proq seziladi.

Turar joy binolari hovli hududini loyihalashda hududning relyefiga ham e’tibor berish lozim. Yassi maydon maysazorlarni ekish, sport maydonchalari, kichik bog‘lar va sabzavot bog‘larini yaratish uchun qulaydir. Biroq, sezilarli mehnat xarajatlari tufayli turli darajadagi sun’iy landshaftlarni yaratish uchun juda mos kelmaydi.

Nishabli hovlilarda, ayniqsa janubi yoki janubi-g‘arbiy qismida, sabzavotlar yaxshi o‘sadi va ko‘proq foydalanishda ijodiy ifoda uchun katta imkoniyatlar mavjud. terrasalar, zinapoyalar, himoya devorlari ko‘rinishidagi dekorativ landshaftlarni qurish mumkin.

Hovli bog‘i hududini loyihalashda hududdagi alohida binolar, manzarali va mevali bog‘, sabzavot ekin maydoni hamda dam olish uchun joy ajratishni o‘z ichiga olishi kerak. Agar yirik va mayda chorva mollari,

parrandalar, transport vositalari va boshqalar mavjud bo‘lsa, xo‘jalik binolarida chorva va parrandalar uchun binolar, ozuqa, yoqilg‘i va bog‘dorchilik uskunalari saqlanadigan xonalar, shuningdek, dam olish maydoni, bolalar o‘yin maydonchasi, basseyn, yerto‘la, yozgi oshxona, hojatxona va garaj bo‘lishi kerak. Ularning hovlidagi joylashuvi tuman bosh arxitektori bo‘limi bilan kelishilgan bo‘lishi kerak va qurilish faqat mahalliy ijro etuvchi organlarning ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xo‘jalik binolarini amaldagi qurilish normalari va qoidalariga (QMQ va ShNQ) muvofiq loyihalash tavsiya etiladi, ular quyidagi maydonlarni (m^2 dan ortiq bo‘lmagan) nazarda tutadi: maishiy texnika va qattiq yoqilg‘ini saqlash uchun shiypon - 15; chorvachilik va parrandachilik uchun xonalar - 40; avtomobil uchun garaj - 18 va mototsikl - 6; yozgi oshxona - 10; yozgi dush uchun - 4; issiqxonalar 20; qozonxona va oqadigan suv bilan jihozlangan yordamchi xona - 20; xo‘jalik ayvoni - 15; yerto‘lalar - 8 va vannalar 12 m^2 bo‘lishi mumkin.

Uy va qo‘shimcha binolar orasidagi masofa kamida 12 m bo‘lishi kerak. Qo‘shimcha qurilish hududida qish uchun ozuqa va yoqilg‘i tayyorlash, chorva mollarini haydash va boshqa ko‘plab ishlarni bajarish uchun qulay bo‘lgan hovlining asosiy (fasad) kirish joyini chetlab o‘tib, alohida aloqa uchun yo‘l va darvoza bilan ta’minlash tavsiya etiladi.

Bog‘ va sabzavot bog‘ini loyihalashda mehnat xarajatlarini, iqlim sharoitlarini hisobga olish kerak va birinchi navbatda, hosil oilaning sabzavot, meva va rezavor mevalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak. Meva, rezavor va sabzavot ekinlarini ekishning maqbul sonini aniqlash uchun ularning o‘rta zonasi uchun o‘rtacha hosildorligiga qarab oddiy hisob-kitob qilinadi (bir daraxt yoki butadan kg va 1 m^2 dan qazib olinadi): olma - 60-70, nok 60-70, gilos - 10-15, shirin gilos – 20-30, olxo‘ri - 30-40, o‘rik- 30-40, shaftoli - 10-15, qora smorodina - 2-3, qizil smorodina 4-5, krijovnik (smorodina (Ribes) avlodiga mansub o‘simlik turi.) - 4-5, malina -1-1.5 va qulupnayni misol keltirish mumkin.

Binolar va daraxtlar orasidagi masofa kamida 5-6 m va qo‘shni hovlining chegaralaridan ma’lum bir tur uchun qatorlar orasidagi masofaning kamida yarmi bo‘lishi kerak. To‘siqdan 1 m masofada hovlining chegarasi bo‘ylab butalar - malina va smorodina ekish tavsiya etiladi. Meva va rezavorlar o‘rtasidagi belgilangan bo‘shliqlarga rioya qilish kerak, garchi ko‘chatlarni ekishda bu masofalar asossiz katta ko‘rinadi.

Hududning dekorativ dizayni dam olish maskani, sport va bolalar maydonchalari, gulzorlar, maysa va o‘tloqlar, sun’iy suv havzalari, suhbatgoh, pergolalar, basseyn, panjaralar va boshqalarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Hovlini kamin-grill bilan jihozlash unga o‘ziga xos shinamlik bag‘ishlaydi va yashash maydonining kengaytmasi kabi ko‘rinadi [3].

Hovli hududi 300-400 m^2 (3-4 sotx) bo‘lgan nisbatan kichik maydonlarni ham shunday loyihalash mumkinki, ular katta, yaxshi jihozlangan tashqi makon kabi taassurot qoldiradi. Bunday holda, bo‘sh joy hajmi turli xil panjaralar, pergolalar, turli materiallardan yasalgan dekorativ devorlar va ko‘zalgan (klassik yoki karkasli topiar uslubida) butalar kompozitsiyalari uyg‘unligida yaratiladi. Buning uchun joylarni loyihalashda barcha oila aəzolarining manfaatlarini hisobga olish kerak: sport bilan shug‘ullanadiganlar uchun hududdan bolalar uchun sport uchun joylar - qum qutisi, belanchaklar va boshqalar uchun joy ajratish zarur. Garaj yonida mashina yuvish uchun joy va ochiq ustaxona sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan “profilaktika ishlari” bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Asosiy ko‘chaga qaragan hududning fasad tomonining dizayniga alohida e’tibor berilishi kerak. Agar uy yo‘lga yaqin joylashgan bo‘lsa, qoida tariqasida, ko‘chaning umumiy obodonlashtirishini tashkil etuvchi manzarali o‘simliklardan oldingi bog‘ rejalashtiriladi.

Amaldagi qoidalarga ko‘ra, xususiy hovli har tomondan o‘ralgan bo‘lishi kerak va uning fasad qismi dekorativ dizaynining asosiy elementlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Devorlarning dizayni boshqacha bo‘lishi mumkin; Ular ko‘p jihatdan mavjud gradatsiyalarga, mahalliy qurilish materiallarining mavjudligiga va yerdan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Uy hovlisining orqa qismida joylashgan bo‘lsa, uning jabha(fasadi)si dizayni yanada jozibali bo‘lib, uyning oldidagi makonni xayoliy kengaytirishga imkoniyatlar beradi. Masalan, bu borada ko‘proq samaraga erishish uchun yo‘llar diagonal yoki bir nechta burilishlar bilan tartibga solinadi va hovlining turli manzaralarini ochib beradi.

Muhitning ta’siri, ayniqsa, yashil ko‘chatlardan yasalgan to‘siq va ko‘zga tashlanmaydigan metall to‘r bilan ta’kidlangan. Bundan tashqari, hatto kichik hovli o‘lchamiga ega bo‘lsa ham, makonning ta’siri dekorativ devorlar va bir necha bosqichli hovli zinapoyalari tomonidan yaratiladi, bu hovlini turli darajalarda rejalashtirish imkonini beradi, shuningdek, makonni vertikal ravishda ajratuvchi yo‘llar, manzaralar va devorlarning naqsh va teksturasi, katta, mustaqil daraxtlarni qo‘llash imkonini beradi. Hududning dekorativ dizaynining muhim elementlaridan biri pardozlash va ko‘kalamzorlashtirish materiallarining

sirt fakturalarining kombinatsiyalarini to‘g‘ri tanlashdir [2].

Hovli uyining tashqi hududiy genplani modelini shakllantirishda hovlining tashqi qismlarida joylashgan barcha bino - inshootlar, yo‘laklar, yashil maydonlar, texnik elementlar va landshaft dizayni elementlarini grafik (chizma) ko‘rinishida ifodalovchi loyiha rejasidir. Maket esa ushbu genplanni hajmli, ko‘rgazmali ko‘rinishda tasvirlaydi. U makonning umumiy tashkil etilishi, funksional zonalashuvi va tashqi muhit bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Hovli uyining tashqi hududiy konseptual genplan maketini yaratishning asosiy afzalliklari sifatida zamonaviy arxitektura va landshaft dizayni sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihaviy element hisoblanib, makonning tashkiliy va funksional tarkibini aniqlash, qulay yashash muhiti yaratish hamda ekologik, estetik uyg‘unlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Genplan maketlari orqali hovli uyi atrofidagi tashqi shaharsozlik infrastrukturaviy yechimlari xususan, transport va piyoda yo‘llari, oqova suv ariqlari, komunikatsiyalar (gaz trubalari, elektor ustunlari, kanalizatsiya, oqova suv quvurlari va b.), bino - inshootlarning joylashuvi, hududiy zonalashuv, veloyo‘laklar kabi ekologik transport vositalari harakat yo‘nalishlari va yashil maydonlar bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilinadi.



1-rasm. “Arxitektura dizayni 1” fani bo‘yicha “Bir qavatli hovli uyi loyihasi” ning konseptual genplan modeli (maketi). Muallif: Sobirjonova B.B - Dizayn: landshaft dizayni-2024-UZB-01 guruh talabasi. SamDAQU.

Mazkur jarayonning asosiy ilmiy va amaliy afzalliklari sifatida: tashqi hududiy vizual hajmiy-fazoviylik taasurotni oshirib, genplan maketi loyihaning fazoviy yechimini hajmli ko‘rinishda ifodalab, uni barcha foydalanuvchilarga axborotni tez va samarali qabul qilishga xizmat qiladi. Hududdan funksional foydalanishni optimallashtirishda maket yordamida turar joy va janoat binolari, dam olish, xo‘jalik, texnik zonalar, transport va piyoda yo‘llarining o‘zaro aloqasi, ularning joylashuvi va foydalanish qulayligi aniqlanadi. Bu esa hududni ergonomik (insonning o‘lcham nisbatlariga asoslanishi) tashkil etishga zamin yaratadi. Rejalashtirishdagi xatoliklarni oldindan aniqlash imkonini berib, genplan maketida inshootlarning joylashuvi, kommunikatsiya yo‘llari, chiqindi va suv oqimi tizimlarining o‘zaro mosligi baholanadi. Loyihaning bu bosqichida aniqlangan xatoliklar o‘z vaqtida tuzatiladi. Ijodiy va loyihaviy tafakkurni rivojlantirish bilan birga hovli hududini maketlashtirish jarayoni arxitektura va landshaft dizaynini ishlab chiqishdagi amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu yondashuv ayniqsa, o‘quvchilar va talabalar uchun muhimdir. Qurilish va boshqaruv jarayonlarida yo‘riqnoma vazifasini bajarib, maket qurilish bosqichida asosiy yo‘nalish sifatida xizmat qiladi. U chizmalar asosidagi noto‘g‘ri talqinlarni oldini olib, aniq bajarilishi lozim bo‘lgan loyihani ko‘rgazmali tarzda namoyon etadi. Taqdimot va himoya jarayonlarida samaradorlikni oshirish bilan birga genplan maketi ilmiy ishlar, diplom loyihalari, arxitektura tanlovlari va

taqdimotlarda auditoriyaga ta’sirchan taqdim qilish vositasi hisoblanadi. U nafaqat axborot yetkazish, balki estetik ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ekologik va landshaft yondashuvni tizimli baholash imkonini berib, yashil zonalarning joylashuvi, manzarali kompozitsiyalar, shamol va quyosh yo‘nalishlari hisobga olingan holda, maket orqali ekologik uyg‘unlik baholanadi. Bu esa barqaror va sog‘lom yashash muhiti shakllanishiga xizmat qiladi (1-rasm) [4].

Xulosa. O‘zbekistonda shaharsozlikning rivojlanish jarayonlari va ijtimoiy-demografik o‘zgarishlari natijasida an’anaviy hovli tipidagi turar joy binolari o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu turdagi uylar aholining hayot tarziga, milliy mentalitet va iqlimiy sharoitga mosligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi muhim ilmiy asoslar va xulosalar shakllandi:

-*iqlimiy xususiyatlar asosida rejalashtirish*: O‘zbekistonning subtropik-kontinental iqlimi — yozda issiq va quruq, qishda esa nisbatan sovuq bo‘lishi - hovli tipidagi uylarda tabiiy shamollatish, soyali maydonlar, ichki hovlilar va suv manbalaridan foydalanish zarur. Shuning uchun binolar orientatsiyasi (quyosh nurlanishiga qarab joylashtirish), ayvonlar, terrasalar va yashil zonalar yordamida iqlim ta’sirini yumshatish;

-*milliy an’analar va ijtimoiy ehtiyojlar*: Hovli tipidagi uylar ko‘p hollarda bir nechta avlod vakillari yashaydigan keng oilalar uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston aholisi orasida oilaviy qadriyatlar kuchli bo‘lganligi sababli, hovli binolari ijtimoiy hayot markazi sifatida xizmat qiladi. Hovlida ayvon, tandir, yozgi oshxona, mehmonxona, bog‘ va boshqa an’anaviy elementlarning mavjudligi bu turdagi uylarning ijtimoiy va madaniy qiymatini oshiradi;

-*funktsional zonalash zarurati*: hovli hududini quyidagi asosiy zonalarga ajratish optimal hisoblanadi: 1) yashash zonasi – asosiy turar joy binolari, xonadonlar; 2)dam olish zonasi – bog‘, ayvon, yozgi supalar; 3)xo‘jalik zonasi – uy hayvonlari, saqlash joylari, tandir, oshxona; 4) ekologik zonalar – daraxtzorlar, gulzorlar, suv manbalari (hovuz, basseyn). Bu zonalash yordamida har bir hududning funksionallik ta’siri optimallashtiriladi, yashash qulayligi oshirish;

-*barqaror rivojlanish va ekologik omillar*: hovlilar atrof-muhit bilan uyg‘un holda rejalashtirilishi zarur. Yashil hududlar issiqlikni pasaytiradi, kislorod ishlab chiqaradi va umumiy mikroiqlimni yaxshilaydi. Shuningdek, yomg‘ir suvlaridan foydalanish, chiqindilarni ajratib yig‘ish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik barqarorlikka erishish;

-*zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni integratsiya qilish:* bugungi kunda zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalari yordamida an’anaviy hovli uylarini energiya tejamkor, xavfsiz va mustahkam qilish imkoniyati mavjud. Issiqlik izolyatsiyasi, quyosh panellari, zamonaviy suv ta’minoti va ventilyatsiya tizimlari bilan jihozlash orqali funksional va estetik uyg‘unlik ta’minlash;

-*hovli binolari shaharsozlik tizimida:* Hovli tipidagi uylar faqat qishloqlarda emas, balki shahar atroflarida ham keng tarqalmoqda. Shaharsozlik siyosatida ushbu turdagi uylar uchun alohida rejalashtirish me’yorlari ishlab chiqilishi kerak. Ular infratuzilma, transport va ijtimoiy xizmatlar bilan uyg‘un holda joylashtirilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida hovli tipidagi turar joy binolarining hududini rejalashtirish faqatgina arxitektura, landshaft dizayni va shaharsozlik masalasi emas, balki milliy qadriyat, ekologik barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlik masalasidir. An’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan arxitekura, landshaft va shaharsozlik rejalashtirish tizimi orqali funksional, badiiy-estetik va ijtimoiy jihatdan maqbul hovli uylarini yaratish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turar joy binolari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 15.10.2019 yildagi 480-son buyrug‘i.
2. В. П. Шматов. Благоустройство приусадебных участков. Москва: Россельхозиздат, 1986 - 128 с.
3. U.N.Karimov. Landshaft loyihalash. O‘quv qo‘llanma. Polsha, Varshava – 2024. 226-s.
4. Karimov U.N., Mustayev B.B. Bog‘-park va landshaft san’ati tarixi: Darslik – Warszawa: iScience Sp. z.o.o. – 2025. – 434 s.

MAKTABGACHA BOLALAR TAShKILOTLARINI ShAHAR VA QIShLOQ HUDUDLARIDA LOYIHALASh USULLARI

Xudoykulov Rustam Quchqorovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tabiiy muhitiga asoslangan me'moriy qiyofasi, kompozitsion yechimi, ularni me'moriy loyihalash usullari bayon etilgan. Qulay muhitni tashkil qilish uchun asosiy talablar va shartlar tahlil qilgan.

Kalit so'zlar
muhit; qamrab olish radiusi; shahar; mikrarayon; qishloq; bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti; arxitektura; loyihalash uslublari

Kirish. Maktabgacha bolalar muassasalari ijtimoiy-pedagogik talablarning moddiy aks yettirishi sifatida jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy va madaniy hayotida yuzaga kelayotgan o'zgarishlariga doimiy bog'liq. Mazkur o'zgarishlar barcha maktabgacha ta'lim tashkilotini qayta tashkil yetishni talab qiladi. Shu munosabat bilan maktabgacha bolalar muassasalarining uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan maktabgacha bolalar muassasalari tizimi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik ta'sirdagi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Shu sababli xozirgi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarmog'ini tashkil etishda uni qurishning belgilangan usullari aholining mumkin bo'lgan dinamikasini hisobga zarur. Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishda aholining ijtimoiy-demografik tarkibi, oila tarkibi va turmush tarzi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ining tipologik modeli yaratishni talab qiladi.

Asosiy qism. O'zbekistonning shaharlar va qishloqlarining turar-joy massivlaridan oqilona foydalanish muammosi, shuningdek, zamonaviy shaharsozlik siyosatining uy-joy fondini individuallashtirish tendensiyasi

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini turarjoylarda joylashtirishning zamonaviy usullarini izlash zarurligini taqozo etmoqda.

Hozirgi bosqichda mavjud bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarining turlari amalda qo'yilgan vazifalarga javob bermaydi, chunki ular odatiy sig'imga ega bo'lgan alohida ob'ektlar bilan ifodalanib, cheklangan, yagona xususiyatga egadir.

Shu munosabat bilan MTT tarmog'ini qurishning yangi tamoyillarini ishlab chiqish, binolar turlarini kengaytirish, shuningdek, arxitektura-rejalashtirish yechimlari sifatini oshirish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistondagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashda asosan respublikaning tabiiy muhitiga asosan o'zining arxitekturaviy qiyofasi, kompozitsion yechimi, bolalarning vizual idrokiga va ularning psixologik holatiga ham ta'sir qiladigan omillarga e'tibor beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari asosan uzoq vaqt o'tkazadigan muhit ularning asosiy funksiyalariga mos kelishi kerak.

Eng ko'p ommaviy bo'lgan maktabgacha bolalar tashkilotlarining umumiy turdagi kunduzgi guruhlari arxitekturaviy tomondan odatda turar joylar kvartallarida yoki mikrorayonlarda joylashgani holda, faqat ish rayon-lardagi

aholiga xizmat ko'rsatishi kerak va magistral ko'chalar bilan chegaralangan masofa oralig'ida bo'lishi kerak.

Maktabgacha bo'lgan bolalar tashkilotlarining maxsus mo'ljallangan turlari, ya'ni sanatoriya – sog'lomlash-tirish va yozgi bog'chalar odatda, qoida bo'yicha shaharning chekka xududlariga eng yaxshi mutadil iqlimli va tabiat muhitida bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bolalar bog'larining xizmat radiusi 300-350 m ichida hamda kengaytirilgan komplekslarda - 500 m bo'lishi kerak. Bolalar tashkilot-larini shaharda eng kami 140 o'rinli, shahar tipidagi poselkalarda 90 o'rinli, qishloq aholi punktlarida esa 50 o'rindan kam bo'lmagan holda qurish taklif qilinadi [7.]

Dunyoning turli mamlakatlaridagi kunlik yoki haftalik maktabgacha ta'lim tashkilotlari oilalar bilan hamkorligi bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalarga davriy shaklda xizmat ko'rsatadi. Ayrim holatdarda bu holat shahar aholisiga ahamiyatli bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xizmat ko'rsatish to'g'risidagi radiusi normalash-tirilmaydi.

Aholisi soni 4000 dan ortiq, 4 – 5 qavatli uylar bo'lgan joylarda, ko'p hollarda qurilish va tejamkorligi jihatdan qulay bo'lgan 280 va 330 o'rinli bolalar yasli – bog'chalarini tanlash maqsadga muvofiq.140 va 190 o'rinli bolalar yasli – bog'chalari esa, aholisi 4000 dan kam bo'lgan joylarda qo'shimcha ravishda tanlanishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari alohida uchastkalarda joylashgan bo'lib, ular uchun eng qulay, izolyatsiya qilingan, ventilyatsiya qilingan va obodonlashtirilgan hududlarni tanlaydi. Hududning perimetri bu chegarani turar-joy binolaridan kamida 10 m masofada joylashtirib, yashil maydonlarning himoya chizig'i bilan o'ralgan bo'lishi kerak. [6.]

Maktabgacha bolalar tashkilotlari binosining qurilish joyini tan-lashda u yerning tozaligiga, sog'lomligiga, yaxshi shamollatish va quyosh tushishga, suv bosmasligiga, botqoqmasligiga iloji boricha yer osti suvlari yaqin bo'lmasligiga katta e'tibor qaratish lozim.

Maktabgacha bolalar tashkilotlarini arxitekturaviy loyihalashda loyihalanayotgan hududda o‘zidan noxush hid tarqatuvchi sanitariya holati yomon bo‘lgan do‘konlarning xo‘jalik xovlilari, oshxonalar, qozonxonalar, garaj-lar, avtoturargohlari va boshqa shu kabi binolar bilan qo‘shni holatda bo‘lmasligi lozim.

Himoya hududiga ega bo‘lmagan ko‘lanka turib qolgan suv xavzalari, chiqindi uyumlari, qabriston, qishloq ishlab chiqarish va chorva-chilik fermalari, hayvonlarni saqlash joylari va chorvachilik fermalari, hayvonlarni saqlash joylari va chorvachilik yaylovlariga yaqin holatlarida ham qurilmasligi kerak.

MTT binolarini aholi yashash joylaridagi ko‘cha, magistral yo‘llaridan ichkaridagi qizil chiziqdan eng kamida 15 m chegaralangan bo‘lishi shart.

Shu bilan birga bolalarning asosiy xonalari (o‘ynash – ovqatxonasi va guruhlar xonasi) janubga yoki janubiy sharq va sharq tomon-larga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. Bolalar xonalarini xech vaqt shimolga va shimoliy – g‘arbga qaratish mumkin emas. [7.] Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xizmat ko‘rsatish zonasi bolalar muassasasining ajralmas qismidir. Bu yerda bolalar yozda o‘ynashadi, mashq qilishadi, uxlashadi, suv muolajalarini, quyosh va havo vannalarini olishadi, qishda yurishadi, chanada va chang‘ida yurishadi.

O‘simliklar va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilib, bolalar bu yerda tabiat bilan tanishadilar, dastlabki ish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Loyihani bajarishda barcha muhim muammolar hududni rejalashtirishda diqqat bilan hisobga olinishi kerak. Ular bilan bog‘liq holda, hudud yetarli o‘lchamlarga, tegishli jihozlarga va obodon-lashtirishga ega bo‘lishi kerak. Uchastkaning may-doni bir joy miqdorida olinadi:

MTT larda - 90 o‘rinli bog‘chalarda - 40 m2; 140 - 320 o‘rin uchun-35 m2, 560 va 640 o‘rinli komplekslarda-30 m2; qattiq sovuq iqlimi bo‘lgan joylarda yer maydoni har bir joy uchun 25 m2 gacha qisqartirilishi mumkin.

So‘nggi yillarda aholiga havaskorlik xizmati ko‘rsatishning yangi shakl-larining rivojlanishi, shuningdek, birlamchi maishiy xizmat ko‘rsatish shox-obchalari, mehmonxona tipidagi uy-joylar qoshidagi jamoat binolari va davlat xizmatlari ko‘rsatilayotgan turar-joy majmualari, yangidan quri-layotgan 16 qavatdan 51 qavatli turarjoy binolarining paydo bo‘lishi munosabati bilan yangi turdagi ya’ni: nodavlat, xususiy, oilaviy maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. [3.]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari yaxshi ta’mirlangan maydonga ega bo‘lib, unga quyidagilar kiradi: bolaning jismoniy rivojlanish zonasi, o‘yin zonasi, hissiy rivojlanish zonasi, musiqiy (teatr) zonasi, vizual faoliyat zonasi, o‘yin zonasi, nutqni rivojlantirish zonasi, tabiiy zona, rolli o‘yinlar zonasi, eksperimentlar zonasi va kitob zonasi [3; 7].

Bunday holda, dizaynning individualligi va uning assotsiativ idroki ustunlik qiladi, ular bolalarda ijobiy histuyg‘ularni uyg‘otishi kerak [6].

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini loyihalashda binoning atrof – muhitiga o‘zining arxitekturaviy qiyofasi va kompozitsion yechimi arxitektura-reja-lashtirish yechimlari sifatini oshirish alohida ahamiyatga egadir. Shu sababli Bolalar bog‘chasini loyihalashda shahar va qishloq xududlaridagi aholiga xizmat ko‘rsatish radiuslarini e’tiborga olish zarur. Bu nafaqat shahar va qishloqlar muhitida qulaylik yaratishga yordam beradi, balki himoyalangan maydonni yaratish muammosini ham e’tiborga olish zarur. [6].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.-T., 2022.
2. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих
3. Покрытий В Пк Лира. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.
4. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОИЙ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 142-146.
5. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN
6. GRUNTLARINING O’ZARO TA’SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.
7. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND
8. ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.
9. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ
10. ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 77-81.
11. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И
12. КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 197-206.
13. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ
14. ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(5), 73-76.
15. THE CITY OF TERMEZ DURING THE REIGN OF
16. AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS (First name of
17. Termez) Ro’ziboboyev.A.A shovqindan himoya qilishning chora-tadbirlari
18. arxitekturaviy tarxiy uslublar
19. OLD TERMEZ IN HISTORICAL SOURCES (XIXE-ARLY XX CENTURIES) Ro’ziboboyev.A.A Akilova K. “O’zbekistonda dizaynning rivojlanish istiqbollari” Toshkent. 2006 y. (Respublika ilmiy-nazariy anjumani tezislar to’plami).
20. UMUM TA’LIM MAKTABLARNING INOVATSION TA’LIM TIZIMI ASOSIDA TASHKILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI (O’zbekiston miqyosida arxitekturaviy loyihalash asosida) Ro’ziboboyev.A.A
21. Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 463-466.

22. Bozorqulov, S., Ro'ziboboyev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARXITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.
23. Yusufovich, J. N. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON ARXITEKTURASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(5), 235-243.
24. Nurullo o'g'li, A. S. (2025). SHAHARSOZLIKDA "SMART CITY" KONSEPSIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(5), 244-254.
25. Xolmurzayevich, A. S. (2025). O'SIMLIKLAR BILAN QO'LLANILADIGAN MO'JAZ ARXITEKTURA FORMALARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 64(5), 230-234.

БУДУЩЕЕ КАМПУСОВ: ПРОГНОЗ РАЗВИТИЯ

Рахимов Ш.К., Облакулова Б.
магистранты СамГАСУ

Аннотация Современные университетские кампусы находятся на пороге трансформации, вызванной цифровыми технологиями, изменением образовательных подходов и социальными тенденциями. В статье рассматриваются перспективы развития кампусов, включая внедрение гибридных образовательных пространств, цифровизацию управления и устойчивые экологические решения. Анализируются мировые примеры инновационных кампусов, а также возможные модели их развития в ближайшие десятилетия.

Ключевые слова: кампус, умные технологии, цифровая трансформация, гибридное обучение, устойчивое развитие, урбанистика, будущее образования.

Yashil zonalarni kengaytirish: urbanistik landshaftda ekologik muvozanat asosi. Yashil zonalar zamonaviy shahar arxitekturasida nafaqat estetik, balki ekologik, ijtimoiy va salomatlik bilan bog‘liq ko‘plab funksiyalarni bajarayotgan strategik muhitlardir. Urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi va tabiiy hududlarning qisqarishi fonida yashil maydonlarni kengaytirish ekologik me’morchilikning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Parklar, bog‘lar, yashil tomlar, ichki hovlilarda landshaft dizayni, shuningdek, vertikal bog‘lar kabi innovatsion yechimlar yordamida sun’iy urban muhitda tabiiy ekotizimlarni qayta tiklash mumkin. Yashil zonalar havodagi karbonat gazini yutadi, shovqinni kamaytiradi, havo namligini me’yorlashtiradi va issiqlik oroli effektining oldini oladi. Bundan tashqari, yashil hududlar inson salomatligi va psixologik farovonligi uchun ham muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil makonlarga yaqin yashovchi insonlarda stress darajasi pastroq bo‘ladi, ijtimoiy faollik esa yuqoriroq bo‘ladi. Shu sababli ekologik me’morchilikda inson va tabiat o‘rtasida jonli aloqani tiklash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Yashil zonalarni kengaytirish shuningdek, yomg‘ir suvlarini tabiiy

usulda shimdirish (infiltratsiya) orqali suv toshqinlarining oldini olish, mahalliy bioxilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash va mikroiqlimni sog‘lomlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, Singapur shahrida har bir yangi bino loyiha bosqichidanoq yashil maydonlar yoki yashil tomlar bilan integratsiyalashgan holda rejalashtiriladi. Bu yondashuv shaharning “yashil metropol” maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, yashil zonalarni kengaytirish — bu shunchaki manzara bezagi emas, balki shahar ekologik barqarorligining tayanch ustuni hisoblanadi. U inson salomatligi, tabiat va texnologiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shahar iqlimiga moslashuv: arxitekturada kontekstual yondashuvning kuchi. Ekologik me’morchilikda har bir bino o‘zining tabiiy va iqlimiy muhitiga mos bo‘lishi zarur. Bu yondashuv “bir qolipdagi” dizayn g‘oyalari o‘rniga, mahalliy sharoit va tabiiy resurslarga tayanuvchi individual me’moriy echimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shahar iqlimiga moslashuv — bu nafaqat energiya tejash, balki binoning ekologik chidamliligini oshirish, foydalanuvchi uchun qulay va sog‘lom muhit yaratish deganidir. Turli mintaqalarda quyosh radiatsiyasi, shamol yo‘nalishlari, harorat farqlari va namlik darajasi o‘ziga xos bo‘lganligi sababli, me’moriy yechimlar ham ularga mos ravishda shakllanishi lozim. Masalan, issiq iqlimli hududlarda janubiy tomonga qaragan derazalar, soya beruvchi balkonlar va ustunli ayvonlar yordamida quyoshning ortiqcha ta’sirini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, tabiiy yorug‘likni maksimal darajada ushlab qolish orqali sun’iy yoritishga bo‘lgan ehtiyoj ham kamayadi. Shamolli mintaqalarda esa kross-ventilyatsiya — ya’ni binoning ikki tomonidagi ochiq zonalar orqali havo oqimlarini tashkil qilish — orqali qo‘shimcha sovitish tizimlarisiz tabiiy salqinlik ta’minlanadi. Bu, ayniqsa, elektr energiyasi iste’molini sezilarli darajada kamaytiradi. Iqlimga mos qoplama materiallari tanlovi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, shimoliy sovuq mintaqalarda issiqlikni tutib turuvchi materiallar (masalan, yog‘och va izolyatsiyalangan panellar) ishlatilsa, cho‘l yoki yarim cho‘l zonalarda issiqlikni qayt qiluvchi, yorug‘likni aks ettiruvchi materiallar ustuvor bo‘ladi. Yaponiyaning traditsion “engawa” (soyabonli balkon) arxitekturasi, Hindistonning ichki hovli asosidagi dizaynlari yoki Marokashdagi tor, soya bilan to‘ldirilgan ko‘chalar — barchasi iqlimga uyg‘un tarzda shakllangan arxitektura namunalaridir. Bu misollar ekologik me’morchilikda geografik va madaniy kontekstni inobatga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ochiqlik va moslashuvchanlik: arxitekturada dinamik muvozanat tamoyili. Zamonaviy hayot sur’atlarining tezlashuvi, texnologik yangiliklar, ijtimoiy va demografik o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, binolar endilikda faqat statik inshootlar bo‘lishi yetarli emas. Ular o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslasha oladigan, funksional jihatdan qayta konfiguratsiya qilinadigan va foydalanuvchilarning turli talablariga mos yechimlarni taklif qila oladigan dinamik tuzilmalar bo‘lishi kerak. Aynan mana shu tamoyil ekologik me’morchilikda ochiqlik va moslashuvchanlik g‘oyasi orqali o‘z aksini topadi. Moslashuvchan rejalashtirish binoning funksiyasini vaqt o‘tishi bilan o‘zgartirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ko‘p funksiyali (mixed-use) binolar, jamoat inshootlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari uchun nihoyatda dolzarbdir. Masalan, bir vaqtning o‘zida konferensiyalar, ijodiy ustaxonalar yoki ofislar uchun xizmat qiladigan modul asosidagi interyerlar keyinchalik osonlik bilan turar-joy, kutubxona yoki ko‘rgazma zallariga aylantirilishi mumkin. Ochiqlik — bu faqatgina fizik makon ochiqligi emas, balki arxitekturaning jamiyat bilan muloqotga kirishish qobiliyatidir. Bu turdagi binolar mahalliy hamjamiyat ehtiyojlariga moslashadi, jamoaviy foydalanishga ochiq bo‘ladi, hamda ijtimoiy inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday yechimlar urban muhitda barqarorlik bilan bir qatorda ijtimoiy harakatchanlikni ham ta’minlaydi. Moslashuvchanlik tamoyili nafaqat funksional, balki ekologik barqarorlik bilan ham chambarchas bog‘liq. Qayta foydalanish mumkin bo‘lgan konstruktiv elementlar, ko‘chma devorlar, oson yangilanadigan interyer detallaridan foydalanish orqali chiqindilar hajmi kamayadi va resurslar tejab foydalaniladi. Bu esa atrof-muhitga bo‘lgan yukni yengillashtiradi. Dunyo arxitekturasida bunday yondashuvga yorqin misollardan biri — Parijdagi “Le Grand Plateau” loyihasi bo‘lib, u turli davrlarda madaniy markaz, sport zali, kutubxona va ofis binosi sifatida qayta ishlatilgan. Uning asosiy siri — moslashuvchan konstruktsiya va ochiq makon printsipida yotadi.

Transport bilan integratsiya: harakatchanlik va ekologiya uyg‘unligi. Barqaror shaharsozlik va ekologik me’morchilik bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Bu ikki yo‘nalish orasidagi eng muhim bog‘lovchi halqalardan biri — bu transport tizimi bilan integratsiya tamoyilidir. Urban makonlarda transport infratuzilmasi qanday tashkil etilishi, binolarning joylashuvi va ularning harakatchanlikka ta’siri ekologik yuk miqdorini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy ekologik arxitektura binolarni jamoat transporti yo‘nalishlariga, piyodalar yo‘laklari, velosiped infratuzilmasi va ko‘p funksiyali transport uzellari (mobility hubs) yaqinida joylashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali xususiy avtomobillarga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, shahar tirbandligi pasayadi

va atmosferaga chiqariladigan karbonat chiqindilarining miqdori sezilarli darajada qisqaradi. Shuningdek, transport bilan integratsiyalashgan binolar foydalanuvchilar uchun foydalanish qulayligini, vaqt tejalishini va sog‘lom turmush tarzini ta’minlaydi. Piyodalar va velosipedchilar uchun qulay muhit yaratish, yoritilgan va xavfsiz yo‘laklar, velostoykalar va dush xonalari kabi qulayliklar ish joylari va yashash hududlarini yanada jozibador qiladi. Ko‘plab ilg‘or loyihalarda binolar shunchaki transport infratuzilmasiga yaqin emas, balki uning faol elementi sifatida ko‘riladi. Masalan, Koppenhagen shahrida barpo etilgan ko‘plab ofis va turar-joy binolari bir vaqtning o‘zida velosiped yo‘llari bilan birga loyihalashtirilgan bo‘lib, bu shaharning dunyodagi eng velosipedchilar uchun qulay megapolislardan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, “yo‘l bilan emas, inson bilan muloqot qiladigan arxitektura” prinsipi ham aynan shu nuqtada o‘z aksini topadi. Binolar nafaqat jismoniy jihatdan qulay joylashgan bo‘lishi, balki jamiyatni birlashtiruvchi va barqaror harakatni rag‘batlantiruvchi omilga aylanishi kerak.

Ijtimoiy barqarorlik va inklyuzivlik: adolatli muhit sari arxitektura. Barqaror me’morchilikning chin ma’nodagi muvaffaqiyati faqat ekologik yoki texnologik yutuqlar bilan emas, balki ijtimoiy inklyuzivlik va tenglik bilan ham o‘lchanadi. Ekologik me’morchilik inson va jamiyat manfaatlarini markazga qo‘ygan holda, har kim uchun ochiq, xavfsiz, qulay va adolatli arxitektura yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Ijtimoiy barqarorlik bu — arxitektura orqali jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, fuqarolar o‘rtasida teng imkoniyatlar yaratish va urban muhitda ijtimoiy muvozanatni ta’minlashdir. Bunday yondashuv, bir tomondan, jamiyatdagi har bir guruh — bolalar, keksalar, nogironligi bor shaxslar, kam ta’minlangan aholining ehtiyojlarini inobatga oladi; boshqa tomondan esa jamoaviy fazolar, ko‘p funksiyali joylar va inklyuziv dizayn yechimlari orqali ular o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

To‘siqsiz muhit yaratish ekologik arxitekturaning muhim talablaridan biridir. Nogironligi bor insonlar uchun panduslar, keng eshiklar, maxsus liftlar, taktil yo‘lakchalar, ovozli navigatsiyalar va boshqa universal dizayn elementlari orqali har kim uchun teng harakatlanish imkoniyati yaratiladi. Bu nafaqat qonunchilik talablariga javob beradi, balki inson qadr-qimmatini e’tirof etgan holda jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini shakllantiradi.

Shuningdek, ekologik me’morchilik orqali ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish — ya’ni maktablar, sog‘liqni saqlash muassasalari, jamoaviy markazlar, kutubxonalar va ko‘ngilochar hududlarni barqaror, xavfsiz va hammaga ochiq tarzda tashkil etish — urbanizatsiyaning ijobiy yo‘nalishda kechishini ta’minlaydi.

Yevropaning ko‘plab shaharlarida, masalan, Kopengagendagi “8 House” loyihasi, bu tamoyilni amalda namoyon etadi. Ushbu loyiha turar-joy, ofis, do‘konlar va umumiy jamoat makonlarini nogironlar aravachasida harakatlanish mumkin bo‘lgan ochiq yo‘laklar orqali bog‘lagan holda, to‘siqsiz va ijtimoiy jihatdan uyg‘un muhitni yaratgan.

Ekologik me’morchilik – bu faqat qurilish texnologiyasi emas, balki inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik falsafasidir. Ushbu tamoyillar asosida barpo etilgan binolar va shaharlar nafaqat ekologik jihatdan barqaror bo‘ladi, balki kelajak avlodlar uchun sog‘lom, qulay va ijtimoiy adolatli muhit yaratadi.

Adabiyotlar

1. Андреев, А. И., Климова, О. М. (2020). *Экологическая архитектура и устойчивое градостроительство*. Издательство «Наука».
2. *Ковалёв, И. В. (2020). Экоархитектура как фактор устойчивого развития города. Москва: Издательство МГСУ.*
3. *Gibson, R. B. (2020).* The Sustainable Urban Development Reader. *Routledge.*
4. *Kibert, C. J., & Thormann, D. (2021).* Green Building and Sustainable Architecture: The Role of Renewable Energy. *Springer.*
5. *Evans, S., & Thomas, G. (2018).* Urban Planning and Sustainable Development: Global Perspectives. *Wiley-Blackwell.*
6. *Sullivan, W. C., & Gerrard, K. (2017).* Eco-Architecture: The Harmonious Integration of Nature and Architecture. *Architectural Press.*
7. *Baker, C., & Turner, D. (2019).* Sustainable Urbanism: A Global Perspective. *Routledge.*

SHAHARSOZLIKDA KO‘KALAMZORLASHTIRISHNING O‘RNI

Toshtemirov Bobur Rovanovich
SamDAQU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo‘llar, bino va inshootlar muhiti, ochiq maydonlarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari haqidagi fikrdar maqolada bayon etilgan. Shuningdek, aholi turar joylari – shaharlar, tumanlar, qishloq va posyolkalarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari haqidagi katta tajriba va asosiy vazifalar qisman ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simlik, daraxt, suv, shahar, aholi, landshaft, iqlim.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlarida aholi yashash hududlarini obodonlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo‘yicha parvarishlashni tadbiq etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi [1].

Ayni paytda, shaharsozlikdagi asosiy muammolardan biri – ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishdir.

Aholi turar joylari – shaharlar, tumanlar, qishloq va posyolkalarni ko‘kalamzorlashtirish – bu joylarni obodonlashtirishning asosiy vositalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘kalamzorlashtirish ko‘lami – aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ko‘kalamzorlashgan hududlarga aholi kelib muhim joylashadi, hamda bu joylardan ko‘chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi.

O‘zbekiston kam o‘rmonli mamlakat, shu sababdan yashil o‘simliklar bu yerdagi tabiat ko‘rinishini belgilaydi. Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo‘llar, irrigatsiya inshootlari, suv omborlarini ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng ko‘lamda olib boriladi. Ihota va tog‘ meliorativ o‘rmonchilik ulkan ahamiyatga ega, chunki suv, havo va tuproqni muhofazalashda o‘rmonning o‘rni beqiyosdir [5].

O‘zbekistonda mavjud ko‘kalamzorlashtirish materiallari assortimenti cheklangan bo‘lib, uni ko‘paytirish va yaxshilash muhimdir. Ko‘chatxonalarda noyob, har qaerdan olib kelingan o‘simliklarni ekish va ko‘paytirish yaramaydi. Shaharlarda ekishga mos bo‘lgan, chidamli va ko‘p yillik, qimmatli manzarali daraxtlardan *jo‘ka*, *kashtan*, *eman*, *chinor*lar, *yavor zarangi*, *o‘tkir bargli zarang*, *lola daraxti*, *katalpa*, *ryabina*, *grab*, ninabarglilar turlarini ekishga alohida e’tiborni qaratmoq lozim deb hisoblaymiz.

Tez o‘suvchi daraxt turlaridan *terak* turlari, *oq qayin*, *tollar*, ayniqsa, *majnuntol*, janubiy viloyatlar uchun esa *safora*, *gledichiya*, *oq akatsiya*, *bunduk*, *aylant*, *yashil zarang*, *chinor* va boshqalar diqqatga sazovordir. Shaharlar va turar joy massivlarini bezatishda, monumental ko‘kalamzorlashtirishda ko‘pgina manzarali shaklga ega bo‘lgan: piramidasimon, sharsimon, shoxlari osilib turuvchi (majnuntolsimon), ustunsimon, yaproqbargli va boshqalar katta ahamiyatga ega. Shuningdek, shaharlar, posyolkalar, turar joylar, mahallalar va qishloq aholi punktlarini bezatishlar, ularga chiroyli va shinam ko‘rk berishda yorqin ranglarda gullaydigan butalar: spireya, jimolost, jasmin, nastarin (сирен), deysiya, kizilnik, tamarikslar, forzitsiyalar, biryuchina, sariq akatsiya, zarg‘aldoq (золотистая) smorodina va boshqalarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu va ko‘pgina butalarning bebaho sifati shundaki, ular nafaqat tez o‘suvchi va shaharning o‘ziga xos ekologik sharoitlariga moslashuvchanligi bilan, balki juda manzaraliligi bilan ahamiyatlidir [4].

Ko‘kalamzorlashtirish sohasi oldidagi vazifalarni yechishda, avvalo, o‘simlik turlarini ko‘paytirishda va ko‘chatxonalarda yetishtiriladigan mahsulotlar (o‘simliklar, ko‘chatlar) sifatini yaxshilashda hozirda mavjud bo‘lgan o‘simliklarning boy dendrologik fondidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy shahar yoki boshqa aholi yashash joylari – bu turli binolar, ko‘p sonli muhandislik inshootlari, yo‘llar, maydonlar, ochiq joylar, suv havzalari va yashil ekinzorlarning murakkab kompleksidir. Shaharsozlik me’yorlariga ko‘ra, aholi yashash joylari hududlarining 50% dan kam bo‘lmagan qismi ko‘kalamzorlashtirish ob’ektlariga ajratilishi kerak (1-rasm).

Shaharsozlikdagi katta tajriba shuni ko‘rsatadiki, asosiy vazifalardan biri –tabiiy va sun’iy yaratilgan muhit o‘rtasida ma’lum muvozanat va garmonik ravishda uyg‘unlashuviga erishish, barcha ko‘kalamzorlashtirish ob’ektlarining o‘zaro bog‘liqligi va yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi.

1-pasm. Aholi yashash joylari hududlarining ko‘kalamzorlashtirilishi

Bog‘ hiyobonlarini yaratish san’atining muhim jihati – ularni tashkil etishda yashil daraxtlarning tabiiy o‘sgan xududlarini hamda badiiy ijod namunalarini bir tizimga birlashtirib, uyg‘unlashtirishdan iborat.

Yashil qurilish – uzoq vaqtni talab etadigan, yaratish texnologiyasi bo‘yicha murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, bir qancha ishlab chiqarish masalalarini yechish va tadbiq etish bilan bog‘liqdir. Yashil qurilish amaliyoti:

bog‘ va hiyobonlarni yaratish;

u yoki bu aholi yashash joylarini obodonlashtirish;

har xil tuproq-iqlim sharoitiga mos bo‘lgan o‘simliklarni tanlash;

arxitektura-qurilish inshootlari, suv havzalari, yo‘llar, maydonchalar, kichik arxitektura shakllariga mos ravishda o‘simliklarni joylashtirish va guruhlash;

o‘simliklarni ekib parvarish qilish ishlarini o‘z ichiga oladi [3].

Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan o‘simlik turlarini, daraxt-buta ekinlarining, manzarabop, biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish, yashil qurilishda kompozisiyalar tuzishdagi asosiy uslublar bilan tanishish, aholi turar joylarini ko‘kalamzorlashtirish tizimi, uni loyihalashtirish, hamda O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarida ko‘kalamzorlashtirish lozim bo‘lgan xududlarda olib boriladigan asosiy ishlar ko‘lamini bajarishni o‘rganishga yordam beradi [2]. Binolar devorlarini to‘sadigan, baland bo‘yli, qalin gorizontal birikib o‘sgan, pastki qismidan shamol yuradigan yashil ekinlar (daraxtlar) issiqdan yaxshi himoyalaydi (2-rasm).



2-rasm. Issiqdan himoyalash usullari

Quyosh nuri ta’sirida o‘simlik barglari isib ketadi. Soyadagi barglar harorati atrof muhit haroratidan past bo‘ladi, chunki ularda (barg plastinkalarida, yaproqlarda) bug‘lanish darajasi yuqori. Misol uchun, katta yoshdagi daraxt barglari sathi bir kunda 300 litrgacha suvni bug‘lantirishi mumkin. Jadal bug‘lanish jarayoni natijasida daraxt yuzasida va atrofida sovutish effekti yuzaga keladi. Yaproq bargli daraxt turlari (eman, jo‘ka, katalpa) ning suvni bug‘lantirish xususiyatlari yuqori, och tusli, jimjimador bargli daraxtlar esa (gledichiya, jiyda va b.) suvni kamroq bug‘lantiradi.

Daraxt va butalar havoning namlik darajasini oshirib, inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Havo namligining 15% ga oshishi, haroratning 3,50S gacha pasayishini ta’minlaydi. Daraxtlarning bug‘lantirish sathining hajmi, ular egallagan maydon yuzasidan 20 baravar ortiq bo‘ladi. 1 gektar maydondagi o‘rmondan o‘suv davri davomida 3 mln kg gacha namlik bug‘lanadi. Yilning quruq mavsumida yashil ekinzorlar orasida havoning namligi ochiq maydondagiga nisbatan 4-7% yuqori bo‘ladi; namgarchilik mavsumida esa – namlik darajasi pasayadi, chunki havo quruqlashganida barglarda bug‘latish kuchayadi, va aksincha, nam havoda barglar suvni o‘ziga tortib oladi. Daraxtzorlar ular orasidan o‘tadigan shamol tezligini 3 marta pasaytiradi.

Shamol kuchli esadigan hududlarda buning himoyaviy ahamiyati katta. Yashil massivlar ostidagi va atrofidagi ochiq maydonlarda havo haroratining o‘zgarish xususiyatlarini dam olish maydonchalarini rejalashtirishda hisobga olish zarur. Daraxtlarni ixcham massivlarda qalin o‘tlar bilan qoplangan yalanglik bilan uyg‘unlikda joylashtirilganida eng yaxshi mikroiqlim sharoitlari vujudga keladi.

Adabiëtlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil ətish qoidalarini tasdiqlash” to‘g‘risida. Toshkent sh. 2009 yil 9 mart, 59-son.

2. Qayimov, A. (2012). Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. *Toshkent.: Fan va texnologiya*, *124*.

3. Abdullayeva, M. T. L., & Usmonova, T. (2022). ‘‘YASHIL MAKON’’UMUMMILLIY LOYIHANI AMALGA OSHIRILISHIDA MANZARALI O’SIMLIKLA-RINING O’RNI. *International scientific journal of Biruni*, *1*(2), 144-151.

4. Babajanov, A. R., Muqumov, A. M., & Sharipov, S. R. HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH.

5. МУКУМОВ, И., & НИГМАТУЛЛАЕВ, А. Феруза ДЖУМАНИЁЗОВА. *https://science. nuu. uz*.

SHAHARSOZLIKDA ME'MORIY SHAKLLAR KOMPOZITSIYASI

Toshtemirov Bobur Rovanovich
SamDAQU o'qituvchisi

Annotatsiya: Me'moriy shakllar kompozitsiyasini mahsulot yoki ob'ekt strukturasining ifodasi deb tushunish mumkin. U mahsulotga yoki mahsulotlar kompleksiga qo'yiladigan, o'z vazifasiga, texnik xarakteristikasiga estetik, texnologik va ergonomik kabi talablar mos bo'lishi lozim. Mahsulotlarning formasiga ta'sir qiladigan shart-sharoitlarning xilma-xilligi uning murakkab strukturasini oldindan belgilaydi.

Kalit so'zlar: dizayn, arxitektura, shakl, kompozitsiya, estetika, struktura, funksiya.

Zamonaviy shaharni jamoat joylari, yashil hududlar va obodonlashtirilgan hududlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ularda biz qulaylik yaratish, shahar infratuzilmasini yaxshilash va hududning estetik jozibadorligini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan elementlarga duch kelamiz. Qisqacha KMSH deb ataladigan kichik me'moriy shakllar: ko'cha mebellari, lampalar, bolalar o'yin majmualari, to'siqlar - shahar muhitining ajralmas qismidir. Kichkina me'moriy shakllar sof funktsional yoki estetik bo'lishi mumkin, ammo zamonaviy tendentsiya dekorativ va utilitar komponentlarni birlashtirishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik me'moriy shakllar shaharlarning jozibadorligini oshirib, ularning o'ziga xos xususiyati va jozibadorligini ta'kidlab, shahar madaniyatining timsoli va katalizatoriga aylanishi mumkin. Ko'kalamzorlashtirish uchun ideal echim sayyohlar uchun noyob individual imidjni yaratishga imkon beradi, lekin ayni paytda mahalliy aholi uchun zarur qulaylik darajasini ta'minlaydi.

KMSH bo'yicha Nyu-York - tez sur'atda, faol shahar hisoblanadi. Uning High Line Parki shahar bulvarining yangi turidir. Sobiq yer usti temir yo'li o'rnida yer sathidan 10 metr balandlikda istirohat bog'ini tashkil etishning noan'anaviy yechimi mavjud mahallalar hududini ko'kalamzorlashtirish imkonini berdi [3]. Park obodonlashtirish elementlari va uning kelib chiqishini ta'kidlaydigan materiallar bilan to'ldirilgan - qo'pol metall, relslarning parchalari, shpallarni eslatuvchi oddiy skameykalar asosiy elementlardandir (1-rasm). Kichik me'moriy shakllarning batafsil rivojlanishi bizga joyning ruhini saqlab qolish va uning individualligini ta'kidlash, uni yangi elementlar bilan shakllantirish, shahar aholisiga yangi dam olish muhitini berish imkonini berdi.

Arxitekturada ham dizaynda ham shakllar uch xil farqlanadi: inson manfaatdorlik talablariga mo'ljallangan funksionallik; ashyolar va konstruksiyalarning moddiy va mexanik xususiyligidan oqilona foydalanishni talab qiladigan konstruktivlik; go'zal va badiiy ifodalilik talablariga javob beradigan estetik jihatdan yetuk buyumlarning mavjudligi. Shakl, ana shunday bosqichlarni, arxitektura-dizayn shakllari, mebellar va jixozlar va hokazolarni loyihalash jarayonida bosib o'tadi [1].

Har qanday moddiy jism shakli bevosita qator xususiylik tomonlariga ega bo'ladi. Bular hajmiylik, fazoviylik, fazoda o'ziga xos joylashishi, vazminlik alomati, mustahkamligi, zichligi kabilardir. Jism formalarining bunday ob'ektiv xususiyatlari ma'lum sharoitda kompozitsiya qonuniyatlarini mujassamlashtiruvchi omil hamdir. Kompozitsiya barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'lgan, yaxlit qurilgan asardir. Kompozitsiyaning muhim forma hosil qiluvchi kategoriyalari yoki vositalari hajmiy fazoviy struktura, masshtab va proporsiyalar, ritm va metr, kontrast va nyuans, simmetriya va assimmetriya kabilardan iborat. Kompozitsiya qonuniyatlarini ilmiy abstraksiya deyish mumkin [2]. Chunki badiiy asar kompozitsiyasi hech qachon tayyor holda bo'lmaydi. Barcha yaratiladigan badiiy asar abstrakt fikrlash jarayonida shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, kompozitsion majmuaning yaxlitlanish jarayonida tajribaning ishtiroki katta bo'ladi. Mavhum abstrakt forma albatta mavjud formalar negizida yangicha shakllanadi. Ijodning ilmiylik bilan yonma-yon borishi, ya'ni hissiylik bilan ilmiylik, abstrakt va empirik fikrlash asosida sodir bo'ladi. Go'zal jismlar muhitining barqaror shakllanishi va rivojlanishi tizimini yaratilish metodlari va uslublarini xar tarixiy davra formalar stilini turlanib borishida kuzatish mumkin. Insoniyatning mafkuraviy qarashlari murakkab evolyusion rivojiga ega. Formalar shakllanishi, jismlar dunyosining hozirgi kungacha turli dunyoqarashlar nazdidagi rivojiga tahlillaganda o'z vaqtida progressiv hisoblangan. Ammo bugungi kun dizaynini, o'tmish bilan taqqoslaganda u naqadar insonparvar g'oyalarga boy ekanligining guvohi bo'lasiz [4].

Ishlab chiqarish sanoatining turli mahsulotlari kompozitsion tuzilishining o'ziga xosligi, (spesifikasi) unga belgilangan maqsadga mosligi, qanday ashyodan yasalganligi hamda uning strukturasini belgilovchi konstruktiv sxemasiga bog'liqdir. Buyum va jihozlarning kompozitsion yechimi estetik,

funksionallik, texnik-tejamkorlik kabi talablarga moslanishiga ham bog‘lik bo‘lib, qulayligi va formasining go‘zalligi kabi sifatlari bilan insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi lozim. Hozirgi zamon olimlari, musavvir va konstruktorlari kompozitsiya yaratish borasida uzoq vaqtlar mobaynida to‘plangan tarixiy malaka va bilimlarga tayanadilar.

1-rasm. High Line Parki. Nyu York.

Arxitektura va texnik estetikaning bir-biriga bog‘likligi tabiiy jarayondir. Chunki bularning har ikkalasi ham fan va san’atning hamkorona uyg‘unligiga tayangan holda yuzaga kelgan. Fanning yo‘nalishi o‘ziga xos, shuningdek san’at ham o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lib ular o‘zaro hamohangdir. Fan bu formula, aniqlikni talab qilsa san’at esa o‘zida bir mazmun kasb etgan hissiylikni, obrazlilikni talab qiladi. Inson tafakkurining bunday mahsullari arxitektura va texnika estetikasini yuzaga keltirdi [5].

Taniqli fransuz yozuvchisi G.Flober - san’at qancha chuqurlashsa u ilmiylashaveradi, fan esa badiiylashib boradi, ular keyinchalik o‘z makonlaridan uzoqlashib bir-biridan ajralishadi va qachondir eng yuqorida, yuksaklikda birlashadilar. Arxitektura sohasida fan va san’atning bunday uchrashuvi ilk bor uning ibtido «poydevori»da qisman sodir bo‘lgan bo‘lsa texnika estetikasida esa bugungi kunda sodir bo‘lmoqda. Bu ikki metod mantiqiylik va qissiylik, ya’ni fan va san’atning hamohangligiga erishish asosiy masaladir-degan edi. Bugungi kunda arxitektura ham, texnika estetikasining rivoji ham aynan fan va san’atning omo‘xtaligida sodir bo‘lmoqda. Kompozitsiya asoslarini rivojlanishida tabiat va sanoat texnikasidagi forma shakllanishi jarayoni muhim ilmiy faktordir. Tabiatdagi formalarning shakllanish prinsiplarini inson tomonidan kuzatilishi va ularni o‘rganish ijodini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Bugungi kunda inson ehtiyojlari uchun eng zarur bo‘lgan mahsulotlarning xajmiy-fazoviy strukturalari keng rivoj topgan. Bular: arxitektura ob’ektlari shakllari, ishlab chiqarish jihozlari, mebellar va hokazo. Uch o‘lchamli jism (buyum) yaratishda rassom konstruktor, dastgohli rangtasvirchi rassom kabi chiziqlar va xilma-xil tekisliklar yordamida emas, balki u ob’yomli, hajmlar va fazoviylik orqali fikrlaydi. Bu jarayonda rassom-konstruktordan kompozitsiya uslublarini egallagan bo‘lishi va yaratayotgan buyumning mexanik, fizik, kimyoviy xususiyatlaridan kerakligicha foydalana olishi talab qilinadi.

Zamonaviy shahar me'morchiligida kichik me'moriy shakllar muhim o'rin tutadi. Nafaqat bezak elementlari, balki kichik arxitektura shakllari shahar infratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Ular shahar qiyofasini yaxshilaydi, uning funksionalligi va qulayligini boyitadi. Yaxshilash loyihalarini yaratishda me'morlar va dizaynerlar ko'pincha tayyor kichik me'moriy shakllardan foydalanadilar. Shunga qaramay, kichik me'moriy shakllarni yaratish me'morlar uchun katta qiziqish uyg'otadi, chunki ular o'zlarining ijodiy salohiyatini namoyish etish imkonini beradi va noyob shahar makonlarini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Kichik me'moriy shakllarni loyihalash funktsional, estetik va amaliy jihatlarni hisobga olishni talab qiladi, bu esa bu ishni hayajonli va mazmunli qiladi. Kichik me'moriy shakllarni amalga oshirish uchun nisbatan kichik byudjet me'morlar va dizaynerlarga eng jasur g'oyalarni hayotga tatbiq etish imkonini beradi va yirik me'moriy majmualardan nisbatan avtonomiya ularga mustaqil san'at asarlari sifatida ishlash imkonini beradi.

Kichik me'moriy shakllar arxitektura fantaziyalari maydoni bo'lgan yirik qurilish loyihalari uchun juda ambitsiyali yoki xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan shakllar bilan tajriba o'tkazish imkoniyatini beradi. Arxitektorlar kichik arxitektura shakllarining funksionalligi sohasida yangi g'oyalarni amalga oshirishlari mumkin, kelajakdagi obodonlashtirish loyihalarida keng talab qilinadigan innovatsion echimlarni yaratishlari mumkin.

Forma tuzilmasi, bu nazariy tushuncha bo‘lib formalarning shakllanishlarini, badiiy konstruksiyalash prinsipi va metodlarini, o‘rganuvchi ishlab-chiqarish mahsulotlarini optimal formalarini yaratishda funksionallik texnika-ekonomik, kompozitsion-estetik talabalarga javob beruvchi nazariy fan sohasidir. Badiiy konstruksiyalashdagi forma shakllanish mashinalar tektonikasi, kombinatorika, texnika kabi tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. Лазарев Е.Н. Дизайн: от формы вещи до духа cheловека // Дизайн длуа всех. Алманах, 2012, № 1.

2. Кринский В.Ф., Ламйов И.В., Туркус М.А. Элементы архитектурно-пространственной композиции. - М.: Стройиздат, 2016.

3. Шимко В.Т. Архитектурно - дизайнерское проектирование. Основы теории. М. Архитектура - С. 2014.

4. Корвуакова С. М., Корвуакова О. Ya. Эволуциуа малых архитектурных форм (МАФ) как об’ектов градостроителной среды в России с XVIII до нachала XXI веков (3 chасти, 2-уа chаст) //наука россии: цели и задachи. – 2020. – С. 36-51.

5. Yusupov S. XIV–XV asrlarda orolbo‘yi, xorazm shaharsozlik madaniyati taraqqiyotining natijalari //вестник каракалпакского государственного университета имени бердаха. – 2024. – т. 64. – №. 1. – с. 194-197.

YASHIL TOMLARNING KATTA SHAHARLAR BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O’RNI

Usmonova Gulrux Farxad qizi
Buxoro davlat texnika universiteti, “Arxitektura” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Maqolada katta shaharlarda yashil tomlarni qo'llashning barqaror rivojlanishga ta'siri muhokama qilinadi. Yashil tomlarning iqlim o'zgarishiga moslashish, havo sifatini yaxshilash, energiya tejash, bioxilma-xillikni oshirish va shaharlarni estetik jihatdan jozibador qilish kabi afzalliklari ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada yashil tomlarni qo'llashning amaliy jihatlari, jumladan, texnik jihatlar, moliyaviy jihatlar, qonunchilik va me'yorlar, jamoatchilikni jalb qilish va xabardor qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: ko’kalamzorlashtirilganlik darajasi, ekstensiv ko’kalamzorlashtirish, intensiv ko’kalamzorlashtirish, me’yoriy ko’kalamzorlashtirilganlik, urbanizatsiya, ekologik bararorlik, energiya tejamkorlik, bioxilma-xillik.

Kirish. Zamonaviy arxitektura loyihalari doimo jamiyatdagi global muammolarni inobatga olib bajarilishi kerak. Bugungi kunda rivojlangan megapolislarning bunyod etilishi bilan amalga oshirilayotgan shaharlardagi tiqis qurilishlar, binolarning balandlashib, tabiatdan uzoqlashib borishi yangi muammolarni keltirib chiqardi. Oxirgi yillardagi O’zbekiston hududida bahor va kuz oylarida ko’p miqdordagi yog’ingarchilik kuzatilishi natijasida binolar yerto’lalaring, yo’llarning suvga to’lishi kelajakda ushbu ekologik hodisa arxitektorlar oldiga bino va inshootlarni yog’ingarchilikdan himoyalash vazifasini qo’yadi. Hydromet.uz nashrining xabar berishicha 2023-yilning mart oyida O’zbekistonning janubiy-g’arbiy viloyatlarida bir oy ichida 188 mm yog’ingarchilik bo’lgan. Bu deyarli 3 oylik me’yorni tashkil etadi. Shuningdek yomg’ir davomiyligi ham anomal bo’lgan. Mart oyining 5-kunidan 18-kunigacha deyarli har kuni yog’ingarchilik yog’gan keyin esa biroz tanaffuslar kuzatilgan.Bu esa o’z navbatida binolardagi kanalizatsiya tizimlarining bosim bilan ishlashiga, yo’llar yo’laklar, pastlikda joylashgan turar joylarni suv bosishiga olib keldi. Oxirgi yillarda ro’y berayotgan bu kabi global muammolar arxitektura-qurilish sohasi xodimlari oldiga zamonaviy yechimlar berish vazifasini qo’yadi.

Hozirda ko’pgina rivojlangan Yevropa davlatlari arxitekturasida “yashil tomlar” , “yashil fasadlar” atamalarini tez-tez uchratish mumkin. O’zbekiston hududida ham aynan binolar tepasida yashil tomlarni yaratish bilan yuqoridagi muammolarni kamaytirishimiz mumkin. Yashil tomlardagi grunt qatlamining suv shimish xususiyatlarini oshirish orqali yog’ingarchilik mavsumlarida suv oqava tizimlariga tushadigan yukni kamaytirish bilan birga issiq iqlim sharoitidagi megapolislar uchun ham joy yetishmovchiligi muammosini, shu bilan jamiyat uchun qulay ekologik muhit yaratish masalasini yechamiz. [1] Barqaror urbanizatsiyalashgan shahar drenaj tizimi SUDS (Sustainable Urban Drainage System) tashkilotining ta’kidlashicha ko’kalamzorlashtirilgan tomlar binodan oqib tushadigan yog’ingarchilik miqdorini potensial ravishda kamaytiradi.

Nazariy asos. Zamonaviy psixologiyaga ko’ra inson ruhiyati uni o’rab turgan atrof muxitning yuqori sifat darajasiga, yetarlicha ko’kalamzorlashtirilganligiga, uning ekologik yoqimliligiga hamda ichki muhitning tabiat bilan bog’langanligiga bevosita bog’liq. Shu nuqtai-nazardan, zamonaviy shaharlarda yuzaga kelayotgan bunday muammolar sohaga “yashil arxitektura” elementlarini tadbiq etish bilan bir qadar yechilayotganligini kuzatish mumkin.

Yaqin sharqda tekis tomli binolarda ko’kalamzorliklar tashkil etish qadimdan urfga aylangan. Bunday tadbirlarning vatani Vavilon va Suriya hisoblanadi. Bu mamlakatlarda eramizdan 600 yil oldin bunyod etilgan “Semiramidlarning osma bog’lari” yettinchi mo’jiza sifatida qayd qilingan. Efrat daryosining chap qirg’oqida balandligi 45 metli tepalik qazilib, terrasa va uni suv bilan ta’minlash gidrotexnik inshooti, vodoprovod tizimining topilganligi qadimda shu hududlarda afsonaviy terrasa bog’larining mavjud bo’lganligiga guvohlik bergan.

Terrasa bog’lar zinapoya ko’rinishida piramida shaklida yuqorilab boruvchi tizim shaklida, o’z vaqtida yuklarni asosga tekis taqsimlanishini ta’minlovchi konstruktiv yechim sifatida qurilganligini ko’rish mumkin. Terrasa bog’ ustida undan kichik terrasa bog’, uning ustidan yana kichikroq terrasa bog’ (zinapoya shaklida) qurilib, eng yuqoridagi bog’ yer yuzidan 25 m balanda joy egallagan. Butun bog’ janubga yo’naltirilgan. Maxsus suv ta’minoti tizimi bilan ta’minlangan bunday bog’larda o’simliklar tabiatda qanday joylashgan bo’lsa xuddi shunday: yuqori terrasalarda o’simliklar orasida havoni tozalovchi, namlab turuvchi fontanlar tashkil etilgan, yuqori

terrasalarda tez o'sadigan tog' daraxtlari , pastki terrasalarda sust o'sadigan daraxtlar, o'simliklar joy olgan va ularga tomon fontan suvlari to'siqlardan oshib o'tib tushgan, yig'ilgan va o'z tushish yo'lida muhitni salqinlatgan.

O'tgan asrda arxeologlar tom yopmalar konstruktiv yechimini qayta tiklashgan. Tom yopmalarining kesib tekislangan toshlardan, uning ustidan ikki qator g'isht va namdan muhofazalovchi qo'rg'oshin plitalardan iboratligini aniqlashgan. Plitalar ustidan bitum shimdirilgan qamish, uning ustidan unumdor tuproq to'shalgan. Ustunlar tanasida quvurlarning mavjudligi ular orqali Yefrat daryosi suvi terrasaning eng yuqori sathigacha yetkazib berilganligiga guvohlik beradi. (1-rasm) [2].

1 – rasm. Vavilon osma bog'lari. F.Krisxen rekonstruktsiyasi.

Keyinchalik Yevropada qurilishga temir betonning ixtiro qilinishi va fransiyalik Le Karbyuze va amerikalik F.L. Rayt lar kabi taniqli arxitektorlar va shaharsozlarning kirib kelishi tufayli XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Fransiyada katta yuzadagi tekis tom bog'lari loyihalari yaratildi, bunyod etildi.

Le Korbuzье bog'li tomlarni arxitekturaning zaruriy bir tarkibiy qismiga aylantirib , uning asosida katta bo'lmagan villalardan boshlab yirik turar – joy komplekslari uchun ekspluatatsiya qilinadigan yashillashtirilgan tomlardan foydalanilgan qator loyihalar ishlab chiqdi . Le Karbuzье bilan bir vaqtning o'zida ko'plab boshqa mamlakatlarda o'xshash loyihalar boshqa arxitektorlar tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy etila boshlandiki bu yangi bir to'lqin sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, aka-uka Perretlar 1903 yilda Parijda terrasali tomida bog'lar tashkil etiladigan turar-joy binolarining loyihalarini, 1914 yilda Kyolnda Valter Gropius ofis binosi tomida yashil maydonchali restoran loyihsini, Amerikaning Chikago shahrida Frank Lloyd Rayt foydalaniladigan yashil tomli restoran binosi loyihasini ishlab chiqqan va joyida qurgan [3].

Yaqin tarixda, o'tgan asrning 80-yillarida "yashil arxitektura" tushunchasi aksariyat rivojlandan davlatlar me'morchiligidan joy oldi. Shundan beri binolarni yashillik bilan uyg'unlashtirishning bir necha usullari rivojlangan davlatlarda sinab ko'rildi. Jumladan :

-shahar binolarini tashqi tomondan vertikal ko'kalamzorllashtirish;

-binolar ichki muhitini 3 metr balandlikkacha (atriumli) ko'kalamzorlashtirish;

-binolar tomlaridan foydalanihs, yashil tomlar sifatida gorizontal ko'kalamzorlashtirish.

Hozirgi kunda katta shaharlar uchun global muammo bo'lgan erkin, toza va bo'sh hududlarning tanqisligi va ekologik holatning yomonlashuvi shaharlarda binolar tomlarida bog'larni tashkil etish masalasiga yangicha yondashishga majbur qiladi. Bu masalaning yechimi hayot kechirish (yashash, dam olish, ishlash) uchun qo'shimcha fazoviy muhit, bundan tashqari, binoning ko'rinishiga yanada chiroy, estetik ko'rinish, yuqori qavatlarda yashovchi aholiga qator ekologik imkoniyatlar yaratadi.

Birinchi navbatda tomlarni yashillashtirish atmosfera havosini yaxshilaydi, sezilarli darajada havoni gazlar bilan to'yinganlik darajasini pasaytiradi (o'simliklar karbonad angidridni yutib kislorod chiqaradi), bundan tashqari, havodagi zararli moddalar va changni yutadi. Shaharlarning atmosfera havosi nafaqat avtomobil yoqilg'isining yonishidan chiqadigan chiqindilar, balki quyosh ta'sirida tom qoplamalari sifatida ishlatilgan bitum materiallarining erishidan chiqadigan zaxarli gazlar hisobidan ham ifloslanadi. Tomlarda tashkil etiladigan yashilliklarning salqin muhiti aynan shu qoplamalarning quyosh ta'sirida yemirilishi, hid chiqarishini oldini oladi va havoni tozalaydi, shahar havosi haroratini pasaytiradi. Standart tomlarda havo tharoratining ko'tarilishi 60 ^{0} C ga yetadi, ayrim hududlarda undan ham oshadi, tom sathiga chiqarilgan o'simliklar havo haroratini 35-40^0 C gacha tushiradi [4]. Shunga mos ravishda tom ostidagi xonalarda havo harorati pasayadi, yashovchilar uchun qulay mikroiqlim sharoiti yaratiladi, havoni haydash (ventilyatsiya) va elektr energiyasi xarajatlarini kamaytiradi.

Tomlarda tashkil etilgan bog'lar nafaqat yozda yuqori qavatlar xonalarida issiq havo haroratini pasaytirib, yashovchilar (ishlovchilar) uchun me'yoriy mikroiqlim ko'rsatkichlarini yaratadi, balki yuqori qavat shiftlarini qish davrida muzlashdan ham himoyalaydi. Bundan tashqari, bog'lar yaxshigina tovushdan himoyalovchidir, shovqin kuchini xonalarda taxminan 40 detsibelgacha kamaytiradi. Yashil tomning bir necha qatlamligi uning qishda ta'sir etadigan sovuqqa chidamliligini ta'minlaydi. "Yashil mo'yna" ostida tomda harorat juda sovuq bo'lmaydi – bu xuddi tomni himoyalash kabi bo'lib, uning xizmat muddatini oshiradi va isitish uchun sarflanadigan elektr energiyasi sarfini kamaytiradi [5].

Bundan tashqari qalinligi uncha katta bo'lmasada (15 sm atrofida) ekstensiv yashil tomlar yomg'ir suvlarining sezilarli qismini o'zida saqlab qolib, tomdan yer yuzi sathiga tushadigan suv miqdorini ancha kamaytiradi va shu orqali yomg'irli mavsumlarda ko'chalarda suv to'planib qolishining oldi olinadi. Yashil tomlar tarkibida ancha g'ovak strukturaga ega bo'lgan tuproq o'z tanasidan yomg'ir suvlarini o'tkazish baravarida suvga to'yinib bo'kadi. Suv bunday tuproqdan o'tib tomning quyi suv tkazmaydigan qatlami usti bo'yicha yer yuzi sathigacha oqib tushadi.

Yashil tomlarni o'zining chiroyi va rangbarangligi bilan e'tiborni jalb etganligi tufayli beshinchi fasad deb ham nomlanadi. Ular estetikli, e'tiborni o'ziga jalb qiladi, shaharning tashqi qiyofasini yaxshilaydi, uning ekologik foydasiga hech shubha yo'q. Bundan tashqari ular odamlar uchun qo'shimcha dam olish imkoniyatlarini yaratadiki, sevimli gullar va daraxtlar qo'ynida, ortiqcha harakatlarsiz, transportlardan foydalanmay dam olishlari mumkin

Natijalar: Keyingi o'n yiliklarda dunyo yirik shaharlarning arxitektura agentliklari tiqis joylashgan binoli kvartallarni yashillashtirish muammosi bilan tashvishlanib yashil maydonlarning ko'pyarusli plantatsiyalarini yaratish g'oyasini ilgari surdilar. Bu mavzu bo'yicha o'nlab binolar eskizlari chizildi, ammo yaqinlarga kelibgina ularning ayrimlari hayotga tadbiq etildi. Birinchi "vertikal o'rmon" Yelanda o'smoqda. Italiyaning Boeri Studio kompaniyasi arxitektorlari va dizaynerlari tomonidan loyihalangan Bosco Verticale nomli eksperimental kompleks o'zida 27 sathli minorani aks ettiradi.

2-расм. Миландаги Bosco Verticale номли осмонўпар яшил биноlar.

Qurilishning noyobligi shundaki, unda nafaqat yashash uchun xonadonlar mavjud, balki qavatlarda tashqi maydonchalar va ularda o'zining maftunkorligi bilan ajralib turadigan yashil bir go'shaga ham egadir. Ikkita balandligi 80 va 112 m keladigan binoda 480 ta katta , 250 ta mayda daraxtlar, 11 ming gazon o'simliklari, 5 mingta buttalar joylashtirilgan. Bunday yashillik 1 gektar o'rtacha tiqislikdagi o'rmon maydoni bilan tengdir.

Shvetsariyada yashil tomlardagi hasharotlar o'rgimchak va qo'ng'izlarning turi va soni o'rganilgan. Bu tadqiqotlar o'simliklarining turi va zichligi har xil bo'lgan yashil tomlarda turli xil o'rgimchaklar, qo'ng'izlar va qushlar yashashini ko'rsatdi. Brenneisen o'zining tadqiqotlarida [6] yashil tomlarni xuddi shunday o'simliklari, daraxtlari bo'lgan yer yuzida yaypanib yotgan yashil maydonlar bilan solishtirgan: u har ikkala sathdagi yashil maydonlarda yashayotgan qo'ng'iz, o'rgimchak va qushlarning bir xilligini qayd qilgan. Bu o'z navbatida, tomda tashkil etiladigan yashil maydonlar yer yuzidagidek bir xil tabiiy qo'nim muhitini yaratishini ko'rsatadi. Tomlardagi daraxtlar shoxalarida qushlarning yashashi, ko'payishi uchun inlar qurganligini ham kuzatish mumkin [6].

O'tkazilgan tadqiqotlarga tayanib yashil tomlarning quyidagi qator ijobiy xususiyatlarini sanash mumkin [7].

- yomg'ir suvlarining oqib tushishi kamayadi;
- havoni ifloslovchi moddalar va chang yashillik tomonidan yutiladi;
- shaharda issiq orolcha effektining pasayishi kuzatiladi;
- biologik organizmlar yashashi uchun sharoit yaratiladi;
- tom konstruktsiyalariga o'zgaruvchan quyosh radiatsiyasi va harorat ta'sirining kamayishi, uning asosida tom konstruktsiyalari xizmat muddatining oshishi ta'minlanadi;
- issiqdan muhofazalash qobiliyatining oshishi, bino ichini isitish va sovutish xarajatlarining kamayishini ta'minlaydi;
- aholisi zich shahar va poselkalarda qo'shimcha yashash uchun fazoviy muhitlar yaratiladi [8].

Yashil tomlar vositasida quyidagi ekologik ustunliklarga erishiladi:

- yashil tomlarning qo'llanilishi yuqorilab borayotgan shaharlarning yana yashillikka qaytishini ta'minlaydi;
- yuqori qavatlarda yashovchilar uchun kislorodga boy havo muhiti, me'yoriy namlik muhiti yaratiladi.
- havoning zararli gazlar bilan to'yinish darajasi pasayadi.
- tomlarda yashillik bilan suv havzalarining birgalikda yaratilishi havo tozaligini mutloq yaxshilaydi;
- tomda past bo'yli o'simliklardan boshlab daraxtlargacha tashkil etilishi qushlar, biologik organizmlar uchun yashash sharoitini yaratadi [9].

Xulosa. Oxirgi yillarda atmosferada turli xil zaharli gaz miqdorlarining oshishi sababli biosferada global isish jarayoni ketayapti. Asosiy zaharli gaz yoqilg'ining yonishi tufayli atmosferaga chiqariladigan katta hajmdagi karbonat angrid gazidir.Bundan tashqari, parnik effekti qishloq xo'jaligi chiqindilari asosida hosil bo'ladigan metan gazidir. Global isish natijasida dunyoda klimatik jarayonlar destabilizatsiyasi ro'y beradi, qaerda qirg'oqchilik, qaerda suv bosishi, uragan va boshqalar ro'y beradi. Yashil tomlar odamlarni global isish oqibatlaridan himoyalashi mumkin. O'simliklar binoning yuqori qavatlaida havo tarkibini, sifatini yaxshilaydi, havoni tozalaydi, yetarli darajada uni namlaydi.

Shuning uchun yashil tomlar qanchalik ko'p bo'lsa shu hududda yashash uchun sharoit shunchalik yaxshi bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Scrivens S. Design Guide. Roof Gardens //Architect"s Journal. 1982. Vol. 175. № 17

2. Пособие по озеленению и благоустройству эксплуатируемы х крыш жилых и общественных зданий, подземных и полуподземных гаражей, объектов гражданской обороны и других сооружений. — М.: Москомархитектура, ОАО «Моспроект», 2001.

3. Ильичева А. Приближаясь к небу // Красивые дома. 2002. № 2(28).

4. Альбанов С. Этажность городского жилого дома // Человек — предприятие город. Таллинн, 1980. С. 76.

5. Титова Н. Вопросы эстетики деталей ландшафтной архитектуры жилой среды // Пути повышения архитектурной выразительности жилой застройки. М., 1985.

6. Babylonian High-Rise Horiculture // Landscape Arcitecture. 1979

7. Osmundson T. The Changing Technique of Roof Garden Design // Landscape Architecture. 1979. Vol. 69. № 5.

8. Usmonova G.F.-"Buxoro shahrining issiq-quruq iqlim sharoitida binolarning tom qismini barpo etishning innovatsion va samarali usullari"- "Mahalliy xomashyolar asosida innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqarish" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to'plami TAQU 15-16-oktyabr 2024-y, Toshkent:2024, 6-10 b.

9. Reyimbayev Sh.S., Usmonova G.F.-" Shahar hududida qo'shimcha, foydali maydonlar yaratish bo'yicha innovatsion yondashuvlar"- "Arxitektura, qurilish va dizayn ilmiy-amaliy jurnal" 1-son, 2023-yil mart,TAQU, Toshkent:2023, 60-63 b.

THE EVOLUTION OF URBAN ENVIRONMENT RESTORATION:

Eshatov I.Q. (PhD) Associate Professor,
Abduraimov Sh.M. (PhD) Associate Professor,
Yusupov Z.J. PhD Student,
Khujayorova M.S., Murodova Z.O. 4th-year Architecture Students
Samarkand State University of Architecture and Construction named after Mirzo Ulugbek

Annotation. The relevance of the evolution of urban environment restoration is directly related to urbanization, climate change, ecological crises, and the increasing population of cities today. Cities are developing rapidly, but this growth often harms the environment, exacerbates social inequality, and leads to excessive resource consumption. The urban environment primarily evolves based on historical processes, economic growth, social demands, and technological advancements. Architecture and urban planning infrastructure are among the central structures of this process, playing a key role in ensuring the aesthetics and functionality of cities. The evolution of the formation of cities in Uzbekistan is also closely connected to this process. The main objective of this research is to analyze the role and significance of architecture and urban planning infrastructure in the restoration of the urban environment and its evolutionary process. The restoration and development of the urban environment reflect the cultural, social, and economic history of humanity. As part of this process, modern concepts of architecture and urban planning, as well as their interrelation with infrastructure and the ecological environment, are examined.

Аннотация. Актуальность эволюции восстановления городской среды сегодня напрямую связана с урбанизацией, изменением климата, экологическими кризисами и ростом населения городов. Города быстро развиваются, но это развитие часто наносит ущерб окружающей среде. Усугубляет социальное неравенство и перерасход ресурсов. Городская среда развивается в основном на основе исторического процесса, экономического роста, социальных требований и технологий. Архитектурно-градостроительная инфраструктура является одной из центральных структур этого процесса и играет роль в обеспечении важности эстетики, функциональности городов. С этим тесно связана и эволюция формирования городов Узбекистана. Основной целью данного исследования является анализ роли и значения архитектурно-градостроительной инфраструктуры в процессе восстановления и эволюции городской среды. Возрождение и развитие городской среды отражает культурную, социальную и экономическую историю человечества. В рамках этого процесса будут рассмотрены современные концепции архитектуры и городского планирования, а также их взаимосвязь с инфраструктурой и экологической средой.

Keywords: Urban environment, urbanization, ecological sustainability, green infrastructure, urban history, innovations, transport system, sustainable development, urban economy.

Ключевые слова: городская среда, урбанизация, экологическая устойчивость, Зеленая инфраструктура, история города, инновации, транспортная система, устойчивое развитие, городская экономика.

Introduction.Cities are the most important and developed social and economic centers in human history, reflecting not only modern lifestyles but also the cultural, architectural, and urban planning experiences of past eras. The development and restoration of the urban environment play a crucial role in architecture and urban planning infrastructure. These elements provide essential tools for ensuring the ecological and economic sus-

tainability of cities, improving living conditions, meeting population demands, and managing urbanization processes efficiently [9,10].

The restoration of the urban environment should not only involve the renewal of architectural and urban planning approaches but also take into account modern technologies, ecological sustainability, and social needs. In particular, the development of new architectural designs, the provision of transport infrastructure, the maintenance of ecological balance, and the implementation of effective and sustainable urban placement methods are among today's most pressing issues. This research explores the evolutionary processes of urban environment restoration, the transformations in architectural and urban planning infrastructure, and proposes practical and scientific solutions for modern cities. The study examines the key approaches in architecture and urban planning, analyzing their connection with ecological and social factors to make cities more livable and sustainable. This process is essential for modernizing cities, ensuring ecological sustainability, improving the quality of life, and enhancing social integration [1,3,4].

Understanding the role and significance of architecture and urban planning infrastructure in urban environment restoration helps develop sustainable and advanced solutions for growing cities and communities. The evolution of the urban environment is directly influenced by technological advancements, economic and social changes, and both natural and human-induced crises, including wars, natural disasters, and other factors. The restoration process of architectural and urban planning infrastructure is shaped in response to new objectives and needs. Ancient and modern methods in urban planning, evolving technologies, transport networks, architectural solutions aimed at improving living conditions, strengthening intercity communications, and ensuring ecological sustainability play a crucial role in this process [12,14,15].

Analysis Results: The evolution of urban environment restoration is a complex and multifaceted process that affects not only the technical and functional changes in architecture and urban planning but also ecological, social, and economic factors. This analysis examines the changes in cities within historical, social, and ecological contexts, the role of architectural and urban planning infrastructure, and their mutual influence on each other.

Analysis of the Evolution of Urban Environment Restoration:

1. Table

Field	Key aspects to be analyzed	Description
Historical Areas	Ancient development of cities	Cities have historically been shaped by various factors, including political and social demands.
	Urban architecture and architectural monuments	In the past, cities developed as religious, cultural, and trade centers.
	Changes in Urban Planning	The Industrial Revolution, urbanization processes, and post-independence development.
Social Relations	Social relations between cities and communities	Maintaining social balance, living conditions, and the standard of living in urban planning.
	Ensuring social stability	Social equality, adaptation to population needs, and integration among residents in the urban environment.
	Population migration and urbanization	Population density growth, migration from rural to urban life.
Environmental Issues	Ensuring ecological sustainability	Reducing the ecological footprint of cities, creating green infrastructure, and using resources efficiently.
	Environmental protection and natural resource management	Energy saving, waste reduction, and ensuring ecological sustainability.
	Restoration of green zones and natural ecosystems	Creation of green spaces, tree plantations, parks, and natural reserves in cities.
Architecture and Urban Planning	Modern trends in architecture	Green architecture, high technologies, and environmentally and socially adaptive designs.
	Changes in urban infrastructure	Green architecture, high technologies, and environmentally and socially adaptive designs.
	Smart cities concept	Managing urban infrastructure through information technologies and efficient resource distribution.
Economic Interrelation	Interrelation between cities and economy	Development of cities as economic centers and the creation of new jobs.
	Economic approaches for city modernization	Economic reforms, development of new industrial sectors, and renewal of urban infrastructure.
	Tourism and its impact on urban economy	Developing tourism and generating additional income for urban economies.
	Smart transport systems and ecological structures	Innovative transport systems, electric vehicles, sustainable energy sources, and other technologies.

Urban environment restoration process- It is an integral process of urbanization, social, and economic activity, aimed at ensuring the ecological characteristics of cities, improving social life, and renewing infrastructure systems. Architecture and urban planning play a central role in urban restoration.

Problem: During the study of the restoration of the urban environment and urbanization processes in Uzbekistan, several key problems can be identified. These problems are not only related to living conditions in cities but also to the overall ecological, social, and economic systems. The main problems affecting the urban environment in Uzbekistan are presented below:

The population density in Uzbekistan's cities is increasing, which causes many problems, including a lack of housing, poor transport systems, and inadequate infrastructure.

- Migration of people to cities, an increase in the number of migrants from rural areas, and the economic gap between cities and villages;
- Deterioration of living conditions, poor infrastructure, and worsening environmental pollution.

Cities face environmental problems, including air pollution, insufficient waste management, and a reduction in green areas. Industry, transport, and construction activities further exacerbate environmental problems.

Urban infrastructure systems (transport, water supply, sewage, electricity supply) are not sufficiently developed. This leads to problems due to the rapid population growth in cities.

There are economic and social disparities between cities, a lack of skilled workers, and problems in education and healthcare. In addition, social inequalities are emerging among the population during the urbanization process [2,3,8,9].

The main problems and their descriptions in the process of restoring the urban environment and urbanization in Uzbekistan are presented in the table:

2. Table

Problem	Description	Causes	Impacts
Population density and urbanization	The population density in cities is increasing, which leads to a lack of living conditions and infrastructure.	Migration from rural areas to cities, an increase in jobs in cities.	Deterioration of living conditions, lack of infrastructure, and increased environmental pollution.
Environmental problems	Environmental problems such as air pollution, lack of waste management, and reduction of green areas.	The increase in cars, industrial development, and improper urban planning.	Air pollution, improper waste disposal, and shrinking of green areas.
Lack of urban infrastructure	Outdated transport systems, water supply, sewage systems, and other infrastructure systems.	Aging infrastructure, lack of investments, and failure to create necessary infrastructure for new cities	Poor transport systems, insufficient sewage and water supply.
Social problems and inequality	Economic and social differences between cities, lack of skilled workers.	Economic disparities between cities and rural areas, issues in social policies.	Social segregation, inequality in education and healthcare, difficulties in eliminating differences.
Delay in the development of smart cities	Underdevelopment of the smart cities concept and lack of information technologies	Underdeveloped technological infrastructure, lack of specialists, insufficient investments.	Inefficient city management, ineffective use of resources, lack of infrastructure integration.
Economic development	Underdevelopment of industries in economic centers, slowdown in job creation.	Low development of industrial sectors, difficulties in modernizing technologies.	Increase in unemployment, widening economic gap, low efficiency of city economies.

The problems presented in the table illustrate the existing challenges in the restoration of Uzbekistan's urban environment, urbanization, and infrastructure sectors. Solving these problems will require comprehensive approaches.

Solution: The solutions for restoring the urban environment, particularly in the field of architecture and urban infrastructure, are multifaceted and depend on many factors. Addressing this issue requires considering several key directions and strategies. Solutions should include ecological, economic, social, and technological aspects, demanding a comprehensive approach [4,7,15]

Ensuring ecological sustainability and widespread implementation of green architecture concepts are essential in urban restoration. The following measures can be implemented:

- **Green infrastructure:** Creating parks, gardens, and green spaces across cities, increasing plants on rooftops. This is necessary not only to ensure ecological sustainability but also to improve public health and strengthen social integration.
- **Energy efficiency:** Making buildings energy-efficient, using solar panels, wind turbines, and other renewable energy sources.

- Permeable materials: Using permeable materials (such as permeable pavings) in city construction, which increases water absorption and reduces pressure on sewage systems [2,8].

Result: Urban environment restoration is a process that ensures the renewal of cities while considering their ecological, economic, social, and cultural management. Architecture and urban infrastructure play a crucial role in urban restoration. This process involves the use of new technologies, innovative approaches, production processes, and ecological sustainability. Developing comprehensive approaches that encompass construction, transport, energy supply, environmental protection, and the improvement of the social environment is essential for urban restoration [12,13,14].

The evolution of urban environment restoration is divided into distinct stages, in which architectural urban infrastructure holds particular importance. The application of smart city technologies in urban management is envisioned. These cities operate based on information technologies and IoT (Internet of Things), efficiently managing transport systems, energy supply, and overall urban governance.

Figure 1. Development plan of Tashkent city's master plan until 2045.
https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/razrabotan_generalnyy_plan_tashkenta_do_2045_goda

- **The main objectives of developing a master plan are:**
- Regulating the process of obtaining construction permits;
- Planning the city's engineering and transport infrastructure, population density parameters, and overall strategy;
- Protecting the city's green and sanitary protection areas, as well as cultural heritage sites;

Defining directions for economic and social development to meet the current and future needs of the population.

The master plan includes key indicators, and maps defining them are placed in the urban planning cadastre of the Ministry of Construction and Housing and Communal Services as open data.

Green infrastructure and ecological design contribute to improving the ecological condition of cities. Green spaces, parks, gardens, and others play a crucial role in enhancing urban ecology. The use of energy-saving building materials and renewable energy sources helps preserve energy efficiency in urban planning [1,2,4,5,9,10].

Moreover, technological innovations and the concept of smart cities play a vital role in making cities modern and sustainable. The evolution of urban environment restoration serves not only to preserve the natural environment but also to restore social balance, creating opportunities for a high-quality and prosperous life for the urban population.

Conclusion: The evolution of urban environment restoration in the field of architecture and urban infrastructure requires a comprehensive and multifaceted approach. Successful urban development can be achieved by integrating ecological sustainability, smart technologies, social equality, and economic development. The implementation of these strategies in Uzbekistan's cities will not only improve the quality of urban areas but also contribute significantly to the country's overall development.

Urban environment restoration facilitates the renewal of architectural and urban infrastructure. Modern technologies, smart systems, and production capacities serve as a solid foundation for urban development. Innovative approaches and the preservation of ecological sustainability play a crucial role in preventing urban degradation.

The evolution of urban environment restoration is a process aimed at ensuring the ecological, economic, and social sustainable development of cities. This process involves the ecological restoration of urban infrastructure, the creation of green areas, the conservation of natural resources, and the improvement of residents' quality of life.

References list

1. Гутнов А. Э. Город в теории систем. В кн.: Города и люди: Избранные труды [Текст] / А. Э. Гутнов. – М.: МП «Ладья», 1993. – 320 с.

2. Дэй К. Места, где обитает душа: Архитектура и среда как лечебное средство / К. Дэй; пер. с англ. В. Л. Глазычева. – М.: Ладья, 2000. – 280 с.: ил.

3. Забелина Е. В. Поиск новых форм в ландшафтной архитектуре: учеб. пособие / Е. В. Забелина. – Москва: Архитектура-С, 2005. - 160 с., ил.

4. Зубов В. П. Архитектурная теория Альберти / В. П. Зубов.-Санкт-Петербург: Алетейя, 2001. - 461 с.

5. Крижановская Н. Я. Открытые архитектурные пространства центра Харькова: монография / Н. Я. Крижановская, М. А. Вотинов. - Харьк. нац. акад. гор. хозва. – Х.: ХНАМГ, 2010. – 220 с.

6. Крижановская Н. Я. Формирование открытых архитектурных пространств в городской среде: монография / Н. Я. Крижановская, М. А. Вотинов. – Белгород: БГТУ им. Г.В. Шухова, 2012. – 153 с.

7. Крижановская Н. Я. Приемы формирования природоинтегриро-ванной архитектуры в городской среде: монография / Н. Я. Крижановская, Ю. С. Гордиенко, И. А. Дегтев. – Белгород: БГТУ им. Г. В. Шухова, 2010. -153 с.

8. Крижановская Н. Я. Формирование промежуточных рекреационных пространств в архитектурной среде: Учебное пособие / Н. Я. Крижановская, С. С. Янкович. – Белгород: Уч-изд, 2007. – 131 с.

9. Eshatov I.Q., Movlonov M.D., Maxmudova F. Analysis of the Placement of Trade and Consumer Service Complexes at the Agglomeration Level within the Urban Structure of Jizzakh. // Scientific-Technical Journal "Problems of Architecture and Construction", Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering (SamDAKI). № 1, 2022.

10. Eshatov I., Baratov X., Jo‘rayev O. Improvement and Restoration of Urban Planning Culture and Historical City Centers of Central Asia in Accordance with Modern Requirements // Actual Scientific Research in the Modern World.– 2017. – №. 6-3. – S. 54-56.

11. Eshatov, I. Q., Mustafoyeva, M. Z., & Yusupov, Z. J. (2024, December). Architectural and Design Recommendations for the Organization of Trade and Consumer Service Complexes in Regional City Centers (on the Example of Qarshi, Jizzakh, and Urgench Cities). In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 5).

12. Eshatov, I., Abduraimov, M., Aymatov, A., Mustayev, B., Xaydarov, S., Maxmudova, F., ... & Inoyatov, D. (2024). Placement of trade and household service complexes in regions of Uzbekistan according to climatic conditions. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 559, p. 01006). EDP Sciences.

13. Eshatov, I. Q., & Muhammadiyev, S. (2024, December). Socio-Economic and Urban Planning Factors in the Formation of Roadside Recreation Complexes. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 5).

14. Beknazarov, M. B., & Boynazarov, M. M. (2023). Shaharsozlikda jamoat binolari va inshootlari markazlarini loyihalash-me'yorlar, qoidalar, binolarning maqsadi va binolarni shakllantiruvchi omillar. *problems of architecture and construction (scientific technical journal)*, *1*(2), 193-196.

15. Khaydarov, S., Madiev, F., Achildiyev, R., & Beknazarov, M. (2024, November). Settlement planning project. Types of population centers and their development factors. Ways of planning and development of settlements. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.

GULZOR VA XIYOBON YO‘LLARI ORQALI LANDSHAFT DIZAYNINI YARATISH

Beknazarova Mahbuba Nortojiyevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnalogiyalar universiteti

Annotatsiya. Dam olish bog‘larini ko‘kalamzorlashtirishda gulzor va xiyobon usullaridan foydalangan holda landshaft dizaynlarini yaratish. Avvalo, to‘g‘ri dizaynerni tanlashda bir nechta jarayonlarni baholash kerak. Xususan, ushbu hududning joylashuvi, tarixi va mentalitetini bilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola shu masalalarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: landshaft, gulzor, dizayner, loyiha, usullar, xiyobonlar, labirintlar.

Kirish. Gulzor rabatka – ko‘p yillik gullardan tashkil topgan rabatkalar hududga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi va turli rang-barangligi bilan zavq ulashadi. Rabatkalarining shubhasiz afzalliklari – butun yoz davomida gullashi, uzoq umr ko‘rishi, rang va shakllarning xilmaxilligi hisoblanadi.

Gulzor nafaqat katta hududda, balki kichik bog‘da ham ajoyib ko‘rinishga ega bo‘ladi. Muhimi – rabatkalarni joylashtirishda oddiy qoidalarga amal qilishdir. O‘z qo‘lingiz bilan gulzor rabatka yaratish. Kichik maydonda rabatka tashkil qilishda ma’lum bir uslubga rioya qilish tavsiya etiladi. Masalan, juda baland va tez o‘suvchi navlar, masalan, komfrey yoki qizil sardunya kabi o‘simliklar bunday bog‘ uchun mos kelmaydi. Bundan tashqari, kichik hududga o‘nlab turli xil o‘simlik navlarini ekish ham mumkin emas, chunki zich ekilgan gullar o‘zining tabiiy go‘zalligini yo‘qotishi mumkin.Rabatka rejasini oldindan ishlab chiqish va uni qat’iy ravishda bajarish kerak. Do‘konga urug‘ olish uchun borganingizda, oldindan aniq reja tuzish muhim. Beshta yoki oltita o‘simlik navlaridan foydalanish hashamatli rabatka yaratish imkonini beradi.



Chegara gulzorini rejalashtirishda, avvalo, undagi ranglar palitrasi haqida qaror qabul qilish kerak. Rangli yechim kontrastlar usulida yoki ma’lum bir tonallik asosida bo‘lishi mumkin. Oq va kumush rang ohanglarida bezatilgan rabatka juda samarali ko‘rinadi, shuningdek, to‘q sariq va ko‘k ranglarda bezatilgani ham kam go‘zal emas. Barcha ko‘p yillik gullarni bog‘ tuprog‘ining xususiyatlarini hisobga olgan holda saralash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, yorqin quyoshni yaxshi ko‘radigan gullarni soyali joylarga moslashgan gullardan alohida ekish kerak.Rabatka joylashtirilayotganda, ekilgan o‘simliklarning maksimal balandligi qancha bo‘lishi mumkinligini tushunish muhimdir.

Kichik bog‘da rabatkaga ekilgan o‘simliklarning o‘sishi muhim ahamiyatga ega. Bunday holda, baland gullar sifatida delphinium, rudbekiya yoki yalpiz mos keladi. Rabatka uchun gullash davrlarini hisobga olgan holda o‘simliklarni tanlash oqilona bo‘ladi. Bahor boshida gullaydigan giatsint, lolalar yoki nargis kabi piyozli o‘simliklar gulzorda ajralmas hisoblanadi. Ular rang-barang gullayotgan paytda, boshqa gullar hali uzoq qishdan so‘ng uyg‘onish jarayonida bo‘ladi. Ko‘p yillik o‘simliklar gullash davriga yetganda esa, piyozli o‘simliklar allaqachon “uyqu”ga ketadi. Shu tariqa, gullash muddati ikki baravar oshadi va gullar bir-biriga halaqit bermaydi.

Gulzor odatda asosiy tuzilma va fon yaratadigan o‘simliklar bilan bezatiladi. Ular odatda hashamatli gullarga ega emas, lekin to‘qimalangan poyalari yoki g‘ayrioddiy barg rangi bilan ajralib turadi, shu bilan ortiqcha rang-baranglikni biroz yumshatadi. Ularning eng yaxshi vaqti – boshqa o‘simliklar gullashni to‘xtatgan paytga to‘g‘ri keladi. Don ekinlari shunday o‘simliklar sirasiga kiradi. Kichik bog‘dagi rabatkani bezash uchun ko‘plab mos o‘simliklardan foydalanish mumkin.

Delphinium gullash tugagandan keyin 10 sm gacha qisqartirilsa, mavsumda ikkinchi marta gullaydi. Astilba Arendsa kislotali muhit va quyosh nuri ostida mo‘l sug‘orishni yaxshi ko‘radi.

Endress sardunyasi qurg‘oqchilikka chidamli, katta maydonlar uchun ideal va parvarishi oson. Qizil gravel yiliga ikki marta gullashi bilan yaxshi. Dicentra bahorda intensiv gullaydi, shuning uchun uni rabatkaga joylashtirishda bu jihatni inobatga olish kerak. Qo‘ng‘iroqlar butalar shaklida o‘sadi, suv va soyalik joylarni yaxshi ko‘radi. Hellebor unumdor tuproqni afzal ko‘radi va daraxt soyalarida rabatka yaratishda ajralmas o‘simlik hisoblanadi.

Monarda quyoshli joylarda ekilishi kerak va doimiy sug‘orish talab etadi.

Rudbekiya mo‘l gullashi uchun maxsus o‘g‘itga muhtoj.

Yalpiz rabatkaga ajoyib ko‘rinish beradi, noyabrgacha o‘z soyabonlari bilan rang-baranglik qo‘shadi.

Flokslar rabatka uchun juda mos keladi va ular yetti oygacha gullashi mumkin. Bu o‘simliklar quyosh nuri va muntazam o‘g‘itlashni yaxshi ko‘radi.

Har qanday xususiy maydonning landshaft dizayni uning egasining hayot tarzi va didini aks ettiradi. Shu sababli, uy atrofidagi hududlarni bezashda turli uslublar paydo bo‘ldi.

Mamlakat uslubi (Country style)Ingliz tilidan tarjima qilinganda, "country" so‘zi "rustik" (qishloqona) degan ma’noni anglatadi, shuning uchun bu uslub atrofdagi tabiiy landshaftga juda yaqin. Bu yerda ko‘p elementlarning bo‘lishi shart emas, faqatgina yog‘och arava, bog‘ idishlari va g‘ildiraklardan o‘ralgan to‘siqni uyg‘un joylashtirish kifoya.

Provens uslubi (Provence style)Bu uslub Frantsiyaga xos bo‘lib, yorqin ranglar va kuchli hidlar bilan ajralib turadi. Devor bo‘ylab ekilgan palmetta o‘simliklari va to‘qilgan mebellar ushbu uslubning asosiy xususiyatlaridandir. Provens uslubi juda nafis va chiroyli, biroq uni yaratish uchun ko‘p mablag‘ va bo‘sh vaqt talab etiladi. Shuningdek, bu uslubni saqlash va parvarish qilish juda murakkab va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Xitoy uslubi (Chinese style)Hozirda G‘arbiy Evropada xitoy uslubi juda mashhur, buning sababi esa oddiy. Ushbu uslubning asosi qadimgi Feng Shui falsafasiga asoslangan. Landshaft dizaynining barcha elementlari mulk egasining farovonligini aks ettiradigan tarzda eng to‘g‘ri yo‘nalishda joylashtiriladi.

Landshaft dizayni haqida Landshaft dizayni – bu yer maydonini o‘zgartirish va bezash choralari ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir. Yer maydonini jihozlashning ko‘plab yechimlari mavjud. Bularga maysazor va gulzorlar yaratish, yoritish va sug‘orish tizimlarini tashkil qilish, haykallar, besedkalar, ko‘priklar, arg‘imchoqlarni joylashtirish, sun’iy hovuzlar qurish va boshqa bezak elementlari kiradi. Landshaft dizayni loyihasi qanchalik professional ishlab chiqilib amalga oshirilsa, maydon shunchalik qulay va go‘zal bo‘ladi.

Loyihani ishlab chiqish bosqichlari. Ish boshlashdan oldin, dizayner mijoz bilan uchrashib, uning xohishlarini va byudjetini muhokama qiladi. Agar byudjet juda katta bo‘lsa, mijoz uzoq vaqt xizmat qiladigan haqiqiy san’at asari bo‘lgan landshaft dizayniga ega bo‘lishi mumkin.

Keyingi bosqichda dizayner yer maydonini o‘rganadi, suratga oladi va tuproq namunasini kimyoviy tahlil uchun oladi. Tadqiqot natijasida loyihaning barcha tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan eskiz tayyorlanadi. Ba’zi hollarda mijozning istagiga ko‘ra kelajakdagi landshaftning yirik hajmdagi qog‘oz rejasi ham taqdim etiladi.

Bugungi kunda turli xil landshaft dizayni uslublari mavjud: qishloq (rural), tabiiy (natural), yapon (Japanese), xitoy (Chinese), aralash (mixed). Muayyan dizayn yechimini amalga oshirish nafaqat mijozning moliyaviy imkoniyatlariga, balki uning uchastkasining xususiyatlariga ham bog‘liq. Masalan, yer maydonidagi tuproqning xususiyatlariga va sun’iy suv havzasining maqsadiga qarab, uning qurilishi va tartibga solish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Tepalik hududlari qurilish uchun ideal hisoblanadi. Uni turli usullar bilan bezash mumkin: alp tog‘li sharsharali yoki sharsharasiz, balandligi va maydoni turlicha bo‘lishi mumkin.

Ma’lum turdagi toshlardan yasalishi mumkin va turli o‘simliklar bilan bezatilishi mumkin. Tekis joy maydonida esa aksincha, juda chiroyli ko‘rinadi. Aytgancha, buni bir necha kun ichida amalga oshirish mumkin.

Provens uslubi (Provence style) Bu uslub Frantsiyaga xos bo‘lib, yorqin ranglar va kuchli hidlar bilan ajralib turadi. Devor bo‘ylab ekilgan palmetta o‘simliklari va to‘qilgan mebellar ushbu uslubning asosiy xususiyatlaridandir.

Provens uslubi juda nafis va chiroyli, biroq uni yaratish uchun ko‘p mablag‘ va bo‘sh vaqt talab etiladi. Shuningdek, bu uslubni saqlash va parvarish qilish juda murakkab va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Xitoy uslubi (Chinese style) Hozirda G‘arbiy Evropada xitoy uslubi juda mashhur, buning sababi esa oddiy. Ushbu uslubning asosi qadimgi Feng Shui falsafasiga asoslangan.

Landshaft dizaynining barcha elementlari mulk egasining farovonligini aks ettiradigan tarzda eng to‘g‘ri yo‘nalishda joylashtiriladi.

Butalar va daraxtlar (oddiy va mitti) nisbatan yirik elementlarni yaratish uchun ishlatiladi, jumladan:

• Xiyobonlar – yo‘l bo‘ylab tekis qatorlarda ekilgan o‘simliklar;

• To‘siq – zich ekilgan butalar qatori;

• Sham va uyacha uslubidagi ekish – bir qatorga ekilgan bir nechta o‘simliklar guruhi;

• Chegaralar – alohida maydonlarni kam bo‘yli, zich ekilgan butalar bilan o‘rab olish;

• Lenta shaklidagi ekish (solitery) – qimmatbaho turdagi daraxt yoki butalarni yakka holda ekish;

• Fon pardasi (backstage) – uzoq masofali ko‘rinishni cheklaydigan uzluksiz daraxt yoki butalar qatori;

• Labirintlar – murakkab yo‘llar tizimini hosil qiluvchi baland to‘siqlar.

Topiar – mayda bargli butalar va daraxtlar, ularning shox-shabbasi shaklli kesish natijasida g‘ayrioddiy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Barcha ushbu elementlar muntazam (klassik) uslubda landshaft dizaynini yaratishda eng xarakterli hisoblanadi.

Gullar – landshaft dizaynining eng yorqin elementi.

Gullarni gulzor va gul to‘shaklarida joylashtirishning ma’lum usullari mavjud bo‘lib, ular ularning go‘zalligini to‘liq namoyon qilishga yordam beradi:

• Ma’lum geometrik shakl yaratish – kontur va maydon bo‘ylab gul ekish;

• Arabesk – noodatiy, murakkab shakldagi gulzor;

• Gullardan chegaralar – gulzor atrofida gul qatori yaratish;

• Monosad – ma'lum bir turdagi gullar o'stiriladigan maydon (atirgul bog'i, gladulariy, ukule, daliya);

• Chegara – to'siq chetida bitta turdagi gullardan iborat tor qator;

• Turli ko'rinish, rang va balandlikdagi gullardan iborat chegara.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. - Новосибирск, 1978.

2. Арманд Д.Л. Наука о ландшафте. - М.: 1975.

3. Марсинкевич Г.И. и др. Основы ландшафтоведения. - Минск, 1986.

4. Милков Ф.Н. Ландшафтная география и вопросы практики. - М.: 1966.

5. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. - М.: 1999.

O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA GULZORLAR LOYIHASINI TADBIQ QILISH

Beknazarova Mahbuba Nortojiyevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnalogiyalar universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning turli tabiiy-iqlimiy zonalarida gulzorlar loyihasini samarali tadbiq etish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari misolida mavjud landshaft xususiyatlari, iqlim, aholi zichligi hamda shaharsozlik me'yorlari tahlil qilinadi. Muallif gulzorlar orqali ekologik muvozanatni tiklash, aholi salomatligini yaxshilash hamda shahar estetik qiyofasini boyitish yo'llarini taklif etadi. Shuningdek, maqolada barqaror va iqlimga mos o'simliklar tanlovi, avtomatik sug'orish tizimlari, va zamonaviy dizayn yechimlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: gulzorlar, landshaft dizayni, ekologiya, urbanizatsiya, O'zbekiston, yashil infratuzilma

Kirish. Shaharsozlikda yashil makonlar, xususan gulzorlar nafaqat estetik jihatdan, balki ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. O'zbekiston shaharlarida so'nggi yillarda urbanizatsiya jarayonining kuchayishi fonida yashil zonalarning qisqarishi kuzatilmoqda. Shu sababli, muvozanatli landshaft dizayni, ayniqsa gulzorlar orqali, shahar muhitini sog'lomlashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlari natijasida O'zbekiston shaharlari ekologik muvozanatini yo'qotmoqda. Aholining ko'payishi, qurilish hajmining ortishi va transport harakatining kuchayishi yashil maydonlarni qisqartirmoqda. Shu sababli, shahar landshaftini qayta tiklashda gulzorlar muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat estetik ko'rinish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Metodologiya: Tadqiqot quyidagi uslublar asosida olib borildi:

Kuzatuv va joyida tadqiqotlar: Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida mavjud gulzorlar o'rganildi. Mahalliy landshaftshunoslar, ekologlar va aholi vakillari bilan suhbatlar tashkil etildi.

Xaritaviy tahlil: Har bir hududning topografiyasi, iqlim zonasi, suv manbalari va irrigatsiya imkoniyatlari xaritalar asosida baholandi.

Taqqoslash: Hududlararo gulzor loyihalari qiyosiy tahlil qilindi.

O'zbekiston hududlarida gulzorlar tizimini tadbiq qilish

Toshkent shahrida: poytaxtda markaziy ko'chalarda gulzorlar keng rivojlangan bo'lsa-da, chekka tumanlarda bu boradagi infratuzilma sust rivojlangan. Iqlimining quruq bo'lishi gulzorlarni avtomatik sug'orish tizimlari orqali saqlashni talab qiladi. Loyihalashda issiqqa chidamli o'simliklar (petunya, begoniya) keng qo'llaniladi.

Samarqand viloyatida: Samarqandda gulzorlar asosan tarixiy obidalar atrofida tashkil etilgan bo'lib, turizmni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Iqlimga mos lola, atirgul, reyhan singari o'simliklar keng qo'llaniladi. Shuningdek, mavsumiy kompozitsiyalar orqali turistik joziba oshirilmoqda.

Farg'ona vodiysi: Farg'ona vodiysi gulchilik bo'yicha qadimiy an'analarga ega. Bu yerda aholi ishtirokida jamoaviy gulzorlar yaratish, mahalliy bog'bonlar bilan hamkorlikda ko'chat yetishtirish mumkin. Bu yondashuv ijtimoiy birdamlik va ekologik madaniyatni rivojlantiradi.

Surxondaryo viloyatida: Iqlimi issiq va quruq bo'lgan Surxondaryoda suv tejovchi dizayn yondashuvlari muhim. Lavanda, salviyya, zinniya kabi suvsizga chidamli o'simliklardan foydalanish samarali. Gulzorlar asosan dam olish maskanlari, yo'laklar va muassasalar atrofiga rejalashtirilmoqda.

Ekologik va ijtimoiy foydalar:

- Havo sifatini yaxshilaydi, changni yutadi va kislorod ishlab chiqaradi.
- Shahar mikroiqlimini yaxshilaydi, issiqlik orolini kamaytiradi.
- Aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Estetik ko'rinish orqali turizm va shahar imijini yaxshilaydi.

Gulzorlarni loyihalash uchun tavsiyalar:

- ***Har bir hudud uchun mos o'simlik turlaridan iborat katalog tuzish;***

Surxondaryo viloyati (Issiq, qurg'oqchil iqlim): Daraxtlar: Tol (Salix), Akatsiya, Sirkovon (Albizia julibrissin), Chilim (Prosopis juliflora). Butalar: Oleandr, Barberry, Tamariks. Gulli o'simliklar: Atirgul, Zinniya,

Lantana, Gazaniya Yerqoplagichlar va zamin o‘simliklar: Lavanda, Yalpiz, Ertagi (Sedum)

Toshkent viloyati (Mo‘tadil iqlim, to‘liq sug‘oriladigan). Daraxtlar: Qayin, Kashtan, Zarang (Acer), Chinor. Butalar: Forsitiya, Yasmin, Kalina. Gulli o‘simliklar: Petuniya, Begoniya, Qizil gular. Ko‘p yilliklar: Pion, Lavanda,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Qattiq qurg‘oqchil, cho‘l iqlimi). Mos o‘simliklar: Daraxtlar: Saxovul, Haloxilon, Jiyda. Butalar: Qandim, Cherkez, Efedra. Gulli o‘simliklar: Cho‘l atirguli (Desert rose), Zamin o‘simliklar: Artemiziya, G‘ubayra.

Andijon, Namangan, Farg‘ona (Vodiy hududlari – iliq va nam iqlim). Daraxtlar: Nok, Olma, O‘rik, Chinor. Butalar: Quray, Barberry, Jiyda. Gulli o‘simliklar: Gulsapsar, Tulpan, Atirgul. Yerqoplagichlar: Zanjabil, Yasmin,

Navoiy, Buxoro, Xorazm (Qurg‘oqchil, sho‘rxok hududlar).

Daraxtлар: Jiyda, Yantoq, Karkas. Butalar: Tamariks, Saxovul, Oleandr. Gulli o‘simliklar: Lavanda, Gazaniya, Tagetes. Sho‘rga chidamli o‘simliklar: Seaside Daisy, Limonium, Atriplex.



Bahorgi gul kompozitsiyasi; Gullash davri: mart – may. Asosiy ranglar: och sariq, pushti, moviy. O‘simliklar: Tulpan (Tulipa) – markaziy element. Narsiss (Narcissus) – sariq va oq ranglar uyg‘unligi. Gulsapsar (Viola) – chegara va taglik uchun. Muscari (Grape Hyacinth) – orqa fon uchun moviy tus.

Tuzilishi: Tulpan va narsisslar orqa yoki markazda (50 sm oraliqda). Gulsapsar va muscari oldingi qismda zich ekiladi



- ***Mavsumiy o‘zgaruvchan gul kompozitsiyalarini ishlab chiqish;***

Yozgi gul kompozitsiyasi. Gullash davri: iyun – avgust Asosiy ranglar: yorqin qizil, to‘q ko‘k, oq. O‘simliklar: Petuniya – asosiy fon, turli ranglarda. Salviya (Salvia splendens) – qizil-sho‘x tus. Tagetes (Aksamitka) – jarliklarga chidamli, chegara uchun. Lavanda – hidli va uzun gullovchi fon o‘simligi.

Tuzilishi: Petuniya markazni egallaydi, salviya bilan navbatma-navbat aralashtiriladi. Chegaralarda tagetes va lavanda zich ekiladi.

Kuzgi gul kompozitsiyasi. Gullash davri: sentabr – noyabr. Asosiy ranglar: to‘q sariq, bordo, oq. O‘simliklar: Xrizantema (Chrysanthemum) – asosiy kuz guli. Sedum (Ertagi) – to‘q pushti rangli, cho‘zilgan. Aster – oxirgi kuzda gullaydi. Kale (ornamental karam) – dekorativ ko‘kat.

*Tuzilishi:*Xrizantema markazga joylashtiriladi. Aster va sedumlar oraliqlarda o‘sadi. Kale chetlariga go‘zallik kiritadi va qishga ham chidamli

Qishki kompozitsiya (Dekorativ + doimiy yashil). Asosiy ranglar: yashil, oq, kumush. O‘simliklar: Tuya daraxti (Thuja) yoki Juniper – markaziy doimiy yashil o‘simlik. Miscanthus yoki Pennisetum – quritilgan bezakli donlar. Dekorativ qovoq (quritilgan) – usti dekoratsiya sifatida. Yog‘och idishlar yoki archa shoxlari bilan bezak.

*Tuzilishi:*Kompozitsiya ko‘proq shakl va tuzilishga asoslangan. Yashil fon (thuja), don o‘simliklari va dekor bilan uyg‘unlikda. Bozor, maktab, shifoxona atrofida ustuvorlik bilan gulzorlar tashkil qilish; Yoritish, avtomatik sug‘orish, sensorli nazorat kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish; Loyihalarda mahalliy mutaxassislar va landshaft dizaynerlarini jalb qilish.

Xulosa. O‘zbekiston hududlarida zamonaviy landshaft dizayni asosida gulzorlar barpo etish orqali ekologik muvozanat tiklanadi, shaharlar jozibadorligi ortadi va fuqarolarning hayot sifati yaxshilanadi. Har bir hududning iqlimi, madaniyati va resurslariga mos yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov, B. (2020). Shahar landshafti va yashil infratuzilma. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. World Bank (2021). Urban Green Infrastructure in Central Asia: A Policy Brief.
3. Jalolov, O. va boshq. (2019). "O‘zbekiston shaharlarida landshaft dizaynining ekologik roli". Ekologiya va Atrof-muhit Jurnali, 15(2), 45–53.
4. FAO (2022). Climate-smart plant selection for drylands. Rome: FAO publications.
5. United Nations Habitat (2020). Green Cities for a Sustainable Future.

UDK: 379.854

AVTOMOBIL YO’LLARINING LANDSHAFT DIZAYNINI TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Hamidov Oybek Umarjon o’g’li
Namangan Davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola Namangan viloyatining turistik ob’ektlariga olib boruvchi avtomobil yo’llarida ladshaft arixitekturasi muhitini yangicha shakllantirish masalalari to’grisida.

Abstract: This article is about the issues of re-creating the landscape architecture environment on the roads leading to the tourist facilities of Namangan region.

Абстракт: Данная статья посвящена вопросам формирования ландшафтной архитектурной среды на автомобильных дорогах, ведущих к туристическим объектам Наманганской области.

Kalit so’zlar: Namangan, me’morchilik, landshaft, dizayn, yo’l, turistik, sayyoh, manzilgoh, yangi, iqlim.

Keywords: Namangan, Architecture, Landscape, Design, Road, tourist, tourist, destination, new, climate.

Ключевые слова: Наманган, архитектура, ландшафт, дизайн, дорога, турист, турист, место, новое, климат.

Kirish. Xalqimiz “Yo’lga e’tibor – elga e’tibor” deb bejizga aytishmagan. Chunki yo’llardan foydalanuvchi barcha insoniyat va shu o’rinda sayyohlar xarakatlanuvchi yo’llarning Namangan viloyati shaharlari va qishloqlararo joylashuvi, shaharlararo va davlatlararo turistlarga xizmat qiluvchi transport aloqalarining o’sishi birinchi navbatda avtomobil yo’llari tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishni taqazo etadiki, bu ayniqsa, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat axamiyatiga ega dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi PQ-2666 sonli qaroriga muofiq, O’zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risidagi qaror qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida Namangan viloyatida ham turizm sohasini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan davlat turizm qo’mitalari tashkil etildi. Hukumatning ushbu dasturiy rejalarga muvofiq hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo’yicha turizm saloxiyatini jadal rivojlantirish turistik me’moriy va madaniy ob’ektlarni takomillashtirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Xususan Namangan viloyatining hududlararo turistik ob’ektlarni bir-biri bilan bog’lovchi avtomobil yo’llarining bugungi kun arxitekturaviy-estetik va landshaft muhitini yaxshilashga qaratilgan xarakat davlatimiz 2030-yilgacha Yangi O’zbekistonni barcha soxalarda rivojlantirish strategiyasiga asosan turizm infratuzilmasi ham rivojlantirish dasturiga kiritilgan.

Xalqimiz “yurgan daryo, o’tirgan bo’yro” deb bejiz aytishmagan. Yo’l yurgan turistlar uzluksiz xarakatda bo’lib, ijtimoiy Hayotdagi yangiliklar, turistik ob’ektlarda aholining yashash joylaridagi xalqning madaniyati, jumladan bunyodkorlik va qurilish madaniyati va turmush tarzi xaqidagi axborotlarga ham ega bo’ladilar. Shu o’rinda yo’l texnologik inshoot, u “inson – avtomobil – yo’l” xarakatlanish tizimining tarkibiy qismidir. Anashu tizimning samarali ishlashi va demakki, inson va jamiyatning samarali xayoti va ushbu tizimning nafaqat texnik, balki estetik me’moriy landshaft yechimiga, ularning yaxlit mushtaraklikda hal qilinishiga ko’p jihatdan bog’liqdir.

“Yo’l bo’yi landshaft arxitekturasi”– bu yangi g’oya yoki atama emas. Bu atama sobiq ittifoqda XIX asrning 30 – 40 yillaridan boshlab amaliyotda shakllana boshlagan edi. Bugungi kunda u nafaqat yo’l qoplamasi va u bo’ylab joylashgan turistlar uchun xizmat ko’rsatish bino va inshootlari arxitekturasini, balki yo’lning yaxlit fazoviy muhitini uni tashkil etuvchi elementlarning, atrof – muhitining me’moriy dizayni va landshaft tizimini o’ziga qamrab olgan. Bu atamaning mazmuni “yo’l qurilishi”dan aynan anashu jihatlari bilan farq qiladi. Yo’l qurilishga yo’lning mustaxkamligi, qurilishning tejamkorligi, texnologik va muxandislik – texnikaviy jarayonlarni ta’minlash kirsa, “yo’l bo’yi landshaft arxitekturasi” tushunchasi yo’lning tashqi badiiy ko’rinishiga, uning fazoviy, me’moriy–rejaviy va landshaft yechimlariga, foydalanishdagi qulayligi, tashqi muhit bilan garmonik bog’liqligi, dizayniga asosiy e’tiborni qaratadi.

Xullas, yo’l bo’yi landshaft arxitekturasi va qurilishi bir – biriga zid tushunchalar bo’lmay, aksincha, yo’l qurilishi yo’l arxitekturasining boshlang’ich tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham bugungi kunda yo’l

quruvchi muhandislar arxitektor, dizayner va landshaftchi me'morlar bilan ijodiy xamkorlikda ishlashlari kerak.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, butun dunyoga yuz tutib, boshqa davlatlar orasida obro'si oshmoqda va Respublikamiz hamda Namangan viloyatida ham turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani sari yurtimizga kelib – ketayotgan sayyohlar soni ham tobora ortib bormoqda. Shubxa yo'qki, kelgan mehmonlarning mamlakatimiz va Namangan viloyati to'g'risidagi ilk taassurotlari yo'l va yo'l bo'yidagi me'moriy landshaft manzaralaridan boshlanadi. Demak, yo'l to'shamasining ravon va sifatli qilib yotqizilishidan tashqari, yo'llardan foydalanuvchi aholi va turistlar uchun barcha turdagi yo'l ko'rsatgichlari va belgilarining aniq va ko'rkamligi, dizayni, haydovchilar va yo'lovchi turistlarning ma'lum masofada to'xtab dam olishlari, transportlarga yoqilg'i quyish shahobchalari, ustaxona va mehmonxonalar, tamaddixona va shunga o'xshash qulayliklarni bo'lishi birlamchi va tabiiy talabdir [1].

Shular jumlasidan yo'l yoqalaridagi atrof muhitning toza va obod bo'lishi, me'moriy landshaft yechimlari ham kiradi. Landshafti ijobiy yechilmagan yo'l gul ekilmagan bog'ga o'xshab turadi. Bog' ekishning o'ziga xos uslublari bo'lganidek, yo'l muhiti landshaftini shakllantirishda ham o'ziga hos tamoyillarga rioya qilish zarur.

Birinchi tamoyil; bu qurilishi rejalashtirilgan avtotrassani hudud landshaftiga, relefiga mutanosiblashtirishdir. Yani trassa tekislikdan o'tadimi yo qiyalikdan,
pastu – baland joylardan, bundan qa'tiy nazar, uni o'tkazishda iloji boricha yo'lni mavjud tabiiy landshaftga shakliy moslashtirishni talab qiladi. Ma'lumki, to'g'ri uzundan – uzun ravon, bir xil yo'nalishdagi tekis yo'l Haydovchini toliqtiradi., xaddan ziyod burilishlar, baland pastliklardan iborat yo'llar ham xaydovchiga xavf tug'diradi. Demak yo'llar har ikkala holatdan kelib chiqqan holda tejamli, texnik jihatdan qoniqarli, landshaftga mos tarzda qurilishi kerak. Yo'l o'zining tashqi ko'rinishidan joy landshaftiga kontrast tushuvchi – sun'iy kommunikatsion qurilmadir. Shuning uchun ham yo'llarning turistik ob'ektlarga yaqin, go'zal tabiiy landshaftli, eko turistik manzilgohlar va tarixiy me'moriy, madaniy – ma'rifiy obidalarga yaqin tomoshabop joylardan o'tishi maqsadga muofiqdir [2,4].

Ikkinchi tamoyil; bu yo'l yoqasi muhitining landshaft yechimiga qaratilgan. Yo'l yoqasiga yaqin zich, qator ekilgan dov-daraxtlar yo'lni quyosh nuridan saqlaydi va soya – salqin muhit xosil qiladi, biroq u haydovchidan atrof – muhitni pana qiladi. Yo'l bo'yidagi qator daraxtlar uzoqdan haydovchiga yo'l burilishini ko'rsatib turadi, xaydovchi to'satdan yo'ldan chiqib ketsa daraxtga urilish xavfi tug'iladi. Shuning uchun ham tanasining qalinligi 15 santimetrdan katta bo'lgan daraxtlarni yo'l chetiga yaqin joylashtirish noto'g'ridir. Siyrak ekilgan daraxtlar qatori esa atrof – muhitni pana qilmaydi, biroq kunning muayyan soatlarida yo'lda qator "zebra" soyalari xosil qilib haydovchi ko'zini charchatadi. Yo'l ustiga mevali va shohchalarning uzilib tushishi, yo'llarda hosil yig'uvchilarning paydo bo'lish holatlari uchraydi. Biroq, bog' cheti frontini yo'lga yaqin keltirish mumkin, bunda masofa avtomobilning o'rtacha hisobidagi tezligidan 5 marta kam bo'lishi shart. Biz tadqiqot ishimizda yo'l oldi landshaftini shakllantiruvchi ekinlarni rejada uch zonaga bo'lib, yo'l qoplamasi yoniga maysa o'tlar ekishni, keyin butalar va oxirida daraxtlar ekishni taklif qilamiz.

1-rasm. Shahar, tuman va qishloqlarni bir-biri bilan bog'lovchi asosiy yo'l tarmoqlari.

(Barcha ko'kalamzorlar avtomobil gazi va changlarga chidamli bo'lishi shart).

Yo'l bo'yidagi ko'kalamzorlar, shu jumladan, mavjud daraxtzor va o'rmonzorlardan foydalanish yo'l atrofi landshaftiga uyg'un tarzda qo'shilishiga yordam beradi, biroq bir xil tusli daraxtlar fronti ham zerikarli ko'rinishi yuzaga keltiradi. Yo'l bo'yidagi landshaftlar guruhlar ko'rinishida shakllantirish, daraxtzorlar frontini esa yangilik va butalar bilan siyraklashtirib tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Biroq, o'ta takroriy, ritmik joylashgan, o'xshash, bir xil o'lchovlarga ega bo'lgan guruhlar ham tomoshabin yoki haydovchilar uchun zerikarlidir. Shuning uchun ham ularni avtomobil yo'li bo'ylab turli masofalarga turli o'lcham shakllarda, manzaraviy kompozitsiyalarda joylashtirish taklif etiladi. Ana shuday turli kompozitsiyalarda joylashgan daraxtzorlarga ijobiy misol tarzida Namanganning turistik ob'ektlariga olib boruvchi tumanlararo avtotrassalarining yo'l bo'yilarida "Namangan olmalari" mevali bog'lari barpo etish ham mo'ljallangan. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomagistrallar bo'ylab ana shunday bog'lar yaratishni yo'l landshaftining ijobiy yechimlari qatoriga kiritish mumkin [3,4].

Yo'l bo'ylarida turistlar uchun qizaqarli bo'lgan landshaft muhitini yaratish uchun, Namangan markazidan eko turistik hududlarga olib boruvchi katta yo'l bo'ylarida ham mevali xo'jalik bog'lari tashkil qilingan. Ana shu bog'larga aloxida me'moriy – rejaviy shakllar berilib, yo'l muhiti landshaftini yanada go'zal va o'ziga xos milliy yechimlariga erishish mumkin. Ana shu maqsadda biz Yangiqo'rg'on, Pop tumanlari, eko turistik hududlariga olib boruvchi yo'llarda mavjud xo'jalik bog'lari negizida O'rta Osiyo bog' – istiroxatchilik san'atiga xos an'anaviy "chorbog'" usulini qo'llab me'moriy bog' bunyod etishni taklif qilamiz [5].

Bog' yo'l chetida unga parallel rejalashtirilib, uch qismdan iborat bo'ladi: birinchi qismda milliy bog' – istiroxatchilik san'atining eng yaxshi na'munalari va yutuqlari namoyish etiladi, ikkinchi qismi xalq sayllari:

Navro'z va hosil bayrami o'tkazishga mo'ljallanadi, uchinchi qismida esa ziyoratchi sayyohlar uchun zamonaviy mehmonxona va avtokemping binosini jaylashtirish mumkin. Bo'g'da manzarali va mevali daraxtlar ekish, chorchama gulzorlar, favvoralar, so'ri va tapchanlar, shu jumladan dam olish joylarini tizimli rejalashtirish ko'zda tutiladi. Biz tadqiqot ishimizdan maqsadimiz kelajakda yangi loyiha takliflar asosida barpo etiladigan bog' yo'ldan o'tayotgan turistlar uchun go'zal va so'lim landshaft muhitini tashkil etish lozim [5,6].

Xulosa Shu o'rnida aytish joizki Namangan viloyatiga turistlarni jalb qilish uchun ularga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil yo'llarini yaxshilash, yo'l bo'yi xizmatlari va u yerdagi landshaft muhitlarini yangicha ko'rinishini kashf etish zarur.

Shu o'rinda turistik manzilgohlarga olib boruvchi yo'l bo'yi hududlarini zamonaviy jahon talablari asosida rejalashtirish, yo'l bo'yi xizmatlarini takomillashtirish u yerdagi barcha kamchiliklarni bartaraf etish, hududlarda me'moriy yechimlarni maqsadli shakllantirish lozim.

Avtomagistrallarda landshaft arxitekturasini takomillashtirish loyihalarini amalga oshirish hozirgi kunda muhim omillardan biri hisoblanadi. Demak Namangan viloyatidagi dam olish maskanlariga olib boruvchi yo'llar landshaft arxitekturasini rivojlantirish uchun eng avvalo turistik ob'ektlarning landshaft madaniyati va moddiy imkoniyatlarini yaxshilash, yuqori darajaga ko'tarish orqali Respublikamizga tashrif buyuradigan sayyohlar sonini oshirish tarihiy diqqatga sazovor binolarning umriboqiyligini oshirish imkoniyati yaratiladi hamda ularda landshaft arxitekturasiga ehtiyoj, hayotiy zaruratga aylanadi.

Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. – T., 2016.
2. Хасанов А.О. Ўзбек миллий автомагистрали бекатларида микроиқлимли муҳит яратишнинг баъзи масалалари //Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. - Самарқанд, 2013. - №1
3. Isamuxammedova D.U., Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi (II-qism). – T., 2010.
4. Uralov A.S., Hamidova D.A. Landshaft arxitekturasi va dizayning yer relefi bilan bog'liq qurilmalarni shakillantirish bo'yicha uslubiy ko'rsarma. – Samarqand, 2012.
5. Qayimov A. Landshaft qurish. – T., 2005.
6. Воронова О. Ландшафтный дизайн: шаг за шагом. – М., 2011.
7. Qosimov I.M. Bino va inshootlar arxitekturasi. Darslik. "Science and Innovation" nashriyoti. Toshkent.– 2024.

QISHLOQ AHOLI YASHASH JOYLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),dotsent

Berdiqulov Jasur Begimovich
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi" ixtisosligi II-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Maqolada qishloq aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish, tabiiy muhitni yaxshilash, aholining salomatligini muhofaza qilish va umumiy hayot sifati va ekologiyani oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, quyida bu yo'nalishdagi ishlar haqida kengroq ma'lumot va takliflar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maskan, me'moriy qurilmalar, me'moriy landshaft, aholi hududi, sanoat hududi, tashqi hudud, mevali bog'lar, tomorqalar, muntazam rejalashtirish, peyzaj uslubi.

Kirish. O'zbekiston tuproqlari faqat vohalardagina ko'kalamzorlashtirish uchun qulay bo'lib hisoblanadi. Bu erdagi qadimdan sug'oriladigan tuproqlar, quvvatli agroirrigatsiya qatlamiga ega. Yangidan o'zlashtirilgan erlarda esa ko'kalamzorlashtirish ishlarini sho'rlagan, qumloq, shag'allik tuproqlarda yoki tubdan melioratsiyaga muxtoj bo'lgan mineral jins tuproqlarda olib borishga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlari hamda gidrologik holatlari har xil bo'lib, ko'p hollarda sug'orish imkoniyatlari suv zahiralarining kamligi yoki tuproqlarning sho'rlanishi oqibatida chegaralangandir.

O'zbekistonda o'simliklarning iqlimlashtirilishi yaxshi yo'lga qo'yilganligi hududlarni ko'kalamzorlashtirishda yangi yuqori manzarabop xususiyatga ega bo'lgan daraxtlar turlarini va butalarini ko'paytirishga imkon beradi, umuman yangicha bo'lgan landshaftlar yaratilib, mintaqalar qiyofasini butunlay o'zgartirishga hizmat qiladi.

Qishloq aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish shaharlarni ko'kalamzorlashtirishga o'xshash bo'lsada, qishloq joyining rejasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qishloq aholi yashash joylari quyidagilarga ajratiladi:

1) aholi hududi – turar uy joy binolari, madaniy-maishiy va jamoat binolari;

2) sanoat hududi – chorvachilik va parrandachilik fermalari, omborxonalar, ustaxonalar va boshqalar;

3) tashqi hudud –mevali bog‘lar, tomorqalar, sabzavot bog‘chalari, qishloq atrofidagi kichik o‘rmon yoki o‘rmon parki ko‘rinishidagi himoya hududi va boshqalar.

Aholi yashash punkti bilan xo‘jalik – ishlab chiqarish inshootlari orasida 30 metrdan 300 metrgacha kenglikda himoya ekinzorlari barpo etiladi. Tomorqa hududining asosiy tarkibiy qismi – xovli-joy maydoni bo‘lib, u erda uy, omborxona, parranda va hayvonlar uchun ko‘chalar, asalari uyalari, parniklar, uy oldidagi to‘siqli kichkina mevali bog‘, tomorqa, gazonlar, gulzorlar joylashtiriladi.

Tadqiqot usullari. Maxsus tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘cha tarmog‘ining zichligi imoratlar zichligi bilan barqaror bog‘liq bo‘lib (8), uning oshishi (yuqori sanitar-gigienik ko‘rsatkichlar saqlangani holda) shaharsozlikning zamonaviy bosqichida dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Biroq rejali kompozitsiya mazmundorligining darajasi qanday bo‘lmasin, u muvofiq hajm-makonda amalga oshirilishni talab qiladi. Bir xildagi rejaviy yechimlar asosida har xil makoniy yechimlar olinishi mumkin.

Qulaylik jihatidan moslashtirilmagan, rejaviy struktura bilan yetarlicha uzviy bog‘lanmagan imorat rejadagi kompozitsion imkoniyatlarni neytrallashtirishi va aksincha, rejaviy hamda hajm-makoniy struktura o‘zaro ta'siri shaharsozlik kompozitsiyasini boyitishi mumkin. Masalan, yangi qurilishlarning ko‘plab hududlarida erkin rejalashtirishning qo‘llanilishida kommunikatsion va hajm-makon strukturasining moslashtirilmaganligi "xaos monotoniyasi"ni yuzaga keltirib, ularning makoniy obrazining keskin qashshoqlashuviga olib kelgan. Hamma joyda qo‘llanilayotgan erkin rejalashtirishning badiiy natijalaridan qoniqmaslik oqibati qizil chiziqlar bo‘ylab ko‘chalarda qurilishga qaytish bo‘ldi. Bu kommunikatsiyalarning kompozitsion rolini kuchaytiradi, yangi qurilish hududlarini makoniy tashkil etilishiga ma'lum struktur aniqlik baxsh etadi. Shunday bo‘lsa-da kvartal hajmini kamaytirmasdan perimetral qurilishning ommaviy qullanishi xaos monotoniyasi bilan almashtirilishi xavfini to‘g‘diradi. Qizil chiziq bo‘ylab joylashgan uylar ortida ulkan, hajman Dvorsovaya yoki Mars maydonidan ham katta, o‘zlashtirilmagan va o‘zlashtirilmaydigan kvartal ichki makonlar mavjud. Ularning o‘zlari bunda xech narsani to‘sib turmagan devorlardek yoqimsiz taassurot tug‘diradi. Shahar hududlarining oshib borayotgan tanqisligi sharoitida kvartal ichki makonlar ertami-kechmi, ko‘p hollarda perimetr bo‘ylab joylashgan uylarga qaraganda yuqoriroq me'moriy sifatdagi uylar bilan to‘ldiriladi. Bunday uylarning shaharsozlik-kompozitsion imkoniyatlari dastlabki rejali kompozitsiya tufayli cheklangan bo‘ladi.

MOH doirasida ko‘chalarning rivojlangan va ierarxiyalashgan tarmog‘ining yaratilishi magistrallar va piyodalar ko‘chalari makonlarini kompozitsion muvofiqlashtirish masalasini mos yechishga imkoniyat yaratardi. Piyodalar harakatlanuvchi ko‘chalar makonlaridan magistrallar makonlariga o‘tish, masalan, o‘z ko‘lamiga ko‘ra oraliq maqomidagi MOH ning

chegaralovchi magistrallarini o‘zaro bog‘lovchi MOH transport-piyodalar bosh ko‘chasining makoni bilan amalga oshiriladi.

MOHning zamonaviy maydonlarida bunday ko‘cha uzunligi 1.5-2 km.ga teng bo‘lishi, ya’ni piyodalar marshrutining yo‘l qo‘yilgan hajmdan kattaroq bo‘lishi kerak. Qiyoslash uchun eslatib o‘tamizki, ko‘pchilik shaharlardagi piyodalar ko‘chalari 1 km.dan oshmaydi. Yelisey maydonlari va Neva prospekti kabilar uzunligi ikki kilometrga yaqinlashadi (2000 va 2850 metr). Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday ko‘chalar nafaqat vizual orientirlar bilan, balki rejaga oid vositalar – yon tomondan istiqbollar ochilishi, maydonlar yaratilishi yo‘li bilan vizual obrazni boyituvchi yon ko‘chalar bilan kesishmalar yordamida qisqaroq bo‘laklarga ajratilishi lozim. Bunday turdagi shaharsozlik kompozitsiyasining mumtoz namunasi bo‘lib, Nevskiy prospekti va unga daxldor ko‘chalar, maydonlar, suv havzalari xizmat qiladi.

Bunday kattalikdagi ko‘cha, tabiiyki, faqatgina turar joy uchun mo’ljallanmaydi. U o‘ziga yaqin atrofdagi turar joy hududlariga xizmat ko‘rsatish vazifalarini hamda umumshahar ahamiyatiga ega xizmat ko‘rsatuvchi, odatda magistrallarda joylashadigan muassasalar bir qismini olishi mumkin va shu tufayli magistrallardan piyodalar oqimlari chetlashtiriladi.

Magistrallar oralig‘idagi hudud ko‘chma ma’noda o‘z markazi, bosh ko‘chasi, magistrallarga MOH ko‘chalari bilan kesishuv joylari – “darvozalari”ga ega “shahar ichidagi shahar” sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki an’anaviy tarzda shahar kompozitsiyasining ahamiyatli, “tugun” elementlari markaziy maydon, bosh ko‘cha va shahar devorlari hisoblagan. Darvozalar yaqinida ibodatxonalar barpo etilgan. Shu sababli MOH ko‘chalarida magistrallarga bevosita chiqish joylarida savdo va xizmat ko‘rsatish umumshahar yoki tuman ahamiyatiga molik korxonalarning joylashtirilishi nafaqat funksional, balki muvofiq kompozitsion vositalar bilan o‘ynalishi mumkin bo‘lgan madaniy-ramziy ma’noga ham ega bo‘lishi mumkin. Ko‘cha bo‘ylab MOH ichiga xarakatlanishda umumshahar ahamiyatiga molik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tuman miqiyosidagi muassasalar bilan almashishi mumkin. Bunday muassasalar yig‘indisi MOHning rejasi hamda makon-hajmli kompozitsiya vositalari bilan alohida ajratilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan o‘z markazini yaratadi.

Magistrallar oralig‘idagi hududlar ichida funksional va kompozitsion rang-barang ko‘chalarning rivojlangan tizimi yaratish yangi qurilishlar hududlarining vizual obrazini jiddiy boyitishi, shahar muhitining sifatini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sufizm va musulmon olami me’morchiligi atamalari, ularning matnda o’rni, matn va uning lisoniy taxliliga oid tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 28-30 sentabr, 1998-yil.- Samarkand, 1999, 25-26.

2. Memorchilik va qurilish atamalarining o’rganish muammolari « Ta’lim muammolari. Toshkent, 1999, № 3,38-42. hammuallif: T.Fayziev.

3. Формирование терминологической базы в архитектурном наследии и методы его описания « вестник проблемы образования.- Ташкент, 1999, №3, стр.38-41.

4. Метод формирования графического изображения объекта «олий таълим ахборотномаси. Техник фанлар бўлими. - Тошкент, 2000,№3, 211-216.

5. Эпохо темуридов- основа структурно-планировочного развития историческогогорода «Узбекистон архитектураси ва курилиш. – Тошкент, 2000, 1-сон, 18-20.

6. Shaharsozlikdagi ekologik muammolar “Bunyodkorlik, ma’naviy barkamollik-sog’lom avlod xizmatida” mavsumidagi ilmiy – amaliy anjuman materiallari. – Samarkand, 2000, 67-73.

7. Рол’ архитектуры и градостроителство всоциалном развитии общества «Парадигмы социалного развития. Материалы международной конференции. – Самарканд, 2001,стр.41-45.

8. Историческая концепция градостроителства «Меъморчилик ва қурилиш муаммолари (Илмий-техник журнал). –Самарканд, 2004, №3, 41-46-бетлар. Хаммуаллифлар: Юлдашева М., Кушманов Т., Косимов А.

9. Н. Д. Кострикин. план города как основа формирования его художественного образа. Диссертация.М., Мархи, 1977, с. 103-104.

KICHIK SHAXARLARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Xayitboyev Nodirbek Komiljon o’g’li, SamDAQU o’qituvchisi
Xo’jamov Ziyovuddin, SamDAQU katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Tadqiqotda kichik shaharlarni yangi innovatsion rivojlanish tamoyillariga asoslangan barqaror rivojlanishi, shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va funksional rejaviy jihatdan rivojlanishi, ekologik va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlagan holda hayotiy faoliyat uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsad qilinadi. Shuningdek, aholining moddiy va ma’naviy boyliklardan kelgusi avlodlar manfaatlariga zarar yetkazmagan holda, kichik shaharlarni barqaror rivojlantirish uchun soha mutaxassislari fikriga ko‘ra, eng birinchi navbatda aholi punktining rejaviy takomillashtirish jarayonida insonlarga biologik va ijtimoiy jihatdan qulay parametrlarga ega muhitni shakllantirish zarurligi o‘rganilgan. Maqolada insonlarning hayotiy faoliyati muhiti sifatida transport, muhandislik, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy aloqalar bilan bog‘lanishga ega bo‘lgan aholi punktlari fazoviy strukturalari ilmiy asoslar bilan tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Barqaror rivojlantirish, transport, muxandislik, rejaviy struktura, arxitekturaviy – rejaviy, hududiy tashkillashtirish.

Annotation. The study aims to create favorable conditions for life activities while ensuring the sustainable development of new innovative development principles of small cities, the economic, social and functional development of cities, environmental and Social Security. Also, in order to sustainably develop small cities, without harming the interests of future generations from material and spiritual resources of the population, the opinion of industry experts is primarily studied the need to form an environment with biologically and socially favorable parameters for humans in the process of planned improvement of the settlement. The article analyzes the spatial structures of settlements with connections to transport, autonomy, social, economic and natural communications as an environment of vital human activity with scientific foundations.

Keywords: Sustainable Development, transport, autonomy, plan structure, architectural – plan, territorial organization.

Kirish. Samarqand viloyati respublika hududining markazida joylashgan bo‘lib, aholi joylashuvining yuqori zichligi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, sanoatning turli sohalari integratsiyalashuvi, turli foydali qazilmalar zahiralari mavjudligi va rivojlangan qishloq xo‘jaligining shakllanganligi bilan mamlakatimizning boshqa hududlariga ham xos xususiyatlarni o‘zida jamlagan. Samarqand viloyati urbanizatsiya darajasi bo‘yicha respublikada o‘rtacha mavqega ega bo‘lib, umumiy aholi sonida shahar va qishloq aholi soni taxminan teng miqdorda taqsimlangan. Samarqand viloyatidagi kichik shaharlar asosan qishloq xo‘jaligi rivojlangan hududlarda joylashib, ularning shahar tashkil qiluvchi bazasi agrar sanoati korxonalari bilan bog‘liqdir.

Asosiy qism. Ijtimoiy va tarixiy sharoitlar xususiyatiga ko‘ra, ushbu hududlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib berishga ixtisoslashganligi sababli, sanoatning boshqa sohalari rivojlanmaganligining asosiy sabablaridan biridir[2]. Hozirda viloyat markazi Samarqand shahri aholisi ko‘payishi va hududiy kengayishining cheklanishi, shuningdek, viloyatdagi kichik shaharlarni rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu masalaning yechimi kichik shaharlarning rivojlanishini, ularning rejaviy tarkibini innovatsion yondoshuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Hududiy rivojlanishning ushbu xususiyatlari, kichik shaharlarning funksional rivojlanishidagi yo‘nalishlar, shakllangan rejaviy strukturasining takomillashtirish tamoyillarini ilmiy jihatdan maxsus tadqiqot o‘tkazilishini taqozo qiladi. Tadqiqotimizda Samarqand viloyatidagi kichik shaharlarning hududiy aholi joylashuvidagi shakllanish xususiyatlari, ularning rejaviy strukturasining rivojlanish omillari aniqlanib, ularning rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan va quyidagi masalalarga aniqlik kiritilgan:

- kichik shaharlarni guruhli aholi joylashuvi - aglomeratsiyadagi ahamiyati va o’rni aniqlangan;
- kichik shaharlarni rejaviy strukturasini shakllanish xususiyatlari va takomillashtirish yo’llari belgilangan;
- kichik shaharlarning funksional turlari aniqlanib, ularning rejaviy tuzilishi aniqlangan;
- kichik shaharlarning hududiy – rejaviy rivojlanishining muvozanatlashtirish xususiyatlari aniqlangan;
- kichik shaharlarning shaharga xos elementlarining rejaviy – strukturaviy xususiyatlari aniqlangan;

Tadqiqotimiz amaliy ahamiyati hududlar rejalashtirish sxemalari, kichik shaharlar bosh rejalari va batafsil loyihalarni ishlab chiqilishida foydalanish bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik shaharlar shakllanishidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda, ularning rejaviy strukturasini takomillashtirish va rivojlanish tamoyillarini aniqlash uchun differensiyalangan yondoshuv talab qilinadi. Rivojlanishi stabillashtirilgan kichik shaharlarda, ularning rejaviy strukturasini rivojlantirish funksional zonalarni mutanosib ravishda rivojlanishi asosida shakllangan shahar hududidan samarali foydalanish hisobida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir[4].

Kichik shaharlarni yangi innovatsion rivojlanish tamoyillari birinchi navbatda ularning barqaror rivojlanishini ko‘zda tutadi. Barqaror rivojlanish – bu hudud va shaharlarni iqtisodiy, ijtimoiy va funksional rejaviy jihatdan rivojlanishi bo‘lib, ekologik va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlagan holda hayotiy faoliyat uchun qulay sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish aholining moddiy va ma’naviy boyliklardan kelgusi avlodlar manfaatlariga zarar yetkazmagan holda foydalanishni ko‘zda tutadi. Kichik shaharlarda barqaror rivojlanish uchun soha mutaxassislari fikriga ko‘ra, eng birinchi navbatda aholi punktining rejaviy takomillashtirish jarayonida insonlarga biologik va ijtimoiy jihatdan qulay parametrlarga ega muhitni shakllantirish zarurligi ta’kidlangan. Insonlarning hayotiy faoliyati muhiti sifatida transport, muhandislik, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy aloqalar bilan bog‘lanishga ega bo‘lgan aholi punktlari fazoviy strukturalari tushuniladi. Aholi punktlari guruhli tizimlarida barqaror funksiyalarni bajarilishi va inversiya rivojlanishi kichik shaharlarda amalga oshiriladigan arxitekturaviy-rejaviy va hududiy tashkillashtirish masalalariga chambarchas bog‘liqdir[6].

Ko‘pchilik kichik shaharlar geografik joylashuvining qulayligi, ma’lum darajada shakllangan transport va muhandislik infrastrukturasining mavjudligi, atrof-muhit, yer va suvning ishlab chiqarish axlatlari bilan ifloslanmaganligi, muhitning tarixiy, madaniy va estetik ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, kichik shaharlarda bir qancha negativ holatlar ham mavjud. Masalan, kichik shaharlarda aniq funksional zonalashtirish va xizmat ko‘rsatish tizimining ierarxik tashkillashtirilishi talab darajasida emas. Iqtisodiy jihatdan kichik shaharlarning hududiy strukturalari tizimli rivojlanmaganligi, transport va muhandislik tizimlarida mavjud muammolar bilan birgalikda kichik shaharlarni ijtimoiy-

iqtisodiy bazasining shakllanishida muammolarni yaratmoqda. Hozirda hududlarda ijtimoiy-demografik holat, tebranish migratsiya jarayonlarini kichik shaharlarda mehnat o‘rinlarini tashkil qilish va hayot tarzining ijtimoiy-madaniy darajasini ko‘tarish asosida yechilishini taqozo etadi. Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagilarni qayd etish kerakki, kichik shaharlarda innovatsion shaharsozlik yechimlari qo‘llanilishi natijasida iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va ekologik masalalar o‘z yechimini topadi[7].

Kichik shaharlarning aholi joylashuvidagi funksional strukturasining shakllanishi ikki asosiy jarayon ta’siri ostida amalga oshadi.

- aholi joylari funksiyalarining differensiyasi natijasida ko’p sonli ixtisoslashgan kichik shaharlar rivojlanishi; (1-rasm)

- aholi joylari funksiyalarining integratsiyasi natijasida 2 - 3 va ko’proq funksional strukturali ko’p tarmoqli kichik shaharlar rivojlanishi; (2-rasm)

Yuqoridagilarga asoslangan holda, Samarqand viloyati aholi joylashuvidagi kichik shaharlarning funksional turlari quyidagilardan iborat: sanoat shaharlari; ilmiy shaharlar; rekreatsion shaharlar; transport shaharlari; logistika shaharlari; qishloq tumanlarining ma’muriy-xo’jalik shaharlari; ko’p funksiyali shaharlar;

Kichik shaharlar rivojlanishi guruhli aholi joylashuvi shakllanishining uch asosiy maqsadiga xizmat qiladi:

1- lmiy-texnik rivojlanish yutuqlaridan to‘liq foydalangan holda ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlarini ratsional tarzda joylashtirish va intensivlashtirish orqali rivojlanishini ta’minlash.

2- Insonlarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish, aholi punktining kattaligi va turidan qat’i nazar, ularda yashaydigan aholiga ijtimoiy-madaniy rivojlanish imkoniyatlarini yaratib berish.

3- Guruhli aholi joylashuvida kichik shahar rejaviy strukturasining tabiiy muhit bilan ratsional aloqasini ta’minlagan holda tabiiy va antropogen faktorlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va yaxshilanishini ta’minlash.

Kichik shaharlarni guruhli aholi joylashuvidagi ahamiyati va urnini ularning uch yo’nalishdagi vazifalarni bajarishi orqali aniqlanadi:

-xalq xo’jaligidagi ishlab chiqarish vazifalari;

-ijtimoiy-madaniy vazifalari;

-sog’lomlashtirish-gigienik vazifalari.

Kichik shaharlarning guruhli aholi joylashuvida xalq xo’jaligidagi vazifalari quyidagi faoliyat turlarini bajarilishi bilan bog’liq.

-tabiiy resurslar (qazilma resurslar, agrar resurslarni o’zlashtirish, kurort – sog’lomlashtirish resurslaridan foydalanish va boshqalar);

-sanoat hududiy majmualari tarkibida ishlab chiqarishni tashkil etish;

-markaziy shahar ilmiy-izlanuvchi va ishlab chiqarish majmuasiga qo‘shimcha sifatida ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni tashkillashtirish;

-qishloq hududlarida ishlab chiqarish, xo’jalik va tashkiliy faoliyatni boshqarish;

-yirik hududiy-xo’jalik majmualari yoki bir majmuadagi elementlar o’rtasida tranzit transport aloqalarini ta’minlash;

-aholining maxsus (masalan, an’anaviy gilam to’qish) mehnat ko’nikmalari asosida ishlab chiqarishni tashkillashtirish.

Ijtimoiy-madaniy sohada kichik shaharlar potensiali guruhli aholi joylashuvida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratiladi.

-o’zi markaz bo’lgan qishloq aholi punktlari nisbatan ajralib qolganligini bartaraf etib, ularda ijtimoiy – madaniy potensialni rivojlantirish;

-qishloq aholisini mahalliy guruhli aholi joylashuvi markazlari ijtimoiy-madaniy faoliyat doirasiga jalb kilish bo’yicha faoliyat;

-o’zi markaz bo’lgan tumanlar ijtimoiy – siyosiy va tashkiliy boshqarish bo’yicha faoliyat;

-o’zi markaz bo’lgan tumanlarda ijtimoiy xizmat sohasi bo’yicha faoliyat;

Guruhli aholi joylashuvida kichik shaharlarni sog’lomlashtirish-gigienik vazifalari quyidagilardan iborat.

-aholining ma'lum katlamlari (ko'p bolali oilalar, keksalar, nogironlar) uchun qulay yashash muhitini yaratish;

-aholi uchun tibbiy muolaja va sog'lomlashtirish, dam olish sharoitlarini yaratish;

-rekreatsion-sog'lomlashtirish sohasini tashkiliy – xo'jalik va ijtimoiy-madaniy xizmatlar jihatidan tashkillashtirish;

-guruhli aholi joylashuvidagi yirik va katta shaharlar aholisi uchun qiska va uzoq muddatli dam olish-soglomlashtirish joylarini tashkillashtirish;

Kichik shaharlar aholi punktlari tarmog'idagi o'rni va ahamiyati bo'yicha aholi joylashuvining turli darajadagi strukturaviy elementi sifatida shakllanadi: Respublika darajasidagi; viloyat (hudud) darajasidagi; tumanlararo darajasidagi; tuman darajasidagi va mahalliy darajadagi. Aglomeratsiyalar rivojlanishining analizi shuni ko'rsatadiki, strategik rejalashtirish hozirgi davrdagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, aholi joylashuvining fazoviy rivojlanishining ustuvor amalga oshirilishida uch asosiy muammo mavjud: ierarxik struktura markazlarining tayanch markazlarini ajratilgan holda politsentrik strukturaga o'tishi; tayanch markazlarining ustuvor aloqalarini taminlaydigan yuqori tezlikdagi transport aloqalarini shakllantirish; etiborni tabiiy landshaft va madaniy merosni saklashga qaratilishi zaruriyati[5]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi, aholi joylashuvi shakli va shaharsozlik loyihalash ob'ektlarining murakkablashuviga olib kelgan. Guruhli aholi yashash tizimlari, alohida shahar va qishloq joylari orasidagi iqtisodiy, mehnat, madaniy-maishiy va boshqa aloqalarni intensivlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu esa hayot muhitini nafaqat alohida aholi joylari chegarasida, balki rivojlangan shaharsozlik tizimlari – aholi joylashuvining tizimlari doirasida takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi. Bu tizimlar, o'z navbatida, yanada yirikroq subregional va regional darajadagi makoniy-rejaviy birikmalar tarkibiga kiradi. [6].

Xulosa qilib. Kichik shaharlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkillashtirish, ularga hududlar doirasida yangi geosiyosiy vazifalarni yuklatish, unumdor yerlardan samarali foydalanish uchun tabiiy-antropogen kompleksidan foydalanish, hududlarning (viloyatlarning) shaharsozlik qonunlari asosida tashkillashtirish, mahalliy ma'muriy organlar vakolati va majburiyatlarini konkretlashtirilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirishni birgalikda ko'rib chiqilishi natijasida yangi **innovatsion-iqtisodiy-shaharsozlik** yondoshuvni shakllanishiga asos yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Умаров М.У. Градостроителные аспекты развития сельских населенных пунктов в системе расления Узбекистана. Автореферат диссертации на соискании учёной степкни кондитдата архитектуры. Ташкент, 2010.

2. Аскаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. – Ташкент: Издательство журнала «Санъат», 2014.;

3. Axmedov M.Q. O'zbekiston o'rta asrlar me'moriy ansambllari taraqqiyotining tarixiy–nazariy asoslari. Me'morchilik dok. dis. – Toshkent: TAQI, 1996.;

4. Воронина В.Л. Ансамбли Среднеазиатских городов// Архитектурное наследство. – М.:1976. - № 24;

5. Лавров В. А. Город и его общественный центр. – М.: "Стройиздат", 1964. – С. 23.

6. Пугаченкова Г.А. Памятники архитектуры Средней Азии эпохи Наваи. – Тошкент: Издательство САГУ, 1957. – С. 94.

7. Ноткин И.И. Эволюционно–структурные процессы в среднеазиатском градостроительстве XVIII – XIX вв.// Градостроительство и архитектура. – Ташкент, 1989. – С. 81.

8. Нурмухаммедова Ш. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. – Ташкент, 2018

UDK: 711.432

YO'L ARXITEKTURASINING EKOLOGIK MODERNIZATSIYASI: IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI BARQAROR YONDASHUV

Xamrakulov O. M. Doktorant (PhD),
Ilmiy rahbar: **Aymatov A. A.**
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo'l infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilish zarurati, ayniqsa, iqlim o'zgarishining transport va shaharsozlik tizimiga ta'siri kontekstida tahlil etiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 4-aprel kuni Samarqandda o'tkazilgan Xalqaro Iqlim Forumidagi nutqiga tayanilgan holda, zamonaviy va ekologik yo'l arxitekturasi uchun taklif etilayotgan yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, ekologik barqarorlik, yo'l arxitekturasi, yashil transport, Prezident nutqi, Samarqand, modernizatsiya.

Kirish. So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik tizimlarga, balki urbanizatsiya va infratuzilma sohalariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Transport tizimining ekologik izini kamaytirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqandda bo'lib o'tgan Xalqaro Iqlim Forumidagi nutqi ushbu masalani chuqur tahlil qilishga turtki berdi. **Prezidentning nutqi** orqali ko'rsatilgan tashabbuslar, shaharlar va transport tizimlarining ekologik jihatdan

barqaror bo‘lishi, yangi arxitektura va infratuzilma yondashuvlarini taqdim etadi. Ushbu maqolada ekologik yo‘l arxitekturasi va modernizatsiya masalalari kengroq yoritiladi, shuningdek, O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lida olib borilayotgan sa’y-harakatlar tahlil qilinadi.

Yo‘l infratuzilmasi va ekologik iz. An’anaviy yo‘l qurilishi ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda eng katta ekologik xavf - bu transport sektori tomonidan chiqarilayotgan issiqxona gazlarining ortishi, bu esa global iqlim o‘zgarishining sabablaridan biridir. **GIZ (2021)** ma’lumotlariga ko‘ra, transport sohasi jahon miqyosida issiqxona gazlarining 23% ini tashkil qiladi, bu esa global iqlim o‘zgarishini kuchaytirishga olib keladi.

Ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi boshqa faktorlar quyidagilar:

- **CO_2 miqdorining ortishi**: Yo‘llarning kengayishi va transportning ko‘payishi natijasida atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid miqdori ortadi.
- **Shahar mikroiqlimining buzilishi**: Beton va asfalt yuzalari havoning issiqlikni saqlashiga yordam beradi, bu esa shaharlarning "issiqlik oroli" effektiga olib keladi.
- **Tabiiy yashil hududlarning qisqarishi**: Yo‘llar va transport infratuzilmasi qurilishi tabiiy yashil hududlarni qisqartiradi va biologik xilma-xillikni kamaytiradi.
- **Tirbandlik sababli energiya sarfining ortishi**: Transportdagi tirbandlik energiya sarfini orttiradi, bu esa iqlimga salbiy ta’sir qiladi.

Shu sababli, ekologik infratuzilmaga o‘tish zaruriyati tobora oshmoqda, chunki yangi ekologik yondashuvlar transport sektorining iqlimga bo‘lgan ta’sirini kamaytirish va shaharlarni barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida ekologik muammolarning Markaziy Osiyo uchun xavfli tus olayotganini ta’kidladi. O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun transport tizimini modernizatsiya qilish zarurligini aytib, u quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

1. **Transport tizimini zamonaviylashtirish**: Elektr transportni rivojlantirish, shuningdek, yo‘l infratuzilmasini ekologik toza texnologiyalar bilan jihozlash zaruriyati ta’kidlandi. O‘zbekistonning turli shaharlari va qishloq hududlarida elektr avtobuslar, tramvaylar va elektromobillarni ommalashtirishga alohida e’tibor qaratildi.
2. **“Yashil Makon” loyihasi**: Shaharlarda ekologik muvozanatni tiklash va tabiiy hududlarni saqlab qolish maqsadida mavjud yashil maydonlarni kengaytirish. Bu tashabbusni amalga oshirish orqali shaharlardagi havoning sifatini yaxshilash va tabiiy manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.
3. **“Yashil Belbog‘” kampaniyasi**: Mintaqaviy ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, mintaqaviy transport va arxitektura tizimlarini barqarorlashtirishga qaratilgan tashabbus.

Bu tashabbuslar nafaqat transport tizimining ekologik modernizatsiyasi, balki butun shahar infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga katta turtki bo‘lishi mumkin.

Ekologik yo‘l arxitekturasi yondashuvlari. Bugungi kunda zamonaviy ekologik yo‘l arxitekturasi ekologik izni kamaytirish va shaharlarni barqaror rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Quyidagi innovatsion echimlar asosida yo‘l infratuzilmasini ekologiklashtirish mumkin:

1. **Elektr transport infratuzilmasi**. Shaharlar va qishloqlarda elektr transport vositalarini joriy etish uchun kerakli quvvat stansiyalarini barpo etish. Elektr avtobuslar, elektromobillar va metro tizimlarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi.
2. **Velosiped infratuzilmasi**. Shaharlarda veloyoqalarni kengaytirish va velosiped ijarasini joriy etish. Bu, birinchidan, ekologik transport vositalarini qo‘llab-quvvatlash, ikkinchidan esa odamlarning sog‘lig‘ini yaxshilashga yordam beradi.
3. **“Yashil yo‘llar” konsepsiyasi**. Yo‘l yoqalari va chorrahalarda tabiiy zonalarni tiklash, tuproq va daraxtlar yordamida yo‘lni ekologik toza qilish. Bu konsepsiya shaharlarni "yashil"lashtirishga va havoning sifatini yaxshilashga yordam beradi.
4. **Quyosh panelli yoritish tizimi**. Yo‘l yoritgichlarini quyosh batareyalari yordamida ishlovchi tizimlarga almashtirish. Bu, yo‘llarning energiya sarfini kamaytiradi va ekologik izni qisqartiradi.

Samarqand misolida taklif. Samarqand shahridagi Dahbet yo‘li chorrahasi nafaqat shaharga kirish nuqtasi, balki transport va yo‘l infratuzilmasining yangi ekologik yondashuvlari uchun strategik hududdir. Bu yerda taklif etilgan yechimlar quyidagilardir:

- **Qavatli yo‘l va aylanma harakat sxemasi**: Shaharga kirishdagi tirbandlikni kamaytirish uchun qavatli yo‘llar va aylanma harakat tizimlarini joriy etish.
- **Piyodalar uchun yerosti va yerusti yo‘laklar**: Piyodalar harakatini xavfsiz qilish uchun yerosti va yerustu o‘tish joylari.
- **Yo‘l infratuzilmasi bilan bino integratsiyasi**: Yangi yo‘l tizimlari va binolarni bir-biriga integratsiya qilish orqali arxitektura va transport tizimlarini uyg‘unlashtirish.
- **Ekologik filtrli asfalt qoplamalari**: Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun ekologik toza asfalt qoplamalaridan foydalanish.

Bularning barchasi Samarqandning ekologik yo‘l infratuzilmasini yaxshilashga yordam beradi va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga yordam beradi.

Xulosa. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari O‘zbekistonda ekologik siyosatni rivojlantirish va barqaror shahar infratuzilmasini yaratish uchun kuchli asos bo‘ladi. Tadqiqotda keltirilgan ekologik yo‘l arxitekturasi va modernizatsiya yondashuvlari iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda va shaharlarda yashash sharoitlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2025). Xalqaro Iqlim Forumi nutqi, Samarqand, 4-aprel 2025 – https://president.uz/en/lists/view/8025
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Yashil Makon tashabbusi – https://president.uz/en/lists/view/7690
3. Daryo.uz (2025). Prezident Mirziyoyev: Iqlim muammosi bizdan hamjihatlikni talab qiladi – https://daryo.uz/en/2025/04/04/president-mirziyoyev-calls-for-climate-action
4. GIZ (2021). Sustainable Urban Transport Project Report.
5. Jane Jacobs (1961). The Death and Life of Great American Cities.
6. Newman, P. & Kenworthy, J. (2015). The End of Automobile Dependence: How Cities Are Moving Beyond Car-Based Planning.
7. Xamrakulov O.M. (2024). Arxitektura-planirovochnyye resheniya po formirovaniyu avtologistikikh tsentrov i razrabotka nauchno-proyektnykh predlozheniy**.** // Me'morchilik va qurilish muammolari (ilmiy-texnik jurnal)**.** Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, 2024, maxsus son, s. XXXX.

SHAHAR EKOLOGIYASINING ATMOSFERAGA TA'SIRI

Fayzulla Chorshanbayev, Chinnigul Meliyeva
Aziza Ziyatova, magistr Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Imomjon Ziyatov magistr Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Anatasiya: Atmosferaning ifloslanishi jiddiy ekologik muammo bo'lib, uning oldini olish uchun sanoat chiqindilarini kamaytirish, yashil energiya manbalariga o'tish va havo tozalash texnologiyalaridan foydalanish lozim. Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi kerak: daraxt ekish, transport vositalaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi oddiy odatlarni hayotga tatbiq etish muhimdir.

Shunday qilib, atmosferaning tozaligini saqlash nafaqat inson salomatligi, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Inson, atmosfera, ekologiya, gazlar, Tabiat, Daraxt, karbonat angidrid, azot oksidlari, uglevodorodlar va chang

Abstract. Air pollution is a serious environmental problem, and to prevent it, it is necessary to reduce industrial emissions, switch to green energy sources, and use air purification technologies. To ensure environmental sustainability, everyone must contribute: it is important to implement simple habits such as planting trees, rational use of vehicles, waste reduction, and recycling.

Thus, maintaining a clean atmosphere is important not only for human health, but also for future generations..

Key Words. Human, atmosphere, ecology, gases, Nature, Tree, carbon dioxide, nitrogen oxides, hydrocarbons and dust.

Bu mavzu bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Atmosfera faqatgina tirik organizmlarni kislorod bilan ta'minlovchi manba bo'lib qolmasdan, erning himoya qobig'i ham hisoblandi. Atmosferani bir necha himoya funksiyalari mavjud.

1. Atmosfera erga bosim berib turishi orqali mavjud narsalarni uchib ketishdan saqlaydi.

2. Atmosfera tarkibidagi ozon qavati erga tushadigan quyoshning ultrabinafsha nurlarini 5% ini ushlab qolib, erdagi tirik organizmlarni kuyib ketishdan saqlaydi.

3. Atmosfera tarkibida kislorodni mavjudligi erga tomon uchib keladigan meteoritlarni yonib ketishiga sababchi bo'lib, erni kuchli turtkidan asraydi.

4. Atmosferani mavjudligi erda yig'ilgan quyosh energiyasini ochiq koinotga tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Agar atmosfera bo'lmaganda er kundo'zi 1000 gacha issiq, kechqurun 1000 gacha sovuq bo'lardi. Bunday harorat o'zgarishiga xech qaysi tirik organizm moslasha olmaydi.

Shahar ekologiyasi - bu shaharlardagi inson faoliyati, sanoat, transport, aholi zichligi va tabiat muvozanati o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi. Aynan shu omillar atmosferaga kuchli ta'sir qiladi.

Shahar atmosferasiga ta'sir qiluvchi omillar

1. Transport vositalari: Avtomobillar, avtobuslar va yuk mashinalari havoga karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NOx) va chang zarralari (PM2.5) chiqaradi.Bu moddalar **havoni ifloslantiradi** va inson sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi.

2. Sanoat korxonalari: Zavod va fabrikalardan chiqadigan tutunlar havoga oltingugurt dioksidi (SO_2), metan (CH_4), va boshqa zararli gazlarni chiqaradi. Bu gazlar issiqxona effektini kuchaytiradi va kislotali yomg'ir keltirib chiqaradi.

3. Uy xo'jaligi va isitish tizimlari: Ko'mir, gaz yoki boshqa yoqilg'ilarni yoqish orqali havo ifloslanadi. Ayniqsa, qish faslida tutun ko'payadi.

4. Qurilish ishlari: Qurilish maydonlarida chang, ohak, sement kabi zarrachalar havoga ko'tariladi.

- Bu esa havoning sifatini pasaytiradi va nafas yo'llari kasalliklari xavfini oshiradi.

Atmosferadagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar: Modda

- CO_2 (karbonat angidrid)
- NOx (azot oksidlari)
- PM2.5 / PM10
- SO_2 (oltingugurt dioksidi)
- CH_4 (metan).

Atmosferadagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar: Manbasi

-Transport, sanoat

- Avtomobillar, elektr stansiyalar
- Ko‘mir yoqilishi
- Kislotali yomg‘ir
- Chang va tutun
- Chiqindilar, sanoat Issiqxona effekti.

Atmosferadagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar: Ta’siri

- Global isish |
- Nafas olish muammolari
- O‘pka kasalliklari, allergiya |

Shahar ekologiyasining atmosfera uchun xavfli oqibatlari.Iqlim o‘zgarishi - issiqxona gazlari ortadi, global harorat oshadi. Sog‘liq muammolari - odamlar orasida allergiya, astma, yurak va o‘pka kasalliklari ko‘payadi. Kislotali yomg‘ir - o‘simliklar va suv resurslariga zarar yetkazadi. Smog (tumanli havolar) ko‘rish qobiliyatini pasaytiradi, odamlar havo yetishmovchiligini sezadi.



Yechimlar va tavsiyalar

- Elektromobillarga o‘tish, jamoat transportidan ko‘proq foydalanish.
- Daraxt ekish va yashil zonalarni ko‘paytirish.
- Sanoat chiqindilarini filtrlash.
- Energiya tejamkor qurilmalar va texnologiyalarni qo‘llash.
- Shahar atrofidagi “yashil belbog‘lar” ni kengaytirish.

Atmosferani tabiiy tozalanish jarayoni asosan 3 xil yo’l bilan amalga oshadi.

1. Yashil o’simliklar orqali.
2. Atmosfera yog’inlari (qor, yomg’ir, tuman) tufayli.
3. Quyosh nuri ta’sirida kechadigan (fotokimyoviy) reaksiyalar sababli.

Atmosfera havosi erni o’rab olgan gazli qatlam-tabiiy omillardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida bir qancha gazlar bo’lib, ularning asosini azot, oksigen (kislorod), karbonat angidridi, xidrogen (vodorod) argon va boshqa inert gazlar tashkil etadi. Ma’lumotlarga qaraganda, er ustidagi havo qatlami yuqoriga qarab 1500 km gacha tarqalgan. Bu albatta, shartli chegara hisoblanadi.

Atmosfera havosi quyoshning issiqlik nurini o’zidan o’tkazib, saqlaydi. Atmosferada bulutlar paydo bo’ladi, undan yomg’ir, qor bunyodga keladi, shamol hosil bo’ladi. O’z navbatida, atmosfera erga namlik beradi, tovush o’tkazadi, hayotbaxsh oksigen manbai hisoblanadi. U modda almashinuvi jarayonida hosil bo’lgan gazlarni qabul qiladigan havza bo’shlig’i, xayvonot dunyosi va odam organizmida kechadigan issiqlik almashinuviga va boshqa fiziologik jarayonlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shu boisdan ham atmosferada sodir bo’ladigan fizik, kimyoviy va biologik o’zgarishlar tirik organizmlarga, shu jumladan, inson sog’ligiga o’z ta’sirini ko’rsatishi mumkin.

Atmosfera havosidagi xar bir gaz o’ziga xos fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega bo’lib, ular tabiatda ma’lum bir o’rin tutishi bilan ajralib turadi.

Insoniyatga, qolaversa barcha jonivorlarga hayot baxsh etadigan atmosfera havosini hozir asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli-antropogen manbalar ifloslantiradi.

Antropogen ifloslanishlar asosan sanoat korxonalari avtomobil, havo, temir yo’l, suv transportlari chiqindi va ajratmalari, shuningdek, turli xil yoqilg’ilar ishlatilishi natijasida paydo bo’ladigan zararli moddalarning havo havzasiga tushishi oqibatida sodir bo’ladi.

Hozir fan-texnika rivojlangan bir davrda atmosfera havosining ifloslanishi tobora kuchayib bormoqda. Atmosfera havosining doimiy (stasionar) ravishda ifloslantiruvchilarga sanoat korxonalari, kommunal va quvvat ishlab chiqaruvchi ob’ektlar kirsa, harakatdagi ifloslantiruvchilarga avtomobil, temir yo’l va havo transport vositalari kiradi.

Ma’danlarni maydalash, saralash, kuydirish va boshqa tur ishlov berishlarda 1m3 havoga 500 mg atrofida chang chiqadi.

Atmosferaning ifloslanishi deyilganda havoga zaharli birikmalarning qo’shilishi natijasida uning fizik va kimyoviy xususiyatlarini o’zgarishi tushuniladi. Antropogen ifloslanishlar asosan avto va havo transportlari, temir yo’l, suv transportini chiqindilari (40%), energetika sanoati chiqindilari (20%), sanoat korxonalari chiqindilari (14%), qishloq xo’jaligi va uy-xo’jalik chiqindilari (26%) chiqindilari ochiq muhitga tushishi orqali sodir bo’ladi.

So’nggi yillarda inson ta’sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o’zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o’zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlangan.

Atmosferada sodir bo’ladigan fizik, kimyoviy va biologik o’zgarishlar tirik organizmlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino aytganidek “Agar havoda chang va tutun bo’lmasa inson ming yilgacha umr ko’rgan bo’lardi”.

Havoning kuchli ifloslanishi insonlar sog’lig’iga, qolaversa barcha jonzotlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bir kishi sutka davomida o’rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi. Havo tarkibidagi zararli chang, qurumlar, zararli gazlar kishi organizmida to’planaveradi. Oqibatda teri va ko’z kasalliklari, jigar sirrozi, qon bosimining ortishi, surunkali bronxit, enfizima, nafas qisish va o’pka raki

kabi kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bolalar o'rtasida umumiy kasallanishning ortishi qayd qilingan.

Havoda oltingugurt oksidi ko'p bo'lishi natijasida kishilarda bronxit, gastrit kasalliklari vujudga keladi.

Atmosfera havosining ifloslanishi o'simlik va hayvonlarga ham zarar etadi. Ifloslangan havo o'simliklarni zararlab, ularda modda va energiya almashinuvini buzadi. Qishloq xo'jalik ekinlari va mevali daraxtlar ham kam hosilli bo'lib qoladi. Sanoat va transportdan chiqqan zararli gazlar fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi, transpirasiyani 3 barobargacha qisqartiradi.

Mas: Qayrag'och dalalarda 300-400 yil yashasa, shahar parklarida 120-220 yil, avtomobil yo'llari atrofida 40-50 yil yashar ekan.

Atmosferaning ifloslanishi hayvonlarga ham ta'sir etib, ularning zaharlanishiga, ba'zan esa nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hayvon turlarining kasallanib, zaharlanib, qirilib ketishida urushlarning, xususan AQShning Ve'tnamda, Laosda olib borgan urushlarida kimyoviy qurollarni qo'llash tufayli 170 qush turidan hozir 24 qush turi, 55 sut emizuvchilar turidan 5 turi qolgan.

Atmosferaning ifloslanishi jiddiy ekologik muammo bo'lib, uning oldini olish uchun sanoat chiqindilarini kamaytirish, yashil energiya manbalariga o'tish va havo tozalash texnologiyalaridan foydalanish lozim. Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi kerak: daraxt ekish, transport vositalaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi oddiy odatlarni hayotga tatbiq etish muhimdir

Shahar ekologiyasi, ayniqsa transport, sanoat va aholi turmush tarzi atmosferaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu ifloslanishlar nafaqat inson salomatligiga, balki butun ekotizimga tahdid soladi. Uni kamaytirish uchun har birimiz mas'ulmiz.

Adabiyotlar

1. F. Z. Chorshanbayev, Ziyatov A. F. The influence of the external and internal environment on rooms in a city residential building, Procedia of Theoretical and Applied Sciences Volume 5 | March 2023 ISSN: 2795-5621 Available: http://procedia.online/index.php/applied/index

2. Fayzulla Ziyatovich Chorshanbayev, Chinnigul Otaqulovna Meliyeva, Aziza Ziyatova; "Study and development of the places and works of urban planning based on norms and order" "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS" Modern scientific problems and trends 92, pages 19-26 2018, issue 11 part 1 December 2018 Collection of scientific works WARSAW.

3. Otoboev Sh. T., Iskandarov TI "Communal hygiene" Textbook for students of medical universities.-T., Sino publishing house, 1994. 383 p., 51.21 UDK 613.5

4. F.Z. Chorshanbayev "Fundamentals of city construction" Study guide. Source of science. Samarkand sh. 2021y 10, 192

5. F.Z. Chorshanbayev, Ch. O. Meliyeva "Landscape organization in the adaptation of residential areas". Architecture and construction problems (scientific and technical journal), 164 (2020), 22-25b.

6. F.Z. Chorshandayev, Ch.O. Meliyeva, A. Ziyatova "The role of traditions in the establishment of historical cities". Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. 7, 2022, pp. 57-62, 2022, www.geniusjournals.org

7. Chorshanbaev F.Z., Melieva Ch.O., Ziyatova A.F., "Justification for eliminating congestion on Samarkand city streets and roads, science and technology". World Studies, 115-120, 2020.

8. Yongqiang Zong, Xiqing Chen. 1998 Yangtze Flood, China's Natural Hazards. 2000. No. 22. P. 165–184.

SHAHARSOZLIK VA AHOLI PUNKTLARIDA LANDSHAFT ARXITEKTURASINI SHAKILLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mirzaolimov Azizbek Abduxokim o'g'li.
SamDAQU doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Arxitektura va shaharsozlik obyektlari kabi landshaft arxitektura obyektlarini loyihalamasdan amalga oshirish mumkin emas. Respublikamiz 1-Prezidenti Islom Karimov "binoning yaxshi arxitekturasi bu yaxshi ish, lekin uning atrof muhit landshafti ham unga monand bo'lmog'i kerak" deganlarida aynan ana shu talabni nazarda tutganlar. Darhaqiqat, agar biz shahar va qishloqlarimiz jamolini fayzli va ko'rkam bo'lishini xohlasak, nafaqat ularda qurilayotgan bino va inshootlar arxitekturasiga, balki ochiq muhitlar arxitekturasi, ya'ni obyektlar yon atrofi landshaft arxitekturasining loyihalariga ham ahamiyat berishimiz zarur.

Kalit so'zlar: Arxitektura, shaharsozlik, landshaft, ko'cha va yo'llar, me'moriy muhit, ko'kalamzorlashtirish, piyodalar yo'lagi, bulvar, skverlar, ekologiya, sog'lomlashtirish, sog'lom turmush, daraxtlar va butalar, obodonlashtirish, tabiiy landshaft.

Kirish. Har qanday aholi punktlarining arxitekturasi va manzaraviy landshaft tuzilishini yashil ko'kalamzorlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular nafaqat aholi punktining ko'cha muhitini yaxshilaydi, balki orasta va qulay me'moriy muhit, sog'lom mikroiqlim yaratish imkonini beradi, Azal-azaldan inson bilan tabiat orasidagi munosabatlarda, xususan aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirishda o'ziga xos uslublar, landshaft kompozitsiyalari, qurilmalar va an'analar shakllantrilib qo'llanilib kelingan. Bu uslub va an'analarning asosiylari, ishonchlilari va amalda sinalganlari ko'kalamzorlashtirishning qoida va qonunlariga aylanib, bu sohadagi landshaft arxitekturasi fani va amaliyotining tarkibiy asoslarini tashkil qilgan.

Dunyodagi ekologik vaziyat har yili yomonlashib borayotgan xozirgi paytda, shaharlarning rivojlanishi

strukturasiga ta’sir etmoqda. Bularning barchasi bizni, tabiiy majmualarni shahar tuzilishiga qaytarish uchun yangi yechimlarni topish haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Ko‘kalamzorlashtirish shaharlarni sog‘lomlashtirishning asosiy vositasi bo‘lib, muhim ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan yashil maydonni yaratadi. Daraxtlar va butalar optimal mikroiqlim sharoitlarini ta’minlaydi, havoning gaz tarkibini tartibga soladi, turar-joy hududlarini shahar shovqinidan himoya qiladi, mikroorganizmlarning o‘sishi va rivojlanishini o‘ldiradigan va bostiradigan fitonsidlarni chiqaradi, shuningdek go‘zallikning estetik manbai hisoblanadi. Yashil maydonlar ko‘chalarni, turar joylarni bezatadi, bino va inshootlarning arxitekturasini to‘ldiradi, shaharning jozibali qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Zichligi yuqori bo‘lgan qurilish sharoitlarida, hozirgi vaqtda ekologik qulaylikni hal qilishning muhim yo‘nalishi zamonaviy obodonlashtirish usullarini joriy etishdir.

Binolarning tomlarini obodonlashtirish, eko-parklardan foydalanish, tarzlarni vertikal ravishda obodonlashtirish, ko‘chma obodonlashtirish tizimlari aholi punktlari, shaharlar, megapolislarda ekologik qulaylikning shakllanishiga ta’sir qiladi. Endi yashil tomlar dekorativ va ekologik funksiyalarni bajaradi.

Ko‘kalamzorlashtirilgan va gullar bilan qoplangan, tomlar juda chiroyli va binoning estetikasini oshiradi. Yashil tomlar issiqlik izolyatsiyasini yaxshilaydi, havo changini kamaytiradi, xonani shovqindan himoyasini oshiradi, tomni ultrabinafsha nurlaridan himoya qiladi, yomg‘ir suvini tozalaydi, buning natijasida tuproq ifloslanishi va eroziyasi bo‘lmaydi .

Asosiy qism. Shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish tizimi: Shaharni rejalashtirishda muhim o‘rinlardan biri yashil maydonlarni egallaydi. Shahar aholisi uchun qulay va sog‘lom turmush sharoitlarini yaratish uchun shaharlarni qurishda ko‘kalamzorlashtirish tarmoqlari tarmog‘i, hajmi, funksiyasi va ta’siri jihatidan farqlanishi kerak.

Yashil ekinlar sanitariya-gigiyenik ahamiyatga ega. Ular harorat va namlik sharoitlariga ta’sir qiladi: hatto kichik bir yashil massiv yozda haroratni nafaqat o‘zida, balki atrofdagi joylarda ham bir necha darajaga tushiradi. Yashil hududlarda katta bug‘lanish qobiliyati bor, gorizontal va vertikal ventilyatsiyani rag‘batlantiradi; shamoldan, shovqindan, changdan, gaz ifloslanishidan himoya qiladi, havoni kislorod bilan boyitadi, karbonat angidridni qabul qiladi. Shuningdek, ular havoning ionlashiga ta’sir ko‘rsatadilar, ba’zi bakteriyalar va mikroorganizmlarning hayotiy faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi fitonsidlar ishlab chiqaradilar [4].

Yashillik insonda ijobiy ruhiy ta’sir ko‘rsatadi. Yashil maydonlarning muhim estetik qiymati bor. Ular shahar estetikasi va arxitekturasining to‘liq tarkibiy qismidir. Peyzajning ko‘magida siz individual binolarni bir butunga birlashtira olasiz, keng ko‘lamli kompozitsiyani yaratasiz, shaharning ko‘rinishini sezilarli darajada boyitasiz, shaharning har qanday hududiga o‘ziga xos ifodalovchi xususiyatlarini berasiz.

Yam-yashil transport arteriyalarida bo‘linadigan chiziq shakllanishida, sanitariya muhofazasi zonalarini tashkil etishda, uchastkalarni fextavonlashtirishda va gulanton jarayonlarini to‘xtatadigan yamaqlar mustahkamlanishida ustunlik rolini o‘ynaydi **(1-rasm).** Peyzaj qorlarni qorishmasining oldini oladi va kerak bo‘lganda, aksincha, qor qoplamini hosil qiladi.

1-rasm.Shahar ko‘chalari ko‘kalamzor sxemasi

Peyzaj tuzilishi, shaharning eng muhim tarkibiy elementi bo‘lib, uning hududida katta maydon egallaydi.

Funksiyaga ko‘ra, yashil hududlar uchta toifaga bo‘lingan:

Umumiy foydalanish - davlat o‘rmon parklari, shahar va tuman bog‘lari, bog‘lar, bulvarlar, ko‘cha va maydonlardagi ekinlar;

taqiqlangan foydalanish - korxona va korxonalar hududida (masalan, o‘quv yurtlarida, bolalar bog‘chalarida, kasalxonalarda) ekish uchun ichki bloklar (kichik tuman bog‘lari bundan mustasno), bog‘dorchilik, ekish;

maxsus maqsadlar - sanitariya-himoya va suvni muhofaza qilish zonalari, botanika va zoologiya bog‘lari, pitomniklar, qabristonlar.

Umumiy, cheklangan va maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan ekinlar shaharni obodonlashtirish tizimini tashkil qiladi.

Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish muammosi: Bugungi kunda shaharsozlikdagi asosiy muammolardan biri ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishdir. Aholi turar joylari shaharlar, tumanlar, qishloq va posyolkalarni ko‘kalamzorlashtirish bu joylarni obodonlashtirishning asosiy vositalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘kalamzorlashtirish ko‘lami aholi yashash madaniyatidan dalolat beradi. Demografik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ko‘kalamzorlashgan xududlarga aholi kelib muqim joylashadi, hamda bu joylardan ko‘chib ketishi kamdan-kam kuzatiladi.

O‘zbekiston kam o‘rmonli mamlakat, shu sababdan yashil o‘simliklar bu yerdagi tabiat ko‘rinishini belgilaydi. Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo‘llar, irrigatsiya inshootlari, suv omborlarini ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng ko‘lamda olib boriladi. Ihota va tog‘ meliorativ o‘rmonchilik ulkan ahamiyatga ega, chunki suv, havo va tuproqni muhofazalashda o‘rmonning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumat qarorlarida aholi yashash xududlarini obodonlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Hozirda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy tashkilotlar, nihol o‘stiriladigan ko‘chatxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda [1].

Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo‘yicha parvarishlashni tadbiq etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

O‘zbekistonda mavjud ko‘kalamzorlashtirish materiallari assortimenti cheklangan bo‘lib, uni ko‘paytirish va yaxshilash muhimdir. Ko‘chatxonalarda nobop, har qayerdan olib kelingan o‘simliklarni ekish va ko‘paytirish yaramaydi. Shaharlarda ekishga mos bo‘lgan, chidamli va uzoq umr ko‘radigan, qimmatli manzarali daraxtlardan jo‘ka, kashtan, eman, chinorlar, yavor zarangi, o‘tkir bargli zarang, lola daraxti, katalpa, ryabina, grab, ninabarglilar turlarini ekishga alohida e’tiborni qaratmoq lozim.

Tez o‘suvchi daraxt turlaridan terak turlari, oq qayin, tollar, ayniqsa, majnuntol, janubiy viloyatlar uchun esa safora, gledichiya, oq akatsiya, bunduk, aylant, yashil zarang, chinor va boshqalar diqqatga sazovordir. Shaharlar va turar joy massivlarini bezatishda, monumental ko‘kalamzorlashtirishda ko‘pgina manzarali shaklga ega bo‘lgan: piramidasimon, sharsimon, shoxlari osilib turuvchi (majnuntolsimon), ustunsimon, yaproqbargli va boshqalar katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, shaharlar, posyolkalar, turar joylar, mahallalar va qishloq aholi punktlarini bezatishlar, ularga chiroyli va shinam ko‘rk berishda yorqin ranglarda gullaydigan butalar: spireya, jimolost, jasmin, nastarin (siren), deysiya, kizilnik, tamarikslar, forzitsiyalar, biryuchina, sariq akatsiya, zarg‘aldoq (zolotistaya) smorodina va boshqalarning o‘rni beqiyosdir. Ushbu va ko‘pgina butalarning bebaho sifati shundaki, ular nafaqat tez o‘suvchi va shaharning o‘ziga xos ekologik sharoitlariga moslashuvchanligi bilan, balki manzarabopligi yuqori darajada bo‘lganligi bilan ahamiyatlidir [2].

Ko‘kalamzorlashtirish sohasi oldidagi vazifalarni yechishda, avvalo, o‘simlik turlarini ko‘paytirishda va ko‘chatxonalarda yetishtiriladigan maxsulotlar (o‘simliklar, ko‘chatlar) sifatini yaxshilashda hozirda mavjud bo‘lgan o‘simliklarning boy dendrologik fondidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy shahar yoki boshqa aholi yashash joylari – bu turli binolar, ko‘p sonli muhandislik inshootlari, yo‘llar, maydonlar, ochiq joylar, suv xavzalari va yashil ekinzorlarning murakkab kompleksidir (2-rasm). Shaharsozlik me’yorlariga ko‘ra, aholi yashash joylari xududlarining 50% dan kam bo‘lmagan qismi ko‘kalamzorlashtirish ob’yektlariga ajratilishi kerak.

Shaharsozlikdagi katta tajriba shuni ko‘rsatadiki, asosiy vazifalardan biri – tabiiy va sun’iy yaratilgan muhit o‘rtasida ma’lum muvozanat va garmonik ravishda uyg‘unlashuviga erishish, barcha ko‘kalamzorlashtirish ob’yektlarining o‘zaro bog‘liqligi va bir yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi.

Bog‘ hiyobonlarini yaratish san’atining muhim jihati – ularni tashkil etishda yashil daraxtlarning tabiiy o‘sgan xududlarini hamda badiiy ijod namunalarini bir tizimga birlashtirib, uyg‘unlashtirishdan iborat.

Yashil qurilish – uzoq vaqtni talab etadigan, yaratish texnologiyasi bo‘yicha murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, bir qancha ishlab chiqarish masalalarini yechish va tadbiq etish bilan bog‘liqdir. Yashil qurilish amaliyoti: bog‘ va hiyobonlarni yaratish; u yoki bu aholi yashash joylarini obodonlashtirish; har xil tuproq-iqlim sharoitiga mos bo‘lgan o‘simliklarni tanlash; arxitektura-qurilish inshootlari, suv havzalari, yo‘llar, maydonchalar, skulpturalarga mos ravishda o‘simliklarni joylashtirish va guruhlash; o‘simliklarni ekib parvarish qilish ishlarini o‘z ichiga oladi.

2-rasm. Zamonaviy shaharsozlikda ko‘kalamzor hududlar.

Ko‘kalamzorlashtirish masalalarini malakali ravishda yechish uchun mutaxassislar biologiya, ekologiya, yashil o‘simliklarning manzarabop sifatlari, yashil qurilishda kompozitsiyalar tuzishdagi asosiy uslublar, yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish tizimi, yashil ekinzorlarni loyihalash, ularni yaxshi holatda saqlash uchun olib boriladigan asosiy ishlar ko‘lami bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishlari lozim bo‘ladi [3].

Ushbu ma’lumotlar ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan o‘simliklar turlarini, daraxtbuta ekinlarining, manzarabop, biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish, yashil qurilishda kompozitsiyalar tuzishdagi asosiy uslublar bilan tanishish, aholi turar joylarini ko‘kalamzorlashtirish tizimi, uni loyihalashtirish, hamda O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlarida ko‘kalamzorlashtirish lozim bo‘lgan xududlarda olib boriladigan asosiy ishlar ko‘lamini bajarishni o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, shaharsozlikdagi katta tajriba shuni ko‘rsatadiki, asosiy vazifalardan biri – tabiiy va sun’iy yaratilgan muhit o‘rtasida ma’lum muvozanat va garmonik ravishda uyg‘unlashuviga erishish, barcha ko‘kalamzorlashtirish ob’yektlarining o‘zaro bog‘liqligi va bir yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi.

Bog‘ hiyobonlarini yaratish san’atining muhim jihati – ularni tashkil etishda yashil daraxtlarning tabiiy o‘sgan xududlarini hamda badiiy ijod namunalarini bir tizimga birlashtirib, uyg‘unlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni Park R.E., Burgess E.W.
2. Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent shahri, 2021 yil 30 dekabr
3. “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 223-sonli qarori. - Toshkent, 2013.
4. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding “Use of Modern Requirements in Beautification and Landscaping of City Streets” http://ijmmu.com editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 8, Issue 7 July, 2021 Pages: 41-47;
5. THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCINCES (TAJAS) “Greening And Landscaping Of The City Streets. The American Journal of Applied Sciences” SJIF-5.634 DOI-10.37547/tajas Volume 3 Issue 05, 2021 ISSN 2689-0992.

SHAHRISABZ SHAHARSOZLIGINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Tursunov Siroj Urolovich,
Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Mazkur Maqolada arxiologik tadqiqotlar.Sahrisabz shahri shaharsozligining vujudga kelishi va rivojlanishi xususyatlari davrlarga bo‘lib, o’rganib chiqilgan bo’lib, Shahrisabiz sharrining yillar davomida qanday nomlar bilan atalganligini bosqichma bosqich ko’rib chiqilgan .

Kalit so’zlar: Kesh, Kitob,paxsa, shahar,qa’la, qo’rg’on,Nashxab.

Kirish. Mustaqillikga erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarihini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu-tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarihini bilishni istaydi. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab inshootlar shu kungacha ko'rku-fayzini, mahobatini yo'qotmagan, yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi [1].

O’rta Osiyoning eng qadimgi shaharlardan biri bo’lgan Shahrisabz buyuk Amir Temurning muborak nomi bilan bog’liq shonli tarixga ega. Shahrisabz (“Yashil shaxar”) toponimi ilk bor 1351 yilda chig’atoy xon Bo’yonqulixon nomidan zarb etilgan tangalarda uchraydi. 1352 yilda shu xon nomidan zarb qilingan tangalarda Kesh nomi ham bor .(1). Shahar bir vaqting o’zida ko’hna va yangi nomi bilan yuritilishi uchrab turadigan hol. Cunonchi, XIII asrga oid tangalarda Toshkentga nisbatan turli darlarda qo’llanilgan uch nom - Shosh, Binkant, va Toshkent qayd etilgan.

Musulmon manbalarida ilk bor Kesh nomi dastavval VII asr oxiri va VII asr boshlarida qo’llanilgan .

O’rta asrlar yozma manmalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarvshon tizma tog’ining janubiy yonbag’irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob shahrining janubiy yonbag’irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob Shahrisabz yakkabog’, G’uzor O’radaryo vohasi yerlarini o’z ichiga olinganligi qayd etilgan. Uning markaziy shahri – Shahrisabz Kitob vohasida rivoj topgan.

Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida bu davrda oid 30 dan ortiq qal’alar, uy qo’rg’onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog’ tog’larini yonbag’rida joylashgan Daratepada mil. avv. VII- IV asrlarga oid g’isht va paxsadan qurilgan uy- joylar chizib ochilgan.Zarafshon tog’ tizmasi oldidagi Sho’robsoy Bo’yidagi Sangirtepa, Uzunqir, va Podayoqtepa yodgorlikari tekshirilgan (6,7). Sangirtepa o’rnida saroy shaklida qrilgan katta bir inshoot qoldiqlari o’rganilgan. Keng maydonni eallagan Uzunqir (70 ga) vohaning harbiy va ma’muriy markazi bo’lgan. Uzunqirdan Samarqand (Marokanda) gacha bo’lgan masofa 70 km.

O’sha davirda Uzunqir va umuman viloyatning nomi Nautaka (Navtaka) deb atalgan. Qadimgi so’g’d so’zi “Nataka”, “Yangi qulish ”, “Yangi shahar” deb tarjima qilinadi. So’zning “tak” qo’shimchasi “kuch”, “qudrat” , “quvvat” ma’nosida izohlanib, ushbu tushincha Uzunqir o’rinda mustahkam va qalin mudofa devorlari bilan o’ralgan yirik qal’a, harbiy tayanch markazining bunyod etilishi jarayonidan kelib chiqqanligini taxmin qilish mumkin.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma’limotlar Uzunqir o’rnida ilk temir davri shahar markazi mavjud bo’lganligidan dalolat beradi .Mill. avv. VIII- VII asrlarda manzilgoh atrofidagi katta hudud o’zlashtirilgan va shaharni g’arb, janub hamda sharq tamondan mudofaa devori bilan o’rash zarurati vujudga kelgan.

Qadimgi shahar qurilishida joyining tabiiy giyografik xususyatlaridan muvaffaiyat bilan foydalanilgan. Bu narsa birinchidan, uning joylashishida , ikkinchidan,mudofaa devorining ilonizi saklidagi janubiy qismi ko’rinishda o’z aksini topgan.

Janubiy So’g’ddagi ilk shaharlarning shakillanishi va rivojlanishiga misol qilib Uzunqirni ko’rsatish mumkin [4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Arab mualifi al- Yaqubiy ma’lumotiga ko’ra , Kesh ma’lum muddat butun So’g’dning poytaxtiga aylandi. Kesh shahri VII asrda siyosiy va iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlanib , Xitoy bilan siyosiy – iqtisodiy va madaniy aloqalari kuchaydi. Buyuk ipak yo’li orqali Kesh savdogarlari Uzoq sharq shaharlarigacha yetib borganlar [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Shahrisabz shaharsozligining vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlarini mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Uzunqir Shahrisab – Kitob vohasida ilk shahar tuzulmasining shakillanishiga misoldir. U yirik Shahar tuzilmasinng shakillanishiga misoldir. U yirik o’troq dehqonchilik vohasining hamda Janubiy So’g’ddagi Nautaka viloyatining xo’jalik, ma’muriy,harbiy va madaniy markazi bo’lgan.

Qariyib 70 ga hududni egallab olgan qalin mudofaa devorining mavjud bo’lishi shahar qurilishi yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bunday yirik shaharlarda albatta, qo,rg’on qarorgoh , saroy va diniy markaz, hunarmandlar guzarlari va yuqori darajada taraqqiy etgan hunarmandlik bo’lgan.

Mill.avv. III asrda Uzunqir aholisi Sho’robsoy bo’yidan Oqsuvdaryo - hozirgi Kitob hududiga ko’chib, shu joyda yangi shaharga asos solgan. Xuddi shu davrda

viloyat va uning markaziy shahri nomi yana bir bor o'zgargan. Xitoy yozma manbalarida u Suse nomi bilan ma'lum. Ushbu so'z "So'g'd" , ya'ni So'g'diyona tushinchasidan kelib chiqqan va xitoy manbalarida " Suse" deb yoritilan . Uning markaziy shahri maydoni 40 gektarga yetgan, shahar mustahkam mudofaa devorlariga hamda arkka ega bo'lgan VI- VII asrlardan boshlab bu shahar Kesh deb atala boshlagan.

VII- IX asrlarda Kesh va Nashxab Qashqadaryo vohasining asosiy shaharlari bo'lib qolgan edi. Ularning har birida ark, mustahkamlangan ichki shahar (madina, shahriston) va shahar atrofi – rabod mavjud bo'lgan. X asr arab mualliflari shahodat berishicha , Keshning shahristoni va ko'handizi ushbu davrda tashlandiq holga kelib qolgan. Keshda olib borilgan qazishmalar shundan dalolat beradi.

Ibn Xavqal bunday yozdi: " Kesh esa ko'handiz , qo'rg'on va rabodga tutashib ketgan boshqa madina ham mavjud. Undagi uylar loy va yog'ochdan qurilgan" . Ali- Maqsudiy ham Kesh madina va rabodga ega bo'lgan shahar bo'lganligini yozgan. Uning tasnifi hozirgi Shahrisabz o'rnida bo'lgan Keshga to'g'ri keladi, chunki manbada ichi madina ko'handizi bilan (kitob o'rnidagi ilk Kesh) tashlandiq holdaligi, tashqisida esa aholi zich joylashganligi ta'kidlangan. Lekin jome' masjid vayron bo'lgan madinada, bozorlar esa rabodda joylashgan.

Kesh viloyati Zaravshon tog'laridan G'uzor daryosigacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan bo'lib 16 ta tuman – rustoqlarni birlashtirgan.

Ibn – Xavqal va al- Maqsudiy tomonidan keltiradigan Keshning ta'rifi Eski Kesh (Kitob) va Yangi Kesh (Shahrisabiz)ga to'g'ri keladi. Eski Keshning ichki madinasi va ko'handizi bu davrda tashlandiq holga kelib, undan 7 km janub tomondan tashqi madina (Yangi Kesh) ravnaq topayotgan bo'lib, uning ikkta darvozasi, ular orqali o'tgan markaziy ko'chasi mavjud bo'lgan. Eski Kesh hududida jome' masjid zindon va bir qancha bozorlar joylashgan.

Shaharning gullab yashnagan davri VII asrning birinchi yarmiga to'g'ri kelib bu davrda Kesh So'g'dning (Qashqadaryo va Zaravshon vodiylari) poytaxtiga aylanadi.

Shahrisabz atrofida joylashgan o'rta asrlar shaharlari ichida ark va murakkab tarhga ega bo'lgan. Choshtepa va Sariqtepa yodgorliklari diqqatni tortadi. Choshtepa Shahrisabizning janubiy chetida joylashgan. Bir vaqtlar maydoni 10 gektarga teng bo'lgan. Yirik manzilgohda to'g'riburchak shaklidagi keng xandaq bilan o'ralgan qo'rg'on (125x 100 m balandligi 10 m) saqlangan. Fikrimizcha, Choshtepa qo'rg'on mustahkamlanmagan yashash qismidan iborat inshoat turini ifoda etadi.

Shahrisabz hudidida kelajakda olib boriladigan arxiologik tadqiqotlar Keshning IX- XII asrlardagi qarorgohini aniqlash masalasiga aniqlik kiritish mumkin. Fikrimizcha, u Choshtepa o'rnida joylashgan. Shu bilan birga, IX- XII asrlar Kesh ikki qismdan – ark va mustahkamlanmagan shahristondan iborat nisbatan o'rta hajimli shahar bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak. Ushbu turga Choshtepa bilan birgalikda hozirgi Shahrisabizdan g'arbda joylashgan Sariqtepa yodgorligi ham kiradi.

Shahrisabz atrofidagi o'rta asrlar manzilgohlarini o'rganish borasidagi dastlabki kuzatishlar IX-XII asrlarda Kesh nisbatan o'rta o'lchamlarga ega bo'lgan shahar ekanligini ko'rsatatadi. X asr arab geograflari tomonidan Keshning " tashqi shahri " sifatida talqin qilingan shahar Shahrisabz o'rnida rivoj topgan. Uning qarorgohi Choshtepada joylashib, IX-XII asrlardagi savdo va hunarmandchilik manzilgohi Shahrisabzning tashqi qo'rg'oni bo'lgan.

Qadimgi shaharsozlik madaniyati an'analariga Shahrisabzda davom etib , yangi asoslarda rivojlangan .Kesh Shahrisabznig gullab yashnagan ulug' davlat arbobi va sarkarda Amir Temur nomi bilan bo'liq.

Xulosa. Shahrisabz shahrida o'tkazilgan arxologik qazish ishlarida madaniy qatlamlarning o'rganish natijasida Sahrisabz shahri shaharsozligining me'moriy rivojlanish yuqori darajada rivojlangan deyish mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan manbalarda vohada ilk manzilgohlar temir davridan boshlangan degan xulosaga kelish mumkin. bu yerda me'morlik rivojlanish juda erta boshlangan. Shahrisabiz rivojlanish davrlarda turlicha nom bilan atalgan. Bunga misol qilib Suse, Sangirtepa, Podayotoqtepa, Uzunqir, Kesh deb nomlangan. Buyuk davlat arbobi sarkarda Amir Temur davridan boshlab Shahrisabz deb atalgan.

Shahisabzning rivojlanish boqichlarini quyidagicha davrlarga bo'lishi mumkin.

1 – Ilk asrlar mill.avv. I-VI asrlar bunga (Temir davri va Zardushtiylar davri).

2 - O'rta asrlar mill. avv.VI-XI asrlar bunga (Arablar va Qoraxoniylar hukumronlik qilgan davr).

3- XII- XVI asrlar bunga (Mug'ullar davri va Temur va Temuriylar davri).

4. XVI- XIX asrlar bunga (O'rta Osiyo xonliklari va Chor Rossiyasi davri)

5. XIX asr oxir va XX asr bunga (Sovet ittifoqi va mustaqillikkacha bo'lgan davr).

6 .XX asr oxiri va XXI asr boshlari bunga (Mustaqillik davri).

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shahrisabz mimg yillar merosi 2002 yil Toshkent.
2. Л.Ю.Маньковская архитектурные памятники Кашкадарьи. 1979 yil.Toshkent O'zbekiston.
3. "O'zbekistonda an'anaviy bog' va bog'dorchilik san'ati kecha,bugun va kelajakda" xalqaro ilmiy konfrensiya materiali".
4. S.U.Tursunov Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirishning ilmiy loyihaviy tahlili. Dissertatsiya 2018 yil Samarqand.
5. Farangiz, K., & Siroj, T. (2024). STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF SHAHRISABZ CITY. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827)*, *2*(4), 16-20.
6. Farangiz, K. (2023). WAYS OF FORMING AND DEVELOPING COMMUNITY CENTERS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 280-284.
7. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-

TRADITIONS AND INNOVATIONS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 198-204.
8. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-TRADITIONS AND INNOVATIONS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 198-204.

EKOLOGIK BARQOR SHAHAR LANDSHAFTINI YARATISHDA INOVATSION METODOLOGIYALAR

Aimbetov Islam Sapari'mbet uli'
TAQU, arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi kafedrasi doktoranti
Masaridinova Nilufar Abdurasulovna
SamDAQU, "Arxitektura" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ekologik barqaror shahar landshaftini shakllantirishda innovatsion metodologiyalarning roli, Urbanizatsiya, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi shahar muhiti sifatiga bevosita ta'sir etayotgani ta'kidlangan. Yashil infratuzilma, biologik xilma-xillik va raqamli texnologiyalarning (GIS, BIM, dronlar, IoT) samarali qo'llanilishi orqali barqaror landshaft tizimlarini yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, biomimikriya va ekodizayn yondashuvlari orqali tabiiylik va funksionallik uyg'unlashtirilgan landshaftlar misollar bilan keltirilgan. Singapur, Kopenhagen, Portland kabi shaharlarning ilg'or tajribasi o'rganilib chiqilgan

Kalit so'zlar: Ekologik barqarorlik, Shahar landshafti, GIS texnologiyasi, Ekodizayn, Biomimikriya, Aqlli shahar (Smart City)

Kirish. XXI asr urbanizatsiya jarayonining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanmoqda. Aholi sonining tez o'sishi, sanoatlashuv, transport oqimining ortishi va tabiiy resurslarning chegaralanganligi shahar muhitiga jiddiy bosim ko'rsatmoqda. Bu esa ekologik muammolarning chuqurlashishiga, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar sonining ortishiga va shahar infratuzilmasining beqaror holatga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shunday sharoitda ekologik barqarorlik tamoyillarini shaharsozlik va landshaft arxitekturasi jarayonlariga joriy qilish muhim masalaga aylangan.

Ekologik barqarorlik - bu inson faoliyati natijasida tabiiy muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit bilan muvozanatli yashash tarzini shakllantirishni nazarda tutuvchi tamoyillar majmuasidir. Bu tamoyillar shahar landshaftida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki landshaft - bu nafaqat tashqi go'zallik, balki ekologik funksiyani ham bajaruvchi murakkab tizimdir. Yashil zonalar, suv havzalari, biologik xilma-xillik, atmosfera havosining tozaligi, tuproqning unumdorligi va iqlimiy sharoit kabi omillar landshaftning barqarorligini belgilovchi asosiy komponentlar hisoblanadi [1].

Zamonaviy shaharsozlikda ekologik muvozanatni tiklash va uni saqlab qolish uchun yangi texnologiyalar va yondashuvlarga ehtiyoj kuchaymoqda [2]. Shu jihatdan, innovatsion metodologiyalar – masalan, geografik axborot tizimlari (GIS), raqamli modellashtirish (BIM), aqlli shahar texnologiyalari (smart city), biomimikriya, ekodizayn kabi usullar - ekologik barqaror landshaftlarni loyihalashda muhim vositaga aylanmoqda. Bu yondashuvlar nafaqat shahar muhitini yaxshilaydi, balki aholi uchun qulay, sog'lom va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda global ekologik muammolar, urbanizatsiya sur'atlarining ortishi va inson faoliyatining tabiiy muhitga bo'lgan ta'siri natijasida shaharsozlik va landshaft arxitekturasi sohasida tub islohotlar zarurati yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, ekologik barqarorlikka asoslangan yondashuvlar ahamiyat kasb etmoqda. Shahar landshaftlari inson salomatligiga, ijtimoiy farovonlikka va ekologik muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim tizim bo'lib, ularni zamonaviy innovatsion metodologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ekologik barqaror landshaftni shakllantirishda birinchi navbatda yashil infratuzilmaning roli muhim ahamiyatga ega. Yashil hududlar, daraxtzorlar, park va xiyobonlar nafaqat shahar estetik ko'rinishini yaxshilaydi, balki havoni tozalaydi, mikroiqlimni tartibga soladi, shovqinni kamaytiradi va insonlarga dam olish, salomatlikni tiklash imkonini yaratadi [3]. Shuningdek, bu hududlar biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy zanjirlarni tiklash va ekologik funksiyalarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim o'rin tutadi. Monokulturalardan voz kechib, mahalliy flora va fauna turlaridan foydalanish orqali barqaror va mustahkam landshaft ekotizimlarini shakllantirish mumkin.

Shahar landshaftini barqaror tarzda boshqarish uchun innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Jumladan, Geografik Axborot Tizimlari (GIS) orqali shahar ekologik tuzilmasi to'g'risida aniq va keng qamrovli ma'lumotlar olish, yashil zonalar, suv resurslari va ekologik xavf hududlarini xaritalash imkonini beradi. GIS yordamida turli ekologik parametrlar raqamli modellashtiriladi va bu landshaft loyihalarining ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Qurilish Axborot Modellashtirish tizimi (BIM) yordamida landshaft elementlari uch o'lchamli

shaklda loyihalanadi, energiya sarfi, ekologik ta'sir darajasi va texnik xizmat xarajatlari oldindan hisoblab chiqiladi.

№	Metodologiya nomi	Asosiy vazifasi	Amaliy qo'llanilish sohasi
1	GIS (Geografik Axborot Tizimi)	Ekologik tahlil, xaritalash, ekologik zonalarni aniqlash	Yashil zonalarni rejalashtirish, suv resurslarini nazorat qilish
2	BIM (Building Information Modeling)	Uch o'lchamli modellashtirish, resurs sarfini tahlil qilish	Landshaft loyihalash, infratuzilma rejalashtirish
3	Dron texnologiyasi	Masofadan monitoring qilish, vegetatsiya va ekologik holatni tahlil qilish	Parklar, bog'lar, ochiq landshaft maydonlari
4	Biomimikriya	Tabiatdagi tizimlardan ilhomlanib ekologik yechimlar yaratish	Dizayn va qurilishda ekologik va energiya tejovchi shakllar
5	Ekodizayn	Resurslarni tejash, ekologik muvozanatga mos materiallardan foydalanish	Yashil binolar, yashil tomlar, ekologik landshaftlar
6	IoT (Internet of Things)	Real vaqtda monitoring va boshqaruv (masalan: avtomatik sug'orish)	"Smart city" landshaft tizimlari, ekologik nazorat

Bugungi landshaft arxitekturasida raqamli dronlar va masofaviy kuzatuv texnologiyalarining qo'llanishi ham dolzarb ahamiyatga ega. Dronlar orqali yirik landshaft maydonlarini yuqoridan tahlil qilish, o'simliklar salomatligini baholash, chang darajasini aniqlash va boshqa ko'plab ekologik ko'rsatkichlarni monitoring qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa ekologik xavflarni oldindan aniqlash va kerakli choralarni tez fursatda ko'rishga imkon beradi.

Shahar landshaftini ekologik jihatdan samarali loyihalashda biomimikriya va ekodizayn tamoyillaridan ham keng foydalanilmoqda [4]. Biomimikriya - bu tabiatdagi mavjud tizimlardan ilhom olib, ularni landshaft dizayniga joriy etish metodologiyasidir. Masalan, barglarning suv yig'ish xususiyati, termit inlarining tabiiy ventilyatsiya tizimi yoki daraxtlarning soya beruvchi tuzilmasi shahar landshaftida tabiiylik va energiya tejovchanlikni ta'minlashda qo'llaniladi. Ekodizayn esa ekologik muvozanatni saqlovchi, tabiiy va qayta ishlanuvchi materiallar asosida yaratilgan yechimlarni ilgari suradi. Bu yondashuv orqali ekologik iz kamayadi, estetik qiymat oshadi va landshaftlar iqlimiy sharoitga moslashtiriladi.

Shuningdek, "Aqlli shahar" (smart city) kontseptsiyasi doirasida ekologik landshaftni avtomatlashtirilgan usullarda boshqarish tizimlari joriy etilmoqda. Yomg'ir suvlarini yig'ib, qayta ishlash, namlik sensori orqali sug'orish tizimlarini avtomatik boshqarish, quyosh yoki shamol energiyasini ishlatadigan landshaft qurilmalari shunday tizimlarga misol bo'la oladi. Real vaqtda monitoring qilish imkoniyatlari orqali resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish mumkin bo'lmoqda.

Ilg'or xalqaro tajribalar ham ekologik landshaftni innovatsion metodlar bilan rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Singapurda "City in a Garden" konsepsiyasi asosida vertikal bog'lar, supertrees va yomg'ir suvini yig'uvchi tizimlar joriy qilingan [5]. Kopenhagen shahri esa ko'k-yashil infratuzilmani rivojlantirish orqali suv resurslarini boshqarish va transport infratuzilmasini ekologiklashtirishga erishgan. AQShning Portland shahrida esa jamoaviy bog'lar, "green streets" va biofiltratsiya tizimlari orqali ekologik madaniyatni yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston shaharlarida ham ekologik landshaftlarni shakllantirish borasida ijobiy tajribalar kuzatilmoqda. Toshkentda "Yangi Toshkent" loyihasi doirasida zamonaviy parklar, yashil belbog'lar va avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari rejalashtirilmoqda. Nukusda esa iqlimiy sharoitga moslashgan o'simlik turlari, ekologik bog'lar va barqaror landshaft shakllari joriy qilinmoqda. Samarqand shahrida esa madaniy obidalarni ekologik landshaftlar bilan uyg'unlashtirish yondashuvi qo'llanilmoqda [6].

Umuman olganda, ekologik barqaror shahar landshaftini shakllantirish - bu kompleks, ko'p qirrali va innovatsiyaga asoslangan jarayon bo'lib, u orqali ekologik muhitni yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish va insonlar uchun qulay yashash sharoitini yaratish imkoniyati vujudga keladi.

Xulosa. Ekologik barqaror shahar landshaftini shakllantirish bugungi urbanizatsiya jarayonlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va inson salomatligiga tahdid soluvchi omillar shahar muhitining sifatli tashkil etilishini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bu jarayonda innovatsion metodologiyalar asosida loyihalashtirilgan barqaror landshaft tizimlari muhim yechim bo'lib xizmat qilmoqda.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun eng avvalo yashil infratuzilma, suv resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilmaxillikni saqlash, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilish zarur. Geografik axborot tizimlari (GIS), BIM texnologiyasi, dronlar orqali monitoring, aqlli sug'orish tizimlari va boshqa raqamli yechimlar landshaft arxitekturasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bularning barchasi resurslardan samarali foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va shahar aholisi uchun qulay, sog'lom yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, biomimikriya va ekodizayn yondashuvlari tabiatdagi tizimlardan ilhom olib, landshaft ob'ektlarini tabiiylik va funksionallik bilan uyg'unlashtirishga imkon bermoqda. Jahon tajribasi (Singapur, Kopenhagen, Portland) ekologik barqarorlikka erishish uchun davlat siyosati, texnologik yangiliklar va jamoatchilik ishtirokini uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Mahalliy shaharlar misolida esa Toshkent, Nukus va Samarqandda ekologik landshaft loyihalariga qadam qo'yilgan bo'lib, bu borada kompleks strategik yondashuvlar hali ham shakllanish bosqichida.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik barqaror shahar landshaftini yaratish - bu biror hududni obodonlashtirishdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, u inson, tabiat va texnologiyalar o'rtasidagi muvozanatni anglatadi. O'zbekiston shaharlarida bunday yondashuvni amalga oshirish orqali nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham erishish mumkin. Buning uchun davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar, malakali kadrlar tayyorlash va jamoatchilikni jalb etish kabi omillar bir butun tizimda ishlashi lozim.

Adabiyotlar.

1. Ерлыгина Е. Г., Штебнер С. В. Экологическая устойчивость в концепции устойчивого развития //Бюллетень науки и практики. – 2022. – Т. 8. – №. 6. – С. 134-141.
2. Ikramdjanovna M. A. SHAHAR EKOLOGIYASI VA YASHIL HUDUDLARNING BOLALAR EKOLOGIK TARBIYASIDAGI AHAMIYATI //International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2025. – С. 230-236.
3. Аимбетов И. С. ДЕНДРОЛОГИЯ ГОРОДА НУКУС И ЕЁ РОЛЬ В ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ // Экономика и социум. 2024. №12-1 (127). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dendrologiya-goroda-nukus-i-eyo-rol-v-gradostroitelstve (дата обращения: 11.04.2025).
4. Lehmann S. The Principles of Green Urbanism: Transforming the City for Sustainability. – London: Earthscan, 2010
5. Wong N.H. Green Building and Sustainable Design: Lessons from Singapore. – Singapore: Springer, 2013
6. https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/18/new-tashkent/

TEMIR YO'LLAR YON ATROFI HUDUDLARIDA DARAXTLARNI KO'PAYTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Norov Jahongir Saidovich Mustaqil izlanuvchi. SamDAQU.
Mustayev Bahrom Bahodirovich. arx.f.b.(PhD), dotsent v.b. SamDAQU.

Annotasiya. Maqolada temir yo'llar yon atrofini obodonlashtirishda daraxtlarning o'ziga xos xususiyatlari, dunyo mamlakatlari tajribalaridagi ulardan foydalanishdagi tarixiy salbiy jihatlari va bugungi kundagi roli, ekologik hamda estetik jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена информация об особенностях деревьев в озеленении придорожных территорий железных дорог, об исторических негативных аспектах их использования в опыте стран мира и их роли сегодня, а также об экологических и эстетических аспектах.

Annotation. The article provides information about the features of trees in the landscaping of railway roadside areas, about the historical negative aspects of their use in the experience of countries around the world and their role today, as well as about environmental and aesthetic aspects.

Kalit so'zlar: temir yo'l, ekologiya, karbonat angidrid, evkalipt daraxtlari, kislorod, buta, gullar, dekorativ bezak, shaharsozlik, tuproq eroziyasi.

Ключевые слова: железная дорога, экология, углекислый газ, эвкалипты, кислород, кустарники, цветы, декоративное убранство, городское планирование, эрозия почвы.

Keywords: railway, ecology, carbon dioxide, eucalyptus trees, oxygen, shrubs, flowers, decorative decoration, urban planning, soil erosion.

O'zbekistonda xalqaro avtomobil yo'llari va temir yo'l liniyalari bo'ylab daraxtlarni ommaviy ekish bo'yicha yangi keng ko'lamli loyiha ishga tushirilmoqda. 2024 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev 13 ta xalqaro avtomobil yo'llari hamda temir yo'llar bo'ylab millionlab daraxtlar ekishni tashkil etishni buyurdi. Shuningdek, prezident kuzda Samarqand-Qarshi temir yo'lining 145 kilometr va Toshkent-Samarqand bo'ylab 150 kilometr bo'ylab 1 million ko'chat ekish vazifasini qo'ydi. Ekologiya vazirligiga "yashil kamar" yaratib, chiqindixonalar atrofidagi 167 ming daraxtni parvarish qilish vazifasi yuklatilgan. [4]. Dalalar bo'ylab qo'shimcha "yashil kamar" yaratish uchun korxonalarda 21 million terak, tut va uzum, shuningdek 5 million ko'chat ekish rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlar yerni mustahkamlashga va tabiiy hodisalarning salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. [5]. Ommaviy daraxt ekishning asosiy sabablaridan biri mamlakatdagi ekologik vaziyatni yaxshilashdir. Yo'llar bo'ylab daraxt ekish chang va havo ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi, bu ayniqsa katta transport arteriyalari yaqinida seziladi. Daraxtlar tabiiy filtrlar vazifasini bajaradi, avtomobillar chiqaradigan zararli zarralarni ushlab, havo sifatini yaxshilaydi [5].

Yo'llar bo'ylab obodonlashtirishning yana bir muhim vazifasi tuproq eroziyasini oldini olish va hududlarni chang bo'ronlaridan himoya qilishdir. O'zbekistonning cho'l zonalari tanazzulga uchragan sharoitda

daraxtlar tuproqni ushlab turishga va uning eroziyasini oldini olishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, tuproq unumdorligiga bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi hududlari uchun juda muhimdir [5].

Daraxtlarni ommaviy ekish mintaqalarda mikroiqlimni yaxshilashga yordam beradi. Daraxtlar namlikni ushlab turishga yordam beradi, yo‘llar bo‘ylab salqin va qulayroq muhit yaratadi. Bu, ayniqsa, yozda havo harorati haddan tashqari darajaga yetadigan mamlakatning qurg‘oqchil hududlarida juda muhimdir [5].

Endi uch yil davomida daraxtlarni parvarish qilish, kasalliklardan himoya qilish va sug‘orish xarajatlari investitsiya dasturlariga kiritiladi. Ikkita eksperimental sug‘orish tizimi ham sinovdan o‘tkaziladi. Xususan, 27 ta hududda sug‘orish tizimlarini yaratish uchun bitta quduqni burg‘ilashga ruxsat beriladi. G‘allarol tumani tog‘larida daraxtlarni sug‘orish tizimini yaratish uchun yomg‘ir va erigan suvni yig‘ish uchun 10 ta geomembran o‘rnatiladi [5].

Bahorda 14 ta tumandagi tog‘lar va tepaliklar yonbag‘irlarida 500 gektar maydonda teras usulida daraxt ekish boshlanadi. Ushbu tizimlar sug‘orish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga va suvdan foydalanishni samaraliroq qilishga yordam beradi. Prezident kelgusi yilda "Yashil makon" dasturiga 100 milliard so‘m ajratilishini e’lon qildi. Viloyatlar hokimliklariga "mening bog‘im "loyihasi bo‘yicha yashil bog‘ yaratish uchun kamida 1 gektar yer va yashil jamoat bog‘i uchun yarim gektar yer ajratish topshirildi. Ekish mavsumi boshlanishidan oldin ushbu hududlar "ochiq byudjet" portalida joylashtiriladi, u yerda daraxt turlari va ularning narxi bo‘yicha tavsiyalar beriladi [5].

Xalqaro yo‘llar bo‘ylab daraxtlarni ommaviy ekish O‘zbekistonning ekologik vaziyatni yaxshilash va barqaror rivojlanish yo‘lidagi muhim qadamidir. Loyiha atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligini yaxshilashdan tortib sayohatchilar uchun qulayroq muhit yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishgacha bo‘lgan ko‘plab maqsadlarni birlashtiradi. Uzoq muddatda bu nafaqat O‘zbekistonni yashil rangga aylantirishga, balki mamlakatning mas’uliyatli va ekologik yo‘naltirilgan davlat sifatidagi obro‘sini mustahkamlashga yordam beradi [5].

Poezdda sayohat qilishda tabiat haqida o‘ylash uzoq masofalarga sayohat qilish orqali olinadigan zavqlardan biridir. Poezdning ichki qismi qulay bo‘lishi mumkin, ammo derazadan tashqaridagi ko‘rinish yo‘lovchilarni ilhomlantiradi va quvonch keltiradi [1].

Avvalo, temir yo‘l yon atrofidagi o‘simliklar ekologik vaziyatni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Yo‘llar bo‘ylab o‘sadigan daraxtlar havoni filtrlash funksiyasini bajaradi.: ular karbonat angidridni yutadi va kislorodni chiqaradi, havoni poezdlar chiqaradigan zararli gazlardan tozalashga yordam beradi. Bundan tashqari, daraxtlar ortiqcha namlikni o‘zlashtira oladi va temir yo‘llar bo‘ylab tuproq eroziyasining oldini oladi. Bu poezd yo‘nalishi bo‘ylab yerni yuvib ketishining oldini olishga yordam beradi va infratuzilmani potensial zararlardan himoya qiladi [1].

Temir yo‘l yon atrofidagi daraxtlar noyob ekotizimni yaratadi, unda ko‘plab tirik organizmlar o‘z uylarini topadilar. Bu yerda qushlar, mayda hayvonlar va hasharotlar yashaydi. Bundan tashqari, daraxtlar ko‘plab yovvoyi hayvonlar turlari uchun oziq-ovqat va boshpana manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu temir yo‘l yon atrofidagi yashil maydonlar uchun atrof-muhit bilan birga yashash va uning xilma-xilligiga hissa qo‘shish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bunday ekotizim biologik xilma-xillikni saqlash va uning muvozanatli ishlashi uchun muhim bo‘lgan biologik muvozanatni saqlaydi [1].

Temir yo‘llar bo‘ylab daraxt ekishning muhim jihatlaridan biri poezdlar xavfsizligini oshirishdir. O‘simliklar qor, qum yoki shag‘alning oldini olish uchun tabiiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Daraxtlar tufayli qishda yoki qum bo‘ronlari paytida poezd tezligi barqaror bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, daraxtlar temir yo‘l infratuzilmasini shamoldan himoya qilishga yordam beradi. Shuningdek, u elektr uzatish liniyalarini kuzatish va ta’mirlash harajatlarini kamaytiradi [1].

Temir yo‘llar yon atrofiga daraxtlarni ekish estetik ahamiyatga ega. Yashil maydonlar poezd sayohatini ko‘zga yanada yoqimli qiladi. Bundan tashqari, daraxtlar yo‘llar atrofida yoqimli mikroiqlim yaratadi.: ular yozda quyoshdan, qishda shamoldan himoya qiladi. Natijada, sayohat yo‘lovchilar uchun qulay bo‘ladi. Tabiat va insonning integrasiyasi zamonaviy shaharsozlik siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Temir yo‘llar bo‘ylab daraxt ekish bu maqsadga erishishning bir usuli hisoblanadi. Ushbu amaliyot nafaqat shahar muhitini yaxshilaydi, balki poezdlar harakati ekologiyasi, xavfsizligi va estetikasini yaxshilashga ham hissa qo‘shadi [1].

Bunday yashil maydonlar inson va tabiatning uyg‘un o‘zaro ta’sirini aks ettiradi va atrof-muhit va yo‘lovchilarning qulayligi haqida qayg‘uradi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar daraxtlar samarali ovoz izolyasiyasi ekanligini tasdiqlaydi. Ularning temir yo‘l bo‘ylab mavjudligi poezdlar harakati shovqinini kamaytirishga, atrofdagi turar-joylar va yo‘lovchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga yordam beradi. O‘rmonzorlar nafaqat tovushni o‘zlashtiradi, balki shovqinni tarqatish uchun tabiiy to‘siqlarni ham yaratadi [1].

Temir yo‘l bo‘ylab ekilgan daraxtlar sayohat davomida yoqimli muhit yaratadi. Sayohatchilarga tabiatdan zavqlanish imkonini beradi. Bu atmosfera dam olishga, stressdan halos bo‘lishga va sayohatchilarning kayfiyatini yaxshilashga yordam beradi [1].

Temir yo‘llar yon atrofida o‘sayotgan baland daraxtlar poezd qatnovlari uchun hech qachon bir-biri bilan kelishmagan. Bug‘ dvigatellari bilan harakatlanuvchi poezdlar davrida yong‘inning oldini olish uchun temir yo‘l yon atrofidagi daraxtlar kesilgan **(1-rasm).** Bug‘ dvigatelli poezdlar chiqarilishi to‘xtatilganidan so‘ng o‘simliklar tiklangan. Lekin daraxt shoxlarining temir yo‘lga kuchli shamol tufayli yoki iqlim sharoitlari natijasida tushishi oqibatida ko‘pgina muammolar chiqqan [2]. **(2-rasm).**

1-Rasm. Germaniya. Xartz tog‘larida vagonli parovoz. https://www.istockphoto.com/ru

2-Rasm. Belarus, Gomel viloyati, Markaz stansiyasi. Dizelli poyezd. https://railgallery.ru

Temir yo‘llarni obodonlashtirish ikki turga bo‘linadi:

1) Poezdlar harakatini to‘xtatishi mumkin bo‘lgan yo‘llar va binolarni qor, qum va chang siljishlaridan jonli himoya qilish;

2) odatda melioratsiya va temir yo‘l ishchilari va yo‘lovchilarning manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘kalamzorlashtirilgan me’moriy, dekorativ bezak (shamollardan himoya qilish, changni ushlab turish, soyalash va hk.).

Temir yo‘lni obodonlashtirishning bu ikki turi ko‘pincha birlashtiriladi, lekin ba’zida ular to‘qnashadi. Misol uchun, yo‘l bo‘ylab uzluksiz, monoton archa va bargli ko‘chatlar uni qordan himoya qiladi, lekin vagonlarning derazalaridan landshaftlarni qoplaydi va zerikarli monoton ko‘rinish hosil qiladi [3].

Temir yo‘l atrofidagi shahar va qishloq aholi punktlarining ko‘kalamzorlar tizimini loyihalash va ularning landshaft yechimlarini tashkil etishda quyidagicha asosiy tamoyillarga amal qilmoq kerak:

- temir yo‘l atrofi hududi bo‘ylab yirik yashil ko‘kalamzorlarni teng maromda taqsimlash va joylashtirish. Mazkur talab eng avvalo umumiy foydalanishga mo‘ljallangan ko‘kalamzorlarga taalluqlidir;

-yashil ko‘kalamzorlar tizimining temir yo‘l atrofi hududi bo‘yicha uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, ya’ni ularning yaxlit ko‘kalamzor uzluksiz umumiy tizimini yaratish orqali amalga oshiriladi;

- Temir yo‘l atrofida joylashgan ko‘kalamzor yashil hududlarni bir-biriga bog‘lash va yagona kompleks yechimga keltirish.

Temir yo‘l atrofidagi landshaft yechimlari tizimini tashkil etishda quyidagi uch asosiy vazifani hal etish zarur:

- funksional vazifa – turli maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘kalamzor shahar hududlarini tashkil etish va boshqa yashil muhitlar tizimini yaratish;

- sanitariya-gigienik vazifa – temir yo‘l atrofidagi muhitining ekologiyasini va mikroiqlimini yaxshilash;

- me’moriy-badiiy vazifa – badiiy jihatdan yaxlit va estetik jozibador bo‘lgan arxitekturaviy-landshaft muhitini tashkillashtirish va shakllantirish.

Landshaft arxitekturasida qo‘llaniladigan me’moriy-rejaviy uslublar va yashil kompozisiyalar bo‘yicha mazkur ishda quyidagi ilmiy xulosalar va natijalarga erishiladi:

Landshaft arxitekturasida uzoq o‘tmishdan boshlab hozirgi zamon landshaft amaliyotida ham bir-biridan farq qiluvchi 3 ta me’moriy-rejaviy uslub keng qo‘llanilib kelinmoqda:

a) muntazam tartibli simmetrik rejaviy uslub;

b) erkin tabiatga xos rejaviy uslub;

v) aralash uslub.

Daraxt va butalardan shakllantiriladigan yashil kompozisiyalarga quyidagilar kiradi: soliterlar, guruhlar, qatorlar, massivlar, tik ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan o‘simliklar.

Dunyo mamlakatlari tajribalari misolida temir yo‘l yon atrofi hududini obodonlashtirish yuzasidan olib borilgan tajribalar haqida gapirsak, AQSH dashtlarida jonli himoya birinchi marta 1916-1920 yillarda tajriba sifatida ishlatilgan va shundan so‘ng ushbu himoya turining iqtisodiy ahamiyati baholangan.

Bugungi kunda tez yurar poezdlariga bo‘lgan aholi ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Va, ushbu sohada Yevropa va Yaponiyadagi zamonaviy temir yo‘llari o‘zlarining yangi tezyurar poyezdlari va zamonaviy stansiyalari landshaftini sinchkovlik bilan o‘rganmoqdalar, shu bilan birga o‘z stansiyalarining qulayligini, to‘siqsiz va ko‘p qirrali dizaynini yaxshilashga intilmoqda. Turli xil innovatsion zamonaviy temir yo‘l stantsiyalari landshafti, shuningdek, shaharlarni qayta qurish, loyihalash barqaror rivojlantirish loyihalarida, muhim omilga aylanmoqda. Ilgari Yaponiyada "joylarning sifati" Yevropada bo‘lgani kabi keng tan olinmagan va kamdan-kam jiddiy muhokama qilingan. Biroq, so‘nggi yillarda ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi va yashash sharoitlarini yaxshilashga jamoatchilikning qiziqishi ortib borayotganligi sababli, bugungi kunda talab oshib bormoqda.

Yaponiya temir yo‘llarining 50% kuchli qor ko‘chkilariga duchor bo‘lishini kamdan-kam odam biladi. Yaponiyada jonli himoya qor bilan kurashishning asosiy usuli sifatida tan olingan; u yerda oraliq masofasi

keng, 36 m gacha, har xil turldagi daraxt va buta ko‘chatlarini ekish qabul qilingan [3].

Qumga qarshi kurashda temir yo‘llar o‘simliklar — o‘tlar, butalar va daraxtlarda to‘g‘ri yordamni topdi. Qizilqum va Qora-Qum cho‘llarini kesib o‘tgan O‘rta Osiyo yo‘li va Astraxan liniyasi temir yo‘l atrofidagi qumlarda o‘simliklar bilan ta’minlagandan keyingina yaxshi ishlay boshladi. Sudan, Jazoir, Yaponiya, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya va Eronda (yangi Trans-Eron temir yo‘li) temir yo‘l ishchilari bo‘shashgan qumlar bilan ishlashda katta tajribaga ega.

Qumlarga qarshi kurashda dastlab sun’iy, juda ibtidoiy choralar qo‘llanilgan —qumlarning sirtini brezent bilan qoplagan va ustiga yog‘li moy to‘kishgan. Eronda esa bo‘sh kerosin baklari marshrut bo‘ylab bir necha qatorga joylashtirilib chiqilgan. Doimiy to‘siqlar o‘rnatilishi natijasida ulkan qum massalarining to‘planishiga olib keldi va keyinchalik qum yo‘l to‘shagini qopladi [3].

Barcha mamlakatlardagi tajribaga asoslanib, o‘simlik dunyosi eng ishonchli va eng arzon usuli sifatida tan olingan. Iqlimga qarab, turli xil o‘simliklar ishlatilgan: Avstraliyada — evkalipt daraxtlari va bambuklar, Argentinada — sadr, qarag‘aylar, sarv va qamish, Jazoir va Sudanda — tamarisklar va akatsiyalarning sahro turlari.

Ilgari stansiyalar odatda daraxtlar bilan o‘ralgan. Ko‘pgina temir yo‘l stansiyalarida bog‘lar va maydonlar mavjud bo‘lgan. Marshrutning ayrim hududlariga biriktirilgan issiqxonalar mavjud bo‘lib, ular asosan yo‘lning yuqori ma’muriyati ehtiyojlariga xizmat qilgan. Ammo umuman olganda, obodonlashtirish tartibsiz, yetarli emas va ixtiyoriy bo‘lgan. Bu asosan daraxt ekish bilan cheklangan; gullaydigan butalar, gullar va maysazorlar juda kam uchraydi. Daraxtlar ko‘pincha ish va yashash joylariga juda yaqin joylashtirilgan va ekish odatda e’tiborsiz qoldirilgan. O‘simliklar turlariga kelsak, asossiz monotonlik bor. Temir yo‘l yon atrofida oq akatsiya va Amerika chinori monoton ekilgan. Ko‘chatlarni va butun yashil iqtisodiyotni himoya qilish aniq tartibda bo‘lmagan [3].

Chuqurliklar va bo‘rtmalarning almashinishi bo‘lgan temir yo‘lning tuproq ishlari landshaftning konturini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shuning uchun, temir yo‘lni kuzatishda nafaqat muayyan dizayn yechimlarining texnik-iqtisodiy asoslariga rioya qilish kerak, balki sun’iy elementlar kiritilgandan keyin landshaftni estetik idrok qilish haqida o‘ylash kerak bo‘ladi.

- temir yo‘l chizig‘i. Bu masalalarni qamrab olgan loyihalash bo‘limi -landshaft dizayni deb ataladi.

Landshaft dizaynining asosiy vazifalari:

1) Temir yo‘l va uning barcha elementlarini landshaftga uyg‘un ravishda kiritish, tabiiy landshaft qonunlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

2) yo‘lovchilar uchun jozibador manzara yaratish, ularning e’tiborini mahalliy diqqatga sazovor joylarga qaratish imkonini beradi;

3) daraxt ekish yo‘li bilan tabiiy landshaftni yaxshilash va qo‘shish, zarur bo‘lganda – maydonni drenaj qilish (qo‘riqxonalar va qo‘riqxona hududlaridan tashqari).

Landshaft qonunlarini o‘rnatishning asosi geomorfologik tahlil bo‘lib, relef tuzilishini aniqlash va uning asosiy va ikkilamchi elementlarini aniqlash imkonini beradi. Landshaft dizayni muammolaridan biri yo‘l elementlarining joy va vaziyat elementlariga mos kelishidir. Landshaftning asosiy elementlari (tepaliklar etagi, daryo, vodiylar, o‘rmonlar) yoki landshaftning tabiiy o‘qi bo‘ylab (suv havzalari, vodiydan oqib o‘tadigan suv oqimilari), ya’ni, odatda, ekologik tizimlarning o‘tish zonalari hisoblanadi [6].

Xorijiy tajribalarni o‘rganish jarayonida rivojlangan mamlakatlar qatorida, ya’ni Germaniyada bog‘dorchilikda temir yo‘l orqali o‘zgartirilgan tabiiy landshaftni tiklashga harakat qilishadi. Shu kabi g‘oyalar Amerika Qo‘shma Shtatlari va boshqa mamlakatlarda ham ushbu g‘oya odatdagidek oddiy, xiyobon yo‘l va ular keng har tomonlama tabiiylikka intiladilar. To‘g‘ri, iqlim sharoitdan ham kelib chiqqan holda temir yo‘llar yoqasini tashkillashtirish muhim. Yevropa mamlakatlarida namgarchilikning yuqoriligini ham hisobga olish zarur.

3-Rasm. Avstriyaning Zemmering temir yo‘lining ko‘rinishlarii. https://yandex.ru/images/

Amerika Qo‘shma Shtatlari misolida Richmond-Potomak temir yo‘lida tashkillashtirilgan juda foydali misol sifatida ko‘rishimiz mumkin. Yo‘lni ko‘kalamzorlashtirishni alohida stansiyalar, uylar va binolarni

ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha bosh rejani tuzgan malakali landshaft me’mori nazorat qiladi. Doimiy bog‘ ishchilari ishni manzarachi rassomning rejasi bo‘yicha, turar — joy binolari yon atroflarini ko‘kalamzorlashtirishda esa-yo‘l ishchilari va o‘sha joyda yashovchi, ya’ni turarjoylarda iste’qomat qiluvchi oilalar ham bajaradilar. Umumiy rejaning mavjudligi tufayli butun yo‘l bo‘yi chizig‘i vaqt o‘tishi bilan park maydoniga aylanadi. Ayniqsa, kichik me’moriy shakllarga nazari tushgan poezd yo‘lovchilari e’tiborini qaratmasliklarining iloji yo‘q [7].

Avstriyadagi Myurtssushlagom va Glognitsem o‘rtasidagi (Vena-Gras asosiy liniyasida) Alp tog‘larining Sharqiy qismidagi Zemmering dovoni orqali o‘tuvchi (Zemmering temir yo‘li) temir yo‘l ob’yektining 42 km qismi YUNESKO tomonidan jahon ahamiyatiga molik madaniy yodgorlik sifatida keltirilgan temir yo‘l ob’yektidir. Bu yo‘lda barcha sun’iy inshootlar-umumiy uzunligi 6 km dan oshadigan tunnellar, ko‘priklar, viaduktlar, shuningdek binolar so‘lim tog‘ manzarasiga juda yaxshi qo‘shilib ketganki, nafaqat uni buzmaydi, balki atrofdagi hududga qo‘shimcha joziba bag‘ishlaydi [8]. (3-rasm).

Адабиётлар рўйхати

1. https://stroy-lomay.ru/dlya-chego-sazhayut-derev-ya-vdol-zheleznykh-dorog
2. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.
3. https://landscape.totalarch.com/issues_of_greening_the_railways_and_car-care_ways.
4. https://nuz.uz/2024/10/22/
5. https://vaib.uz
6. Макушкина Е.А. Природопользование при проектировании железных дорог: Учебное пособие. -М.: МИИТ, 2008.- 108 с].– 2008.
7. Гурский А.В. Основные вопросы озеленения железных дорог и автогужевых путей.
8. https://yandex.ru

O’ZBEKISTON KICHIK SHAXARLARI JAMOAT MARKAZLARNING MEMORIY SHAKLLANTIRISH USLUBI

Raximov Komiljon Iskandarovich
Annaqulov Jaxongir Maxmatqulovich
SamDAQU “Arxitektura” fakulteti, “Arxitektura” kafedrasi o‘qituvchilari.

Annotasiya: Ushbu makolada O'zbekistondagi kichik shaharlar, masalan, Samarqandning tarixiy markazlaridagi jamoat joylari eski arxitektura va zamonaviy funktsiyalarni uyg'unlashtirgan. Bunday joylar ko'pincha turistik va madaniy markazlar sifatida ishlatiladi.

Kalit suzlar: fazoviy, kompozisiyasi, konkretlashtiradi, memoriy, shakllantirish, madaniyat.

O’zbekiston kichik shaxarlari jamoat markazlarining funksional va fazoviy - rejaviy tuzilmasi kichik shahar ijtimoiy - fazoviy muhitini shaklantirishda qatnashuvchi aniq memoriy - fazoviy tuzilma, mussasalar va aholi guruhi tuzulmasiga xizmat ko’rsatish markazlari kabi o’zaro bog’liq xususiyatlarini baxolash imkonini beruvchi muhitdir.

Kichik shaharlarda jamoat markazlarini yaratish va ularning memoriy shakllanishi ko'plab omillar bilan bog'liq. Bunday markazlar shaharning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini yaxshilash uchun muhim rol o'ynaydi. Ularning shakllanish uslubi shaharning tarixiy, madaniy va arxitektura xususiyatlariga, shuningdek, zamonaviy talablarga javob berishiga bog'liq. Quyida kichik shaharlar uchun jamoat markazlarini shakllantirishda qo'llaniladigan ba'zi uslublar va yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beraman.

Ulardan biri markazni shakillantirishning mazmuni o’zida aks etiradi; uni markaz mussasalari va insitutlarining tarkibi, aloqalari va parametrlari aniqlaydi. Ikkinchisi markazning asosiy funksiyalarining fazoviy shaklini ko’rsatadi; uni shaharsozlik ansambli va aloxida binolar inshootlar va ularni o’zaro bog’lovchi elementlar sifatidan butun markazning fazoviy kompozisiyasi konkretlashtiradi.

Kichik shaxarlarda jamoat markazlarini memoriy shakllantirish uslubi turli bo’lishiga qaramasdan, taqqoslash tahlili natijasida, bazi prinsipial umumiylikni xam kuzatish mumkin. Buni bir tomondan - ularning funksional tashkillashtirishida ikkinchi tomondan muhitini tashkil etishda ko’rish mumkin.

Kichik shahar markazining o’ziga xosligi uning ko’p funksiyali ekanligadadir. Kichik shaharlarning jamoat markazi barcha shaharga xos faoliyatining (boshqaruv, xizmati ko’rsatish, malum madaniyat va ishlab chiqarishning bazi turlari) gavjum bo’lgan joydir.

Taqqoslash natijasida shu narsa aniqlanganki, o’rta, katta va yirik shaharlarda jamoat markaziga xos faoliyat shahar territoriyasi bo’ylab teng joylashtirilgan, yoki axoli joylashgan xududlarga bir necha markaz tashkil etilgan.

Elements of visual communication and small architectural forms decorate and significantly diversify the urban environment, decorate both open and closed landscape spaces. They are placed in various exteriors and interiors, are diverse in terms of functional purpose and spatial characteristics. As objects of vari-ble and standard design, they provide a variety of solutions and reveal the most vivid architectural appearance of the urban environment, emphasising its individuality.

In the streets of modern cities nowadays, due to the development of small business and entrepreneurship, a large number of small architectural forms appear: small cafes, kiosks, transport stops, etc. As a rule, they have low aesthetic characteristics, are made of a variety of materials and often do not take into account the nature of the environment, creating a sense of chaos and violating the integrity of the urban architectural environment. To eliminate these shortcomings, it is necessary to develop a targeted programme at the city level on landscape formation of the urban environment, as well as methodological developments for practical use in the formation of a system of visual communication and small architectural forms in the urban environment.

Small architectural forms (SAF) are small-scale structures and devices for seasonal and year-round use, stationary or transformable, designed to serve people in urbanised and natural environments. They have both utilitarian and artistic and decorative purpose, and some only decorative. Utilitarian structures include trade and information kiosks, telephone booths, gazebos, pavilions at transport stops, shading structures (pergolas, canopies), benches. A number of structures of artistic and decorative purpose include supports for climbing plants, flower boxes, trellises, soffits, trellises, fountains, sprinklers, etc.

The nomenclature of SAF and recreational equipment is determined taking into account the functional purpose of the urban area or landscape object, and the placement of small architectural forms should be directly related to the functional zoning and architectural-planning solution of the site. When placing SAF in different types of urban environment it is necessary to observe the requirements of style unity, as well as the degree of their compositional activity. When creating SAF s, the main requirement should be their integrated design, reconstruction and application with the use of modular elements, achieving stylistic commonality with the help of unified form-forming elements, the minimum number of types of construction materials used.

Garden furniture for recreation is widely used in the formation of landscape objects - gardens, parks, squares: various types of benches, pergolas, shade canopies, arbours, urns. They have mainly functional purpose, but also have a significant impact on the spatial and aesthetic organisation of any territory. Garden design (furniture, forms of small architecture, paving, lighting, sculpture) should be designed together with vegetation simultaneously and depending on the general artistic idea-theme of the landscape composition. Drawing, colour, size and staging of stationary and portable garden furniture depend on the adopted colour and general compositional solution. In any case, there are two design principles: harmonious (in accordance or proximity to the background on which it falls) and contrasting.

Lighting in a park, garden should fulfil not only the necessary functional role, but also be an organic part of the overall thematic concept. Lighting emphasises the character of the overall composition, highlights the most significant techniques and at the same time is a composition itself. Artificial illumination in the evening and night time in its nature is close to the methods of theatre lighting. In night lighting creates a spectacular alternation of light and shadow, mosaic of leaves, pattern of branches, transforms the colour of foliage. Different light sources produce illumination of different colours. Blue-greenish lighting (mercury lamps) is most favourable for illuminating conifers. Golden-yellow lighting (sodium luminaires) is excellent for illuminating autumn foliage. Depending on the importance of the elements of the composition, they should be lit with low and high luminaires.

Paving, decorative and functional, should be designed in accordance with the adopted landscape composition. It should be taken into account that a large pattern visually reduces the space of the paved area, and a small monochrome pattern visually increases this space. In case of application of various decorative materials in garden composition it is necessary to pay attention to their relatively limited use and their subordination to a single architectural image.

Sculpture thematic and independent requires a particularly thought-out position, as it is the most expressive means in the design and reconstruction of any landscape object. In case of necessity of its circular inspection, the sculpture should occupy an island position in the composition. If the sculpture is frontal, it is necessary to create a landscape background depending on the theme of the sculpture. In individual cases (sculpture garden), the composition should be subordinate to the theme of the sculptures. In this case, a significant role is played by illumination designed for the effect in the evening.

When placing the SAF on the territory of the landscape object it should be remembered that the main role here belongs to arrays of greenery, separate decorative groups of trees and shrubs, water surfaces, geoplastic relief. Small architectural forms should harmoniously fit into the garden composition and should not be diverse in style and form.

In the formation of open urban spaces not the least role is played by elements of visual communication. In the modern city, the flow of information, more than 80% of which is perceived through the organs of vision, has increased significantly. Visual chaos has fallen on the man of the XXI century, it is more and more difficult for him to orientate on the streets, in parks, in the interiors of large public buildings. The basis for the orderliness of the architectural environment can be, first of all, the creation of a clear system of visual communication that helps a person to orientate in an unfamiliar environment. Space can be chaotic and organised. Chaotic space is the result of spontaneous formation and unprofessional approach.

Means of visual communication are a clear system of predominantly graphic images that orientate a person in the architectural environment according to a predetermined programme. They include: signposts, signs, pictograms, scoreboards, posters, billboards, shop windows, poster boards, advertising and lighting installations, etc. Nomenclature of means of visual communication is quite diverse and should be thought out at a professional level with observance of a number of design principles. The system of visual communication should have a style unity and be based on the use of certain artistic methods. The more strictly the number of used means and methods is limited, the more definite is the style unity of the system. Among the signs of style unity of the system are the following: manner of execution of the element, artistic unity of elements, colour, size and shape, variant reproduction, technology of reproduction.

When reconstructing landscape and recreational areas, visual communication means are used depending on the functional purpose of each zone of the landscape object. In large-sized parks with a complex network of alleys, paths and platforms, such means are most necessary. At the entrance to the park there are usually placed on boards schemes of the territory with clear marking of its structural elements, display of the main objects of the park with explanatory inscriptions and legible signs. Numerous signs are placed throughout the vast territory of the park, the imaginative and constructive solution of which is harmoniously linked with the natural environment in terms of scale, proportions, rhythm and colour.

The size of visual communication elements and small architectural forms of the park should be relatively small, harmoniously blending in with the natural environment, which is the main component of the landscape object. In particular, this requirement applies to such structures as cafes, restaurants, kiosks, which should be part of the park composition.

An important role in the organisation of space using the means of landscape design is played by elements of monumental and decorative art and sculpture. These include: large entrance signs, monuments, monuments, volumetric sculptural and decorative compositions, decorative pictorial panels and reliefs, commemorative plaques, memorial inscriptions. The means of monumental decorative art can solve the following problems: revealing spatial reference points, emphasising the most important planning elements in the urban environment, revealing the originality of landscape spaces, etc. When incorporating elements of decorative applied art into the urban environment, it is necessary to maintain the scale ratio of sculpture and buildings, as well as to enhance the figurative characteristics of the environment.

No object of architecture and urban planning exists outside of nature and landscape. Therefore, it is necessary to significantly increase the level of landscape training of each architect regardless of the type of his future activity: design, scientific, managerial or pedagogical. The medium approach in architecture with its broad understanding as an activity aimed at the spatial

organisation of the human living environment, its humanisation, predetermines the interrelated solution by architects of such important problems as the protection and rational transformation of the environment, harmonious arrangement of residential, industrial, recreational environment, neutralisation of the consequences of urbanisation by architectural and landscape means, etc.

The basics of landscape design are presented with an emphasis on traditional functional and compositional issues, but it also reveals to what extent a modern architect needs knowledge of geographical landscape science, ecology and other natural sciences to work with landscape. After all, the more complex the object, the more diverse the interrelations between the natural and the artificial, the more versatile knowledge is needed for a competent and far-sighted solution to the tasks of architectural and spatial transformation of landscapes in the interests of society.

Consideration of the issues of formation of architectural-landscape objects of different types according to a unified scheme helps to identify the specifics, effective comparative analysis and a stronger grasp of the methodological foundations of architectural design and reconstruction of the landscape.

Literature:

1. Вавилонская Т.В. Стратегия обновления архитектурно-исторической среды: монография / СГАСУ. Самара, 2008. 368 с.

2. Zubaydullayev, U. Z., & Khakimov, D. FIGURATIVE LANDSCAPE DESIGN AND LANDSCAPE ANALYSIS METHOD. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*.

3. Лекарева Н.А. Ландшафтная архитектура и дизайн. Традиции и современность / СГАСУ. Самара, 2005.© Иванова Л.И., 2014

4. Zubaydullayev, U. Z., & Ziyadullayevich, U. Historical Monuments Are the Basis of the Tourism Sector. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences*.

5. Демурина Ю.Л. Перспективы развития пешеходных систем в историческом центре крупного города // Научный журнал «Перспективы науки». 2013. №10(49). С. 93

6. Zubaydullaev, U. Z. (2023). STUDY OF THE PREPARATION OF TRAINING OF ARCHITECTURE STUDENTS IN EDUCATIONAL PRACTICE IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 818-824..

7. Ziyadullayevich, Z. U. (2023). DECOR IN CONTEMPORARY ARCHITECTURE IN CENTRAL ASIA-TRADITIONS AND INNOVATIONS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 198-204.

8. Zubaydullayev, U. Z., & Asrorov, O. A. (2021). The relevance of creating a system of underground parking in the historical centers of central asian cities on the example of the city of Samarkand. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, *10*(7), 145-149.

O‘ZBEKISTON VILOYATLARIDA AGLOMERATSION SAVDO VA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH MAJMUALARINING JOYLASHTIRISH YUNALISHLARI

Saloxitdinov Alisher Tursunpo‘latovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya. O‘zbekiston viloyati aglomeratsiyalarida zamonaviy savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini shakllantirishda yo‘lovchilar va transport oqimlarini, hamda shaharsozlik talablarini hisobga olgan holdagi prognozi.

Kalit so‘zlar. Aglomeratsiya, jamoat binolari, savdo va maishiy xizmat majmualari, prognoz.

Abstract. Forecast of the formation of modern shopping and consumer service complexes in regional agglomerations of Uzbekistan, taking into account passenger and transport flows, as well as urban planning requirements.

Keywords. Agglomeration, public buildings, commercial and residential complexes, forecast.

Абстрактный. Прогноз формирования современных комплексов торговли и бытового обслуживания в агломерациях Узбекистанского региона с учетом пассажиро- и транспортных потоков, а также потребностей городского развития.

Ключевые слова. Агломерации, общественные здания, комплексы торговли и бытового обслуживания, прогноз.

Davlatimizning rahbari Sh.M.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Qurilish sohasida “Bugungi kunda mamlakatimiz qurilish sohasida ham yangi davr boshlandi, desak, to’g’ri bo’ladi.

Avvalo, sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, respublikamizning barcha hududlarida ilg’or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo’layotgani, qurilish materiallari industriyasi yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotgani, malakali yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yo’lga qo’yilgani shunday deb aytishga asos beradi”, deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam. Bugun ana shunday oliy janob an’analar qaytadan mustaxkam qaror topishi va rivojlanishi uchun, istiqlol sharofati tufayli eng qulay muhit yaratildi.

Arxitektura ta'lim yo‘nalishi talabalari katta kurslarda ko‘p funktsiyaviy arxitekturani o‘rganmoqdalar. "Ko‘p funktsiyali arxitektura" tushunchasi jamoat binolari tipologiyasining so‘nggi bo‘limlardan birida

ko‘rib chiqiladi va misollar asosida uni o‘rganishni anglatadi.

Aglomeratsion darajadagi savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari butun aglomeratsiyaga xizmat qiladi. Aglomeratsiya darajasidagi jamoat binolari shahar muhitining asosiy elementlari sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ular jumlasiga quyidagilar misol bo‘la oladi

- madaniy va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari;
- transport infrastrukturasi tashkil qiladigan majmualar;
- teatrlar, kinokotsert zallari va boshqa ko‘ngil ochar majmualar, Kelajakda viloyat aglomeratsiyalarida ijtimoiyiqtisodiy funktsiyalarining ortishi va ularning xilmaxilligi kengayishi bilan bu majmualarning roli sezilarli darajada oshadi. Ushbu jarayonda urbanizatsiya va u bilan bog‘liq ma'muriy

– boshqaruv faoliyati, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va transport infratuzilmasining rivojlanishi bilan birga keladigan

barcha jrayonlarni faollashtirish alohida rol o‘ynaydi. Viloyatlar ahmiyatidagi aglomeratsiyalarida zamonaviy savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini hozirgi holati va potentsial rivojlanishi ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqilishi kerak. Biz ushbu ob'ektlarning viloyat aglomeratsiyalarda rivojlanish dinamikasi va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqin kelajakdagi ahvolini tahlil qildik.

Bundan asosiy maqsad viloyatlar aglomeratsiyalarida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarining rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish, hamda gravitatsionehtimoliy yadro tushunchasi asosida yangi yirik savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarining joylashtirishni oldindan prognoz qilishdan iborat

Viloyat aglomeratsiyalarining asosiy mezoni tizim ob'ektlari o‘rtasidagi ijtimoiy-itisodiy, transport va shaharsozlik aloqalarining mavjudligidir. Aglomeratsiya kontseptsiyasida asosiy rolni ikki soatlik transport yordamida manzilga yetib olish uchun migratsiya chegaralari va u bilan bog‘liq boshqa omillar o‘ynaydi. Shaharsozlik nuqtai nazaridan aholi punktlarining zich tarmog‘i, birinchi navbatda, viloyatlar aglomeratsiyalari uchun muhim ahamiyatga ega va bu barcha aglomeratsiyalar uchun xos bo‘lgan hodisadir.

Agar viloyat aglomeratsiyasi darajasidagi yirik savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini joylashtirish uchun potentsial hududlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, u holda bu tushunchani kengaytirish lozim. Buning natijasida viloyat aholisi aglomeratsiyasi hududidagi yirik savdo-maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarga tashrif buyuradigan aholining bir qismi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, keng ko‘lamli viloyat darajasidagi aglomeratsion ob'ektlarni joylashtirishni rejalashtirish kengaytirilgan tarzda hisoblanadi.

O‘zbekiston davlat va viloyat ahamiyatidagi yo‘larda savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarining mintaqaviy turlari aglomeratsiya aholisiga va o‘z iste'mol savdo bozorlariga qaratilgan.

Yirik ob'ektlar asosan shaharlarning markaziy va o‘rta hududlarida joylashgan bo‘lib, juda kam hollarda shahardan chiqish yo‘llarida va shahar tashqi chegaralarida joylashgan. Dunyoning rivojlangan davlatlarida alomeratsion darajadagi mega xarid markazlari va ko‘ngilochar muassasalarni joylashtirish transport magistrallari bilan bog‘liq holda yechiladi

Tadqiqot materiallariga asoslangan holda ta'kidlash lozimki, viloyatlarda mavjud aglomeratsion darajadagi savdo va maishiy xizmat majmualarini joylashtirishning hozirgi holati zamonaviy talablarga javob bermaydi. Biz bu ob'ektlarning istiqbollarini tahlil qilib, aglomeratsiya hududida ham, markaz shahar hududida ham ma'muriy chegaralar doirasida fa'ol savdo va maishiy xizmat mavjudligi asosida xulosalar ishlab chiqdik.

Bu bizga asosiy savdo va maishiy xizmat ob'ektlarining yetarliligini tahlil qilish bilan birga, umuman aglomeratsiya salohiyatini baholash imkonini beradi. Viloyatlar hududlaridagi ba'zi savdo va maishiy xizmat ko‘rstish ob'ektlari boshqa tomondan, ularning aglomeratsiyada mavjudligi atrofmuhitdagi ob'ektlar sonining ortishi tufayli ko‘zatiladi.

Savdo va maishiy xizmat ob'ektlarini mavjudligi aglomeratsiya markazida xizmat sohasining kengaytirishning yuqori dinamikasi bilan ajralib turadi. Viloyat aglomeratsiyalari asosan 3 ta hududiy zonalarga bo‘lingan bo‘lib (markaziy yadro, uning yaqin atrofi va tashqi perimetral hudud), uning markaziy yadrosi asosan "ichki" talabni jamlaydi, bu esa mintaqada iste'molchilar sonini oshiradi.

Yaqin atrofdagi va perimetral zonalar uchun: - potentsial savdo va maishiy xizmat majmualarining joylashuvi prognozi iteraktiv va ehtimoliy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, xaridorlar tashrifi uchun yuqori darajaga erishish mumkin bo‘lgan holat bo‘yicha baholanadi. - tahlilning ikkinchi iteraktsiyasi makon qiymati bo‘yicha hududni mijozlarni jalb qila olishini tadqiqoti asosida yuqori iqtisodiy samaradorlikni prognozlash imkonini beradigan ko‘rsatgichlar bo‘yicha amalga oshiriladi .

Ushbu joylashtirish imkoniyati kelgusi ob'ektlarning rentabelligi bo‘yicha biznes-reja tuzilishi uchun ham, yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarning hududiy mavjudligini oshirish bo‘yicha aglomeratsiya aholisi uchun ham maqbul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda viloyat aglomeratsiyalarida savdo va maishiy xizmat majmualari turli sur'atlarda rivojlanadi. - ayrim aglomeratsiyalarda yuqori sur'atlar kuzatilsa, ba'zi boshqa joylarda turg‘unlik kuzatiladi. Tezlikni farqlash omillari asosan potentsial bozor hajmi, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, transport infrastukturasi rivojlanganligi, logistika muammolari va raqobat darajasiga bog‘liqdir; - yirik va katta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini shakllantirish uchun u bir butun tizim sifatida viloyat aglomeratsiyalari doirasida rivojlanishi kerak.

Aglomeratsiya darajasidagi savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari yetarlilik darajasi yana bir asosiy ko‘rsatkichi transport yordamida yetib olish uchun o‘rtacha vaqt bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich aholiga xizmat ko‘rsatish ob'ektlarini ijtimoiy samaradorligini aks ettiradi.

Aglomeratsiya darajasidagi savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini joylashtirishni baholashda turli usullar birlashmasidan foydalanish optimal hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda xaridorlarni jalb qilish modellari ishlab chiqib, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualarini transport magistrallari bilan bog‘lash kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.-T., 2022.
2. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих
3. Покрытий В Пк Лира. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.
4. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОИЙ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 142-146.
5. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN
6. GRUNTLARINING O’ZARO TA’SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.
7. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND
8. ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.
9. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ
10. ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 77-81.
11. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И
12. КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 197-206.
13. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ
14. ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(5), 73-76.
15. THE CITY OF TERMEZ DURING THE REIGN OF
16. AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS (First name of
17. Termez) Ro’ziboboyev.A.A shovqindan himoya qilishning chora-tadbirlari
18. arxitekturaviy tarxiy uslublar

SAMARQAND SHAHARSOZLIGINING SHAKLLANISHI HAMDA RIVOJLANISHIDA BOSH REJA VA YO‘LLAR ARXITEKTURASINING AHAMIYATI

Berdiyev Malik Xoliqulovich
SamDAQU “Arxitektura” fakulteti, “Arxitektura” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shaharsozligining shakllanish davrlari, shaharsozlikning rivojlanishi, bosh reja va yo‘llarning shaharsozlikni rivojlantirish va rejalashtirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, bozor, magistral yollar, boglar, saroyla, bosh reja, madrasa, masjid, avtomobil, jamoat transporti.

Аннотация: В данной статье освещаются этапы формирования градостроительства Самарканда, развитие градостроительства, а также значение генерального плана и дорог в развитии и планировании города.

Ключевые слова: Махалля, базар, магистральные дороги, сады, дворцы, генеральный план, медресе, мечеть, автомобиль, общественный транспорт.

Abstract: This article highlights the stages of urban development in Samarkand, the progress of city planning, and the importance of the master plan and roads in urban development and planning.

Keywords: Mahalla, bazaar, main roads, gardens, palaces, master plan, madrasa, mosque, automobile, public transport.

Kirish

Samarqand shahrining shaharsozlik jihatdan rivojlanishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Samarqand – Markaziy Osiyoning eng qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, uning shaharsozlik tarixi uch ming yillar davomida rivojlanib kelgan. Shahar arxitekturasining shakllanishida bosh reja va yo‘llar tizimi muhim o‘rin tutadi.

Qadimgi davr miloddan avvalgi VI – milodiy IX asrlar.
Bu davrda shahar mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, ichki hudud turli mahallalar va bozorlar bilan ajratilgan. Yo‘llar tabiiy geografik sharoitga ko‘ra shakllangan.

O‘rta asrlar davri IX–XIV asrlar. Islom sivilizatsiyasining tarqalishi bilan shahar rejalashtirish tizimi ham o‘zgardi. Shahar markazida masjidlar, madrasa va bozorlar joylashgan, asosiy yo‘llar shu tarixiy bino va inshootlar atrofiga yo‘naltirilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri XIV–XVI asrlar. Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand shahri butunlay o‘zgacha arxitektura va shaharsozlik qiyofasiga ega bo‘ldi. Temur tomonidan bosh reja ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yo‘llar, bog‘lar, saroylar va madrasalar shahar miqyosida hududga mos va munosib joylashtirilgan.

Sovet ittifoqi davri XIX-XX asrlar. Sovet ittifoqi davrida Samarqandda zamonaviy shaharsozlik standartlari bo‘yicha yangi yo‘llar, sanoat hududlari va turar joy massivlari qurildi. O‘zbekiston mustaqillikka

erishganidan keyin hamda mustaqillik yillarida esa tarixiy merosni asrab-avaylash bilan birga zamonaviy infratuzilma ham rivojlantirildi.

Samarqandning bosh reja asosida rivojlanishi – bu shaharni kelajakda rivojlantirish, infratuzilmani to‘g‘ri tashkil etish va transport tizimini optimallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan hujjat hisoblanadi. Hozirgi kunda Samarqand shahrining bosh rejalari tarixiy va zamonaviy talablar asosida shakllantirilmoqda. Samarqand shahrining bosh rejasi shaharsozlikning radial xalqa tamoyillari asosida rivojlantirishga asoslangan. Samarqand shahri hududi hozirgi kunda tahlil qilinib, ularni strategik rivojlantirish rejalari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shahar hududi uchta asosiy, 1-Afrosiyob - qadimiy shahar, 2-Amir Temur va Temuriylar davri - eski shahar, 3-Sovet davri - yangi shahar qismlariga ajratilgan.



Bosh rejaning asosiy elementlari:

- Shahar markazi va tarixiy yodgorliklarning joylashuvi. Samarqand shahrining asosiy tarixiy obidalari – Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi va Ulug‘bek rasadxonalari asosida bosh rejada markaziy o‘ringa ega bo‘lib, ularga olib boruvchi yo‘llar strategik ravishda joylashtirilgan.

- Asosiy yo‘llarning shakllanishi. Samarqand shahrida yo‘llar tizimi radial va halqa shaklida tuzilgan. Asosiy magistrallar tarixiy markazdan chiqib, shahar atrofiga tarqaladi.

- Transport va infratuzilma. Samarqand shahrining bosh rejasi avtomobil yo‘llari, jamoat transporti va piyodalar yo‘laklarini optimallashtirishga qaratilgan. Yangi aeroport va temir yo‘l vokzali hududlari ham shahar bosh rejasiga muvofiq rivojlantirilmoqda.

Bosh reja – shahar hamda shahar atrofidagi qishloqlar, sanoat hududlari va boshqa yirik aholi punktlarini rivojlantirish, qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha asosiy loyiha hujjatlarini belgilaydi. U hududning kelajakdagi rivojlanishini rejalashtiradi va quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zlaydi:

-Aholi yashash sharoitlarini yaxshilash;

-Transport tizimini samarali tashkil qilish;

-Ekologik barqarorlikni ta’minlash;

-Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Bosh reja hududiy rejalashtirish, arxitektura va muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini o‘z ichiga oladi. Bosh rejaning asosiy tarkibiy qismlariga hududiy rejalashtirish bo‘yicha - shahar va shahar atrofidagi joylarni funksional zonalarga ajratish, transport va kommunikatsiyalar bo‘yicha - yo‘llar, ko‘priklar, temir yo‘l va boshqa transport tarmoqlarini rejalashtirish, muhandislik infratuzilmasi bo‘yicha – suv, elektr energiya, tabiiy gaz, kanalizatsiya va aloqa tizimlarini loyihalash, ijtimoiy infratuzilma bo‘yicha – maktablar, shifoxonalar, madaniy dam olish va sport obyektlarini joylashtirish, ekologiya va landshaft dizayni bo‘yicha – yashil hududlar, bog‘lar, suv havzalari va boshqa tabiiy obyektlarni rejalashtirish kabilar kiradi.

Yo‘llar arxitekturasi tushunchasi: Yo‘llar arxitekturasi – shahar va shahar atrofi hududlarida yo‘l tarmoqlarini rejalashtirish va loyihalash jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi transport harakati va piyodalarning qulay hamda xavfsiz harakatlanishini ta’minlashdan iborat.

Yo‘l tarmoqlarining asosiy turlariga:

- Shahar magistrallari – asosiy transport oqimlarini yo‘naltiruvchi keng yo‘llar;

- Ikkinchi darajali yo‘llar – mahalliy transport harakatini ta’minlovchi yo‘llar;

- Ichki ko‘chalar – uy-joy massivlari va kichik hududlarda harakatlanish uchun mo‘ljallangan yo‘llar;

- Piyodalar yo‘laklari va velosiped yo‘llari – piyodalar va ekologik transport vositalari uchun mo‘ljallangan yo‘llar kiradi.

Yo‘l arxitekturasi elementlariga:

- Yo‘l qoplamasi – asfalt, beton, tosh yotqizilgan sirtlardan tashkil topadi;

- Yo‘l belgilari va chiziqlari – xavfsiz harakatlanish uchun chizilgan belgilar va ko‘rsatkichlar iborat bo‘ladi;

- Ko‘priklar va estakadalar – transport oqimini yaxshilash va tirbandlikni kamaytirish uchun mo‘ljallangan inshootlar hisoblanadi.

- Yashil hududlar va yo‘l bo‘yidagi arxitektura – yo‘llar bo‘ylab daraxt ekish, yo‘l yoritish tizimlarini joylashtirish va yashil arxitektura imkoniyatlaridan samarali foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

- Jamoat transporti infratuzilmasi – avtobus bekatlari va tramvay tizimlarini rejalashtirish va loyihalashtirish kabilar kiradi.

Zamonaviy yo‘llar arxitekturasi tamoyillariga:

- Ekologik toza texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha - yo‘llarda shovqinni kamaytirish, yashil hududlarni ko‘paytirish.

- Intellektual transport tizimlarini joriy etish bo‘yicha - svetoforlarni avtomatik boshqarish, aqlli yo‘l harakati tizimlarini yaratish.

- Barqaror rivojlanish tamoyillari bo‘yicha - energiya tejovchi materiallardan foydalanish, kam uglerodli transport vositalarini rivojlantirish.

- Piyoda va velosiped harakatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha - alohida piyodalar va velosiped yo‘laklarini loyihalash kabilar kiradi.

Yo‘llar arxitekturasining ahamiyati. Samarqand shahrining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ularni to‘g‘ri rejalashtirish quyidagi jihatlari bilan katta ahamiyatga ega:

- Tarixiy va zamonaviy yo‘llarni uyg‘unlashtirish – Samarqand shahrining yo‘llar tizimi tarixiy obidalar va zamonaviy infratuzilmani birlashtirishga mo‘ljallangan.

- Transport harakatining samaradorligini oshirish - magistrallar, halqa yo‘llari va shahar markazidagi piyodalar uchun qulay yo‘laklar transport harakatini yengillashtiradi.

- Turizm va savdo-sotiqni rivojlantirish – Samarqand tarixiy va qadimiy turistik shahar bo‘lganligi uchun, yo‘llar tizimi sayyohlarning asosiy yodgorliklarga qulay va havfsiz yetib borishini ta’minlashdan iborat.

Xulosalar

Samarqand shaharsozligida bosh reja va yo‘llar arxitekturasi muhim ahamiyatga ega. Shaharning tarixiy va zamonaviy jihatlari bir-biriga uyg‘un holda rivojlantirilib, transport va infratuzilma tizimi takomillashtirilmoqda. Shu sababli Samarqand nafaqat o‘zining boy tarixi, balki zamonaviy shaharsozlik yechimlari bilan ham ahamiyatlidir. Bosh reja va yo‘llar arxitekturasi shaharsozlik va transport tizimlarini samarali tashkil qilishning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri rejalashtirilishi aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratadi va shaharlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

2. Sh.M.Mirziyoev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent.: O‘zbekiston, 2016.

3. Isamuxamedova D.U. Adilova L.A. “Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi” — Toshkent-2009.

5. Sodiqov I.S., Azizov K.X., O‘roqov A.X., Avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash: Darslik. — T., 2017. 316 b.

6. Salimova B.D., Avtomobil yo‘llari va shahar ko‘chalarini arxitektura - landshaft loyihalash. — T.: “Chinor Fayzi Baland”, 2021. – 220 b.

7. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish. ShNQ 2.07.01-03*

Internet saytlari:

https://www.google.com

https://ziyonet.uz

https://arxiv.uz

YASHIL YO‘LAKLAR (GREEN CORRIDORS) ORQALI SHAHAR EKOLOGIK TIZIMLARINI BIRLASHTIRISH USULLARI

Reyimbaev SH.S. arx.f.n., dotsent.
Aimbetov Islam Sapari’mbet uli’
Arxitektura yodgorliklari kafedrasi doktoranti
TAQU.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy shahar ekologik muhitini tiklash va barqaror rivojlantirishda yashil yo‘laklar tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Urbanizatsiya natijasida yuzaga kelayotgan ekologik beqarorlik sharoitida yashil yo‘laklar parklar, bog‘lar, suv havzalari va boshqa tabiiy elementlarni birlashtiruvchi uzviy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yashil yo‘laklarning mikroiqlimni tartibga solish, biologik xilma-xillikni saqlash, aholining salomatligi va turmush sifatini yaxshilashdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. Yashil yo‘laklar, ekologik tizim, urbanizatsiya, shahar landshaftlari, barqaror rivojlanish, ekologik muhit

Kirish. Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari shahar ekologik tizimlariga katta bosim o‘tkazmoqda. Shaharlarda jamoat va turar-joy binolarining qurilishi, yashil maydonlarning qisqarishi, transport oqimining ko‘pligi va sanoat chiqindilari natijasida shaharlardagi tabiiy zanjirlar uzilib bormoqda. Bu esa ekologik beqarorlik, mikroiqlimning yomonlashuvi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda shahar muhitida ekologik uyg‘unlikni ta’minlash va tabiiy tizimlar o‘rtasidagi uzviy aloqani qayta tiklash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yashil yo‘laklar (green corridors) konsepsiyasi ekologik tizimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirish vositasi sifatida ilgari surilmoqda. Yashil yo‘laklar - bu shahardagi parklar, bog‘lar, suv havzalari, o‘rmonzorlar va boshqa tabiiy hududlarni bir-biriga bog‘lovchi, biologik xilma-xillikni saqlovchi, migratsiyani ta’minlovchi landshaft komponentlaridir [1]. Ushbu tizimlar nafaqat ekologik muvozanatni tiklaydi, balki shahar estetikasi, ijtimoiy jozibadorlik va aholining turmush sifati uchun ham muhim rol o‘ynaydi.

Yashil yo‘laklar yordamida shahar hududida “yashil infrastruktura” shakllanadi. Bu infratuzilma o‘zining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalari orqali shahar tizimni barqarorlashtiradi. Yashil yo‘laklar yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar uchun tabiiy yashash muhitini tiklaydi, shahar havosini tozalaydi, suv resurslarini himoya qiladi, jamoat salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Zamonaviy shaharlar ekologik beqarorlik, ifloslanish, havoning isib borishi, tuproq va suv resurslarining tanqisligi kabi ko‘plab muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bu muammolar urbani-

zatsiya sur'atining ortishi, sanoat va transport infratuzilmasining haddan ziyod kengayishi, tabiiy yashil hududlarning qisqarib borishi bilan yanada kuchaymoqda. Shahar hududlari tobora zichlashib, yashash muhitining ekologik sifati pasaymoqda. Bunday vaziyatda shaharlarning ichki ekologik tizimlarini tiklash, tabiiy va yashil hududlar o'rtasidagi aloqalarni qayta tiklash, aholi salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan sog'lom shahar muhitini yaratish zarurati tug'iladi.

Shu nuqtai nazardan, yashil yo'laklar konsepsiyasi shahar ekologiyasini barqarorlashtirish, tabiiy resurslar bilan muvozanatli aloqani tiklash va shahar landshaftini ekologik tizim sifatida tashkil etishning muhim vositasiga aylanmoqda [2]. Yashil yo'laklar deganda, shahar ichidagi turli yashil hududlarni – parklar, bog'lar, xiyobonlar, daraxtzorli ko'chalar, tarixiy obidalar atrofidagi yashil zonalarni - birlashtirib turuvchi uzluksiz yoki tizimli tarzda joylashgan yashil yo'nalishlar tushuniladi. Bunday yo'laklar orqali shahar tabiiy muhit bilan uyg'unlashadi, ekologik muvozanat mustahkamlanadi, havo aylanishi va mikroiqlim yaxshilanadi [3].

Yashil yo'laklarning shakllanishi, asosan, shahar landshaftining tabiiy va antropogen holatiga bog'liq. Aholi zich joylashgan shaharlarda mavjud yashil zonalar orasidagi masofa, infratuzilma, relef, daryo yoki kanallarning joylashuvi, iqlim sharoiti kabi omillar ushbu yo'nalishlarni tashkil etishda asosiy ko'rsatkichlar bo'ladi. Ayni paytda, yashil yo'laklar faqat ekologik tizimlarni bog'lab turuvchi element bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy hayot sifatini yaxshilovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi [4]. Masalan, shahar aholisiga piyoda yurish, velosipedda harakatlanish, dam olish, sport bilan shug'ullanish, tabiat bilan bevosita muloqot qilish imkonini yaratadi.

Yashil yo'laklar orqali shahar landshaftini bir butun ekotizim sifatida shakllantirish mumkin. Bu yo'nalishlar shahar hududida ekologik uzluksizlikni ta'minlab, tabiatdagi energetik va biologik oqimlarning to'xtab qolmasligini kafolatlaydi. Daraxtzorlar va yashil maydonlar orqali havodagi karbonat angidrid miqdori kamayadi, chang tutish darajasi oshadi, tuproq eroziyasi kamayadi. Suv resurslarini muhofaza qilishda, yomg'ir suvlarini tabiiy shimdirish va filtrlashda ham yashil yo'laklar katta rol o'ynaydi.

Ko'plab xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashil yo'laklar shaharning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Kopenhagen shahrida bog'lar, o'rmonzorlar, tarixiy maydonlar va dam olish hududlari yagona yashil tarmoq orqali birlashtirilgan. Bunda har bir yashil yo'nalish aholi yurishi, velosiped harakati, ekologik kuzatuv uchun qulay tarzda ishlab chiqilgan (1-rasm)[5]. Singapurda esa shahar ichidagi har bir park yoki ochiq maydon maxsus yashil yo'laklar orqali boshqa bog' va rekreatsion hududlarga bog'lanadi (2-rasm) [6]. Bu tizim orqali fuqarolar osongina shaharning istalgan yashil zonasiga tabiiy muhitdan chiqmay yetib borishi mumkin.

1-rasm Kopenhagen shahri yashil yolaklar
https://www.telegraph.co.uk/travel/discovering-hygge-in-copenhagen/sustainable-city/

2-rasm Singapur. 11 km taklif loyiha yashil yo'laklar.
https://mothership.sg/2019/08/11km-bukit-timah-rochor-green-corridor/

Yashil yo'laklar turli funksiyani bajargani sababli ularning shakllanishida strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Ular faqatgina daraxtlar ekilgan yo'l bo'lishi emas, balki puxta o'ylangan landshaft dizayni, ekologik himoya qatlamlari, jamoatchilik infratuzilmasi, iqlimiy sharoit va arxitektura uslublarini o'zida mujassam etgan tizim bo'lishi kerak. Bu tizimni yaratishda shahar hokimiyatlari, arxitektorlar, landshaft mutaxassislari, ekologlar va fuqarolarning o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi.

Yashil yo'laklarning shahar ekologik tizimidagi funksiyalari va foydasi

№	Yashil yo'lak funksiyasi	Ekologik foydasi	Amaliy qo'llanilish misoli
1	Yashil zonalarni birlashtirish	Ekologik uzluksizlikni ta'minlaydi, parchalanishni bartaraf etadi	Parklarni daraxtzorli ko'chalar orqali bog'lash
2	Mikroiqlimni tartibga solish	Soyali hududlar hosil qiladi, havoni salqinlashtiradi	Issiq iqlimli shaharlarda keng daraxtzor yo'llar
3	Chang va gazlarni filtrlash	Havo sifatini yaxshilaydi, sog'lom muhit yaratadi	Shovqinli ko'chalar bo'yida yashil to'siqlar

4	Aholi salomatligi va dam olish	Sport, yurish, dam olish imkonini beradi	Piyoda va veloyo‘laklar bo‘ylab yashil yo‘laklar
5	Madaniy va tarixiy hududlarni bog‘lash	Turizm va shahar estetikasi rivojlanadi	Samarqandda tarixiy obidalarni bog‘lash
6	Suv muhofazasi va namlik saqlanishi	Yomg‘ir suvlarini shimdiradi, eroziyaning oldini oladi	Kanallar bo‘yidagi yashil maydonlar

Nukus shahrida esa cho‘l zonasida joylashgan bo‘lishiga qaramay, mahalliy o‘simlik turlaridan foydalanib, issiq va changli iqlimga mos yashil yo‘laklar tizimini yaratish mumkin. Ustyurt platosi, Moynaq, Davut ota, Mizdaxan kabi joylarni bog‘lovchi ekologik yo‘nalishlar, bir tomondan, sayyohlar uchun tabiiy yo‘llarni ochsa, ikkinchi tomondan, ekologik muhofaza zonalari sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, yashil yo‘laklar zamonaviy shaharlarning ekologik barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanib, Ular orqali tabiat bilan inson o‘rtasida yangidan bog‘lanishlar vujudga keladi, shaharsozlik muhitda tabiiy oqimlar qayta tiklanadi, jamiyatda ekologik madaniyat shakllanadi. Bu yo‘nalish kelajakdagi shaharsozlik va landshaft dizayni siyosatining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Yashil yo‘laklar - bu shunchaki daraxtzorli yo‘llar emas, balki inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy hayotiy bog‘liqlikni ifoda etuvchi ekologik timsoldir.

Xulosa. Yashil yo‘laklar zamonaviy shaharsozlikda ekologik barqarorlikni ta’minlovchi strategik vositalardan biri sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ular shahar hududidagi parchalanib ketgan yashil maydonlarni uzviy tarzda bog‘lab, yagona ekologik tizim hosil qiladi. Buning natijasida shahar ichida tabiiy havo aylanishi, namlik muvozanati, mikroiqlimning barqarorligi, chang miqdorining kamayishi kabi muhim ekologik jarayonlar tiklanadi.

Yashil yo‘laklar shahar muhitining ekologik sifatini yaxshilash barobarida, insonlar uchun qulay, sog‘lom va xavfsiz yashash muhitini yaratadi. Ular jamoat joylari, dam olish maskanlari, piyoda va velosiped yo‘llari bilan uyg‘unlashgan holda, fuqarolar salomatligiga, ijtimoiy hayot faolligiga va ekologik madaniyatning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yashil yo‘laklar turizm, madaniyat, sport va rekreatsion imkoniyatlarni kengaytiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yashil yo‘laklarni puxta rejalashtirish va amaliyotga joriy etish orqali nafaqat shahar ekologik holati yaxshilanadi, balki urbanistik dizayn, infratuzilma va aholi turmush sifati ham yuqori bosqichga ko‘tariladi. O‘zbekiston shaharlarida bu borada katta salohiyat mavjud bo‘lib, mavjud parklar, ko‘chalar, tarixiy maydonlar, daryo bo‘yidagi hududlar orasidagi aloqalarni yashil yo‘laklar orqali tiklash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil yo‘laklar — bu kelajak shaharlarining asosiy ekologik tayanchi bo‘lishi kerak. Ular ekologik va ijtimoiy jihatdan mustahkam, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, inson va tabiat o‘rtasida uyg‘unlikni tiklovchi zamonaviy landshaft siyosatining ajralmas qismidir. Ularni rivojlantirish orqali biz sog‘lom avlod, sof havo, go‘zal muhit va barqaror yashash joylarini ta’minlashga erishamiz.

Adabiyotlar

1. Benedict, M. A., & McMahon, E. T. (2006). Green Infrastructure: Linking Landscapes and Communities. Washington, DC: Island Press.
2. Горяев Николай Константинович, Циулин Сергей Сергеевич Перспективы развития «Зелёных транспортных коридоров» в Европе с учётом ключевых показателей эффективности // Вестник СибАДИ. 2014. №6 (40). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-razvitiya-zelyonyh-transportnyh-koridorov-v-evrope-s-uchyotom-klyuchevyh-pokazateley-effektivnosti (дата обращения: 11.04.2025).
3. https://www.gazeta.uz/ru/2024/12/30/green-coridor/
4. https://cronos.asia/ekologiya/kakovy-perspektivy-stran-ca-pri-sozdanii-zelenogo-koridora
5. https://isocarp.org/app/uploads/2023/06/ISOCARP_2022_Ribeiro_ISO264.pdf
6. https://www.greenplan.gov.sg/key-focus-areas/city-in-nature/

УДК. 711.73:625.712.37

SAMARQAND SHAHRIGA KIRISH KO‘CHARARIDA TRANSPORT OQIMINI MONITORING QILISH

Xudayberdiyev Ab`erqul SamDaQU t.f.n dotsenti
Fayzullayev G`olib Zarifovich SamDaQU tayanch doktaranti

Annotatsiya. Samarqand shahri O‘zbekistonning eng yirik turistik va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, uning ahamiyati nafaqat mamlakatda, balki xalqaro miqyosda ham katta. Shu sababli, shaharga kirish yo‘llarida transport harakatini samarali boshqarish va monitoring qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish transport oqimini tartibga solish, xavfsizlikni oshirish hamda shahar aholisi va sayyohlar uchun qulay transport tizimini yaratishga xizmat qiladi. Bu nafaqat shaharning transport infratuzilmasini rivojlantirishga, balki uning umumiy qiyofasini yanada yaxshilashga ham hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada transport

harakatini monitoring qilish usullari, ilg‘or texnologik yechimlar hamda ularning samaradorligi tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Transport oqimi, tirbandlik, harakat jadalligi, o‘tkazuvchanlik qobiliyati, transport oqimining haddan tashqari to'yinganligi; yo'l harakati nazorati; intelektual transport tizimlari.

Аннотация. Самарканд является одним из крупнейших туристических и экономических центров Узбекистана, и его значение велико не только в стране, но и на международном уровне. Поэтому эффективное управление и мониторинг транспортного движения на подъездных дорогах к городу является одним из актуальных вопросов. Использование современных технологий искусственного интеллекта служит регулированию транспортного потока, повышению безопасности и созданию удобной транспортной системы для жителей города и туристов. Это будет способствовать не только развитию транспортной инфраструктуры города, но и улучшению его общего облика. В данной статье проанализированы методы мониторинга транспортного движения, передовые технологические решения и их эффективность, разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: Транспортный поток, транспортные заторы, интенсивность движения, пропускная способность, перенасыщенность транспортного потока; управление дорожным движением; интеллектуальные транспортные системы.

Abstract. The city of Samarkand is one of the largest tourist and economic centers of Uzbekistan, and its significance is great not only in the country, but also at the international level. Therefore, effective management and monitoring of traffic on the roads entering the city is one of the most pressing issues. The use of modern artificial intelligence technologies serves to regulate traffic flow, increase safety, and create a convenient transport system for city residents and tourists. This will contribute not only to the development of the city's transport infrastructure, but also to the improvement of its overall appearance. This article analyzes methods of traffic monitoring, advanced technological solutions, and their effectiveness, and develops practical recommendations.

Key words: Traffic flow, traffic congestion, traffic intensity, capacity, traffic congestion; traffic control; intelligent transport systems.

Kirish. Shaharlarning markaziy qismiga kirish ko‘chalarida transport harakati, shahar infratuzilmasi va jamoat xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega. Monitoring tizimlari va ularning ishlash mexanizmi shaharga kirish ko‘chalaridagi transport harakatini monitoring qilishda bir nechta tizimlar va texnologiyalar qo‘llaniladi. Asosiy maqsad transport oqimining samarali boshqarilishini ta'minlash, tirbandliklarni kamaytirish va xavfsizlikni oshirishdir [1]. Monitoring tizimlari sensorlar, kameralar, va detektorlar orqali transport oqimining zichligi, tezligi va harakatini real vaqtda tahlil qiladi. Transport harakatini boshqarishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi [2].

№	Shahar markaziga kirish yo`llar	Transport vositalari soni	Tirbandlikda sarflangan vaqt
1	Motrit ko‘chasi (Sayoxat yo’nalishida)	460	30
2	Spitamen shoh ko‘chasi (Charxin yo’nalishida)	380	25
3	Afrosiyob ko‘chasi (Ulug’bek yo’nalishida)	160	10
4	Islom Karimov ko‘chasi (Siyob bozor yo’nalishida)	430	30
5	Usta Umarov ko‘chasi (Samarqand siti yo’nalishida)	290	15
6	Panjikent ko‘chasi (Tayloq yo’nalishida)	330	25
7	Tong Yog‘dusi ko‘chasi (Urgut yo’nalishida)	250	20
8	Registon ko‘chasi (Qarshi krug yo’nalishida)	350	25

Samarqand shahriga olib kiruvchi asosiy yo‘llardagi transport harakati monitoringi Samarqand shahri O‘zbekistonning madaniy va tarixiy markazlaridan biri sifatida doimiy ravishda ko‘plab sayyohlarni va aholini jalb qiladi. Shaharga kirish uchun asosiy yo‘llar orqali harakatlanadigan transport vositalarining oqimini nazorat qilish va boshqarish muhim ahamiyatga ega. 1-jadvalda Samarqand shahri markaziga olib kiruvchi asosiy ko‘chalarda ertalab 8:00 dan 9:00 gacha bo‘lgan oraliqdagi transport harakati monitoringi bo‘yicha tahlillar keltiriladi.

1-jadval

1-jadvalga asosan Samarqand shahariga kirish yo‘llarida transport vositalar soni tezligi va sarflangan vaqt meyori ushbu grafikda ko`rsatib o`tilgan.

1-grafik



1-rasm Samarqand shahriga kirish ko‘chlaridagi transport vositalar soni tezligi va vaqt meyori ko`rsatilgan.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalar va kompleks yechimlardan foydalanish zarur. Samarqandning transport tizimini takomillashtirish, nafaqat shahar aholisining, balki turistlarning ham qulayligini oshirishga xizmat qiladi.

Shaharga kiruvchi hududlarda qulay va tezkor jamoat transporti tizimini yo‘lga qo‘yish. Yo‘l harakati oqimini samarali boshqarish uchun aqlli tizimlarni joriy qilish [3].

2-grafik



2-rasm Samarqand shahriga kirish ko‘chlaridagi transport vositalar soni tezligi va vaqt meyori ko`rsatilgan.

Samarqand shaharga kirish yo‘llarida transport harakatini optimallashtirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va jamoat transporti tizimini takomillashtirish ushbu shaharga olib kiruvchi asosiy yo‘llar orqali transport harakati yil sayin ortib borilmoqda. Ushbu 1-grafik taxlil natijalari quyidagicha

1. Motrit ko‘chasi va Islom Karimov ko‘chasi:

⇨ Transport vositalari soni eng yuqori (460 va 430 ta), tirbandlikda sarflangan vaqt ham ko‘p (30 daqiqa).

⇨ Ushbu yo‘nalishlar tirbandlikni kamaytirishga qaratilgan maxsus choralarni talab qiladi.

2.Afrosiyob ko‘chasi:

⇨ Transport vositalari soni eng kam (160 ta), tirbandlikda sarflangan vaqt ham qisqa (10 daqiqa).

⇨ Ushbu yo‘l boshqa yo‘nalishlarga qaraganda kam yuklangan.

3.Spitamen, Panjikent va Registon ko‘chalari:

⇨ Transport vositalari soni o‘rtacha (330–380 ta), tirbandlik vaqti ham o‘rtacha (25 daqiqa).

4.Tong Yog‘dusi va Usta Umarov ko‘chalari:

⇨ Transport oqimi vaqti va hajmi nisbatan optimal, lekin kelajakda ortishi mumkin.

1. Sayoxatdan Motrit ko‘chasi orqali kirish. Sayoxat yo‘nalishi shahar tashqarisidan kirib keluvchi transport vositalari uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi. Motrit ko‘chasi orqali shaharga kiruvchi transport oqimi ko‘pincha ertalabki va kechki soatlarda yuqori bo‘ladi. tumanlardan kelayotgan transportlar uchun yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va avtomobil oqimini taqsimlash muhim. Ushbu yo‘nalishda harakat oqimini monitoring qilish orqali quyidagilar taklif etiladi:

- Avtomatlashtirilgan harakat monitoring tizimini o‘rnatish.
- Videokuzatuv kameralari va tezlikni nazorat qilish uskunalarini joylashtirish.
- Tirbandlikni oldini olish uchun zaxira yo‘nalishlar yaratish.
- Tirbandlik paytida haydovchilarni alternativa yo‘llarga yo‘naltiruvchi belgilar va raqamli ekranlardan foydalanish.
- Qo‘shimcha yo‘llar va burilish yo‘nalishlarini tashkil etish

2. Charxin yo‘nalishida Spetamen shoh ko‘chasi orqali kirish Charxin va Spetamen shoh ko‘chasi orasidagi transport oqimi asosan tijorat yuk mashinalari va mahalliy aholining harakatiga asoslangan. Spetamen ko‘chasi tirbandlikni kamaytirish uchun kengaytirilishi yoki yo‘lovchi transporti uchun alohida yo‘laklar tashkil etilishi lozim.

3. Ulug‘bekdan Afrosiyob ko‘chasi orqali kirish Afrosiyob ko‘chasi Samarqandning tarixiy markazlariga olib boruvchi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, sayyohlar oqimi yuqori bo‘lgan hududdir. Transport harakatini tartibga solish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- Sayyohlar uchun alohida jamoat transporti tizimini rivojlantirish.
- Parkovka hududlarini tashkil qilish.
- Xavfsizlik choralari sifatida piyodalar o‘tish joylarini yaxshilash.

4. Jomboydan Islom Karimov ko‘chasiga kirish Jomboydan shahar markaziga kiradigan yo‘l Samarqandning tarixiy markazlariga olib boruvchi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, sayyohlar oqimi yuqori bo‘lgan hududdir. Transport harakatini tartibga solish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- Sayyohlar uchun alohida jamoat transporti tizimini rivojlantirish.
- Avto turargoh hududlarini tashkil qilish.

Xavfsizlik choralari sifatida piyodalar o‘tish joylarini yaxshilash

5. Samarqand siti hududidan Usta Umarov ko‘chasiga kirish Samarqand siti orqali shaharga kiruvchi transport oqimi nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, bu yerda avtomobil oqimi o‘rtacha darajada. Biroq, kelgusida bu hududda tirbandlik xavfi ortishi mumkin. Shuning uchun:

- Transport harakati monitoringi uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.
- Shahar ichki transport tizimini Samarqand siti bilan integratsiya qilish.

6. Tayloqdan Panjikent ko‘chasiga kirish Tayloq yo‘nalishi viloyatning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi muhim transport yo‘lagi hisoblanadi. Panjikent ko‘chasidagi harakatni boshqarish bo‘yicha takliflar:

- Yo‘lovchi transporti uchun qulay infratuzilma yaratish.
- Chorrahalarda svetoforlarning ishlash rejimini o‘zgartirish svetafor qurilmalarini bir biriga bog’lash
- Og‘ir yuk transporti uchun cheklovlar kiritish.
- Alternativ yo‘llarni rivojlantirish.

7. Urgutdan Tong Yog‘dusi ko‘chasiga kirish Urgutdan Samarqandga kirish Tong Yog‘dusi ko‘chasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo‘nalish qishloq xo‘jaligi

mahsulotlari tashiladigan asosiy yo‘ldir. Tirbandlikni kamaytirish uchun:

- Yo`l yoqasidagi natog`ri turgan transport vositalarni avto turorgohlarga joylashtirish.
- Avtobuslar uchun alohida yo‘laklar tashkil qilish.
- Yo‘lovchi transporti uchun qulay infratuzilma yaratish.

8. Qarshi krugidan shahar markaziga kirish Qarshi yo‘nalishi Samarqandga eng ko‘p yuk tashiladigan yo‘ldir. Bu yerda yuk mashinalari oqimini nazorat qilish va tirbandlikni kamaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Yuk mashinalari uchun alohida vaqt rejimini joriy etish.
- Maxsus yuk transporti terminalini tashkil qilish.
- Yo‘llarni kengaytirish va yangi svetofor tizimlarini o‘rnatish.
- Shahar atrofi uchun zaxira yo‘nalishlarini rivojlantirish.

Xulosa Shaharga kirish yo‘llarida transport harakatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyasini qo‘llash orqali harakat intensivligini boshqarishda, balki xavfsizlikni oshirishda va tirbandliklarni kamaytirishda ham samarali hisoblanadi. Ushbu tizimlarning integratsiyasi transport harakati boshqaruvini optimallashtirishga, baxtsiz hodisalarni kamaytirishga va yo‘llarning ekologik holatini yaxshilashga yordam beradi. Bunday tizimlar shaharlararo va shahar ichidagi yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish va samarali boshqarish uchun zarur.

Adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasida transport va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha konferensiya materiallari 2022 y. S. X. Raxmonov, B. O. Sobirov.
2. "Samarqand shahridagi yo‘l harakati tizimini optimallashtirishning zamonaviy yondashuvlari".
3. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Axborotnomasi, 2021y. N. N. Yusupov, D. X. Ismoilov.
4. "Yo‘l harakatini boshqarishda intellektual transport tizimlarining roli". Toshkent Transport Universiteti ilmiy jurnali, 2023 y X. H. Bobomurodov.
5. "Samarqand shahrida yo‘l harakatini boshqarishning innovatsion texnologiyalari". Samarqand davlat universiteti ilmiy asarlari, 2022 y.
6. Michael A. Meyer, Eric J. Miller. "Urban Transportation Planning: A Decision-Oriented Approach". McGraw-Hill Education, 2019.
7. V. A. Profillidis. "Transport Systems and Traffic Engineering". Springer, 2020.
Hani S. Mahmassani.

Internet saytlari

8. www.researchgate.net **ResearchGate**. Transport tizimlari va yo‘l harakatini optimallashtirishga oid ilmiy maqolalar.
9. scholar.google.com **Google Scholar**. "Samarqand traffic optimization", xalqaro maqolalar bazasi.
10. www.springer.com **Springer**. "Traffic Optimization Models and Algorithms", xalqaro ilmiy maqolalar to‘plami.
11. https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/24/social-progres/

СОХРАНЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ДРЕВНИХ ГОРОДОВ ПРИ СОЗДАНИИ КОМФОРТНОЙ ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ

Тожибоев Улугбек Ирисбоевич
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет
старший преподаватель кафедры архитектура.

Аннотация. В статье подчёркивается важность создания комфортной городской среды как приоритета в развитии мегаполисов. Отмечается влияние качества жилой среды на здоровье, психологическое состояние и формирование человеческого капитала. Автор акцентирует внимание на необходимости сочетания современных архитектурных решений с историческим обликом города. В условиях урбанизации сохраняется угроза утраты культурного наследия, поэтому подчеркивается значимость сохранения историко-культурной среды как элемента национальной идентичности и ресурса для развития туризма и экономики.

Ключевые слова: комфортная среда, мегаполис, жилая среда, человеческий капитал, архитектурное решение, облик города, культурное наследие, историко-культурная среда, национальная идентичность, ресурс, туризм, экономика.

Современные мегаполисы сталкиваются с рядом вызовов, связанных с урбанизацией и сохранением историко-культурного наследия. Быстрое развитие инфраструктуры и строительство новых объектов порой угрожают уничтожению исторических памятников и традиционного облика городов. В этой связи важной задачей становится интеграция исторического наследия в современные городские проекты. Одной из ключевых ролей в этом процессе играют университеты, являющиеся научными и образовательными центрами, которые не только готовят специалистов, но и активно участвуют в разработке стратегий сохранения исторической среды и гармоничного взаимодействия традиций с современностью.

Университеты выполняют несколько ключевых функций в сохранении исторического наследия древних городов. Это не только подготовка специалистов, но и проведение фундаментальных исследований, участие в проектировании,

реставрации и адаптации исторических объектов, а также просветительская деятельность среди местных жителей и широкой общественности.

Создание комфортной и благоприятной среды для проживания людей в городах – одно из основных направлений развития современных мегаполисов. Качество жилой среды имеет огромное значение для здоровья и продолжительности жиз Университеты обеспечивают подготовку квалифицированных кадров, которые способны работать в области сохранения и адаптации исторического наследия. Важнейшие дисциплины включают историю архитектуры, археологию, культурологию и реставрацию. Программы обучают студентов не только техническим аспектам работы с историческими объектами, но и формируют у них глубокое понимание культурной ценности исторической среды. Образование в этой сфере способствует формированию нового поколения архитекторов и градостроителей, способных интегрировать старинные элементы в современные проекты. В этом контексте важным является опыт университетов, например, Университета Барселоны, который активно разрабатывает курсы по сохранению культурного наследияни людей, их психологического состояния, а также для условий воспитания и развития личности. В конечном счёте, это влияет на рост человеческого капитала, который является важным ресурсом для развития города [1].

Построить новый дом не является сложной задачей, особенно с учётом доступности современных строительных технологий и материалов. Однако, чтобы построить прекрасный дом, сочетающийся с историческим обликом, требуется больше усилий и специальных знаний [2].

В условиях стремительной урбанизации в древних городах появляются новые объекты, развивается промышленность, строятся современные высотные здания – всё это может привести к разрушению исторической застройки и потере культурного наследия. Поэтому сегодня особенно актуален вопрос сохранения исторической застройки как духовной и материальной ценности, позволяющей сохранить традиционную историко-культурную среду [3].

Историко-культурное наследие – это не просто прошлое, а важный ресурс развития культуры и страны в будущем. В связи с этим сохранение наследия стало одним из приоритетов культурной политики современного Узбекистана. Под личным руководством Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева обозначены проблемы, требующие неукоснительного и качественного решения [4].

Сохранение исторической застройки выполняет несколько социальных функций. Во-первых, это сохранение и продвижение культурного наследия, являющегося частью национальной идентичности. Его передача будущим поколениям позволяет сохранить культурную преемственность, а также укрепить позиции национальной культуры в контексте мировой цивилизации [5].

Во-вторых, сохранение исторической застройки способствует развитию туризма. Туристы предпочитают посещать города с хорошо сохранившимися историческими объектами. Это стимулирует развитие туристической индустрии, местной экономики и создание новых рабочих мест [6].

Создание комфортной городской среды требует сотрудничества между органами власти, архитекторами и градостроителями. Важно учитывать потребности жителей и сохранять исторический и культурный контекст среды. Это путь к устойчивому развитию города и повышению качества жизни его жителей [7].

Ярким примером бережного отношения к культурному наследию является подготовка Самарканда к саммиту ШОС. К этому событию был построен международный туристический центр Silk Road Samarkand площадью 135 гектаров. Дизайн комплекса демонстрирует гармоничное сочетание исторических мотивов и современных решений [8].

(Вашему вниманию предлагаю посмотреть несколько фотоснимков объекта)

Этот проект включил в себя использование традиционных материалов и технологий, чтобы воссоздать аутентичность и оригинальность зданий. Это позволяет передать будущим поколениям уникальные характеристики и культурные ценности [1].

Кроме того, Самаркандский международный туристический центр Silk Road Samarkand также способствует развитию местной экономики и социальной инфраструктуры. Проект создаёт рабочие места для местных жителей и способствует развитию туризма, что повышает уровень жизни и благополучие местного сообщества [2].

В целом, сохранение исторической среды древних городов при создании проекта «Строительство прекрасного дома» требует бережного отношения к истории и культуре. Рассуждая над поставленной задачей, можно выделить несколько аспектов:

Адаптация и реставрация. Вместо сноса старых зданий целесообразно проводить их реставрацию и адаптацию под современные нужды. Это позволяет сохранить исторический облик города и его архитектурные особенности [3].

Использование традиционных материалов и технологий. При строительстве новых объектов следует применять материалы и методы, характерные для исторического периода, что помогает сохранить атмосферу города [1].

Сохранение пейзажа. Необходимо сохранять природные и архитектурные элементы: старые деревья, парки, традиционные улицы – всё это часть культурного ландшафта [4].

Учёт исторического контекста. Проектируя новые здания, важно учитывать архитектурное окружение, чтобы они гармонично вписывались в общий городской облик [5].

Образование и информирование. Важно проводить просветительские мероприятия для жителей и туристов, объясняя значимость исторической среды, её роль в идентичности и культуре [6].

Проведение исследований. Изучение истории города помогает выявить важные объекты, заслуживающие сохранения, и понять их культурную ценность [7].

Развитие туризма. Туризм, ориентированный на историческое наследие, усиливает интерес к культуре и экономически поддерживает сохранение объектов – за счёт экскурсий, культурных маршрутов и мероприятий [2][8].

Сохранение исторической среды требует комплексного подхода и сотрудничества различных участников – университетов, общественных организаций, органов власти и местных сообществ. Только так можно сохранить и передать будущим поколениям богатое культурное наследие и создать устойчивую и гармоничную среду для жизни.

Список источников:

1. Лефевр К. "Качество городской среды как фактор устойчивого развития" //*Градостроительство сегодня*, 2021.
2. Кузнецова Т.В. "Современные подходы к реконструкции исторических зданий" //*Архитектура и строительство*, 2020.
3. Vzglyad.uz — О сохранении культурного наследия в Узбекистане
4. Gazeta.uz — О поддержке реставрационных проектов в Бухаре
5. ЮНЕСКО. "Руководство по сохранению исторической застройки". — Париж, 2018.
6. Салахетдинова Д.М. "Культурное наследие как ресурс развития туризма" //*Экономика и управление*, 2019.
7. Проект UN-Habitat. "Urban planning for sustainable development", 2022.
8. Silk Road Samarkand – официальный сайт проекта
9. Silk Road Samarkand — Вечный город: традиционные технологии
10. Darakchi.uz — Silk Road Samarkand создаёт рабочие места и развивает туризм

СОХРАНЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ДРЕВНИХ ГОРОДОВ

Тожибоев Улугбек Ирисбоевич
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет
старший преподаватель кафедры архитектура,
Муллажонова Нигина Жамоловна
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рфшидова, доцент кафедры искусствоведения.

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые аспекты сохранения исторической среды древних городов как части культурного наследия и устойчивого развития. Подчёркивается её роль в формировании национальной идентичности, развитии туризма и улучшении городской среды. Выделяются угрозы, такие как урбанизация, утрата аутентичности и слабое правовое регулирование. Представлены современные подходы к сохранению, основанные на научной и международной практике, с акцентом на необходимость комплексного и междисциплинарного подхода.

Ключевые слова: историческая среда, культурное наследие, реставрация, урбанизация, архитектура, устойчивое развитие, древние города, сохранение.

Одним из ключевых аспектов сохранения исторической среды является создание комплексных планов по реставрации и консервации архитектурных памятников. Это включает в себя не только физическое восстановление зданий, но и сохранение их исторического контекста и окружения. Важно учитывать местные традиции и материалы, чтобы восстановленные объекты гармонично вписывались в существующую городскую ткань.

Кроме того, необходимо развивать программы по обучению и повышению осведомленности местных жителей о значении их культурного наследия. Вовлечение сообщества в процессы сохранения может способствовать формированию чувства гордости за свою историю и культуру, а также активному участию в охране исторической среды.

Туризм также играет важную роль в поддержании исторических городов. Разработка устойчивых туристических маршрутов, которые акцентируют внимание на культурных и исторических ценностях, может не только привлечь посетителей, но и обеспечить финансирование для дальнейшего сохранения объектов культурного наследия. Важно при этом учитывать баланс между интересами туристов и потребностями местных жителей.

В условиях глобализации необходимо также учитывать влияние современных технологий на сохранение исторической среды. Использование цифровых инструментов для документирования и моделирования исторических объектов может стать важным шагом к их защите и популяризации. Виртуальные туры, интерактивные выставки и образовательные платформы могут помочь донести ценность исторического наследия до широкой аудитории.

Историческая среда древних городов представляет собой неотъемлемую часть культурного наследия человечества. Она включает архитектурные памятники, планировочную структуру, традиционный образ жизни, а также нематериальные культурные ценности. В условиях ускоренной урбанизации и глобализации возникает необходимость в выработке эффективных стратегий по сохранению этой среды. Сохранение исторических городов способствует поддержанию культурной идентичности, развитию туризма и формированию устойчивой городской среды [1].

1. Понятие исторической среды

Каждый элемент исторической среды, будь то архитектурные памятники, улицы, площади или даже ландшафт, несёт в себе уникальную историю и отражает культурные, социальные и экономические аспекты своего времени. Поэтому любое изменение, будь то реконструкция, реставрация или новое строительство, должно учитывать исторический контекст и стремиться к сохранению аутентичности.

Важно также привлекать экспертов в области истории, архитектуры и градостроительства для оценки состояния объектов культурного наследия и разработки планов по их сохранению. Это позволит избежать ошибок, которые могут привести к утрате исторической ценности.

Кроме того, вовлечение местного сообщества в процессы сохранения исторической среды имеет огромное значение. Местные жители часто являются носителями знаний о своей истории и традициях, и их мнение должно учитываться при принятии решений. Создание платформ для диалога между властями, экспертами и гражданами может способствовать более сбалансированному подходу к сохранению наследия.

Современные технологии также могут сыграть важную роль в сохранении исторической среды. Цифровизация объектов культурного наследия, создание виртуальных туров и использование 3D-моделирования позволяют не только сохранить информацию о памятниках, но и сделать их доступными для широкой аудитории.

Таким образом, бережное отношение к исторической среде требует комплексного подхода, который включает в себя экспертизу, общественное участие и современные технологии. Это поможет сохранить уникальность и идентичность городов, передавая их богатое культурное наследие будущим поколениям. Историческая среда – это совокупность объектов

культурного наследия и их окружения, формирующая облик города, его атмосферу и историческую память. Она складывается на протяжении веков, и каждое вмешательство в её структуру должно быть максимально бережным [2].

Международные документы, в частности Хартия по сохранению исторических городов (Вашингтонская хартия, 1987), подчёркивают важность комплексного подхода к сохранению, при котором учитываются не только отдельные здания, но и весь городской ландшафт [3].

2. Проблемы сохранения исторической среды

Сохранение исторической среды – это важнейшая задача современного градостроительства, направленная на поддержание культурной, архитектурной и духовной преемственности в городах. Историческая застройка представляет собой не только архитектурную ценность, но и важный компонент национальной идентичности, а также ресурс для устойчивого социально-экономического развития [4].

Одной из главных проблем сохранения исторической среды является стремительное развитие урбанизации. Рост населения, строительство новых объектов и модернизация инфраструктуры часто происходят в ущерб памятникам архитектуры и историческим кварталам [5]. Кроме того, повсеместное внедрение современных строительных технологий может нарушать исторический облик города, разрушая целостность историко-культурного ландшафта [6].

Другим вызовом выступает недостаточное нормативно-правовое регулирование. Во многих странах отсутствуют чёткие механизмы охраны объектов культурного наследия, либо они неэффективны на практике. Сложности также вызывает несогласованность между органами охраны памятников и градостроительными структурами [7].

Проблему усугубляет утрата аутентичности в процессе реставрации и реконструкции. Нередко работы проводятся без учёта исторических технологий и материалов, что приводит к искажению первоначального облика зданий и снижению их культурной ценности [8].

Сложности возникают и на уровне общественного восприятия: недостаточная информированность и вовлечённость населения снижает уровень поддержки проектов по сохранению исторического наследия. Между тем, активное участие местных сообществ способствует более устойчивым результатам [9].

Для эффективного решения обозначенных проблем необходим комплексный подход, включающий междисциплинарное сотрудничество, развитие научных исследований, улучшение законодательной базы, использование современных технологий мониторинга и реставрации, а также повышение уровня просвещения населения [10].

Таким образом, сохранение исторической среды – это не только техническая или архитектурная задача, но и социально-культурная миссия, требующая системных усилий на всех уровнях управления и общества в целом.

Среди основных проблем, стоящих перед сохранением исторических городов, можно выделить:

- **урбанистическое давление** – рост населения и инфраструктурное развитие ведут к разрушению старых кварталов;
- **недостаток финансирования** – ограниченные ресурсы не позволяют проводить качественные реставрационные работы;
- **несовершенство законодательства** – отсутствие четких механизмов охраны и регламентации строительной деятельности в исторических зонах [11];
- **утрата аутентичности** – при реконструкции часто нарушается историческая достоверность, особенно при коммерциализации объектов [12].

3. Подходы к сохранению

Современные подходы к сохранению исторической среды базируются на ряде принципов:

- **Комплексность** – учёт всех элементов исторической среды (застройка, улицы, пейзаж, традиции) [13];
- **Минимальное вмешательство** – реставрационные и ремонтные работы должны быть максимально деликатными [14];
- **Функциональная адаптация** – старые здания могут использоваться для современных нужд при условии сохранения их архитектурной ценности [15];
- **Вовлечение общества** – участие местного населения и НКО в принятии решений повышает качество охранных мероприятий [16].

Важную роль в сохранении исторической среды играют университеты, исследовательские центры и культурные институты. Научные изыскания позволяют разрабатывать устойчивые модели сохранения и интеграции памятников в городскую жизнь [17].

4. Международный опыт

Успешные примеры сохранения исторической среды можно найти в Европе и Азии. Так, в исторических кварталах Рима, Парижа и Стамбула применяется принцип «жизнь в наследии» – сохранённые здания используются по назначению, сохраняя свою культурную функцию [18].

В Узбекистане, особенно в таких городах как Самарканд, Бухара и Хива, реализуются государственные программы по сохранению архитектурного наследия, которые сочетают реставрационные работы с развитием туризма и местных ремёсел [19].

Сохранение исторической среды древних городов – это не только вопрос архитектуры и истории, но и стратегическая задача по обеспечению устойчивого развития. Только при условии комплексного подхода, междисциплинарного взаимодействия и активного участия общества возможно сохранить

культурное богатство для будущих поколений. Развитие современного города должно происходить в диалоге с его прошлым, а не в противостоянии с ним.

Список литературы:

1. Рожина Л.Ю. Сохранение исторической среды как фактор устойчивого развития // *Архитектура и градостроительство*. 2021. №3. С. 14–19.
2. Левин Д.М. Историческая застройка и городская идентичность // *Градостроительство*. 2020. №2. С. 31–35.
3. The Washington Charter 1987 – International Charter for the Conservation of Historic Towns and Urban Areas https://www.icomos.org/en/charters-and-texts
4. Аксенов К.Е., Брейн Д. «Городская среда и культурное наследие». — М.: Стрелка Пресс, 2019.
5. Лукьянова Н.В. Проблемы урбанизации и сохранения исторической среды // Вестник архитектуры и градостроительства. — 2021. — №3. — С. 45–51.
6. Раппопорт А. Пространство и порядок: восприятие исторической среды. — М.: Прогресс-Традиция, 2020.
7. Васильева О.И. Законодательство в сфере охраны объектов культурного наследия: проблемы и перспективы // Право и время. — 2022. — №2.
8. Мауэр Ю. Принципы реставрации исторических зданий. — СПб.: Изд-во СПбГАСУ, 2018.
9. Новикова Е.А. Участие населения в сохранении культурного наследия // Социологические исследования. — 2020. — №5.
10. UNESCO. Recommendation on the Historic Urban Landscape. — 2011. [https://whc.unesco.org/en/hul/]
11. Гафурова А.Н. Правовое регулирование охраны исторической застройки в РФ // *Юридическая наука и практика: Вестник НИУ*. 2020. №1.
12. Савельев В.Н. Проблемы аутентичности в восстановлении исторических объектов // *Наследие и модернизация*. 2019. №4.
13. Гулиев А.А. Комплексная защита исторических городов // *Вестник архитектуры и строительства*. 2018. №5.
14. ICOMOS Guidelines for Education and Training in the Conservation of Monuments, Ensembles and Sites (1993) https://www.icomos.org/charters/training_e.pdf
15. Зверева Е.С. Адаптивное повторное использование исторических зданий // *Архитектон: известия вузов*. 2021. №2.
16. Джураев У.Т. Общественное участие в охране историко-культурного наследия Узбекистана // *Историческое обозрение Центральной Азии*. 2022. №1.
17. Тураев Б.Р. Университеты как акторы сохранения исторической среды // *Научное сообщество студентов*. 2023. №6.
18. Del Monaco, A. Urban Heritage and Livability: European Cases // *Journal of Urban Culture Research*. 2018. №17.
19. Strategy.uz — Национальные проекты в сфере охраны культурного наследия Узбекистана https://strategy.uz

UO'K 711.73:625.712.37

TRANSPORTNING RIVOJLANISHI BILAN SHAHAR MARKAZINI RIVOJLANTIRISH

Davlatov Ikrom Shavxidinovich
SamDAQU "Shaharsozlik" kafedrasi katta o'qituvchisi,
Iskanova Xolida Tashmamatovna
SamDAQU talabasi.

Annotatsiya: Maqolada transportning rivojlanishi bilan shahar markazini rivojlantirish,y'ani markazning eng ixcham hududida faqat zarur funktsiyalar va inshootlar qoldirilishi,transportga kirish imkoni bo'lmagan piyodalar harakati hududilarini ajratish,markaz hududining atrofiga kirish va to'xtash joylarining aniq ishlaydigan tizimi tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avtotransport, yo'llarning o'tkazuvchanligi, shahar markazlari, avtomobillar oqimi, jamoat transporti, transportlar tirbandligi.

Аннотация: В статье рассматривается вопросы развития центра города с развитием транспорта, т. е. оставления только необходимых функций и сооружений на наиболее компактной территории центра, выделения зон пешеходного движения, недоступных для движения транспорта, организации четко функционирующей системы въездов и парковок на периферии территории центра.

Ключевые слова: Автотранспорт, пропускная способность дорог, городские центры, автомобильный поток, общественный транспорт, заторы на дорогах.

Abstract: The article covers the development of the city center with the development of transport, the Leaving of only the necessary functions and facilities in the most compact area of the center, the allocation of pedestrian traffic areas with no access to transport, the creation of a clearly functioning system of access and parking spaces around the center area.

Key words: Transportation, road permeability, urban centers, flow of cars, public transport, traffic congestion.

Shahar markazlarining rivojlanish dinamikasiga, birinchi navbatda, uchta asosiy omil ta'sir ko'rsatgan va ta'sir ko'rsatmoqda.

Ulardan birinchisi, odatda shahar markazida joylashgan xizmatlarning potentsial iste'molchilari sonining ko'payishiga olib keladigan ijtimoiy

farovonlikning o'sishi. Ushbu xizmatlarning potentsial iste'molchilari soni mamlakat aholisining o'sish qolaversa shahar aholisining tufayli oshib bormoqda.

Ikkinchi omil-bu mamlakatning deyarli barcha aholisi uchun shahar markazlarini qulay qiladigan transportning (ayniqsa motorli transportning) g'ayrioddiy rivojlanishi.

Uchinchi muhim omil shundaki, xizmatlar va boshqaruv funktsiyalarining rivojlanishi bilan bir vaqtda shahar markazi mehnatni qilish markaziga aylanmoqda.

Biroq, shahar transporti tizimida hal qiluvchi rol o'ynaydigan avtomobil emas.

Avtomobilning roli markazda joylashgan xizmat ko'rsatish muassasalarining mavjudligini ta'minlash bilan cheklanmaydi. Avtomobil bir tomondan shaharda yashash sharoitlarining yomonlashishiga olib kelsa, boshqa tomondan, uning aholisiga uzoqdan tashrif buyurishiga imkon beradi. Shu munosabat bilan aholi yashash tizimi 20 km radiusda tarqaladi. Shahar markazlari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hududlar ham, xizmat ko'rsatiladigan aholi soni ham sezilarli darajada oshadi.

Shaharlarning kengayishi va ularning yirik aglomeratsiyalarga aylanishi, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli shakllarining keng rivojlanishi aholining harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi, aholi soniga yoki transport tizimlarining yaxshilanishiga qaraganda tezroq o'sadi.

Shahar markazlari ko'chalarida transport tezligi soatiga 10 km yoki undan kam bo'lgan doimiy pasayish kuzatilmoqda. Avtomobilda yurish umumiy vaqtining yarmidan ko'pi zoya ketadi. Shahar markazi avtotransport uchun yarim o'lik hududga aylanadi.

Avtotransport vositalarining harakatlanish sharoitlarini yaxshilash, yo'llarning o'tkazuvchanligini oshirish maqsadida, birinchi navbatda, asosiy transport magistrallari bo'lgan asosiy savdo ko'chalarida to'xtash, burilish taqiqlanadi. Biroq, do'konga kirish imkoniyati yo'qligi piyodalar harakati intensivligining pasayishiga va shu bilan birga xizmat ko'rsatish muassasalarining savdosi pasayishiga olib keladi. Va bu savdogarlarning noroziligiga sabab bo'ladi.

Bunday ko'cha gavjum va xavfsiz "shahar saloni" bo'lishni to'xtatadi - xarid qilish, uchrashuvlar, vitrinalar bo'ylab sayr qilishni cheklaydi. Piyoda uchun (avtoulovlarni to'xtatish taqiqlanadi) bu noqulay, xavfli bo'lib qoladi. Agar bunday hodisa jamoat nuqtai nazardan nomaqbul bo'lib chiqsa, u iqtisodiy qiymatini yo'qotadi.

Shahar va davlat hokimiyatining avtomobil transportlarini jadal rivojlanishiga munosabati barcha mamlakatlarda bir xil bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Birinchidan, ular muammoni turli xil modernizatsiya choralari yordamida hal qilishga harakat qilmoqdalar: ko'kalamzorlarni yo'q qilish yoki piyodalar yo'laklarining kengligini kamaytirish orqali yo'lni kengaytirish, tugunlarni qayta qurish, magistral yo'llar ostida va tepasida piyodalar o'tish joylarini qurish va nihoyat, bir tomonlama ko'chalar tizimini joriy etish, to'xtash joylarini elektron signalizatsiya tizimini qo'llash yoki ko'chalarni kengaytirish. Ushbu chora-tadbirlar transport muammolarini qisqa muddatga yaxshilaydi. Shahar markazlarida transport uchun mo'ljallangan maydonlarning ko'payishi eski binolarni, shaharning ushbu qismi mohiyatini, asosiy xizmat ko'rsatish markazini hamda turar-joy tumanini yo'q qilishga olib keladi. Markaz hududidagi ushbu harakatlarning natijasi, odatda, piyodalar va transport vositalarining harakatini falaj qiladi. Ko'chalar yana tranzit avtomobillar harakati va kiruvchi transportlar bilan to'lib toshadi.

Samarqand Daxbet va Rudakiy ko'chasilari chorrahasi

Ushbu muammoni hal qilishning keyingi bosqichi odatda jamoat transportini rivojlantirishdir. Biroq, natijada "mustahkam doira" paydo bo'ladi: avtomobillar oqimi jamoat transporti harakatini sekinlashtiradi, bu esa yo'lovchilarning undan foydalanishni istamasligiga olib keladi va ularni individual avtomobillarni afzal ko'rishga undaydi. Bu muammolar oqibatlari faqat transportlar tirbandligi bilan cheklanmaydi; ular shahar markazlarining qulashiga olib keladi, ularning ijtimoiy qiymatini yo'q qiladi.

Xalqaro miqyosda namoyon bo'ladigan muntazamlik - bu o'z mamlakatida motorizatsiyani to'liq rivojlantirish imkoniyatiga ishonmaslik, so'ngra mavjud transport tizimini takomillashtirish orqali shahar markazining transport muammosini hal qilish imkoniyati haqidagi noto'g'ri tushunchasidir.

Shahar markazlarining transportdagi qiyinchiliklari shaharlarning Markaziy hududlarini tubdan qayta qurish zarurligining asosiy sababi bo'lmasa-da. Texnik imkoniyatlarga asoslanib, siz xarid qilish usulini sezilarli darajada bekor qilishingiz mumkin. Avtomobil sizga katta yuklarni do'kondan uyga qulay tarzda olib o'tishga imkon beradi, muzlatgich - katta miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashni ta'minlaydi. Jamiyat kundalik xaridlar tizimidan haftada bir marta xaridlarga o'tadi. Kichik do'konlar tobora tejamkor bo'lib, ularning o'rnini yirik do'konlar egallaydi. Savdo tashkilotidagi bu juda tez rivojlanayotgan o'zgarishlar eski ob'ektlarni tubdan qayta qurishni va ko'p hollarda yangilarini qurishni talab qiladi.



Buxoro savdo majmuasi

Vaqti-vaqti bilan sotib olinadigan tovarlarga, shuningdek, har xil turdagi yuqori sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi markazda tobora katta maydonlarni talab qiladi. Boshqa tomondan, hozirgi kunga qadar faqat markazda joylashgan ba'zi inshootlarni boshqa hududlarga ko'chirish tendentsiyasi tobora ravshanlashib bormoqda, bu esa shahar markazining o'sish sur'atini biroz sekinlashtirmoqda, ammo transport bilan mavjud vaziyatni sezilarli darajada yaxshilamaydi.

Қоракўлнинг кўҳна “Пойкент” да замонавий савдо мажмуаси

Harakatning ma'lum bir intensivligiga erishilganda, miqdoriy o'zgarishlar nafaqat transport tizimini, balki shahar markazining funktsional va fazoviy tuzilishini tubdan qayta qurish uchun sifat o'zgarishiga olib keladigan payt keladi. Muammoni hal qilish faqat quyidagi printsiplarga asoslangan kompleks harakatlar bilan amalga oshirish mumkin:

- ✓ markazning eng ixcham hududida faqat zarur funktsiyalar va inshootlar qoldiriladi;
- ✓ transportga kirish imkoni bo'lmagan piyodalar harakati hududi (yoki hududlari) ajratiladi, bu esa piyodaning markazda harakatlanishi xavfsizligi va erkinligini hamda asosiy kirish joylariga (vokzallar, bekatlar, to'xtash joylari) o'tish imkoniyatini ta'minlaydi;
- ✓ markaz hududining atrofiga kirish va to'xtash joylarining aniq ishlaydigan tizimi tashkil etiladi;
- ✓ tranzit harakati kirish qismidan, yo'lovchi harakati esa tovarlarni etkazib beradigan mashinalar harakatidan ajratiladi.

Shunday qilib, transport nafaqat shahar markazining funktsiyalarini tartibga solishga imkon beradi va uni asta-sekin katta kristalli tuzilishga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. Худойбердиев, А., Бекназаров, М. Б., Санаева, Н. П., & Ачилдиев, Р. М. (2015). Строительство инженерных сетей. Me′morchilik va qurilish muammolari, 61.
2. Современные технологии комплексного освоения подземного пространства мегаполисов / В.И. Теличенко [и др.]. – М.: Изд-во АСВ, 2010.
3. Обоснование ликвидации заторов на самаркандских городских улицах и дорогах Ф.З. Чоршанбаев, Ч.О. Мелиева, А.Ф. Зиятова наука и техника. мирове иследования, 115-120 с.
4. Davlatov Ikrom Shavxidinovich «AVTOTRANSPORTLAR TIRBANDLIGI MUAMMOSINI QARAMAQARSHI XARAKATLAR (reversion) USULI BILAN YECHISH. (Samarqand shahar misolida.)» ME′MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI. (ilmiy-texnik jurnal). Samarqand 2024 №1. 190-192 betlar.
5. Achildiyev, R. M., & Otabekova, D. (2022). YIRIK SHAHARLARDA TRANSPORT MUAMMOLARINI HAL ETISHDA XORIJIY TAJRIBALAR. Academic research in educational sciences, 3(11), 496-502.
6. Davlatov Ikrom Shavxidinovich, talaba Usmonova Ziyodaxon Temurxon Qizi «SHAHARLARDA TRANSPORT MUAMMOLARINI QANDAY HAL QILISH MUMKIN?» PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (17 April, 2024) - Copenhagen: 2024. Part 32 – 182p. ISBN 978-955-3605-86-4. 80-84 betlar.
7. Maxmadaliyevich AR, Payzullayevna SN. Experimental Studies of Brick Masonry on Climatic Action Impacts. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. 2023 Apr 10;2(4):69-73.
8. Davlatov Ikrom Shavxidinovich «SHAHAR SIYOSATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.» “SHAHARSOZLIKNING INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI"MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA SamDAQU, https://samdaqi.edu.uz/institut-ilmiy-jurnali Samarqand shahar, O’zbekiston, (2023-yil, 27-28-aprel) https://Uzshaharsoz.uz/ 518-520 betlar.
9. Управление развитием территории. – М. : Издание группы компаний CSoft, 2009. – №1.
10. Хамецкий Р.И. Принципы современного градостроительства // Промышленное и гражданское строительство. – 2003. –№1.

SHAHARSOZLIKDA EKOLOGIYANING TA'SIRI: BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI

Xudoyberdiyev Keldiyor Saidqulovich – katta o'qituvchi
Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaharsozlikning ekologik muammolari va ularga qarshi kurashish usullari o'rganiladi. Shaharlar ekologik tizimning bir qismi sifatida, insonlar faoliyati natijasida tabiiy resurslarni sarflashi va tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatishi bilan birga, ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Maqolada ekologiyaning shaharsozlikka ta'siri, ekologik barqarorlikka erishish uchun joriy etilgan yechimlar, yangi innovatsion texnologiyalar va samarali transport tizimi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaharlar ekologiyasini yaxshilash uchun amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlar va kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaharsozlik, ekologiya, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, transport tizimi, ekologik ta'sir, tabiatni muhofaza qilish, infratuzilma, jamoat transporti, energetika samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются экологические проблемы градостроительства и методы борьбы с ними. Города, являясь частью экологической системы, с одной стороны, тратят природные ресурсы и оказывают воздействие на природную среду, а с другой стороны, порождают множество экологических проблем. В статье анализируются влияние экологии на градостроительство, решения, внедрённые для достижения экологической устойчивости, новые инновационные технологии и вопросы эффективной транспортной системы. Также в статье приведены практические меры по улучшению экологии городов и рекомендации, которые необходимо реализовать в будущем.

Ключевые слова: градостроительство, экология, устойчивое развитие, зелёная экономика, транспортная система, экологическое воздействие, охрана природы, инфраструктура, общественный транспорт, энергоэффективность.

Kirish. Shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlari tabiiy resurslar va ekologik tizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda shaharlar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik tizimlarni birlashtiruvchi markazlarga aylangan bo'lib, ular tabiiy resurslar va muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarga sabab bo'ladi. Bu esa ekologik barqarorlikka zarar yetkazmoqda. Havo ifloslanishi, suv resurslarining isrof bo'lishi, chiqindilarni boshqarishdagi muammolar, iqlim o'zgarishi kabi jiddiy masalalar global miqyosda dolzarb muammolarga aylangan.

Shaharlar ekologiyasini yaxshilash va barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish hozirgi kunda dunyo bo'ylab dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shaharlar va ularning atrof-muhitidagi muammolarni yechish uchun ilg'or yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Shaharlarni barqaror rivojlantirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish orqali ekologik ta'sirni kamaytirish mumkin. Shaharlar ekologiyasini yaxshilashga qaratilgan amaliy tadbirlar, albatta, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda shaharsozlikning ekologik ta'sirini tahlil qilish uchun statistik ma'lumotlar va amaliy misollar asosida o'rganish ishlari olib borildi. Tadqiqotda, shuningdek, ilg'or ekologik loyihalar va jahon tajribalaridan foydalanildi. Jahon miqyosida shaharlar ekologiyasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlar, innovatsion texnologiyalar va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar keltirildi. Ma'lumotlar shahar infratuzilmasining rivojlanishi va transport tizimining ekologik ta'sirini kamaytirishga qaratilgan amaliy misollar asosida to'plandi.

Tadqiqot jarayonida shaharlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan texnologik yechimlar, yashil energiya manbalarini qo'llash va "aqlli" transport tizimlari masalalari alohida o'rganildi. Ilg'or davlatlar tajribasidan foydalanish, shuningdek, O'zbekiston shaharlarida ekologik muammolarni hal qilishda qabul qilingan qarorlarni tahlil qilish asosiy metodologik yondashuv bo'ldi.

Natijalar. Shaharsozlikning ekologik ta'sirini kamaytirish uchun bir qancha innovatsion texnologiyalar va amaliy chora-tadbirlar joriy etilmoqda. Misol uchun, quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalarini shaharlar qurilishida qo'llash orqali tabiiy resurslarni tejash va ekologik salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin. Shuningdek, yashil qurilish texnologiyalarini joriy etish, suv va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish, shaharlarni "aqlli" texnologiyalar bilan ta'minlash ekologik xavf-xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Transport tizimini rivojlantirishda elektr transport vositalari va energiya samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarni qo'llash muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuvlar shaharlar ekologiyasini yaxshilashga yordam beradi.

Shaharlarni rivojlantirishda, yashil infratuzilma (masalan, yomg'ir suvlarini yig'ish va qayta ishlash tizimlari) va energiya samaradorligi yuqori bo'lgan "aqlli" qurilish texnologiyalarini qo'llash juda muhimdir. Bunday texnologiyalar faqat ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish bilan birga, energiya tejashga ham katta hissa qo'shadi. Misol sifatida, ko'plab ilg'or davlatlar shaharlarida "aqlli" energiya tizimlari, suvni tejash va qayta ishlashning yangi usullari joriy etilgan. Ushbu texnologiyalar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali bo'lishi mumkin.

Shaharlar ekologiyasini yaxshilash uchun eng samarali yondashuvlar quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi:

1. **Barqaror qurilish amaliyotlari**: Energiya samaradorligi yuqori, qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan qurilish texnologiyalari. Bu

qurilish usullari energiya tejamkorligi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

2. **Yashil infratuzilma**: Tabiatni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish. Bu shaharlarni tabiiy ekosistemalar bilan uyg'unlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

3. **Elektr transporti**: Shaharlar transport tizimini yanada ekologikroq qilish. Elektr transport vositalari, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirishga imkon beradi.

Munozara. Shaharsozlikning ekologik ta'sirini minimallashtirish uchun shaharlarni barqaror rivojlantirish zarur. Bu nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki shahar aholisining salomatligini yaxshilash, yashash sharoitlarini qulaylashtirish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga ham olib keladi. Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi. Shaharlarni "aqlli" texnologiyalar yordamida boshqarish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va ekologik muammolarni oldini olishda yangi ilmiy yondashuvlarni tatbiq etish zarur.

Shaharlarni ekologik barqarorlikka erishish yo'lida davom etayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy chora-tadbirlar ahamiyatlidir. Bu yondashuvlar shaharlarni ekologik jihatdan muvozanatli qilishga va ularning yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Innovatsion texnologiyalar va shaharsozlikdagi barqaror yechimlar aholi salomatligi va shaharlar infratuzilmasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Shaharlar ekologiyasini yaxshilash uchun yangi ilmiy va texnologik yondashuvlarni tatbiq etish, ularni keng miqyosda amalga oshirish shaharlarni ekologik barqaror rivojlantirishga imkon yaratadi.

Xulosa. Shaharsozlikda ekologiyaning ta'sirini kamaytirish uchun ko'plab yangi texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish zarur. Shaharlar ekologiyasini yaxshilash, yashil iqtisodiyotga asoslangan shaharlar qurish va energiya samaradorligini oshirish uchun izlanishlar davom ettirilishi lozim. Buning uchun shaharlar ekologiyasini yaxshilashga doir yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi lozim. Shaharsozlikni barqaror rivojlantirish, shaharlar ekologiyasini yaxshilash va aholining yashash sifatini oshirish uchun kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Ekologik muammolarni hal qilishda har bir shahar o'zining maxsus iqlimi, geografik joylashuvi va infratuzilmasi bilan inobatga olinishi kerak.

Adabiyotlar

1. Frolov, V.I. (2021). "Barqaror rivojlanish va shaharsozlik", Moskva, “Fan”.
2. Miroshnik, D.A., & Popov, N.P. (2019). "Yashil iqtisodiyot va energiya samaradorligi", Tashkent, "Uzliteratura".
3. World Bank. (2022). "Shaharlar ekologiyasini yaxshilash: Global innovatsiyalar", URL: www.worldbank.org.
4. Gonzalez, A., & Silva, J. (2020). "Urban Sustainability: Challenges and Innovations", New York, Routledge.
5. Tashkent City Government. (2023). "Shahar ekologiyasi va transport tizimini rivojlantirish", Tashkent.

SHAHARSOZLIKDA YER OSTI URBANIZATSIYASI YASHIL SHAHAR KONSEPSIYASI, (O’ZBEKISTON SHAHARLARI MISOLIDA)

Yuldashova Bahora
O’qituvchi, SamDAQU

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer osti urbanizatsiyasi tushunchasi va uning yashil shahar konsepsiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston shaharlari misolida yer osti makonlaridan foydalanishning ekologik, iqtisodiy va shaharsozlikdagi afzalliklari, hamda mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari, zamonaviy urbanistik yondashuvlarda yer osti infratuzilmalarining ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yer osti urbanizatsiyasi, yashil shahar, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, shaharsozlik, ekologik muvozanat.

Kirish. XXI asrda global urbanizatsiya jarayoni yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Aholining o‘sishi, transport muammolari, yer resurslarining cheklanganligi — bularning barchasi yangi shaharsozlik konsepsiyalarini ishlab chiqishga turtki bo‘lmoqda. Yashil shahar konsepsiyasi ana shunday yondashuvlardan biridir. Bu model ekologik muvozanat, barqaror infratuzilma va resurslardan oqilona foydalanishga asoslanadi. Mazkur konsepsiya doirasida yer osti urbanizatsiyasi — ya'ni shahar infratuzilmasining qisman yoki to‘liq yer ostida joylashtirilishi — ekologik yuklamani kamaytirish, yer usti makonini yashil maydonlar bilan ta’minlash va energiya tejamkorlikni ta’minlashda muhim vositadir.

Asosiy qism. Yer osti urbanizatsiyasi — bu transport, savdo, xizmat ko‘rsatish, avto turargoh, kommunikatsiya tizimlari va boshqa infratuzilmalarni yer ostiga joylashtirish orqali yer ustidagi yashil hududlarni ko‘paytirish va ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan yondashuvdir. Bunda yashil hududlarni tiklash, yer osti infratuzilmasi yer ustida bog‘lar, xiyobonlar va sayr zonalarini tashkil etishga imkon beradi. Shuningdek, sShovqin va ifloslanishni kamaytirishga erishiladi, transport vositalari yer ostiga o‘tkazilsa, atmosferaga zararli gazlar va shovqin darajasi kamayadi. Energiya tejamkorlik ta’minlanadi, tuproq harorati barqaror bo‘lgani sababli isitish va sovitish tizimlarida energiya tejash imkoniyati mavjud bo’ladi. Transport oqimini optimallashtirish imkoniyati paydo bo’ladi, metro, yer osti

yo‘laklar va parkovkalar orqali yer ustidagi transport yuklamasi pasayadi.

Yashil shahar konsepsiyasi — bu ekologik barqarorlik, energetik tejamkorlik, sog‘lom turmush tarzi va tabiat bilan uyg‘un yashashga asoslangan urbanistik modeldir. Bu yondashuv shaharlarni inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik asosida loyihalashga chaqiradi.

Yashil shahar konsepsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Uglerod chiqindilarini kamaytirish
- Yashil energiya manbalaridan foydalanish
- Ekologik muvozanatni saqlovchi infratuzilma qurilishi
- Biologik xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash

Yer osti urbanizatsiyasi ana shu tamoyillarni qo‘llab-quvvatlaydi va ularni real infratuzilmaga aylantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston shaharlari misolida, ya’ni Toshkent shahrida yer osti infratuzilmasini tahlil qiladigan bo’lsak, Toshkent metropoliteni — yer osti transport tizimining muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Bundan tashqari, Yer osti savdo markazlari masalan, Chorsu va Metro markaz yaqinidagi tijorat zonalari bir qator shahar strukturasiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Ammo kommunikatsion inshootlar — gaz, suv, issiqlik tarmoqlari, kabel infratuzilmasi, bu tizimlar hali to‘liq yashil shahar konsepsiyasiga moslashtirilmagan. Yer osti infratuzilmasi alohida, tizimli reja asosida qurilmayapti.

Ushbu mavzu yuzasida quyidafi muammolar mavjud: geologik va gidrotexnik xatarlar (zilzilabardoshlik, grunt suvlari), qurilish xarajatlarining yuqoriligi, yer osti infratuzilmasini boshqarishda yagona normativ-huquqiy asosning yo‘qligi kabi omillar.

Ushbu muammolarni yechish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

- Raqamli shaharsozlik loyihalarini yaratish: GIS va BIM texnologiyalar asosida yer osti infratuzilmasini raqamlashtirish;
Махсус археологик тадқиқотлар 2000 йилда бошланган ва 2008 йилгача давом этган. Қозоқлар узоқ вақтдан бери қизил-Куйбише (қизил тепалик) ёдгорлигини чақиришган, чунки Маъбад пушти денгиз қобиғидан қилинган. Маъбаднинг катталиги ва унинг гўзаллиги шуни кўрсатадики, қадимги кўчманчилар бу жойга ва мажмуанинг ўзига алоҳида эътибор беришган. Қизилуйик ибодатхонаси Орол Каспий минтақасида яшаган кўчманчи қабилаларнинг (сарматлар, Даевлар, Дахмасагетлар ва саклар) ибодат марказларидан бири бўлиши мумкин. Ёдгорликнинг асосий мажмуасини шакллантирувчи элементи маъбаддир. Тадқиқотдан олдин (қазиш) бу диаметри 54,5 м ва баландлиги 4,87 м бўлган қабристон эди, ёдгорликни ўрганаётганда, у лой платформа устида жойлашганлиги маълум бўлди. Унинг ташқи девори катта ва бир-бирига яхши боғланган оҳактош блокларидан қилинган [9; –56–63 б.].

Олимларнинг фикрига кўра, Маъбад гумбазга эга бўлиб, умумий баландлиги 12-16 м га етган маъбаднинг ички қисмига жанубий деворда юмалоқ режа билан кириш сезиларли, Кулха Хон қизилни ўрганиш натижасида у милоддан аввалги 1-минг йилликда ўрганилган милодий 1-асрнинг иккинчи ярми Оролни Каспий минтақасининг қадимги кўчманчиларининг маънавий ҳаёти билан боғлиқ ёдгорлик деб ҳисоблаш мумкин. Платода жойлашган Қизилуйик каби объектлар оловни тозалаш, Ботир-бабалир руҳига сиғиниш, қурол-яроғ ва ҳоказоларга эга. Улар тегишли маросимлар ўтказилган "олов маъбади" ҳисоботида ишлатилган. Маълумотлар Самашев З., Онгар А., Киясбек Г. Қизилўрда археологик зонасидаги тадқиқотлар ҳақида қисқача маъруза. Олма-ота, 2009. Самашев З., Онгар А., Киясбек Г., Оралбай Е. кизи Суйик ибодатхонаси. Олма-ота, 2011. Самашев З., Онгар А., Оралбай Е., Киясбек Г. Маъбад-зиёратгоҳ-Қизилуйик. Astana: Археология ЛЛП нашриёт гуруҳи, 2011 [10; -135-148 б.].

Расм 2. Ақтўбе минтакаси, Байганин тумани, қизилўйиқ ибодатхонаси. Диёр қишлоғи

Сулук маданий ва турар-жой мажмуаси. XIX-XX аср бошлари. Ёдгорлик Ақтумсик қишлоғидан 40 км жануби-ғарбда, катта Ашиайриқ жарлигидан 14 км шимоли-шарқда, платонинг шимолий тизмасининг марказий қисмида (Донезтау) Сай Сулукти (Ақтўбе минтакасининг Байганин тумани) тепасида жойлашган. Зулукнинг номи (рус тилида ёзилган эквиваленциз), эҳтимол, маҳаллий сув манбаларида тез-тез учрайдиган "зулук" билан боғлиқ. Култ-турар-жой мажмуаси 1840-1850 йилларда челак-пода кланини баҳор-кўзга кўчириш йўлида чорвадорларнинг доимий турар жойи сифатида пайдо бўлган XIX асрнинг иккинчи ярмига тегишли биринчи мачит атрофида турар-жой ва қўшимча бинолар мажмуаси, бир нечта кичик қабрлар шаклланмоқда. Мачит қурувчиси (қурилиш ташкилотчиси) маҳаллий руҳонийлардан бири, Қорақойли уруғининг Тўқал тойипаси вакили, шоир Турмағанбет ("оқин" мусулмон маъносида ўқимишли шахс). Мачит платонинг бу томонидаги довон номидан кейин "Шалдан мачити" номи билан ҳам танилган. Геоморфолог С.Н.Никитин (XIX-аср охири) маълумотларига кўра, Кониратдан Оренбургга йўлда, Уралсда бу ўтиш алоҳида карвонлар томонидан ишлатилган. Аҳоли пункти коллектив-лаштириш даврига қадар (1920-йилларнинг охири-1930-йилларнинг бошлари), руҳонийлар динга қарши кураш туфайли ҳайдаб чиқарилгунга қадар фаол бўлган, шундан сўнг диний фаолият аста-секин заифлаша бошлаган. Ёдгорлик Ақтўбе минтакаси, Байганин тумани ва унинг атрофидаги ҳудудларнинг аксарияти аҳолиси орасида жуда муҳим тарихий жой [11; -135-148 б.].

Сулукти мажмуаси шимолий платодаги энг характерли ва яхши ўрганилган ёдгорликлардан бири бўлиб, у диний ва маросим фаолиятининг меъморий ва фазовий белгиларини акс эттирувчи кеч қозоқ аҳоли пунктининг намунасидир. Архитектура ансамбли тарихий ва этнографик ёдгорлик сифатида катта аҳамиятга эга. Комплекс ўзининг асл тузилишини сақлаб қолди. Бу маҳаллий, миллий ва халқаро туризм объекти сифатида истиқболли. У маҳаллий аҳамиятга эга архитектура ва шаҳарсозлик ёдгорлиги мақомига эга.

Расм 3. Сулук-маданий турар-жой мажмуаси

Мажмуанинг жойлашуви энг чеккасида (иккита қабр) кенг жарликнинг юқори қисмида ва унинг ёнбағрининг этагида (мачит ва иккита қабр билан турар-жой) жойлашган. У шамолдан етарлича ҳимояланган ва яқин атрофда булоқ бор. Мажмуа марказида кўплаб (20 га яқин) турар-жой, савдо ва офис бинолари жойлашган мачит мавжуд. Кенг кемерли рамка шаклида безатилган мачит мажмуасининг асосий кириш қисми ғарбда, пастда жойлашган. Катта ҳовли мажмуани икки қисмга ажратади: шимолий қисми иқтисодий ва турар-жой бинолари гуруҳи, жанубий қисми диний ва офис бинолари гуруҳи бўлиб, уларнинг марказида мачит жойлашган. Бинонинг деворлари асосан текисланган катта тош блоклардан, қисман тош ғиштлардан қурилган. Мачитнинг ўзи тўртбурчаклар шаклидаги бино бўлиб, ҳовлидан ҳам, ғарбий томонидаги қўшимчадан ҳам кириш жойи бор. Ички қисм горизонтал равишда бўлинма билан иккита тенг бўлмаган қисмга бўлинади, улар ўз навбатида паст камар ва бир-бирига боғланган олтита хонали марказий устун билан бўлинади. Олд деворларга деразалар ўрнатилади, улар ҳам ханжар шаклидаги блоклардан, шунингдек эшиклардан ясалган [12; -146 б].

Бинонинг барча олтита хонаси хом ғиштдан қурилган. Бурчак ўтиш жойида тортмачали камар тизимига асосланган радиал такозли гумбаз билан қопланган педиментлар ишлатилган. Меҳраб мачитнинг жанубий деворда жойлашган (20 градусга оғади). Бинонинг ички юзаси (асосий зал) сувалган ва оқланган. Баъзи жойларда безак элементлари, рангли ҳарфлар билан ясалган Қуръон матнлари сақланиб қолган. Мажмуанинг жанубий-шарқий бурчагида қути шаклидаги гумбаз қолдиқлари бўлган иккита тор тўртбурчаклар бино бундан мустасно, мачит ҳудудида қоплама излари сақланмаган. Баъзи қўшимча бинолар ҳам очиқ қолдирилиши мумкин. Мачит мажмуасининг шимолида беш хонали тўртбурчаклар кўп қаватли уйнинг деворлари, шунингдек, унга бириктирилган қўшимча бинолар сақланиб қолган [13; -278-281 б].

Хулоса. Мажмуасининг қабр тошлари алоҳида қизиқиш уйғотади, бу ерда кесилган блоклар ва денгиз қобиғи плиталаридан қурилган ноёб мақбаралар мавжуд. Тонезтауда энг кўп таркалган 15 га яқин қурилиш бор. Айниқса, 1306/1888–1889 йилларда қурилган кучли қия деворларга эга катта тапал мажмуа ҳам, шунингдек, қабр тоши шаклидаги ва қиррали "турдаги" нақшли мақбаралар ҳайратланарли. Архитектура шаклларининг кичик турларига шифердан қурилган оддий тўсиқлар билан бирга шимолий плота (пода) анъаналарига хос бўлган ёдгорлик глиптикаси услубида тошдан ўйилган бадиий ёдгорликлар (қабр тошлари) киради. Айниқса, диққат билан ижро этилган силлиқ нақшинкор эпитаграфиялар, безатилган қабила рамзлари билан қабр тошлари, чеккаларида пойтахтга ўхшаш "Қойтас" шаклидаги поғонали қабр тошлари ва бошқалар диққатга сазовордир.

Адабиетлар рўйхати

1. Әжіғали С.Е. Ақтөбе облысының аса көрнекті архитектуралық ескерткіштері: фотокөрме. Ғылымиақпараттық басылым. – Алматы–Ақтөбе, 2015. – 92-94 б. – қазақ, орыс тілдерінде.

2.Аджигалиев С.И. Генезис традиционной погребально-культовой архитектуры Западного Казахстана (на основе исследования малых форм). – Алматы: Ғылым, 1994. – 28-29 б.

3.Ажигали С.Е. Архитектура кочевников – феномен истории и культуры Евразии (памятники Арало-Каспийского региона). – Алматы: НИЦ «Ғылым», 2002. – 190 б.

4.Археологическая карта Казахстана: Реестр / Сост. Е.И. Агеева, К.А. Акишев и др. – АлмаАта: Изд-во АН КазССР, 1960. – 425 с. с илл. и карт.

5.Әжіғали С.Е., Тұрғанбаева Л.Р. Абат-Байтақ – Қазақ даласының інжу-маржаны / Абат Байтак – жемчужина Казахской степи. –Алматы: Taimas printhouse, 2004. – 32 б. (на 3х яз.)

6.Беркимбаев Д. Древние развалины и курганы в Киргизской степи // Тургайская газета, 1895, № 38.1994. – № 1. – С. 49–64.

7.Ажигали С.Е. Памятники Северного Приаралья // История и культура Арало-Каспия. Сборник статей. Вып. 1. / Под общ. ред. С.Е. Ажигали. – Алматы: «Құс жолы», 2001. – С. 150–183.

8.Ажигали С.Е. Традиционная система скотоводческого поселения казахов (в историческом развитии) // Этнографо-археологические комплексы: проблемы культуры и социума. – Новосибирск: «Наука», 2002. – Т. 5. – С. 143–190.

9. Аджигалиев С. Абат-Байтак – выдающийся комплекс памятников народного зодчества // Изв. АН КазССР. Сер. филол. – 1983. № 2. – С. 56–63

10.Бекназаров Р.А. Мечети Северного Приаралья (конец XIX – начало XX вв.): историко-этнографическое исследование // Отан тарихы. – 2007. – № 2. – С. 135–148.

11.Бекназаров Р.А. Религиозные деятели и мечети XIX – начала XX вв.: исследование на материалах Актюбинской области // Отан тарихы. – 2018. – № 3. – С. 21–29.

12.Садыкова С.Ш. Архитектура мечетей. Учебное пособие. – Астана: «ЕНУ им. Л.Н. Гумилева», 2003. – 146 с.

13.Турганбаева Л.Р. Некоторые замечания об архитектуре казахских медресе // «Арало-Касспийский регион в истории и культуре Евразии»: Материалы II Международной научной конференции, посвященной 20-летию независимости Республики Казахстан. – Алматы–Актобе: «Арыс», 2011. – С. 278–281.

14. Sultanova D.N., Muxanbediyarova B.J. Formirovaniya kompozitsionnых zadach ornamentov v arxitekturnom dizayne Me’morchilik va qurilish muammolari/ SamDAQIga universitet maqomi berilganligining 2-yilligiga bag’ishlangan “Ilg'or muhandislar va arxitektorlar: barqaror rivojlanish uchun ilm-fan va ta'limni modernizatsiya qilish” mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida tanlangan ilmiy maqolalar to’plami (2024 yil 8-noyabr) MAXSUS SON. SamDAQU. – Sam., 2024. -B.201-203. (18.00.00; Milliy nashrlar, №2).

15. Sultanova D.N., Harmonisatie i van picturale en artistiekemiddelen in de architectuur van Oezbekistan ISBN: 978 ISBN: 978-620-5-10682-2 Publisher: LAP LAMBERT Academic Publishing is a trademark of the OmniScriptum S.R.L Publishing group 2022. -Б. 102. 6.4 б.т. Монография https://www.amazon. com/www.lap-publishing.com. https://sciencia-scripts.com/.

16. Sultanova D.N., Muxanbediyarova B.J. Украшение зданий городов Казакстана

казахским национальным орнаментом//Memorchilik va qurilish muammolari/ SamDAQIga universitet maqomi berilganligining 2-yilligiga bag’ishlangan “Ilg'or muhandislar va arxitektorlar: barqaror rivojlanish uchun ilm-fan va ta'limni modernizatsiya qilish” mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida tanlangan ilmiy maqolalar to’plami (2024 yil 8-noyabr) MAXSUS SON. SamDAQU. – Sam., 2024. -B. 196-201. (18.00.00; Milliy nashrlar, №2).

MAHALLALAR VA ULARNING AHOLI YASHASH JOYLARI SHAKLLANISHIDA O’RNI. (XORAZM MISOLIDA)

Kariyeva Nazokat Jumanazarovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasidagi qadimgi qal’alarda shakllangan aholi yashsash joylari o’rganiladi va asrlar davomida shakllangan an’anaviy mahallalarning keyinchalik aholi yashash maskanlari shakllanishiga ta’sir qilganligi to’g’risida fikr yuritilgan.

Аннотация. В этой статье будут представлены области, сформированные в древние времена в Оазисе Хорезма, и обсуждаются, что традиционные районы, сформированные на протяжении веков, позже влияют на формирование жилых помещений.

Annotation. This article will feature areas formed in ancient times in Khorezm oasis and discussed that traditional neighborhoods formed for centuries later affect the formation of residential locations.

Kalit so’zlar: mahalla, Oqchagelin qal’asi, Jonbosqal’a, Kat qal’asi, Gurganj qal’asi, Xorazm, an’ana, Xiva
Ключевые слова: махалля, Окчагелин, Жанбаскала, крепость Кат, Гургандж, Хорезм, Традиция, Хива
Keywords: neighborhood, Oqchagelin qala, Jonbosqala, Kat qala, Gurganj qala, Khorezm, tradition, Khiva

Kirish. Insoniyat tarixi davomida davlatchilik hamda jamiyatni boshqarishning juda ko’p turlari shakllangan. Mahalla – bugungi kunda O’zbekistonga xos bo’lgan noyob o’zini - o’zi boshqarish shakllaridan biridir. Tarixiy tajriba an’anaviy mahallalarning xalqimiz hayoti turmushning asrlar davomida shakllangan an’analari, millatimiz ruhiyatiga mos bo’lgan insoniy munosabatlar yotishini ko’rsatadi.

Aholi yashash joylari va ularni elemental shakllantirishda avloddan avlodga o’tib kelayotgan ko’p asrlik tajriba ma’lum bir tamoyillarning ta’siri mavjudligi, aholini bir jamoa, birlashma yoki kichik mahalla bo’lib shakllanib vujudga kelganligi bilan bog’liq.

Muhokama. Mahallalar aholi yashash joylarining shakllanishida roli katta va “mahalla - shahar ichidagi shaharcha” deb bejizga ta’riflanmagan.

Mahalla kichik ma’muriy hudud bo’lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog’langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli boqichlarida davrlar, tuzumlar o’zgarishiga qarab mahallaning vazifalari ham o’zgarib turgan.

Xorazm hududida aholi qadimdan mahalla, ma’muriy birlashma, elot (elat) bo’lib yashab kelgan. CHunonchi eramizdan avvalgi IV—I asrlar qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davri bo’lib, bu paytga oid yodgorliklar juda ham ko’p va xilma-xildir. Xorazmning antik davrdagi istehkomlarining deyarli barchasi vohani dashtdagi qo’shni qabilalardan mudofaa qilish maqsadida qurilgan. Qishloqlar faqat istehkomli yirik manzilgoh qal’alar atrofida emas, balki qo’rg’on qal’alar masalan Oqchagelin qal’asi ichki tarxi sektsiyalarga bo’lingan imoratlar uylardan tashkil topgan. Har bitta sektsiyani yo’l ajratib turgan. SHunday qal’alardan yana bittasi Jonbosqal’a bo’lib, ichida va atrofida mahallalar aholi yashash joylari shakllangan.



Oqchagelin tarxi



Jonbosqal'a tarxi



Jonbosqal'a. Rekonstruktsiya S.P.Tolstov va N.P.Tolstov

Jonbosqal'a asosiy kirish darvozasidan boshlangan katta yo'l qal'ani teng ikki daha – mahallaga ajratadi, yo'l oxirida otashparastlar ibodatxonasi joylashgan. Qal'a ichida 300 dan ortiq uy va kichik hovlilar bo'lgan.



Hazorasp qal'asi tarxi



Hazorasp qal'asi tarxi rekonstruktsiya (Rapoport, Lapirov-Skoblo, Nerazik 1963.)

SHuningdek jamoat tuzilmasi ya'ni mahallalarni Xorazmning boshqa qo'rg'on shaharlarida ham uchratish mumkin. Ikki qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan Hazorasp qal'asi VIII asr boshlarida Xorazm vohasidagi eng katta va eng yaxshi mustahkamlangan uch qal'adan bittasi bo'lgan.[1]

Tarixiy manbalar, xususan Yoqutning bergan ta'rifida qal'ada katta masjid, minora va madrasalar bo'lgan, demak bu qal'a ichida aholi azaldan yashab kelganligini bildiradi.

Hazorasp qal'asi mo'g'ullar vayronagarchiligidan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qal'ada bugungi kunda xam aholi yashash joylari va mahallalar bor.[2]

Hazorasp qal’asi

Mahalladagi hunarmand uyi

Qal’a iskarisidagi mahalla

Mahalla masjidi

Xorazmning o’rta asrlarda poytaxt qal’alari bo’lgan Kat qal’asi va Gurganj qal’asi (Ko’xna Urganch) aholi yashash joylari va o’z mahallalariga ega bo’lgan. CHunonchi, IX asrda yashab ijod etgan fors tarixchisi Belazuridan qolgan manbalarda Kat qal’asi shu davrdagi Xorazmning eng katta mustahkamlangan qal’asi bo’lgan va uning maydoni Samarqandning musulmonlar davriga qadar bo’lgan maydoniga teng ekanligi yozilgan.[3]

X asr oxirlarida qal’ada jom’e masjidi bozor ichida joylashgan, qal’a o’rtasida baland kuxandizi bo’lgan. Hozirgi kunda SHayx Abbos Vali (XIV asr), Kechirmas bobo maqbaralari saqlangan.

Gurganj qal’asini XI-XIV asrlardagi topografiyasini o’rgangan mutaxassislar uning maydonini 1000 ga yaqinligini aniqlashgan. Qal’ada bir necha mahallalar bo’lgan.[4]

Gurganj qal’asi.



Qutlug’ timur minorasi

Gurganj o’sha davrda SHarq bilan G’arbni bog’lab turgan Buyuk Ipak yo’lidagi savdo markazi bo’lgan. Qal’ada aholi 50 dan ortiq hunarmandchilik turlari bilan shug’ullangan.

Amudaryo o’z oqimini o’zgartirishi natijasida XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab, aholi ushbu yerlarni tashlab Vazir (Devkesgan) qal’asiga ko’chib o’tadi. Qal’ada aholi juda zich yashagan, har xil o’lchamli toshlardan solingan turar-joylarda kulolchilik, temirchilik va boshqa hunarlar bilan shug’ullangan. Qal’a ichida ko’p vaqtlik qamal vaqtida aholini suv bilan ta’minlash maqsadida sardobalar qurilgan. Qal’a atrofida va shimoli-g’arbida o’rta asrlarga tegishli kattayu-kichik qishloq turar joy hovlilari, ekinzor bog’lar bo’lgan. Hukmdorlarining qal’a - shahardan tashqarisida dam olish ko’shklari bo’lgan. Navro’z, Ro’za va Qurbon hayiti bayramlarini mahalla shu yerdagi namozgoh yonida o’tkazganlar.

1646 yilda Xiva xoni Abulg’oziy Bahodirxon hozirgi Urganch shahriga asos soldi. Lekin xon qarorgohi qadimiy Xivada bo’lgan. XVII-XIX asrlarda Xorazmning eng yirik aholi yashash joylari Xivaning ichki (Ichan qal’a) va tashqi (Dishan qal’a) qal’alarida istiqomat qilgan.

Matkarim Ne’matullaev tomonidan 1920 yilda tuzilgan xaritaga asoslanib aytish mumkinki, Xiva shahrida 4949 oilada 27083ta kishi, jumladan Ichan qal’ada 909ta oila va unda 13767ta kishi, Dishan qal’ada 4040ta oila va 13316 kishi istiqomat qilgan. SHaharning maydoni taxminan 468 tanobni tashkil etgan va bir tanob 60 gazga, 1 gaz esa 0,5 arshinga teng hisoblangan.[5]

“SHunisi ilmiy jihatdan e’tiborga sazovorki,”- deb yozadi A.Abdurasulov “Xiva” deb nomlangan tarixiy etnografik ocherklar to’plangan kitobida - “mazkur reja topilgunga qadar ko’chalarning eski nomlari, madrasa va masjidlar soni turli davrdagi tadqiqotda turlicha ko’rsatilib kelindi. CHunonchi, e’lon qilingan risolalarda Xiva shahrida 96 masjid, 120 madrasa bor deb kelindi”.[6]

Xususan Xivaning xududiy-ma’muriy bo’linish tizimi to’g’risidagi aniqlik yo’q edi. Reyimbaev SHuhrat Sadullaevich “Xorazm shaharlarining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi arxitekturaviy - tarhiy tizimi” nomzodlik dissertatsiyasida Xorazm shaharlarining hududiy-ma’muriy tizimi shaharning ma’muriy bo’linmalari orqali namoyon bo’lishini tahlil qilgan. U XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamoalarni, qishloqlarni, aholi istiqomat qiladigan joylar shaharsozlikning kichik bo’linmalari bo’lgan masjidqavmlar orqali boshqarilganligi, shu davrda qavm, jamoa o’ttiz xonadonga yetsa, katta jamoa hisoblanganligi va masjidqavmga birlashtirilganligi, qavmlarning aksariyati o’nga yaqin xonadonlardan iborat bo’lganligi va qavmlar bir jamoaga uyushgan holda yer, suvdan birgalikda foydalanishgan, jamoa tomonidan saylangan yig’ilish-kengash orqali boshqarilganligi haqida to’liq ma’lumotlar keltirib o’tgan. [7]

Endi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva shahrining yirik bo’linmasi bo’lgan mavze-elotlar to’g’risida alohida to’xtalamiz. Mavze-elotlar to’g’risida Reyimboev SH.S quyidagicha izoh bergan: “Bu yirik bo’linmalar hozirgi kungacha manbalarning ayrim joylarida "elot", boshqa joylarida “mavze” deb atalib kelingan. Bunga aniqlik kiritish uchun bu mazkur yirik bo’linmalarni «mavze-elot» deb atadik”. Tarixchi olim A.Abdurasulov ham Xivada 9 ta mavze-elot («mavze») bo’lganligini ta’kidlaydi. Bular: Qumyosqa, Kaptarxona, O’r, Ko’hna bozor, Kalta minor, Amin chorsu, Moyvaston, Qora a’lam va Yangi qal’a mavze-elotlari. [8]

Ichan qal’adagi mahalla asosiy ko’chasi



O’r mahallasidagi Raximberdiboy madrasasi

Natija. Davrlar osha aholi yashash joylari ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jarayonlarning o’zgarishlariga mos ravishda rivojlanib bordilar, har bir aniq xolatlarda aholi yashash joylarining o’ziga xos, lekin zaminida bir xil bo’lgan tuzilishlari yuzaga kelishini ta’minlab berdi. Ular aholi yashash joylari tuzilishi shakllanishining eng

umumiy qonun qoidalarini ifodalaydi. Aholi yashash joylari tuzilishini shakllantirishda odamlar maqsadga muvofiqlik qonuniga doim bo’ysunib keldilar. Bu qonundan chetga chiqish bir qancha omillarni, ya’ni atrof-muhit omillari sababli kelib chiqqan qiyinchiliklarni, noqulayliklarni, ortiqcha sarf xarajatlarni yuzaga keltirib chiqardi. Xorazm aholisi ko’pincha suv tanqisligi muammosi sababli, bunga Amudaryo o’z oqimini o’zgartirishi va yerlar cho’lga aylanishi sababli o’zlari yashab kelgan mahallalarni tashlab ketishga majbur bo’lgan. Bu esa o’z navbatida yangi aholi yashash joylarining shakllanib borishiga turtki bo’lgan.

Xorazmda aholi yashash joylari tuzilishining shu tariqa yuzaga kelgan tamoyillari tarixiy taraqqiyot jarayonida asta sekin aniq ko’rinishlariga ega bo’ldi. Mahalla guzarlari ana shunday an’anaviy shaharsozlik tamoyillaridandir.



Urganch shahridagi mahallalar

Xulosa. Aholi yashash joylari shakllanishida o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan qonuniyatlarga amal qilingan. Bir joyda yashovchi odamlarni aholi yashash joylariga birlashtiruvchi funktsionallarning o’ziga xosligi aholi soninig ma’lum bir chegaradan oshmasligini taqazo qilgan. Tarixiy tajriba aholi yashash joylarining optimal faoliyat ko’rsatishi uchun uning aholisi o’rtacha 1,5-2,5 ming kishidan iborat bo’lishini ko’rsatadi. Aholi yashash joylari aholisining soni 2,5 ming kishidan oshgan sari uning hududida ikkinchi bir kichikroq aholi yashash joylari shakllanishiga zarurat tug’ila boshlaydi. Ikkinchi tomondan, agarda aholi yashash joylari hududi ma’lum bir chegaradan oshgan sari unda xam ikkinchi bir kichikroq aholi yashash joylari shakllanishiga zarurati vujudga keladi. Aholi yashash joylari hududida odamlar aloqasi asosan piyoda yurib amalga oshiriladi.

Aholi yashash joylari hududining me’yordan ortiq kattalashib ketishi piyoda yurib aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, yuqorida qayd etilgan ikkita omil – axoli soni va yer maydoni aholi yashash punktlar kattaligining ma’lum chegaralaridan oshmasligini ta’minlab turgan.

Aholi yashash joylari shakllanishiga shaharsozlik vaziyatlari ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Odatda shahar chetroqidagi aholi yashash punktlar hududlari katta bo’lib ba’zan 15-20 gektarga yetgan. CHunki, shahar chetidagi xususiy hovlilar maydon jihatdan katta bo’lgan, aholi zichligi kamroq bo’lgan. SHahar markaziga yaqinlashgan sari aholi yashash punktlar hududlari kichrayib, aholi zichligi esa ortib borgan.

Bugungi kunda O’zbekiston shaharlaridagi reja asosida qurilgan zamonaviy kam qavatli xususiy turar joylardan iborat tumanlarda ham aholi yashash punktlar yuqorida qayd etilgan qonuniyatlar asosida shakllangan.

Har qanday shaharsozlik vaziyatlarida aholi yashash joylari tarkibida o’zining birlamchi markazlari va shartli chegaralari bilan saqlanib qoladilar hamda o’zlarining an’anaviy funktsiyalarini bajaradilar. Bu xalqimiz turmush tarzidan kelib chiqqan zaruratdir. Aholi yashash punktning o’zining ma’muriy markaziga yega bo’ladi.

Qadimdan odamlar elot - yelat bo’lib yashaganlar. Hozirgi vaqtda ham turar joy tumanlarida mahallalar, mahalla markazlari, guzarlar katta ahamiyat kasb yetadi.

Aholi yashash joylari guzarlari aholi yashash punkti aholisining hududining hamma tamonidan bir xil qulay piyoda borib kelish imkoniyati mavjud bo’lgan joylarida aholining hamma tabaqalarining ehtiyojlarini qondirishning eng qulay va yaqin yo’llari tutashadigan joyda loyihalanadi.

Bugungi mahalla guzarlarimizda shaharlar, kichik daha markazlari infrastrukturasiga taaluqli bo’lgan hamma bino va inshoatlar, yashash, dam olish, savdo va mahalliy xizmatlardan foydalanish, park, suv xavzalari, bozor va boshqa infrastruktura inshoatlari mavjud bo’lgan hamma tabaqadagi aholi intiladigan bir-biri bilan uchrashadigan gavjum majmua joylashadi. Tarkibida masjiddan tashqari nonvoyxona, to’yxona, notarius, paynet, qishloq vrachlik punkti, mini bank, choyxona kabi jamoat binolarini ham uchratish mumkin.

Tarixdan shakllangan o’zbek xalqlarining mahalla, yelat bo’lib yashagan holda mahalla markazlari sifatida guzarning qurilishi ularning tarkibida shahar, tuman, kichik daha markazlari infrastrukturasidagi mahalla

fuqorolar yig'ini binosi, militsiya tayanch joylari, soliq nazorat binosi, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish inshootlari, madaniy maishiy binolar to'yxona, bog'lar, bozor va boshqa aholi uchun zarur bo'lgan inshootlarning mavjudligi bu hududni funktsional jihatdan ham mahalla, kichik daha yoki tuman markazi funktsiyasini bajarish imkoniyatlarini yaratadi. Guzarning aholi ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda va arxitektura me'yoriy qonun qoidalari asosida loyihalanishi, bir vaqtning o'zida aholi zaruratlarini qoplash uchun bir joyning o'zida hamma imkoniyatlar mavjud bo'lgan guzarga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. At-Tabariyning "Tarixi Tabariy" asari.
2. M.Madaminov. Xorazmning qadimiy va o'rta asrlar shaharsozligi tarixi. Toshkent "Istiqlol" 2009.
3. MITT. –M.,1939. –T.I. –S. 187
4. Buniyatov Z.M. Gosudarstva Xorezmshaxov – Anushteginidov. M. Nauka. 1986. 103-bet.
5. Xiva shahridagi Dishan qal'a hududining tarixiy va me'moriy ekspertizasi. – arxiv GlavNPU. T. 1987. Tom II. 19-b.
6. Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy etnografik ocherklar. – T.: O'zbekiston. 1997. – 23 b.
7. Reyimbaev SH.S. Xorazm shaharlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi arxitekturaviy – tarxiy tizimi. 72-bet.
8. Abdurasulov A. Xiva. T.: 1997 63-bet.
9. Reyimbaev SH.S. Xorazm shaharlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi arxitekturaviy – tarxiy tizimi. 73-bet, 24 planshet.

YUK KO'TARUVCHI YOKI BEZAK SIFATIDA ZAMONAVIY QOPLAMALI MATERIALLARDAN QURILADIGAN, O'RTA OSIYO VA RIM USTUNLAR

Sharipov Baxodir Xolboyevich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ustun va ustunning asosiy qismlari, to'sin, bezak sifatida zamonaviy, qoplamali yoki quyma materiallardan quriladigan ustunlar va to'sinlar to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan. O'rta Osiyo orderlarini chizish uslubiyati, unda ustunni va ustun qismlarini modul asosida qanday qurish uslubi va zamonaviy qoplamali materiallardan yaxlit yuzali kichik bezaklarsiz ustun-to'sin konstruksiya kompozitsiyasini shakllantirish keltirilgan. Qilingan ishdan maqsad - talabaning amaliy topshirig'i uchun massadagi O'rta Osiyo orderlarini va kichik bezaklarsiz ustun-to'sin konstruksiya kompozitsiyasini chizishga va bajarishga o'rgatishga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Ustun, ayvon, order, to'sin, bezaklar, kursi, O'rta Osiyo, aylana, murabba, rim orderlari, xalq me'morligi, qoplamali, zamonaviy, quyma.

Rim orderlarini va O'rta Osiyo orderlarini o'rganish, zamonaviy ustun to'sin konstruksiya kompozitsiyasini chizish innovatsiyalar ixtiro qilish va uni ta'lim jarayoniga tadbiq etishni bugungi kunning muhim vazifalaridan biri deb hisoblash mumkin.

Order - lotincha «ordo» so'zidan olingan bo'lib, "tartib", "qator" ma'nolarini anglatadi.

Tayanch-to'sinli konstruksiya takomillashgan holda 3 asosiy qismga bo'linadi:

1. Asos (pedestal), 2. Ustun, 3. Antablement.

Orderlarning katta va kichik xillari mavjud. Katta ustun odatda tashqarida, kichik order esa ichkarida yoki ko'rinishi jihatdan ikkilanish darajaga ega bo'lgan joylarda qo'llaniladi. Masalan, Parfeneonda tashqarisida katta, kichigi sela, (zal) ichida qo'llanilgan.

Ayvon Markaziy Osiyo me'morligida asrlar davomida imorat tarxi tarzidagi zaruriy unsur bo'lib kelgan. Uning yuzaga kelishiga mintaqadagi iqlim sharoitining ta'siri katta bo'lgan.

O'rta Osiyoda iqlimiy sharoit (asosan yoz fasli)ga mo'ljallab qurilgan usti yopiq, 1, 2 yoki 3 tomoni ochiq bo'lgan bino-bu ayvon hisoblanadi. Ayvonning shimolga qaratib solinadigan (ters ayvon) va janubga qaratib solinadigan (o'ng ayvon, ko'ngay ayvon) xillari bo'lib, tuzilishi jihatidan ayvonning dahliz-ayvon, ustunli ayvon, ravoqli ayvon kabi turlari bor. Ayvon o'zbek milliy me'morligida qadimdan turar joy va jamoat binolarining muhim qismi bo'lib kelgan. Ayvon hovli, masjid, madrasa, do'kon va saroylarda yozgi bino sifatida qurilgan. Ayvon joyning iqlimiy sharoitiga qarab turli shaklda quriladi. Masalan, Farg'ona vodiysida ayvon imorat oldiga qurilgan va «peshayvon deb yuritiladi. Buxoro ayvonlari baland va kamarpast bo'ladi. Toshkent va Samarqand ayvonlari ko'pincha xonalar oldi va oralig'iga quriladi. Xorazm (ko'proq Xiva) ayvonlari atrofdagi xonalardan balandroq va shimol tomonga qaratib quriladi. Bunday ayvonlarni xorazmliklar «ullu (katta shoh) ayvon» deyishadi. Xiva hovlilarida kambar (ters) ayvonlar ham bo'lib, ular ko'pincha xo'jalik binolari oldiga quriladi.

Ayvon ustundan tashkil topar ekan, ustun uning asosiy elementlaridan bo'lib, binoning alohida o'rnatiladigan tayanch qismi hisoblanadi. Asosan, tomni ko'tarib turishga xizmat qiladi. U deyarli hamma xalqlarning me'morligida qadimdan mavjud. Me'mor orderlari –ustun va to'sinlardan iborat qurilmalarda turli qismlarning o'zaro muvofiq bo'lishi, ularning tarkibiy va badiiy uslubi hisoblanib, O'rta Osiyoda me'mor orderlari kushon me'morligida (Baqtriya, Yangi Nisa ibotadxonalari qurilishida), ahmoniylar davrida Xivada qo'llanilgan.

O'rta Osiyoda geografik muhit taqozosi bilan ustunlar xalq me'morligida, asosan, tik va to'g'ri o'sgan

daraxt (tol, terak, qayrog‘och) tanasidan yasalgan xillari keng tarqalgan. Ustunlar poyustun, ko‘zagi, bosha kabi qismlarga bo‘linadi. Ustunlar badiiy talqinda odam gavdasiga qiyos etiladi. Tayanch vazifasidan tashqari bezak sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan ustunlar haqiqiy san’at asari hisoblanadi. Ustunlar aylana, murabba, 6 va 8 qirrali shakllarida ishlanadi. Xorazm, ustunlari mustahkamligi, bezaklarga boyligi, balandligi (7,8 m gacha) bilan ajralib turadi (Juma masjid, Toshhovli va b.). [1]

O‘rta Osiyo orderlari o‘ziga xos bo‘lib, yunon-rim orderlaridan farqlanadi. Buxoro turar uyi (Abduholiq uyi) ning 1- qavatida katta ustunlar (katta orderlar), nimayvonda esa kichik ustunlar (kichik orderlar) ishlatilgan.

O‘rta Osiyo orderlari aksari yog‘ochdan ishlanganligi tufayli bo‘ydor ko‘rinishga ega. Bundan farqli o‘laroq toshdan ishlangan Yunon-rim orderlari ko‘rinishi jihatidan pastqamroqdir.

O‘rta Osiyo orderlarining ustunlari yo‘g‘onligining balandligiga bo‘lgan nisbati nihoyatda keng diapozonda uchraydi. Ba’zi bir ustunlar masalan, Buxorodagi Bolohovuz masjidi ustunlari, Xivadagi Ko‘hna Ark ustunlari juda bo‘ydor-ingichka. Ba’zi hollarda masalan, Samarqanddagi Nodir Devonbegi masjidining ustuni, Buxoro turar uylaridagi Nimayvon ustunlarining nisbatlari, umumiy ustun o‘zagiga qaraganda yo‘g‘on. [2]

Xiva ustuni [1]

Buxoro ustuni [2]

Arxitektura ta’limotida orderlarni umumlashgan hajmlarda (massalarda) chizish katta ahamiyatga ega. O‘rta Osiyo orderlari ham 3 ta asosiy qismdan kursi, ustun va yopmadan (antablementdan) iborat bo‘ladi. Uning chizish uslubiyatini o‘rganishda va amalga oshirishda shu qismlarni balandliklarini topish uchun chizmadagi (berilgan vazifa) umumiy balandlikni modulga, yani ustun ko‘zagining radiusiga bo‘lgan nisbatini topib olish lozim bo‘ladi. Misol tariqasida Xiva orderining chizilishiga etibor beraylik.

Kursi, ustun va yopmaga modullarda ifoda etib olinadi. Bunda qismlarning absolyut haqiqiy o‘lchamlarini birmuncha yiriklashtirish chizmani bajarishni osonlashtiradi.

Order qismlarining o‘lchamlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

Order qismlari: Kursi, Ustun o‘zagi, Ustun kallagi.

Chizmani amalga oshirish uchun A3 formatdagi qog‘oz olinadi. Dastlab orderning kursi, ustun va yopma balandliklari qog‘ozda gorizontal chiziqlar bilan belgilab chizib olinadi. Ustun uchun simmetriya o‘qi vertikal chiziq orqali ifodalanadi. Modul ustun o‘zagining patki qismida chiziq orqali ko‘rsatib qo‘yiladi. Order pastdan yuqoriga qarab chiziladi, ya’ni avval kursi, keyin ustun va yopma ko‘rsatiladi. [3]

Orderni chizishda «osiltirib qo‘ymaslik» («pravo nesveshivomosti») qoidasiga rioya qilinadi.

Kursi tepa, o‘rta va past qismlardan tashkil topadi. Kursi tepa qismining yuqori bo‘lagi ko‘p hollarda slindrik shaklda bo‘ladi, quyidagi ko‘prok 8 yonlik tariqasida ishlanadi. [4]

Kursining o‘rta qismi pastga qarab ingichkalashib va yana kengayib boradi, uning profili kataklarga olinib chiziladi. Bunda kursining tarxdagi to‘rtdan bir qismi amalga oshirilsa kifoya. Qolgan qismlari simmetrik holda bo‘ladi. Kursining pastki qismi kvadrat yoki 8 yonlik tariqasida ishlanadi. U asos vazifasini ado etadigan bo‘lagi bo‘lib, tag bo‘lagi deb nomlanadi. [5]



Xiva ustunini chizish uslubi M 1:13,7 [3]



Kursi [4]



Profilni qurish [5]

Ustunning o‘zagi bevosita o‘zakdan va kallak (kapitel) dan iborat bo‘lishi mumkin. Kallak muqarnas shaklida ham ishlanadi. O‘zak bilan to‘sin oralig‘ida bosha joylashadi. Bosha chap tomondan birozroq masofaga surib chiziladi. Shu tariqa kursi, ustun va yopma modullar asosida chizib chiqiladi.

Kalla ustunning tepa, bezatilgan qismi hisoblanib, ko‘pincha yog‘ochdan ba’zan sopoldan, toshdan ham yasalgan. O‘zida kapitelni namoyon etuvchi kalla-chizilishi bo‘yicha shakli turlicha bo‘lib, uni quyidagi turlarga ajratish mumkin: - stalaktitli - «kalla muqarnas»; - konussimon; - kubsimon, soddalashtirilgan geometrik.

Kallakning O‘rta Osiyoda keng tarqalgan turlaridan biri bu muqarnas kallakdir. Muqarnas kallak ko‘proq Farg‘ona va Samarqand viloyatlarining an’anaviy me’morchiligiga xosdir. [6]

Xulosa qilib aytganda arxitektura ta’limotida O‘rta Osiyo orderlarini chizish qadimiy me’moriy an’analarni o‘rganishga va uning jahon arxitekturasida tutgan o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Quyidagi «Arxitekturaviy shakllarni uyg‘unlashtirish va bezash» fani mashg‘ulotlarida bajarilgan chizmada O‘rta Osiyo orderlarini chizish uslubiyati ko‘rsatib berilgan. Misol tariqasida Xiva, Qo‘qon va Buxoro ustunlari olingan. Bu ustunlarni Xiva, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining nodir durdonalaridan deb ham olish mumkin**.** [7]

O‘rta Osiyo ustunli - to‘sinli qurilmalari tizimi va ularning arxitekturasi Qadimgi Yunon va Rim orderlari kabi boy tarixga va o‘rganishga arzigulik me’moriy tamoyillarga egaki, ular ham jahon me’morlari orasida e’tibor qozonishga va kelajakda o‘z istiqboliga ega bo‘lishga haqlidir.

Zamonaviy ustun to’sin konstruksiya kompozitsiyasini chizish va innovatsiyalar ixtiro qilishni, hamda massalarda chizilgan O‘rta Osiyo orderlarini ta’lim jarayoniga tadbiq etib, uni amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim dargohiga qadam qo‘ygan talaba bilim olishni O‘rta Osiyo arxitekturasini o‘rganishdan boshlasa, birinchi amaliy topshirig‘ini O‘rta Osiyo orderlarini va ustun to’sin konstruksiya kompozitsiyasini chizishdan boshlasa, miqyosiy o’lchamlarda ishlashlari osonlashadi.

https://ru.pinterest.com/pin/8162843068427998/



https://ru.pinterest.com/pin/44965696273500947/



Muqarnasli ustun [6] **Massadagi orderlar [7]**

Kallagi va o’zagi birlashib ketgan ustun **Ustun kallagi**



Kallagi va o’zagi birlashib ketgan ustun **Kallaksiz ustun**

https://ru.pinterest.com/pin/32228953577050452/

O‘rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida qadimdan shaharlarning barpo etilishi muhim o‘rin tutgan. Shaharlar bir necha ming yillar davomida shakllangan va rivojlangan davlatchilik an’analari va mahalliy aholi turmush tarzini aks ettiruvchi mezonlardan biridir. Shaharlarni tavsiflashda e’tiborga loyiq umumiy holatlar ham bo‘lgan. Bu holatlarni ayniqsa shaharlarning hozirda saqlanib qolgan qismlarida va yozma manbalardan o‘qib tasavvur qilish mumkin.[8]

Ma’naviyatimiz xazinalari bo‘lmish milliy me’morchilik va amaliy san’at asarlaridagi bezaklarni o‘qishning ramziy alifbosi, bu bezaklarni o‘qish yo‘llari hamda ularni o‘qish orqali mantiqiy va falsafiy fikrlashning sir-asrorlarini o’rganish mashaqqatli mehnat talab etadi albatta.

Arxitektura va rassomchilik sohasi talabalariga, zamonaviy ustun to’sin konstruksiya kompozitsiyasini chizish va innovatsiyalar ixtiro qilishni, hamda massalarda chizilgan O‘rta Osiyo orderlarini ta’lim jarayoniga tadbiq etib, uni amalga oshirishda, loyiha tashkilotlari, O’zbek xalq amaliy bezak san’ati namoyandalari, xalq ustalari, kasbga yo’naltiradigan ta’lim dargohlari bilan integratsiyani kuchaytirish ijobiy natijalar beradi.

Metrik o‘lchov takrorlanishlar.

Lekin ayrim hollarda takrorlanish sun’iy kiritiladi va shakllarni tashkil etishda qo‘shimcha vosita sifatida foydalaniladi. Bu tasodifiy bo‘lishi kerak emas, qat'iy qonuniyatlarga asoslangan elementlar, barcha tizimni kompozitsion rivojlantirayotgan bo‘lishi kerak.

Garchi metrik takrorlanish juda ham faol qonuniyat bo‘lsa ham, u garmoniyani va estetik parametrlarni ko‘tarilishiga kafolat bermaydi. Agar musiqali asarda benihoya bir notani takrorlansa yoki arxitekturaviy kompozitsiyani qurishda faqat bir elementni takrorlansa, garmoniya yaratilmaydi va monotonlik muqarrardir.

https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&hl=ru&cites=9817364249650216437&as_sdt=5 [8]

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Миллий меъморчиликда амалий санъат фалсафаси С.Булатов. Ў.Мансуров. Тошкент 2005й

2. P.Sh.Zohidov «Me’mor olami» T-1996 y.

3. X. Po‘latov «Arxitekturaviy loyihalash asoslari» T-2010 y.

4. «O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» 9.tom 145-146 b.

5. «O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi» 1tom 180 b.

6. «O‘zbekiston Arxitektura va qurilish» jurnali 2008, 2009, 2010y. sonlari

7. Шарипов, Б. Х. (2020). ИЗ ИСТОРИИ ДРЕВНЕГО ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. Экономика и социум, (10), 915-919.

8. BO‘RONOV N.S. “BADIIY LOYIHALASH” O‘QUV QO‘LLANMA Toshkent – 2020. 73 b.

UDK: 72.03

QADIMGI SAVDO MARKAZLARI

Kushmanov To’lqin Fayzullayevich
SamDAQU, “Interyer dizayni” kafedrasi mudiri, tulkinf1970@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo bozorlaridagi savdo inshootlari oddiy ayvon ko’rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko’rinishigacha bo’lgan uzoq me’moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o’tganligi, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan o’zining boy moddiy va ma’nayiy qadriyatlari bilan umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga minosib hissa qo’shib kelganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tim, chorsu, toqlar, karvonsaroy, Toqi-Zargaron, Toqi-Telpakfurushon, Toqi-Sarrafon, savdo inshootlari, savdo ko’chalari.

Kirish. Ma’lumki, qadimgi savdo aloqalari Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etagan. Tarixga bir nazar tashlar ekanmiz Markaziy Osiyo xalqlarining Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq hamda o’rta yer dengizi mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib borilgaligining guvohi bo’lamiz. Yunon tarixchisi Fotiy eramizdan oldingi VI-V asrlardayoq Markaziy Osiyo xalqlarining Hindiston bilan savdo aloqalarini yo’lga qo’yganligi haqida ma’lumot beradi. Buyuk Ipak Yo’lining “kashfiyotchisi” hisoblanadigan Xitoy elchisi Chjan Syanь ham o’zining Markaziy Osiyo tashrifi chog’ida (e.o.126 y.) Baqtriya bozorlarida Xitoy mollarini ko’rgan. Savdo aloqalari ayniqsa o’rta asrlarda keng quloch yoygan bo’lib, u savdo markazlari va inshootlari bunyodkorligida ham o’z ifodasini topdi.

Maqsad.O’rta asr bozorlarida ko’pdan-ko’p savdo inshootlari bunyod etilgan. Ulardan saq lanib qolganlari bugungi kunda ham shaharlarimizning me’moriy ko’rinishiga ko’rk bag’ishlab turibdi.Ushbu inshootlarni kuzatar ekanmiz beixtiyor xayolimizni “ Savdo inshootlari dastlab qanday me’moriy ko’rinishga ega bo’lgan , ularning tadrijiy- taraqqiyot jarayoni qanday kechgan ekan? ” degan savollar chulg’ab oladi. Savdo inshootlariga oid tarixiy ma’lumotlarni titkilab shu va shunga o’xshash savollarga javob topishga harakat qilamiz

Metodologiya. Muhammad Narshaxiy, Rui Gansales de Klavixo, Abu Qosim Ibn-Xavqal, Chjan Syan asarlaridan bozor tarixiga oid ma’lumotlar to’plandi va A.P.Fedchenko, G.A.Pugachenkova, A.S. Uralov, N.Ibragimov, A.Anarboevlar fikrlari bilan umumiylashtirilib xulosaga kelindi.

Asosiy qism. Yagona ijtimoiy-iqtisodiy sharoit butun Yaqin Sharq mamlakatlarida savdo inshootlarining bir qancha turlarini keltirib chiqardi.

Karvonsaroy, toq, tim, chorsu, do’kon, kappon va yopiq savdo ko’chalari shular jumlasidandir.

Binobarin, Markaziy Osiyo savdo markazlari va inshootlari tabiiy iqlim hamda mahalliy an’analar asosida vujudga kelgan o’ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Ushbu xususiyatlarni aniqlash, o’z navbatida, savdo inshootlari hamda markazlarining tarixini, rivojlanish bosqichlarini o’rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Darvoqe, savdo munosabatlari singari savdo markazlari va inshootlari ham uzoq tarixiy o’tmishga ega. Quyidagi keltiriladigan taraqqiyot bosqichlari esa ushbu tarixiy jarayonning faqat o’rta asrlarga oid qismini qamrab oladi.

Yozma manbalar va arxeologik obidalar islomgacha Markaziy Osiyo shaharlarida savdo bilan bog’liq maskanlar va inshootlar bo’lganligidan dalolat beradi. Ko’hna Panjakent shahrida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida VII-VIII asrlarga taalluqli ikkita bozorcha aniqlangan. Ulardan birinchisi chorrahada joylashgan bo’lib, savdo-hunarmanchilik ustaxonalari majmuasi ko’rinishiga ega.

Navbatdagisi esa markaziy ko’chalarning biriga tutashgan ochiq maydon va uni uch tomondan chegaralovchi savdo hunarmandchilik ustaxonalaridan iborat. Bundan tashqari, ko’hna Panjakentning boshqa ko’chalarida ham o’zaro takrorlanib, qatorasiga joylashgan tuzilma-rasta hosil qiluvchi savdo-hunarmandchilik ustaxonalari mavjud bo’lgan. Biroq, bu kichik bozorchalar va ustaxonalar savdo inshootlarining shahar hududida joylashish tamoyiliga ko’ra muhim ahamiyat kasb etmas edi. Asosiy savdo munosabatlari esa yarmarka xususiyatiga ega bo’lib, shaxristonlar darvozasi tashqarisidagi me’moriy jihatdan to’laligicha shakllanmagan ochiq bozorgohlarda amalga oshirilgan. Buning sababi darvozalarning oldi bozorlar uchun talab qilinadigan keng maydonni tashkil qilib, minglab kishilar shahristonga o’z yumushlari bilan kirib-chiqadigan gavjum joydan iborat bo’lganligidadir. Shuningdek, shaharlarga kirish uchun to’lanadigan bojlar ham ayrim savdogarlaring darvozalar oldida savdo qilishni avzal ko’rishiga sababchi bo’lgan. Ba’zi xollarda shunday voqealar bo’lganki, shahriston ichidagi bozorlarga savdogarlar qiyofasida xavfli dushmanlar ham kirib kelgan. Buning oldini olish uchun ayrim hukmdorlar bozorlarni shahriston darvozasi tashqarisiga qurdirgan. Yana shu narsani ham ta’kidlab o’tish joizki, Markaziy Osiyodagi bozorlar, odatda, shahristonlarning janubiy, janubiy-sharqiy, sharqiy darvozasi oldida joylashar edi. Bu holat tabiiy iqlim bilan bog’liq bo’lib, kunning aksariyat qismida bozorgohlarga quyosh tushishiga hamda sovuq kunlarida shimoldan esayotgan havo oqimiga qarshi shahriston devoridan pana sifatida foydalanishga imkonit yaratgan.

IX-XIII asrning birinchi choragida Movarounnahr siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan ijobiy o’zgarishlar jarayonida shaharlar ham, xususan, shahriston darvozasi oldida joylashgan bozorlar ham chetda qolmadi. Ishlab chiqarish, ichki va tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishi darvoza oldidagi bozorlarning shahar ijtimoiy hayotida tutgan o’rnini yanada yuksaltirdi. Biz buni ko’pgina shaharlarning IX-X asrlarda aynan shu bozorlar tomon kengayganligidan bilishimiz mumkin. Bu davrda darvoza oldidagi bozorlar xalqaro va ichik savdo aloqalari olib boriladigan serdaromad joyga aylangan. Shu sabali hunarmandlarning, savdogarlarning va boshqa soha kishilarining ushbu bozorlar tomon intilishi kuchaygan. Ular mumkin qadar o’z do’konlarini, ustaxonalarini hatto uy-joylarini ushbu bozorlarga yoki unga yaqin joylarda qurishga harakat qilgan. Ana shu tariqa bu bozorlarda savdo bilan bog’liq bir qancha inshootlar, karvonsaroylar, timlar, chorsular paydo bo’lgan. Ularga yondosh bo’lib masjidlar, hammomlar va boshqa binolar qad ko’targan. Bu bozorlardan turli tomonlarga qarab yo’llar ketgan edi. Shaharlarning kengayishi, hamda ushbu bozorlar atrofida joylashgan hunarmandlar mavzei – Rabodlarning tashkil topishi natijasida bu yo’llarning ayrimlari shaharning markaziy ko’chalariga aylangan.

Shunday qilib, shahriston darvozasi oldidagi bozorlar ham iqtisodiy, ham hududiy jihatdan shaharlarning markaziga aylana bordi. Buni bir nechta shaharlar misolida ko’rishimiz mumkin.

Bu davrda Movarounnahrning eng yirik savdo markazlaridan biri Samarqand shahri edi. Bu shahar sadogarlar yig’iladigan markaz, ya’ni Movarounnahr bandargohidir. Movarounnahr mollarining katta qismi Samarqandda to’planadi va u yerdan boshqa o’lkalarga olib ketiladi – deb ta’rif bergan edi Istahriy (X asr). Samarqand bozori shahristonning Kesh darvozasi janubidagi Rasat-Tok mavzesida edi. Bu bozor haqida Istahriy shundu ma’lumot beradi: Samarqand savdo markazi Ras-at-tok bo’lib, unga barcha saroy va bog’lardan ham ikki barobar katta bo’lgan ko’chalar, bozorlar hamda do’konlar tutashadi... bozorning katta qismi rabodda joylashgan bo’lib, asosiy savdo-sotiq o’sha yerda amalga oshiriladi va faqat uncha ko’p bo’lmagan kishilargina shahriston ichida savdo qiladilar. Tahminan hozirgi Registon maydoni hamda Siyob bozori oralig’idagi joyni egallagan bu bozorning markaziy qismida gumbazli savdo inshooti – Chorsu bo’lgan. Chorsuga tutashuchi markaziy ko’chalarning bo’yida hamda bozorning o’zidagi kichik ko’chalarda savdo-hunarmandchilik inshootlari, karvonsaroylar jamlangan edi.

Bundan tashqari, Ibn Xavkal (X asr) Samarqand shahristoni ichkarisida ham bozorlar, kavonsaroylar, savdo qatorlari bo’lganligi haqida ma’dumot beradi. Afrosiyob hududida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida ushbu bozorchalarning to’rttasi aiqlangan, ularning ikkitasi shahar jome masjidining shimol va janub tomonlarida, qolganlari Navbahor darvozasi yaqinida hamda shahriston markazida joylashgan. Bu bozorchalar mahalliy mahsulot savdosiga mo’ljallangan bo’lib, rastalar bilan chegaralangan maydonchalar ko’rinishiga ega bo’lgan.

Savdo va hunarmandchilik markazlaridan yana biri Buxoro shahridir. Buxoro mollarini savdogarlar “Shom, Misr va Rim shaharlariga olib ketar edilar” – deb yozgan edi Narshaxiy (X asr) o’zining “Buxoro tarixi” asarida. Savdo munosabatlari asosan shahristonning janubiy “Bozor darvozasi” oldida amalga oshirilar edi. Muallifning ta’kidlashicha, “u vaqtlarda bundan boshqa hech bir darvoza oldida shaharga yaqin bozor

bo'lmagan". Shuningdek, Hisorning ikki darvozasining nomi ham bozor bilan bog'liq bo'lib, ular "Dari guri yon" – somonfurushlar darvozasi hamda "Dari Registon", keyinchalik "Dari alaffurushon" – utfurushlar darvozasi deb atalgan. "Buxoro tarixi" asarida darvozalardan tashqari yana "...bozorning timchalari, ... kovushdo'zlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori" haqida ham eslatib o'tilgan. Bu, o'z navbatida o'sha davr bozorlarining muayyan hil mahsulot sotishga ixtisoslashgan hamda savdo inshootlarining yana bir turi – Timlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Amir Temur davlatining tashkil topishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan qulay iqtisodiy sharoit bozorlar va savdo inshootlarining navbatdagi taraqqiyot bosqichiga chiqishiga imkoniyat yaratadi. XIV-XIX asrlarda bozorlar rabodlarning markazidan mustahkam o'rin egallab, shahar darvozalariga olib chiquvchi markaziy ko'chalar bo'ylab kengaya boshladi va o'z navbatida, buko'chalarning asosiy qismini ham qamrab oldi. Ushbu bozorlarda asosiy o'rinlarni mahobatli savdo binolari toqlar, chorsular, timlar, karvonsaroylar hamda yopiq savdo ko'chalari egallagan edi.

Shaharlarda markaziy bozorlar bilan bir qatorda guzar bozorlari ham bor edi. Guzar bozorlari odatda atrofi savdo do'konlari bilan chegaralangan hovli ko'rinishiga ega bo'lib, ular asosan, kundalik ehtiyoj mollari va shu guzarlarda yashovchi hunarmandlar mahallalarining savdosi uchun mo'ljallangan edi. Kengroq maydonlar talab qiladigan chorva mollari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining boshqa ayrim turlari bilan savdo qiladigan bozorlar esa rabotlarning tashqarisida joylashgan edi.

Samarqand XIV-XIV asrlarda Amir Temur va Temuriylar davlatining poytaxti sifatida Buyuk Ipak Yo'lining yirik savdo markaziga aylandi. Unda "Xitoy, Hindiston, Tatariston, Samarqand podshohligining o'zidan va boshqa o'lkalardan olib kelinadigan mahsulotlar sotiladi" – deb yozgan edi Klavixo. XV asrning boshlarida savdo-sotiq shahar markazidagi ochiq maydonda hozirgi Registon joylashgan joyda hamda uni shahar darvozalari bilan bog'lovchi markaziy ko'chalarda amalga oshirilgan.

1403-yilda Amir Temur ...ikki tarafida mol sotiladigan do'kon va xujralardan iborat ko'cha barpo etishni buyurdi. Har bir hujraning oldida oq tosh qoplangan baland savdo supachalari bor edi... Barcha do'konlar juft-juft qilib, bir-biriga tutashtirildi, ko'chaning tepasi esa ravoqsimon shaklda yopildi". Ko'pchilik mutaxassislar ushbu qayta bunyodkorlik ishlarini Registon maydoni va Ohanin darvozasi oralig'idagi ko'chada (hozirgi Toshkent ko'chasi mavzeida) bajarilgan deyishadi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda Tuman oqa va Ulug'bek qurdirgan mahobatli savdo inshootlari haqida ham ma'lumotlar bor. Lekin bu inshootlar bugungi kungacha yetib kelmagan. Hozirgi kunda Registon maydonida qad rostlab turgan Chorsu yopiq bozori esa XVIII asrga mansubdir.

Temuriylar davlatining ikkinchi poytaxti Hirot shahrida amalga oshirilgan obodonchilik ishlari ham diqqatga sazovordir. Abdurazzoq Samarqandiyning qayd qilishicha, 1410-1411-yillarda Shohruh Mirzo buyrug'iga binoan Hirot shahri "...bozorlarini buzib tashladilar va yangitdan ganch va pishiq g'ishtdan bozorlar ko'tardilar va oliy toqlar qurib ustini yopdilar, ba'zi-ba'zi joylarini yorug'lik tushsin uchun ochiq qoldirib, qolgan joylarini berkitdilar. Bozorlarning har bir jahon ko'ziga bir nigoru zamona chamanida bir bahordek bo'lib yuz ko'rsatdi. Chorsuning urnashishi to'rt tarafi barobar, to'rt burchak shaklida bo'lib, mavzelarning sarasi bo'lish (Hirot shahri) doirasining markazida voqeadir, to'rt darvozadan to'rtta bozoru Chorsu tomon cho'zilgan".

Xulosa. O'zbekiston hududida qadimgi davrdan savdo aloqalari keng rivojlangan bo'lgan va bu shaharsozlikkayam o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Qadimgi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanganligini qadimgi yozma manbaalardan ham bilish qiyin emas.

Savdo inshootlarining uzoq davom etgan tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti jarayonini o'rganish ularning quyidagicha shakllanganini ko'rsatdi:

Bozorgohlarda dastlabki, paydo bo'lgan savdo bilan bog'liq inshootlar ayvon yoki shiypon ko'rinishida bo'lgan. Vaqt o'tib ayvonlarning takomillashishi, orqa va yon tomonlariga devorlar ishlanishi natijasida savdo inshootlarining bozorlarda eng ko'p bo'lgan uchraydigan turi – do'konlar va ularning qator tuzilmasi -rastalar paydo bo'lgan. O'z navbatida savdo-sotiq rivojlanib, bozor shahar markazidagi maydonga sig'may qolgach shaharlarning asosiy ko'chalari bo'ylab kengaya boshladi. Ko'chaning ikki tomonini rastalar band qiladi va natijada savdo ko'chalariga asos solindi. XV asrga kelib Markaziy Osiyoning ko'pgina shaharlarida asosiy ko'chalar savdo ko'chalariga aylanib bo'lgan edi. Savdo ko'chalari takomillashib yopiq savdo ko'chalariga aylanadi. Avvaliga savdo ko'chalarining usti yengil qurilmalar bilan yopilgan bo'lsa, keyinchalik ularni gumbazli qilib yopish urf bo'lgan. Yopiq savdo ko'chalari rivojlana borib, mahobatli savdo inshootlari Tim, Chorsu va Toqlar ko'rinishidagi inshootlari qurilishiga olib kelgan.

Shunday qilib, savdo inshootlari o'rta asrlarda oddiy ayvon ko'rinishidan, bugungi kungacha saqlanib qolgan tim, chorsu va toqlar ko'rinishigacha bo'lgan uzoq me'moriy tadrijiy taraqqiyot davrini bosib o'tgan.

Adabiyotlar

1. Rui Gansales de Klavixo. "Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Temura". Moskva:Nauka. 1990.
2. Abu-l-Kasыma Ibn-Xavkal. «Puti i strany». Perevod Ye.K.Betger. Trudы SAGU. Istoriya nauki. Kn.25. Tashkent, 1957.
3. N.Ibragimov. «Ibn-Battuta i yego puteshestviya po Sredney Azii». Moskva: Nauka, 1988.
4. A.Anarboev. «Blagoustroystvo srednevekovogo goroda Sredney Azii». Tashkent:Fan. 1981.
5. Abu Bakir Muxammad ibn Ja'far an Narщaxiy. «Buxoro tarixi». Meros turkui. Toshkent:Kamalak. 1991.

TARIXIY SHAHAR MARKAZLARIGA XOS TURARJOY BINOLARINI QAYTA TIKLASH VA SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

Usarov Jamoliddin Tulqinovich
Jizzax politexnika instituti Arxitekturaviy loyixalash kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotasiya: O'zbekiston hududi iqlimlari turlicha bo'lgan regionlardan iborat bo'lib, uy-joy qurilishi bu regionlarda turlicha tarkib topgan bo'lib, o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. O'rta asrlarda rivojlangan markazlar Buxoro, Xiva, Samarkand, Toshkent va Fargona vodiysida uy-joy qurilishining o'ziga xos turlicha yo'llar bilan rivojlanganligini.

O'zbekiston tarixiy shaharlar markazlarini qayta tiklash, xususan ularda an'anaviy xalq turarjoylarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy va amaliy takliflarning ishlab chiqilganidir. Bunda uy-joy qurilishga iqlim sharoitining va dinning ta'siri nixoyatda katta bo'lgan, an'anaviy tarixiy turar joylar binolari ushbu shuhurlar me'moriy shakllari yuzasidan olib borilgan ishlari yoritilgan.

Tarixiy shahar markazlariga xos turar joy binolarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda O'zbekistonning tarixiy shaharlari markazlariga xos xususiyatlar, tarixiy shaharlar markazlarida turarjoy binolarining shakllanishi, tarixiy shaharlarga mos an'anaviy turarjoy binolarining arxitekturasi, tarixiy shahar markazlarida qurilgan zamonaviy turar joy binolarini qayta tiklash tajribalarini tadqiq qilingan.

Tarixiy shahar markazlariga xos turarjoy binolarini qayta tiklash tajribalarini tadqiq qilingan bo'lib, unda xorijiy mamlakatlar tajribalari, sobiq ittifoq davri tajribalari va Mustaqil O'zbekiston me'morlarining ishlari o'rganib chiqilgan.

Samarqand shahrining tarixiy qisimga mos zamonaviy turarjoy binolarini shakllantirish tamoyillari tadqiq qilinib, unda turarjoy uylarining zamonaviy tipologiyasini shakllantirish, turarjoylarni shakllantirishda mahalliy tabiiy–iqlim sharoitlari va an'anaviy urf–odatlarni e'tiborga olish va zamonaviy turarjoylarning me'moriy–rejaviy yechimlarini shakllantirish tamoyillari yuzasidan olib borilgan ishlari yoritilgan..

Kalit so'zlar: Tarixiy, Uy-joy, shahar, tarkibiy, qurilish, savdo, Maxalliy, Samarqand, Toshkent, ko'chalar, komplekslar.

O'zbekistonni dunyoga ko'z–ko'z qiluvchi, turistlar aqlini shoshtiruvchi, ularni xis–hayajonlarga soluvchi go'zal tarixiy shaharlarimiz, arxitektura yodgorliklari va komplekslari borki, bugungi kunda ularning mavqyei dunyoga mashhurdir. U qatoriga Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Toshkent, Qo'qon, Nurota kabi shaharlar kiradi.

Eski turar joy uylaridagi xonadonlarning hajmiy-loyixaviy yechimi zamonaviy meyorlarga javob bermaydi, aslida esa ularning ko'pgina konstruktiv yechimlari talab doirasida bo'lgani uchun bu turar joy uylarini rekonstruksiyalash maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu turar joy uylarining ichki loyixaviy yechimlarini va tashqi ko'rinishlarini xozirgi talab doirasida o'zgartirish kerak bo'ladi.

Rekonstruksiyalash metodida shaxzrsozlik, me'moriy-rejaviy va ijtimoiy talablarni aks ettiruvchi kompleks yondoshuv yetishi kerak. Shu bilan birga har bir rekonstruksiyalanadigan turar joy individual yechimlarini talab etadi, bu fanat turar joyning shaxar kurilishida egallagan joyi bilangina emas. balki uning texnik xolati bilan izoxlanadi. Oxirgi omil kabul kilinayotgan yechimni aniklovchi xisoblanadi. Yukoridagilardan tashkari kuydagi omillar ham bevosita o'zini ta'sirini ko'rsatadi: Qo'shni binoga bo'lgan masofa, oriyentasiya talabiga rioya qilish darajasi, iqlim va zilzilabardoshlik, shovqin–suronlik rejimi, turar joy uyining transport magistraliga nisbatan joylashuvi[1].

Rekovstruksiyalash metodlari turar joy binosining yeshiga bog'lik, bo'lib, u uz navbatida mazkur vaqt davriga xos bo'lgan konstruktiv–texnologik va me'moriy rejaviy xususiyatlarni. kutaruvchi va to'suvchi konstruksiyalarning xolatini, materialini, shuningdek ishlarni bajarish sifatini aks ettiradi.

Kurilgan turar joy uylarini uch kategoriyali bo'lish mumkin.

1–kategoriyaga 2–jaxon urushdan avvalgi kurilgan turar joy uylari (1–2 qavatli).

2–kategoriyaga XX–asrving 50–60–yillarida qurilgan turar joy uylari.

3–kategoriyaga zilziladan keyingi (1966–1990) yilda qurilgan turar joy uylar.

Turar joy uylarini kategoriyasi, kavatlar soni va arxitekturaviy–loyixaviy, konstruktiv–texnologii yechimi, fari qilib turadi va bu har bir qurilgan kategoriya uchun xarakterlidir. Shu bilan birga rekonstruksiyalash metodini ishlab chiqishda ishlab chiqarish texnologiyasi omili xam aniqlovchi xisoblanadi.

Rekonstruksiyalash tugrisida qarorni tanlashga avvalo tuman rivojida rekonstruksiyalanadigan turar joy uyining o'rni ta'sir ko'rsatadi.Shaxarning qaror topgan qismlarini rekonstruksiyalashni amalga oshirish jarayonida u yoki bu turar joy binosini rekonstruksiyalash masalasida fikrlarni doimiy qayta baxolash yuz beradi.

Me'moriy rejaviy rekonstruksiyalash variantlari;

1–turar joy binosyanyng xajmini va kompoznsiyasini uzgartirmay saqlab qolish va ichki loyixaviy yechimlarni o'zgartirish. Bu xolda loyixaviy yechim ish talab darajasida maqsadli o'zgartirish yoki turar joy binosini funksional sifatini almashtirish mumkin bo'ladi (Masalan, turar joy uyining birinchya qavatini savdo xizmat ko'rsatish obyektlariga).

2–rekonstruksiyalashning shakllaridan biri sifatida turar joy korpuslarini kengaytirish va ustiga qurish, eski va ancha kech qurilgan turar joy binolar uchun xos, ular qurilish zichligini oshirishga turar joy funksiyalarini saqlagan xolda va qisman qayta ixtisoslanilgan holda shakllantirishga imkon beradi. Turar joy binosining yoniga qurish va ustiga qurish natijasida o‘zgartirish daxa qurilishning umumiy kompozisiyasi yoki uni qayta tuzish istikbollari bilan qo‘shib olib borilishi kerak bo‘ladi.

3–rekonstruksiyalash ishlari darajasi turar joy binosinnng texnik xolat va ishonchliligini baxolash asosida unimiy elementlari dastlabki jismoniy qurishning o‘zgarish darajasi bilan belgilangan, Rekonstruksiyalash qarorni nazarda tutadigan. Bunda ma’naviy eskirish omillarini bartaraf etishga, binolarning eksplatatsiyon tavsiflarini oshirishga va moslashuvchan rejalashtirish sharoitlarini yaratishga, poydevorlarni kuchaytirilishdan tortib to quvvatni oshirish va yer osti fazosidan oqilona foydalanishgacha axamiyat beriladi.

Rekonstruksiyalash jarayonlari engasosiy konstruktiv-texnologik majmuaxisoblanib, uuz ichiga sikik shaxar qurilishiga sharoitida yashlarni amalga oshirishni ta’minlovchi ilg‘or texnologiyalar bilan birgalikda eng oqilona yechim xisoblanadi.

Turar joy binolarining me’moriy hususiyatlari to‘liq yoki qayta rejatashtirishga va mosravishda, ichki konstruksiyalash to‘la va qisman almashtirishga asoslanadi. Rekonstruksiyalash loyixalarining asosi quyidagilar xisoblanadi: binoning tarxiy yechimi konfigurasiyasi; korpusning kengligi (eni); zinapoya xizmat ko‘rsatadigan kenglikning)uzunligi, zinapoyadan eng uzoqdagi qismgacha bo‘lgan masofa va boshqa omillar.

Turar joy binolarining me’moriy–rejaviy rekonstruksiyalash ichki bo‘ylama devorning joylashuvi va deraza o‘rinlari qadami kabi omillarni xisobga olishi kerak bo‘lib, ular xonadonlar xonalarning proporsiyalariga (nisbatlarga) tasir kursatadi. Kavat balandligining parametri rejaviy yechimlarini tanlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.Bino turar joydan noturarjoyga qayta ixtisoslashtirish yo‘li bilan kompleks rekonstruksiyalashda yanada chuqurroqqayta rejalashtirish bo‘lishi mumkin. Bunda qavatlarni qurishdan tashqari yerto‘la fazosidan OKI.PORE amalga oshiriladi, shuningdek, yaqin atrofdagi maydonlar magazinlar, avtomobillar turish joylari va boshqa ijtimoiy soxa obyektlari uchun mo‘ljallagan inshootlarni joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Eski turar joy fondini rekonstruksiyalashda fasadlar arxitekturasini shakllantirishdan aloxida o‘rin ajratiladi. Me’moriy va tarxiy qiymatga ega barcha binolar fasadlari va ular elementlarining mavjud kompozyasiyalarini saqlagan xolda xal etilishikerak. Turar joy binolari ustiga qurish va bunda rekonstruksillanayotgan uyning kompozisnyasiga muvofiq fasad detallaridan foydalanish xisobiga arxitektura usuli birligining saqlanishini ta’minlashi kerak bo‘ladi.

Bunday shaharlarimizning mavqei, ayniqsa, Mustaqilligimiz shukuhining dunyoga taralayotgan, O‘zbekiston degan go‘zal diyorni jahon taniyotgan va unga olam xalqining, nafaqat sayyohlarning, balki ishbilarmonlarning ham intilayotgan bir davrida yanada oshib borishi shubhasizdir.

Bunday tarixiy shaharlarning markazlarida bizgacha saqlangan dunyoga mashhur me’moriy komplekslar, tarixiy ark–qal’alar, ansambllar, piyoda ko‘chalar, savdo inshootlari, minoralar, arxitektura yodgorliklaridan tashqari an’anaviy turarjoylar, mahalla va guzarlar ham borki, ular o‘sha tarixiy shaharlar me’moriy muhitining ajralmas va chambarchas tarkibiy qismlaridar. Ayrim tarixiy shaharlar markaziy qismi bilan yonma–yon va tutash joylashgan bu an’anaviy tarixiy turarjoylar binolari ushbu shuhurlar me’moriy shakllari va muhitining uyg‘unlashgan strukturaviy tizimini tashkil qiladi.

Biroq ming afsuski, hayot garchi, tezkor taraqqiyot, halqaro turistik ehtiyojlar va zamonaviy talablar bunday an’anaviy va tarixiy turarjoylarning saqlanib qolishiga xavf solmoqda. Ularning o‘rniga tarixiy shaharlarimiz muhitiga mos kelmaydigan yangi binolar, savdo va boshqa maishiy xizmatlar ko‘rsatish binolari qurilmoqda. Bunday holatlarni Samarqand, Shaxrisabz, Qo‘qon va boshqa tarixiy shaharlarda uchratish mumkin. Jumladan, Samarqand shahridagi mashhur Registon maydoni atrofidagi tarixiy turarjoylar o‘rnini 4 qavatlik o‘rta maktab va zamonaviy ko‘p seksiyali baland uylar egallagan. Ko‘pgina shaxarlarning bosh tarxlarida an’anaviy turarjoy hududlarining sezilarli qismini ko‘p qavatli binolar bilan almashtirish ko‘zda tutilgan. Bunday shaharsozlik dissonanslari va noxushliklariboshqa tarixiy shaharlarga ham uchraydi.



O‘zbekistonning boy tarixiy me’moriy–madaniy merosi va shaharlariga dunyoviy qiziqishning oshib borayotgan bir davrida bunday shaharsozlik xatoliklarining bartaraf etilishi zarur.

Muammoni yechishning eng ishonchli yo‘nalishlaridan biri–bu ushbu tarixiy shaharlar markazlari atrofidagi zamonaviy, tarixiy muhit talablariga javob bermaydigan imoratlar o‘rniga an’anaviy turarjoylar arxitekturasi va tarixiy shaharlar muhitiga mos keluvchi yangi turarjoylarni tiklash va joylashtirishdir.

(O‘rta asrlarda Samarqanddagi turarjoy binolari)

(Mustaqillik yillarida Mir Sayyid turarjoy binolari) Baraka ko‘chasida qurilgan turar joy binosi)

Xo‘sh, bunday turarjoylarni tiklash loyihalarini yaratish va ularni tarixiy shaharlar markazlari arxitekturasi va muhitiga moslashtirish bo‘yicha Respublikamizda biron–bir ilmiy, ijodiy yoki amaliy ishlar bajarilganmi? Bunday ishlar Buxoro shahrining tarixiy markaziy qismida, Toshkentda Navoiy shoh ko‘chasida va boshqa shaharlarda qisman, zamonaviy hayot ehtiyojlari asosida bajarilib kelinmoqda. Biroq ularni va bu sohadagi xorijiy tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish, o‘zaro taqqoslash va ilmiy umumlashtirish asosida ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar, loyihalar ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu zamonaviy muammo va ijtimoiy vazifalarni hal qilishga, ularni magistrlik dissertasiyasi doirasida yechishga qaratilgan dolzarb mavzuga yo‘naltirilgan.

Professor A.M. Salimovning “Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda tadqiqot asoslari” (Toshkent, 2013) nomli o‘quv qo‘llanmasida mazkur илмий ишни mavzusiga doir qiziqarli materiallar berilgan. Unda tarixiy shahar markazlarini tadqiq qilish va qayta tiklash, tarixiy shaharlarda me’moriy yodgorliklar muhofaza hududlarini tashkil etish masalalari bayon etilgan. Ushbu muallifning “Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash asoslari” (Toshkent, 2013) ilmiy–uslubiy qo‘llanmasi yozilgan bo‘lib, unda ham asosan yuqorida qayd etilgan masalalar aks ettirilgan va o‘z bayonini topgan

X.Sh. Po‘latov va A.S. Uralovlarning “Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va qayta qurish” (Toshkent, 2002) kitobida gap faqat me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash, qayta tiklash va saqlab qolish, ularni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish usullari haqida boradi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, tarixiy shaharlar markazlaridagi an’anaviy turarjoylarni o‘rganish, ularning tarixiy markazlari muhitiga mos zamonaviy loyihalarini yaratish, ularni ilmiy asoslash bo‘yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Ular alohida maqola va mulohazalar ko‘rinishidadir.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari

Oxirgi yillarda chet el va Yevropa davlatlarida tarixiy merosdan foydalanish bo‘yicha katta tajriba to‘plandi. Bu tajribaga nihoyatda turlicha sharoitlarda ega bo‘lindi: Moskva, Sankt-Peterburg, Praga, Sofiya, Budapesht, Buxarestni qayta tiklashda; urush davrida kuchli vayronagarchilikka uchragan Varshava, Pskov shaharlarini tiklash va qurishda; Suzdal, Rostov, Neseber, Tirnovo, Torun kabi shahar-qo‘riqxonalarni barpo qilishda ulkan tajribalar orttirilgan. Bu jihatdan, me’moriy merosdan foydalanishga kompleks hududiy-fazoviy yondoshilgan Moskva, Kiyev, Chernigov, Zagorsk, Suzdal, Kamenes-Podolskiy, Tallin, Vilnyus, Msxeta va boshqa shaharlarning qayta tiklanishi bunga misol bo‘la oladi. Yirik ishlardan biri - «Oltin xalqa» majmuasi (bosh me’mor M.A. Orlov va prof. Yu.V.Raninskiy), unda tarixiy-me’moriy merosdan foydalanish muammosini rivojlantirish, shaharlarning bir butunlikda tarixiy muhitlarini saqlash, muhofaza xududlarini aniqlash va kompozision yaxlitlikni saqlash ko‘zda tutilgan, tarixiy xududlar alohida qo‘riqxona zonalariga ajratilgan va sayyohlik, madaniy-maishiy maqsadlarda faol foydalanilmoqda. Suzdal tarixiy-me’moriy yodgorliklar majmuasini saqlash asosiy prinsipi shahar muhiti rivojining morfologik (shakliy) ko‘rinishini ifodalovchi, shahar va binolarning yuzaga kelgan kompozisiyaviy tuzilishini asrashdan iboratdir.

Suzdalda sayyohlik markazini yaratish loyihasi rivojining iqtisodiy bazasi shaharni tashkil qiluvchi omil sifatida tarixiy madaniy yodgorliklardan foydalanish asosida shahar rekonstruksiyasini, uning funksional xususiyatlari prinsipial xarakteriga, aholisining bandligini va boshqa, ko‘pgina muammolarga ta’sir etuvchi ijobiy yo‘nalishni aniqlashni ko‘zda tutadi. Pokrov va Rizopolojenskiy monastirlari binolarida sayyohlik markazlari joylashtirilgan. Pokrovskiy

monastiridagi xujralar turar joyga (mehmonxona sifatida) moslashtirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, monastirning yog'ochdan qurilgan hujralarga mehmonlar uchun xonalarni joylashtirishda qulaylikning zamonaviy talab darajasi saqlangan yoki to'g'rirog'i yaratilgan. Bunday yechim, ya'ni mavjud majmua ichida zamonaviy binolar yaratish emas, balki binoni moslashtirish eng maqbuli hisoblanadi, chunki bu qurilish masshtabini, uning ritmik va kompozision tuzilishini, inshoot koloritini saqlaydi.

Restoran, kafe va savdo korxonalari ilgarigi savdo rastalariga joylashtirilgan ("Staraya" ko'chasi va Rizopolojenskiy monastirida). Sayyohlik markazining asosiy ma'naviy-ma'rifiy markazi hisoblangan muzey ekspozisiyasi obyekti shahar hududida joylashtirilgan. Muhim ekspozisiyalar kreml va unga tutash bo'lgan me'moriy yodgorliklarga joylashtirilgan, ekspozisiyaning bir qismi ochiq osmon ostidagi muzeyda namoyish etilmoqda.

Foydalanishga moslashtirish, yodgorlik-binolarni muzeylashtirish shahar bosh rekonstruksiyasi loyihasiga kiritilgan shaharsozlik g'oyalarining tabiiy rivoji, binolarni tiklash rejasining aniq ifodasidir. Bu rejani amalga oshirish shahar tarixiy qismi va zamonaviy qurilishlar tuzilishini sinchiklab o'rganishga asoslanadi. Suzdal shahri strukturasi tahlilining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- Suzdal tarixiy yadrosi tarixiy-badiiy va me'moriy majmuasining aniq tabiiy sharoitlarda shakllanish qonuniyatini aniqlash;
- markaz majmuasidagi har bir bino va inshoot vazifasi va ahamiyatini aniqlash; ko'cha va tor ko'chalarni yaxlit birlikka bog'lovchi dominantlarni, ularning o'qini, qurilishning tarixiy chegarasini, gorizont chizig'ini (inshootlar va relyef bilan yuzaga kelgan aniq siluetini) aniqlash;
- binolarni qurish yoki qayta tiklash vaqtida uyga egalik va uy egasining ijtimoiy xarakteristikasini, uy egaligi o'lchamlari va uning chegaralarini o'rganish;
- xo'jalik va texnik qurilishlar xarakteri; ta'mirlash yoki qayta tiklashning zarurligini aniqlash uchun uy egaligini bahosi;
- eski inshootni yangi vazifaga qisman moslashtirish, shuningdek yangi qurilish qiyofasi va ishlab chiqilgan markaz rejaviy tuzilishga mumkin bo'ladigan aralashishlar va imkoniyatlar me'yorini aniqlash.

Suzdal rekonstruksiyasi loyihasining asosiy g'oyasi alohida yodgorliklar va me'moriy majmualarni imkon qadar saqlab qolish, tarixiy shahar muhiti va bu qadimiy rus shahrining o'ziga xos koloriti, landshaftini saqlash, me'moriy yodgorlik binolaridan muzey madaniy-ma'rifiy va sayyohlik maqsadlari uchun foydalangan holda eski qurilishlarni saqlab qolishdan iborat.

Shahar yadrosi kompozisiyasida rayon landshaftiga e'tibor qaratilgan, ochiq va yopiq fazoning ma'lum munosabatiga asoslangan fazoviy kompozisiya yaratish masalasi hal etilgan. Shaharning o'ziga xos koloriti rang-barang yechimlarda, obodonchilik elementlari bularning hammasi saqlanib qolingan. Bir butunlikda Suzdal markazi, uning tarixiy yadrosini faqat alohida yodgorliklar va asosiy obyektlarni (dominantlarni)gina emas, balki atrof qurilishlari ham saqlangan yaxlit shaharsozlik majmui sifatida qayta tiklanganMe'morchilik tarixi har vaqt insonga xizmat qiluvchi, foyda keltiruvchi va doimiy g'amxo'rlik predmeti bo'lgan joylargina saqlanib qolishiga guvohlik beradi.

Oraliq holat - bu boshqa vazifa bo'yicha foydalanish, oqibatda esa uni o'zgartirish va sekin-asta buzilishga olib kelish.Me'moriy yodgorliklardan ideologik va estetik sohalardan tashqari foydalanish jiddiy iqtisodiy asosga ham ega, yodgorliklardan zamonaviy jamiyat ehtiyojlari uchun faol foydalanish mumkin, bir vaqtning o'zida ular saqlanib qoladi va davlatga katta foyda keltiradi, chunki faqat qayta tiklash va ta'mirlash me'moriy yodgorlikning saqlanishini va uning jamiyat hayotidagi ishtirokini kafolatlamaydi[2].

Shu sababli ilgari mavjud bo'lgan binolardan foydalanish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi - bunday yo'l ko'plab me'moriy yodgorliklarni saqlashga yordam beradi. Taniqli san'at va me'morchilik tarixchisi va nazariyotchisi I.E.Grabar 1928 yilda «Eski me'morchilik yodgorliklari va yangi shahar qurilishi» nomli maqolasida shunday yozgan: «Siz, hammangiz, ulug' xalq quruvchilarining bu tengsiz asarlarni bizning kunlargacha ehtiyot qila oladigan baxtli avlodlari, o'z yodgorliklaringizni ehtiyot qiling. Ularni ehtiyotlang, chunki hozir Italiyaga odamlar qanday borsalar, bizga ham xuddi shunday keladilar, bu kunlar esa juda yaqin, - u sizning farovonligingiz manbai bo'ladi va yuragingizni faxrga to'ldiradi». Oxirgi yillardagi turizm va dam olishni tashkil qilish sohasidagi xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, «dam olish» degan zamonaviy tushunchaning farqli jihati, u dam olish va ko'rishning o'zaro munosabatidir, shunday ekan, me'moriy yodgorliklarga ega bo'lgan tarixiy shaharlarning turistik marshrutlarga kiritilishi demakdir.

Tarixiy-me'moriy merosdan foydalanish muammosi maxsus bilimni talab etadigan ko'p sohalardan iborat bo'lgan yodgorlik fazoviy muhitini tashkil qilishdan boshlanadi:

- transport kommunikasiyalarini tashkil qilish (ma'lumki, zamonaviy transport vibrasiya tufayli yodgorliklarga zararli ta'sir ko'rsatadi);
- yodgorliklar hududini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish;
- zamonaviy qurilishni me'morchilik yodgorliklari bilan «tutashtirish» muammosi, uning foni;

Bu masalalarning keyingi rivoji butun shahar fazoviy muhiti yechimini, tarixiy rayonlar, shahar me'morchiligi kompozision yaxlitligini saqlab qolishni, uning ta'sirchan atmosferasini saqlashni qamrab oladi. Axir me'morchilik yodgorliklari - bu, o'zida jonsiz inshootlar emas, ular shaharning ma'lum koloritini, kayfiyat va xarakterini yaratgan holda o'zining alohida hayoti bilan yashaydi.

Merosning hayotni keng fazolarda tashkil qilish sistemasi bilan bevosita aloqasidan tarixiy shaharlar rekonstruksiyasiga, so‘ngra me’moriy majmualar va alohida yodgorliklarga o‘tish - umumiydan juz’iyga o‘tish - me’moriy merosni zamonaviy hayotiy muhitga uzviy kiritishni ta’minlashi mumkin. Yangi ijtimoiy vazifa, uning shahar strukturasidagi zaruriyati va muhimligi obyektga mashhurlik olib kelishga va uning ijtimoiy ahamiyatini ko‘tarishga qodir. Dastlab shahar muhiti tadbiq etilgan: hududning aniq egalik qiluvchiga taalluqliligi, turar joy fondining aholi zichligi, jamoat binolari, ularning mustahkamligi, yaroqliligi va sanitar holati belgilandi.

Ma’lumotlar maxsus kartogrammalarga tushirildi. So‘ng interyer va fasadlarning holati, stil xususiyati, binolar klassifikasiyasi va xronologiyasi tadqiq qilindi. Shuningdek shahar muhitini buzuvchi inshootlar aniqlandi. Shahar strukturasi va shakli, landshafti o‘rganildi, qayta tiklashning alohida zonalari ajratildi. Chet el davlatlarida o‘tkazilgan qator ishlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, dastlabki tadqiqotlar hajmi qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik ular puxta amalga oshirilgan, ayniqsa loyihaviy takliflar asoslangan va samarali bo‘lgan. Bunday tadqiqotlarni e’tiborsiz qoldirish mumkin emas, sxemalashtirish yoki ular hajmini asossiz qisqartirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Me’moriy yodgorliklar regenerasiyasining chet el tajribasiga murojaat qilib shuni ta’kidlash mumkinki, binolardan muzey maqsadidan tashqari kutubxonalar, o‘quv yoki konsert zallari, mehmonxonalar, turistik majmualar, turar joylar, kafe va restoranlar uchun foydalanadilar. Yevropa me’moriy yodgorliklarining aksari qismi qanchalik madaniy-oqartuv maqsadlarda foydalanilsa, turizm va dam olish uchun ham shunchalik foydalaniladi. Bunday obyektlarning yuksak estetik qiymati ko‘plab turistlar uchun, ularni yanada jozibador qilib ko‘rsatadi, shunday ekan ular yanada daromadli bo‘ladi. Ma’lumki Yevropada kafening ommabopligi karvon-saroylar rivojiga ta’sir eta boshladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Uralov.A.S. Гражданское зодчество средневековой Централъной Азии.–Т.,2021
2. A.S.Uralov, Elina Mohd Husini. Harmonization, decoration of architectural forms and light. -Malaysia, 2021.
3. Toshtemirov R.T., Toriniyazov M.U. Obyemno–prostransvennaya organizasiya i uchet mestnix prirodnogo–klimaticheskix usloviya v narodnom jilishye. V sb. mat. Respublikanskoy nauch. konferensii SamGASI, 2010.
4. Toshtemirov R.T., Aymatov A.A. An’anaviy xalq o‘yinlarida tadbirkorlik, ishlab chiqarish tizimi va kelajakdagi istiqbollari. “Samarqand shahri arxitekturasi, zamonaviy shaharsozlik va shahar qurilish muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konf. materiallari–Samarqand, 2011.
5. Esirgapovich, D. A. “Actual Problems of Ensuring Sustainable Ecology in Urban Planning”. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 3.6 (2022): 65-72.
6. Esirgapovich, Janizaqov Abduvaxob. “Barqaror shaharsozlik, barqaror arxitektura, bioarxitektura va bioiqlimiy arxitektura” International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 525-528.

TARIXIY SHAHARLARNI REKONSTRUKSIYA QILISH VA TA’MIRLASHDA SHAHARSOZLIK SOXASINING ASOSIY TAMOILLARI

Yusufov Sardorbek Azimboy o‘g‘li
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
Seyitniyazova Ayimxan Abdullayevna
Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Anotatsiya: Maqolada tarixiy shaharlarini tiklashning an’anaviy va zamonaviy tamoyillari masalalari ko'rib chiqilgan. O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini ko‘hna mahallalar va guzarlarni o‘z davridagi holatini hozirgacha yetkazishni imkoni bo‘lmagani uchun ularni tarixiy man’balar asosida qayta tiklash loyihasi amalga oshiriladi.

Аннотация: В статье обсуждаются традиционные и современные принципы восстановления исторических городов. Исторические города Узбекистан до сих пор включали статус древних махаллов и гузара Узбекистана, в настоящее время осуществляется историческим руководством.

Abstract: The article discusses traditional and modern principles of restoration of historical cities. The historical cities of Uzbekistan have still included the status of the ancient mahalls and guzar of Uzbekistan, and is currently carried out by historical leadership.

Kalit so’zlar: Tarixiy shaharlar, shaharsozlik, tarixiy shaharlarini tiklash, tarixiy shahar loyihalari, me’moriy meros.

Ключевые слова: Восстановление исторических городов, городское планирование, исторические города, исторические городские проекты, архитектурное наследие.

Index Terms: Restoration of historical cities, urban planning, historical cities, historical city projects, architectural heritage.

Shaharsozlik shakllanish an’analarni darajasini o‘rganishda zamonaviy me’morchilikda ushbu an’analarni ma’lum hudud yoki ma’lum shaharga aloqadorligi muhimdir. Bu turdagi arxitekturaviy va dekorativ uslublardan foydalanish orqali mahalliy va hududiy imkoniyatlarni ta‘minlashnlanishi, ya’ni muhitni yaratilishda moliyaviy, ijtimoiy, tabiiy, iqlimiy va milliy xususiyatlardan foydalanishni bildiradi. Anashunday asosida rivojlanib borgan an‘analar umumiy

xususiyatga namoyon bo‘lib, me‘morchilik sohasini uslubiy pog‘onasida ko‘rinadi. Shuningdek me’moriy an‘analarni tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar insonlarga shodlik baxsh etishi bilan birga madaniy me‘rosimiz kelajak avlodga yetkazishda ham o‘z hissasini qo‘shadi.

O‘tgan davr amaldagi me’rosidan foydalanish zaruriyati va imkoniyati me‘moriy uslublarning yangicha g‘oyalari bilan bilan chambarchas bog‘liqdir. Me’morlar o‘z loyihalarini o‘tgan davr me’morchilik namunalarga taqqoslash bilan ko‘radilar. Ayni vaqtda eng murakkab masalalardan an’analar va yangicha o‘zgartirishni asrlar davomida rivojlangan shaxarlarni ta‘mirlashda va qayta qurish jarayoni kiritish mumkin. Bir qancha tadqiqotchilar ushbu masalalar boyicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar davomida yuqoridagi masalalarga turlicha yondashishgan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra o‘tgan davr shaharsozlik va me’morchilik na‘munalarini yaratilish xususiyatlari bilan progressiv xarakterda bo‘lganligi sababli hozir ham keng me’qiyosda qo‘llanilishini keltirib o‘tishimiz mumkin. Me’moriy merosni zamon bilan hamnafas ijodiy o‘zlashtirilishi V.Ki aytgan edi. Lekin shuni aytish kerakki tarixiy shaharlarni ta‘mirlash va qayta qurish jarayonida bir qancha qarshiliklarga uchradi. Nazariy bilimlar tomondan taklif etilgan loyiha, uslub va qoidalar qurilish jarayonida o‘z tasdig‘ini topmaydi. Asrlar davomida rivojlanib shakllangan shaharlarni qayta tiklash va zamonaviy umumiy me‘morchilikda bir turdagi qoidalardan foydalanib bo‘lmaydi. O‘tgan asrlar davomida shakllangan shaharlarni qayta tiklash va qurishda tarixiy muhitni namoyon qiluvchi hajmiy va fazoviy elementlar eng muhim vaqtda, zamonaviy umumiy me‘morchilikda aholining turmush tarzidan kelib chiqib, ular uchun qulay va ularning talabiga javob beradigan va har bir shaharning o‘ziga xos jihatlarini saqlab qoluvchi unsurlar asosiy hisoblanadi. Bir qancha tadqiqotchilarning ma‘lumotlarida keltirilishicha O‘rta Osiyo o‘tgan asrlar davomida shakllangan shaharlar qiyofasi yangilanib turuvchi zamonaviy imkoniyatlarini kelajak avlodga yetkazish maqsadida tarixiy shaharlar qiyofasiga namoyon qiluvchi loyihalarni yaratishimiz maqsadga muofiqdir. O‘rta osiyo shakllangan ko‘hna shaharlar qiyofasi va muhitni qayta tiklash va qurilishida biz milliy an‘analardan foydalanish va ularni yangilangan usulda an‘anlarni zamonaviy me‘morchilikda qo‘llanilishi hozirigi zamon shaharsozlik qurilishida foydalanishimiz lozim [2].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikgi o‘z tarixiy shaharlarining qayta tiklanishiga turtki bo‘ldi. Yurtimiz ming-ming yillik me‘morchilik va shaharsozlik namunalari qayta tiklandi va ta‘mirlandi. Madaniy va manaviy merosimiz qayta tiklandi.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200, Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileylari o‘tkazildi. Ajdodlarimiz Soxibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy kabi bir qancha dunyo tanigan kishilarning maqbaralari mamlakatimizning bosh me’mori – O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning boshchiligida yuqori darajada restavrasiya qilindi, tubdan qayta qurildi va yangidan tiklash ishlari olib borildi.

Shaharlarni qayta qurish, tiklash ishlari boshlanishidan avval tarixiy me’moriy obida va binolarni qayta tamirlash tikash loyihasiga muofiq qayta qurish jarayonida shaharning me‘moriy ko‘rinishini qayta tiklash, tamirlash, yoki yangicha zamonaviy ko‘rinishda shakllantirishni qayta qurilish, tamirlash jarayoni va uning loyixasining mukammal bo‘lishligini ta‘minlash, qurilish ashyolarining sifati kabi bir qancha jarayonlar o‘z ichiga oladi. Qayta ta‘mirlash va qurish ishlari shaharning bosh rejasi, binolarning qurilish uslubi, muhandislik va texnik asbob – uskunalarning muddatini o‘tab bo‘lishi yoki yaroqsizligi kabi ko‘plab uchraydigan, yangicha zamonaviy talablar asosida paydo bo‘ladi. Shahar aholisi yaxshi hayot kechirishi va shaharsozlik, me‘morchilikning shakllanishi uchun shaharda istiqomat qiluvchi aholining bir qancha kasb – hunar bilan shug‘ullanishi uchun imkon darajada sharoit yaratish va bu yaratilgan shaharsozlikning yuqori qadr – qimmatga ega bo‘lgan me’moriy me’rosini asrab avaylash va shaharsozlikning zamonaviy yangiliklarni shahar qurilishining hamma bino inshootlarida qo‘llashnilgan shahar markazlarida qayta qurish juda murakkab masaladir.

O‘rta Osiyo hududida joylashgan O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarni qayta qurish va ularni tiklashdan maqsad ko‘p asrlik tarixga ega milliy qadriyatlarimizni nomoyon etuvchi me‘moriy merosimizni kelajak avlodlarimizga mustahkam yetkazish, aholini ish bilan ta‘minlanishi, madaniy hordiq olish, bizning buyuk ajdodlarimiz bunyod qilgan tarixiy shaharlarimizga ega ekanligimiz, ularni dunyo sayyohlar ko‘rishi va turizimni rivojlanishini ta‘minlash uchun uchun qulay imkoniyat yaratish, qurilish ashyolari, moddiy – texnik baza va ko‘p asrlik tarixga ega milliy qadriyatlarimizni me‘moriy – loyihada aks etishdir. Shuning uchun loyixalashtirish uslubiga yangicha yondashish va shakllantirishi, jamoat qurilmalari, landshaftni shakllantirish, tarixiy milliy aholi turar joylarni tashkil qilish, shuningdek talabga javob bermaydigan eski aholi turar joylarini modernizasiya qilinish, shahar ko‘rinishini obodonligini ta‘minlash, me‘moriy - badiiy qiymatini yuqoriga ko‘tarish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Aholi istiqomat qilishi uchun turar joylarini yangi zamonaviy ko‘rinish, imkoniyatlarga ega bo‘lgan ehtiyoj shaharlarni hamma pog‘onasida shakllanishi, ta‘mirlanishi, va qayta qurishga undovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, avvolo, turar joylarning qayta qurish ishlari amalga oshirilib, shu bilan bir qatorda tarixiy shaharlarning yangi xududlarida ommaviy turar joylar qurilishlari olib boriladi. Tarixiy shaharlar qayta qurishdan asosiy maqsad tarixiy shaharning muhitini yaratishdir [3].

O‘rta Osiyo hududida joylashgan tarixiy shaharlarining markazida joylashgan an‘anaviy shaklda tashkil topgan ko‘hna mahalla va guzarlar yaxlit hajmiy – fazoviy kompozisiyaviy shakllangan, fuqorolarning ijtimoiy, iqtisodiy turmushi va boshqarish tizimini shakllanishini uchun ko‘plab imkoniyatlar man‘baidan iborat shaharsozlik majmualaridan bir qismi hisoblanadi. Mahalla - guzarlarda aholi istiqomati uchun turar–joylar, guzarda

– odamlarga maishiy xizmat vazifasini bajaruvchi kichik bozor, savdo - sotiq do‘konlar, masjid, aholi ta‘lim olishi uchun madrasalar, choyxona, ba‘zi hududlarda mahalla fuqarolari yig‘ini binosi bunyod qilingan. Shuningek aholi uylarning fasadlari markziy va oxiri yopiq tor ko‘chalarga tomon tig‘is qilib bunyod etilgan. Aholi uylar uch avlod istiqomat qilishiga moslab qurilgan an‘anaviy hovli joylardan iborat bo‘lgan. Hovlilarga asosan darvoza orqali kirilgan. Ular bir–ikki qavatli, dolon, ayvonli, yozgi va qishgi xonalar, 3-4 ta yashash xonalari bo‘lgan. O‘rta Osiyo tarixiy shaharlari ko‘hna mahalla va guzarlarda aholi hayoti uchun zarur bo‘lgan ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi, isitish tizimi bor bo‘lsa ham muhandislik tarmoqlari shakllanmagan. Aholi foydalanishi zarur bo‘lgan xojatxonalar har bir hovli burchagida bitta bo‘lib, ko‘chaga yaqin joyda joylashtirilgan. Qayta ta‘mirlangan va tiklangan uylarda ikkita, tashqi va ichki tomonda ham qurilgan. Zamonaviy qilib qurilgan mahallalardagi an‘anaviy tarzda qurilgan uylarda muhandislik va oqava suv tarmoqlari ta‘minlanganligini keltirish mumkin. Ushbu tarixiy shakllangan mahallalar va guzarlarda tor va boshi berk ko‘chalar mashinalar bo‘lmaganligi sababli aholi va ot ulovlarning harakatlanishi uchun mo‘ljallagan.

O‘rta Osiyo tarixiy shaharlarini ko‘hna mahallalar va guzarlarni o‘z davridagi holatini hozirgacha yetkazishni imkoni bo‘lmgani uchun ularni tarixiy man‘balar asosida qayta tiklash loyihasi amalga oshiriladi. O‘rta Osiyo tarixiy shahar hududida joylashgan eski mahallalardan birontasini buzib uning qanday usulda qanaqa qilib qurilgani o‘rganib chiqilgandan kiyin huddi shu uslubda o‘sha an‘naviy tamoyillar asosidagi zamonaviy talablarga javob beradigan muhandislik tizimi talablarga ham to‘liq javob beradigan yangi qurilish ashyolaridan mustahkam qilib aholi turar – joylar, mahallani qayta qurish, tiklash loyiha asosida amalga oshirish bizning tarixiy me‘morchilik me‘rosimiz, an‘analarimizni, qadryatlarimizni kelajak avlodga yetkazilishini ta‘minlashimiz bizning asosiy burchimiz hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarni qayta ta‘mirlash, tiklashni qaysi an‘ana, uslullari bilan qayta qurilgan tarixiy shaharlarda bunyod etilgan aholining zamonaviy turar -joy uylari va mahalla va guzarlar loyihasi kompozisiyaviy yaxlit tarzda, shaharsozlik normativ me‘yoiy talablariga, shuningdek tarixiy shaharsozlik atrof – muhiti me‘morchiligi ta‘moili va ananalari nomoyon bo‘lishi, zamonaviy badiiy–estetik jihatlar, O‘rta Osiyo tarixiy shahar hududida joylashgan xalqlarning yangilangan hayotiy muhiti va mahallachilik tamoyillari bilan shakllanganligi, zamonaviy muhandislik tarmoqlari bilan barcha bino va inshooatlarda aholi foydalanishi uchun qulay bo‘lishligi shart. Tarixiy shahar loyihalari davlat buyurtmasiga ko‘ra amalga oshiriladi. Qurilish jarayonida mahallaning ma‘muriy ijtimoiy boshqaruv qismi, aholi harakatlanishi uchun hizmat qiluvchi ko‘cha va yo‘llar, kommunal xizmat ko‘rsatish muhandislik tarmoqlari va qurilmalari davlat tomonidan, aholi uy–joylari aholi tomonidan quriladi.

Shahar turar-joy makonlaring funksional vazifasi tabiat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qulay yashash muhitiga aylantirish. Turarjoy kompleksining badiiy, obrazli mazmuni shundan iboratki, u monumental me‘morchilik ansambli emas, balki kundalik hayot uchun shinam va qulay muhitdir. Yashash muhitini shakllantirishning asosiy funksional asoslagan tamoyillari – atrof muhitning ko‘lami va rang-barangligi, turarjoy hamda xizmat ko‘rsatish binolari, daraxtzorlar guruhlari tashkil etilgan turarjoy majmuasi mikromaydonining xushmanzaraligi. Turarjoy imoratlarining kompozitsion makoniy aloqalari piyodalar harakatining yangi yo‘nalishlariga javob berishi lozim. Yangi, eng xarakterli turarjoy hududlarining kompozitsiyalari shu tamoyilga asoslagan bo‘lib, bu yerda jamoat inshootlari – do‘konlar, maktablar, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari – piyodalar yo‘laklari hududida joylashgan. Bu imoratlar ko‘lami va plastikasining xususiyatlarini, demakki, shahar panoramasidagi uning ahamiyatini ham belgilaydi.

Zamonaviy shahar hayotining mazmun-mundarijasi jamoatchilik binolarining katta miqdorini, jamoatchilik markazlarini rivojlantirishni qat’iy talab qiladi; shahar ansamblini yaxlit shakllantirishda ular alohida o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. M. Axmedov O‘rta Osiyo me‘morchiligi tarixi T.1995.
2. O‘ralov A.S. Arxitektura yodgorliklarini ta‘mirlash va qayta tiklash Samarqand.: 2002.
3. Qodirova T.F. Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana za XX-nachala XXI vv. (Traditsii i sovremennost) – T.: TASI. 2007.
4. Строительство и архитектура Узбекистана № 11, 1978 г. Ахмедов М.К. Планировочная ориентация средневековых архитектурных ансамблей и некоторые вопросы теории архитектуры Средней Азии, 12-14 с.
5. Зохидов П.Ш. Традиции народных зодчих Узбекистана. Международный конгресс антропологических наук (Москва август 1964 г.) Издательство «Наука».

РЕСТАВРАЦИЯ, РЕКОНСТРУКЦИЯ И РЕНОВАЦИЯ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ УЗБЕКИСТАНА

Дусатова Нигора Рустамовна,
Преподаватель кафедры Дизайна,
Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бекзода.

Аннотация. Статья посвящена анализу процессов реставрации, реконструкции и реновации архитектурных памятников Узбекистана, а также изучению методов, применяемых для сохранения культурного наследия. В работе рассматриваются исторический контекст, актуальные подходы и влияние международного опыта на практику сохранения памятников. Особое внимание уделяется ключевым

проблемам, среди которых — противоречие между необходимостью сохранения аутентичности объектов и стремлением к их адаптации под современные условия. На основе анализа примеров из Самарканда, Бухары и Хивы формулируются рекомендации по достижению баланса между традицией и модернизацией в области исторической реставрации.

Ключевые слова: культурное наследие, реконструкция, реставрация, реновация, архитектурные памятники, Узбекистан, историческое наследие.

Annotatsiya. Maqola O'zbekiston arxitektura yodgorliklarini tiklash, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash jarayonlarini tahlil qilish, shuningdek, madaniy merosni saqlash uchun qo'llaniladigan usullarni o'rganishga bag'ishlangan. Asarda tarixiy kontekst, dolzarb yondashuvlar va xalqaro tajribaning yodgorliklarni saqlash amaliyotiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Asosiy muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda, ular orasida ob'ektlarning haqiqiyligini saqlab qolish zarurati va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish istagi o'rtasidagi ziddiyat mavjud. Samarqand, Buxoro va Xiva misollarini tahlil qilish asosida tarixiy restavratsiya sohasida an'ana va modernizatsiya o'rtasidagi muvozanatga erishish bo'yicha tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: madaniy meros, rekonstruksiya, restavratsiya, renovatsiya, arxitektura yodgorliklari, O'zbekiston, tarixiy meros.

Abstract. The article is devoted to the analysis of the processes of restoration, reconstruction and renovation of architectural monuments of Uzbekistan, as well as the study of methods used to preserve cultural heritage. The paper examines the historical context, current approaches and the influence of international experience on the practice of monument conservation. Special attention is paid to key issues, including the contradiction between the need to preserve the authenticity of objects and the desire to adapt them to modern conditions. Based on the analysis of examples from Samarkand, Bukhara and Khiva, recommendations are formulated to achieve a balance between tradition and modernization in the field of historical restoration.

Key words: cultural heritage, reconstruction, restoration, renovation, architectural monuments, Uzbekistan, historical heritage.

Введение. Узбекистан располагает уникальным архитектурным наследием, включающим памятники исламской, персидской, тюркской, зороастрийской, буддийской и других архитектурных традиций. В течение веков на территории современного Узбекистана создавались выдающиеся архитектурные памятники – мавзолеи, медресе, мечети, караван-сараи и дворцы. Города Самарканд, Бухара, Хива и Шахрисабз являются настоящими музеями под открытым небом, охраняемыми как национальными, так и международными организациями, включая ЮНЕСКО.

Однако время, природные факторы и человеческая деятельность негативно сказываются на состоянии этих памятников. Поэтому вопросы реставрации, реконструкции и реновации культурного наследия становятся особенно актуальными для сохранения идентичности страны и привлечения туристического потока.

На территории Узбекистана сосредоточено более 7 000 зарегистрированных объектов материального культурного наследия. Но есть данные, что по состоянию на 1 января 2023 года в стране насчитывалось **8 210** таких объектов, из них 4 797 — археологические памятники. Их сохранение и сохранение их архитектурной целостности требует системного научного подхода, поскольку памятники, являясь объектами национальной гордости, также формируют имидж страны на международной арене. С начала 2000-х годов наблюдается активизация реставрационных и реновационных работ, многие из которых получили международное признание.

Цель и задачи исследования. Изучить существующие практики реставрации, реконструкции и реновации архитектурных памятников Узбекистана, выявить проблемы и определить эффективные методы сохранения аутентичности при адаптации к современным условиям. Проанализировать конкретные примеры реконструкции памятников; Оценить эффективность применяемых методов;

Выявить существующие вызовы и потенциальные угрозы; Предложить рекомендации по улучшению реставрационной и реновационной политики.

Методы исследования. Благодаря количественному и качественному методам были проведены анализ архивных данных, научной литературы и отчетов реставрационных проектов; изучены конкретные примеры реконструкции в Самарканде, Бухаре и Хиве и Шахрисабзе. Сравнительный анализ позволил сопостаить опыт осуществленных реставрационно-реновационных работ и состояния памятников, не подвергавшихся реконструкции; С помощью наблюдения и исследовательских посещений объектов были собраны данные и описание текущего состояния объектов и выполнены фотофиксации. Также осуществлены опросы реставраторов, архитекторов, представителей Министерства культуры и экспертов ЮНЕСКО.

Основные понятия. Реставрация, реконструкция и реновация — это три ключевых процесса, которые имеют свои особенности и цели в контексте сохранения архитектурного наследия.

Реставрация — это процесс восстановления памятника в его историческом виде с максимальным

сохранением оригинальных элементов. Это означает, что реставраторы стремятся вернуть памятнику его первоначальный облик, используя традиционные материалы и техники, которые были применены при его строительстве. Основная цель реставрации — сохранить аутентичность и историческую ценность объекта.

Реконструкция— это воссоздание утраченных частей памятника, которое часто осуществляется на основе исторических источников, таких как чертежи, фотографии или аналогичные объекты. Реконструкция может включать в себя как полное восстановление утраченных элементов, так и создание новых, которые будут гармонично вписываться в существующую архитектурную структуру. Это важно для восстановления исторической целостности объекта и его функциональности.

Реновация — это более широкое понятие, которое включает в себя адаптацию исторического объекта к современным условиям эксплуатации. Реновация может включать обновление инженерных систем, освещения, инфраструктуры и других элементов, необходимых для комфортного использования памятника в современном мире. При этом важно сохранить историческую ценность объекта, не нарушая его архитектурной целостности.

Примеры успешной реконструкции и реновации в Узбекистане.

Рисунок 1. Сравнение состояния на сегодняшний день фрагментов схожих декоративных элементов архитектуры Медресе Улугбека в Бухаре (XVв.) и Аксарая в Шахрисабзе (XIVв.).

1. **Практика реконструкции в Самарканде**. Исторический центр Самарканда. Период реставрации: 2005–2015 гг.

Работы: реставрация мозаичных фасадов и майолики медресе Улугбека, Шердор и Тилля-Кари. Укрепление фундаментов и фасадов, замена ветхих конструкций,установка подземных инженерных коммуникаций. Реконструкция ансамбля Регистана и Шахи-Зинда велась с использованием традиционных методов (глазурованная майолика, мозайка, ганч, кирпичная кладка) и цифровых технологий (3D-сканирование). Сохранился исторический облик, но инфраструктура модернизирована (освещение, дренаж, навигация).

Финансирование: Государственный бюджет, международные гранты (включая ЮНЕСКО).

Результат: ансамбль признан одним из эталонов комплексной реставрации в Центральной Азии.Сохранён исторический облик, улучшена туристическая инфраструктура.

2. **Реновация в Бухаре.** Реставрация минарета Калян и мечети Калян: 2016–2019 гг.

Комплекс Пои-Калян прошел комплексную реновацию с интеграцией туристической инфраструктуры. Хотя архитектурная аутентичность в целом сохранена, некоторые специалисты выражают обеспокоенность «музеификацией» городской среды.

Работы: Восстановление куполов, укрепление минарета Калян, укрепление кладки минарета, расчистка и реставрация интерьеров мечети, установка систем отвода подземных вод.

Технические достижения: внедрение подвижных платформ для работы на высоте, исследование кирпичной кладки методом рентгено-флуоресцентного анализа. Использование современных технологий: 3D-сканирование, анализ грунтовых вод, применение экологичных материалов.

Проблемы: частичное повреждение фундамента из-за капиллярного поднятия влаги, что потребовало усиления основания.

Финансирование: при поддержке проекта ЮНЕСКО и Исламского банка развития.

3. **Ичан-Кала (Хива).** Годы активной реставрации: 2000–2020 гг.

Программа: "Сохранение исторического центра Хивы" в рамках гранта японского правительства. Проект ЮНЕСКО/Япония по сохранению Ичан-Кала включал консервацию стен, башен, медресе. Работы сочетали аутентичные материалы с современными мерами сейсмозащиты. Подчеркнут баланс между сохранением и жилой функцией старого города.

Работы: Реставрация стен, башен, мечетей, реконструкция внутренних жилых помещений для туристических нужд.

Объекты: крепостные стены, ворота Пахлавон Махмуда, минарет Ислам Ходжи, медресе Мухаммад Аминхана.

Особенности: использование местной глины для возобновления глинобитной кладки, ручная лепка резного декора.

Результат: квартал сохранил жилую функцию, в ряде объектов размещены музеи, ремесленные мастерские и бутик-отели. Создан баланс между сохранением подлинности и созданием условий для жизни местных жителей.

Рисунок 2. Мемориальный комплекс Бахауддина Накшбанди в Бухаре на момент 2024г. после реконструкционных и реставрационных работ, проведенных в 2003г.

4. **Исторический центр Шахрисабза**. Период реконструкции: 2014–2017 гг.

Объекты: дворец Ак-Сарай, мавзолей Джахангира, мечеть Кук-Гумбаз.

Противоречия: проект подвергся критике со стороны ЮНЕСКО из-за масштабной «чистки» прилегающей застройки.

Итог: В 2016 году Комитет Всемирного наследия ЮНЕСКО включил исторический центр Шахрисабза в список объектов Всемирного наследия, находящихся под угрозой, из-за масштабных разрушений и изменений в исторической части города.

Роль международного сотрудничества. ЮНЕСКО и другие международные организации активно участвуют в финансировании и экспертизе проектов по сохранению культурного наследия. Благодаря сотрудничеству с Японией, Китаем, Турцией и ЕС были реализованы десятки проектов по восстановлению памятников.

Исторический контекст. После обретения независимости в 1991 году Узбекистан начал активную работу по сохранению своего культурного наследия. В 1990-е годы было отреставрировано множество знаковых объектов, что стало важным шагом в сохранении исторической памяти и идентичности народа. С начала 2010-х годов в стране начали реализовываться масштабные проекты реновации целых исторических кварталов, что стало важным этапом в развитии туристической инфраструктуры и привлечении иностранных гостей.

Рисунок 3. Состояние архитектурного памятника - Мавзолея Биби-Ханум в 2000г. до и в 2024г. после реконструкционных и реставрационных работ.

Одним из ярких примеров успешной реставрации является проект по восстановлению Регистана в Самарканде, который представляет собой комплекс из трех медресе, построенных в XV-XVII веках. Этот архитектурный ансамбль является символом города и привлекает тысячи туристов со всего мира. В ходе реставрационных работ были использованы традиционные методы и материалы, что позволило сохранить аутентичность памятника. Реставрация Регистана стала не только значимым культурным событием, но и важным шагом к привлечению туристов, что в свою очередь способствовало развитию местной экономики.

Kirish qismi: Maqbaraning mutanosiblik nisbati, naqshlari, turli bezaklari katta mahorat bilan bajarilgan. Tashqi peshtoq darvozasining tepasida me'mor — usta "Muhammad binni Mahmud albanno Isfaxoniy" nomi saqlangan. Keyinchalik maqbara bir necha bor ta'mirlandi, gumbazi qayta tiklanib, xonaqoh va Madrasa qoldiqlari kavlab topildi, ichki va tashqi bezaklar ta'mir etildi. 1941 y.da musulmon odatiga zid ravishda Amir Temur va Ulug'bek qabrlari ochib tekshiri-lib, ular ruhlari bezovta etildi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyoratxonasi baland toqi — ravoqli, tepasi yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashki gumbazi 64 qobirg'ali, baland poygumbaz (diametri — 15 m, bal. 12,5 m)ga o'rnatilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoddiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorsi hovlining sharqiy va g'arbiy tomonlarini egalla-gan. Hovlining jan.da gumbazli maqbara joylashgan. Maqbaraga jan. dan, Ulug'bek qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi.Bugungi kundagi islohotlar, Respublikamiz raxbariyati va xususan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raxnamoligi va tashabbusi bilan mamlakatimizning turli viloyat va tarixiy shaharlarida mavjud bo'lgan me'moriy obidalarni bus-butun holda saqlab qolib, kelgusi avlodlarga yetkazish uchun ularni ta'mirlash, konservatsiyalash hamda ulardan zamonaviy ehtiyojlar uchun samarali foydalanish, bu ehtiyojlarga ularni moslashtirish, ularning atrof-muhitini obodonlashtirish, shuningdek, mudofaa zonalarini tartibda saqlash kabi qator dolzarb va ezgu ishlar navbati bilan o'z yechimini topib, amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda Samarqanddagi Imom al Buxoriy, Imom Motrudiy va Shoxi Zinda ziyoratgohlari singari o‘nlab, hatto yuzlab qadamjolarni obod va ko‘rkam holga keltirish bo‘yicha bajarilgan ishlarni eslash o‘rinlidir.

Asosiy qisimi: Arxitektura-qidiruv ishlari binoning hajmini, konstruksiyasi va ba’zi qismlarining bezaklarini chizmada aniqlash imkonini berdi. To’plangan materiallar planli restavrasiya ishlariga asos qilib olindi. Butunlay buzilib ketgan hovli devorlari qaytadan tiklandi. Natijada arxitektura majmuasidagi inshootlarning qay tartibda tushganligini aniqlash mumkin bo’ldi. Maqbarani esa grafik qayta tishlash va ansabl tarkibiga qo’shish taklif loyihasini ishlab chiqish mumkinDarhaqiqat, o‘tmishdan qolgan tarixiy obidalarni saqlab qolish, ta’milash va ulardan to‘g‘ri foydalana bilish, o‘ta murakkab, nozik did va mahoratni, chuqur bilim va tajribani, yuksak salohayat kerak bo‘lsa, ma’naviy poklikni talab qiladigan serqirra sohadir. Bu sohada qandaydir ikkinchi yoki uchinchi darajali ishning o‘zi yo‘q. “Chunki, bu o‘zbek xalqining moddiy madaniyati, me’moriy yodgordiklarimiz xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va ma’naviyatining yuksalishi bilan bog‘liq masaladir”, degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Krimov.



Aynan shu dolzarb, ya’ni Prezidentimiz aytgan masalaning nozik bir jihati borki, u ham bo‘lsa, arxitekturashunoslik fanida yaxshi o‘rganilmagan, yaqin o‘tmishda mavjud bo‘lgan bizgacha saqlanmagan me’moriy obidalarimizni o‘rganish, ularni ilmiy muomilaga kiritish va xalq orasida ommalashtirish masalasidir. Buning uchun esa ularni o‘rganish uslublari ishlab chiqilmog‘i, ularning eng noyob turlari, xalqimizning madaniyati va ma’anviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan eng ahamiyatli xillari izlab va tanlab olinmog‘i zarur.

Hammamizga ma’lumki, respublikamiz arxitekturashunoslik faniga va xalqimizga asosan o‘tmishdan bizgacha saqlanib kelgan me’moriy obidalar ma’lum va mashhurdir. Ular qatoriga asosan Saroy va arklar, masjid va madrasalar, karvon-saroylar, savdo inshootlari, maqbara va xonaqoxlar, minoralar kiradi. Biroq, tarixiy jamoat hammomlari, shifobaxsh quruq hammomlar, dor ush-shiyolar, garmobalar, obzonlar, sardobalar, yaxtangilar va ularning arxitekturasi haqida kam sonli ziyoli kishilar vash u sohaning mutaxassisligini bo‘lishida xolos. Chunki, ularning aksariyati bizgacha saqlanmagan, saqlanganlari esa afsuski, ommalashtirilmay kelmoqda. Talaba uchun tanlangan mavzu aynan shunday noyob me’moriy obidalarni izlab topish muomalaga Kirishi, ularni grafik rekonstruksiyalash va maketlash orqali o‘rganishga bag‘ishlangan.

Samarqanddagi tarixiy obidalar orasida Amir Temur maqbarasi alohida ahamiyatga ega obidalarimizdan hisoblanadi. Go‘ri Amir (XIV asr oxiri — 1405 y.) — Samarqanddagi me’moriy yodgorlik. Xalq orasida Go‘ri Amir yoki Go‘ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o‘g‘illari Umarshayx, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va b.) dafn etilgan. Boburning ta’kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal’asi janubida Toshqo‘rg‘on — chaqarda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo‘lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara Madrasa hovlisining to‘riga bunyod etilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoldiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorsi hovlining sharqiy va g‘arbiy tomonlarini egallagan. Hovlining janubida gumbazli maqbara joylashgan. Maqbaraga janunidan, Ulug‘bek qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyoratxonasi baland toqi — ravoqli, tepasi yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashqi gumbazi 64 qobirg‘ali, baland poygumbaz (diametri — 15 m, bal. 12,5 m)ga o‘rnatilgan. Ziyoratxona o‘rtasidagi marmar panjara bilan o‘ralgan murabba xazira sahniga qator qabrtoshlar qo‘yilgan. Yuqorisi (to‘ri)da Amir Temurning harbiy yurishlarida unga hamroh bo‘lgan va uning yuksak hurmatini qozongan Mir Sayyid Baraka sag‘anasi joylashgan. Sayyid Baraka qabrining oyoq tomoniga Amir Temurning o‘zi dafn qilingan. Uning uch tomonida Muhammad Sulton, Mironshoh, Umarshayx qabrlari bor. Keyinchalik bu yerga Temurning nabiralari va evara-larining qabr toshlari qat’iy tartibda joylashtirilgan. Temur sag‘anasiga qo‘yilgan ko‘k nefrit qabrtoshini Ulug‘bek Mo‘g‘ulistonga qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshdagi lavhada Temurni ulug‘laydigan so‘zlar, uning shajarasi hamda marsiyalar o‘ymakori yozuvlarda bitilgan. Hamma sag‘analar Ulug‘bek tomonidan yaxlit o‘yma marmar panjara bilan o‘ralgan. Ziyoratxonaning sharqiy qismidagi ravoqdan zina orqali ostki qavatidagi go‘rxonaga tushiladi.

Go‘rxona sakkiz qirrali. Undagi sag‘analar yuqori qavatda qanday joylashgan bo‘lsa, bu yerda ham shu tartibda joylashgan. Ziyoratxonadagi qabrtoshlarning har biri yuksak san’at asaridir. Ziyoratxona serhasham bezaklarga boy. Bo‘rtma bezak kundallar zaminiga lojuvard rang gullar ishlangan. Izorasi yashil toshdan girih shaklida terilgan. To‘rtta chuqur ravoqlardagi darchalarga o‘sha vaqtda rangli oyna o‘rnatilgan. Oltin

va kumush qandillardagi shamlar yonganda ziyoratgoh ichkarisi ulug‘vor va afsonaviy tus ol-gan. Tashqarisi sirkor g‘ishtchalar bilan bezatilgan. Gumbaz va uning poyidagi bezaklar, turli arabiy yozuvlar alohida ko‘zga tashlanadi. Maqbara darchalarida yog‘ochdan ishlangan nafis panjaralar, eshiklarida esa murakkab qo‘sh zaminli o‘ymakor bezaklar bo‘lgan. Maqbaraning g‘arbiy tomoniga baland peshtoq yondashgan. Taxminlarga ko‘ra bu peshtoq qoldiqlari XVII asrga mansub.

Maqbaraning mutanosiblik nisbati, naqshlari, turli bezaklari katta mahorat bilan bajarilgan. Tashqi peshtoq darvozasining tepasida me’mor — usta "Muhammad binni Mahmud albanno Isfaxoniy" nomi saqlangan. Keyinchalik maqbara bir necha bor ta’mirlandi, gumbazi qayta tiklanib, xonaqoh va Madrasa qoldiqlari kavlab topildi, ichki va tashqi bezaklar ta’mir etildi. 1941 y.da musulmon odatiga zid ravishda Amir Temur va Ulug‘bek qabrlari ochib tekshirilib, ular ruhlari bezovta etildi.



Markaziy Osiyo me’morchiligining noyob asari sifatida e’tirof etilgan **Amir Temur maqbarasi**ning qurilishi 1403-yilda boshlanib, 1424-yilda tugatilgan. Maqbara Amir Temurning taxt vorisi, deb e’lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirilgan. Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. Shahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning xonaqosida dafn qilinadi. Egallaydi. Gumbazda jez, lojuvard va tillo suvlari ishlatilgan.Dastlab maqbaraga shimoliy eshikdan kirilgan. Mirzo Ulug‘bek tomonidan sharqiy eshik 1425-yilda ochilgan, chunki Mir Sayyid Barakaning bosh tomonlaridan kirishni Mirzo Ulug‘bek hurmatsizlik deb hisoblagan. 1868-yilda Chor Rossiyasi istilosi yillarida maqbara darvozalari o‘g‘irlab ketilgan. Sohibqiron Amir Temur saroyi darvozalaridan biri Londonda, yana biri Ermitajda va uchinchi eshik esa

Amir timur maqbarasini grafik qayta tiklash taklif loyihasi va rejasi



O‘zbekiston madaniyati va tarixi davlat muzeyi fondida saqlanmoqda. Hovlining sharq tomonidagi devor ortida Muhammad Sulton madrasasining qoldiqlari ko‘rinib turadi. Chorsu hovlisining atrofiga ikki qavatli hujralar tushirgan.Madrasaning burchaklarida gumbazli darsxonalar bo‘lgan. Maqbara devorlariga zangori, havo

rang va oq sirli koshinlar qoplangan, bu koshinlar geometrik shaklda terilib, arabcha xat bitilib, ustalik bilan ishlangan. Me'mor bir-biriga mos shakllardan foydalanib, binolarning katta sathlarini mohirlik bilan bezagan.Maqbaraning tashqi tomoni bunyod qilinganda uning gumbaziga katta ahamiyat berilgan. Gumbaz ostki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr bo'lsada, uning og'irligi sezilmaydi. Gumbazning rangbarang qilib ishlanishi

Xulosa

Tarixiy qismi- Go'ri Amir O'rta Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi. Maqbara qurilishi Amir Temur buyru'giga asosan 1403-yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan hamda temuriylar xilxonasiga aylantirilgan. Gumbazlari ikki qavatli va 64 qirralib qilib qurulgan.

Rekonstruksiya va Revtovtartsiya va Konversiya-1916-yilda qabrlar ustidagi qabrtosh qayta qurilib, marmar pollar qayta ishlangan. 1950-yillarda tashqi gumbazlari va ustunlari qayta tiklangan. 1967-yilda (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/1967) Samarqand shahrining 2500 yillik tantanalariga tayyorgarlik munosabati bilan Sh. Rashidov tashabbusi ostida majmuada keng ko'lamli restavratsiya ishlari boshlangan

Turizm salohiyati - Go'ri Amir maqbarisi yodgorligi rekonstruksiya, restavratsiya va konservatsiya turizm saloyihatini oshirishga qaratilgan. Landshafni yangi kurinishi san'at yodgirliklar va turistik joylarni rivojlantirishning turizm potensialini oshirishda o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu loyihaning mohiyati yodgorlikni tarixiy va ekologik qadriyatlarini saqlash, ularni o'ziga xos ko'rinishda tiklash va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar

1. Akobirova D. Yusuf Hamadoniyning "Odobi Tariqat" asaridagi bunyodkor g'oyalar. -Toshkent, 2018. 54-bet.
2. Alisher Navoiy. Vaqfiya. -Toshkent, 1996.
3. Asqarov Sh.D. Arxitetura Temuridov. -Toshkent, 2018.
4. Asqarov Sh.D. Genezis arxitekturi Uzbekistana. -Toshkent, 2014.
5. Axmedov M.K. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi.-T.: O'zbekiston, 1995.
6. Ahmad Muhammad, Mubashshir Ahmad. Islom hazorasi. - Toshkent, 2004.
7. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana // Sobr.soch.v 9 t., T. II (1).- M., 1963.
8. Bartold V.V. Turkmenistan v epoxu mongolskogo nashestviya // Sobr.soch. v 9 t., T.I (1).-M., 1968.
9. Bertels YE.E. Sufizm i sufiyskaya literatura.-M., 1965.
10. Bobur Zahriddin Muhammad. Boburnoma. -Toshkent, 1960.
11. Vakturskaya N.N., Vishnevskaya O.A. Pamyatniki Xorezma epoxi velikix Xorezmshaxov (XII-nachalo XIII v.).//MXE. Vip.I.-M., 1959.-S.162-167.
12. Voronina V.L. Srednovekoviy gorod arabskix stran. -M., 1991.
13. Uralov A.S., Mahmatqulov I.T. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixida tasavvuf va islom allomalarining roli va o'rni // "Shayx Xudaydod Vali ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati" ilmiy amaliy konferensiyasi. -Samarqand: 2017 yil, 17-mart, 114-118-betlar.
14. Uralov A.S., Mahmatqulov I.T. O'rta Osiyo o'tmishidagi tasavvuf tariqatlari va maskanlari-xonaqohlarning hozirgi zamon yoshlarining madaniy-ma'rifiy hayotidagi roli va o'rni// "Milliy yuksalish va èshlarning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-nazariy masofaviy konferensiyasi. -Samarqand: SamDAQI, 2020 yil, 25 aprel, 439-444 betlar.
15. D.G. Zolotozubov, M.A. Bezgodov Rekonstruksiya zdaniy i soorujeniy
16. Travin V.I. Kapitalniy remont i rekonstruksiya jilix i obshestvennix zdaniy: uchebnoye posobiye dlya vuzov. –2-yeizd. –Rostov-n/D.:Feniks, 2013.
17. Ivanov Y.V. Rekonstruksiya zdaniy i soorujeniy: usileniye, vosstanovleniye, remont: uchebnoye posobiye dlya vuzov / Assotsiatsiya stroitelnix vuzov.

UDK: 7.025.4

TURAR - JOY BINOLARINI REKONSTRUKSIYA QILISH JARAYONIDA HAJMIY - FAZOVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH.

Gulyamova F.A.
Doktorant SamDAQU.
Sharifov F.A.
Doktorant SamDAQU.

Shahar - bu butunlay tugallangan, o'zgarmas, turg'un tizim emas. Shahar aholisi uni jamiyatning doimo o'zgarib boruvchi ehtiyojiga moslashtirib borishadi. Bugungi kunda milliy shaharsozlik merosiga munosabat va unga e'tiborni kuchaytirish shahar muhitini shakllantirishning barcha jihatlarini o'zlashtirishni talab qiladi, kelajakda ta'mirchi arxitektorlar qayta qurish metodologiyasiga asoslanib loyiha ishlarni amalga oshirishlari lozim. Hozirgi vaqtda "madaniy meros va tarixiy yodgorliklarni saqlash tushunchasi" o'zgardi. Ilgari madaniy va tarixiy merosni muhofaza qilish tushunchalari alohida-alohida bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda umumiy holda madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish tushunchasiga o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik sohasida 2019-2025-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlanish dasturi" [1] shaharsozlikni takomillashtirish, infratuzilma va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Dastur doirasida Sha-

harlarning tarixiy qismlarini asrab qolish va modernizatsiya qilish, O‘zbekistonning tarixiy shaharlarida tarixiy yodgorliklarni asrab qolish va ularni restavratsiya qilish bo‘yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish kabi ishlar nazarda tutilgan. Bu qarorlar doirasida tarixiy obidalarni tiklash va modernizatsiya qilish, turizmni rivojlantirish maqsadida tarixiy joylarni kengaytirish, mahalliy aholi uchun yashash sharoitlarini yaxshilash kabi vazifalar belgilangan. O‘zbekiston shaharsozlik sohasida qabul qilingan qarorlar va dasturlar shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, tarixiy merosni asrab qolish va ekologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan.

Shahar aholi punktlarining turar-joy hududini rejalashtirish tuzilmasini jamoat markazlari, turar-joy binolari qurilishi, ko‘cha-yo‘l tarmog‘i, ko‘kalamzorlashtirilgan umumiy foydalanish hududlari, mehnat qilish joylari zonalarining o‘zaro bog‘liq joylashuvini hisobga olgan holda, shuningdek aholi punktining kattaligi va hududining tabiiy xususiyatlariga asoslangan holda, uning umumiy rejaviy tuzilmasiga bog‘lab shakllantirish kerak.

Qayta qurish jarayoni, qoida tariqasida, shaharning barcha zonalarining o’zaro bog’liqligi va o’ziga xos xususiyatlarini oldindan aniqlash orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun, loyihani tuzishdan oldin shaharning tarixiy tuzilishini o'rganish, to'liq material to'plash va loyihalash zarur. Natijada materiallar to'plami yaratiladi, uning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va barcha binolarining tarixiy me'moriy qiymati to'g'risida ma'lumot berish imkoni yaratiladi. Ushbu jarayonda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish asnosida, saqlash imkoniyati mavjudligini aniqlash, tarixiy rejalashtirish tuzilmasini tiklash, shahar yoki uni o'zgartirish zarurati, binolarni kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish, tiklash yoki buzish to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi [2].

Tarixiy shahar muhitini qayta qurish ma'lumotlar asosida quyidagilar ishlab chiqiladi:

- shaharni rivojlantirishning bosh rejasi;
- mahallalar joylashgan tumanni rejalashtirish loyihasi, shahar va uning markazini istiqbolli rivojlantirish gipotezalari;
- turar-joy mahallalarining mavjud holati keng qamrovli tekshiruv ishlari natijasida olingan tahlillar.

Mavjud vaziyatni o'rganish joriy qurilish muhitining qanday saqlangan, qanday yo'q qilingan va qanday yangi xususiyatlari bo'lishi kerakligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Texnik, shaharsozlik, ijtimoiy va ekologik omillarning umumiyligini baholash asosida loyiha hujjatlarini shakllantirish uchun turar-joy binolari va ularning alohida uchastkalarini rekonstruksiya qilishda kompleks yondashuv tamoyillari va metodologiyasi ishlab chiqilgan. Turar-joy qurilishi va uning alohida ob'ektlarini dastlabki baholashga tizimli yondashuv taklif etiladi, rekonstruksiya turlari bo'yicha qabul qilingan qarorlar toifalariga bo'linadi.

Tarixiy turar-joylarni tadqiqot qilish jarayonida shaharning tarixiy turar-joy binolarini kompleks rekonstruksiya qilishni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

– funksional maqsadni saqlab qolish yoki o'zgartirish va binolarni qayta qurish bilan binolarni rekonstruksiya qilish;

– shahar markazini dekondensatsiya qilish va binolar o'rtasidagi katta bo'shliqlar bilan rivojlanishni zichlashtirish, shu jumladan buzish, yangi qurilish, ko'chirish, qo'shimchalar kiritish va binolarni balandligini (belgilangan norma ya’ni tarixiy shaharda 12 metrdan oshmasligi zarur) qo'shimcha ko'tarish;

– binolar va binolarning tashqi ko'rinishini yaxshilash, shu jumladan mahalliy hududlarni obodonlashtirish, qayta rejalashtirish va konstruksiya elementlarini almashtirish bilan kapital ta'mirlash;

– arxitektura yodgorliklarini konservatsiya qilish;

– binoni qayta qurish.

Turar-joy binolarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihaviy yechimlarni, jumladan, kompyuter yordamida matematik modellashtirish uchun taklif etilayotgan algoritmlarni izlash metodologiyasi ishlab chiqiladi, bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Metodikaning asosi turar-joy binolari va binolarning holatini o'rganish bo'lib, uning asosida loyiha konsepsiyasi ishlab chiqiladi;

– Uy-joy qurilishiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga muvofiq, loyihaviy binolarning mumkin bo‘lgan kombinatsiyalari aniqlanadi va zamonaviy kommunal uy-joylarning barcha rejalashtirish yechimlarini tashkil etuvchi kvartiralarning turlari belgilanadi;

- Kvartiralarning kombinatsiyalarini bo'limlarga birlashtirishda ma'lum miqdordagi konstruktiv elementlarni aniqlash imkonini beradi, ularning yordami bilan turar-joy binolarining barcha turdagi sxemalari yig'iladi;

- Strukturaviy elementlar majmuasi asosida ma'lum qadamlar va oraliqlar uchun turar-joy binolari optimal rejalashtirish yechimlarini avtomatik tanlash algoritmi ishlab chiqiladi.

Shahar aholisining manfaatlaridan kelib chiqqan holda va shahar iqtisodiy ko’rsatkichlarini hisobga olgan holda yashash muhitini kompleks o'zgartirish maqsadga muvofiqdir.

Qayta qurish loyihasining quyidagi asosiy maqsadlarini ajratib ko'rsatish kerak:

1) turar-joy binosida va turar-joy sharoitida aholi uchun qulay yashash sharoitlarini ta'minlash;

2) shaharsozlikning barcha elementlarini samarali ishlashi uchun shaharsozlikning zaruriy shartlarini yaratish;

3) shahar muhitini yaxshilash;

4) shaharning yuksak me’moriy-badiiy qiyofasini ta’minlash.

O'rnatilgan va yangi hududlarda yashash sharoitlarining alohida tarkibiy qismlarining sifatini bir-biriga tenglashtirish mumkin emas, ularni rekonstruksiya qilishda dastlabki rivojlanish shartlaridagi farqlarni hisobga olish zarur. Shu sababli, mavjud hududlarni yangilash va rekonstruksiya qilishdan maqsad yashash sharoitlarining har bir tarkibiy qismi sifatining yangi hududlar uchun standart

ko'rsatkichlarga to'liq mos kelishiga erishish emas, balki yangi hududlar uchun mo'ljallangan yashash qulayligi bilan taqqoslanadigan shart-sharoitlarni yaratish bo'lishi kerak. Bunda ayrim shart-sharoitlar ko‘rsatkichlaridagi nomuvofiqliklar, masalan, yashil maydonlar miqdori yangi maydonlar foydasiga eski hududlarda turli madaniy va maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining foydalanish imkoniyatini yaxshilash shart-sharoitlari bilan qoplanishi kerak.

Belgilangan maqsadlarga muvofiq, shaharsozlik holatini tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash va uni amalga oshirish kerak. Shahar yoki tumanni rekonstruksiya qilish, bu fondning holatini, qurilgan yilini, jismoniy eskirish foizini, obodonlashtirish darajasini tavsiflovchi zarur ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashni o'z ichiga oladi, shuningdek, turar-joy muhitining holati - hududlarni obodonlashtirish darajasi, dam olish maskanlari, yashil maydonlarning mavjudligi, sanitariya-gigiyena xususiyatlari (gazning ifloslanish darajasi, hududlardagi shovqin darajasi, insolyatsiya darajasi), turar-joy binolari o'rtasidagi aloqa qulayligi.

Shaharning asosiy mehnat va madaniy-ijtimoiy markazlari, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan turar-joy massivlariga xizmat ko'rsatish darajasi, umumiy ovqatlanish va savdo tarmog'i, tibbiyot muassasalari 1000 aholiga aniq haqiqiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Haqiqiy ko'rsatkichlarni standart ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, haqiqiy vaziyat va kerakli holat o'rtasidagi nomuvofiqlik rekonstruksiyaning asosiy muammolarini aniqlash imkonini beradi.

Tarixiy turar-joylarni qayta qurishda xorijiy tajribani ko’rib chiqadigan bo’lsak, Bokudagi tarixiy shaharni qayta qurish maqsadlarini ko’rish mumkin. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, shaharsozlikning eng og’ir muammolari yashash muhitini o'zgartirish va turar-joy binolarini rekonstruksiya qilishdir. Boku shaharlarining markaziy hududlari 90% gacha tarixiy asosda tashkil etilgan.

Shahardagi asosiy muammolar quyidagilar:

- ✓ shahar rivojlanishi yuqori foizga ega;
- ✓ binolar jismoniy va ma'naviy buzilish ara-fasida;
- ✓ shaharning bir qismi tarixiy, me'moriy qiziqish uyg'otadi va saqlashni talab qiladi [3].

Qurilishni amalga oshirish shartlariga ko’ra yirik shaharlar markazlarida rekonstruksiya ishlari sezilarli darajada murakkablashdi, binoning zichligi, shuningdek, yangi qurilish uchun yuqori me'moriy va badiiy talablar mavjud. Markaziy hududlarda kichik o'lchamdagi qurilishlar ustunlik qiladi, buning natijasida kichik yakka tartibdagi binolar quriladi, ularni ishlab chiqish alohida loyihalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda, yangi qurilish qiymati bo'sh joylarda qurilish bilan solishtirganda 1,5-2 barobarga ortadi.

Maqsadli rekonstruksiyani amalga oshirish uchun quyidagilar bo'lishi kerak:

- yashash muhitini funksional va arxitektura-makoniy tashkil etish usullari;
- rekonstruksiya maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan dizayn yechimlari;
- dizayn yechimlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan boshqaruv shakllari;
- moddiy-texnika resurslari.

Mavjud turar-joy binolarini rekonstruksiya qilishning uzoq muddatli konsepsiyasini shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillardan kelib chiqish kerak:

1) yirik va yirik shaharlarda rekonstruksiya miqyosi va hajmiy-fazoviy o'zaro bog'langan aholi punktlarida shaharlarning rivojlanishini hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Shahar markazini rivojlantirish uchun hududlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olish kerak, jamoat transporti uzellarini va avtomagistrallarni shakllantirish uchun tizim markazining funksiyalarini bajaradi. Rekonstruksiya qilinayotgan hududlarni rivojlantirish jadalligi shakllanayotgan tizimlar miqyosida hududdan foydalanishning umumiy siyosati doirasida belgilanishi kerak;

2) markaziy yashash muhitini yaxshilashning eng muhim vositasi shahar tumanlari, ularning tarkibiy va rejalashtirish tashkiloti bo'lishi kerak, shu jumladan turar-joy va turar-joylarning oqilona nisbati o'rnatilishi kerak. Jamoat joylari, turar-joy binolarini ajratish, aholining kundalik ehtiyojlarini qondira olishi, ko'p funksiyali foydalanishni hisobga olgan holda dam olish, xizmat ko'rsatishda bo'sh joy;

3) mavjud moddiy resurslardan foydalanishni faollashtirishning zamonaviy talablaridan kelib chiqqan holda, yashash uchun yaroqli zaxirani maksimal darajada saqlash va uni yaxshilash zarur;

4) aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun rejalashtirish tizimini tartibga solish masalalarini o'zaro bog'liq holda hal qilish zarur;

5) belgilangan maydonlarni tashkil etish va saqlanib qolgan uy-joy fondini modernizatsiya qilish.

Yashash muhitini yaxshilashga tartiblilik orqali erishish kerak, belgilangan hududlarning tarkibiy va rejalashtirish tashkil etilishini baholash, muayyan hududlarda qurilish zichligini tartibga solish lozim. Bino zichligi va yangi uy-joy hajmlarini joylashtirish bo'yicha cheklovlar qo’yilishi kerak.

Turli o'lchamdagi shaharlarda guruhlash tizimi saqlanishi kerak, bunda tarixiy muhitni tashkil etuvchi yoki turli hududlarda uning o'ziga xosligini aniqlaydigan eski shahar kam qavatli binolar bloklari saqlanishi kerak. Yashash muhitini yaxshilash mavjud qurilishni tarkibiy va rejalashtirishni tashkil etishni, fond va hududlarni qo'shimcha muhandislik jihozlarini tartibga solish orqali ta'minlanishi kerak.

Qayta qurishning ustuvorligini aniqlashda quyidagi asosiy mezonlarga amal qilish kerak:

– Birinchi navbatda mintaqa, shahar, tizimning mavjud va kelajakdagi funksional va arxitektura rejalashtirish tuzilmasidagi shaharsozlik ob'ektlari asosiy o'rinni egallaydi;

– bir-biriga bog'langan aholi punktlari, shuningdek, ish sharoitlari eng yomon bo'lganlar (ortiqcha yuklangan jamoat transporti markazlari, qimmatbaho binolar vayron bo'lgan tarixiy hududlar);

– Muhim omil - yirik shaharsozlik majmualarini (shahar, tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalari asosida va shaharsozlik organlarida belgilanadigan), masalan, rejalashtirish zonalari markazlarini yaratishning funksional zarurati;

– yirik sport, ilmiy, turar-joy majmualari;

– Ustuvor ro'yxatga rekonstruktsiyasi eng katta iqtisodiy samara beradigan ob'ektlar kiritilishi kerak. Masalan, rivojlangan infratuzilmaga ega hududlar, shahar nuqtai nazaridan qulay joyni egallash, shuningdek, hududlarda qayta qurish eng kam buzilishni o'z ichiga oladi;

– shahar muhitida o'zgarish tezligi va ko'lami, buni qo'llash zarurati mezoni, ayniqsa yirik shaharlarda, turli xil sharoitlarda sodir bo'ladigan jarayonlarning yuqori va ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan dinamikasi bilan belgilanadi;

– atrof-muhit, masalan, turar-joy binolari va doimiy binolarni kengaytirib, egallagan va shu bilan rekonstruksiya qilishning taxminiy davri uchun rejalashtirilganini buzadigan muassasalar va xizmatlarning rivojlanishi;

– hududdagi funksiyalarning o'zaro bog'liqligi va uning arxitektura-rejalashtirish yechimi.

Uy-joy fondi muammolarini hal qilish yashash muhitining sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash, bu birinchi navbatda shahar faoliyatining ortib borayotgan konsentratsiyasi bilan bog'liqdir.

Rekonstruksiya jarayonida yirik shaharlar markazlarida, hududlarda shovqin va ekologiya ifloslanishiga qarshi kurashish uchun moddiy-texnika vositalarining yetarli emasligi, shu bilan birga, rekonstruksiyani loyihalashda shuni hisobga olish kerakki, mavjud turar-joy binolarini o'zgartirish orqali aholini o'zaro bog'langan aholi punktlari tizimida qayta taqsimlash nuqtai-nazaridan shaharlarning eng muhim milliy iqtisodiy muammolarini hal qilish mumkin.

Bundan tashqari shaharga kiruvchi migratsiyani kamaytirish jarayonlari, mehnatga layoqatli aholi bandligini oshirish mumkin, yanada qulay ishlanmalarni yaratishga va uy-joy fondi tarkibini maqsadli shakllantirish mumkin.

Shaharlarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini saqlash va rivojlantirish uchun tarixiy binolarni saqlanishi, yangilanishi va foydaliligi bilan qat'iy ta'minlanadi.

Tarixiy muhitidan foydalanish borasidagi muammolarni to'liq hal qilish uchun ratsionallikka asoslangan tarmoqlararo yondashuv doirasida, shaharsozlik, tashkiliy, texnik va boshqa tadbirlarning o'zaro bog'liq kombinatsiyasini yaratish lozim.

Mavjud binolarni yangilash uchun ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va shaharsozlik omillarining ta'siri, tendentsiyalari aniqlanadi. Shahar rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy omillar orasida quyidagilarni hisobga olish kerak:

- me'yorning o'sishi;
- uy-joy xavfsizligi;
- yashash muhiti sifati uchun ijtimoiy standartlarning o'sishi;
- shahar aholisining qarishi;
- ishlab chiqarish va aholining kontsentratsiyasi.

Yashash sharoitida qulaylik tushunchasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradigan jarayondir, bunda yangi uy-joy qurilishida qulaylik mukammal ravishda taqdim etiladi. Shu bilan birga, "yashash muhitini yaxshilash" maqsadlarini belgilashda vaziyatdan kelib chiqish kerak. Yashash qulayligi o'zaro bog'langan tizimdir, bir-birini to'ldiradi va ma'lum darajada bir-birini qoplaydigan shartlar majmuiga bog'liqdir. O'rnatilgan va yangi hududlarda yashash sharoitlarining alohida tarkibiy qismlarining sifatini bir-biriga tenglashtirish mumkin emas, ularni rekonstruksiya qilishda dastlabki rivojlanish shartlaridagi farqlarni hisobga olish zarur. Shu sababli, mavjud hududlarni yangilash va rekonstruksiya qilishdan maqsad yashash sharoitlarining har bir tarkibiy qismi sifatining yangi hududlar uchun standart ko'rsatkichlarga to'liq mos kelishiga erishish emas, balki yangi hududlar uchun mo'ljallangan yashash qulayligi bilan taqqoslanadigan shart-sharoitlarni yaratish bo'lishi kerak.

Adabiyotlar.

1. SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik sohasida 2019-2025-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlanish dasturi"

2. Чернявская, Е. М. Реконструкция городской среды: учеб.

пособие / ФГБОУ ВО «Воронежский государственный технический

университет». - 2-е изд., стереот. - Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2020. - 82 с.

3. Каюмов Х.И., Фозилова З.К. Реконструкция городов. Учебник. Самарканд 2025.

4. Asatov N. A. "Bino va inshootlarni ta'mirlash, qayta qurish" darslik. Jizzax 2021.

5. Каюмов Х.И. Проектирование многофункциональных зданий. Учебное пособие. Самарканд: СамГУ 2024. 168 с.

6. Fozilova Z.Q. "Samarqand -tarixiy shahar muhitini saqlash muammolari" Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy-texnik jurnal. Samarqand. 2022, №4 (1-qism) 85-87 bet

UDK 72.03

SUFIYLIK MASKANLARI XVIII – XX ASR QORAQALPOG‘ISTON ME’MORCHILIGINI O‘RGANISH

Imamov Quralbay Turganbaevich
Toshkent arxitektura qurilish unversiteti, tayanch doktaranti (PhD). (O`zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istondagi XVIII-XX asrlardagi saqlanib kelayotgan, sufiylik maskanlarining ayrimlarining hozirgi kundagi ahvoli, ularning tarixdagi o‘rni. Sufiylikka oid bo‘lgan yodgorliklarni, oz davrida qanday vazifalarni bajarganligi va hozirgi kundagi haqiqiy ahvoli bilan tanishish. Qoraqalpog‘istondagi XVIII-XX asrlarga tegishli bo‘lgan yodgorliklarda bor bo‘lgan mavjud muammolar, undan tashqari ta’mirlash va konservatsiya qilish masalalari.

Abstract: This article examines the current state of some surviving Sufi settlements in Karakalpakstan in the 18th and 20th centuries, their place in history. To familiarize oneself with Sufi monuments, the tasks they performed during their short period, and their current state. Existing problems in monuments dating back to the 18th-20th centuries in Karakalpakstan, as well as issues of restoration and conservation.

Аннотация: В этой статье рассматривается современное состояние некоторых суфийских поселений, сохранившихся в Каракалпакстане в XVIII-XX веках, их место в истории. Знакомство с суфийскими памятниками, с тем, какие функции они выполняли в свое время, и с их настоящим состоянием. Существующие проблемы в памятниках XVIII-XX веков в Каракалпакстане, кроме того, вопросы реставрации и консервации.

Kalit so'zlar: Sufiylik, madaniy meros, obida, madrasa, me’morchilik, yodgorlik, konservatsiya, ta’mirlash

Key words: Sufism, cultural heritage, monument, madrasa, architecture, monument, conservation, renovation

Ключевые слова: Суфизм, культурное наследие, памятник, медресе, архитектура, памятник, сохранение, ремонт

Qoraqalpog‘iston o‘zining boy madaniy merosi, tarixi va an’analari bilan O‘rta Osiyoning eng o‘ziga xos hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hududning diniy va madaniy hayotida sufiylik katta ahamiyat kasb etgan bo‘lib, XVIII-XX asrlarda bu ta’sir me’morchilikda ham o‘z aksini topgan. Sufiylik, insonning ma’naviy kamolotga erishishi yo‘lidagi ichki sayohatini targ‘ib qilgan diniy oqim sifatida, jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Aynan shu davrda Qoraqalpog‘istonda qurilgan sufiylik maskanlari mintaqaning diniy va ijtimoiy hayotida markaziy o‘rin tutgan, ularning me’morchiligi esa bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ushbu maqola Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi sufiylik maskanlari me’morchiligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu obidalar orqali mintaqaning diniy va madaniy rivojlanishini tahlil qilishni maqsad qiladi. Bu davrda qurilgan maskanlarning me’morchilik uslublari, bezak elementlari va maketlari, ularning diniy vazifalariga mos ravishda shakllangan, Shuningdek bu maskanlardagi arxitekturaviy yodgorliklar, sufiylik ta’limotining jamiyat hayotiga qanday ta’sir qilganligini ham ochib beradi.

Maqolada avvalo Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi tarixiy va madaniy konteksti yoritilib, bu davrda mintaqada qanday ijtimoiy va diniy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi o‘rganiladi. Keyin esa, sufiylik maskanlarining me’morchilik xususiyatlari, ularning uslublari, maketlari va ichki bezaklari tahlil qilinadi. Ushbu maskanlar, nafaqat o‘z davrining me’morchilik namunasi, balki diniy-madaniy hayotning aks-sadosi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Sufiylik maskanlarining o‘rganilishi bugungi kunda nafaqat tarixiy va madaniy jihatdan, balki mintaqaning turistik salohiyatini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu maskanlarning qiyosiy tahlili orqali, ularning boshqa diniy arxitektura namunalaridan qanday farq qilishini aniqlash mumkin, bu esa me’morchilik tarixini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Shuningdek, maqolada, sufiylik maskanlarining zamonaviy jamiyatda qanday saqlanib qolganligi va ular bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish muammolari ham ko‘rib chiqiladi.

Qoraqalpog‘iston hududi boy madaniy va tarixiy merosga ega bo‘lib, uning o‘ziga xos me’morchilik an’analari mintaqaning umumiy madaniy ko‘rinishini belgilab bergan. XVIII-XX asrlar davomida Qoraqalpog‘istonda sufiylik keng tarqalgan bo‘lib, Qoraqalpog‘istondagi ko‘pgina tumanlardagi XVIII –XX asrlarga mansub bo‘lgan obidalar, bugungi kunda bu maskanlar nafaqat diniy obidalar sifatida, balki tarixiy va madaniy yodgorliklar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi sufiylik maskanlari me’morchiligini o‘rganish, ushbu vohadagi shu asrga tegishli bo‘lgan obidalarning qanday ko‘rinishda bo‘lganligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot, sufiylik maskanlarning me’morchiligidagi qurilishlarini aniqlash, yodgorliklarning hozirgi ko‘rinishidan kelib chiqqan holda saqlab qolish masalasini ko‘rib chiqish, ta’mirlanishi kerak bo‘lgan yodgorliklarga tavsiyalar berishdan iborat.

XVIII-XX asrlarda Qoraqalpog‘istondagi sufiylik maskanlarining qurilishidagi rivojlanish jarayonlari va ularning me’morchilikka ta’sirini aniqlash.

• Sufiylik maskanlari Qoraqalpog‘istondagi qaysi tumanlarida XVIII asrlardan boshlab qurilishlarini boshlaganligini aniqlash.

• Sufiylik maskanlarining bugungi kunda qanday saqlanib qolganligini, ularning restavratsiya va konservatsiya jarayonlarini o‘rganish. Shuningdek, bu maskanlarning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini baholash.

Tadqiqot natijalari asosida, bu maskanlarning ilmiy va madaniy ahamiyatini belgilash, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadqiqotlarni belgilab olish va turizm uchun kerakli bo‘lgan loyihalardan kengdan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar orqali tadqiqot Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX asrlardagi sufiylik maskanlari me’morchiligini har tomonlama o‘rganish va uning tarixiy hamda madaniy meros sifatidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Qoraqalpog‘iston hududida ko‘p asrlar davomida turli xil dinlar o‘z hukmronligini qilgan, shu singari Islom dini ham o‘z asrining buyuk dinlari qatorida bo‘lib keldi. Islom dini ilmiy tadqiqotchilarning mavzusi sifatida turli soha olimlari – islomshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, etnograflar, antropologlar, siyosatchilar va izlanuvchilar shu dinga yaqin bo‘lgan barcha yo‘nalishlarning ko‘pchiligi ilmiy izlanishlar olib borgan, shular singari arxitektorlar ozlarining obyektlaridagi Islom dinining o‘ziga xos tomonlarini o‘ranish, islom me’morchiligini hozirgi kungacha qanday ko‘rinishda ekanligini bilish va sufiylik maskanlari hozirda qanday ahvolda ekanligini, ularni qanday saqlab qolish bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ko‘pchilik olimlarimizning ilmiy izlanishlariga tayana o‘tirib hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston hududida saqlangan sufiylik maskanlari juda ko‘plab topiladi, ularning oldi qatorlarida XI-XIII asrlarga oid yodgorliklar ya’ni “Xalifa Erejep maqbarasi” (Xojali tumani) XV-XVII asrlarga oid yodgorlik undan tashqari “Daukesken” (Qo‘ng‘irot tumani), 1875 “Rizoquli-Mirzo Chimboy shahri ikkita maktab” unda boshqada yozba manbalarda korishimiz mumkun bolgan sufiylik maskanlariga oid bo’lgan yodgorliklar mavjud.

Qoraqalpog‘istondagi XVIII-XX asrlarga oid tarixi, arxeologik va aritekturaviy yodgorlikalarning aksariyati sufiylik maskanlari me’morchiligi bilan bog`liq, shunki qaysi arsdagi yodgorliklarni olib qaraydigan bo’lsak ham ularning ko’pchiligida diniy bog’liqliklarni ko’rishimiz mumkin, misol tariqasida oladigan bo’lsak Qoraqalpog‘istonning XVIII-XX arslardagi yodgorliklarning ko’pchiligida Masjid, Madrasa, Maqbara, Gumbazlarni ko`rishimiz mu`mkin.

Yozma manba’larni ko’radigan bo’lsak Qoraqalpog‘istonning birgina Chimboy tumanida 1896 yilda 58 ta madrasa bo’lib unda 1000 dan ortiq shogirt diniy ta`lim olgan. Ta`lim olgan o’quvchilarning 22 tasi Chimboy tumanidagi madrasalar ro’yxatiga kiritilgan. Hozirgi kunda yo’qolib ketish arafasida turgan, chekka chekka hududlardagi XVIII asrlarga tegishli bo’lgan masjid, madraslarni ko’rishimiz mumkun. Ushbu ma’lumotlar bir tuman bo’yicha olingan bo’lsa undan tashqari, Qoraqalpog‘istonning boshqada tumanlaridagi XVIII-XX asrdagi sufiylik maskanlari me’morchiligiga oid yodgorliklarni juda ham ko`plab uchratamiz. Qoraqalpog‘istonda hozirgi kunda saqlanib qolgan XVIII-XX asrlarga oid yodgorlilardan **Xo‘janiyoz biy madrasasi yoki “Tas madrasasi”**, ushbu yodgorlik 1841-yilda Xiva xonining ruxsati bilan Qipchoq bek Xo‘janiyoz biy tomonidan hozirgi Amudaryo tumanida qurilgan. Yodgorlik keyinchalik sovet hukumati tomonidan vayron qilinganligi haqida aytilgan. Ushbu madrasada 20 dan 30 gacha o’g‘il bolalar diniy ta’limot olgan. Yodgorlikda Xorazmining shu davrning o‘ziga xos ko‘rinishdagi madrasasi bo‘lganligi haqida, obidaning tarhidan ko‘rish mumkin, yodgorlikning ichida ko‘pgina xonalarning bo‘lganligi ko`rsatilgan. Ushbu yodgorlik hozirgi kunda tashlandiq holga kelib qolgan.

Xo‘janiyoz biy madrasasi yoki “Tas madrasasi” foto surat

Qoraqalpog‘istonda hozirgi Kegeyli (Xalqobod) tumanida yaxshi saqlanib qolgan sufiylik maskanlaridan Ishon qala Kompleksdagi madrasa, XVIII asrda oid bo‘lgan yodgorliklardan biri bo‘lib, qurilishi jihatidan qaraydigan bo‘lsak paxsadan qurilgan, yodgorlikning o‘lchamlari yozma manbalarda keltirilishi bo‘yicha 68x35 ko‘rinishda deya ta’riflangan. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istondagi XVIII-XX asrlardagi saqlanib kelayotgan, sufiylik maskanlarining ayrimlarining hozirgi kundagi ahvoli, ularning tarixdagi o‘rni. XVIII-XX asrlarga tegishli bo‘lgan yodgorliklarda bor bo‘lgan mavjud muammolar, undan tashqari ta’mirlash va konservatsiya qilish masalalari. Yodgorlik hozirda juda achinarli ahvolga kelib qolgan, ushbu hududda yashab kelgan xalq aytishiga qaraganda, obidaga ko‘p vaqtlar xesh kim e’tibor qaratmaganligi haqida gapirib otadi.

Ishon qala kompleksining ko‘rinishi

Obidaga e’tibor berilib, uni qayta ta’mirlash ishlari olib borilishi kerak. Yodgorlikning joylashgan o‘rni juda yaxshi o‘rindaligi, turizm uchun ham samarali foydalanishga juda yaxshi imkonini beradi. Yodgorlikning atrofi qabristonga aylantirilgan,

mahalliy aholi tomonidan “Ishon qala” qabristoni deb nom olgan. Yodgorlikning atrofi qabristonga aylantirilgan, mahalliy aholi tomonidan “Ishon qala” qabristoni deb nom olgan.

Qoraqalpog‘istonning hozirgi Bozatov tumanida joylashgan **Qaraqum ishon madrasasi**,



Qaraqum ishon madrasasining tarhi

XVIII-XIX asrlarning sufiylik maskanlaridan biri bo‘lib, bu yodgorlik 1853-yillarda qurilgan. Yodgorlik o`z davrdagi boshqa yodgorliklarga qaraganda murakkab va katta diniy markaz vazifasini bajarganligi bilan ajralib turgan, undan tashqari bu joyda qoraqalpoq bolalaridan tashqari turkman, qozoq, o‘zbek, bolalariga ham diniy ta’lim berganlar. Obidaning o’quv xonalardan tashqari yirik kitobxonalari bo‘lganligi haqida aytilgan. Hozirgi kunda ushbu yodgorlik katta ochiqlikda bo‘lganligi sababli tabiiy iqlim muammilari yani shamol va boshqa ta’srlar bilan o‘zining tarixiyligini yo‘qotmoqda.

Shunday yodgorliklardan bir hozirgi Qorao‘zak tumanida joylashgan **Abdikerim Axuna madrasa**si hozirda ushbu madrasa “AK masjid” deb ham nomlangan. “Kos masjid” (o‘sgan masjid) nomi ham saqlanib qolgan, u qo‘shimcha bino qo‘shilganidan keyin o‘quvchilar soni ko‘payganligi sababli paydo bo‘lgan. Madrasa bir necha bosqichda, asosan loy devorlaridan qurilgan. Binoda atigi 40 ga yaqin xona mavjud ushbu yodgorlik bolalarga dini talim bergan va boshqada maqsadlarda foydalanilib kelgan, yodgorlik hozirda ta’mir talab ahvolga kelib qolgan.

Abdikerim Axuna madrasasi tarhi va hozirgi ko`rinishi

Suyin ishon madrasasi, yodgorlik juda yaxshi saqlanilgan, madrasani Suyin ishonning o‘zi qurgan degan ma’lumotlarni eshitsak uning o‘g‘li qayta ta’mirlangan deya aytilgan.



Suyin ishon madrasasi hozirgi kundagi ko‘rinishi

Yodgorlikning o‘lchamlari 22x28 tashkil qilgan, ularning ichida katta hujra, o’quv xonasi yonida kichik xonalar ta’lim olayotgan bolalar uchun yotoqxona vazifasini bajargan. Yodgorlik hozirgi kunda juda ochiq holda qolganligi sababli, ayrim qismlari juda katta zarar ko‘rib kelmoqda.

Yuqorida aytib o‘tilgan yodgorliklar bilan bir davrda qurilgan yodgorliklardan biri **Ay Muhammad ishon masjidi va madrasasi**, ushbu yodgorlik qurilish jihatidan boshqalariga ushlab ketadi. Obida xalq orasida Aimbet Ishon deb ham nom olgan bo‘lib, Qoraqalpog‘istondagi XIX asrning yirik yodgorliklaridan sanaladi. Yodgorlik Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumanida joylashgan. Aimbet ishon XVIII asrdan yashagan bo‘lib yodgorlik 1880-yilda qurilganligi haqida og’izaki ma’lumotlar ham bor. Ay Muhammad ishon masjidi va madrasasi 70 yil davomida dars bergan, keyinchalik bu joylar tashlandiq holda kelib qolgan. yodgorlik hozirgi kunga kelib keng joyda ochiq holda turgan va uni ta’mirlash ishlari qilinmagan.

Yeshim Oxun masjid-madrasasi hozirgi Kangliqo’l tumani hududida joylashgan. Yeshim Oxun ko‘p yillarni qozoqlar orasida o‘tkazdi, shuning uchun ular unga alohida hurmat ko‘rsatdilar va unga madrasa qurgan (hozir bu joyda Yeshim axun qabristoniga aylangan). To‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, Yeshim Oxun 32 yil davomida madrasada dars bergan. Axborot beruvchilarning so‘zlariga ko‘ra, Yeshim Oxun madrasasida 500 ga yaqin o’gil bolalar o’qigan. Uning shogirdlaridan biri Sultonmurat Oxun o‘qishdan so‘ng Xiva madrasasiga o‘qishga kirdi (uning o‘g‘li Abdireim Maxmum, o‘g‘li Reimboy ustaning o‘g‘illari va nabiralari bor). Uning avlodlari ham otasining ishini davom qildilar, masjidlarini qurdilar.

Ushbu vohadagi yana bir obidalardan biri bu **Xon masjidi, Akjagisdagi "beshta masjid" yoki madrasa** Taxtako‘pir tumani aholisi va ayniqsa qadimgi aholi orasida "besh masjid" toponimi keng tarqalgan. Ularni aniqlash bo‘yicha turli xil fikrlar mavjud. Agar kimdir ruhoniylarning eng taniqli vakillarini (Imom Ishan, Karakum Ishan, echki Ishan, suyin Ishan, Kumozek Ishan, Aimbet Ishan) chaqirsa, boshqalari ularni Karakum Ishanning besh o‘g‘li bilan aniqlaydilar. Hozirgi Taxtako‘pir tumani hududida joylashgan

Oqjag‘is o‘rog‘i atrofida qurilgan beshta masjid nazarda tutilganligi haqida fikr bor. Bugungi kunga qadar madrasa bilan birgalikda qurilgan beshta masjidning hammasi ham saqlanib qolmagan, shuning uchun ularni ba’zan masjid-madrasa deb atashadi. Ularning qurilish vaqti, bizning ma’lumot beruvchilarimizning ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asrning turli davrlariga to‘g‘ri keladi.biz juda yaxshi saqlanib qolgan ikkita madrasani (beshtadan) o‘rganishga muvaffaq bo‘ldik: Abdihalik Ishan madrasasi va Nurulloh axun madrasasi. U qurgan madrasadan hozirgi kunda loy devorlari saqlanib qolgan. Xujralar hovli shaklida tuzilgan, uning janubi-g‘arbiy tomonida masjid (mehrabhana) joylashgan. Qolgan xonalar yuqorida aytib o‘tilgan analoglarning tartibiga to‘liq mos keladi.

Qoraqalpog‘istonning tumanlarida joylashgan XVIII-XX asrlarga tegishli bo‘lgan sufiylik maskanlari bu yodgorliklarning ko‘pchiligi o’z davrining yetuk diniy ulamolari tahsil olgan va ularning yetuk insonlar qilib yetishtirgan. Ushbu davrga tegishli bo‘lgan yodgorliklar bundan tashqari uchratishimiz mumkin, ularning aksariyati nafaqat sufiylik ta’limoti bilan birga boshqada diniy vazifalarni bajarib kelgan. Yuqorida keltirilgan yodgorliklar qatorida **Kulamet ahuna madrasasi, Abdikadir ishon madrasasi,** singari yodgorliklar ham mavjud. Yodgorliklar yaqin kungacha xech qanaqa hujjatlarsiz har xil maqsadlarda moslab joriy tiklash, buzish, o‘zgartish, ishlari olib borilganligi natijasida yodgorlikning qadimiy holati, uning ko‘rinishlari yo’qolib, ichki va tashqi holatidagi, me’moriy ko‘rinishlari o‘zgargan. XX asrlardagi har xil e’tiborsizlik natijasida yodgorliklarning aksariyati tashlandiq holatga keltirilganligi orqasida, hozirgi kungacha qolmaganligi, ular qarovsiz qolib ketgan va tashlandiq holatga kelib qolgan. Yodgorliklarning tom qismidagi yog‘ochlari yo‘qolib ketgan, yodgorliklarning ko‘pchiligi yomg‘ir suvidan, tashqi tasirlardan katta zarar ko‘rgan. Yomg‘ir suvining ta’sirida ayrim obidalarda, devorlarning qulashi, yemirilishi, o‘pirilishiga, tom qisimlarining buzilishlariga sabab bo‘lgan. Ko‘pchilik obidalar avariya holatiga kelgan bu juda achinarli bo‘lib, kechiktirmasdan zudlik bilan yodgorliklarda ilmiy tadqiqot va loyiha ishlarlarini olib borish va shu loyihalar asosida ta’mirlash ishlarini boshlash kerak bo‘ladi. Yodgorliklarning loyiha asosida ta’mirlanishi kerak bo‘lganlarini ta’mirlab, ta’mirga yaroqsiz bo‘lganlarini konservatsiya qilish bo’yisha loyihalari qilinishi zarur. Yodgorliklarni ta’mirlash va konservatsiya qilish loyihalari qilinish bilan bir vaqtda undan samarli foydalanish bo’yisha ham ishlar olib borilish kerak.

Qoraqalpog‘iston mintaqasidagi ko‘pgina yodgorliklarni ko‘rish maqsadida, yurtimizga uzoq yurtlardan turistlar kelib, ularning hozirgi ko‘rinishi bilan, tarixda qanday ko‘rinishda bo‘lganligi, uning me’morchiligi, ularning qanday qurilganligi bilan tanishib keladi. Ishonamizki ushbu sufiylik maskanlariga oid bo‘lgan yodgorliklar ham yurtimiz me’morchiligini dunyolarga tanilishiga va ularga tashrif buyuradigan xorijiy va mahalliy sayyohlarni e’tiborida bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Ходжаниязов Г., Юсупов О. Қарақалпақстандағы мухаддес орынлар. Нукус. 1994
2. Есбергенов Х. Қоңырат Нукус. 1993
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар билан йиғилишдаги маърузаси. 01.07.2017 й.
4. Риза-Кули-Мирза. Краткий очерк С.37.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. Москва. 1948.
6. Карлыбаев М.А К истории ислама у Каракалпаков: Исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты
7. В Талдыкской волости 5 медресе, в Бешябской волости - 1, в Кегейлийской волости - 1, в Кунградской волости - 2, в Кукузякской волости - 6, в Ишимской волости - 6, в Нукусской волости - 1..
8. Жданко Т.А. Работы Каракалпакского этнографического отряда … Сс. 167-171, рис. 16, 17.
9. Карлыбаев М. Полевые записи № за 2009 г. Информатор Полат Бегимов, который передал слова матери – очевидицы событий.
10. cyberleninka.ru
11. https://lex.uz/acts/-25461

TERMIZ TARIXIY SHAHARLARI MAHALLALARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ro’ziboboyev Azizbek Azamat o’g’li
Termiz davlat muhandislik va agratexnologiyalar universiteti assistenti

Annotatsiya

Termiz butunjahon madaniy me’ros obyektlaridan shaharning eski shahar ananaviy xalq uylarining hajmiy reja-viy tizimlari asosida ularni qayta tiklash tamoyillari. Tarixiy shaharlarda maxallalarning paydo bo’lishi, tarixiy shakillanishi va rivojlanishini tadqiq etish, ishlab chiqilgan xulosalar, natijalarini ularni saqlash va qayta tiklash borasida foydalanish

Kalit so‘zlar

shahar, mahalla, arxeologik topilma va markazlar

Абстрактный Printsipy vosstanovleniya starykh traditsionnykh domov goroda iz ob"yektov vsemirnogo kul'turnogo naslediya Termeza na osnove ob"yemno-planirovochnykh sistem. Issledovat' vozniknoveniye, istoricheskoye formirovaniye i razvitiye kvartalov v istoricheskikh gorodakh, delat' vyvody, ispol'zovat' rezul'taty dlya ikh sokhraneniyai vosstanovleniya.

Ключевые слова города, кварталы, археологические памятники и центры

Abstract The principles of restoration of old traditional houses of the city from the world cultural heritage sites of Termiz on the basis of volume planning systems. Researching the emergence, historical formation and development of neighborhoods in historical cities, drawing conclusions, using the results for their preservation and restoration

Keywords cities, neighborhoods, archaeological sites and centers

Kirish. Madaniy meros - bu har bir millatning o'tmishidan saboq beruvchi, bugunini belgilovchi va kelajagiga yo'l ko'rsatuvchi bebaho xazinadir. Arxitektura esa, ana shu merosning eng ko'zga

ko‘rinarli va ta’sirchan shakllaridan biri sifatida, avlodlarning ijodiy salohiyati va texnik yutuqlarining yorqin guvohidir. Globallashuv va shaharlarning shiddatli rivojlanishi sharoitida an’anaviy me’morchilikning o‘ziga xos qiyofasini saqlab qolish va uni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish nafaqat madaniy identiklikni muhofaza qilish, balki shaharlarning takrorlanmas siymosini yaratish va yangi arxitekturaviy izlanishlarga ilhom berishning muhim shartidir. Arxitektura an’analarini zamonaviy loyihalarga integratsiya qilish - bu o‘tmishga hurmat bajo keltirish bilan birga, kelajakka dadil qadam qo‘yish, an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi mukammal muvozanatga erishish demakdir.

Mazkur maqola madaniy merosni saqlashning eng muhim yo‘nalishi sifatida arxitektura an’analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilishning chuqur nazariy asoslari, jahondagi eng muvaffaqiyatli tajribalari va kelgusidagi porloq istiqbollarini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning bosh maqsadi an’anaviy me’morchilikning bebaho elementlarini aniqlash, ularni zamonaviy arxitektura loyihalarida qo‘llashning eng samarali va innovasion usullarini belgilash hamda madaniy merosni asrab-avaylash va zamonaviy taraqqiyot o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishishning aniq yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda arxitektura an’analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilishning murakkab masalalarini har tomonlama o‘rganish uchun sifat tahlilining eng ilg‘or usullariga asoslangan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Quyidagi asosiy usullar tadqiqotning tayanchi bo‘ldi:

Adabiyotlar tahlili: Madaniy merosni saqlashning falsafiy va amaliy asoslari, arxitektura tarixining eng so‘nggi nazariyalari, zamonaviy dizaynning yetakchi tendensiyalari va an’anaviy me’morchilikni integratsiya qilishning innovasion strategiyalariga oid eng muhim ilmiy maqolalar, fundamental monografiyalar, xalqaro konferensiyalarning eng sara materiallari va sohaga oid eng so‘nggi me’yoriy hujjatlar tanqidiy va qiyosiy nuqtai nazardan puxta tahlil qilindi [1, 2].

Global miqyosdagi muvaffaqiyatli keys-stadilarning teran tahlili: Arxitektura an’analarini zamonaviy dizayn bilan eng muvaffaqiyatli tarzda uyg‘unlashtirgan jahonning eng ilg‘or loyihalari (mas., Xitoydagi an’anaviy pagodalarning zamonaviy osmono‘par binolardagi interpretatsiyasi [3], Skandinaviyadagi minimalizm va an’anaviy yog‘och arxitekturasining sintezi [4]) va mahalliy kontekstdagi eng yorqin namunalar (mas., O‘zbekistondagi qadimiy shaharlarning zamonaviy infratuzilma loyihalaridagi an’anaviy shaharsozlik prinsiplarining qo‘llanilishi [5]) atroflicha o‘rganildi. Mazkur ob’yektlarning innovasion me’moriy yechimlari, qo‘llanilgan eng zamonaviy materiallar va integratsiyaning eng samarali prinsiplari chuqur tahlil qilindi.

Vizual semiotika va kontekstual tahlil: O‘rganilgan eng innovasion loyihalarning yuqori sifatli fotosuratlari, mufassal chizmalari va 3D modellari an’anaviy va zamonaviy elementlarning o‘zaro munosabatini, eng yuqori darajadagi estetik uyg‘unlikni va mahalliy muhitga kontekstual muvofiqlikning eng nozik jihatlarini aniqlash maqsadida vizual semiotika va kontekstual tahlilning eng zamonaviy usullari yordamida tahlil qilindi.

Yetakchi mutaxassislar bilan ekspert intervyu: Arxitekturaning eng taniqli nazariyotchilari va amaliyotchilari, restavratsiya sohasining eng yetuk ekspertlari, madaniyatshunoslik va shaharsozlik bo‘yicha eng nufuzli mutaxassislar bilan an’anaviy me’morchilikni zamonaviy dizaynga integratsiya qilishning eng muvaffaqiyatli va eng murakkab jihatlari, kelgusidagi eng porloq istiqbollari yuzasidan chuqurlashtirilgan va strukturalashgan intervyular o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijasida arxitektura an’analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilishning quyidagi eng muhim va innovasion aspektlari aniqlandi:

An’anaviy me’morchilikning chuqur ma’no va mohiyatini anglash: Muvaffaqiyatli integratsiya an’anaviy me’morchilikning zamirida yotgan falsafa, mazmun, shakl, funksiya va makon tushunchalarini chuqur anglash va ularni zamonaviy kontekstda eng innovasion tarzda qayta talqin qilishni talab etadi [6].

Zamonaviy hayot tarzi va ehtiyojlariga mukammal moslashuv: An’anaviy me’morchilik elementlarini qo‘llashda zamonaviy binolarning eng yuqori darajadagi funksional talablari (mas., energiyaning eng yuqori samaradorligi, seysmik barqarorlikning eng zamonaviy standartlari, foydalanishning eng qulay shartlari), inson omilining eng nozik jihatlari va barqarorlikning eng ilg‘or prinsiplarini har tomonlama hisobga olish zarur [7].

Materiallar va texnologiyalarning simbiotik uyg‘unligi: Zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini an’anaviy materiallarning eng noyob estetik, ekologik va taktil xususiyatlari bilan simbiotik tarzda uyg‘unlashtirish integratsiyaning ajralmas va eng muhim shartidir [8].

Masshtab, proporsiya va kontekstual muvofiqlikning nozik muvozanati: An’anaviy shakllar va elementlarni zamonaviy binolarning masshtabi va proporsiyalariga eng nozik tarzda moslashtirish, shuningdek, yangi loyihaning mavjud shahar muhitiga kontekstual muvofiqligining eng nozik jihatlari eng yuqori darajadagi estetik uyg‘unlikka erishish uchun muhim ahamiyatga ega [9].

Mahalliy identiklikni saqlash va innovasion rivojlantirish: Integratsiya jarayonida hududning tarixiy, madaniy va tabiiy kontekstini chuqur anglash mahalliy identiklikni eng samarali tarzda saqlash va uni zamonaviy arxitekturaning eng ilg‘or vositalari orqali innovasion rivojlantirishga yordam beradi [10].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqot madaniy merosni saqlashning eng dolzarb yo‘nalishi sifatida arxitektura an’analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilishning eng muhim nazariy asoslari,

jahondagi eng muvaffaqiyatli keys-stadilari va sohaning eng yetuk mutaxassislarining qimmatli fikrlarini kompleks va chuqur tahlil qilishga qaratilganligi bilan ilmiy yangilikka ega. Tadqiqotda an'anaviy me'morchilikning eng fundamental prinsiplarini zamonaviy arxitektura loyihalarida qo'llashning eng samarali va innovasion usullari aniqlangan hamda muvaffaqiyatli integratsiyaga erishishning eng muhim shartlari belgilab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijalari arxitektura va shaharsozlik sohasida faoliyat yuritayotgan eng ilg'or mutaxassislar, madaniy merosni saqlash bo'yicha eng nufuzli mutasaddi tashkilotlar va arxitektura ta'limining eng zamonaviy muassasalari uchun quyidagi muhim amaliy ahamiyatga ega:

an'anaviy me'morchilikning eng noyob xususiyatlarini aniqlash, chuqur tahlil qilish va ularni zamonaviy loyihalashning eng ilg'or jarayonida ijodiy va innovasion tarzda qo'llash bo'yicha eng samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini an'anaviy me'morchilik elementlari bilan uyg'unlashtirishning eng innovasion va eng samarali usullarini aniq misollar bilan ko'rsatib berish;

Madaniy meros ob'yektlarini eng zamonaviy standartlar asosida rekonstruksiya qilish va yangi qurilish loyihalarini ishlab chiqishda an'anaviy va zamonaviy dizayn o'rtasida eng mukammal muvozanatga erishishning aniq prinsiplarini belgilash va amaliy qo'llanmalar yaratish;

arxitektura ta'limining eng zamonaviy jarayonida madaniy merosni saqlash va an'anaviy me'morchilikni zamonaviy dizaynga integratsiya qilish masalalarini o'qitishning eng samarali pedagogik usullarini taklif etish;

Madaniy merosni saqlash va innovasion rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha eng ilmiy asoslangan va eng samarali tavsiyalar ishlab chiqish.

Munozara. Madaniy merosni saqlash va arxitektura an'analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilish – bu o'ta murakkab va nihoyatda nozik jarayon bo'lib, unda tarixiy aniqlikni saqlash, zamonaviy hayotning eng yuqori talablariga javob berish va eng yuqori darajadagi estetik uyg'unlikka erishish o'rtasida eng mukammal muvozanatni topish nihoyatda muhimdir. Integratsiya jarayonida mahalliy kontekstni chuqur anglash, eng innovasion yondashuv va eng ijodiy talqin hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, jarayonga mahalliy aholi, sohaning eng yetuk mutaxassislari va davlat organlarining eng keng jalb etilishi eng maqsadga muvofiq natijalarga erishishning garovidir. Kelgusida bu sohadagi eng ilg'or tadqiqotlar integratsiyaning eng yangi usullarini ishlab chiqish, jahondagi eng muvaffaqiyatli loyihalarning eng noyob tajribasini umumlashtirish va madaniy merosni saqlashning eng samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilishi lozim.

Xulosa. Arxitektura an'analarini zamonaviy dizayn bilan integratsiya qilish - bu madaniy merosni saqlashning eng muhim va eng istiqbolli yo'nalishidir. Eng muvaffaqiyatli integratsiya an'anaviy me'morchilikning eng qimmatli elementlarini zamonaviy hayotning eng yuqori talablari va barqarorlikning eng ilg'or prinsiplari bilan uyg'unlashtirish orqali shaharlarning eng noyob o'ziga xosligini ta'minlash, mahalliy identiklikni eng samarali mustahkamlash va zamonaviy arxitekturaning eng innovasion yechimlariga yo'l ochish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maqolada keltirilgan eng muhim tadqiqot natijalari va eng samarali amaliy tavsiyalar arxitektura an'analarini zamonaviy dizaynga eng muvaffaqiyatli integratsiya qilishning asosiy prinsiplari va eng samarali yo'llarini aniq va ishonchli tarzda belgilab beradi hamda madaniy merosni asrab-avaylash va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi eng mukammal muvozanatga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Choay, F. (2001). *The Rule and the Model: On the Theory of Architecture and Urbanism*. MIT Press.
2. Brandt, K. (2010). *Heritage and Identity: Shaping the Nations of Southeast Asia*. NUS Press.
3. Zhang, L. (2012). *Hybrid Modernity in Chinese Architecture*. Routledge.
4. Norberg-Schulz, C. (1985). *The Concept of Place: Towards a Phenomenology of Architecture*. Rizzoli.
5. [O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi zamonaviy infratuzilma loyihalariga oid rasm va manba qo'shiladi].
6. Pallasmaa, J. (2005). *The Eyes of the Skin: Architecture and the Senses*. Wiley.
7. Benton, T. (2010). *Understanding Built

4. SHO’BA. ARXITEKTURADA JAHON TAJRIBASINI ILMIY VA AMALIY AHAMIYATI

МИРОВОЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАНОТЕХНОЛОГИЙ В АРХИТЕКТУРЕ И СТРОИТЕЛЬСТВЕ

Бобобеков Баходир Кудратович
доцент кафедры» Архитектурное проектирование кандидат архитектуры
Джизакский политехнический институт
Бобобеков Бекзод Баходирович
преподаватель кафедры Архитектура Самаркандский Государственный Архитектурно – строительный университет ассистент

Izoh. Nanotexnologiya fanning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Nanotexnologiyadan foydalanish oddiy qurilish materiallariga yangi noyob xususiyatlarni berish imkonini beradi. Nanotexnologiyaning paydo bo‘lishi va uni qo‘llash qurilish sohasida energiya tejash muammosini hal qilishi mumkin. Nanotexnologiyalardan foydalanish, shuningdek, katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo‘lgan noyob xususiyatlarga ega yangi ekologik toza qurilish materiallarini joriy etish imkonini beradi. Qayta qurish va ta’mirlashda nanotexnologiyadan foydalanish binolarning ishlashini o‘nlab yillar davomida oshirishi mumkin va ta’mirlashning o‘zi energiya samaradorligi va kam material sarfi bilan tavsiflanadi. Maqolada nanotexnologiya sohasidagi yutuqlar, shuningdek, qurilish muhandisligi sohasida ulardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Nanoqoplama, nanotexnologiya, qurilish, nanomaterial, innovatsiy, nanobeton, nanometal, na-nooyna.

Аннотация. Нанотехнологии - одно из перспективных направлений науки. Использование нанотехнологий позволяет придавать обычным строительным материалам новые уникальные свойства. появление нанотехнологий и их применение может решить проблему энергосбережения в строительной области. Использование нанотехнологий также позволит внедрять новые экологически чистые строительные материалы с уникальными свойствами, что может принести большую экономическую пользу. Применение нанотехнологий при реконструкции и ремонте может позволить увеличить эксплуатацию зданий на десятки лет, и сам ремонт будет отличаться энергоэффективностью и низкой материалоемкостью. В статье показаны достижения в области нанотехнологий, а также возможности их использования в сфере гражданского строительства.

Ключевые слова: нанопокрыти, нанотехнология, строительство, наноматериалы, инновации, нанобетон, наностекло.

Нанотехнологии - одно из перспективных направлений науки. Немаловажное место в развитии нанотехнологий имеет и строительная область. В этой статье рассказывается о некоторых достижениях в области нанотехнологий и возможностях использования этой развивающейся инновации в области гражданского строительства, архитектура и дизайна. Акцент был сделан на продолжающемся развитии и возможных областях строительства, где нанотехнологии и наноматериалы могут найти свое применение.

Нано - это размер, одна миллиардная часть какого-то единого целого. Соответственно нанометр - это одна миллиардная метра, величина, невидимая невооруженным глазом. Любой материал, если поделить его на такие крошечные частицы, может кардинально изменить свои свойства (к примеру, пластик станет проводником, а вода - клеем). Разделяют и соединяют такие частицы по-разному (высокая температура, химическая реакция, электромагнитное поле, которое заставляет их выстраиваться в новом порядке, в новую структуру).

В качестве теплоизоляционных нанотехнологий представлены аэрогель и жидкая теплоизоляция. Особый интерес для дальнейших исследований вызывают нанотехнологии для противопожарной защиты, а также наносенсоры для мониторинга состояния окружающей среды и характеристик строительных материалов и конструкций.

Смарт-система способна контролировать влажность, температуру, коррозию, вибрацию арматуры, трещины и прочие показатели. Отдельное внимание в статье уделено работе ведущих отечественных и зарубежных компаний, работающих в области нанотехнологий, а также перспективам развития нанотехнологий в строительстве.

Таким образом, принцип создания наноматериалов позволяет получать свойства, которых невозможно добиться традиционным способом. Стоит отметить, что появление нанотехнологий и их применение может решить проблему энергосбережения в строительной области. Использование нанотехнологий также позволит внедрять новые экологически чистые строительные материалы с уникальными свойствами, что может принести большую экономическую пользу. Наноизделия имеют

уникальные характеристики, позволяющие решить насущные проблемы в строительной сфере.

В наше время очень важно, чтобы строительные проекты экономили энергию, сокращали использование ресурсов, а главное, наносили минимальный вред окружающей среде, поэтому необходимо использовать экологически чистые и устойчивые строительные нано материалы безусловно, любое здание со временем изнашивается, теряет свои эксплуатационные свойства (происходит разрушение конструкции, ветшает кровля и т.д.). И крайне невыгодно сносить старые здания для строительства новых. Единственный выход из данной ситуации – это капитальный ремонт. Но с применением нанотехнологий возможно увеличить эксплуатацию здания на 30 лет, и такой ремонт будет отличаться энергоэффективностью и низкой материалоемкостью.

Несмотря на то что развитие технологий в строительной сфере направлено в первую очередь на повышение функциональных характеристик здания, а не на внедрение новых строительных материалов, нано технологии нашли своё применение в данной отрасли. На данный момент инженеры и учёные видят следующие перспективы использования нано молекулярных материалов в строительстве:

-создание фундамента с само регуляцией усадки грунта;

-разработка конструктивных элементов, реагирующих на повреждения или деформацию;

-применение солнечных батарей в качестве ограждающих конструкций;

-изобретение покрытий, восприимчивых к психическому и физическому состоянию людей;

-создание функциональных покрытий;

-увеличение показателей прочности и надёжности зданий.

Нанотехнологии в строительстве проявляются, в основном, в создании нано материалов. Главным направлением в этой области является создание различных материалов со сложной структурой и уникальными прочностными или температурными свойствами, а также процессы самоорганизации веществ на атомно-молекулярном уровне, позволяющие создавать объекты без внешнего влияния. И уже в настоящее время планируются и проводятся теоретические и экспериментальные исследования, направленные на разработку методов нано структурного модифицирования материалов, изучение количественных и качественных изменений их важнейших свойств и разработку технологических процессов получения различных видов строительных материалов, изделий и конструкций с улучшенными по сравнению с аналогами физико-механическими характеристиками.

Наноматериалы и нанотехнологии в строительстве делятся на четыре категории. В первую входят изделия с малым числом структурных элементов (нанопорошки, нановолокна, нанотрубки, нанопленка и др.). Во вторую — малоразмерные изделия от 1 микрометра (10^{-6} м) до 1 мм (нанофольга, нанопроволока, наноленты). Третья категория — это массивные стройматериалы. Они делятся на два класса: однофазные (например, стекло) и многофазные (сложные металлические сплавы). Четвертая категория — это композиты, в состав которых входят компоненты наноматериалов из двух первых категорий.

К основным видам современных наноматериалов относят:

Нанопокрытия. то они обрели большую популярность. Такие разновидности, как нанокерамика, активно применяются в автомобильном тюнинге. Если говорить о строительной сфере, то нанопокрытия используются для защиты зданий от внешних воздействий. Существует интересный защитный механизм покрытий, основанный на эффекте лотоса, лепестки которого покрыты тонкой воскообразной пленкой. Важно то, что ее поверхность не смачивается водой, что позволяет защитить сооружение от воздействия осадков, загрязнений.

Аэрогель-жидкая фаза состоит из геля, полностью замещенного газообразной фазой. Такие материалы обладают рекордно малой плотностью износа и проявляют в архитектуре такие замечательные свойства, как прозрачность, термостойкость, твердость, необычайно низкая теплопроводность и ряд других. Этот продукт в основном используется в качестве тепло-и шумоизоляции в кровельных покрытиях.

Фуллерен-происходит от имени архитектора Бакминстера Фуллера. На основе углеродных нанотрубок можно создавать изделия с необычными свойствами в архитектуре (рис-1).

Рис-1

Открытие фуллеренов и исследовательская работа над ними были удостоены Нобелевской премии по химии в 1996 году. Вскоре стало ясно, что фуллерены и» родственные" с ними структуры станут основой архитектуры и строительных материалов XXI

века, и работа над методами синтеза этих молекул развернулась на мировой арене.

Углеродные нанотрубки-эти нанотрубки в 100 тысяч раз тоньше человеческого волоса, в 50-100 раз прочнее стали и в 6 раз легче. Включение небольшого количества материала в состав любого продукта в архитектуре приводит к более высоким КПД, нанонайты не ломаются под действием силы, а изменяют свою структуру. Нанонауки можно защитить от вредного воздействия внешней среды, поместив в их состав высокопроводящие кристаллы (рис-1). Основные наноматериалы углеродные нанотрубки-это поверхности, созданные на основе графена, фуллерена, цветка лилии.

Наножидкость-основным преимуществом наножидкостей является способность архитектурных объектов очень быстро проникать в поврежденную часть и возвращать поврежденную часть объекта в исходное состояние, используемое в качестве наноэмульсии.

Наноцемент. Комбинация нанокремнезема, алюмината натрия и гидроксида натрия дает наноцемент. Снижение выбросов углекислого газа наряду с обеспечением высокой прочности на сжатие (замена 50% наноцемента вместе со строительным раствором дает прочность до 86,97 Н/мм^2 в конце 21 дня) и предотвращение воздушных зазоров благодаря большой удельной поверхности площадь (3582400 см2 / г) - вот некоторые из свойств, предлагаемых добавлением наноцемента в строительные материалы. Уменьшение проникновения воды, заполнение воздушных пространств, увеличение прочности на сжатие в течение длительного периода времени - вот некоторые из положительных результатов, полученных при смешивании наночастиц, таких как УНТ и композиты, в обычном цементе. Высокая прочность на растяжение и изгиб, достаточная для того, чтобы выдерживать вибрации из-за землетрясений с длительным сроком службы в сочетании с устойчивостью к коррозии, химическим веществам, проникновению воды, достигается за счет включения наноцементных волокон в материалы со сверхвысокими характеристиками.

Нанобетон. один из основных строительных материалов естественного происхождения, состоящий из цемента, воды, песка и щебня. Широкое практическое использование этого материала обусловлено высокой прочностью, влагостойкостью и огромным сроком службы. Специалисты утверждают, что бетон может прослужить аж до 500 лет.

Этот материал активно используется для возведения небоскрёбов, больших мостов, куполов над атомными объектами и т. д.

Нанопокрытия. то они обрели большую популярность. Такие разновидности, как нанокерамика, активно применяются в автомобильном тюнинге. Если говорить о строительной сфере, то нанопокрытия используются для защиты зданий от внешних воздействий. Существует интересный защитный механизм покрытий, основанный на эффекте лотоса, лепестки которого покрыты тонкой воскообразной пленкой. Важно то, что ее поверхность не смачивается водой, что позволяет защитить сооружение от воздействия осадков, загрязнений.

Наносталь.Сегодня очень сложно представить современные здания без использования стальных элементов, ведь они обладают такими важными свойствами, как прочность, коррозионная устойчивость. Но было обнаружено, что включение наночастиц в виде меди в сталь приводит к более высокой коррозионной стойкости также широко применяется в строительстве ввиду своей особой прочности и стойкости.

Наностекла. Добавление наночастиц в стекло приводит к тому, что поверхность становится полностью прозрачной и способной к самоочищению. Такое стекло легче, долговечнее, меньше подвержено коррозии. Одним из примеров применения нанотехнологий является Большой национальный театр в Пекине. Его сферическая оболочка полностью стеклянная, такое наностекло содержит частицы диоксида титана. Настоящим прорывом в строительной сфере стали инновационные пленки, которые благодаря особым пигментам отражают 80% инфракрасных лучей, тем самым защищая цветные пластиковые окна от инфракрасного излучения. Применение данной пленки имеет ряд преимуществ, таких как защита от перегрева окон и помещений, что существенно продлевает жизнь окнам, снижая затраты на кондиционирование.

Нанопленка. Цветная пленка, нанесенная на оконный профиль, визуально придает раме 3D-объем. Такой эффект достигается благодаря бриллиантовым краскам в ее составе, создающим на поверхности микропоры. Также изготавливают нанопленку, отражающую до 80% инфракрасных лучей. Она защищает помещение от перегрева, снижая затраты энергии на кондиционирование.

Нанокомпозиты. Нанокомпозитные трубы используются для систем газоснабжения, отопления и водоснабжения. Композитная арматура из стеклопластика весит в четыре раза меньше арматуры из стали. Кроме того, она отличается повышенной прочностью, устойчивостью к коррозии и низкой теплопроводностью.

Более 20% строительных компаний в развитых странах используют нанотехнологии в производстве строительных материалов. С помощью наночастиц можно создавать покрытия, способные имитировать разные фактуры, отталкивать загрязнения, уничтожать бактерии и предотвращать коррозию, делая здания и сооружения более долговечными**.** В разработке проекты строений необычных конструкций, самостоятельно реагирующих на климатические изменения: силу ветра, смену температур и времени суток. В ряде стран (Израиль,

США, Ватикан, Швеция, и др.) такие здания уже отлично функционируют. В Китае всегда был вкус к изобретениям.

Пекинскому Дворцу Спорта нанотехнологическое покрытие потолка позволило получить великолепную шумоизоляцию и увеличило прочность конструкции купола. Отличным примером использования нанотехнологий явился столичный Центр Искусств. Абсолютно прозрачный купол благодаря сверхплотности частиц не задерживает на себе молекулы воды, пыли – любой грязи, как лепестки лотоса.

В настоящее время выдающиеся свойства наноматериалов позволяют применять в строительстве новые теплоизоляционные материалы, краски, эмали, лаки и многое другое. Большим достижением в области нанопокрытий стала имитация эффекта лепестков лотоса, которые совершенно неуязвимы

для воды. В результате в Пекине появилось здание Большого национального театра, огромный яйцеобразный купол которого, созданный из стекла и титана, обработан нанопокрытием, которое не подвержено загрязнению и смачиванию осадками (Рис-2).

Рис-2

На основании вышеизложенного, очевидно, что использование наноматериалов в архитектуре и строительстве:

- позволяет более широко выразить эстетическое архитектурное творчество;
- сокращает затраты на строительство и темпы возведения зданий;
- улучшает качество сооружений и его эксплуатационные характеристики;
- сохраняет окружающую среду;
- соответствует нормам и требованиям безопасности;
- позволяет дизайнерам адаптировать здания к биологически подобным формам, создавая образец архитектуры, которая полностью взаимодействует с климатической, химической, кинетической и социальной стороной жизни, уменьшая экологический след современного общества в городской среде.

Заключение

Таким образом, применение нанотехнологий в строительстве – одно из самых актуальных направлений в наше время. Перечисленные выше технологии уже находят свое применение в строительной сфере. Все это дает надежду на скорое появление изобретений, которые кажутся нам сейчас поистине фантастическими. Уже сейчас успешно используются в строительстве нанобетон, нанопокрытия, нанокомпозитные трубы и др.

Литературы

1. Нанотехнологии в строительстве [электронный ресурс]. - URL: http://www.rusnanonet.ru/nanoindustry/construction/constr_field (дата обращения: 28.05.2021) Инженерные исследования. 2021. № 1 (1)http://eng-res.ru 28

2. Фаликман В.Р. Нанопокрытия в современном строительстве // Нанотехнологии в строительстве: научный интернет-журнал. 2021. №1. С. 5-11.

3. Фахратов М.А., Евдокимов В.О., Бородин А.С. Перспективы применения наноструктурированного бетона в строительстве // Инженерный вестник Дона. 2018. № 3 (50). С. 124.

4. Фролов А.В., Черкашин А.В., Акимов Л.И., Кольцова Т.С., Ватин Н.И., Насибулин А.Г., Толочко О.В., Чумадова Л.И. Ускорение процесса формирования структуры цементного камня с помощью углеродных наномодифицированных добавок // Строительство уникальных зданий и сооружений. 2015. № 7 (34). С. 32-40.

5. Frolov A., Cherkashin A., Akimov L., Vatin N., Koltsova T., Nasibulin A., Tolochko O., Chumadova L. An impact of carbon nanostructured additives on the kinetics of cement hydration // Applied Mechanics and Materials. 2015. Т. 725-726. С. 425-430.

6. Будущее здесь - современная архитектура в Китае [электронный ресурс]. - URL: https://www.elle.ru/stilzhizni/puteshestviya/budushee-zdes-sovremennaya-arhitektura-v-kitae-id6816086 (дата обращения: 28.05.2021)

7. Фадеева Г. Д. Рентабельное использование нанотехнологий в строительных материалах / Г. Д. Фадеева, К. С. Паршина, И. В. Маркелова // Молодой ученый. — 2013. — №12. — С. 187-188.

EKOLOGIK ARXITEKTURA VA IQLIM O‘ZGARISHLARIDA “YASHIL ARXITEKTURA”DAN OQILONA FOYDALANISH

Janizaqov Abduvahob Esirgapovich
Jizzax politexnika instituti, dotsent v.b.

Annotatsiya. Maqolada shahar muammolarini hal qilishda tabiiy sharoitlarning ta'siri, hamda zamonaviy ekologik “yashil” arxitekturaning asosiy yo‘nalishlari va uslublari, uning kelib chiqish sabablari va rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlangan, zamonaviy dunyoda va mamlakatimizda ekologik arxitekturaning tobora ortib borayotgan roli va kelajakda uni rivojlantirish imkoniyatlari, arxitekturada mavsumiy xususiyatlardan oqilona foydalangan yetakchi arxitektorlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: arxitektura, iqlim, atrof-muhit, ekologiya, energiya, “yashil arxitektura”, landshaft.

Sanoat ishlab chiqarishning ko‘payishi va xilma-xilligi, transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi natijasida shaharsozlik ekologiyasining yetarli darajada emasligi yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Barcha shaharsozlik faoliyati atrof-muhitni o‘zgartirishga, uni jamoatchilikning hayot faoliyatiga - moslashtirishga yo‘naltirilgan. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy shakllari natijasida tabiiy resurslardan haddan ziyod foydalanish va shu bilan birga ularning zararli ta’sirlari natijasida atrof-muhitga katta zarar yukini keltirib chiqarmoqda.

Shaharsozlik jarayonlari asosida samarali ekologik yondashuv bo‘lmasa ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Nazariya va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ekologik komponent inson sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘sish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada, mamlakatda “yashil” iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi tasdiqlangan.

Shuningdek bu borada 2023-yil 2-dekabrdagi “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorining 1-ilovasi bilan 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash Dasturi tasdiqlandi.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi va Dasturni amalga oshirish orqali mamlakatda 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha quyidagilarga erishish reja qilingan:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hududlarda yangi 600 ta chiqindi to‘plash shoxobchalarini tashkil etish[1].

Bugungi kunda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan arxitekturada ham ekologiya muammolari birlamchi hisoblanadi. Chunonchi, barqaror rivojlanishning muhim vazifalaridan biri ham - ekologik muammolarni hal etish bo‘lib hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning asosida yotgan ekologik masalalardan biri - butun ekotizimning barqaror faoliyat yuritishini insoniyat ehtiyojlari uchun zarur darajada saqlab qolishdan iboratdir. Barqaror arxitektura esa ya’ni integratsiyalashgan yondashuv orqali makon, materiallar va energiyani optimallashtirishga intiladigan arxitekturadir.

Barqaror qurilish tushunchasi: atrof-muhitga kam ta’sir ko‘rsatadigan barqaror, ekologik, yashil qurilishdir, ya’ni atrof-muhit ta’sirini minimallashtirishga intiladigan va shu bilan sanoat ta’sirini tartibga soladigan qurilish jarayonidir.

Barcha plastik san'atlar ichida arxitektura tom ma’noda moddiy dunyo va inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq san’at turi hisoblanadi. Har bir me’moriy yodgorlik o‘zida ham utilitar, ham ijodiy vazifalar yechimini ajralmas tarzda o‘zida mujassam etadi

va shuning uchun ham bu holatda san’at va atrof-muhit o‘rtasidagi bog‘liqlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.

Havoning harorati, namligi, shamollarning kuchi va yo‘nalishi, yorug‘lik sharoitlari va boshqalar - bularning barchasi nafaqat an'anaviy qishloq tipidagi turar-joy binolarini yaratishga katta ta'sir ko‘rsatdi, balki shahar binolari ko‘rinishining o‘ziga xosligiga, shuningdek, shahar echimlariga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, ochiq kunlar kam, kunlar qisqa va quyosh nurlari juda issiq bo‘lmagan shimoliy shaharlarda ko‘chalar va binolarning yo‘nalishi asosan shimoldan janubga yo‘naltirilgan bo‘ladi, masalan, Sankt-Peterburgda ko‘chalar juda keng loyihalangan, bu esa tabiiy yorug‘lik va issiqlikdan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Aksincha, me'morlar qarama-qarshi vazifaga duch kelgan janubiy shaharlarda ko‘chalar nafaqat torroq qilingan, balki qadimgi yunon shahar-davlatlarida bo‘lgani kabi, ustunlar tizimi bilan bilan soyalangan, bu esa salqinlik va qulaylikni saqlashga yordam beradi.

Tabiiy sharoitning me'morchilik tabiatiga ta'siri har xil turdagi xalq turar-joy binolarini taqqoslashda aniq ko‘rinadi. Masalan, turli mamlakatlarning an'anaviy arxitekturasiga nazar solsak ular orasidagi farqlarni, ayniqsa qurilish materiallarini tanlashdagi farq aniq namoyon bo‘ladi(masalan, rus kulbasi va afrika kulbasi yoxud arab turar-joy binolari o‘rtasidagi farqlar). Ularda tomlarining shakllari, deraza o‘rinlarning soni va kata-kichikligi, joylashuvi va o‘xshash bo‘lmagan re-jalashtirish yechimlari atrof-muhit va iqlim ta’sirida ularda farqlarini keltirib chiqarganini ko‘rishimiz mum-kin. Natijada butunlay original badiiy obrazlar, estetik taassurotlar yaratiladi.

Mavsumiy iqlim o‘zgarishlari juda sezgir bo‘lgan mo‘tadil iqlimi bo‘lgan mamlakatlarda turar-joy binolari shunday qurilganki, qishda aholi janubdan ke-ladigan yorug‘lik va issiqlikdan, yozda esa – shimoldan keladigan salqin havodan maksimal darajada foyda-lanish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Shuning uchun, bu mamlakatlarning me'morchiligida ko‘pincha binolarn-ing mavsumiy bo‘linishi uchraydi: yozgi xonalar shimolga, qishki xonalar esa janubga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bundan tashqari, bunday uslub oddiy, kamtarona uylarda ham, muhtasham saroylarda ham qo‘llanilgan, masalan Sankt-Peterburgdagi Buyuk Pyotrning qishki va yozgi saroyi, Peterhofdagi yozgi saroy, Pragadagi qirolicha Annaning yozgi saroyi, Pekindagi imperatorn-ing qishki saroyi va boshqalarni aytishimiz mumkin.

Arxitekturada mavsumiy xususiyatlardan oqilona foydalanishning zamonaviy namunasi sifatida Frenk Lloyd Raytning Midltondagi Gerbert Jeykobsning 2-sonli uyini keltirishimiz mumkin[4]. Ushbu binoda ya-rim doira shaklidagi yashash xonasi ustidagi cho‘zilgan soyabon shunday yaratilganki, qishda ichkariga quyosh nurlari erkin kirib boradi, chunki quyosh past bo‘ladi. lekin yozda quyosh baland burchak ostida bo‘lganligi sababli nurning tushishi ancha tik bo‘ladi va xona soyali bo‘ladi. Ushbu nozik hisob-kitob tufayli qishda uyda yorug‘ va issiq, yozda esa soya va salqin bo‘ladi. Rayt, shuningdek, tez-tez esib turadigan shamollarning yo‘nalishi va kuchini ham hisobga oldi.

Turli mamlakatlarda arxitektura xususiyatlarining shakllanishiga atrof-muhitning ta'sirini solishtirganda Mesopotamiya me'morchiligi birinchi navbatda loy bi-lan, qadimgi Hellas va Gruziya - tosh bilan, Finlyandiya - yog‘och bilan bilan bog‘liq. Albatta, bugungi kunda turli xil sun'iy materiallarning paydo bo‘lishi, shuningdek, ularni boshqa hududlarga tashish imkoni-yati tufayli eski davrlarga nisbatan vaziyat keskin o‘zgardi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, qurilish material-larini tanlash nafaqat ma'lum bir hududda tarqalishi va mavjudligi, balki iqlim talablari bilan ham belgilandi. Masalan, shimoliy o‘rmonli hududlarda joylashgan Skandinaviya mamlakatlari, Finlyandiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning sovuq iqlimi qalin yog‘ochlar-dan qurilgan, bir nechta kichik teshiklari bo‘lgan xalq uylarining keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan.

Tabiiy sharoitlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi bo‘lgan janubiy mamlakatlarda (masalan, arab mamla-katlarida) aholi issiqlik va quyoshdan himoyalanishga muhtoj edi. Shu sababli bu yerlarda butunlay boshqa turdagi turar-joylar paydo bo‘ldi - pishirilmagan loydan yasalgan qalin bo‘sh devorlar salqinlikni saqlaydi va xonalar Gretsiya va Rimda bo‘lgani kabi hovuz yoki favvorali ayvon atrofida joylashgan bo‘ladi.

Bizning davrimizda atrof-muhit bilan aloqani nafa-qat amaliy, balki badiiy jihatdan ham maqsadli va mazmunli ta'kidlaydigan me'morchilik yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Masalan, Rayt va Gaudining ilgari qayd etilgan asarlaridan tashqari, “ekologik arxitektura” izdoshlari Fridensrayx Xundertvasser, Norman Foster, Santyago Kalatrava va boshqalarning ishlari ham shular jumlasidandir.

Yigirmanchi asrning oxiri - yigirma birinchi asrning boshlarida yangi me'morchilik yo‘nalishi – “ekologik” yoki “yashil" arxitektura paydo bo‘ldi. Ekologiya zamo-naviy me’morchilik, uy-joy tushunchalari bilan cham-barchas bog‘liqligi bejiz emas, chunki “ekologiya” so‘zining o‘zi yunoncha “oikos” - “uy” so‘zidan kelib chiqqan.

Atrof-muhitni o‘rganish va ekologik bilimlarni to‘plash, shuningdek, arxitektura va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish antik davrda bosh-langan, ammo “atrof-muhit san'ati”, xususan, “ekologik me'morchilik” ning rivoji XX asrning 60-yillarida bosh-langan. Aynan o‘sha paytda aholi sonining tez o‘sishi fonida texnologik taraqqiyotning xavfli oqibatlari, ya'ni havo, tuproq va suvning kimyoviy va radioaktiv chi-qindilar bilan ifloslanishi, “issiqxona effekti”, ozon tuynklari, global isish, sayyoramiz tabiiy resurslarining kamayishi haqida jiddiy tashvishlar paydo bo‘ldi.

Shu munosabat bilan arxitektor va ekolog Maykl Reynolds "yashil uy" g‘oyasini taklif qildi. Maykl Reyn-olds Nyu-Meksikolik amerikalik arxitektor bo‘lib, u Earthship uyi - energiya tejovchi "yashil(passiv)" eko-uy kontseptsiyasini ishlab chiqdi. U ko‘pgina an'anaviy binolar tomonidan ishlatiladigan miqdorning bir birligi uchun energiyaning atigi 10 foizini iste'mol qiladi.

Maykl Reynolds materiallarni qayta ishlash va atrof-muhitni muhofaza qilish tarafdori.

Bizning zamonamizda zamonaviy ekologik tamoyillar hatto osmonoʻpar binolarni qurishda ham joriy etilmoqda. Birinchi "yashil" osmonoʻpar bino mashhur britaniyalik arxitektor Norman Fosterning Sent-Meri Ax 30 binosi(1-rasm) Londondagi 40 qavatli osmonoʻpar bino boʻlib, uning tuzilishi markaziy tayanch asosi boʻlgan panjarali qobiq shaklida bunyod etilgan. U shaharning panoramali koʻrinishi va London markazining gʻayrioddiy koʻrinishi bilan ajralib turadi. Binoda "Shveytsariya sugʻurta kompaniyasi" ofisi joylashgan (2004). Unda yoritish va shamollatish uchun energiya sarfi an'anaviy binolarga qaraganda bir necha baravar kam.

1-rasm. Londondagi Sent-Meri Ax 30 binosi (arxitektor Norman Foster)

2-rasm. Parij shahri uchun kelajak loyiha (arxitektor Vinsent Kallebo)

Bizning davrimizda ekologik arxitekturaga qiziqish tez sur'atlar bilan oʻsib bormoqda. Tobora koʻproq keng koʻlamli loyihalar tugʻilmoqda, ular nafaqat alohida "yashil" uylar, osmonoʻpar binolar yoki aholi punktlari, balki butun shaharlarni qamrab olmoqda[5]. Ba'zida bunday loyihalar butunlay xayoliy koʻrinadi, ammo ilmiy-texnika taraqqiyotining tobora tezlashib borayotgan sur'atlarini hisobga olsak, ularni amalga oshirish real koʻrinadi.

Belgiyalik arxitektor va biomuhandis, nufuzli arxitektura tanlovlarining koʻp karra gʻolibi Vinsent Kallebautning asarlari shunday taassurot qoldirdi. Vinsent Kallebo va uning ba'zi hamkasblarining asarlarida namoyon boʻlgan arxitektura va atrof-muhit oʻrtasidagi munosabatlarga yangi yondashuv, shubhasiz, an'anaviydan juda uzoqdir, bu juda gʻayrioddiy va hatto biroz gʻayrioddiydir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, texnik tomondan ushbu "kelajak loyihalari"(2-rasm) hozirgi zamon rivojlanish jarayonida amalga oshirish imkoniyatlari mavjud boʻlib bormoqda.

3-rasm. Ilk kelajak ekoshahri Masdar City loyiha koʻrinishlari.

Aytish mumkinki, bu asarlar me'morchilik va tabiat oʻrtasidagi qadimiy bogʻlanishlarga yangicha yoʻnalish beradi, ularni kengaytiradi, qiziqishni oshiradi. Hech shubha yoʻqki, zamonaviy me'morchilik rivojidagi bunday tendentsiyalar nafaqat yangi, ifodali san'at turlarining yaratilishiga xizmat qiladi, balki zamonaviy estetik tafakkur va munosabatni aks ettiradi, hatto butun insoniyat kelajagining ayrim jihatlari boʻyicha qarashlarni ham ifodalaydi.

Xorijiy ekoshahar loyihalariga - Masdar Cityni dunyodagi ilk kelajak ekoshahri loyihasi sifatida misol qilib keltirishimiz mumkin(3-rasm).

Masdar City - Abu Dabi shahrida joylashgan uglerod ajralib chiqishining minimal(nol) darajadagi dunyodagi

ilk yashil shahar loyihasi. Shahar faqatgina quyosh energiyalari va boshqa energiya olish yo‘llari bilan ta’minlanadi. Shahar 50 ming aholi uchun mo‘ljallangan. Hudud poytaxtga yaqin va 2025 yilga qadar qurib bitirilishi mo‘ljallangan. Loyihachilar piyodalar va velosiped yo‘lovchilari uchun yuqori darajada qulayliklar yaratib bergan.

Yashil arxitektura me'moriy bionikaning bir bo‘limi bo‘lib, u tabiiy ob'ektlar va inshootlarning kombinatsiyasiga katta e'tibor beradi.

Zamonaviy dunyoda odamlar qulay muhitda, tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga intiladi. Arxitektorlar yashil binolar majmualarini yaratishga intilishadi, ularning dizaynida yangi materiallar va yangi texnologiyalar qo‘llaniladi, murakkab geometrik shakllar bilan tuzilmalar yaratadi. Bunda ular ko‘pincha egri yuzasiga ega bo‘lgan plitalar va qobiqlardan foydalanadilar. Bunday qobiq va plitalar katta yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Mashhur me'mor Zaha Hadid ko‘pincha bunday me'moriy shakllardan foydalangan (4,5-rasm).

4-rasm. Savdo-ko‘ngilochar majmuasi. Pekin 2012 yil. (arxitektor Zaha Hadid)

5-rasm. Ozarbayjon, Boku shahridagi Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazi (arxitektor Zaha Hadid)

Yuqoridagilardan kelib chiqib “yashil” arxitekturaning asosiy tamoyillarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

1. Tabiat bilan uyg‘unlik. *Yashil arxitektura loyihalari tabiatni hurmat qiladi, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va tabiat elementlarini qo‘llaydi.*

2. Energiya samaradorligi. *Quyosh energiyasi, shamol energiyasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantiradi.*

3. Suv resurslaridan samarali foydalanish. *Yomg‘ir suvi to‘plash, suvni qayta ishlash va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.*

4. Chiqindilarni qayta ishlash. *Qayta ishlangan materiallarni va chiqindilarni kamaytirishni maqsad qiladi.*

Adabiyotlar

1. 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori.

2. Wilson, Peter. The Park and the Peak - Two International competitions // Architectural Association School of Architecture, 1983.

3. Нефедов В. А. - Ландшафтный дизайн и устойчивость среды. Санкт - Петербург, 2002 г.

4. S. S. Ojegov, A. S. O‘rolov, K. J. Rahimov. Landshaft arxitekturasi va dizayni - Samarqand, 2003.

5. «Энергоэффективные здания» Ю.А.Табунщиков, М.М.Бродач, Н.В.Шилкин; Издание: Москва, АВОК-ПРЕСС, 2003.

6. Janizaqov A.E. Arxitekturaviy konstruksiya. Darslik. Jizzax, JizPI nashriyoti 2023 y. –277 bet.

7. Janizaqov A., Kuldashev E. Bioarxitektura va barqaror shaharsozlik //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 97-100.

8. Esirgapovich, D. A. “Actual Problems of Ensuring Sustainable Ecology in Urban Planning”. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 3.6 (2022): 65-72.

9. Esirgapovich, Janizaqov Abduvaxob. “Barqaror shaharsozlik, barqaror arxitektura, bioarxitektura va bioiqlimiy arxitektura” International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 525-528.

10. Электронный ресурс - www. Gardener. ru.

УДК: 72.03

БОБУРИЙЛАР АРХИТЕКТУРАСИДАН ОЛДИНГИ ҲИНДИСТОН ИСЛОМ АРХИТЕКТУРАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

Рахимов Лазиз Абдуазизович (PhD)
Луқмонов Дилшод Қиличевич
СамДАҚУ

Аннотация: Мазкур мақолада муаллиф, мусулмон архитектурасининг вужудга келиши ва унинг Ўрта Осиё ҳамда Ҳиндистон архитектуравий маданиятига таъсирини очиб беради. Шунингдек мақолада мусулмон архитектурасининг анъанавий Ҳиндистон архитектураси билан чамбарчас боғланишида, янги ўзига хос архитектуранинг шаклланиши таҳлил қилинади.

Таянч иборалар: масжид архитектураси; мақбара тархий тузилиши; Ҳиндистон архитектуравий маданияти; гумбаз; пештоқ; равоқ; минора; меъморий ҳуснихат; Қувват –ул Ислом мажмуаси; қурилиш қонун – қоидалари.

Ислом динининг VII асрда вужудга келиши ва бу диннинг Арабистонда мустаҳкамланиши билан бутун дунё тарихида янги давр бошланади. Ислом динининг мисли кўрилмаган даражада кенгайиши илк араб халифалиги умавийлар даврига тўғри келади. Муҳаммад пайғамбар вафотидан сўнг Абу Бакр халифа деб сайланади. Абу Бакрнинг қисқа ҳукмронлиги (632 – 634) жараёнида Иккидарё оралиғи (Ироқ) ва Сурия босиб олиниб, ҳамда Византия ва Сосонийлар мамлакатлари тазийқ остида қолиб кетади. Халифа Умар даврида эса Дамашқ (635 й.), Қуддус (638 й.), Миср (641 й.), ҳамда Эрон мамлакатларининг Кавказ ортидаги вилоятлари босиб олинади. Учинчи Халифа Усмон (644 –656) даврига келиб Шимолий Африга (Мағриб) ва Эрон бутунлай эгаллаб олинади. [1]

Ислом дунёсидаги бир қатор йирик масжидлар дарҳол қурила бошланади: 638 йилда Куфа катта масжиди, 691 йилда Қуддусдаги Қоя Гумбази, 705 – 715 йилларда Дамашқдаги катта масжид, 836 – 862 йилларда Кайраван катта масжиди, 886 – 879 йилларда Ибн Тулун масжиди, ҳамда 990–1013 йилда Қоҳирадаги катта масжидлар бунёд этилади. Бу йирик марказлардаги бадиий, ҳамда меъморий анъаналар, яъни эллин маданияти, рим маданияти ва форс маданий мероси янги Ислом архитектура маданиятининг еттинчи ва саккизинчи асрлардаги шаклланишига туртки бўлди. Ислом динининг илк талабларидан бири масжид қурилиши бўлиб, бу бир вақтнинг ўзида йиғилувчиларнинг намоз ўқиши, ҳамда тарафдорларнинг муҳокама учун тўпланишига замин яратган. Муҳаммад а.с. Пайғамбарнинг Мадинадаги уйлари масжид архитектурасининг асосий намунаси сифатида бўлган. Йирик ички ҳовлига эга бўлган уйнинг жанубий қисмида, ҳамда шимолий қисмнинг бир чеккасида текис том ёпмали устунлардан иборат айвон мужассам бўлган. Кириш дарвозалари уч томонда шимол, ғарб, ҳамда шарқий деворларда бўлган. Тўғри бурчакли ҳовли Қибла томонга қарата қурилганлиги билан масжид қуриш тузилмасининг асосий намунасига айланган. Муҳаммад а.с. Пайғамбарга Қибла томонини Маккага йўналтириш 624 йилда ваҳий бўлган. Пайғамбар тарафдорларга мурожаат этиш учун уч қадам баландликдаги жойни танлаб мимбар сифатида қўллаганлар. Илк архитектуравий безаш усуллари меҳроб учун қўлланилган бўлиб, бу ўзининг вазиваси билан намоз ўқувчиларни Қибла томон тўғри туришлари учун ишлатилган. Меҳроб турган девор алоҳида нақшлар билан безатила бошланган. Пайғамбарнинг ёрдамчи- ларидан бири Билал доимо намозга чорловчи азонни айтган ва у тепалик жойга чиқиб тарафдорларни чақирган. Бу эса ўзининг навбатида масжиднинг асосий қисмларидан бири саналмиш илк миноралрнинг шаклланишига олиб келган.[2]

Уммавийлар даврига келиб масжидлар насроний ибодатхоналари қолдиқлари устига ёки умуман ибодатхонанинг бир қисмида барпо этила бошланган. Қуддусдаги Қоя Гумбази масжиди Ислом дунёсидаги илк насронийлар ибодатхонаси қолдиқлари устига қурилган масжид саналиб, олдин унинг ўрнида Сулаймон ибодатхонаси мавжуд бўлган. Дамашқдаги Катта Масжид эса умуман Авлиё Жон Баптист ибодатхонаси ёнидан қурилган. Бу ердаги устун ва бошаларнинг (капитель) эркин ҳолатда қўлланилиши, ҳамда равоқ ва гумбазларнинг Ислом маданиятидан бўлмаганлигини яққол ажратиш мумкин. Азалдан шаклланиб келган эллин маданияти меросларининг янги ислом маданияти билан боғланиши ўзига хос янги архитектуранинг шаклланишига туртки бўлди. [2]

Ўша давр Аббосий халифа- лигининг пойтахти саналмиш Боғдод архитектурасида ислом маданиятида форс маданиятининг таъсирини кузатиш мумкин. Уммавийлар даврига келиб диний иншоотлардаги тирик жон шаклли ҳайкаллар бутунлай йўқолиб бориб, улар ўрнига бинони турли хилдаги геометрик, ҳамда ўсимлик нақшли орнаментлар билан безаш авж олади. [2]

Жуда қисқа фурсатда ислом дини Арабистон ва Суриядан Кичик Осиё ва Шимолий Африка, ҳамда Испания ҳудудларигача ёйилиб, фақатгина 732 йилда Тура олдидаги уруш орқали, яъни Франциянинг марказигача етиб келган ислом динининг ғарбий ёйилиши тўхтатилади. Аммо, шарқий ёйилиш Форс мамлакатидан Осиё мамлакатлари орқали ўтиб, Ҳиндистон чегараларигача етиб келади. Қитъа ҳудудларидаги илк босқинчилик ҳаракати еттинчи асрнинг охиридан бошланган бўлиб, бу даврда араблар Синд воҳвсига (ҳозирги Покистоннинг жанубий вилоятлари) бостириб кирганлар. VIII асрнинг бошлариданоқ Синд воҳаси араблар томонидан босиб олиниб мусулмон мамлакатига айлантирилган. Ҳиндистон мамлакати кейинги уч аср давомида жиддий хавф таъсирида бўлмаган эди. Хавф кейинроқ умуман бошқа томондан пайдо бўлди. [3]

Илк босқинчилик ҳаракатлари аста – секин унутилиб, Шимолий Ҳиндистон ўзга ерликлар тазийқидан холи бўлгандай эди. Аммо, ички бошбошдоқликлар, яъни кичик шаҳарларнинг мамлакат тепасига чиқиш ҳаракатлари бу йирик ҳудуднинг бир қатор подшоҳликлар ва хонликларга бўлиниб кетишига сабаб бўлди. Бу эса ўзининг навбатида мамлакатдаги ички тартибсизликларни вужудга келтириб, мамлакатнинг ҳам ижтимоий, ҳам иқтисодий заифланишига олиб келди. [3]

Шимолий ва Марказий Ҳиндистон тарихида бу давр ичида Раджпутлар авлоди ҳукмронлиги кучайиб боради. Раджпутлар ўзларини “Шоҳ ўғиллари” деб билиб, гунн (V–VI асрларда Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган) аждодлари ворислари деб ҳисоблашганлар. Бу жамоа аста – секинлик билан ўз қудратларини мустаҳкамлаб бориб, IX – X асрларга келиб охир – оқибатда шимолнинг асосий ҳукмдор авлодларига айланишади. Бу қабилалар ичидан асосийлари Чаханалар, Чалакуйлар, Пратихаралар ва Парамара-лар ҳисобланиб улар ўзларининг қавм-ларини “Агникула”, яъни олов авлоди деб билганлар. Деярли XI – XII асрлар мобайнида бу қавмлар бир – бири билан мамлакат тепасига чиқиш учун урушиб келганлар.[3]

X–XI асрларга келиб туркий қабилалардан бўлган Салжуқийлар Ислом дунёсида кучли мамлакатлардан бири сифатида намоён бўлади. Уларнинг мавқеилари ошиб бориб, араб халифалигининг бир қисми, Сурия ҳамда Эрон уларнинг тазийқи остида қолиб кетади. Салжуқийлар кўплаб мадрасалар барпо этадилар. Айнан Салжуқийлар усти гумбазли тўрт – айвонли ҳовли архитектуравий анъанасини шакллантирадилар. Шу даврда пештоқ маҳобатли тус олади. Мақбаралардаги галереяли заллар, бурчакдаги миноралар, ҳамда қўшгумбаз формалар архитектурада шакллана боради. Миноранинг шакли форс маданияти асосида декоратив нақшлар билан маҳобатли тус олади. Илк миноларнинг шакллари тўрт бурчак шаклли бўлиб, бундай миноралар асосан Сурия, Испания ҳамда Шимолий Африка ҳудудларида учраган. Асоси цилиндрик шаклли, ягона ҳамда қўш зинали ва айвончалик миноралар асосан Салжуқийлар архитектурасига мансуб бўлган. Айвон билан боғланган қўшминораларнинг Ислом дунёсининг турли қисмларида қўлланилиши Салжуқийлар архитектурасининг нақадар ривожланган бўлганлигидан далолат беради. Бу даврда бурчаклардаги бўшлиқларни қоплаш учун ишлатилган муқарнаслар, эндиликда ислом маданиятининг асосий декоратив қисмларига айлана борган. Салжуқийлар архитектурасининг яна бир хусусиятли томони шундан иборат бўлганки, улар масжид деворларини безатишда мармар тошларидан фойдаланилган. [2]

Ислом архитектурасининг безак-лари ичида энг асосий ўринни ҳуснихат эгаллайди. Қуръондаги сура оятлари ҳам диний, ҳам рамзий, ҳамда декоратив нақш сифатида қўлланилган. Гумбаз остидан, меҳроб бўйлаб, ҳамда миноралар бўйлаб ёзилган ёзувлар ўқилиш учун эмас балки иймонни мустаҳкамлаш учун ҳам битилган. Ҳуснихат ёзувлар олдинги архитектура-лардаги шаклли ҳайкаллар ўрнини босади десак муболаға бўлмайди. [2]

Яна бир Ислом архитектурасидаги асосий элемент бу - равоқдир. Равоқ ҳам декоратив, ҳам мустаҳкам қурилма сана-либ, бу шакл ислом архитектурасининг деярли барча қисмларида: пештоқда, айвонда, меҳробда, ҳамда гумбаз ости қурилмаларида қўлланилиши, равоқни Ислом архитектурасидаги мажбурий элементга айлантиришига олиб келди. [2]

X аср охирларига келиб Мовароуннаҳр ҳудудида туркий халқлар сулоларининг мавқеи ошиб боради ва ана шундай мусулмон туркий – давлатларидан бири ғазнавийлар давлати пайдо бўлади. Мамлакатнинг учинчи ҳукмдори Маҳмуд Ғазнавий (998 – 1030 й.) даврида Ғазна мисли кўрилмаган гуллаб яшнаш даврини бошидан кечиради. Айнан шу пайтдан бошлаб Ҳиндистондаги илк юришлар бошланади. 977 йилдан бошлаб Маҳмуд Ғазнавий “ислом шамшири” тахаллуси асосида Ҳиндистонга 17 маротаба қақшатқич зарба беради. 1010 ва 1026 йиллар оралиғида Маҳмуд Ғазнавий Матхуру, Тханесар, Канауж, Нагаркот, ҳамда барча мажмуалардан бойроқ саналган Гужаратдаги Самнатх ибодатхона комплексини босиб олиб талон тарож қилади.

Аммо, Маҳмуд Ғазнавийнинг ҳукмронлиги остида фақатгина Лаҳор вилояти кирарди. Маҳмуд

Ғазнавий ворислари ҳукмронлиги даврида салжуқийларнинг хавфлари натижасида Ғазнавийлар пойтахти Лаҳорга кўчирилади. [4]

Маҳмуд Ғазнавий ҳукмронлиги-нинг охирги йилларида Панжоб ҳам мамлакатнинг бир қисмига кириб, Шимолий – Ғарбий Ҳиндистонда эса ислом дини мустаҳкамлашади. Маҳмуд Ғазнавийнинг ўлимидан сўнг, шимолий – ғарбий томондаги тазийқ унутилиб, яна маҳаллий хонликлар орасида мамлакатни эгаллаш учун урушлар бошланиб кетади. Бу эса ўзининг навбатида яна Ҳиндистоннинг ташқи ҳужумга қарши тура олмаслигининг намунаси бўлди. Ғазнавийларнинг салжуқийлар билан кураши вақтида Афғонистондаги Ғур хонлигининг кучайиши натижасида 1173 йилда Ғиёсиддин Муҳаммад Ғурийнинг Ғазнани олиши ва 1186 йили эса, унинг укаси Муйиддин Муҳаммаднинг Лаҳорни ишғол қилиши билан, ғазнавийларнинг Ҳиндистондаги ҳукмронлиги тугатилади. [5]

Маҳмуд Ғазнавийнинг ўлимидан 150 йил ўтгандан сўнг султон Муҳаммад Ғурий Ҳиндистонга ҳужум қилади. 1175 йилда Муҳаммад Ғурий ўзининг ҳарбий қўмондони, қулликдан озод қилинган Қутбиддин Ойбек билан Ҳиндистон томон илк ҳарбий юришни бошлайди. Синд воҳаларини эгаллаганидан сўнг, Панжоб томон йўл олади ва 1179 йилда Пешоварни, 1186 йилда эса Панжоб пойтахти Лахорни эгаллайди.

Шу ердан султон Муҳаммад Ғурий Раджапут мамлакатини босиб олишга отланади. Ганга соҳилларигача ёйилган Раджапут мамлакати қаҳрамон Притҳвираж III қўл остида бирлашиб, 1191 йилда Тараинада бўлган тўқнашувда Муҳаммад Ғурийга қақшатқич зарба беришади. Оғир яраланган Муҳаммад Ғурий жанг майдонини ташлаб кетишга мажбур бўлади. Аммо, бир йил ўтмасдан Муҳаммад Ғурий янги куч тўплаб, яна уруш қилиш учун Тараинага етиб келади. Бу сафар омад Притҳвираждан юз ўгиради. Унинг иттифоқчилари фитна уюштириб уни ўлдирадилар ва мамлакатнинг тақдири Муҳаммад Ғурий қўли остига ўтади. Муҳаммад Ғурий Қутбиддин Ойбекни биринчи Деҳли султони деб тайинлаб, ўзи Афғонистонга қайтади. Кейинги йилда Жей Чанд, ҳамда Канауж ҳукмдори қўшинлари тор – мор этилиб, янги ислом мамлакати ҳудудларига қўшилади. 1202 йилга келиб Бенгалия ва у билан бирга Бихар, Орисса ва Ассам ҳудудлари ҳам босиб олинади. [3]

Айнан шу йилда Қутбиддин Ойбек Каланжар воҳаларини эгаллаб олиб, улардан катта товон тўлашларини амр этади. Ибодатхоналар талон – тарож этилиб уларни масжидга айлантиради. Шу йилда Гвалиор ҳам босиб олинади. [4]

XIII асрнинг бошларида Муҳаммад Ғурийнинг яна бир қўмондони Ихтиёр уд –дин Муҳаммад Бахтиёрхон Бенгалияни босиб олади. Ўзининг жанговор фаолияти даврида Каштмандини, Бхагват ва Бхиулини (ҳозирги Уттар Прадеш), сўнгра эса Мунир ва Бихар воҳаларини эгаллаб олади. Бахтиёрхон ўзининг пойтахти сифатида Лакхнаутини танлайди. Ўзини мустақил ҳукмдор деб эълон қилиб Қутбиддин Ойбекга қимматбаҳо совғалар жўнатади. Шу тариқа туркий сулолаларнинг Жанубий Бихара ва Ғарбий Бенгалия ҳудудларидаги ҳукмронлиги ўрнатилади. [4]

Шундай қилиб, Муҳаммад Ғурий ва унинг қўмондонларининг муваффақ-қиятли жангларидан сўнг, Ҳиндистон-нинг шимолида биринчи мусулмон ҳарбий – феодал ҳукмронлигини ўрнатади. Бу давр ичида янги мамлакатнинг босиб олинган ҳудудларига шимоли – шарқда - Лаҳор, Мўлтон, Уч, Сивистан (Сахвана), шимолда - Сарсути (Сарасвати) ва Самана, шарқда эса - икки дарё оралиғидаги Ганга ва Жамна воҳалари, ҳамда Гангадан Гонгра воҳаларигача бўлган ерлар, ҳамда Канаудж, Ауд, Лакхнаутилар кирган. Шу давргача босиб олинган ерларнинг катта қисми ва “Ҳинд ислом маркази” саналган Лаҳор Қутбиддаин Ойбекнинг қўлида эди. 1206 йилда Ҳинд дарёси қирғоғидаги жангда Муҳаммад Ғурий “хохар қабиласи” томонидан ўлдирилгач, Қутбиддин Ойбек ўзини ғурийпар тасарруфидаги ерларнинг султони деб элон қилди.[5] У ўзининг пойтахти қилиб Деҳлини танлайди ва шу пайтдан бошлаб Деҳли Султонлигига асос солинади ва бу мамлакат ҳукмронлиги 320 йил давом этиб, шу давр миқёсида бешта туркий ва авғон ҳукмдорлар аждодлари бир – бирларини алиштириб келишади. [3]

Қутбиддин Ойбек ўзининг тахт теппасига келишини нишонаси сифатида илк қурилишни бошлаб юборади. Бу бино Қувватул Ислом Масжиди (ўлчамлари 66 х 46 м.) бўлиб, Ражпут фортида бунёд этилади. Бунинг далили сифатида бинонинг ички шарқий кириш дарвозалари устида шундай битикларни ёздиради: “Бу форт босиб олинди ва бу Жомъе Масжид 587 (1191 – 92) йилда буюк қўмондон Қутбудавлат–ва–дин, Умар Ойбек Султон Амир томонидан барпо этилди”. Ислом динида тарафдорларнинг намоз ўқишлари учун масжид қуриш зарурияти-нинг пайдо бўлганлиги сабабдан Қутбиддин Ойбек зудлик билан масжид бунёд этишга изн беради. Вақт тиғизлиги сабаб у ўзининг ватанидан меъморларни, халқ усталарини ва қурувчиларни олиб келишга тоқат қилмайди. Айнан шу пайтдан бошлаб, Ҳинд воҳасининг илк ислом меъморчилигига тегишли бино, икки бир – бирига ўхшаш бўлмаган маданият вакилларининг ҳамкорликдаги, яъни маҳаллий қурувчи ишбошчилари ҳамда мусулмон назоратчилари остида вужудга келади. Ҳатто бино қурилишида қурилиш материалларнинг йўқлиги сабабли Қутбиддин Ойбек масжид атрофида мавжуд ибодатхоналарни бузиб, тошларини янги бинога ишлатилишига амр беради. [6] Масжид олдинги ибодатхона ёнига бириктириб қурилган. Масжид меҳроби Макка томон қаратилган. Масжид тез бунёд этилган ва бизларгача харобаларда сақланиб келган. 1199 йилда Ойбек Ғазнадан қайтиб масжид

бошпанаси олдидан беш равоқли пештоқ ясашни буюради. Бу бешравоқли пештоқ (узунлиги 33 м.) ўртада маҳобатли равоқ (баландлиги 15.2 м.) ва ёнларидан кичикрок иккитали равоқлардан, ҳамда уларнинг ёнидан эса, кичик қўшравоқлардан иборат қилиб барпо этилган. Тўққиз равоқдан иборат бу қурилма илк Султонлик давридаги юксак архитектуравий маданиятни акс эттиради. Равоқлар деворга маҳкамланган таянч асосида барпо этилган бўлиб, Ислом равоқидан фарқ қилган. Шу тариқа равоқнинг устки қисми Буддавий чайтяларнинг шаклига ўхшаш қилиб қурилган. Бунинг асосий сабаби эса азалдан халқ усталари орасида анъананинг сақланиб келинганлиги десак муболаға бўлмайди. Масжиддаги маҳобатли равоқ Ҳиндистондаги Ислом архитектурасидаги ҳашаматли архитекту-равий намуналардан бири саналади. [2]

Шу тариқа Ҳиндистондаги илк ислом иншоотларининг зудлик билан барпо этилиши, икки бир – бирига ўхшаш бўлмаган маданият вакилларининг ҳамкорликдаги, яъни маҳаллий қурувчи ишбошчилари ҳамда мусулмон назоратчилари остида вужудга келади. Бу эса ўзининг навбатида янги анъананинг шаклланишига, яъни жиддий Ислом биноларида маҳаллий ҳинд ҳайкал-тарошлик маҳоратининг қўлланилишига олиб келди.

Адабиётлар

7. Васильев Л.С. История Востока. Том 1. М. 2005
8. Sahai, Surenda. , Indian Architecture Islamic Period 1192-1857. Prakash Books India Ltd. New Delhi 2004.
9. Таммита – Дельгода С. Индия. История страны.[пер.с анг. П.Крылова].-М.: Эксмо; СПб.: Мидгард, 2010.- 352 с.
10. Ашрафян К.З. Делийский султанат. М.: Изд-во вост. лит. 1960
11. Низомиддинов. Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI – XIX аср). Тошкент 2012
12. Grover Satish., Islamic Architecture in India. Galgotia Publishing Company. New Delhi 1996.

УДК: 72.03

БОБУРНИНГ МОВАРОУННАҲР ВА ХУРОСОНДАГИ АРХИТЕКТУРАСИ

Рахимов Лазиз Абдуазизович (PhD)
Луқмонов Дилшод Қиличевич
СамДАҚУ

Аннотация: Мазкур мақолада муаллиф, Бобур архитектурасининг вужудга келиши ва унинг Бобурийлар томонидан ривожлантириш анъаналарини таҳлил қилган. Бундан ташқари, Бобурийларнинг ҳар бири архитектуранинг ривожланишига нақадар таъсир этганлигини ҳам аниқ баён этган.

Таянч иборалар: Бобур архитектураси, Бобурийлар услуби, Мовароуннаҳр архитектураси, Хуросон архитектураси.

Форс тарихчиларининг маълумотларига кўра, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳижрий 888 йилнинг муҳаррам ойида (1483 йилнинг февралида) туғилган. Унинг отаси Умар Шайх мирзо (1462 – 1494) Фарғона вилоятининг ҳокими бўлган.[1] Бобурнинг ёшлиги асосан Ақса ва Андижон шаҳарларида ўтган. У ёшлигиданоқ отасининг саройида яхши таълим тарбия олади. Андижон Темурийлар пойтахти Самарқанддай ривожланган бўлмасада, Умар Шайх мирзо Мовароуннаҳр ҳукмдори Султон Аҳмад мирзога тақлид қилиб, ўзининг саройида уламо – олимлар ва шоирларни жалб қилган, табиийки унинг болалари шу муҳитда тарбияланган.[2]

Умар Шайх мирзонинг бевақт ўлими сабабли, вояга етмаган Бобур Фарғона вилоятининг ҳокими деб тайинланади. Аммо, садоқатли амирлари билан Андижонга келганида, шу маълум бўладики, Султон Аҳмад мирзонинг қўшинлари Қува шаҳрида 7 – 8 км. масофада саф тортиб турган бўлади. Султон Аҳмад мирзо Ўра-Туба, Хўжанд, Марғилон шаҳарларини босиб олган бўлиб, энди Андижонга ҳужум қилиш арафасида эди. Яна шу мақсад билан Тошкент ҳукмдори Султон Маҳмудхон ҳам қўшин тортган. Унинг қўшинлари Косон ва Ақсани босиб олган эди. Бундан ташқари, қашғарлар ҳукмдори Абу Бакр – дуғлат Қашғари ҳам Фарғона вилоятига кўз олайтиради.[3]

Фарғона вилоятининг амалдорлари мамлакатнинг мустақиллиги учун Султон Аҳмад мирзога Заҳириддин Бобурни ҳаққоний Фарғона вилоятининг ҳукмдори сифатида тан олишини талаб қилишади. Самарқанд ҳукмдорига йўлланган номада Бобур шундай деган эди: “Бу вилоятда сизнинг қайси бир мулозимлардан бири қўйилади, мен ҳам мулозим, ҳам фарзандман, агар бу хизматни менга топширсалар яхшироқ ва маъқулроқ бўларди”.[4] Натижада, Султон Аҳмад мирзо Фарғона билан тинчлик битимини тузиб Самарқандга қайтишга мажбур бўлади. Шундан кейин, фарғоналикларга душман қўшинлари билан курашиш анча енгил бўлиб, биринчи қашғар қўшинларини, кейин эса Султон Маҳмудхон қўшинларига қаршилик кўрсатадилар. Мамлакатдаги муҳит осойишта бўлганидан сўнг, Бобур Фарғона вилоятининг ҳукмдори деб эълон қилинади. Бу вақтда Бобур 12 ёшда бўлганлиги сабабли, мамлакатнинг сиёсий ишларини бажариш Хўжа – қози, ҳамда Бобурнинг бувиси Эсон Давлатбегим зиммасида юкланган эди.[2]

Бобурнинг илк бунёдкорлик фаолияти 14 ёшлигидаёқ бошланган. “Бобурнома”да этироф этилишича: “Андижоннинг шарққа мойилроқ, шарқий жанубий тарафида Ўш шаҳарчаси бордур. Қўрғоннинг шарқи жанубида бир кўркам тоғ ростлаган, Барокўҳ деб номланади. Бу тоғнинг чўққисида Султон Маҳмудхон бир ҳужра солган. У ҳужрадан қуйироқда, ушбу тоғнинг тумшуғида тўққиз юз иккинчи йили (1497) мен бир айвонли ҳужра солдирдим. Гарчи у ҳужра юксакроқда бўлса-да, бу ҳужра ҳам кўп яхши жойда қад кўтарган: бутун шаҳар ва маҳаллалар шундайгина кўриниб туради. Барокўҳ тоғининг этагида – шаҳар билан тоғ орасида бир масжид қад кўтарган, масжиди Жавзо номли. Тоғ тарафидан бир катта ариқ оқади. Ушбу масжиднинг ташқи саҳни нишаброқ, себаргалик, сersоя, сафолик майдондир”.[4]

Булардан шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, Бобур Мирзо ёш бўлишига қарамасдан ҳужра қурилиши учун энг мўътадил жой, яъни гўзал ландшафтга эга бўлган тоғнинг учини танлаб олиши ва бутун маҳаллий атрофнинг бу чўққидан яхлит кўринишини таъкидлаши, бу зотнинг жой танлаш ва бинонинг табиат билан боғлаш сирларини билганлигидан далолат бериб турибди.

“Бобур Уйи” шакли темурийлар архитектурасига хос қурилган бўлиб, тархий ўлчамлари 4,2 х 6,0 м.ли қилиб барпо этилган. Ҳужра тепаси “шалғомий” гумбаз билан ёпилган ва унинг диаметри 2,5 м.ни ташкил этади. Ҳужра паст бўлишига қарамасдан, 6 м.ли маҳобатли кираверіш пештоқи ҳисобидан салобатли кўринади. Бино деворлари оддий пишиқ ғиштдан терилиб, нақш ёки кошинлар билан безатилмаган. Фақатгина пештоқ ўйма ғиштлардан ва ганч ўймаси, яъни гириҳлар билан безатилган. Пештоқда рангли кошин ёки майолика ишлатилмаган бўлса-да, равоқ ичидаги олти қиррали юлдузлардан тузилган гириҳлар, бу бинонинг такрорланмас обида бўлишига хизмат қилди. Равоқ ичи, яна учта кичик равоқчалар билан боғланган. Бино асосан икки хил рангдан иборат бўлиб, бири ғишт ранги бўлса, иккинчиси оқ ганч рангидир. Бобур Мирзо қурдирган ҳужра оддийроқ архитектурага эга бўлса-да, бино пештоғидаги нақшинкор орнаментларнинг моҳирона дид билан бажарилганлиги бинога ўзгача чирой берган.

Самарқанд ҳукмдори Султон Аҳмаднинг 1495 йилда вафот этгани ва унинг вориси 18 ёшли Бойсунқор мирзонинг тахт теппасига чиқиши билан Самарқандни эгаллаш учун урушлар бошланиб кетади. Бу урушларда Бобур ҳам Темурийлар пойтахтини қўлга олиш учун уч маротоба ҳаракат қилади ва ниҳоят 1497 йилда тахтни эгаллашга муваффақ бўлади. Айнан мана шу йилларда Бобур Мовароуннаҳр архитектурасини таҳлил қилишни бошлайди. Бобурномада буюк Темур томонидан Самарқандда барпо этилган бино ва иншоотларни галма – гал назарий таърифлаб ўтади. “Бобурномада” ёзишича: “Шаҳри — Самарқанд, вилоятини Мовароуннаҳр дейдилар... Самарқанд ҳазрати амир ул-мўминин Усмон замонида мусулмон бўлгандир. Саҳобадан Қусам ибн Аббос у ерга боргандир. Қабри Оҳанин дарвозасининг ташқарисида. Ҳозир Мозори Шоҳ (Шоҳи Зинда) номи билан машҳур... Темурбекнинг иморатлари, боғлари Самарқанд маҳаллаларида кўпдир. Самарқанд аркида Темурбек бир улуғ кўшк солган, тўрт қаватли, Кўксарой номи билан маълум ва машҳур, жуда юксак иморатдир. Яна Оҳанин дарвозасига яқин қалъанинг ичида тошдан бир жомеъ масжиди солган, у ерда аксарият Ҳиндистондан олиб келинган тошйўнарлар ишлаганлар. Масжиднинг пештоқи китобаси — ёзувида: “Ваъ из ярфаъу Иброҳим ал-қавоида (ило охириҳи)” оятини шундай йирик ҳарфлар билан ёзганларки, уни бир курўҳга ердан ўқиса бўлади. Бу ҳам жуда юксак иморатдир... Темурбекнинг набираси, Жаҳонгир мирзонинг ўғли Муҳаммад Султон мирзо Самарқанднинг тош қўрғонида — чақарда бир мадраса солган. Темурбекнинг қабри ва авлодидан ҳар кимки Самарқандда подшоҳлик қилибди, уларнинг қабри ўша мадрасададир.”[4] Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики, Бобур бобокалони Амир Темур архитектураси билан ҳамнафас катта бўлган. Бундан ташқари, унинг маълумотларидан Темурга бўлган юксак ҳурмат ва мағрурлик ҳиссини англаб олиш мушкул эмас.

Буюк Амир Темур архитектурасини юксак даражада давом эттирган Мирзо Улуғбек фаолиятини ҳам Бобур шундай изоҳлайди: “Улуғбек мирзонинг йирик иморатларидан Самарқанд қалъасининг ичидаги мадраса ва хонақоҳдир. Хонақоҳнинг гунбази жуда катта гунбаздир; оламда унчалик катта гунбаз йўқ, деб ҳисоблайдилар. Яна бу мадраса ва хонақоҳга яқин бир яхши ҳаммом солдирган, бу Мирзо ҳаммоми сифатида машҳурдир. Унинг саҳнига ҳар хил тошлардан тўшалган. Хуросон ва Самарқандда бундай ҳаммом борлиги маълум эмас. Яна бу мадрасанинг жанубида масжиди Муқаттаъ номли бир масжид солдирган. Муқаттаъ (бўлакланган) дейишларининг сабаби, бўлак-бўлак ёғочларни тарашлаб, ислимий ва хитойи нақшлар солингани, бутун деворлари ва шифтлари ушбу йўсинда нақшланганидандир. Бу масжиднинг қибласи билан мадраса қибласининг орасида кўп тафовут бор. Афтидан, бу масжид қибласини аниқлашда мунажжим усулини (астрономик йўсинда) қўллаганлар. Яна бир юксак иморати Кўҳак тепалиги этакларидаги расадхонадирки, бу зиж битмак (астрономик жадвал тузиш)нинг масканидир. Уч қаватлидир. Улуғбек мирзо бу расадхонада “Зижи Кўрагоний” (“Кўраго- ний астрономик жадвали”)ни тузгандирки, оламда ҳозир бу жадвал амалдадир... Яна Кўҳак тепалигининг этагида, ғарб томонида Улуғбек мирзо Боғи Майдон деб аталган бир боғ солгандир. Бу боғнинг ўртасида бир юксак иморат қад кўтарган. Буни Чилсутун (қирқ устунли) дейдилар, икки қаватли,

устунларининг ҳаммаси тошдан. Бу иморатнинг тўрт бурчагида минорасимон тўрт бурж (ичи айлана зинали миноралар) тиклаганларки, юқори чиқиладиган йўллар бу буржлар орқалидир. Бошқа ҳамма жойлардаги устунлари тошдан. Баъзисини тошни йўниб илон ўралган тарзда ўймакорлик билан ишлаганлар. Юқоридаги қаватнинг тўрт томони айвон бўлиб, устунлари тошдан ясалган.”[4] Маълумотлардан кўриниб турибдики, Бобур мана шу даврлар мобайнида Темурийлар архитектурасини ҳам тарихий ҳам назарий жиҳатдан мукаммал таҳлил қилган. Айниқса, ўша даврда пойтахт саналган Самарқанд обидаларига юқори савияда баҳо берган.

Бобур Самарқандда кўп вақт ҳукмронлик қила олмайди. Негаки, бу даврда унинг она юрти Андижон Узун Хасан томонидан эгаллаб олинади. Икки йиллик уринишлардан сўнг Бобур 1499 йилда яна Андижонни эгаллашга муваффақ бўлади. Лекин бу билан мамлакатда тинчлик ҳукмрон бўлмайди. Бобурнинг укаси Жаҳонгир мирзо Султон Аҳмад Танбал ёрдамида бош кўтариб, Фарғона вилоятининг иккига бўлинишига сабаб бўлади. 1500 йилда эса Самарқанд жангсиз Шайбонийхонга топширилади. Шу йилда Бобур Самарқандни иккинчи маротаба қўлга олишга муваффақ бўлади. Аммо, кўп ўтмай 1501 йилда Шайбонийхоннинг қамали натижасида Бобур Тошкентга қочишга мажбур бўлади ва Султон Махмуддан ёрдам сўрайди. Аммо, бу юришда ҳам Шайбонийхон қўшинлари устун келади.[2]

1504 йилга келиб Шайбонийхон ҳукмронлигига Мовароуннаҳрнинг йирик шаҳарлари - Самарқанд, Бухоро, Ўш, Андижон ва Тошкент кирган. Бобур Фарғона вилоятидан чекиниб, Хуросон томон йўл олишга мажбур бўлади.[2]

1504 йилнинг сентябр ойига келиб Муқим Аргун устидан қозонилган ғалаба натижасида Бобур Қобул вилоятининг темурий ҳукмдори деб эълон қилинади.[2] Ўша даврдаги удумларга биноан Бобур Қобул ҳудудларини ўзининг яқинларига бўлиб беради. Бобурнинг ёзишича: “Муқимга рухсат бергандан сўнг Қобул вилояти мирзоларга ва барча меҳмон бекларга тақсим қилинди. Ғазни тумани унга қарашли жойлар билан Жаҳонгир мирзога берилди. Нингнаҳор туманини, Мандировар, Дараи Нур, Кунар, Нургал ва Жиғонсарой Носир мирзога берилди. Ўзим билан саргардонликларда бўлиб келган беклар ва йигитларнинг баъзиларига кент, қишлоқдек масканлар берилди. Ҳеч кимга вилоят берилмади”.[4]

Бобур “Бобурнома” асарида Қобул шаҳрининг табиий ҳудудларини деярли аниқ ёритиб берган ва европалик олимларнинг XIX – XX асрлардаги тадқиқотлари натижалари билан солиштирганда кўп ўхшашликларга эга.[2] Бобур шундай ёзади: “Қобул вилояти тўртинчи иқлимдадир. Шаҳар обод ерларнинг ўртасида жойлашган. Кичкина вилоятдир. Узунасига чўзилган. Шарқдан ғарбга томон ястанган. Атроф тевараги батамом тоғдир. Қалъаси тоғга туташган. Қалъанинг ғарби – жануб тарафида кичикроқ тоғ бор. У тоғнинг чўққисида Қобул шоҳи иморат қилгани боис бу тоғни Шоҳи Қобул дейдилар”.[2]

Қобул шаҳри арки, яъни “Боло Ҳисор” тахминан V асрда қурилган бўлиб, тошли ҳамда ғиштли девор билан қад кўтарган.[5] Арк Укабайн (икки бургут) тоғининг чўққисида барпо этилган. Қобул шаҳри жуда яхши қўриқлов зонасида жойлашган эди. Негаки, шаҳар бир қисмдан Ҳиндиқуш тоғ тизмасининг бир қисми саналмиш Шоҳи Қобул билан ўралган бўлса, бу тоғнинг шарқий қисмида яъни, аркнинг жанубида йирик, майдони тахминан 2 км.гача ёйилган кўл мавжуд бўлган. Кўлдан юқорироқда гавдаланган тоғ бағрида учта гўзал гўша мавжуд бўлиб, улар Сиёҳ – Санг, Сўнак Қўрғон, ҳамда Чолок номи билан машҳур.[2]

Бобур Қобул вилоятидан ташқари яна Ламғонот вилояти тўғрисида қимматли маълумотлар қолдирган: “Шарқи Ламғонот вилояти беш туман ва икки бўлукдир (тумандан кичикроқ кент). Ламғон туманларидан каттароғи Нингнаҳордир. Нингнаҳор билан Қобул ораси жуда ёмон йўлдир. Бу ерларда эл яшамас, йўлтўсарлар кўп, ободончилик йўқ эди. Қўруқсойнинг этаги – Қорату мавзесини мен бунёд қилдирдим (1503 – 1504 й.). Шундан сўнг йўл хавф – хатарсиз бўлди”.[4]

Бобурномада Бобур Музаффар Мирзо уйи ҳақида муҳим архитектуравий тасниф беради: “Бир неча кундан сўнг Музаффар Мирзо уйига чорлади. Музаффар Мирзо Боғи Сафидда ўтирарди. Музаффар Мирзо бизни Абулқосим Бобур Мирзо солган Тарабхона деб номланган иморатга олиб борди. Тарабхона боғчанинг ўртасида бунёд топган. Ихчамроқ иморатдир. Икки қаватлик. Лекин ёқимли иморатдир. Юқориги қаватига кўп безак берибдилар. Тўрт бурчагида тўрт ҳужраси бор. Бу тўрт ҳужрага олиб кирадиган уй истироҳат хонасидир. Бу уйдирки, ҳужраларнинг оралиғи тўрт шаҳнишин (яъни, уйларнинг тўридаги супасимон баландроқ қисм) йўсинлик эди. Бу уйнинг ҳар томонига суратлар осилган. Бу иморатни Бобур Мирзо қурган бўлса-да, лекин бу тасвирларни Султон Абусаид Мирзо буюргандир. Унда ўзининг саф тортишларию жанглари тасвирланган. Шимол тарафдаги шаҳнишинга бир – бирига қаратиб иккита тўшак солдилар, тўшакларнинг ёнлари шимолга қараган эди. Бир тўшакда Музаффа Мирзо ва мен ўтирдик”.[4]

Рам Натнинг фикрича: “Бу тасниф Ҳиротдаги боғ ичида жойлашган икки қаватли бино таснифи бўлиб, Бобур 1506 йилда бу иморатга ташриф буюрган. Бу иморатнинг тархи жуда қизиқдир, хоналар иморатнинг бурчакларида, ҳамда томонларнинг ўрталарида айвонлар мавжуд бўлиб, ўртадаги боғ пастроқда жойлашган. Сабаби, шоҳ ўтирган жойидан одамларга кўриниши учундир. Бобурнинг маълумотларидан шу маълум бўладики, шаҳнишинда улар учун жой тўшалганлиги, бу жойнинг шоҳ учун мўлжаллаб қурилганлиги ва

унинг анча кенг бўлганлигидан далолат беради. Бурчакларда хужралар жойлашган бўлиб, улардан кейин саккизта айвонли хоналар ўртароқда жойлашган. Бу хоналарнинг деворларида жанг саҳналари тасвирланган. Бобурнинг деворий суратлар ҳақидаги маълумотлари жуда қимматли бўлиб, етмиш йилдан сўнг шу йўсинли деворий суратлар Фотеҳпур Секридаги деворларда ҳам акс эттирилади”.[6]

1510 йилда Шайбонийхоннинг Марв ёнида бўлган жангда вафот этиши натижасида, Эрон ҳукмдори Исмоил Сафавий Бобурга иттифоқ бўлиб, Мовароуннаҳрга ҳужум қилиш номасини жўнатади. Бобур Темурийлар пойтахтини эгаллаш мақсадида бу иттифоқга рози бўлади. Бу даврда Мовароуннаҳрнинг асосий ҳудудлари Севинчок Султон, Жонибек Султон ҳамда Убайдуллохон ҳукмронлигида эди. Аммо, Бобур Бухородаги муҳим тўқнашувга келганида Убайдуллохон жангсиз Бухорони ташлаб, Туркистонга чекинади. Бу эса ўзининг навбатида Мовароуннаҳрнинг деярли қийинчиликсиз эгалланишига туртки бўлди. Бобур Самарқандни эгаллаганидан сўнг, жума намози хутбасини Исмоил Сафавий ва ўн иккита шиа мазҳабли имомлар номига ўқилиши халқ орасида катта норозиликларга сабаб бўлади. Бундай вазиятдан фойдаланган Убайдуллохон ўзининг беш минглик қўшини билан 1512 йилнинг апрелида Бухоро томон йўл олади. Бундан хабар топган Бобур қирқ минглик қўшини билан 28 апрелда Кули Малик ёнида ҳал қилувчи жангда иштирок этади. Аммо, Бобур бу жангда енгилади ва Мовароуннаҳрдаги саккиз ойлик ҳукмронлиги охирига етиб, абадул абад Мовароуннаҳрни тарк этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди л. 986. С.А. Азимджанова. К истории Ферганы второй половины XV в. Ташкент 1957.

2. С.А. Азимджанова. Государство Бабура в Кобуле и в Индии. «Наука» Москва – 1977.

3. Бабур-наме. Записки Бабура, пер. М.Салье, под ред. С.А. Азимджанова, – Ташкент.“ Главная редакция энциклопедий” 1993.

4. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома – Тошкент.: “O`qituvchi” НМИУ 2008.

5. ВИА (под редакцией Ярослава Ю.С.) том VIII.M.1969.

6. Nath R. India as seen by Babur.(AD 1504-1530). MD Publications PVT LTD. New Delhi 1996.

ISLOM VA FORS BOG'LARI ARXITEKTURASI: AN'ANAVIY CHAHAR-BOG'NING DUNYO LANDSHAFTLAR ARXITEKTURASIGA TA'SIRI

Akramova Xolida Alisher qizi,
SamDAQU tayanch doktoranti
Ilmiy rahbar: arxitektura fanlari doktori, Professor **Uralov Axtam Sindarovich**
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
Sadikova Sitorabonu Nematdjonovna
SamDAQU DSc doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola **islom bog'lari pirovardida Fors bog’larining arxitekturaviy asoslari**, **Chahar-bog'larining madaniy va estetik ahamiyati,** ularning bugungi kundagi ekologiya, landshaft dizayni va arxitekturasiga ko’rsatayotgan ta'sirini ochib berish va baholashni maqsad qilgan. Mavzuga doir adabiyotlar ma’lumotlarini, rasm va chizmalarni o’rganish, ularni tahlil qilish va taqqoslash orqali Islom bog'lari arxitekturasining faqatgina estetik tomonlarini emas, balki uning tarixiy, madaniy, ekologik va amaliy ahamiyatini ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, bugungi kunda landshaft arxitekturasi va dizayniga yangi qarashlar kiritishda foydali bo'lishi mumkin. Islom bog'lari arxitekturasi mahalliy an'analarga asoslangan holda, dunyo landshaftlar arxitekturasiga ekologik barqarorlik, suvni tejash va estetik muvozanatni saqlash orqali katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning dizayni zamonaviy shaharsozlikda yashil maydonlar yaratish, jamoaviy makonlar va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirishda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Landshaft arxitekturasi, Islom bog’lari, Fors bog’lari, Chahar-bog’, simmetrik dizayn, suv havzalari, ekologik barqarorlik, arxitekturaviy uyg’unlik.

Annotation: This article aims to explore and evaluate the architectural foundations of Islamic gardens, the cultural and aesthetic significance of Charbagh, and their impact on contemporary ecology, landscape design, and architecture. By examining relevant literature, images, and drawings, and analyzing and comparing them, the article provides a deeper understanding of not only the aesthetic aspects of Islamic garden architecture but also its historical, cultural, ecological, and practical importance. This, in turn, can contribute to introducing new perspectives in modern landscape architecture and design. Islamic garden architecture, based on local traditions, has greatly influenced global landscape architecture by promoting ecological sustainability, water conservation, and maintaining aesthetic balance. Their design serves as an inspiration for creating green spaces, communal areas, and fostering social integration in modern urban planning.

Keywords: Landscape architecture, Islamic gardens, Persian gardens, Chahar-Bagh, symmetrical design, water basins, ecological sustainability, architectural harmony.

Kirish. Landshaftlar arxitekturasi dunyo bo'ylab tarixiy ravishda turli madaniyatlar va davrlar ta'sirida rivojlanib kelmoqda. Yer yuzining dastlabki sivilizatsiyasi, Misr, Mesopotamiya Hindiston va Xitoyda, asosan qishloq xo'jaligi va suvni boshqarish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish ta'siri ostida vujudga kelgan[1]. Islom bog'lari esa dunyo landshaft arxitekturasining dizayni nafaqat estetika va tabiiy go'zallikni yaratishda, balki arxitektura va landshaft dizaynining muhim tamoyillarini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Islom bog'lari, xususan, an'anaviy Chahar-bog' (to'rtburchak bog') tizimi, nafaqat Fors madaniyatining, balki butun dunyo arxitekturasining muhim elementlaridan biri bo'lib, ko'plab o'zgarishlarga va innovatsion yondashuvlarga ilhom bergan. Bu bog'lar o'zining geometrik tuzilishini, tabiiy va sun'iy elementlarni uyg'unlashtirishdagi muvaffaqiyati, hamda landshaft va arxitektura bilan chuqur aloqasi bilan tanilgan. Islom bog'lari, Chahar-bog' an'anasi landshaft arxitekturasi bo'yicha asosiy na'munalar bo'lib, unda tabiiy go'zallikni va muvozanatni yaratishga intilgan.

Asosiy qism. Islom bog'larining yaratilishida islom madaniyatining ta'siri: Mumtoz Chahar-bog'(Fors tilida Chahar-to'rt, o'zbek tilidagi Chor-bog' atamasi bilan bir ma'noni anglatadi)-bu markaziy hovuz yoki favvora atrofida qurilgan "to'rtlik" va undan to'rtta oqim ramziy ma'noda tub yo'nalishlarda oqadi[2]. Chahar-bog' an'anasi tabiiy go'zallik, tinchlik va jannatni ifodalab, suv, daraxtlar, gullar va geometrik naqshlar orqali tabiat bilan uyg'unlashadi. Suv Chahar-bog'lardai tozalik va hayot ramzi sifatida bog'larning markaziy elementiga aylangan. Geometrik simmetriya va to'rtburchak bog' sug'orish tizimli Chahar-bog' Islom bog'larining asosi hisoblanadi.

Alhambra bog'i Ispaniyaning Grenada shahrida joylashgan va Alhambra saroyining bir qismi bo'lib, Nasridlar sulolasining 13-14-asrlarda qurilgan arxitekturaviy yodgorlik hisoblanadi[3]. Bog'lar o'zining estetik go'zalligi, favvoralari, suv inshootlari va o'ziga xos landshaft dizayni bilan mashhur. Alhambra bog'lari islom bog'lari an'analarini aks ettiradi, suvning va tabiiy elementlarning uyg'unligini namoyish etadi, bu esa ularni tarixiy va madaniy jihatdan muhim qiladi (1-rasm).

Shalimar bog'i Hindistonda, Jammu va Kashmir shtatining Srinagar shahrida joylashgan. U 17-asrda Boburiyalar sulolasi imperatori Shoh Johan tomonidan qurilgan va zamonasining eng go'zal bog'laridan biri hisoblanadi[4]. Shalimar bog'i, suv inshootlari, favvoralari, teraslari va tabiiy go'zalligi bilan mashhur. Bog' dizayni, isom bog'larining an'analariga, xususan, chahar-bog' uslubida qurilgan bo'lib, u osmon va yer o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi (2-rasm).

Algambra, Shalimar kabi bog'lar, Islom madaniyatining estetik va falsafiy qadriyatlarini aks ettirib, keyingi arxitektura va landshaft dizaynlariga ta'sir ko'rsatdi.

1-rasm. Ispaniya. Grenada shahri "Alhambra" bog'i

2-rasm. Hindiston. Srinagar shahri "Shalimar" bog'i

Yevropada, Angliya ayniqsa Fransiyada Islom bog'larining ta'siri asosan geometrik simmetriya, suvni boshqarish va estetik dizayn tamoyillarida namoyon bo'lgan.

Fransiyada Islom bog'larining ta'siri **Versal saroyi** bog'larida seziladi(3-rasm). Bu bog'lar Islom bog'laridagi simmetrik dizayn va suv havzalari orqali tabiat bilan uyg'unlik yaratish tamoyillarini o'zida aks ettirgan. Suvning, hovuzlar va fovvoralar orqali boshqarilishi, Islom bog'laridagi suv tizimlaridan ilhomlanib yaratildi.

3-rasm. Fransiya. Versal saroy bog'i

4-rasm. Angliya. Hampton saroy bog'i

Umuman olganda, Islom bog'larining simmetrik va estetik dizayni, suv tizimlari va tabiiy go'zallikni saqlash tamoyillari Yevropada landshaft arxitekturasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yevropada, ayniqsa Fransiyada landshaft dizayni geometrik bog'lar va simmetrik dizaynlar bilan rivojlandi. Chahar-bog' va Versal saroy bog'larining ikkala dizayni ham simmetrik, yirik suv yo'llari, favvoralar, mevali daraxtlari va keng yashil maydonlari bilan ajralib turadi.

Islom bog'larining dunyo miqyosidagi asosiy xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat estetik, balki ekologik va madaniy ahamiyatga ega. Chahar-bog' suvning simvolik va amaliy roli, va simmetrik dizayni bilan Islom bog' qurish san'atida an'anaga aylangan. Bu bog'lar arxitekturasi ekologik barqarorlik va madaniy qadriyatlarni saqlashda katta ta'sir ko'rsatgan. Islom bog'lari, provardida Fors bog'lari ham dunyo miqyosida o'zining quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tanilgan:

Simmetriya va geometrik dizayn: Fors va Islom bog'larining asosiy tamoyili simmetriya va geometrik shakllar bo'lib, ularning dizayni juda aniq va tartibli. Har bir bog'ning markazida suyuqlik (ko'pincha hovuz yoki kanal) bo'lib, bu o'z navbatida bog'ni to'rt qismga ajratadi, bu esa "chaqiruv" yoki "paradoks" prinsipiga asoslanadi. Simmetrik shakllar va qat'iy tuzilma bog'ning betakror go'zalligini ta'minlaydi.

Suvni boshqarish tizimlari: Suv bog'larda nafaqat estetik, balki amaliy maqsadlarni ham bajaradi. Fors bog'larida suvni quyish va uni bog'ni salqin tutish uchun ishlatish, shuningdek, favvoralar va hovuzlar orqali tabiiy go'zallikni oshirish muhim o'rin tutadi. Islom bog'larida esa suv jannatning ramzi sifatida ishlatilgan. Suv yo'llari, kanallar, favvoralar va hovuzlar bog'larning markaziy elementlari bo'lib, ular bog'ning tinch va xotirjam muhitini yaratadi.

Tinchlik va meditatsiya: Fors va Islom bog'larining muhim xususiyati – bu tinchlik va meditatsiya joyi sifatida yaratilishidir. Islom madaniyatida bog'lar "jannat" sifatida tasavvur qilinadi. Tabiat bilan birlashgan bu joylar, odamni ichki xotirjamlikka, huzur va tinchlikka undaydi. Bu bog'lar, nafaqat ko'rinish, balki ruhiy va ma'naviy tozalanish uchun ham yaratilgan.

O'simliklar va rang-baranglik: Islom bog'larida o'simliklar, daraxtlar va gullar simmetrik ravishda joylashtirilgan. Daraxtlar (masalan, olma, anor, yong'oq) va boshqa o'simliklar bog'larni bezash bilan birga, odamlarni tabiatning go'zalligini sezishga undaydi. Rang-barang gullar va o'simliklar bahor va yoz mavsumlarida bog'larni yanada jozibador qiladi.

Me'moriy tuzilish va bezaklar: Islom bog'larida arxitektura va landshaft o'rtasida uyg'unlik mavjud. Bog'lar ko'pincha masjidlar, madrasalar, saroylar yoki boshqa muqaddas inshootlar bilan birgalikda bo'ladi. Arxitektura elementlari, masalan, minora bog'ga osmonni yoki jannatni ifodalovchi ko'rinishni beradi. Bu bog'lar ko'pincha mehmonlarni xushnud qilish uchun bezatilgan va estetik jihatdan mukammal tuzilgan.

Issiq va quruq iqlimga moslashuv: Islom bog'lari ko'pincha issiq va quruq iqlimga mos ravishda qurilgan. Suvning ko'pligi va shaxsiy havzalar yordamida havo salqinligini saqlash uchun maxsus dizaynlar ishlatilgan. Bu bog'lar tabiiy resurslardan foydalanib, atrof-muhit bilan moslashishga yordam beradi.

Islom bog'lari arxitekturasi va Chahar-bog'ning asosiy tamoyillari

Fors bog'lari – bu qadimgi Persiya (hozirgi Eron)da paydo bo'lgan landshaft arxitekturasi bo'lib, ular odatda o'z ichiga suv resurslarini samarali boshqarish, geometriya va tabiiy elementlarni birlashtirishni oladi. Fors bog'larining asosiy xususiyatlaridan biri bu to'rtburchakli yoki kvadrat shaklida tashkil etilgan landshaftlardir(5-rasm). Ushbu to'rtburchak tuzilma, Chahar-bog' deb ataladi, va bu bog'lar o'zining har bir qismi bilan o'zaro muvozanatni va uyg'unlikni ta'minlaydi.

Chahar-bog' tizimi to'rt asosiy bo'limga bo'linadi:

1. **Markaziy hovuz** – bu suvning asosiy manbai bo'lib, bog'ning markazida joylashgan va uning barcha qismlariga suv ta'minotini amalga oshiradi.
2. **To'rt burchakli bog' bo'laklari** – har bir bo'lak alohida chaman bo'lib, ular maysazor, gulli maydonlarga ega, bu yerda meva daraxtlari, gullar va boshqa o'simliklar o'sadi.
3. **Suv yo'llari** – bog'ning turli qismlarini bog'lovchi suv yo'llari, bu yo'llar o'zaro bog'lanishda estetik va amaliy muvozanatni ta'minlaydi.
4. **Soya va huzur joylari** – me'moriy strukturalar va pavilonlar, o'z navbatida, odamlarning dam olishiga va tabiat bilan uyg'un aloqada bo'lishiga imkon yaratadi.

Bu tizim, o'zining to'rtburchak geometrik tuzilmasi orqali, mutanosiblik va tartibni ta'minlaydi. Chahar-

bog'larning yaratish maqsadi nafaqat estetik, balki diniy va falsafiy qadriyatlarga ham asoslangan edi, chunki bog'lar insonlarning dam olishi va dilini ochishi uchun ko'pincha jannatni ifodalovchi tasvir sifatida qaralgan.



5-rasm. Hindiston, Agrav shahridagi Boburiylar sulolasining daryo bo'yidagi bog'lari, Hindiston arxeologiya xizmati va Jahon yodgorliklar jamg'armasi hamkorlikdagi loyihasi

Fors bog'lari nafaqat arxitekturaviy yondashuvlarning o'ziga xos namunasi, balki madaniy va falsafiy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Ular, o'zining muvozanati, simmetriyasi va estetik go'zalligi bilan inson ruhini tinchlantirishga yordam beradi. Bog'lar odatda jannatni, tinchlikni va hayotning tabiiy muvozanatini ifodalaydi. Suv, yashil maydonlar va atrofdagi tabiat elementlari orqali, insonning tabiat bilan aloqada bo'lishi va hayotdagi muvozanatni saqlash masalasiga e'tibor qaratadi.

Natijalar: Islom bog'lari an'anaviy chahar-bog' uslubiga asoslanadi. Tadqiqot bu bog'larning asosi bo'lgan **simmetriya, tabiat bilan uyg'unlik** va **suvni boshqarish** kabi dizayn elementlarini chuqurroq o'rganishga asoslanib, arxitekturaviy shakllanishi va uning turli madaniyatlarga ta'sirini aniqlaydi. Islom bog' qurish an'anlari nafaqat mintaqaviy miqyosda, balki dunyo miqyosida ham landshaft arxitekturasi va bog' dizayniga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, **Islom bog'lari** (Alhambra, Topkapi saroyi) va **Boburiylar bog'lari** (Taj Mahal, Shalimar Bog') Islom bog'lari an'anasiga asoslangan. Islom bog'larining arxitekturasi suvni boshqarish va barqaror resurslardan foydalanishning eng yaxshi namunalarini taqdim etadi. Suv manbalarini (kanallar, hovuzlar, suv omborlari) boshqarish, suvning estetik va amaliy jihatlarini birlashtirgan. Zamonaviy landshaft arxitekturasi va shaharsozlikda bu yondashuvlar ekologik barqarorlikni yaratishda muhim o'rin tutadi. Suvni tejash, barqaror resurslardan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan yondashuv nafaqat tabiiy landshaftni aks ettiradi, balki madaniy va falsafiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega. Islom bog'larining rejaviy tuzilishi, estetik go'zalligi va tabiiy muhitga bo'lgan hurmat, zamonaviy landshaftlar arxitekturasi va dizaynida ham madaniy qadriyatlarni saqlashda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yashil maydonlar yaratishda turtki beradi. Shaharlar o'sib borgan sari, yashil maydonlar va jamoaviy makonlarga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Islom-bog'larining simmetrik tuzilishi va tabiiy elementlar bilan uyg'unligi, zamonaviy urbanistik dizaynda ijtimoiy integratsiyani rivojlantirishda va shaharni ekologik jihatdan barqaror qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Islom bog'larining ekologik barqarorlik, estetik go'zallik va tabiiy resurslardan samarali foydalanish kabi jihatlari, zamonaviy landshaft dizayniga yangi qarashlar kiritishga yordam beradi. Tadqiqot natijalarida, Fors bog'larining an'anaviy elementlari bugungi kunda qanday yangilanishi va zamonaviy arxitekturaga qanday moslashtirilishi haqida xulosalar chiqarilishi mumkin. Bu, ayniqsa, yashil infratuzilma, ekosistemalar va ekologik barqarorlikni yaratishda muhim bo'ladi.

Munozara: Chahar bog'ning asosiy xususiyatlari landshaft arxitekturasiga ekologik va estetik jihatdan innovatsion yechimlar taqdim etadi. Islom bog'larida suv havzalari va kanallar orqali suvni samarali ishlatish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror bog' dizaynini yaratishning asosiy tamoyillari sifatida qarash mumkin. Hozirgi zamonaviy landshaft arxitekturasida bu kabi tamoyillarni qo'llash, ayniqsa shaharlarning kengayishi va ekologik muammolarni hal qilishda, landshaft arxitekturasiga yangi yondashuvlarni kiritadi. Islom bog'larini shakllantirishdagi ekologik barqarorlikka bo'lgan e'tibori, tabiiy resurslarni tejash va tabiiy go'zallikni saqlashga bo'lgan yondashuvlar zamonaviy landshaft dizayniga asos bo'ladi. Ularni tahlil qilish, zamonaviy bog'lar va shaharsozlikda yashil maydonlar yaratish, ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish va tabiiy resurslarni samarali boshqarish masalalarida yangi qarashlar kiritishga yordam beradi.

Xulosa: Fors bog'larining arxitekturasi va an'anaviy Chahar-bog' tizimi dunyo landshaft arxitekturasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning geometriyasi, tabiiy resurslarni boshqarish va estetik uyg'unlikni ta'minlash tamoyillari butun dunyo bo'ylab ko'plab madaniyatlarda qabul qilingan va rivojlangan. Bugungi kunda, Fors

bog'larining prinsiplari ekologik va barqaror landshaft dizaynlarining asosiy qismlariga aylangan. Fors bog'larining tarixi va ta'siri arxitektura va landshaft dizaynining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'lib, ular o'zining estetik va madaniy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Fors va Islom bog' qurish an'anlaridan samarali foydalanish ushbu muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Islom bog'lari, jumladan an'anaviy Chahar-bog' tizimi landshaft arxitekturasi va bog' dizaynida global miqyosda muhim o'rin egallaydi. Bu bog'larning asosini tashkil etuvchi simmetriya, suv resursi kichik mo'jaz shakllar, tabiiy muhit uyg'unligi kabi tamoyillar ekologik barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ispaniyadagi Alhambra, Samarqanddagi Temuriylar bog'lari, Turkiyadagi Topkapi saroy bog'i, Hindistondagi Taj Mahal va Shalimarlar bog'lari, Isfohondagi Chil Sutun va Hasht Behisht bog'lari an'anaviy yondashuvlarning yorqin namunalaridir.

Axborot va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanishi landshaft arxitekturasida bir qancha muammolarni yuzaga keltirdi. Jumladan, urbanizatsiya, sanoat inqilobi va tabiiy resurslarning saqlanishi bilan bog'liq ekologik muammolar, shaharlar va qishloqlarda yashil hududlarning kamayishi, suv ta'minoti va ekologik barqarorlikni buzilishi kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan "yashil siyosat" doirasida o'rmonchilik sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi landshaftlarini shakllantirishdagi asosiy maqsad — iqlim o'zgarishiga moslashish va tuproqni muhofaza qilish uchun agroo'rmon landshaftlarini yaratishdir. 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha mamlakatni "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa tarixiy bog'sozlik tajribasi va zamonaviy ekologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali barqaror va yashil kelajak sari muhim qadamdir.

Chor-bog' tizimining geometrik tuzilishi va estetik go'zalligi O'zbekiston zamonaviy landshaft dizayniga, landshaft arhitekturasiga yangi yondashuvlarni olib kiradi, suvning estetik va amaliy jihatlari uyg'unlashgan bo'lib, zamonaviy shaharsozlikda suv tejash, yashil infratuzilma yaratish va ekologik muvozanatni saqlash kabi muammolarni hal etishda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlar nafaqat Vatanimiz tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, balki madaniy merosni saqlab qolishda, shaharlarning barqaror kengayishi va texnologik taraqqiyot fonida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda ushbu qadimiy bog'sozlik madaniyatining yondashuvlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Klarc, E. (2008). *Iskusstvo islamskogo sada*. Пер. с англ. М.: Издательство «Ниола - Пресс».
2. Uralov, A. S, Adilova, L. A. (2014). *Landshaftlar arxitekturasi*. Toshkent.
3. Irving, W. (1832). *The Alhambra*. Ispaniya.
4. Aziz, K. K. (1979). *The Mughal Garden*. Karachi: Oxford University Press.
5. Gharipour, M. (2011). *Islamic Gardens and Landscapes*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
6. Gharipour, M. (2020). *Persian Gardens and Pavilions: Reflections in History, Poetry and the Arts*. I.B. Tauris.
7. Makhmudova, M. (2020). Islamic Style in Landscape Design on the Example of Ancient Gardens of the Temurid Period. *Society. Integration. Education*, 5, 706–718.

CHET EL DAVLATLARIDA URBANISTIKA RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Hidirov M.M.,
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
Sultonov I. Z.
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya. Chet elda aholi punktlari rivojlanishning tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aholi joylashuvi va aholi joylarining shakllanish jarayoni shaharsozlik fazoviy tuzilishining asosi bo'lgan yirik shaharlar atrofidagi aglomeratsiyalarda amalga oshiriliyabti. Chet el urbanistikasida ushbu tuzilma mahalliy aholi punktlari tizimining asosi hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida shaharlarni rejalashtirishning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanish davrlari va iqtisodiyotni markazsizlashtirishga asoslangan fazoviy rejalashnirish yo'llarini izlash bilan bog'liq.

Kalit so'zlar. Aglomeratsiya, aholi jojlashuvi, funktsional differentsiatsiyasi, integratsiya, aglomeratsiya yadrosi, aglomeratsiya sub-markazi.

O'zbekistondagi zamonaviy aholi joylashuv tizimi uzoq tarixiy davr mobaynida davom etgan rivojlanish jarayonida, aholi punktlari soni o'zgarishi, ahoining ular orasida funktsional differentsiyasi va integratsiyasi natijasida shakllangan [1]. Respublikadagi aglomeratsiyalar tuzilmasining dinamikasi aholi punktlari yanada chuqurroq xo'jalik ixtisoslashuvi bilan tavsiflanuvchi differentsiatsiya yo'nalishida kechmoqda. Shu sababdan, aglomeratsiyalar rivojlanishidagi chet elda mavjud holatni o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Bizning tahlillar ko'rsatib turibdiki, dunyoning turli mamlakatlarida shaharlarni rejalashtirishning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanish davrlari va iqtisodiyotni markazsizlashtirishga asoslangan fazoviy rejalashnirish

yo'llarini izlash bilan bog'liq. Aholining shaharlarda haddan tashqari ko'p to'planishi, shaharlarning tarqalishi, shuningdek boshqariladigan urbanizatsiya kontseptsiyanisini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari dolzarb masalalar jumlasiga taaluqlidir. Ko'p jihatdan bunday yondashuvlar ko'pincha amalga oshirilgan va amalga oshirish qiyin bo'lgan nazariy tadqiqotlarning tabiati va ijtimoiy tuzilish xususiyatlari, xususiy mulkning rivojlanib borishi va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liqdir. Yirik shaharlar va ularning aglomeratsiyalari tarkibini rivojlantirish uchun takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish katta qiziqish uyg'otmoqda. Dunyo shaharlari asosida birinchi aglomeratsiyalarning kelib chiqishi feodal davriga tegishli, cho'nki qal'alar va monastirlar hududiy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan guruhlarining asosi bo'lgan aholi punktlari bilan tutashib ketgan edi. XVIII-asrda bunday aholi punktlarini rivojlantirishning odatiy namunalarini Evropa mamlakatlari misojida ko'rish mumkin. Aholi joylashuvi rivojlanishining tarixiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Evropada birinchi shaharlar antik davrda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda ularning soni juda ko'payib ketadi. Shaharlar soni o'sishi natijasida 20-asrning boshlariga kelib Evropa mamlakatlari umumiy maydonining 1/3 qismini shaharlar egalladi.

XVII - XVIII asrlardagi to'qimachilik sanoatining rivojlanishi ko'plab ingliz shaharlarini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi [2, 40 bet]. Shaharlarning rivojlanishi va shahar aholisining o'sishi sanoatni rivojlanishi sharoitida amalga oshdi. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida sanoat inqilobi shaharlar rivojlanishining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Shahar aholi punktlarining yuqori zichligiga Evropaning ba'zi mamlakatlari (Angliya, Germaniya, Frantsiya) hududlari o'z hissasini qo'shdi. Shaharlar bir-biri bilan birlashib, aglomeratsiyalar hosil bo'lishiga olib keldi [2, 41 bet]. Evropa mintaqasi shahar aglomeratsiyalarining vatani hisoblanadi, bu erda XX asrning oxiriga kelib allaqachon 400 ga yaqin aglomeratsiyalar mavjud edi [3].

Evropa davlatlarida urbanisatsiya jarayoni – bu shaharlar va shahar madaniyati kengayish intensivligini belgilaydigan muhim global hodisadir. Bu jarayon mehnat yoki yashash sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq ravishda qishloq aholisini katta shaharlarga ko'chishi bilan birga amalga oshadi. Katta va o'rtacha shaharlar Evropa iqtisodiyotini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Evropada urbanizatsiya jarayonlari yirik shaharlarning "tarqalishi" bilan bog'liqir. Urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan Evropa davlatlarini ko'rib chiqishdan oldin biz ushbu atama ma'nosini tushunishimiz va nega G'arbiy Evropa mamlakatlarida bu daraja yuqori ko'rsatgichlarga erishishini tushunishimiz kerak. Urbanizatsiya – bu tez suratlarda o'sib boradigan shaharlar umumiy sonining o'sishi hisoblanadi. Jarayonni xarakterli xususiyatlariga quyidagilar kiradi: katta shaharlar hududini "yoyilib ketishi" va shaharlar aholi sonini intensiv ko'payishi [3].

Ming yillar davomida shaharlar jamiyat hayoti va taraqqiyotida asosiy rol o'ynagan. Ammo faqat XIX asrdan boshlab shaharlar aholisi tez sur'atlar bilan ko'payishni boshladi. XX asrdagi tamoyillar Evropada "shahar inqilobi" deb nomlana boshlandi. Ubanizatsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy mezon qishloq aholisini shaharga ko'chishi va aholi punktlarini ma'muriy ahamiyatga ega shaharlarga aylanishi hisoblanadi. 40 mamlakatni o'z ichiga olgan G'arbiy Evropa eng yuqori darajadagi ubanizatsiyasi bilan ajralib turadi, chunki ba'zi mamlakatlarda shahar aholisini ulushi 80% dan ortib ketgan. O'z navabatida Evropaning sharqiy mintaqalari kam shaharlashgan hisoblanadi. Agar biz eng ubanizatsiyalashgan mamlakatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak (shahar aholisining ulushi asosida), unga quyidagilar kiradi: Monako – 100%, Vatikan shahri – 100%, Belgiya – 98%, Malta – 95%, Islandiya – 94%, San- Marino – 94%, Daniya – 94%, Luksemburg – 90%, Niderlandiya – 90%, Shvetsiya - 86%, Finlyandiya – 84%, Frantsiya – 79%, Bolgariya – 75%, Italiya – 70%. Shimoliy Evropa mamlakatlarda o'rtacha urbanizatsiya darajasi 80%ni tashkil qiladi. Shu bilan birga urbanizatsiya darajasi doimiy ravishda ko'payib bormoqda. O'rta shaharlashgan davlatlar qatoriga Polsha – 61%, Latviya – 67%, Litva - 67%, Ruminiya – 54% kiradi. Lixtenshteyn eng kam shaharlashgan hudud hisoblanadi va bu mamlakatda shahar aholisi 14% tashkil qiladi. Evropa urbanizatsiyasida ba'zi farqlar mavjud. Ular quyidagilar: shahar aholisini shahar atrofidagi kamarda joylashishi; shahar aholisini qishloqlarga ko'chishi – "de urbanizatsiya"; qishloq aholi punktlarida shahar madaniyati va turmush tarzining tarqalishi - "shaharlashtirish" [4].

Shahar mintaqalarining kengayishi Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida XX asrda yangi avtomobil va temir yo'l liniyalari bilan ta'minlanishi darajasining o'sishi natijadasidir. Shaharlarning rivojlanishi bir necha pog'onaga ko'tarildi: o'sib borayotgan iqtisodiy rivojlanish bilan shaharlar kengaydi; transport tarmoqlari ko'paydi; o'rta sinf hayot darajasi yanada yuqori darjaga ko'tarildi; aholini shahar atrofi tomon harakatlanishi avj oldi; shaharlarda ishlayotganlar soni ko'payishi bilan transport magistrallari bo'ylab qatnov aloqalari rivojlandi. Bu tamoyil Londonda 1850 yillar atrofida, Parijda 1890 yillarda va 1900 yillar boshida Nyu-Yorkda boshlangan edi [5].

XX asrda nazoratsiz shahar tarqalishi rivojlanib, uni keltirib chiqargan hududlar yaqinida ochiq erga joylashishga imkon beruvchi xususiy avtomobillardan foydalanish, shuningdek infratuzilmani etkazib berish tarmoqlariga oson ulanishi bilan tavsiflanadi. Tamoyil 1930-yillarda Qo'shma Shtatlarda tezlashdi [6]. Shundan beri 1950 - 1960-yillarda AQSh-da, 1960-yillarda Evropada va 1980-yillarda Osiyo va Lotin Amerikasining ayrim qismlarida shaharlarning tarqalishi avtoulovning o'sib borayotganligi sababli yanada tezlashdi.

Evropa mamlakatlarida urbanizatsiya nazariy bazasini tahlil qilish ko'rsatganidek, aglomeratsiyalar rivojlanishning asosiy mezonlaridan biri - bu aholi joylashuvi va aholi joylari tizimlarining rivojlanishi. XX asrdan boshlab sanoatning rivojlanishi tufayli shaharlar sonini ko'payishi, ularning salohiyatini kuchayishi va aholining shaharlarga ko'chishining global tamoyili yuzaga keldi [6].

Agar tarixga nazar solinadigan bo'lsa XVIII asr oxiri-XIX asrlarning boshlarida shaharlar aholisi umumiy aholi soniga nisbatan atigi 3% ni tashkil etdi. XX asr boshlarida sayyoramizdagi shahar aholisi 13%

bo'lgan, XX asr oxirida dunyo aholisining taxminan 50% shaharlarda yashagan. Hozirda shahar aholisi dunyo bo'yicha allaqachon 50% dan oshib ketdi [7,8;]. 1980 yilda BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng yirik metropoliten hududi Tokio bo'lgan. O'sha paytdagi aholi soni 20,2 million kishi (Tokioning o'zida 8,5 million kishi bo'lgan). Nyu-York shahar hududi, Mexiko shahar hududi, Shanxay shahar hududi, San-Paulu shahar hududi, London, Reyn-Rur, Parij, Moskva, Rio-de-Janeyro aglomeratsiyalari dunyodagi eng yirik sanaladi. 2010 yilga kelib, BMT ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida 1 milliondan ortiq aholisi bo'lgan 450 ga yaqin aglomeratsiyalar mavjud edi,

Aholisi 20 milliondan ortiq bo'lgan 4 ta aglomeratsiya, 8 ta aglomeratsiya - aholisi 15 milliondan ortiq, 23 ta aglomeratsiya - aholisi 10 milliondan ortiq, 61 ta aglomeratsiya - aholisi 5 milliondan ortiq hisoblanadi [7,8]. So'nggi yillarda sayyoramizdagi shahar aholisining ulushi 50 foizli chegaradan oshib ketdi va o'sishda davom etmoqda. Katta aglomeratsiyalarda aholining konsentratlashuvi davom etmoqda. Aholi soni bo'yicha etakchi o'rinlar ko'p yillar davomida dunyoning eng yirik aglomeratsiyalarida kuzatilmoqda: Yaponiyaning poytaxti Tokio, Meksikaning poytaxti Mexiko Siti, Amerikaning Nyu-York Citi, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul, Hindistonning Mumbay, Braziliyaning San-Paulu, Filippinn poytaxti Manila, Indoneziyaning poytaxti Jakarta, Hindistonning poytaxti Dehli, Xitoyning Shanxay kabi megapolislariga 230 milliondan ortiq aholi to'plangan. Ushbu agromeritsayalarining eng kattasi tan olingan ikki yirik megapolislarni birlashtirgan va 37,7 million aholiga ega bo'lgan Tokio va Yokohama aglomeratsiyalari, shuningdek boshqa bir qator kichik aholi punktlari. Umumiy Tokio megapolisida 8677 km^2 hududida aholi zichligi 4340 odam/ km^2 kishini tashkil qiladi [7,8].

Aglomeratsiyalar misolida aniq ko'rsatib o'tilganidek, aholi punktining rivojlanish xususiyati Evropada avvalambor tabiiy omillarga bog'liq edi [8; 40bet]. Shunday qilib Germaniyada aksariyat aglomeratsiyalar Reyn va uning irmoqlari bo'ylab hosil bo'lgan. Eng past quyi oqim - eng katta Reyn-Rur politsentrik aglomeratsiyasiga asos solgan. Reynning o'ng qirg'og'iga cho'zilgan ikkita asosiy qism – Rur aglomeratsiyalaridan iborat. Duisburg, Essen va Bochum orqali Dortmundga, ikkinchisi esa Dyusseldorf, Kyoln va Bonn orqali Reynga kiradi. Ushbu aglomeratsiya aholisi 10-11 million kishini tashkil etadi. Reynning yuqori qismida Reyn-Asosiy aglomeratsiyasi joylashgan bo'lib, uning yadrosi Frankfurt – Main hosil bo'lgan. Keyinchalik o'rta oqimda Reyn-Nekkor aglomeratsiyasi, yuqori oqimda esa Manxeym va Lyudvigshafen shaharlari aglomeratsiyalari ho'sil bo'lgan [8].

Buyuk Britaniyada London etakchi aglomeratsiya hisoblanib, aholi soni turli manbalarga ko'ra 7,6 million - 12,1 million kishini tashkil qiladi. London atrofida P. Aberkrombi loyihasi bo'yicha 20 asrda sakkizta yo'ldosh shahar qurildi. Shuningdek, 3.2 va 2.6 million kishilik aholisi bo'lgan Buyuk Birmingem va Buyuk Manchester aglomeratsiyalari navbati bilan yirik guruhli aholi joylashuvini tashkil qiladi. Italiyada yirik shahar aglomeratsiyalari toifalariga Milan kiradi (4,1 million kishi). Italiyada Neapol (3,6 million) va Rim (3,5 million) shaharlari ham yirik aglomeratsiyalarni tashkil qiladi [9,10]. Frantsiyada Parij metropoliteni 11,3 million kishilik aholi bilan ajralib turadi. Bu poytaxt shahar - yirik sanoat markazi, yuqori texnologiyalar va bilimlarni talab qiladigan sohalar rivojlanishi asosida shakllangan. Bu erda eng yirik banklar va moliyaviy tashkilotlar joylashgan.

Chet elda aholi punktlari rivojlanishning tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aholi joylashuvi va aholi joylarining shakllanish jarayoni fazoviy tuzilishining asosi bo'lgan yirik shaharlar atrofidagi aglomeratsiyalarda amalga oshib, mahalliy aholi punktlari tizimining asoslari hisoblanadi. Nazariy asosni tahlil qilish natijasida qayd etilishi bo'yicha "mavjud va potentsial aglomeratsiya maydonlarini" aniqlash zaruriyati va shuningdek, aglomeratsiyalarni o'zgartirish uchun asosiy tamoyillarni belgilab olish talab qilinadi. Bunda ular joylashgan "mahalliy aholi punktlarining submarkazlari va sub-zonalarini aniqlash"-ga tayanish to'g'ri keladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Турсунов Х.К. Особенности и пути развития процессов урбанизации и расселения в Узбекистане//Проблемы расселения и пути совершенствования застройки городов Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1982. – с. 24-30.

2. База данных ООН [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://data.un.org (2021.02.01).

3. Белоусов В. Н. Анализ факторов и тенденций, влияющих на динамику природно - расселенческих систем / В.Н. Белоусов, Д.Ю. Ломакина // Международный электронный научно-образовательный журнал "Architecture and Modern Information Technologies" (AMIT). – 2012. Специальный выпуск. – Режим доступа: http://www. marhi.ru/AMIT/ 2012/special_12/belousov /abstract.php

4. America2050.org. Megaregions. [Internet]. 2017. Available from: htt://www.america2050.org/ content/megaregions.html [Accessed: Sep 30, 2021]

5. Fang C, Yu D. Urban agglomeration: An evolving concept of an emerging phenomenon. Landscape and Urban Planning. 2021; 162:126-136. DOI: htts://doi.org/10.1016/j.landurbplan.2021.02.01

6. Hornstein J.M. A Nation of Realtors: A Cultural History of the Twentieth-Century American Middle Class. Durham, NC: Duke University Press. 2005. ISBN: 978-0-8223-3528-3

7. Хайт Л.В. Современная архитектура Бразилии / Л.В. Хайт. – М.: Стройиздат, 1973. – 156 с.

8. Мойзер Ф. Кишо Курокава: Мегаполис XXI века никогда не остановится в росте / Ф. Мойзер // Проект Россия. – 2003. – №4. – С. 21-24

9. Миккель, П. Новая градостроительная политика Франции / П. Миккель // ГИС ассоциация Управление развитием территории – 2007. – №2. [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://www.gisa.ru/39414.html

10. Abercrombie, P. Greater London Plan 1944 : a report prepared on behalf of the Standing Conference on London Regional Planning / Patrick Abercrombie. - London : His Majesty's Stationery Office, 1945. – X, 221s.

UDK:711.7

HORIJIY MAMLAKATLAR MAYDONLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI TAHLILI

Ilmiy rahbar: **Rahimov K.D.** arxitektura fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori professor
Islamova D.G mustaqil izlanuvchi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlatarxitektura-qurilish universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning tarixiy maydonlarining umumiy xususiyatlari tahlili va xorijiy maydonlarning me’moriy, tarixiy va funksional roli ko‘rsatilgan. Бунда, xorijiy davlatlardagi tarixiy maydonlar turli davrlarda va madaniyatlarda shakllangan bo‘lganligi, ularning me’moriy qiyofasi va funksional vazifalari to`grisidagi ma`lumotlar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье проведён анализ общих характеристик исторических площадей зарубежных стран, а также рассмотрена их архитектурная, историческая и функциональная роль. При этом отмечается, что исторические площади в иностранных государствах формировались в разные эпохи и в различных культурах, раскрываются сведения об их архитектурном облике и функциональных задачах.

Abstract: This article analyzes the general characteristics of historical squares in foreign countries, as well as examines their architectural, historical, and functional roles. It is noted that historical squares in different countries were formed in various eras and cultures, and information is provided about their architectural appearance and functional purposes.

Kalit so'zlar: Maydonlar, shaharsozlik, arxitektura, markaziy maydon, zamonaviy shaharsozlik, funksional markaz, tarixiy shaharlar, kompozitsion uyg'unlik, ma'muriy binolar, jamoat binolari, ko'cha, bosh maydon.

Ключевые слова: Площади, градостроительство, архитектура, центральная площадь, современное градостроительство, функциональный центр, исторические города, композиционная гармония, административные здания, общественные здания, улица, главная площадь.

Key words: Squares, urban planning, architecture, central square, modern urban planning, functional center, historical cities, compositional harmony, administrative buildings, public buildings, street, main square.

Kirish. Dastlab, tarixiy shaharlardagi maydonlar bu ochiq makon bo‘lib, muayyan vazifalarga ega bo‘lgan tom ma’noda "ko‘prik" bo‘lgan. Bu yerda shahar aholisi o‘rtasida muloqot o‘rnatilar, yangi qonunlar e’lon qilinar, savdo-sotiq va dam olish ishlari olib borilardi. Shunga qo‘shimcha, maydonlar shaklida tashkil topardi – ya’ni, turar-joy mahallalari orasida yo‘llar kesishgan joylarda, eski skladlar va bozorlar o‘rnida, katta jamoat binolari atrofida paydo bo‘lardi; territoriyaviy va ba’zan kompozitsion jihatdan bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, tarixiy mahallalar shaharsizlik an’analarini takrorlardi.

Maydonlar shaharlarning markaziy elementi hisoblanadi. Har bir shaharning markaziy maydoni turli madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar uchun joy bo‘lib xizmat qiladi. Maydonlar shahar jamoatchiligi uchun muhim ishlab chiqarish va madaniy nuqtalar bo‘lib, bunday joylarda faoliyatlar davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, savdo, ko‘ngilocharlik va boshqa ko‘plab sohalar bilan bog‘lanadi. Masalan, Yevropa va Amerika shaharlarida maydonlar ko‘pincha savdo va milliy tadbirlar uchun markaz bo‘lgan. Maydonlarning tarixiy va madaniy ahamiyati muhim hisoblangan. Boshqa mamlakatlarda maydonlar shaxsiy va jamoat munosabatlari, ijtimoiy jihatdan muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, Parijdagi "Place de la Concorde" maydoni, Londondagi "Trafalgar Square" maydoni yoki Rimdagi "Piazza del Popolo" maydoni tarixiy va madaniy meroslarni saqlash bilan birga, turizm va madaniy tadbirlar uchun ahamiyatlidir. Shahar maydonlari orqali millatning tarixiy va madaniy hikoyalari, milliy va diniy bayramlar yoki katta siyosiy va ijtimoiy voqealar ko‘rsatiladi. Tarixiy maydonlar insoniyat tamaddunining muhim bosqichlarini aks ettiruvchi, ma’naviy va madaniy merosni mujassamlashtiruvchi muhim makonlardir. Ular nafaqat shaharsozlikda, balki jamoaviy xotiraning shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi. Xorijiy mamlakatlarda bunday maydonlar yirik siyosiy voqealarning guvohi, san’at va madaniyat markazi, hamda turizm nuqtayi nazaridan muhim ob’yekt sifatida ahamiyat kasb etadi.

Maydonlarning funksional turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1 – Ma’muriy va davlat maydonlari. Bunda, davlat idoralari va murakkab ijtimoiy-siyosiy faoliyatlar uchun joylar, bunday maydonlar o‘zining siyosiy simvolizmini ko‘rsatadi. Misol: Vashingtondagi "National Mall" – joyi davlat muzeylariga, monumentlarga va prezidentlik yodgorliklariga ega bo‘lib, ular aholining ko‘ngil ochish, ilm-fan, madaniyat va siyosat bilan bog‘liq tadbirlarni o‘tkazish uchun ham ishlatiladi.

2 – Tijorat maydonlari. Savdo va bozorlar uchun maxsus maydonlar, eng ko‘p savdo, xizmat ko‘rsatish va iste’molchilarning faoliyati uchun yoritilgan. Masalan, "Piazza San Marco" Venetsiyadagi savdo va turistik joylardan biri, bu yerda ko‘plab kafelar, restoranlar va hunarmandlar mavjud.

Ko‘ngilochar maydonlar: Bunday maydonlar teatrlar, konsertlar va boshqa madaniy tadbirlar uchun mo‘ljallangan. Masalan, "Times Square" Nyu-Yorkdagi madaniy markaz, kunduz esa savdo va ko‘ngilochar faoliyatlar uchun xizmat qiladi.

Maydonlardagi ijtimoiy va ekologik funksiyalar. Maydonlar va jamoat faoliyati: Maydonlar shahar aholisi uchun o‘zaro muloqot, ijtimoiy faoliyatlar va jamoat tartibini ta’minlash uchun joy bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologik funksiyalar. Maydonlarda ko‘proq yashil zona yoki dam olish joylari bo‘lishi, shahar muhitiga toza havo va ko‘rkamlik berishi mumkin. Misol: "Central Park" Nyu-Yorkdagi yirik yashil maydonlardan biri bo‘lib, odamlarga dam olish va sog‘lomlashtirish imkoniyatini beradi.

Shahar dizayni va maydonlar o‘rtasidagi aloqa. Shaharsozlik nuqtai nazaridan maydonlar – shahar dizayn tartibiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi, maydonlarning o‘lchami, joylashuvi va ularning tashkil etilish shakli shahar umumiy arxitekturasiga xos. Masalan, Barselonadagi shaxsiy maydonlar va "Gaudi"ning me’morchilik yo‘nalishlari ularning hayot tarziga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Yevropa: Yevropada maydonlar ko‘pincha tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. Masalan, Parijdagi maydonlar qurilishida fransuz arxitekturasi an’anaviy usullari bor, u yerdagi maydonlar katta miqyosdagi shahar aniqligiga xizmat qiladi.

Yaponiya: Yapon shaharlarda maydonlar ko‘pincha to‘liq optimallashtirilgan va minimalistik dizaynga ega. Ular yopiq maydonlar, suv manbalari va tabiat bilan yaqinlashishga alohida e’tibor berishadi.

Amerika: Amerika shaharlarda maydonlar juda ko‘p turli ishlab chiqarish, ijtimoiy va madaniy faoliyatlarga joy bergan, bunday maydonlar ko‘pincha bevosita savdo va turistik joylar bilan bog‘langan. Shuningdek, maydonlar orasidagi o‘zaro ta’sir, ularning bir-biri bilan bog‘lanishi va shaharlar orasidagi globallashuv kabi masalalarga ham e’tibor qaratish mumkin.

Xorijiy davlatlardagi tarixiy maydonlar turli davrlarda va madaniyatlarda shakllangan bo‘lib, ularning me’moriy qiyofasi va funksional vazifalari ham har xil bo‘lgan. Masalan: Fransiyadagi Bastiliya maydoni – inqilobiy harakatlarning ramzi bo‘lib, bu yerda xalqning ozodlikka intilishi aks etgan. U o‘zining tarixiy ahamiyati bilan mashhur.

• Rossiyadagi Qizil maydon – mamlakatning siyosiy markazi bo‘lib, unda Kreml, Lenin maqbarasi va boshqa tarixiy obidalar joylashgan. Bu maydon rasmiy tadbirlar, paradlar va xalq yig‘inlari uchun foydalaniladi.

• Ispaniyadagi Plaza Mayor (Madrid) – XVI-XVII asrlarda barokko uslubida qurilgan va bugungi kunda sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan tarixiy joylardan biridir.

• Italiyadagi San-Mark maydoni (Venetsiya) – diniy, siyosiy va ijtimoiy markaz sifatida yuz yillar davomida faoliyat ko‘rsatgan. Bu yerda ko‘plab tarixiy binolar joylashgan, jumladan, San-Mark sobori. Bu maydonlarning aksariyati me’moriy jozibasi bilan ajralib turadi. Ular shahar markazida joylashib, madaniy markaz vazifasini bajargan. Ko‘p hollarda bunday joylar bugungi kunda ham turli tadbirlar, ko‘rgazmalar va bayram marosimlari uchun ishlatiladi.

Xorijiy mamlakatlarning tarixiy maydonlari har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati va tarixini aks ettiruvchi muhim obyektlardir. Ularning me’moriy bezaklari, funksional ahamiyati va tarixiy voqealar bilan bog‘liqligi ularni nafaqat estetik, balki ilmiy jihatdan ham o‘rganishga arzigulik joylarga aylantiradi. Shuning uchun bunday maydonlar madaniy meros sifatida saqlanishi va kelajak avlodga yetkazilishi muhimdir.

Qizil Maydon Rossiyaning eng mashhur tarixiy maydonlaridan biri bo‘lib, u Kreml, Lenin maqbarasi va Vasiliy Blajennyy sobori bilan o‘ralgan. Bu maydon siyosiy va madaniy tadbirlar, harbiy paradlar uchun asosiy joy hisoblanadi.

1. 

2.

1-расм. 1.Qizil Maydon Rossiyaning eng mashhur tarixiy maydonlaridan biri.

2.Bastiliya Maydoni Fransuz inqilobining ramzi bo‘lib, 1789-yilda Bastiliya qamoqxonasining qulatilishi bilan mashhur. Bu maydon ozodlik va tenglik g‘oyalarining timsoli sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi.

Plaza Mayor -Madridning yuragida joylashgan tarixiy maydon bo‘lib, u XVII asrda barokko uslubida qurilgan. Bu maydon tarixiy voqealar, festivallar va jamoat yig‘inlari uchun markaziy joy bo‘lib xizmat qilgan.

Moskvadagi Qizil maydon. Qizil maydon –Moskva Kremli Moskvaning asosiy maydoni (1-rasm). Maydon Kremlning shimoliy-sharqiy devori bo’ylab, Kreml o’tish joyi va Voskresenskiye Vorota o’tish joyidan Vasilevskiy Spuskgacha, Kreml qirg’og’iga qaragan holda cho’zilgan. Maydonning g’arbiy tomonida Moskva Kremli, sharqiy tomonida yuqori savdo qatorlari va o’rta savdo qatorlari joylashgan. Bu Moskva Kremli bilan yagona ansamblning bir qismidir, lekin tarixan. Qizil maydonda Kreml sxemasi bo’yicha Qizil maydonda qatl maydoni, va Pojarskiy haykali, Vladimir Lenin maqbarasi, Kreml devori yaqinidagi nekropol joylashgan. Maydonning shimoliy qismida Tarixiy muzey va Qozon sobori, janubiy qismida Pokrovskiy sobori joylashgan. Arxitektura ansambli butunjahon merosi obyekti sifatida YUNESKO himoyasida. Qadim zamonlardan maydon savdo joyi bo’lib xizmat qilgan, bu yerda ko’p asrlar davomida ketma-ket vaqtincha va doimiy savdo qatorlari qurilgan. Sovet davrida maydonda harbiy paradlar va namoyishlar bo’lib o’tdi, SSSR parchalanganidan keyin u ommaviy tadbirlar va konsertlar uchun ishlatila boshlandi. Maydonning uzunligi 75 metr , maydoni 24 750 m kvadrat [2].

Masalan, Sankt-Peterburgdagi bosh maydonda atrofdagi binolar vokzal binosiga qaratilgan bo'lib, kontrast kompozitsiyaga misol bo'ladi. Yerevandagi bosh maydon nyuans tarzida hal etilgan.

1. 2.

2-расм. 1.Bastiliya Maydoni – Parij, Fransiya. 2.San-Mark Maydoni – Venetsiya, Italiya

Bu yerda ma'muriyat binosi boshqa binolarga qaraganda ozroq ko'tarilgan. San-Mark Maydoni Venetsiyaning eng mashhur maydoni bo‘lib, u San-Mark Bazilikasi va Dojlar saroyi bilan o‘ralgan. Bu maydon diniy, siyosiy va ijtimoiy hayotning markazi bo‘lib, ko‘plab tarixiy voqealarga guvoh bo‘lgan.

XIX-asrda shaharsozlik muammolariga, ya’ni yo‘lovchi va tobora oshib borayotgan transport oqimlarining kesishuvi bo‘ldi. Shu bois savdo yo‘lovchi rastalarida transport va yo‘lovchilar oqimlarining keng bo‘linishi bo‘yicha tarixiy negizlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Savdo binosining yangi arxitekturaviy shakli, ya’ni **Rasta** 150 yil avval, iste’mol tovarlarini ommaviy sanoat usuli bilan ishlab chiqarish davrida paydo bo‘lgan. Birinchi bo‘lib ushbu yopiq holdagi savdo yo‘lovchilar hududining turi Parijda paydo bo‘lib, keyinchalik barcha Yevropa mamlakatlarida ham keng yoyilgan. O‘tgan asrda qurilgan ko‘plab rastalar hozirgi kungacha saqlanmagan bo‘lsa ham, mavjud rastalar muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularga quyidagilar kiradi: Londondagi "Burlington-arkada", Bryusseldagi "Avliyo Xubert" galereyasi, Milandagi "Viktor Emmanuil" galereyasi.

XIX-asrda Moskva me’morchiligi ham yangi ommaviy inshootlar turi – rastalar bilan boyitilgan. Uning asosida uzunasiga joylashgan savdo yo‘lovchi hudud yotgan. Moskva rastalari G‘arb namunalariga qarab qurilgan bo‘lib, iqlimni inobatga olib, tez orada tanilgan va shaharning ham savdo, ham yo‘lovchi-kommunikativ tarmoqlarini munosib darajada boyitgan. XIX-asrda barcha yirik Yevropa shaharlardagi tarixiy markazlar ma’naviy qadriyat sifatida barpo etilganligi tufayli bosh shahar va tumanlarda zamonaviy vazifalar uchun yangi qurilishlar shaharning xususiyatlarini buzilishiga emas, balki eski shahar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘shilish, uni yanada yaxlit bo‘lishini ta’minlash edi. Ushbu vazifani aynan **rastalar** to‘liqroq bajargan. Ikki, ba’zida undan ham ko‘p magistral yoki maydonchalar birlashib, simmetrik ko‘chani ifodalagan holda rastalar faqatgina yo‘lovchilar uchun mo‘ljallangan va yomon ob-havodan himoyalangan.

Chet mamlakatlarda jamoat binolarining maydonlarda joylashtirilishini ko'plab kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida Sankt-Peterburgdagi A.S.Pushkin nomidagi teatr, jamoa kutubxonasi, bog' va pavilonlar hamda xoreografiya bilim yurti joylashgan maydonni ko'rsatish mumkin. Shu tarzda Is'hoq ibodatxonasi, Parijda-Panteon va Grand Opera, Tallindagi o'rta asr ratushalari va boshqa shaharlardagi maydonlar tashkillashtirilgan. Jamoat binolari maydon tashkil etganda, ko'p hollarda shu maydonning simmetriya o'qiga joylashtirilgan. Masalan, Kalinin, Voronej va Penzadagi ma'muriy binolar.Yana binolar assimmetrik tarzda joylashishi mumkin.

Masalan: Yoshkar -ola, Tula va boshqa shaharlardagi ma'muriy binolar. Ko'chalarda binolarni qatorlashtirib joylashtirilishida jamoat binolari qatordan uzoqlashtirib, oldiga maydon qoldirish ko'chalar kompozitsiyasiga aksent berib, ko'chalarni zerikarli bir xillikdan holi etadi. Shunday tarzda Sankt- Peterburgda Neva prospektidagi Pushkin nomli drama teatri, Qozon ibodatxonasi binolari oldida ochiq maydon qoldirilgan.

Rim shahrida Kapitoliy tepaligidagi ansambl bir nechta saroy binolarini trapetsiya shaklidagi maydonga birlashtirdi. Bu maydonga tantanali zinapoya orqali chiqiladi. Yevropa me'morchiligidagi eng birinchi fazoviy ansambllardan biri-Rimdagi Kapitoliy maydoni ansambli kechki renessans me'morchiligiga katta hissa qo'shgan Mikelanjelo Buanarottiga tegishli.

U 1546-yildan boshlab ansamblning asosiy binosi bo'lmish Avliyo Pyotr ibodatxonasining asosiy qismini quradi. Ansamblda: Palasso dei Senatori, Palasso dei Konservatori, Kapitoliy muzeylarining asosiy binosi va maydon o'rtasida Mark Avreliyning haykali joylashgan. 1585-90 davrida bu maydondan shahar hududini bir tizimga birlashtiradigan tekis yo'llar ochiladi. Ansambl tamoyili Rim shahriga kirishda oval shaklidagi Pyazza del Popolo maydonida ham mujassamlashgan. Bu maydondan uchta ko'cha chiqib ketadi.

Klassitsizm uslubi XVIII asr o'rtalarida Fransiyada paydo bo'lib rivojlandi. Bu davrda Parijda bir nechta maydonlar ansambli paydo bo'ldi. G'arbiy Yevropa davlatlari ichida Fransiya shahar qurilishi bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib oladi. Jamoat binolari arxitekturasining 1922-yilda sobiq sho'ralarning poytaxt shaharlarining shakllanishi katta turtki bo'ldi. O'sha paytda Ukrainaning poytaxti Xarkov shahri edi va shahar markazi eski va yangi shahar o'rtasida joylashgan edi.

Unga asos esa doira shaklidagi Dzerjinskiy maydoni bo'lgan. Maydon radial -aylana shaklda bo'lib, undan turli yo'nalishlarda ko'chalar chiqqan. Maydon perimetri bo'ylab ma'muriy binolar bilan o'ralgan bo'lib, ular uyg'unlikda go'zal ansamblni hosil qiladi. Tver shahrining Pushkin maydoni XX asrning 80-yillarida o'zgacha ansambl tarzida shakllangan. Maydon yarim doira shaklga ega bo'lib, unda stella va favvora joylashtirilgan. Maydonning kompozitsiyasi bir-biriga simmetrik tarzda joylashtirilgan turar joy uylari va ularning ro'parasida joylashtirilgan jamoat binosi tashkil etadi.

XVII asrda Italiyada maydon mavzusi asosiy arxitekturaviy mavzulardan biriga aylandi. Dastlabki barpo etilgan maydon Mikelanjelloning Kapitoliy maydoni edi. Rimda maydonlarning ko'pchiligini mayda cherkov maydonlari tashkil qilgan edi. Nemis tadqiqotchisi, me'mor Kamillo Zitts o'sha vaqtda Rimda 225 cherkov maydonlari mavjudligini qayd etgan.

Bulardan tashqari, turli saroy majmualarining maydonlari va ko'cha harakatini tartibga soluvchi maydonlari ham mavjud edi. Santa Mariya dellya Pache cherkovi oldidagi kichikkina trapetsiya shaklidagi maydoncha ochiq havodagi zal tariqasi tavqin etilgan. Unda maydoncha tomonlarini tashkil etuvchi devorlar pilyastr (devoriy ustun)lar bilan bezatilgan. Katta-kichik maydonlarning ko'pligi XVIII asrda Nolli tomonidan chizilgan Rimning tarxida ham aks ettirilgan. Barokko davrida maydonlarni tashkil etishda ko'plab favvora va obelisklardan foydalanishgan.

Rimdagi maydonsozlik bo'yicha ishlarning eng yirigi Avliyo Pyotr sobori oldida tuzilgan maydonda amalga oshirilgan. Mikelanjelloning sobori Bramante loyihasidagi kabi o'ta markaziy kompozitsiyada bo'lmasa-da, uning umumiy hajmi baribir markaziy ko'rinishga ega edi. Unda kiraverish tomonigina boshqa tomonlaridan biroz ajratilgan edi. Bu tomonga Moderna qo'rg'on qo'shimcha binoning bu kiravirish tarafini tamoman ajratib qo'ydi. Sobor oldidagi maydonni Lorenso Bernini tashkil etdi. Maydon o'zaro tutashgan trapetsiya va oval shakllardagi qismlardan iborat. Maydon juda ulkan bo'lib, umumiy o'lchamlari hayratlanarlidir: oldidan soborgacha 255 metrni va eni (ovalning katta diametri)da 200 metrni tashkil etgan.

Soborga bevosita tutashgan maydonning qismi trapetsiya shaklida ekanligi, bino oldidagi masofani yanada uzoqroq qilib ko'rsatadi. Sobor o'z oldidagi maydonni quchoqlab olganday bo'lib tuyuladi. Maydonda to'rt qatorli ustunlar-kolonada, obelisklar, favvoralar turli nuqtalardan har xil, takrorlanmas ko'rinishlar hosil qiladi. Bularni tashkil etuvchi unsurlarning qiyoslanishi (“masshtablar o'yin”) katta ahamiyatga ega. Keyinchalik Karlo Fontana Sobor maydonini qayta qurish bo'yicha loyiha ishlab chiqdi. Amalga oshirilmagan bu loyihada maydon oldiga yanada davom ettirilib, kirish qismi bilan maydonni chegaralab qo'yish hamda Tibr daryosigacha bo'lgan joyda, bir o'qli ochiq old maydon (avanmaydon) barpo qilish taklif qilingan edi [6].

Fransiya shaharsozligi tarixida tantanaviy maydonlar alohida o'rinni egallaydi. Ular aniq geometrik shaklda bo'lib, atrofi 3-4 qavatli bir xil ko'rinishdagi binolar bilan qurshab olingan bo'ladi. O'rtasiga otliq qirol haykali o'rnatiladi. Dastlabkilari Vogezlar va Dofin maydonlari bo'lib, ular XVI asr oxiri XVII asr boshida qurilgan Vogezlar maydoni Parijning sharqiy qismida Turnel zamogi o'rnida barpo bo'ldi. Tarxdagi o'lchamlari 139x139 m bo'lib, qizil g'ishtdan qurilgan. Ayrim qismlari oq tom bilan qoplangan. Tomi ko'k tusli shifer bilan yopilgan. Dastlabki davrda maydon o'rtasi bo'sh bo'lib unda turnirlar va zodagonlarning sayrlari bo'lib o'tgan. Keyinchalik maydon o'rtasiga Lyudovik XIII otliq haykali o'rnatilib, atrofi ko'kalamzorlashtirilgan va panjara bilan to'silgan edi.

Dofin maydoni Site orolining eng g'arbiy qismida, ko'prik qurilishi bilan bog'liq holda vujudga keldi. Ko'prikning eni 23 m, uzunligi 328 m edi. Inshootning tubdan yangiligi unda ikki chetda hech qanday qurilmalar (do'konlar, ustaxonalar kabi) bo'lmaganligidan, usti ochiq bo'lganligidan iborat edi. Ko'prik shaharliklarning faqat sayr qilishlariga mo'ljallangan edi. Ko'prikning boshqa tomonida qirol bog'lari o'rnida tarxi trapetsiya shaklida Dofin maydoni barpo etildi. Maydon chetlaridagi binolar Vogezlar maydonidagi binolar singari ko'rinishda qurildi. Farqi maydon o'rtasidan uning o'qi bo'ylab yo'l qoldirilgan .[4]

Xulosa. Xorijiy mamlakatlarning tarixiy maydonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday hududlar muayyan tarixiy davrlar, siyosiy tuzumlar va madaniy qadriyatlar ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularning me’moriy yechimlari va funksional vazifalari har bir xalqning urbanistik rivojlanishiga oid yondashuvlarini aks ettiradi. Tarixiy maydonlar ko‘plab xorijiy shaharlar markazida joylashgan bo‘lib, ular nafaqat me’moriy-kompozitsion markaz, balki ijtimoiy va siyosiy tadbirlar

o‘tkaziladigan muhim jamoat makonlari sifatida ham alohida o‘rin egallaydi. Mazkur maydonlarning shakllanishidagi mantiqiy rejalashtirish, arxitektura yondashuvlari hamda funksional yo‘nalishlar zamonaviy shaharsozlikda ahamiyatli tajriba sifatida baholanadi. Shu bois, xorijiy tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish orqali tarixiy maydonlarni saqlab qolish, ularni zamonaviy talablar asosida moslashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Архитектурная концепция комплексного благоустройства и перспективного развития площадей. Пояснительная записка к выпускной квалификационной работе ЮУрГУ -07.04.03.2018.669.ПЗ КП
2. D.U.Isamuhamedova “Shaharsozlik asoslari “ I qism. 2009 y.
3. Современные общественные пространства как инструмент развития городской среды. Материалы межрегиональной научно-практической конференции . Санкт-Петербург 2018
4. Б.И.Муталова, К.Д.Абдуллаева. Учебное пособие “Реконструкция города и развитие” ТАСИ 2020
5. Рахимов, К. Д., & Исламова, Д. Г. (2024). ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГОРОДСКИХ ПЛОЩАДЕЙ САМАРКАНДА. *Miasto Przyszłości*, *49*, 1534-1539.
6. Gayratovna, I. D. (2024). ARXITEKTURA YODGORLIKLARI MUHOFAZA XUDUDLARINI SHAHARSOZLIK NUQTAI NAZARDAN TASHKIL ETISH. In *Uz Conferences* (Vol. 1, No. 1).
7. Khaitov, M., & Islamova, D. (2025). INSULATION OF EXTERNAL WALLS OF THE BUILDING WITH MODERN MATERIALS: MODERN TECHNOLOGIES AND TRENDS. *International Journal of Artificial Intelligence*, *1*(2), 1535-1539.
8. http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=93
9. https://ru.wikipedia.org/wiki /(площадь)

XIX - XX ASR BOSHLARIDA EVROPA ARXITEKTURA USLUBLARINING O’RTA OSIYO ARXITEKTURASIGA TA’SIRI

Xudoyarova Mavlyuda Baxrievna, arxitektura nomzodi, dotsent
Mamatqulov O’ktam katta o’qituvchi
Masaritdinova Nilufar Abdurasulevna mustaqil izlanuvchi, ctajer
Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universitrti,

Annotatsiya. Maqolada O’rta Osiyo hududida Yevropa madaniyatining ta'siri Samarqand, Toshkent va Buxoro xududlarida iqtisodiy va madaniy rivojlanishning yuksalishi bilan bog‘liq holda jamoat binolarida yangi arxitekturaviy usullar shakllanishi tahlil qilingan. Maqolada Rossiya arxitektorlarining Yevropa usullarida qurgan jamoat binolari va inshootlarida milliy arxitekturaning an'analviy elementlarini qollanilishi ham misollar yordamida korib chiqilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены влияния Европейской культуры на регионы Средней Азии, изучены новые архитектурные направления на территориях Самарканда, Ташкента и Бухары в непосредственной связи с развитием новых социально-культурных жизненных условий.Также рассмотрены на примере построенных Российскими архитекторами в Европейских стилях общественных зданиях и сооружениях возможности использования традиционных элементов национальной архитектуры.

Abstract. The article examines the influence of European culture on the regions of Central Asia, studies new architectural trends in the territories of Samarkand, Tashkent and Bukhara in direct connection with the development of new socio-cultural living conditions. Also, the possibilities of using traditional elements of national architecture are considered using the example of public buildings and structures built by Russian architects in European styles.

Tayanch so‘zlar. Evropa arxitekturasi, klassitsizm, modernizm, eklektika, axitektura uslublari, dekorativ elementlar, axitektura an’analari.

Ключевые слова. Архитектура Европы, классицизм, модернизм, эклектика, архитектурные стили, декоративные элементы, традиции архитектуры.

Key words. European architecture, classicism, modernism, eclectics, architectural styles, decorative features, architectural cultures.

Kirish. Orta Osiyo hududi XIX asrning ikkinch i yarmida Rossiya tarkibiga kiritilgandan so’ng, evropa madaniyatining Rossiyaga kirib kelgan uslublari, rus arxitektorlari tomonidan jamoat binolari qurilishida qo’llanialgan. Bu xolat regionning ma’muriy va jamoat binolari arxitekturasiga o’z ta’sirini ko’rsatgan. 1865-yilda Toshkentni va 1868-yilda Samarqandni rus armiyasi bosib oladi. Shu davrda Buxoro emirati va Xorazm xonligi shakllanadi ular Rossiya imperiyasining vassaliga aylanadi. Shu sababli Evropa arxitekturasi uslublari asosan Toshkent, Samarqand va qisman Buxoroda xududilarida qurilgan. Xorazm xonligida bino va inshootlar qurilishi milliy an'analarda davom etdirilgan.

Chor Rossiyasi bosib olgan 1865-yildan boshlab to 1920-yilgacha qurilgan bino va inshootlar arxitekturasida asosan klassitsizm, neoklassitsizm va postmodernizm uslublari qo‘llanilgan. Shu bosqichda Toshkent, Samarkand va Buxoro hududlarida Rus arxitekturasining klassisizm, post modernizm va eklektika uslubida qurilgan bino va inshootlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. [КадыроваТ.Ф.1987]

Izlanish uslubi. 1865-yildan boshlab to 1920-yilgacha O'rta Osiyo jamoat binolari qurilishida binolar arxitekturasini o'rganish, qo'llanilgan uslublarini aniqlash va an'anaviy xalq me'morchiligi uslublari bilan boglanganligini tahlil qilish.

Natijalar. Chor Rossiyasi tarkibiga kirgandan so'ng qurila boshlangan jamoat binolaridan biri 1873 yilda arxitektor A.I.Lexanov loyihasi bilan qurilgan birja binosi hisoblanadi. [Нильсен B.A. 1988.41] Bino ikki qavatli bo'lib, oddiy qilib qurilgan. Kirish qismi keng bir marshli zinapoyalar bilan bog'langan hajmdan iborat bo'lib ikkinchi qavatdagi asosiy xizmat qiladigan xonalarga olib chiqadi. Bu bino 1915 yilda arxitektor I.A.Markevichning loyihasi bilan Xalq uyiga o'zgartirilib qayta qurilgan. Binoni tarzi I.A.Markevichning loyihasi bilan qurilgan va tomosha zalining hajmi bilan bog'langan. Binoning tarzi XIX asrning birinchi yarmidan kelib chiqgan Moskva ampirining neoklassitsizm shaklida bajarilgan. Oq devorlar fonida uch burchakli fronton bilan tugallangan binoning mahovatli markaziy qismi alohida ajralib turadi. Binoning tarzi balkonni figurali eletmentlari bilan ko'tarib turgan oltita ionic ustunllardan shakllangan portal bilan ishlangan.[Нильсен B.A. 1988.78]

1-rasm. Toshkentdagi birja.Arxitektorlar L.I.Lexanov (1873 y). I.A.Markevich (l915 yil).Manba:google.mytashkent.uz

Knyaz N.Romanov ruslarning Xivaga yurishida qatnashgan bo'lib g'alabasidan yodgorlik sifatida fasadlarida Xivaning qal'asini eslatuvchi qishki kinoteatrni 1910-yilda qurdirgan (2-rasm). Arxitektor G.M.Svarichevskiy loyihasi bilan qurilgan bu jamoat binosida ilk bor milliy arxitekturaga e'tibor qaratilgan. Binoning tashqi ko'rinishi silliq loyshuvoq bilan bezatilgan. Tarzlari arkali ayvonchalar bilan echilgan, kirish qismi qa'laga kirishni eclatuvchi peshtoq bilan ajratilgan. 1917-yilgi yonginda buzilganligi sababli o'rniga N.Romanovning xotini tomonidan o'sha tashqi ko'rinishda g'ishtdan yangi kinoteatr quriladi.[Корифеи Этапы пути-писма о Ташкенте].

Samarqand shaxrida 1895 yilda ishga tushirilgan Ruc-Xitoy banki Lyudbig Bauer boshchiligida qurilgan birinchi ikki qavatli eng chiroyli jamoat binolaridan biri hisoblanadi. Bank binosi Possiyada qurilgan qishki saroini eslatuvchi to'g'ri to'rtburchak shaklida, klassitsizm uslubida qurilgan. Buni ustunlar va derazalarning shaklida ko'rish mumkin.Binoning bosh fasadi simmetrik kompozitsiyada echilgan. Bino tarzi markazda ikki yarusli peshtoq birinchi qavatida to'g'ri to'rtburchak ustunlarga tayanib, ikkinchi qavatdagi chiroyli ishlangan kapiteli bilan ionik kolonnalarni ko'tarib turadi va uch burchakli fronton bilan tugallanadi. Fasadning devorlari yuzasi pilyastralar va karnizlar bilan bir xil tekislikda bo'linib chiqilgan. Tarzda ishlatilgan dekorativ elementlar binonig umumiy kompozitsiyasini mahovatli qilib ko'rsatadi.[Нильсен B.A.1988.105]

2-rasm. Toshkentdagi qishki kinoteatr "Xiva". Arx. G.M.Svarichevskiy.1910 y. Manba: google.vesti.uz

3 -rasm. Ruc-Xitoy banki. 1895 y. Manba: google. stv.uz.

Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilgan xalqga xizmat qiladigan jamoat binolaridan biri 1904 yilda qurilgan Samarqanddagi ayollar gimnaziyasi hisoblanadi. Bu shaharda ikkinchi ikki qavat qilib qurilgan viloyat markazidagi yirik bino hisoblanadi. Bino tarzlarining arxitekturasi oddiy echilgan. Tarzlaridagi oynalarning tugallanishi, ularning orasidagi gichtdan mahalliy ishlov berilgan pardozsiz terilgan devorlari, oddiy elementlari rus -vizantiya uslubida, evropa va rocciya an'analarini birlashtirib qo'llanganligi ko'rinadi. Tarzlari g'ishtlardan naqshinkor terilgan va bir xil turda kiritiladigan elementlardan tashkil topgan. Binoning tarzi faqat kirish peshtoqi va baland qilib qurilgan ikkinchi qavatdagi yarim arkali, ikkita burchakdagi frontonchalarning bezatilganligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi qavatda vectibyulni ustida joylashgan faollar zali binoning markaziy hajmini balandroq echishga imkon beradi, uni binoning markaziy kompozitsiyaviy echimiga aylantiradi.[Нильсен B.A.1988.103]

1888 yili Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga aylanadi va rus imperiyasi Kavkazdan Toshkent va Kogongacha temir yo'lni uzaytiradi. Temir yo'l ochilgandan so'ng Abdulaxad-xon Rossiyaning Peterburg, Moskva, Qrimga oilasi bilan sayohatga

boradi. Borgan joylarida erlar olib o'ziga qarorgohlar quradi.

4-rasm. Samarqand. Ayollar gimnaziyasi. 1904 y. Arxitektor G.M.Svarichevskiy. Manba: google.Vesti.uz1

Safardan olgan ta'ssurotlari asosida yangi Buxoroda o'ziga xos arxitektura yo'nalishiga ega bo'lgan sarou quradi. 1895 -1898 yillarda arxitektor Aleksey Benua loyihasi bilan injener Dubrovin boshchiligida Kogonda mahalliy qurilish an'analari bilan evropa arxitekturasini birlashtirishga harakat qilingan yangi saroy majmuasi quriladi. Saroy majmuasi har xil usublarda loyihalangan umumiy hovli atrofida qurilgan pavil'onlardan iborat. Bu saroyda arxitektor mavritan uslubi bilan fransuzlarni ampiri, gotika, borookko uslublarini va arablarning meyorida ishlatilgan elementlarini birlashtirib, burchakli gumbazlari hamda did bilan ishlangan ustunlarga o'rnatilgan klassik bashnyalarni birlashtirgan holda eklektik arxitekturani yaratadi. Saroyning hajmlaridagi an'anaviy peshtoqning nozik minaretlari va pavil'onlar tarzlarining elementlari keskin arxitekturaviy uslublarda bajarilgan.

5-rasm. Kogondagi yangi saroy. 1895 -1898 yy. Manba:google.ru.dreamstime.com

Saroy majmuasining devorlarida mavritan uslubining detallari devorlar o'ymakorligida, aniq ishlangan dekorlar, keramik plitalar bilan bezatilgan ustunlarda ko'rinadi. Ikkinchi qavatda gulli ornamentlar, arabcha bog'lanishlar va boshqa xildagi naqshlar hovlidagi yog'och ustunlarda ham ko'rinadi. Uslublarning qo'shilib ketganligi ayniqsa saroyning interyerlarida yaqqol ko'rinadi. Saroy inter'eri klassitsizm, barokko, ampir, hamda mavritan va gotika uslublarida ishlangan. Binoning dekorlari buxoro va ruc ustalari bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli interyerlarda milliy elementlar va sharq ornamentlari gipsda bajarilgan. [Manba:google.ru.dreamstime.com]

Ko'rib chiqilgan XIX-XX asr boshida O'rta Osiyo arxitekturasining rivojlanishi rus me'morlari tomonidan Rossiyada tarqalgan evropa arxitekturasidagi uslublarni davom etdirishdan iborat bo'lgan. Kogondagi saroyda evropa uslublari movritan va sharq me'morlarining dekorativ elementlari bilan bezaklanganligi Buxoro amirligining Rossiyaning vassali bo'lishiga qaramay o'ziga xos sharqona an'analarini davom etdirilganini ko'ramiz.

Muhokama. 1.O'rta Osiyo hududida Yevropa madaniyatining ta'siri Samarqand, Toshkent va Buxoro xududlarida jamoat binolari iqtisodiy va madaniy rivojlanishning yuksalishi bilan bog'liq holda shakllanadi. Yangi arxitekturaviy usullar shakllanishi va milliy arxitektura an'analarining ham qisman qollanilishi shu hududlardan olingan misollar yordamida ko'rib chiqildi .

2. Binolar asosan rus arxitektorlari tomonidan loyihalangan va qurilishi boshqarilganligi sababli o'sha davrdagi Peterburg va Moskvada tarqalgan arxitekturaviy uslublar qo'llanilgan. Toshkent va Samarqandda qurilgan jamoat binolarida asosan klassitsizm, ampir uslublari qo'llanilgan. Toshkentda qurilgan Xiva kinoteatri bundan istasno. Kinoteatr knyaz N.Pomanovning xoxishi bilan Xorazmdagi Arkga taqlid qilinib ekletika uslubining salbiy ko'rinishida bajarilgan.

3. Buxoro amirligida qurilgan saroyning halmiy fazoviy kompozitsiyasida va interyerlarida klassitsizm, ampir, gotika, borokko, mavritan uslublari va arab elementlari qo'llanilgan eklektika arxitekturasi yaratilgan. Qurilishda mahalliy ustalar ham qatnashgan va ular ko'pincha inter'yerlarni bezaklashda milliy va sharqona dekorativ elementlardan, ganchkorlikdan foydalanishgan.

4. Shu davrda qurilgan jamoat binolarida an'anaviy milliy arxitektura ekementlaridan peshtoq, minora, ganch va yog'och o'ymakorligi, milliy va sharqona dekorativ elementlari evropa uslublari bilan birlashib o'ziga xos yangi yo'nalishlarni paydo qilganini ko'ramiz. Va bu yo'nalishning shaxsiy binolar qurilishlarida davom etayotganini ko'ryapmiz.

5. Hozirgi kunda ovqatlanish tarmoqlaridagi bino va inshootlar arxitekturasining tarzlarida va inteyerlarida milliy arxitektura elementlari bilan evropa uslublaridagi elementlarni birlashtirib, betartib foydalanilayotganligini ko'ryapmiz. Arxitektura va qurilish sohasidagi mutaxacciclarga evropa uslublarning milliy arxitektura elementlaru bilan uyg'un birlashtirib foydalanishni chuqur o'rganibsh va yangi zamonaviy yo'nalishlarni aniqlab tavsiyalar ishlab chiqish shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar

1.Аскаров Ш.Д. Архитектура Бытия Узбекистан Т.2014;

2.Генезис архитектуры Узбекистана. Издательство журнала «Санъат».Ташкент.2014 г.

3.Нильсен В.А.У истоков современного градостроительства Узбекистана. - Ташкент,1988;

4.Полатов Х.Ш. История архитектуры и градостроительства. История архитектуры Средней Азии.-Т. 2000;

5.Кадырова Т. Ф. Архитектура Советского Узбекистана – Ташкент, 1987; 6.Корифеи Этапы пути-писма о Ташкенте. Источник: google, https://metashkent.uz.10. dkm.gov.uz.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN BRITANIYADA BRUTALISTIK ARXITEKTURASI

Xalikov Sindorkul Ravshanovich
Jizzax politexnika instituti, Arxitekturaviy loyihalash kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda Buyuk Britaniyadagi rekonstruksiya loyihalari orasida paydo bo‘lgan me’moriy uslub Brutalistik arxitekturasi xaqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Qurilish, Britaniy, dizayn, Brutalistik, bino, me’morchilik, dekorativ, konstruktiv.

Kirish: Ikkinchi Jahon urushi paytida Britaniyada ikki millionga yaqin uylar, shuningdek, maktablar, kasalxonalar, infratuzilma, transport tizimlari, fuqarolik, madaniy, savdo va sanoat binolari bombardimon qilinishi natijasida jiddiy shikastlangan yoki vayron qilingan.

Urushdan so‘ng mamlakatni tezda tiklanish birlamchi vazifa edi. Ammo an‘anaviy materiallar, jumladan, g‘isht va yog‘och, shuningdek, malakali ishchilar yetishmasligi sababli shaharlarni bunyod etishda, kam harajatli, nisbatan tez quriladigan temir-betondan foydalanish muqobil yechim edi.

Buyuk Britaniyada keng qamrovli rekonstruksiya dasturi (bu qaroqsiz tumanlarni buzish, jamoat uylari va qurilish inshootlari qurish va yangi shaharchalar barpo etishni o‘z ichiga olgan) milliy va mahalliy hukumat tomonidan davlat nazoratga olingan edi. Qurilish uslublari odatda oddiy va funktsional bo‘lib. Siyosiy urushdan keyin vujudga kelgan, hamma uchun teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslangan farovonlik davlati kontekstida edi.

Britaniya: 1960 va 1970-yillarda beton

Brutalistik arxitektura - 1950-yillarda Buyuk Britaniyada urushdan keyingi davrdagi rekonstruksiya loyihalari orasida paydo bo‘lgan me’moriy uslub [1]. Brutalistik binolar minimalist konstruktsiyalar bilan ajralib turadi, ular yalang‘och qurilish materiallari va konstruktiv elementlarni dekorativ uslubda namoyish etadi [2]. Uslub odatda ochiq, bo‘yalmagan beton yoki g‘ishtdan, burchakli geometrik shakllardan va asosan monoxrom ranglar palitrasidan foydalanadi.

Birlashgan Qirollikda ushbu harakar sotsialistik tamoyillar ta’sirida utilitar, arzon ijtimoiy uy-joylarni loyihalashda namoyon bo‘ldi va tezlik bilan dunyoning boshqa mintaqalariga tarqaldi. Brutalistik dizaynlar viloyat qonunchilik organlari, universitetlar, kutubxonalar, sudlar va shahar zallari kabi institutsional binolarni loyihalashda keng qo‘lladilar. Harakatning mashhurligi 1970-yillarning oxirlarida pasayishni boshladi, ba’zilari bu uslubni shaharning yemirilishi va totalitarizm bilan bog‘lashdi [4].

Harakat, bir qator tanqidlarga sabab bo‘ldi (ko‘pincha “sovuq” yoki “ruhsiz” deb ta’riflanadi), lekin ayni paytda me’morlar, oz sonli mahalliy jamoalar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Mashhur bo‘lmagan bo‘lsada, rasmiy madaniy piktogrammalarga aylangan, ba’zi bir binolar himoyalangan maqomiga ega bo‘ldilar. Shunga qaramay, uslub boshqalar tomonidan qadrlanadi va Buyuk Britaniyada saqlab qolish bo‘yicha harakatlar olib borilmoqda.

Ushbu uslubda binolar odatda alohida funktsional zonalarni ifodalovchi, aniq ifodalangan va bir butunga birlashtirilgan modulli elementlar bilan qurilgan. Binolarning rejasida odamlar oqimiga nisbatan tashqi balandliklarni va butun maydonning arxitekturasida asosan grafik ifodalarga urg‘u beriladi. Binolarda beton, g‘isht, shisha, po‘lat, yog‘och, tosh va gabionlar kabi materiallardan foydalanish mumkin [5]. Biroq, betonning arzonligi sababli, undan keng ko‘lamda foydalaniladi.

1960-1970-yillarda arxitekturaning o‘ziga xos turini paydo bo‘lishi; betonning dizayn imkoniyatlarini va eng aniq vizual ko‘rinishini oz‘ida aks etirdi.

Monumental binolar (ko‘p qavatli uylar, ko‘p qavatli avtoturargohlar, universitetlar, maktablar, dam olish va savdo majmualari, asosan keng yo‘l sxemalari bilan) uzviy bog‘liq holda qurilgan. Ushbu ko‘p qirrali murosasiz dramatik uslub, Britaniya shahrinig qiyofasini o‘zgartirdi.

Britaniyalik arxitektura tarixchisi Reyner Banham o‘zining 1955-yilda “Brutalistik” atamasini birinchi marta art brut va beton brut bilan bog‘ladi.

Eng mashhur beton brutal arxitekturasi Shveytsariya-fransuz arxitektori Le Korbusier bilan bog‘liq bo‘lib, unig proto-brutalistik asarlari, xususan 1952-yilda Marsel (Fransiya)dagi o‘zinig yashash joyi; 1951-1961-yillarda Hindistondagi Chandigarh Kapitoliy majmuasi; va 1955-yilda Frantsiyaning Ronchamp shahridagi Notre Dame du Haut cherkovidir. Le Korbusier beton brut atamasini Fransiyaning Marsel shahrida 1952-yilda qurilgan Unité d'Habitation qurilishi vaqtida kiritgan. U 1952-yilda quyma beton sirtida qolib tekstursining aks etishi va ishlov berilmagan holda qolishi va choklarini aks etib turishi (Beton Brut). Beton brut materialning o‘zi emas, balki betondan foydalanish usulidir.

Qolib yog‘och bilan qoplangan bo‘lsa, beton quyilgandan so‘ng yog‘och strukturasini oladi, buning natijasida quyilgan beton yuzasida yog‘ochga o‘xshash to‘qimalar paydo bo‘ladi. Ish davomida bir xil turdagi yog‘ochdan foydalanish muhim, ayniqsa qoliplar qayta-qayta ishlatilishini talab qilgan katta binolarda bu juda muhum, chunki yog‘och namlikni o‘ziga tez sigdiradi, bu esa betonning rangiga ta’sir qilishi mumkin. Boshqa teksturali metall foydalanish orqali ham qoliplar yaratilishi mumkin. Yog‘ochdan yasalgan qoliblardan, ba’zi G‘arbiy Evropa mamlakatlarida hali ham foydalanishadi.

Buyuk Britaniyada ushbu uslub bilan bog‘liq bo‘lgan me’morlar orasida Erno Goldfinger, Alison va Piter Smitson juftligi, ser Basil Spensning ba’zi ishlari,

London okrug kengashi / Buyuk London kengashi me'morlar bo'limi, Ouen Luder, Jon Bancroft va, ser Denis Lasdun, ser Lesli Martin, ser Jeyms Stirling va Jeyms Gowan o'zlarining dastlabki asarlari qolagan. Britaniya poytaxtidagi me'morchilikning ba'zi taniqli namunalari orasida Barbican markazi (Chemberlin, Pauell va Bon) va Milliy teatr (Denis Lasdun) larni aytib o'tishimiz mumkin.

Londonning Janubiy qirg'og'ida betondan qurilgan Milliy teatr (1963-yil 22-oktyabrda taniqli me'mor Denis Lasdun loyihasi asosida qurilgan. Milliy teatr, rasman Qirollik milliy teatri va ba'zan xalqaro kontekstlarda Buyuk Britaniya Milliy teatri deb ham ataladi.

Milliy teatr binosining uslubi arxitektura tarixchisi Mark Jiru tomonidan ochilish vaqtida "buzilgan shakllarning estetikasi" sifatida tasvirlangan. Denis Lasdunning milliy teatri - Londonning eng taniqli va eng bo'linuvchi binolaridan biri bo'lib - shahzoda Charlz bir vaqtlar "atom elektr stantsiyasi" deb ta'riflagan. Qarama-qarshiliklarga qaramay, teatr 1994-yilda II darajali bono sifatida ro'yxatga olingan. Teatr ko'pincha Angliyada Brutalistik arxitekturasining arxetipi sifatida tilga olingan. Bino davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bo'lib, uchta auditoriyadan iborat - Olivier, Littelton va Dorfman.

Preston avtobus bekati - Angliyaning Lankashir shahridagi Preston markaziy avtovokzal va avtoturargohi quyma qoliplangan va temir-beton megastruktura bo'lib, u Ove Arup va Partners tomonidan 1968 va 1969-yillar oralig'ida Brutalistik me'moriy uslubda, EH Stazickerning qurilish dizayni bo'yicha Keyt Ingham va Charlz Uilson tomonidan ishlab chiqilgan. 1969-yilda qurib bitkazilgandan so'ng u dunyodagi eng katta avtovokzallardan biri sifatida e'lon qilindi. 2010-yilda Prestonning sevimli binosi deb topilgan va 2012-yilda Jahon yodgorlik fondi ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa-da, 2012-yil dekabr oyida binoni buzish rejalari e'lon qilingandan so'ng. 2013-yilda u II darajali bino maqomi berilishi uni buzishdan saqlab qoldi.

Park Hill - Angliyaning Janubiy Yorkshir shtatidagi Sheffilddagi turar-joy majmuasi. U 1957-yildan 1961-yilgacha qurilgan va 1998-yilda ro'yxatga olingan va II darajali bino maqomi berilgan. Park Hill 1953-yildan rejalashtirilgan, Sheffild Kengashining bosh arxitektori JL Vomersli nazorati ostida ishlaydigan Jek Lin va Ivor Smit tomonidan ishlab chiqilgan, qurilish to'rt yil davom etgan. Park Hill o'zining "osmondagi ko'chalari" bilan mashhur bo'lgan o'z turidagi eng ulug'vor va ramziy ishlanmalardan biridir. Bino 17 gektar maydonni egallaydi va 1000 ga yaqin kvartirani o'z ichiga oladi. Hammasi bo'lib butun mulk 32 gektarni egallaydi.

Shaharlarning yemirilishi va ijtimoiy muammolar oqibatida, Ko'plab muhim Brutalistik uslubdagi beton binolar vayron qilingan. Biroq, so'nggi yillarda, ba'zi binolar ro'yxatga olingan holda, tanqidiy qayta baholandi va uslubni qadrlash ortib bormoqda.

Ostin-Smit:Lord 2016-yilda Urban Splash tomonidan Londonda joylashgan arxitektorlar Mixail Riches bilan yaqindan hamkorlik qilib, Park Hill loyihasining 2-bosqichi uchun Landshaft dizaynini loyihalash uchun tayinlangan. Bino integratsiyalashgan yashash ideali bilan yaratilgan Brutalist arxitekturasining ajoyib asari, Parkhill kvartiralari yangi rekonstruksiya dasturi bilan yangi hayotga ega bo'ldi va hudud yana madaniy o'zgarishlar chorrahasiga aylandi.

Ronan Point 1968-yilning 16-mayida, ochilganidan atigi ikki oy o'tib, qisman qulagan Sharqiy Londondagi Nyuxem shahridagi Kanning Taun shahridagi 22 qavatli minora bloki bo'lib. Gaz portlashi natijasida ba'zi yuk ko'taruvchi devorlarni portladi, bu esa binoning butun bir burchagining asta-sekin pastga qulab tushdi olib keldi, to'rt kishi halok bo'ldi, 17 kishi yaralandi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, qulash noto'g'ri qurilish tufayli bo'lgan dega xulosaga kelishdi. Bu esa aholining ko'p qavatli turar-joy binolariga ishonchini yo'qotishiga olib keldi va Britaniya qurilish qoidalariga jiddiy o'zgarishlar kiritildi.

O'sha paytdagi ko'plab baland binolar tizimli qurilgan - standartlashtirilgan zavodda ishlab chiqarilgan beton panellar yordamida qurilgan va joyida yig'ilgan. 1968-yildagi Ronan-Poyntdagi falokat tufayli aholining ushbu mulklarga bo'lgan ishonchi allaqachon pasaygan edi. Falokat qurilish sanoati uchun zarba bo'ldi va qurilish qoidalariga katta o'zgarishlar kiritdi. 20 yil ichida butun mamlakat bo'ylab mahalliy kengashning ko'plab minora bloklari vayron qilindi, shu jumladan beton ichidagi armaturaning korroziyaga uchraganligi aniqlangan shu sababli strukturaning yaxlitligini buzgan.

Zamonaviy dunyoda beton

Temir-beton g'ayrioddiy shakllarni yaratish va turli xil to'qimalarni xosil qilishga mo'ljallangan. London Iqtisodiyot maktabi yani Marshall binosining interyeri bunga yaqol misol bo'ladi.

LSE Britaniya arxitektorlari Qirollik instituti tomonidan tashkil etilgan xalqaro dizayn tanlovini o'tkazdi. Unda 80 dan ortiq firma ishtirok etishdi; 2016-yil yanvar oyida oltita firma qisqa ro'yxatga kiritildi va takliflar taqdim etildi.

2016-yil aprel oyida LSE Grafton Architects kompaniyasini yangi ishlanma uchun ko'p tarmoqli guruhning me'morlari va bosh maslahatchisi sifatida tanladi. U Dublindagi Grafton Architects asoschilaridan biri bo'lgan Ivonne Farrell va Shelley McNamara tomonidan loyihalshtirildi va Pritsker mukofoti sovrindorlari aylanishgan.

Jamoa xoch shaklidagi keng ko'lamli beton "daraxtlardan" foydalangan holda murakkab konstruktiv yechim ishlab chiqdi. 17-asrdagi mahalliy cherkov me'morchiligidan ilhomlanib katta zalda 6,5 metr balandlikdagi beton daraxtlardan oltitasi joylashgan bo'lib, ular birinchi qavatdan ko'tariladi va gumbazga o'xshash shiftni tashkil etuvchi 28 ta cho'zilgan novdalarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, Marshall binosi betondan yasalgan konstruktsiyadir, ammo uning doirasida zarur strukturaviy imkoniyatlarni ta'minlash, kerakli me'moriy ko'rinishga erishish, shuningdek, ingichka

strukturaviy profillarni saqlab qolish uchun kiritilgan bir qator ajralmas po‘latdan yasalgan elementlar mavjud.

Bino ichida barcha po‘latdan yasalgan buyumlar ko‘zdan yashirilgan, qo‘shni tuzilmalar bilan uyg‘unlashishi uchun barchasi beton bilan o‘ralgan. Biroq, po'latdan yasalgan buyumlardan hosil bo‘lgan eng ko‘zga ko‘ringan elementlardan ikkitasi daraxtga o‘xshash tuzilma bo‘lib, ular ochiq rejali maydonlarni yaratishga va poydevorga katta yuklarni teng ravishda taqsimlashga yordam beradi.

Ko‘p turli ko‘rinishda ommaviy ishlab chiqarilgan temir-beton bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab deyarli barcha qurilish loyihalarida, oddiy uylardan tortib eng baland minoralargacha qo‘llaniladigan muhim materialdir.

Britaniyada beton Londonning qurilishi davom etayotgan yangi kanalizatsiya tizimining ulkan tunnellari uchun ham ishlatiladi: Temza Tideway tunneli Xuddi shunday, 118 kilometrlik asosan yer osti joylashgan Elizabeth liniyasi (Crossrail) Riding, Berkshirdan Buyuk Londonning janubi-sharqidagi Abbey Vudgacha. HS2 (London va Midlend va Shimoliy Angliyaning yirik shaharlari o‘rtasida qurilayotgan tezyurar temir yo‘l aloqasi) 500 dan ortiq ko‘prik va tunnellar uchun kam uglerodli betondan foydalanishda yetakchi hisoblanadi.

Heidelberg sement zavodi, Germaniya. Bugungi kunda kompaniya dunyoning 10 ta eng yirik sement ishlab chiqaruvchilari qatoriga kiradi. Ushbu g‘ayrioddiy material dunyoning eng buyuk arxitekturalari, jumladan, Sidney opera teatri (Jørn Utzon bilan Ove Arup, 1973) va Fallingwater uyi, Pensilvaniya, AQSH (Frank Lloyd Rayt, 1935) hamda Panama kabi ajoyib inshootlarni yaratdi. Kanal (1914), ulkan Qutqaruvchi Masih haykali, Rio-de-Janeyro (1931) va Uch dara to‘g‘oni, Xitoy (2012-yilda tugatilgan).

Salbiy tomoni shundaki, betonning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan sement ishlab chiqarilishi katta uglerod ajralib chiqadi, bu dunyo bo‘ylab karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining taxminan sakkiz foizinini tashkil qiladi.

Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida joylashgan Haydar Aliyev madaniyat markazi o‘zining qiziqarli me’morchiligi bilan kishini hayratga soladi. 2013-yilda foydalanishga topshirilgan Haydar Aliyev nomidagi madaniyat markazining umumiy maydoni 101144 m2. Binoda kontsert zali, konferensiya zali, kutubxona, muzey va san’at galereyalari joylashgan. Haydar Aliyev Madaniyat Markazi sun’iy ko‘lga ham ega. Bino marhum Iroqlik Britaniya arxitektori Zaha Hadid (1950-2016) tomonidan ishlab chiqilgan, Uning qobig‘i shisha tolali temir-beton panellardan yasalgan.

Butun dunyo bo‘ylab me’morlar, dizaynerlar va tadqiqotchilar sementga muqobil variantlar ustida ishlamoqda va CO_2 emissiyasini yo‘q qilmoqda. Zaha Hadidning shisha tolali sement Haydar Aliyev markazi (yuqoridagi rasm) bunga misoldir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Larsson, Naomi (6 August 2023). “Socialist modernism: remembering the architecture of the eastern bloc”. The Guardian. ISSN 0261-3077. Retrieved 18 October 2023.
2. Hopkins, Owen (10 September 2014). “The Dezeen guide to Brutalist architecture”. Dezeen. Retrieved 19 April 2020.
3. Rasmus Wærn (2001). Guide till Sveriges Arkitektur : Byggnadskonst Under 1000 Ar. Stockholm: Arkitektur Förlag. ISBN 9789186050559.
4. Editorial Staff. “Brutalist architecture - a retrospective”. Architecture and Design. Retrieved 19 April 2020.
5. “Brutalist Architecture London | A Guide To Brutalism”. 20 Bedford Way. 23 June 2014. Retrieved 11 May 2020
6. XIX ASR OXIRI AQSH ARXITEKTURASIDA RATSIONALIZM (CHIKAGO MAKTABI) X.S.Ravshanovich Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology 2024/6/6. 294-298
7. “Le Corbusier plus facto que fada”. Liberation. 18 March 2015. Retrieved 23 March 2015.

MILLIY CHOYXONALAR ARXITEKTURASIDA UYG‘UNLIK VA MUTANOSIBLIK: TURKIYA, OZARBAYJON, O‘ZBEKISTON TAJRIBALARI

Alijanova Matlubaxon Shakirjon qizi
SamDAQU doktoranti,
Aymatov Anvarbek Abdixoliqovich
SamDAQU dotsenti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjondagi milliy choyxonalar arxitekturasining asosiy tamoyillari, ularning tarixiy ildizlari, zamonaviy ko‘rinishdagi uyg‘unligi va mutanosiblik jihatlari tahlil qilinadi. Milliy choyxonalar jamiyat hayotidagi o‘rni, xalqning madaniyati va urf-odatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilib, turli arxitektura uslublarining bir-biriga ta’siri va o‘ziga xosligi o‘rganiladi.

Annotation:This article analyzes the main principles of the architecture of national teahouses in Turkey, Uzbekistan, and Azerbaijan, focusing on their historical roots, modern harmony, and proportionality. The role of national teahouses in social life is examined in relation to the culture and traditions of the people, while also exploring the mutual influence and uniqueness of various architectural styles.

Аннотация:В данной статье анализируются основные принципы архитектуры национальных чайхан в Турции, Узбекистане и Азербайджане, их исторические корни, современное выражение гармонии и про-

порциональности. Рассматривается роль национальных чайхан в общественной жизни, в контексте культуры и традиций народов, а также исследуется взаимное влияние и самобытность различных архитектурных стилей.

Kalit so‘zlar: choyxona, arxitektura, uyg‘unlik, mutanosiblik, milliylik, Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon.

Kirish: Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlari va globallashuv fonida xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, me’moriy an’analari saqlab qolinishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy choyxonalar – bu nafaqat ovqatlanish joyi, balki ijtimoiy muloqot, madaniy almashinuv va ruhiy dam olish maskani sifatida tarixan muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu binolar arxitekturasi, ularning shakllanishi va rivojlanishi turli xalqlarning yashash tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon kabi davlatlar choy ichish madaniyatiga ega bo‘lgan, o‘ziga xos choyxona an’analarini shakllantirgan mamlakatlardir. Ularning har biri o‘z tarixiy, ijtimoiy va iqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda choyxona arxitekturasida o‘ziga xos uyg‘unlik va mutanosiblik mezonlarini yaratgan. Shu nuqtai nazardan, bu tajribalarni qiyosiy o‘rganish orqali choyxona binolarining zamonaviy arxitekturasida milliylikni saqlagan holda, funksional va estetik yechimlarga erishish imkoniyati mavjud.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi me’morchilikda ko‘plab milliy an’analar chetga chiqib qolmoqda yoki sun’iy tarzda aks ettirilmoqda. Shu sababli choyxona arxitekturasi orqali xalqning qadriyatlarini, estetik dunyoqarashini va zamonaviy ehtiyojlarini uyg‘un holda aks ettiradigan loyihaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon choyxonalarining arxitekturasida milliylik, funksionallik va estetik uyg‘unlik muvaffaqiyatli uyg‘unlashgan bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish zamonaviy choyxona binolarini loyihalashda milliy qadriyatlarni saqlagan holda yangi, mutanosib va barqaror arxitektura yechimlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘la oladi.

Asosiy qism. Bugungi choyxona binolarini loyihalash jarayonida ko‘plab hollarda milliy me’moriy an’analar, hududiy xususiyatlar va madaniy identitet yetarli darajada hisobga olinmayapti. Natijada, choyxonalarning tashqi ko‘rinishi va ichki makoni funksional bo‘lsa-da, ularning milliy ruhi, estetik uyg‘unligi va mutanosibligi susaymoqda. Shu bilan birga, Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon kabi mamlakatlarda tarixan shakllangan choyxona arxitekturasi boy tajribaga ega bo‘lsa-da, bu tajribalarning zamonaviy loyihalashda tizimli tahlili va amaliy qo‘llanilishi yetarlicha o‘rganilmagan.

Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon choyxonalarining milliy arxitektura tajribalarini qiyosiy o‘rganish orqali ularning uyg‘unlik va mutanosiblik tamoyillarini aniqlash hamda zamonaviy choyxona binolarini loyihalashda milliylik, funksionallik va estetik yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

1. **O‘zbekiston choyxonalari** arxitekturasida milliylik va mutanosiblik. O‘zbek choyxonalari qadimdan xalqning ijtimoiy hayotida muhim o‘rin egallagan. Bu maskanlar faqatgina ovqatlanish yoki choy ichish joyi emas, balki, do‘stlar uchrashuvi, mehmon kutish, siyosiy va ijtimoiy mavzular muhokamasi, hatto jamoat yig‘inlari o‘tkaziladigan joy sifatida xizmat qilgan. O‘zbek choyxonalari me’morchiligida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- ✓ ***Ochiq va yarim ochiq makonlar:*** Ko‘pincha ayvon yoki supalar bilan jihozlanadi. Havo aylanishi va soyani ta’minlovchi elementlar muhim o‘rin tutadi.
- ✓ ***Ayvonli tuzilma (ravati):*** Yog‘och ustunlar va toqilar orqali bezatilgan. Bu elementlar nafaqat konstruktiv, balki estetik ahamiyatga ham ega.
- ✓ ***Milliy bezaklar:*** Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, milliy naqshlar (islimiy, girih), ko‘k rangli sirlash ishlari choyxona arxitekturasining ajralmas qismi hisoblanadi.
- ✓ ***Past balandlikdagi supalar:*** Odamlar oyoq uzatib o‘tiradigan, ko‘pincha gilam to‘shalgan supalarda choy ichishadi.
- ✓ ***Tabiiy materiallar:*** Asosan g‘isht, yog‘och, ganch, tosh va sopol ishlatiladi. Bu materiallar issiq iqlimga moslashgan.

O`zbekiston hududi iqlim jihatidan farqlanadi.Shu sababli, Farg`ona vodiysi va Samarqand, Buxoro kabi vohalar choyxonalari arxitekturasi farqlanadi. **Farg‘ona vodiysi** choyxonalari ko‘proq bezakli, zich joylashgan va ichki makonlar bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi. **Samarqand va Buxoro** choyxonalari esa tarixiy madrasalar, bozorlar va masjidlar yaqinida joylashib, ko‘proq monumental ko‘rinishga ega.

Buxoro choyxonalari: Ko‘hna bozorlarga yaqin joylashgan, tarixiy madrasa va masjidlar bilan ansamblda mavjud. Masalan, Lyabi Hovuz atrofi — tarixiy choyxonalar markazi sifatida mashhur. Fasadlar ko‘pincha koshinkorlik, gumbazli tomlar, ustunli ayvonlar bilan bezatilgan.

Samarqand choyxonalari: Registon ansambli atrofida joylashgan choyxonalar turistik va milliy ruhda

barpo etilgan. Tarixiy va zamonaviy arxitektura uyg‘unlashtirilgan. Naqsh va ganchkorlik ko‘p qo‘llanilgan.

Qishloq choyxonalari: Ko‘proq oddiy, xalqona shakl, lekin tabiiy materiallar va ekologik dizayn bilan ajralib turadi. Ayrim hollarda daraxt soyasida yoki suv bo‘yida joylashgan bo‘ladi (dam olish uchun qulay).

Choyxona loyihasidagi kompozitsion elementlar:

Element	Tavsif
Ayvon (ravati)	Soyalik yaratadi, suhbatsaronlik muhitini ta’minlaydi
Supa (otar-chopar o‘rindiq)	Choy ichish uchun maxsus joy, gilam yoki mato bilan to‘shalgan
Hovli yoki ochiq makon	Tabii yoritish va dam olish uchun, daraxt yoki gulzor bilan bezalgan
Ichki bezaklar	Ganch, yog‘och o‘ymakorligi, koshinlar orqali milliylikni aks ettiradi

Turkiya choyxonalari tarixiy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Turkiyada choyxona (turkcha: *çay bahçesi* yoki *kıraathane*) – asosan erkaklar yig‘iladigan, choy ichiladigan va ijtimoiy muloqot qilinadigan muhim maskan hisoblanadi. Ayniqsa, Istanbul, Bursa, Konya kabi shaharlarda qadimiy choyxona madaniyati saqlanib qolgan.

Arxitektura jihatlari: Ochilgan bog‘chali choyxonalar: "Çay bahçesi" deb ataladigan bu joylar ochiq havoda, daraxt soyasida, suv bo‘yida yoki tarixiy joylarda quriladi.

Tashqi va ichki makon uyg‘unligi: Ko‘pincha ochiq makonlar, ayvonlar yoki zamonaviy terassalar mavjud.

Minimalist uslub bilan milliylik uyg‘unligi: Yog‘och stollar, an’anaviy mozaikalar, kichik gilamlar, metall choydanlar bilan dekorativ bezaklar.

Ichki muhit elementi:

Element	Tavsif
Stollar va o‘rindiqlar	Odatda to‘g‘ri shakldagi yog‘och yoki metall, 2–4 kishilik
Choydan va istikanlar	Turk choyi uchun o‘ziga xos ikki qavatli choynak va shaffof stakanlar
Bezash	Qur’on yozuvlari, manzarali rasmlar, tarixiy shaxslar portretlari
O‘yinlar	Tavla, shaxmat, domino, gazeta va jurnallar uchun maxsus joylar

Estetik tamoyillar: Simmetriya va soddalik, lekin ayni vaqtda issiq va mehmondo‘st muhit yaratish muhim.Raqamli va mobil buyurtma tizimlari bilan integratsiya qilingan zamonaviy yechimlar mavjud. Misol sifatida Pierre Loti choyxonasi (Istanbul): Boğaziçi manzarasiga ega, tarixiy va zamonaviy uslub uyg‘unlashgan. Çınaraltı çay bahçesi (Üsküdar): Bosfor bo‘yida joylashgan, ochiq terassali, daraxtlar ostida choyxona.

Ozarbayjon choyxonalarining madaniy va ijtimoiy ahamiyati.Ozarbayjonda choy ichish – bu faqatgina ichimlik emas, balki mehmondo‘stlik, do‘stlik va milliy birlik timsoli hisoblanadi. Choyxona (ozarbayjoncha: çayxana) – erkaklar, do‘stlar va ko‘pincha katta yoshli kishilar yig‘iladigan, ijtimoiy suhbatlar olib boriladigan muhim joy.

Arxitekturaviy xususiyatlari:

Ko‘p hollarda tarixiy uslubda barpo etilgan: Gumbazli tomlar, sharqona yoysimon eshik va derazalar.

Ichki makonlarda ko‘plab dekorativ bezaklar: An’anaviy gilamlar, o‘ymakor yog‘och mebel, mis idishlar.

Ayvonli va ochiq makonli yechimlar: Havo aylanishi, ochiq terassalar, soyabonli hududlar mavjud.

Ichki va tashqi muhit elementi:

Element	**Tavsif**
Sharqona gilamlar	Devorga osilgan yoki yerga to‘shalgan milliy naqshli gilamlar
Mis choydan va piyolalar	Milliy ruhni aks ettiruvchi, estetik ko‘rinishdagi an’anaviy choy idishlari
Tabiiy bezaklar	Jonli gullar, daraxtlar, ko‘lmaklar, haykalchalar
O‘yin stollari	Narda (tavla), domino, shaxmat uchun mo‘ljallangan hududlar

Estetik va funksional yondashuvlar:Fasadlarda milliy naqshlar va yozuvlar keng qo‘llaniladi. Ko‘p choyxonalar ko‘hna shaharlarda, tarixiy obidalar yaqinida joylashgan. Yorug‘lik dizayni: Tungi yoritish dekorativ chiroqlar bilan bezatiladi. Aromatik atmosfera: Choyxonada choy hidi, ko‘mirda pishirilgan choy, baklava, qurutilgan mevalar muhitni boyitadi.

Zamonaviy namunalar: “Çay Evi” (Boku): Milliy dizayn elementlari bilan zamonaviy me’morchilik

uyg‘unlashgan. “Xan çayxanası” (Sheki): Tarixiy saroyga tutashgan, yog‘och bezakli, ochiq-oydin supali choyxona.

Qiyosiy tahlil natijalari

Mezoni	O‘zbekiston	Turkiya	Ozarbayjon
Madaniy roli	Ijtimoiy va do‘stona yig‘inlar, suhbatlar	Suhbat, tavla o‘yini, choy ichish	Do‘stlik va hurmat ramzi, choy ichish
Joylashuv	Ko‘p hollarda bozorlarga yaqin	Bog‘, ko‘l bo‘yida yoki tarixiy joylarda	Tarixiy shaharlarda, tarixiy obidalar yaqinida
Tashqi makon	Ayvonli, supali, ochiq hududli	Terassali, bog‘cha ko‘rinishida	Soyabonli, ochiq terassalar
Ichki makon	Ganchkorlik, yog‘och ustunlar	Minimalist, gilamlar va stollar	Gilamlar, mis buyumlar, sharqona bezaklar
Choy idishlari	Qora choy piyolada	Ikki qavatli choynak, istikan (stakan)	Mis choydan, kichik chashkalar
O‘yin va madaniy faoliyat	Shaxmat, suhbat	Tavla, domino, gazeta/jurnallar	Tavla, milliy musiqa
Materiallar	G‘isht, yog‘och, ganch, kulolchilik	Yog‘och, metall, mozaika	Yog‘och, mis, tabiiy tosh
Bezash uslubi	Milliy naqshlar, koshin, ganch	Yengil milliylik, ko‘proq funktsionallik	An’anaviy gilamlar, o‘ymakor yog‘och
Ekologik elementlar	Daraxtlar, shamol aylanishi	Soyali bog‘lar, manzara	Jonli gullar, o‘simliklar
Zamonaviylik darajasi	An’anaviylik ustun, zamonaviy yondashuv kam	Zamonaviy dizayn bilan milliylik uyg‘un	Ikki uslub uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi

Tadqiqot natijalari:

Qiyosiy tahlil asosida Turkiya, O‘zbekiston va Ozarbayjon choyxonalarining arxitekturasiga xos bo‘lgan milliylik, estetik uyg‘unlik va mutanosiblik tamoyillari aniqlanadi.

Choyxona arxitekturasining funksional-zonaviy tashkiloti, fasad yechimlari va ichki makon kompozitsiyasida milliy me’moriy uslublarning qo‘llanish xususiyatlari ochib beriladi.

Zamonaviy choyxona binolarini loyihalashda milliy an’analar va zamonaviy dizayn elementlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot natijasida milliylikni saqlagan holda zamonaviy va barqaror choyxona loyihalarini yaratish uchun me’moriy-metodik yondashuv taklif qilinadi.

Choyxona binolarida ijtimoiy-madaniy ahamiyat, estetik ideal va xalq urf-odatlarini aks ettirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Hududiy va iqlimiy sharoitlarni inobatga olgan holda choyxona arxitekturasida uyg‘unlik va mutanosiblikni ta’minlovchi yechimlar ishlab chiqiladi.

Xulosa. Milliy choyxonalar arxitekturasi – bu nafaqat binolar majmuasi, balki xalq ruhiyatining ifodasi, madaniy meros va jamiyat hayotining bir bo‘lagi hisoblanadi. Kelajakda bu yo‘nalishda xalqaro tajriba almashinuvi, ekologik va barqaror arxitektura yondashuvlarini qo‘llash orqali choyxona madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish халкаро do`stlikni mustahkamlash va turizm marshutlarini yanada shakllantirishi mumkin.

Adabiyotlar

1. **B.S.Tuxliboyev va S.S.Umerova, “***O‘zbekiston arxitekturasining bejamdorlik va bir xilligi”, International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers, ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor, volume-12, Issue-4, 22.04.2024*
2. **I. Mahmatqulov va O.Eshmurodov** *“O‘rta Osiyo me’morchiligida alohida bino tarzida shakllangan xonaqohlar arxitekturasi rejaviy echimlari”Tatqiqot va innovatsiyalar jurnali, ISSN:2181-4058-2024*
3. **N.X.Djurayeva,** *“O‘zbekistonda bozorlari qurilishi va arxitekturasining o‘ziga xos xususiyatlari”, O`zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, maqola2023*
4. **Y.B.Nurmuradova,** *“O‘zbekiston turar-joylar arxitekturasining tarixiy shakllanishi”, CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 358-362. https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/331
5. **O.F.Qodirova,** *“O‘zbekistonning zamonaviy arxitekturasi (XX asr – XXI asr boshi)”, darslik, 2023*
6. https://pdfbox.uz/doc/arxitektura-va-qurilish/19014-ozarbayjon-arxitekturasi
7. https://scienceweb.uz/publication/10138
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiyada_arxitektura
9. https://uzpedia.uz/pedia/turkiyada_arxitekturamemorchilik

MAKTAB TA'LIM MUASSASALARIDA REKREATSION HUDUDLARNI TASHKIL-LASHTIRISHDA ZAMONAVIY XORIJIY TAJRIBALAR

Maxmudova Saboxat Abdusattorovna. Mustaqil izlanuvchi. SamDAQU.
Mustayev Bahrom Bahodirovich. arx.f.b.(PhD), dotsent v.b. SamDAQU.

Annotasiya. Maqolada umumta'lim maktab muassasalari interyerlarida rekreatsion burchak va hududlarni tashkil etishda zamonaviy xorijiy tajribalar o'rganilib tahlil qilingan. Bundan tashqari IT polygon, bookkrossing haqida ma'lumotlar o'rganilib ularni qo'llash yo'llari keltirilgan.

Аннотация. В статье изучен и проанализирован современный зарубежный опыт организации рекреационных уголков и зон в интерьерах общеобразовательных учреждений. Кроме того, изучена информация о IT polygon, bookkrossinge и приведены способы их применения.

Annotation. The article examines and analyzes the modern foreign experience of organizing recreational areas and zones in the interiors of educational institutions. In addition, information about IT polygon and bookcrossing has been studied and ways of using them have been described.

Kalit so'zlar: rekreatsiya, 3 D modullar, muassasa, IT-poligon, aqliy fikrlash, sog'lom turmush, interyer, eksteryer, zamonaviy, kvadrokopter, magnit doskalar.

Ключевые слова: рекреация, 3 D модули, учреждение, IT-полигон, мысленное мышление, оздоровительный, интерьер, экстерьер, современный, квадрокоптер, магнитные доски.

Keywords: recreation, 3 D modules, institution, IT-poligon, mental thinking, wellness, interior, exterior, modern, quadcopter, magnetic boards.

Maktab inson hayotidagi muhim bosqichdir. Bolalar o'rta ta'lim muassasalarida o'n bir yil davomida tehsil olib vaqt o'tkazadilar. Ularda ular o'zlarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradilar, qobiliyatlarini ochib beradilar. Shuning uchun nafaqat jamoa, balki atrof-muhit ham muhimdir.

Bugungi kunda ko'plab maktab o'quvchilarning tanaffuslarda dam olishlarini tashkil etishning eskirgan tamoyillarini tubdan o'zgartirib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. "Qizil burchak" bilan bo'sh joylar o'rniga g'ayrioddiy, qulay, zamonaviy uslubda jihozlangan, dam olish va rivojlanish uchun joylar keladi [4]. Ta'lim-tarbiya hamda ish faoliyati davomida insonda charchoq, holsizlanish holati paydo bo'ladi. To'g'ri, ochiq muhitlarda rekreatsion hududlari tashkil etilsada, yopiq muhitlarda kamdan-kam holatlarda e'tibor qaratilayotganiga guvohi bo'lyapmiz. Shu masalalar yuzasidan maqolada asosan internet saytlardan foydalanilgan holda dunyo mamlakatlari tajribalari misolida qisman ko'rib chiqishga qaror qildik. Xo'sh, hozirgi kunda zamonaviy yopiq muhitlarda, ya'ni interyerda rekreatsion hududlar yoki burchaklar qanday tashkillashtirillyapti?

"Rekreatsiya" so'zi ingliz tilidan tarjima qilingan so'z bo'lib "dam olish", "tiklanish", "ko'ngil ochish" degan ma'noni anglatadi [5].

Rekreatsion zona nima va uning maqsadi- dam olish maskanlari – bu alohida xonalar, koridorlarning keng joylari yoki dam olish va tanaffus paytida, darsdan keyin bolalar bilan muloqot qilish uchun jihozlangan zallar. Belgilangan qoidalarga ko'ra, ushbu zonalar erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak (kalitni qulflamasdan), shunda bolalar bo'sh vaqtlarida ham foydali vaqt o'tkazishlari kerak.

Dam olish bir vaqtning o'zida bir nechta muhim funktsiyalarni bajaradi:

- darslar orasida yuqori sifatli, yaxshi dam olishni ta'minlanishi;
- birgalikda faol va sokin o'yinlar, do'stlar bilan uchrashuvlar, turli xil ijtimoiy loyihalar uchun platforma beradi;
- intellektual mashg'ulotlarga, o'z-o'zini tarbiyalashga qiziqishni rag'batlantirish (masalan, maktabda to'g'ri tashkil etilgan shaxmat maydoni);
- bolalarga yoqimli, qulay muhitda dam olish imkoniyati.

Maktablarda rekreatsion hududlashtirishning zamonaviy printsiplari.

Rekreatsion hududlarida nima bo'lishi mumkin va nima bo'lishi kerak? Avvalo, bu makonni to'g'ri hududlashtirish.

- Yumshoq divanlar, tuxumsimon kreslo yoki devorda qulay "Norka" bilan qulay maxfiylik burchaklarining mavjudligi. Qolgan bo'shliqdan ular akustik qismlar bilan qoplanishi;
- faol o'yinlar uchun, o'quvchilarning yoshiga qarab, mini-o'yingohlar, polga "klassiklar", labirintlar, 3D jismoniy tarbiya uchun modullar, devorlar bo'ylab sport anjomlarining bo'lishi;
- aqliy o'yinlari uchun shaxmat va shashka magnit taxtalari. Kichik sinf o'quvchilari uchun o'yinchoqlar, shkaflarning o'rnatilishi.
- maktabda o'z-o'zini tayyorlash uchun qulay ko'chma, konvertatsiya qilinadigan mebellar, podiumlar, kreslolarning mavjudligi;
- o'simliklar, xona gullari, javonlar, lianalar bilan "yashil devorlar", baliq bilan akvariumlar, kichik favvoralar geoplastik shakllar uyg'un ravishda mos kelishi. Ular ko'rgazmali qurol bo'lib xizmat qiladi, charchagan ko'zlarga dam beradi, o'quvchilarning hissiy holatini yaxshilaydi va tabiatga g'amxo'rlik qilishni o'rgatadi;
- dam olish maskanlari va koridorlarning devorlarini bezashda maktabda vizual o'quv materiallari, qiziqarli faktlar, buyuk olimlar va

ullamolarning so‘zlari, uch o‘lchovli xaritalar, yo‘naltiruvchi chiziqlar va sinflarning nomlari, shahar va vatanparvarlik mavzulari, turli fanlar bo‘yicha kulgili ko‘rsatmalar keng qo‘llaniladi. Chizmalar-komikslar yoki kulgili vaziyatlar. Agar maktabda kichik guruh vakillari o‘qisa, milliy motivlarni ham kiritish mumkin: xalq hunarmandchiligi, kashtachilik asosida [4].

Maktab interyeridagi rekreatsion hududlar bolalar uchun eng qiziqarli joylardan biridir. U har qanday bo‘lishi mumkin va turli funktsiyalarni birlashtiradi: mustaqil mashg‘ulotlar va aloqa uchun joy, o‘yin maydoni, kovorking maydoni.

Rekreatsion hududda nima bo‘lishi kerakligini maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hal qilish mumkin. Masalan, agar maydon IT-poligon uchun ofisni ajratishga imkon bermasa, unda dizaynerlar uni dam olish maskaniga joylashtirishni taklif qilishlari mumkin. Va agar bolalar darslar orasida o‘tirish va dam olishlari uchun joy bo‘lmasa, unda dam olish va bukkrossing zonasini tashkil qilish mumkin [1].

IT-poligon- zamonaviy maktablardagi yuqori texnologiyali uskunalar o‘quvchilarga ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish, muhandislik va axborot texnologiyalari sohasida ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ilm-fan va loyiha faoliyatiga qiziqishni uyg‘otishga yordam beradi... Maktabdagi it-poligonining resurs bazasi "aqlli" ta’lim konvertatsiya qilinadigan makondir. Ushbu innovatsion saytdagi mashg‘ulotlar davomida bolalar dasturlash, prototiplash, modellashtirish, tarmoq ma’muriyatini o‘zlashtiradilar; ular muhandislik faoliyati va axborot texnologiyalari sohasida kasbiy tayyorgarlikdan oldingi ko‘nikmalarni shakllantiradilar, ilmiy-tadqiqot ishlari va loyiha faoliyatiga qiziqish bildiradilar. Bu yerda maktab o‘quvchilari kvadrokopter va o‘z-o‘zini boshqaradigan mashinani yig‘ishlari mumkin; robotlar qanday ishlashini va ular nima qila olishlarini tushunish; mobil ilovani ishlab chiqish kabilar. **(1-2 rasmlar).**

It-poligon bolalarga qo‘rquvsiz qaror qa’bul qilishiga, texnik yechimlarni hayotga tatbiq etishga, ertangi kunning raqamli iqtisodiyoti talab qiladigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga va yuqori texnologiyalar sohasida kelajakdagi kasbni ongli ravishda tanlashga yordam beradi. Bolalar eng murakkab uskunalarni tezda o‘zlashtiradilar. G‘oya paydo bo‘lganda, uni amalga oshirish istagidan oldin barcha qiyinchiliklar yo‘qoladi [2].

Bundan tashqari, poligon dastgohlar va texnik to‘plamlar bilan jihozlangan: bolalar murakkab mikrosxemalarni yaratadilar; frezarlash va o‘yma mashinalarida loyihalar uchun tarkibiy qismlar tayyorlanadi (masalan, maketlar uchun stendlar, ko‘rsatkichlar, maktab xonalari uchun yozuvlar yozilgan plitalar, kalit zanjirlar). Shuningdek, bolalar va o‘qituvchilar ixtiyorida 3D printerlar, osiloskop, multimetr, konstruktorlar to‘plamlari-oddiydan murakkabgacha, yangi avlod robotlarini dasturlash va yaratishni talab qiladi (VEX IQ, VEX EDR), LEGO Education Mindstorms EV3 konstruktorlari, Tinkerbots elektron konstruktorlari, elektromexanik gumanoid Robot va standart Abilix Kit H1-S, elektron "Evolvektor va Iodo [2].

1-rasm. **It-poligon ofisida olib borilayotgan mashg‘ulotlar. https://yandex.ru/images**

2-rasm. **Kvadrokopter, shuningdek, yoki kvadrotor deb ham ataladi, to‘rtta vint bilan jihozlangan vertolyot yoki multikopterning bir turi. https://yandex.ru/images**

Bookkrossing-bu butun dunyo bo‘ylab kitoblarning aylanishi. Ushbu g‘oya amerikalik internet mutaxassisi Ron Xornbekerga tegishli. 2001 yilda u mehmonxonasining qabulxonasida tushuntirish yozuvlari bilan 20 ta kitob qoldirdi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab millionlab kitoblar "yurmoqda". "Sayohat kitoblari kutubxonasi" har kuni 300 ta kitob bilan to‘ldiriladi [3].

Bukkrossingni o‘tkazish uchun kitob javonlari, maktab koridoridagi ikkinchi qavatdagi tokchalar o‘rnatildi. Maktab veb-saytida e’lon qilinadi, unda maktab kutubxonasida barcha o‘qish ixlosmandlarini o‘quvchilar o‘rtasida kitob almashishning qiziqarli aksiyasida ishtirok etishga taklif qiladi. Bukkrossing jarayoni "O‘qing – boshqasiga bering" tamoyiliga asoslangan eng oddiy harakatlardan iboratligini bilib oladilar. Boshqalar bilan baham ko‘rish uchun kitoblar-kutubxonaga olib kelinishi mumkin, shunda u yangi o‘quvchilarni topib, qiziqarli sayohatni boshlaydi. Kitoblarni o‘qish kerak, javonlarda turmaslik kerak! Maktab o‘quvchilari kutubxonaga olib kelgan kitoblarga bukkrossing yorlig‘i yopishtiriladi, shunda kitobning o‘zi qayerdan kelganligi, uni maktab kitob almashinuvi, kitob aylanishi uchun kim bergani haqida ma’lumot beradi. Va kitob javonga qo‘yiladi. Ular kitob javonlaridan o‘qish uchun qoldirishi, do‘stlariga uzatilishi, yangi o‘quvchi haqida yozuv qoldirilishi mumkin bo‘ladi [3].

O‘yin rekreatsiyalari. Dam olishning eng yaxshi usuli-bu faoliyat turini o‘zgartirish, shuning uchun tanaffus paytida maktab o‘quvchilari ochiq o‘yinlarni bajonidil o‘ynashadi. Bolalarning harakatga bo‘lgan

ehtiyojini qondirish uchun dam olish joylariga turli xil o‘yin modullarini joylashtirish mumkin.

Rekreatsiyani har qanday byudjetda, hatto minimal darajada ham o‘yin maydonchasiga aylantirishingiz mumkin: buning uchun polga, devorlarga klassiklar, ta’qiblar, balanslar kabi turli xil o‘yinlardan rasmlarni qo‘llash kifoya. Bundan tashqari, odatiy tir o‘qining xavfsiz versiyalarini joylashtirish mumkin: ular uchli nishonga otish o‘qi o‘rniga yumshoq sharik to‘plaridan foydalanadilar. To‘plarni tashlab, bolalar nafaqat ko‘zni va aniqlikni rivojlantiradilar, balki vaqtni soat bilan aniqlashni o‘rganadilar, chunki nishonga tegishli belgilar qo‘yiladi [1]. **(3-4-5-6 rasmlar).**

Tinch rekreatsiya. Biroq, barcha bolalar bir-biridan farq qilishini unutmang, shuning uchun dam olishda nafaqat mobil, balki “Tinch” o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Bu so‘z o‘yinlari uchun modullar, magnit shaxmat, qalam va marker taxtalari ham bo‘lishi mumkin.

Agar bolalar “shovqinli” dam olish jiyida o‘ynasalar va bir-birlari bilan faol muloqot qilsalar, “tinch” dam olish joyida ular dam olishlari, do‘stlari bilan suhbatlashishlari, kitob o‘qishlari yoki telefonlarini zaryadlashlari mumkin. Bunday dam olish maskanlari o‘yin maydonchalaridan uzoqroq joyda joylashtirilishi va yumshoq mebellar bilan jihozlanishi kerak: akustik suyanchiqli divanlar va kreslolar, ramkasiz stullar, maxfiylik burchaklari, yumshoq tokchali javonlar. Bu yerda bukkrossing uchun javonlar va USB rozetkalari bo‘lgan zaryadlash tarmoqlari joylashadi [1].

3-rasm. Rekreatsion hududni tashkillashtirish bo‘yicha takliflar. https://edudesign.ru/school-recreation-design

4-rasm. . Rekreatsion hududni tashkillashtirish bo‘yicha takliflar.https://edudesign.ru/school-recreation-design

5-rasm. Foydali faol o‘yinning yana bir misoli — bu bolalar yo‘l qoidalarini o‘rganadigan va eslab qoladigan yerga yo‘l belgilari. https://edudesign.ru/school-recreation-design

6-rasm. Kattaroq maktab o‘quvchilari stol tennisi, stol futboli va xokkey o‘ynashni afzal ko‘rishadi-bunday modullarni rekreatsion hududga ham joylashtirilishi mumkin. https://edudesign.ru/school-recreation-design

7-rasm. Ko‘p funksiyali o‘quv rekreatsion zonalarni tashkillashtirish bo‘yicha misollar. https://edudesign.ru/school-recreation-design

O‘quv rekreatsiyalari. Maktab xonalari orasidagi aniq chegaralar xiralashadi va dam olish joylaridan asta-sekin ko‘p funktsiyali joylarga aylanadi, u yerda darslar, loyihalar, uy vazifalarini bajarish mumkin bo‘ladi. Masalan, rekreatsiya butunlay it-poligonga yoki ko-vorkingga aylantirilishi yoki o‘quv zonasi uchun ushbu makonning faqat bir qismini ajratishi mumkin. Dam olish maskanidagi o‘quv zonasi ko‘p funktsiyali bo‘lishi juda muhim: bo‘sh vaqtlarida bolalar unda dam olishi yoki mustaqil ish uchun foydalanishlari kerak. Bu yerda maktab o‘quvchilari film tomosha qilishi va muhokama qilishi, kichik tadbir yoki tematik uchrashuv o‘tkazish uchun yig‘ilishlari mumkin [1].

Dam olish funksiyasi asosan bolalarning yoshiga bog‘liq, chunki boshlang‘ich maktab o‘quvchilari va bitiruvchilari har xil ehtiyoj va istaklarga ega. Shuning uchun maktabning qaysi qismida bo‘sh joy borligini hisobga olish muhimdir: Boshlang‘ich maktabda dam olish faol va sokin o‘yinlarga moslashtirilishi kerak; o‘rta va yuqori sinflar uchun maktabda kovorking bilan tinch dam olish maskanlari, shuningdek, bolalar aqliy faolligini rivojlantirishi uchun mumkin bo‘lgan joylar bo‘lishi kerak — VR zonalari, stol futboli yoki tennis kabi o‘yin modullari [1].

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda rekreatsion hududlarni faqat ochiq muhitlardagina emas, balki ichki muhitda ham zamon talablari asosida tashkillashtirish muhimligi dunyo amaliyoti tajribasida ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, yosh avlodning sog‘lom fikrlash hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda eng muhim masalalardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://edudesign.ru/school-recreation-design
2. https://dzen.ru
3. https://nsportal.ru
4. https://gramatstudio.ru/blog/organizatsia-dizayn-zon-rekreatsii-v-shkole/
5. https://urok.1sept.ru/articles/688350

SHAHARSOZLIK VA ARXITEKTURADA XALQ MA’DANIYATINING TUTGAN O’RNI (YAPONIYA MISOLIDA)

Norov J.S.
Mustaqil tadqiqotchi. SamDAQU

Annotatsiya. Maqolada, Yaponiyaning shaharsozlik va zamonaviy arxitekturasi rivojlanishi, aholisining porloq va quvnoq kelajagi, an'anaviy turmush tarzinining asosiy xususiyatlari, madaniyati, me’moriy urf odatini unutmagan xalqlardan biri ekanligi haqida gap boradi.

Tayanch so‘zlar: Majoziy, metropoliya, simmetriya, bezaklar, arxitektura, harakatlanuvchan, domen, shaffof, an'anaviy.

Аннотация. В статье говорится о развитии градостроительства и современной архитектуры Японии, светлом и счастливом будущем ее жителей, а также о том, что это одна из нации, не забывшая основные особенности своего традиционного образа жизни, культуры и обычаев.

Ключевые слова: Образный, мега полисный, симметричный, орнаментальный, архитектурный, подвижный, предметный, прозрачный, традиционный.

Annotation. The article talks about the development of urban planning and modern architecture in Japan, the bright and happy future of its inhabitants, as well as the fact that it is one of the countries that has not forgotten the main features of its traditional way of life, culture and customs.

Keywords: Figurative, metropolis, symmetry, ornaments, architecture, movable, domain, transparent, traditional.

Kirish. Yapon hayotining deyarli barcha sohalarida - madaniyatda, oilaviy hayotga va shaharlarining tashqi qiyofasiga e’tibor beriladi. Ota-bobolarining merosini unutmagan holda, yapon xalqi bugungi kunda yangi texnologiyalar bilan hamnafas tarzda faoliyat yuritmoqda.

An'anaviylik va yuqori texnologiyalar zamonaviy yapon me'morchiligini organik birlashtirilganligini ko’rishimiz mumkin. Yaponlar har doim chiziqlar ravshanligi, simmetriya, moderatsiya va soddalikka intilishgan. Ushbu an'anaviy xususiyatlarning barchasi Yaponiya shaharlarining zamonaviy me'morchiligida aks etadi, aksariyat zamonaviy metropoliyalardan farqli o'laroq, odiy va sodda binolarga o'xshamaydi, aksincha, yagona va uyg'un me'moriy majmuaga o'xshaydi. Zamonaviy yapon arxitekturasi nafaqat o'ziga xos uslubi bilan, balki shaharsozlik sohasidagi eng yangi texnologiyalardan foydalanish bilan ham ajralib turadi.[1]

Asosiy qism. Yaponiya shahri-chiziqlarning qat'iyligi va elementlarning simmetriyasi bilan ajralib turadigan baland binolar zilzilaga chidamli texnologiyalar yordamida qurilgan bo'lib, hatto jiddiy zilzilalar paytida ham zarar ko'rmaslikka imkon beradi. Yaponiyaning yirik shaharlaridagi barcha binolar ikki tomchi suv kabi bir-biriga o'xshash deb bulmaydi. Ularning har biri o'ziga xos tarzda individualdir hamda ma'lum darajada san'at asaridir.[2] Yaponiyaning aholisi zich joylashgan shaharlarida, tabiatni unutmaslikka harakat qilishadi. Shuning uchun o'quv va ofis binolariga qo'shimcha ravishda hovuz va tosh kompozitsiyalari va kichik bog' ko'rinishidagi landshaft

dizayni loyihalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Tokio Metropolitan hukumat binosi an'anaviy yapon me'morchiligi va zamonaviy uslubining kombinatsiyasini yanada rang-barang namoyish etadi. Bu joy Tokioning o'ziga xos belgisidir (1-rasm).

1-rasm. Tokio Metropolitan hukumat binosi https://yandex.uz/images/search?from

Shahar hokimligi loyihasi yapon me'mori Kenzo Tange tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'z binolarida an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlarning simbiozidan birinchilardan bo'lib foydalangan. Yaponlar insoniyatning eng global muammolaridan birini, ya'ni – "rivojlanayotgan urbanistik globallashuv sharoitida milliy madaniyatning o'ziga xosligini" saqlab qolishni hal qila oldilar.

Yaponiya tinch okeanida joylashgan Orol davlatidir. U ko'pincha kunchiqar mamlakat, shuningdek sharq poytaxti deb ham ataladi. Yaponiyada joylashgan orollarning eng kattasi Xonsyu orolidir (2-rasm). Janubdan unga Kyushu va Shikoku, shimoldan esa Xokkaydo oroli tutashgan.[4] Katta orollardan tashqari, Yaponiyada yuzlab kichik orollar mavjud. Yaponiya orollari 3,5 ming gektardan ortiq maydonni egallaydi va mo'tadil shimoliy kengliklardan deyarli tropikgacha cho'ziladi. Mamlakatning deyarli butun hududida subtropik iqlim ustunlik qiladi.

2-rasm Yaponiya tinch okeanida joylashgan xaritasi. https://yandex.uz/images/search?from=tabbar&img_

Yapon qal'alarining arxitekturasida ko'p qavatli tomlar XVI-XVII asrlarda yapon me'morchiligining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. "Sengoku jidai" davrida yirik, qal'alar o'z domenlarining to'liq hokimiyat va mustaqil hukmdorlari samuraylar boshlig'ining (daimyo) poytaxtlari bo'lgan.[3] Qal'alar asta-sekin yirik iqtisodiy va madaniy markazlarga, o'z viloyatlarining haqiqiy poytaxtlariga aylangan (3-4-rasmlar).

3-rasm. Yaponiya imperatori uyi XVI-XVII asrlar

4-rasm. Yaponiyadagi imperator saroyi

1624 yil Edo davrining oxiriga kelib, qal'a arxitekturasi asta-sekin pasayib o'zgara boshladi va buzib tashlandi. Shunga qaramay, ko'plab qal'alar hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Davlat hisobidan ular qayta tiklandi va sayyohlik va tarixiy diqqatga sazovor joylarga aylandi.[6] An'anaga ko'ra, yapon arxitekturasi nafis dizaynni eng pragmatik harbiy ehtiyojlar bilan birlashtiradi.

Buning yorqin misoli sifatida Sirasagi oq qush qal'asi deb ham tanilgan Ximeji qal'asi (Xyogo prefekturasining Ximeji shahrida) keltirilgan. U bu nomni kulrang qanotli oq devorlari osmonga ko'tarilgan ulkan qushni eslatishi tufayli olgan. Qasr XIV asr o'rtalarida qurilgan va 1580 yilda u qayta ta'mirlangan, 1609 yilda esa o'zining zamonaviy qiyofasini olgan. Ushbu Yapon qal'asi madaniyatining tojiga aylandi va uning barcha eng yaxshi yutuqlarini birlashtirdi. Zilzilaning doimiy tahdidlariga duchor bo'lgan mamlakatda asosiy qurilish materiali yog'och bo'lganligi sababli, dastlabki davrda yapon me'morchiligi yodgorliklari juda kam saqlanib qolgan.

5 – rasm. Fusuma-e yapon interyerida ishlatiladigan harakatlanuvchan devorlar

Yapon binolarining dizaynida asosiy xom ashyo bu tosh va yerga singib ketgan ustunlardir. Bu uyning yerdan 60-70 sm ko'tarilishini ta'minlaydi va uyni kichik zilzilalardan himoya qiladi. Yapon uyining tomi - o'tmishda somon, bugungi kunda odatda plitka bilan qoplanadi. U uyni quyoshning jazirama nurlaridan, kuchli yomg'ir oqimlaridan himoya qiladi. Uyning ichki hovlisiga yani bog'ga qaragan devorlar harakatlanuvchan buladi. Ushbu tashqi harakatlanuvchan devorlar (Amado) qattiq yog'ochlardan yasalgan bo'lib, issiq mavsumda amadolar butunlay olib tashlanadi. Verandani yashash xonalaridan ajratib turadigan bo'linmalar "Shoji"deb nomlanadi. Sedei ramkasi va uning panjarasi yog'ochdan yasalgan bo'lib, uning yuqori qismi tashqi tomondan nur o'tkazadigan guruch qog'ozi bilan yopishtirilgan, ichki yashash maydoni harakatlanuvchan devorlar - fusum yordamida xonalarga bo'linadi. Yog'och ramka va fuoum panjarasi ikki tomondan shaffof bo'lmagan qurilish qog'ozi bilan yopishtirilgan bo'ladi. Ba'zan fusum yordamida pastki qismida qog'oz bambuk chiziqlar bilan o'rnatiladi (5-rasm).Yaponiyada har qanday saroy, uylar, xonalar soni, detallarning badiiy bezaklari bilan farq qilardi, ammo qurilish prinsiplari va nisbatlari bir xil edi.[5] Yer uchastkalarining qimmatligi, yuqori seysmikligiga qaramay, ko'p qavatli binolarni qurishga, yer osti makonidan ikki, uch yoki undan ortiq qavatlarda foydalanishga majbur qiladi. Yapon uylarning arxitekturasida uchta turni ajratish mumkin:

- Ekansal (ichkarida erkin), eng mashhur majoziy tur tashqi yaqinlik bilan ajralib turadi;
- Organik, tabiat bilan o'zaro bog'liq bo'lgan majoziy bog'liqligi tufayli amalga oshirilgan;
- Ixtisoslashgan (funktsiyasi bo'yicha) majoziy uy turi, ko'pincha quyi shaharda do'konli uylar, ustaxonali uylar, kafe, studiya va boshqa binolar shaklida uchraydi (6-rasm).

6 – rasm. Yapon majoziy uy turi. https://novate.ru/blogs/281123/68128/

Shaharda an'anaviy turar-joyning zamonaviy turlaridan foydalanish, birinchi navbatda, uyg'un an'anaviy ansambl sifatida yuqori me'moriy darajadagi majoziy uslub kompozitsiyalari foydalaniladi.[9] Ushbu darajadagi ko'rsatkichlar tarkibiy kanonik modulli elementlarning mavjudligini va ma'lum ijtimoiy, funktsional-fazoviy va boshqa jihatlarni aks ettiradi. Bunda aholining o'zlari me'moriy muhit hissi bilan Tokioning quyi shahri hududlarida yashash joylarini shakllantirishni afzal ko'rishadi.

Tokioadagi Den en Chefu, Seijio, Hikarigaoka, Yanaka, Xiro-Azabu, Tsukishima shaharlari an'anaviy uy-joy ansambllarining asosiy xususiyatlari, shuningdek, yapon me'morchiligining boshqa taniqli loihalari hisoblanadi:

- simmetriyaning yo'qligi, bir nechta yoki asosiy va ikkilamchi o'qlar tizimining mavjudligi;
- iqlim va relyef konditsionerligi;
- inson mentalitetiga mos keladigan kichik qismlarni, shakllarni aniqlash va undan ham kichikroq fazoviy muhitni yaratish - miniatyuralash;
- tabiiy tosh, yog'och, mato, qog'ozning ishlov berilgan yuzalarining tuzilishini ko'rsatish;
- mashhur tabiiy obrazli mini-kompozitsiyalarni

yaratish turlari.

Keyinchalik Yaponiyada urbanizatsiya natijasida talablar oshgani sari shahar va uy-joylarni qayta rejalashtirish boshlanadi. Yaponiyaning zamonaviy arxitekturasi va shaharsozligi uy-joy qurish uchun alohida yondashuv talab etiladi, vulqon orollarida joylashgan va u yerda zilzilalar tez-tez bo’lganligi sababli, zilzilaga chidamli binolar qurilishi kerak edi. Bundan tashqari, yerning tanqisligi tufayli shahar uylari baland bo'lishi, yapon arxitekturasi bugungi kunda dunyo me'morchiligining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi.[8] Urushdan keyingi davrda mamlakatda turli jamoat inshootlarining yirik qurilishi boshlandi.

Zamonaviy san'at muzeyi kabi taniqli majmualar Kamakura (1961)- me'mor Junzo Sakakura, Kutubxona va konsert zali Yokohama (1955) - me'mor Kunio Maekava, Xirosimadagi tinchlik bog'i ansambli (1952) Kenzo Tangelar yaponiya shaharsozligiga o’z hissalarini qo’shdilar. Albatta, vaqt va texnologik taraqqiyot Yaponiyadagi turar-joyning turmush tarzi va tuzilishini o'zgartirdi, an’anali yapon uylari endi faqat qishloq joylarida qoldi, shunday bo’lsada yaponiyaliklar o'z uyida milliy an'analar ruhini saqlab qolishga harakat qiladi.[7] Deyarli har qanday yapon kvartirasida, hatto eng zamonaviy va "Yevropa" turar-joy binosida ham an'anaviy uslubda kamida bitta xona mavjud edi.

Yapon arxitekturasi va dizaynida ko'p asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan va bu uning butun dunyo bo'ylab mashhurligi bilan tasdiqlangan. Yaponiyada keraksiz devor va eshiklarni buzish orqali dam olish zonasini kengaytirish bilan kvartiralarni qayta qurish uslubi, ekranlar, javonlar yoki ship relyefi bilan uylarni shartli ravishda ajratish tendentsiyasi paydo bo'ldi.

Yaponiyaliklar uchun uy tabiatning bir qismi, uning davomi, shuning uchun u tabiatga o'xshash energiya va auraga ega bo'lishi kerak edi. Va bu uning aholisi hayotining tabiiy uyg'unligini ta'minlardi. Bir necha asrlar ilgari yapon me'morchiligiga kiritilgan an'analar bugungi kunda ham zamonaviy loyihalarida o’z aksini topmoqda. Biroq, bu ixtirochi yaponlar shaharlarining qiyofasini dunyoning boshqa mamlakatlaridan ajratib turadigan xavfsiz, qulay me'moriy kompozitsiyalarni yaratish uchun o'zlarining va boshqa mamlakatlarning tajribalarini to'plashlariga to'sqinlik qilmadi. Barcha yaponlar tabiat bilan hamnafas yashash kerakligini biladi, shuning uchun ularning birinchi uylari faqat tabiiy materiallardan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Bizning madaniyatimiz, urf odatlarimiz va an’analarimiz ham uzoq tarixga borib taqaladi, biz ham o’z madaniyatimizni milliylikni shaharsozlik va arxitekturada yo’qotmasligimiz kerak. Yapon an’analari ularning madaniyati shaharsozlik va arxitekturadagi yutiqlari butun dunyo arxitekturasida katta o’zgarishlarga sabab bo’ldi. Yapon arxitekturasida bugungi kungacha o’z madaniyati, urf odati va tarixdan qolgan merosi va o’rni qanchalik qadrliligini ko’rishimiz mumkin.

Har qanday mamlakat taraqqiyotining darajasi haqida real taraqiyot tasavvurni uning shaharlari orqali bilish mumkin. O‘zbekistonning shaharlari haqida gap ketar ekan, bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli mamlakat saharlarini kengaytirish obodonlashtirish hozirda respublikamizda katta muammolardan biri desak shubha bulmaydi.

Adabiyotlar:

1. Целуйко Д. С. Основные направления архитектуры Японии периода Мэйдзи и Тайшо (конец XIX–начало XX вв.). Вестник Инженерной школы Дальневосточного федерального университета. – 2024. – №. 1 (58).
2. Онищенко, Ю. В., & Абдрасилова, Г. С. (2023). Архитектура Японии: интерпретация традиций в современных условиях. *Вестник КазГАСА*, (2), 88.
3. Думнова Э. М. Феномен природосообразности современной архитектуры Японии //Идеи и идеалы. – 2023. – Т. 15. – №. 1-2. – С. 388-405.
4. Коновалова Н. Современная архитектура Японии. Традиции восприятия пространства. – Litres, 2022.
5. Главева Д. Г. Традиционная японская культура. Специфика мировосприятия. М., 2003.
6. *Деникe, Б. П.* Архитектура Японии. Японская цветная гравюра. Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 194 с.
7. https://ru.wikipedia.org.
8. https://visitjapan.ru/guide/japanese-architecture.
5-rasm. Poliuretan ko‘pikli kompozitsiyaning purkash usuli.

6-rasm. Metall quvirlar uchun gidroizolyatsiya materiallari.

Amalda, yuqorida ko‘rsatilgan poroplastikalar bilan, boshqa turdagi poroplastlar mavjud va ishlatiladi.

Ko‘pikli polietilen - yangi avlod issiqlik va ovoz o‘tkazmaydigan material - matlar, rulolar, chiziqlar, ichi bo‘sh silindrlar va qattiq qismli quvurlar shaklida ishlab chiqariladi. Ekstruziya yordamida kengaytirilgan polietilendan (PPE) tayyorlanadi. Bu materiallarning barchasi yuqori issiqlik izolyatsiya qilish qobiliyati bilan bir qatorda zarba shovqinlariga qarshi yuqori ovoz o‘tkazmaydigan qobiliyati bilan ajralib turadi (elastiklikning dinamik moduli-0,5 MPa dan oshmaydi), ular ko‘p qatlamli bo‘laklarda havodagi shovqinni susaytiradi. Bundan tashqari, yopiq g‘ovakli uyali tuzilishga ega bo‘lgan ko‘pikli polietilen past bug’ o‘tkazuvchanligi va suvni yutish xususiyatiga ega. Mahalliy firmalar uzunligi 50-100 m, kengligi 100 sm, qalinligi 2-16 mm bo‘lgan, bir tomondan alyumin folga bilan qoplangan, yuqori yonuvchanlik va mutlaq bug’ o‘tkazuvchanligi bilan karakterize qilingan PPE ishlab

chiqarishni o‘zlashtirdilar.

Issiqlik moslamalari ishlashi sohasida ekranni aks ettiruvchi issiqlik izolyatsiyasi sifatida samarali ishlatiladi. Bunday holda, tashqi devorga yo‘naltirilgan issiqlik oqimi ekran konfiguratsiyasiga qarab 2,5-3,4 barobar kamayadi.

7-rasm. Ko‘pikli polietilen.

Agar bu materiallardan saunalar (vannalar) devorlarining issiqlik va bug‘ izolatsiyasi sifatida foydalanilsa, shuni ta’kidlash kerakki, maksimal havo harorati 120°S bo‘lsa, bu materialning harorati 64-74°S bo‘ladi. bu materialni ishlatish uchun maksimal haroratdan past (85°S). Shuni esda tutish kerakki, plyonkaning aks ettirish qobiliyati astar va plyonka o‘rtasida havo bo‘shlig‘i bo‘lgan taqdirdagina saqlanib qoladi.

Xulosa: Polimerik issiqlik izolyatsiya materiallari zamonaviy qurilishda yuqori samaradorlikka ega. Ular orqali binolarning energiya tejash darajasi oshadi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik masalalari ham yechim talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Samig‘ov N. A. “Qurilish materiallari va buyumlari”. Darslik. Toshkent. “Cho‘lpon”. 2013y. 319b.

2. Majidov S.R. Issiqlik izolyatsiyalovchi materiallarning innovatsion texnologiyasi. Darslik. “FAN ZIYOSI” nashriyoti. – T.: -2022 йил. -287 bet. 25.12.2021 йил №538-514.

3. Мажидов С.Р. Инновационная технология теплоизоляционных строительных материалов. Учебник. “FAN ZIYOSI” nashriyoti. – T.: -2022 йил. -290 bet. 25.12.2021 йил №538-528.

4. Rustamova, D. B., & Egamova, M. T. (2022). THEORETICAL BASIS OF INCREASING ENERGY EFFICIENCY IN RESIDENTIAL BUILDINGS. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, *2*(1).

5. Egamova, M. T. (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENERGY-SAVING BUILDINGS IN UZBEKISTAN. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 2(1).

6. Turakulovna, E. M., & Pulatovich, M. B. (2023). WAYS TO INCREASE THE ENERGY EFFICIENCY OF BUILDINGS AND THEIR EXTERNAL BARRIER STRUCTURES. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 3 (1), 186–191.

7 Turakulovna, E. M., & Pulatovich, M. B. (2023). IMPROVING THE ENERGY EFFICIENCY OF THE EXTERNAL WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS BEING BUILT ON THE BASIS OF A NEW MODEL PROJECT. Open Access Repository, 4(2), 187-193.

8. Носирова,С.А., Рустамова,Д.Б.,& Эгамова,М.Т. (2021). ЭНЕРГИЯ- ТЕЖАМКОР УЙЛАР-ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯҚИН ЙИЛЛАРДАГИ ЭНГ АСОСИЙ ШИОРИ. Журнал Технических исследований, 4(2).

9. Egamova, M., & Matyokubov, B. (2023). Improving the energy efficiency of the external walls of residential buildings being built on the basis of a new model project. Евразийский журнал академических исследований, 3(3), 150-155.

10. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 2(2), 36-39.

11.Rakhimov, R., Marupova, G., Egamova, M., Matyokubov, B., Rustamova, D., Mamadaliyev, X., & Razzaqov, N. (2025). Obtaining high-strength mastering mortars using ultra-disperse active mineral additives based on technogenic raw materials of Uzbekistan. In EPJ Web of Conferences (Vol. 318, p. 06001). EDP Sciences.

УДК 62.192:624.1

МЕЪМОРИЙ ОБИДАЛАР ЗАМИН ВА ПОЙДЕВОРЛАРИНИНГ МУСТАХКАМЛИГИ

Мадатов Абдирахим
«Қурилиш муҳандислиги» кафедраси дотцети, т.ф.н.
Парманов Муродқосим
«Қурилиш муҳандислиги» кафедраси ўқитувчиси,
СамДАҚУ

Аннотация: Мақолада Қутлуғ-Мурод-Иноқ мадрасаси асос ва пойдеворларининг ишончлилик даражасини баҳолаш бўйича бажарилган илмий-тадқиқот ишларининг натижалари бўйича маълумотлар келтирилган. Мадраса пойдеворларининг деформацияси сабаблари таҳлил қилинган. Асос ва пойдеворларни кучайтириш зарурати кўрсатилган.

Аннотация: В статье приводится сведения о результатах исследований по оценке уровня надёжности оснований и фундаментов медрессы Кутлуг-Мурод-Инак. Проанализированы причины деформации оснований фундаментов. Показан необходимость усиления оснований и фундаментов.

Калит сўзлар: Меъморий обида, замин грунтлари, пойдеворлар, физик-механик кўрсаткичлар, техник ҳолат, ишончлилик даражаси,.

Ключевые слова: Памятники архитектуры, грунты основания, фундаменты, физико-механические показатели грунтов, техническое состояние, предельное состояние, уровень надёжности.

Кириш. Меъморий обидаларнинг умрбоқийлигини таъминлаш учун, биринчи навбатда уларнинг замин ва пойдеворларини ўрганиб, техник ҳолатини баҳолаш, зарур бўлган ҳолларда эса уларни кутайтириш лозим бўлади.

Ҳозирги вақтда заминларни чекли мувозанат ҳолатининг икки гурухи асосида хисоблаш қабул килинган [1]. Замин-бино системасининг чекли мувозанат холати шартлари ва ифодаларидаги катталиклар детерминант хисобида, тасодифий бўлмаган миқдорлар деб каралиши маълум. Натижада чекли ҳолатлар услубида ҳисобланган пойдеворлар грунтли асослари мустаҳкамлигининг қандай даражада эканлигини аник билиб бўлмайди. Шу сабабли чекли ҳолатлар ҳисоблари бўйича мустаҳкамлиги етарли деб ҳисобланган пойдеворлар грунтли асосларининг мустаҳкамлиги тезда камайиши холлари кузатилаяпди. Шунинг учун бу нншоотлар заминларининг ншончлилик даражасини бахолаш учун ншончлилик назарияси ечимларидан фойдаланиш максадга мувофиқдир. Ишончлилик назариясида эса юкорида таъкидланган чекли мувозанат холати шартларидаги микдорлар тасодифий статистик-эҳтимолий характерга эга эканлиги ва кўп тасодифий ўзгарувчи аргументлар функцияси бўлишлиги хисобга олинади [2].

Асосий қисим. Қониқарсиз техник ҳолатда бўлган меъморий обидалар пойдеворлари замини грунтларининг физик-механик кўрсаткичларини ўрганиб, улар асосида замин ва пойдеворларни лойиҳалашда ҚМҚ 2.02.01-98 тавсия этаётган иккала гуруҳ чегаравий ҳолатлари бўйича бажариладиган ҳисоблардан ташқари, замин грунтининг деформацияси ва юк кўтариш қобилиятлари буйича ишончлилик даражасини аниқлаш заруриятини, керак бўлган ҳолларда замин ва пойдеворларни кучайтириш зарурлигини кўрсатиб бериш мақсадида Хивадаги «Қутлуғ-Мурод Иноқ» мадрасаси тадқиқот доирасида танлаб олиниб, бу объект мисолида қуйидаги ишлар амалга оширилди:

- асосий юк кўтарувчи конструкцияларни визуал кўздан кечириш ва техник ҳолатини баҳолаш;
- пойдеворлар материалларини, қўйилиш чуқурликларини, товонининг кенгликларини аниқлаш;
- иншоотлар конструкцияларининг геометрик ўлчамлари бўйича пойдеворлар юқори сатҳига таъсир этувчи ҳисобий юкларни аниқлаш;
- замин грунтларининг ҳақиқий физик-механик кўрсаткичларини аниқлаш;
- пойдеворларнинг товони сатҳларидаги ўртача ҳақиқий босимларни ва замин грунтларининг ҳисобий қаршиликларини аниқлаб, уларни таққослаш;
- замин грунтларининг деформацияси бўйича ишончлилик даражалари ҳисобларини бажариш;
- қайд этилган вазифаларнинг бажарилиш якуни сифатида танлаб олинган обидалар замин ва пойдеворларининг ишончлилик даражасини зарур бўлган ҳолларда етарлича ошириш йўлларини кўрсатиш;

Пойдеворларнинг юқори сатҳига таъсир қилаётган юклар, юкори конструкцияларнинг геометрик ўлчамлари бўйича I-I, II-II ва III-III кссимларда аниқланган (1 - расм).

I-I кесимда $N_1 = 205,47 кН/м$; II-II кесимда $N_2 = 224,23 кН/м$; III-III кесимда $N_3 = 1017,87 кН$.



1-расм. Мадраса жанубий-шаркий қисми режаси фрагменти.

Мадраса пойдеворларининг I-I, II-II ва III-III кесимлардаги деформация бўйича хисоблари.

I-I кесим. Грунтнинг хисобий қаршилиги.

$R = 137,34 кПа.$

Пойдевор товонидаги ўртача босим.

$P_{II} = 126,15 кПа;$

$P_{II} = 126,15 кПа < R = 137,34 кПа.$ Шарт бажарилаяпди.

II-II кесим. Грунтнинг хисобий қаршилиги.

$R = 142,31 кПа.$

Пойдевор товонидаги ўртача босим.

$P_{II} = 124,48 кПа < R = 142,31 кПа,$ шарт бажарилаяпди.

III-III кесим. Грунтнинг хисобий қаршилиги.

$R = 163,31 кПа.$

Пойдевор товонидаги ўртача босим.

$P_{II} = 182,32 кПа < R = 163,31 кПа,$ шарт бажарилаяпди.

Пойдеворнинг амалдаги ўлчамлари бўйича асоснинг деформация бўйича

ишончлилик даражаси ҳисоблари.

II-II кесимда.

Асоснинг чекли деформацияси киймати S_u =10 см; асос грунти деформация модулининг математик кутилмаси m_{E2}=3070 кПа; ўрта квадратик четланиши σ_{E1}=383 кПа; тўшама кумли

грунт деформация модулининг математик кутилмаси m_{E2}=18000 кПа; ўрта квадратик четланиш σ_{E2}=1800 кПа.

Умумий омил У-нинг сонли кўрсаткичлари: математик кутилмаси m_y=2,6 см,

ўрта квадратик четланиши σ_y=0,94 см.

Умумий омил У нинг вариация коэффициенти

$$V_Y = \frac{\sigma_y}{m_y},$$

ёки унинг тескари киймати

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{2,6}{0,94} = 2,76.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(2,76)=0,9942

Асоснинг ишончлилик даражаси

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,9942) = 0,992 < H_м = 0,995.$$

Асос грунтининг ишончлилик даражаси етарли эмас.

III-III кесимда.

S_u =10 см; m_{E1}=3980 кПа; σ_{E1}=196,5 кПа; m_{E2}=18000кПа; σ_{E2}=1800 кПа;

m_y=0,56 см; σ_y=0,47 см

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{0,56}{0,47} = 1,19.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(1,19)=0,7660

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,766) = 0,883 < H_м = 0,995.$$

Асос грунтининг ишончлилик даражаси етарли эмас.

Демак, Қутлуғ-Мурод Инок мадрасаси асос ва пойдеворлари кучайтирилиши зарур.

Маълумки, ҳозирги кунда мустахкамлиги етарли бўлмаган грунтли асосларни кучайтириш ва пойдеворларни мустаҳкамлашнинг турли усуллари мавжуд. Қутлуғ-Мурод Инок мадрасаси асоси грунтлари 4-4,5 м қалинликдаги қаттиқ ҳолатдаги қумоқ грунтлардан иборат булиб, уларга тўшама катлам сифатида эса ўрта зичликдаги майда қум хизмат килади.

Бундай грунт шароитларида асос ва пойдеворларни мустахкамлашда гилли асос грунтларини силикатлаб котириш усулидан, пойдеворлар таг юзасини кенгайтириш ёки пойдеворлардан тушаётган юкларни нисбатан чуқуррокда ётган мустахкам грунтларга козикли пойдеворлар орқали узатиш усулларидан фойдаланиш мумкин. Қозиқли пойлеворлар бурғуланган қудуқларда куйма барпо килинадиган ёки босим билан киритиладиган қозиқлардан ҳам барпо килиниши мумкин.

Қуйида асос ва пойдеворларни мустахкамлашнинг икки хил вариантини:

1)Пойдевор товонининг энини кенгайтириш ва 2) деворнинг периметри бўйлаб рандбалка барпо килиб, босим билан грунтга киритиладиган козикли пойдеворлар вариантларини караб чиқамиз [3,4].

I-вариант. Товони кенгайтирилган пойдеворлар ҳисоби.

II-II кесимда конструктив равишда b=2,5 м ўлганимизда пойдевор асосидаги ўртача босим ва грунтнинг ҳисобий қаршиликлари ва асоснинг деформацияси қуйидагича бўлади.

$P_{II} = 102,22 кПа.$

Грунтнинг ҳисобий қаршилиги

$R = 150,90 кПа.$

$P_{II} = 102,22 кПа < R = 150,90 кПа$.

$S_{ум}$=6,57 см <S_u=10см.

Деформация бўйича шарт бажарилди.

III-III кесимда диаметри D = 3,8 м бўлган яхлит пойдевор барпо қилганимизда.

$P_{II} = 101,77 кПа;$ $R = 171,58 кПа.$

$P_{II} = 101,77 кПа < R = 171,58 кПа$

$S_{ум}$ =5,09 см<S_u=10см. Деформация бўйича шартлар бажариляпди.

Пойдевор товонининг эни кенгайтирилган ҳол учун асоснинг деформация бўйича ишончлилик даражаси хисоблари.

II-II кесимда.

S_u =10 см; m_{E1}=3070 кПа; σ_{E1}=383 кПа; m_{E2}=18000 кПа; σ_{E2}=1800 кПа;

m_y=3,45 см; σ_y=0,81 см.

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{3,45}{0,81} = 4,26.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(4,26)=0,9999

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,9999) = 0,99995 > H_м = 0,995.$$

III-III кесимда.

S_u =10 см; m_{E1}=3980 кПа; σ_{E1}=196,5 кПа; m_{E2}=18000кПа; σ_{E2}=1800 кПа;

m_y=4,9 см; σ_y=0,234 см.

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{4,9}{0,234} = 20,94.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(20,94)=0,9999

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,9999) = 0,99995 > H_м = 0,995.$$

Деформация бўйича шартлар бажарилаяпди.

II-вариант. Босим билан киритиладиган қозиқли пойдеворлар асосининг деформация бўйича ишончлилик даражаси.

II-II кесимда.

m_y=8,9 см

σ_y=0,109 см

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{8,9}{0,109} = 80,91.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(80,91)=0,9999

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,9999) = 0,99995 > H_м = 0,995.$$

Асоснинг ишончлилик даражаси таъминланаяпди.

III-III кесимда.

m_y=9,24 см; σ_y=0,077 см.

$$Z = \frac{1}{V_y} = \frac{m_y}{\sigma_y} = \frac{9,24}{0,077} = 120.$$

Лаплас функциясининг қиймати [5] ϕ(z)= ϕ(120)=0,9999

$$H_X = \frac{1}{2}(1+\phi(z)) = \frac{1}{2}(1+0,9999) = 0,99995 > H_м = 0,995.$$

Асоснинг ишончлилик даражаси таъминланаяпди.

Юқоридаги иккала вариантдаги асоснинг деформация бўйича ишончлилик даражасини таққосласак, пойдеворнинг амалдаги ўлчамлари бўйича асоснинг ишончлилик даражаси II-II ва III-III кесимда таъминланмаяпди. Кейинги пойдеворлари кучайтирилган вариантда хам II-II ва III-III кесимларда ишончлилик даражаси юқори даражада таминланяпди.

Хулосалар:

- Эксплуатацияда бўлган бино ва иншшоотлар пойдеворлари асосларининг деформациялари ва юк кўтариш кобилиятлари рухсат этиладиган чегаравий миқдорларда бўлса хам, улар асосларининг ишончлилик даражаси етарли таъминланмаган булиши мумкин экан;
- Эксплуатацияда бўлган бино ва иншшоотлар пойдеворлари асосларининг деформациялари ва юк кутариш кобилиятлари чекли холатлар услуби КМК 2.01.02-19 талабларига жавоб берсада, кўшимча равишда улар асосларининг эхтимолий ишончлилик даражаси нуктаи назаридан баҳоланиши зарур;
- Янгидан барпо килинаётган бино ва иншшотларнинг асос ва пойдеворлари аввалдан белгиланган, ишончлилик даражаси етарлича таъминланадиган килиб лойихаланиши зарур;
- Эксплуатацияда бўлган, ишончлилик даражаси етарли бўлмаган, бино ва иншшоотларнинг асос грунтлари, етарли ишончлилик даражасига мос этиб мустахкамланиши ёки пойдеворлари кучайтирилиши лозим.

Демак, Қутлуғ-Мурод Иноқ мадрасаси пойдеворларининг асосини кенгайтириш ёки деворлар остига босиб киритиладиган қозиқли пойдеворлар барпо қилиш йўли билан, унинг узоқ муддатли мустаҳкамлигини ошириш мумкин экан.

Адабиётлар

1. КМК 2.02.01-19. Основания зданий и сооружений. - Тошкент., 2019.
2. Ермолаев Н.Н.. Михеев В.В. Надежность оснований сооружений. —Л.: Стройиздат, 1976.
3. “Меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг мониторингини ташкил этиш ва ишончлилик даражасини таъминлаш усулларини ишлаб чиқиш” мавзусидаги илмий тадқиқот иши бўйича (оралиқ) ҳисобот, ИТД-14, Самарқонд-2017.
4. “Меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг мониторингини ташкил этиш ва ишончлилик даражасинитаъминлаш усулларини ишлаб чиқиш” мавзусидаги илмий тадқиқот иши бўйича (якуний) ҳисобот, ИТД-14, Самарқонд-2018.
5. Таблица значений функции Лапласа: https://www.webmath.ru/poleznoe/table_laplasa.php

УДК 624.041.6

КОМПОЗИЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ ДЛЯ УСИЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ

Бердиев Облокул Бобокулович
Сагатов Баходир Уктамович
Джизакский политехнический институт

Аннотация. В статье изложены результаты экспериментальных испытаний образцов-балок без усиления и с усилением. Показана характеристики высокопрочных полимерных композитов для усиления железобетонных элементов.

Ключевые слова: железобетонные балки, композиционный материалы, тканые ленты, углеродного волокна

Annotatsiya. Maqolada kuchytirilgan va kuchaytirilmagan to'sin- namunalarining eksperimental sinovlari natijalari keltirilgan. Temir-beton elementlarni mustahkamlash uchun yuqori mustahkamlikka ega polimer kompozitlarning xususiyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: temir-beton to'sinlar, kompozit materiallar, to'qilgan lentalar, uglerod tolalari

Annotation. The article presents the results of experimental tests of beam samples without reinforcement and with reinforcement. The characteristics of high-strength polymer composites for strengthening reinforced concrete elements are shown.

Key words: reinforced concrete beams, composite materials, woven tapes, carbon fiber

В дорожной отрасли Узбекистана, включающей в себя обширный комплекс вопросов, связанных с эксплуатацией мостов и других искусственных сооружений, широко используется технология внеш-

него армирования мостовых конструкций с использованием металлических закладных (накладных) деталей. Совместная работа бетона со стальными армирующими элементами обеспечивается различными анкерами, связями, концевыми упорами. Широкое распространение таких конструкций применительно к железобетонным балкам пролетных строений способствовала снижению трудозатрат по ремонту моста за счет передачи на металлический лист функций опалубки и основной несущей арматуры при чрезвычайно простом способе его прикрепления к балкам.

Однако не для всех конструкций реализуется указанная простота усиления рёбер (балок). С увеличением толщины ребра, вызванным увеличением пролёта балки, работы по усилению усложняются и при длине балок 24 м и выше становятся сопоставимы по затратам с заменой балок на новые. Не всегда оказывается эффективным и усиление с использованием внешней напрягаемой арматуры (пучков и прядей) из-за большой стоимости подобной технологии. Применение композиционных материалов позволяет дополнить существующие технологии новым для отечественного мостостроения способом усиления, продлевающим работоспособность конструкций независимо от геометрии сечения и размеров.

Результаты проведенных исследований усиления различных строительных конструкций композитами требуют решения следующих задач:

- исследовать напряженно-деформированное состояние клеевого шва и стыковой зоны бетона, оценить факторы, оказывающие влияние на работу стыковой зоны;

- определить влияние различного усиления на прочность и деформативность усиляемых конструкций при сжатии, растяжении и изгибе;

- выявить особенности процесса трещинообразования в усиляемой конструкции, влияние усиления на остаточную прочность и деформативность балок;

- определить изменение напряженно-деформированного состояния зоны соединения в зависимости от длины и толщины клеевого шва, соотношения ряда характеристик клея и сопрягаемых деталей;

-определить влияние непроклеев на состояние сопрягаемой зоны.

В мировой практике используются ленты на основе ориентировано направленных волокон (углеродных, стеклянных, арамидных, полиэфирных), заключенных в матрицу эпоксидного полимера. В табл. 1, 2 и 3 представлены основные характеристики исходных волокон названной номенклатуры, тканых лент на основе углеродного волокна (основное волокно, используемое в зарубежной практике) и композита по структуре «Углеродное волокно – эпоксидный полимер» соответственно.

Таблица 1

Характеристики волокон

Тип волокна	Модуль упругости – Е, ГПа	Прочность при растяжении, Н/мм^2
Углеродное	240 – 640	2500 – 4000
Арамидное	124	3000 – 4000
Стекловолокно	65 – 70	1700 – 3000
Полиэфирное	12 – 15	2000 – 3000

Таблица 2

Характеристики ламинатов

Характеристики	Значения характеристик
Модуль упругости – Е, МПа	165000 . 300000
Прочность при растяжении, МПа	3100 . 1600
Плотность, г/см3	1,5 . 1,6
Объем углеродных волокон в матрице, %	> 68
Термоустойчивость лент, .С	150
Предельная деформация при разрыве, %	1,7 . 0,45
Размеры, ширина/толщина, мм	50 - 120/1,2 - 1,4

Таблица 3

Характеристика углепластиковых лент

Характеристики	Значения характеристик
Прочность при растяжении вдоль волокон, МПа	3500
Предельная деформация при разрыве, %	1,5
Модуль упругости – Е, МПа	230000
Плотность, г/м2	225
Размеры, ширина/толщина, мм	305 (610)/0,13

При внешнем армировании тканые ленты и композиты на их основе приклеивают к бетону двухкомпонентным эпоксидным клеем. Характеристики одного из составов клея представлены в табл. 4.

Механические свойства композитных материалов, армированных различными видами волокон, зависят от:

- механических свойств самого волокна;
- силы сцепления вяжущего вещества и волокна;
- объема армирующих волокон в композите;
- ориентации армирующих волокон в композитном материале.

Таблица 4

Характеристики клея

Характеристики	Значения характеристик
Смешиваемые пропорции компонентов А – основа; В – отвердитель	А : В = 3 : 1
Плотность после перемешивания, кг/дм^3	1,77
Срок пригодности приготовленной смеси при +35˚С	40
Усадка, %	0,04
Модуль упругости – Е, МПа	12800

Прочность на срез (приклейка к бетону), МПа	> 15
Коэффициент температурного расширения в диапазоне -10…40˚С	0,9·10-5

Из требований, которые предъявляются к композитам, используемым для реализации технологии внешнего армирования конструктивных элементов моста, наиболее важными являются требования к четырём основным параметрам: устойчивости на растяжение, сжатие, изгиб и на сдвиг. Эти виды механического воздействия являются определяющими факторами повреждений и разрушений элементов моста. Сложность достижения оптимального уровня этих параметров в случае продольного армирования непрерывными волокнами связана с низкими прочностными характеристиками волокон в поперечном направлении. Однако применение структуры комбинированной ориентации волокон в композите позволяет обеспечить любые заданные требования. В табл. 5 в качестве примера представлены характеристики (прочность на растяжение) шести видов КМ в сравнении с основными видами применяемых в мостостроении металлов.

Таблица 5

Сравнение по прочности КМ и металлов

Виды материалов	**Металлы**			**Композиты**					
	Сталь	AAl	TTi	Стекло-пластик E-glass	Стекло-пластик S-glass	Арамид	Углепластик класс HS	Угле пластик класс IM	Базальто-пластик
Прочность на растяжение, МПа	350÷ 1300	100÷ 400	450÷ 1000	150÷ 1100	430÷ 1800	400÷ 1600	700÷ 2100	800÷ 2700	550÷ 2000

Целью наших исследований являлось изучение прочности и видов разрушения при срезе железобетонных тавровых балок, усиленных угле пластиковыми полимерными волокнистыми материалами (УПВМ).

В общей сложности были изготовлено и испытано в лаборатории 16 тавровых (тавровые, с различным поперечным армированием) железобетонных балок.

Образцы серии Т имели длину 2980 мм с поперечным сечением свесов 100х400 мм и толщиной ребра 120 мм. Полная высота балок серии Т была такой же, как у балок прямоугольного сечения – 340 мм. Балки серии Т были разделены на две группы TT и TS., каждая из которых была разделена на две подгруппы по величине пролета среза a_v/d. Серия Т имела как продольное так и поперечное армирование.

В исследовании была использована двунаправленная ткань УПВМ (по спецификации Sika 160C, 0/90˚) в виде внешнего усиления системы, а также эпоксидная смола Sikadur-330. Листы волокна были приклеены эпоксидной смолой к поверхности бетона. Связующая прочность эпоксидной смолы 4 МПа, предел прочности 30 МПа, модуль упругости 3,80 МПа.

УПВМ использовались в форме сухого двунаправленного рулонного листа толщиной 0,09 мм, шириной 600 мм и длиной 5м с ориентацией волокон под углом 0/90 градуса. Значения предела прочности листа УПВМ 3,80 МПА, модуля упругости 230,0 МПа были определены испытанием образцов при растяжении. Углеродистые ткани волокна были приклеены на поверхность бетона вручную. Поверхность образцов отшлифована механически, острые грани или углы конструкции были округлены с радиусом не менее 10 мм. Поверхность бетона была очищена продуванием и высушена. Все трещины, шириной раскрытия больше 0.25 мм и большие поры были заделаны эпоксидной смолой.

После помещения образца на опоры его покрывали меловым раствором для облегчения наблюдения за трещинообразованием. Для контроля прогибов в разных местах балок использовался линейный дифференциальный преобразователь деформаций (ЛДПД) и два индикатора часового типа. ЛДПД был помещен в центр балки, а два индикатора были расположены на расстоянии 495 мм от левой и правой опор балки. Деформации на поверхности бетона измерялись с помощью реперных точек с базой измерения 150 мм.

Рис. 1. Общий вид испытания тавровой балки при трехточечном изгибе (av/d = 4.0)

Результаты испытаний были представлены в виде зависимостей «нагрузка–прогиб» в середине пролета, «нагрузка–деформация» растянутых арматурных стержнях, стальных хомутах, в полосах УПВМ и на поверхности бетона. Результаты эксперимента показывают, что технология использования двунаправленной полосы УПВМ может использоваться для значительного увеличения прочности. Несущая способность балок подгрупп TT1 и TT2,

TS1 и TS2 различалась соответственно в пределах 38% – 60% и 20% – 40%. В целом, прочность балок была больше на 12% – 61% по сравнению с контрольными.

Литература

1. Ашрабов А.А. Легкий бетон и железобетон для индустриального строительства. Мехнат, Ташкент, 1988.

2. Sagatov, B. (2023, March). Study on reinforced concrete elements of buildings and structures with cracks, reinforced with composite polymer materials. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012043). IOP Publishing.

3. Sagatov, B. U. (2022). Composite materials for reinforcing ferro-concrete elements. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 281-285.

4. Sagatov, B., & Rakhmanov, N. (2019). Strength of reinforced concrete elements strengthened with carbon fiber external reinforcement. Problems of Architecture and Construction, 2(1), 48-51.

BINOLARNING ZAMONAVIY VA ISTIQBOLLI ME'MORIY-KONSTRUKTIV YECHIMLARI

Xaitov Ma'ruf Boliqulovich; Ibragimov Najib Xasanovich (PhD); Pardayev Rasul To'lqinovich; Matyoqubov Bobur Po'latovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu ish binolarning konstruktiv elementlari sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilishga, shuningdek, ularning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilishga bag'ishlangan. Maqolada an'anaviy materiallar va texnologiyalar bilan bir qatorda qurilish konstruksiyalarining samaradorligi va chidamliligini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan innovatsion yechimlar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

Arxitekturaviy-konstruktiv elementlar, binolar, qurilish, materiallar, texnologiyalar, innovatsiyalar, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish, arxitektura, loyihalash.

Mavzuning dolzarbligi: Binolarning konstruktiv elementlari ekologik va iqtisodiy manfaatlar kesishmasida turadi. Zamonaviy qurilish arxitektor va muhandislar oldiga murakkab vazifa qo'ymoqda: yuqori energiya samaradorligi va xavfsizlik standartlariga javob beradigan, shu bilan birga iqtisodiy jihatdan foydali binolarni yaratish. Konstruktiv elementlarni optimal tanlash bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan talablar o'rtasidagi muvozanatga erishish imkonini beradi. **Tadqiqotning maqsadi:** binolarning konstruktiv elementlari sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish, rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. **Tadqiqot usuli:** tahlil uchun turli manbalar: ilmiy nashrlar, qurilish standartlari va yetakchi arxitektura kompaniyalarining materiallaridan foydalanilgan. Zamonaviy binolarning konstruktiv elementlarini tizimli tahlil qilish, shuningdek, qurilishda qo'llanila boshlangan innovatsion texnologiyalarni o'rganish amalga oshirildi.

Kirish. Binolarning konstruktiv elementlari butun me'moriy va muhandislik infratuzilmasi quriladigan asosdir. Inshootlarning xavfsizligi, chidamliligi va funksionalligi ushbu elementlarni tanlash va ishlab chiqishga bog'liq. So'nggi o'n yilliklarda qurilish sanoati yangi materiallar, texnologiyalar va loyihalash usullarini joriy etish bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu o'zgarishlar binolarning energiya samaradorligi, tashqi ta'sirlarga chidamliligi va ekologik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

Qurilishdagi zamonaviy tendensiyalar nafaqat mustahkamlik va ishonchlilik bo'yicha qat'iy talablarga javob beradigan, balki atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradigan konstruksiyalarni yaratishga e'tibor qaratmoqda. Binolarni 3D bosib chiqarish, o'z-o'zini tiklaydigan materiallar va aqlli boshqaruv tizimlaridan foydalanish kabi texnologiyalar arxitektorlar va muhandislar uchun yangi ufqlarni ochmoqda.

Asosiy qism. Binolar konstruktiv elementlarining rivojlanish tarixi - bu insoniyat tarixi, uning qulaylik, xavfsizlik va o'z g'oyalarini ifoda etishga intilishidir.

Masalan, Qadimgi dunyoda tabiiy materiallardan foydalanilgan. Dastlabki turar joylar qo'l ostidagi materiallar: yog'och, tosh, loydan qurilgan (1-rasm). Oddiy konstruksiyalardan foydalanildi. Xom g'isht devorlar, tosh plitalar, yog'och ustunlar va to'sinlar. Funksional jihatdan ularning asosiy vazifasi - yomon ob-havo va yirtqichlardan himoyalanish edi.

Antik davrda ark, ustun, gumbaz kabi murakkab konstruksiyalarning paydo bo'lganligini qayd etish mumkin. Toshdan keng foydalanish. Tosh terishning rivojlanishi, yangi arxitektura uslublarining paydo bo'lishi. Binolar nafaqat boshpana, balki san'at asariga ham aylandi.

O'rta asrlarda gotikaning tarqalishi qayd etilgan. O'qyoysimon ravoqlar, baland ravoqlar, vitrajlar. Karkasli konstruksiyalarning tosh va yog'och birikmasida paydo bo'lishi. Soborlar va qasrlar kabi murakkab muhandislik yechimlarini talab qiladigan monumental inshootlar.

Keyin sanoat inqilobi sodir bo'ladigan Yangi davr keladi. Yangi materiallarning (temir, po'lat, beton) paydo bo'lishi, mashinasozlikning rivojlanishi.

Ko‘priklar, vokzallar, osmono‘par binolar qurilishida metall konstruksiyalardan foydalanish. Po‘lat va temir-beton yuk ko‘taruvchi konstruksiyalar uchun asosiy material bo‘lib qolmoqda.

XX asr va bizning davrimizda temirbetonning keng qo‘llanilishi, beton quyishning yangi texnologiyalarining paydo bo‘lishi. Yengil metallar, kompozit materiallar, innovatsion qurilish tizimlari. Atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytiradigan yangi materiallarni izlash. Datchiklar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish [1].

1-rasm. Qadimgi turar-joylar qo‘l ostidagi materiallardan qurilgan: yog‘och, tosh, loy [2].

Asosiy rivojlanish tendensiyalari:

- Oraliqlarni oshirish uchun katta ustunsiz bo‘shliqlarni yaratishga intilish.
- Yaxshilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi materiallarni doimiy ravishda izlash.
- Qurilish jarayonlarini avtomatlashtirish, kompyuter modellashtirishni qo‘llash.
- Energiya tejamkor va ekologik toza binolarni yaratishga intilish.

Zamonaviy konstruktiv elementlar:

Zamonaviy qurilish texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangi materiallarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi, bu esa binolarning konstruktiv elementlari evolyutsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Keling, qanday innovatsiyalar zamonaviy arxitekturani o‘zgartirayotganini batafsil ko‘rib chiqaylik.

Yangi materiallar va ularning qo‘llanilishi

Yengil, mustahkam va chidamli kompozitlar qurilishda tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Ular murakkab geometrik shakllar hosil qilish va poydevorga tushadigan yukni kamaytirish imkonini beradi. Yengil betonlar konstruksiyalarning og‘irligini kamaytirish, poydevorga tushadigan yukni kamaytirish va binolarni isitish hamda sovutish uchun energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi. Yuqori mustahkam po‘latlar yupqaroq va nafisroq konstruksiyalar yaratish, oraliqlarni kattalashtirish va ochiqroq bo‘shliqlar hosil qilish imkonini beradi. Yog‘och, bambuk, somon - ekologik va estetik xususiyatlari tufayli qurilishda tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.



2-rasm. Bambuk qurilishi [3].

Innovatsion texnologiyalar

3D bosib chiqarish murakkab geometrik shakllarni yaratish, arxitekturani moslashtirish va ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish imkonini beradi. Robotlar odatiy va xavfli ishlarni o‘z zimmasiga olib, qurilishning aniqligi va tezligini oshiradi. Binolarni axborot modellashtirish qurilish jarayonining barcha ishtirokchilarini muvofiqlashtirishni ta’minlagan holda aniq raqamli modellarni yaratish imkonini beradi. Tashqi sharoitlarga qarab o‘z xususiyatlarini o‘zgartira oladigan materiallar, masalan, shaffoflikni o‘zgartiradigan o‘z-o‘zini tiklaydigan betonlar yoki shishalar [4].

Rivojlanish tendensiyalari

- Ekologik toza materiallar va texnologiyalardan foydalanishga intilish, chiqindilar va energiya sarfini minimallashtirish.
- Yengilroq va mustahkamroq konstruksiyalarni yaratish, oraliqlarni kattalashtirish va ochiqroq bo‘shliqlarni yaratish imkonini beradi.
- Yig‘ish va qismlarga ajratish oson bo‘lgan konstruktiv elementlarni ishlab chiqish, binolarni o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.
- Qulay va energiya tejamkor muhit yaratish uchun sensorlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish.

Zamonaviy konstruktiv yechimlarga misollar

- Binolarning ekzoskeletlari: Yengil va mustahkam konstruksiyalar bo‘lib, massiv ustunlardan foydalanmasdan katta oraliqlar yaratish imkonini beradi.
- Shisha va metall fasadlar: Tabiiy yorug‘lik va panoramali manzaralarni ta’minlaydigan estetika va funksionallikning uyg‘unligi.
- Yashil tomlar: Mikroiqlim va estetikani yaxshilash uchun bino tomlarida yashil zonalar yaratish.
- Ichki energiya ishlab chiqarish tizimlari: Quyosh panellari, shamol generatorlari, geotermal qurilmalar.

Zamonaviy konstruktiv elementlar arxitektura uchun yangi imkoniyatlar ochib, yanada funksional, estetik va

ekologik toza binolarni yaratish imkonini beradi. Biroq, yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi me'yor va standartlarni ishlab chiqish, malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati kabi yangi muammolar ham paydo bo'lmoqda [5].

Binolarning konstruktiv elementlari kelajagi: ertangi kunga nazar

Zamonaviy qurilish texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib, bizning oldimizda yangi imkoniyatlar ufqlarini ochmoqda. Binolarning konstruktiv elementlari kelajagini qanday tendensiyalar va innovatsiyalar belgilaydi?

Rivojlanishning asosiy yo'nalishlari

- Ekologik tozalik va barqarorlik.

O'simliklardan olingan materiallar (yog'och, bambuk, somon), zamburug'lar va boshqa organik komponentlardan keng foydalanish. Qayta ishlangan materiallardan foydalanish va qayta ishlashga yaroqli konstruksiyalar yaratish. O'z energiyasini ishlab chiqara oladigan va binolar ichidagi mikroiqlimni samarali tartibga soladigan konstruksiyalarni ishlab chiqish [6].

- Intellektual binolar.

O'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan materiallar, masalan, yorug'lik darajasini tartibga soluvchi o'z-o'zini tiklovchi betonlar yoki shishalar. Turli tizimlarni masofadan boshqarish va energiya sarfini optimallashtirish imkonini beruvchi binolarning global tarmoqqa integratsiyasi. Qurilish aniqligi va tezligini oshirish uchun robotlar va 3D bosib chiqarishdan foydalanish.

- Yangi materiallar va texnologiyalar.

Yuqori mustahkamlik va yengillik kabi noyob xususiyatlarga ega materiallarni yaratish uchun nanomateriallardan foydalanish. 3D bosib chiqarish murakkab geometrik shakllarni yaratish va arxitekturani shaxsiylashtirish imkonini beradi. Optimal xususiyatlarga ega bo'lgan konstruksiyalarni olish uchun turli xil materiallarni birlashtirish [7].

- Modullilik va egiluvchanlik.

Joyida oson tashish va yig'ish mumkin bo'lgan yig'ma konstruksiyalar. Foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslasha oladigan binolar.

Istiqbolli texnologiyalar va materiallar

- **Grafen:** O'ta mustahkam va yengil konstruksiyalar yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan noyob xususiyatlarga ega uglerodli material.
- **Aerogellar:** Yuqori issiqlik izolyatsiyasiga ega bo'lgan eng yengil qattiq moddalar.
- **O'z-o'zidan tiklanadigan materiallar:** shikastlanishlarni mustaqil ravishda tiklay oladigan materiallar.
- **Biominerallashtirish:** Tirik organizmlardan qurilish materiallarini yaratish uchun foydalanish.
- **Aqlli materiallar:** Tashqi sharoitlarga qarab o'z xususiyatlarini o'zgartira oladigan aqlli materiallar qurilishda allaqachon qo'llanila boshlandi. Masalan, shaffofligi o'zgaruvchan derazalar, issiqlik izolyatsiyasi o'zgaruvchan materiallar va harorat yoki yorug'lik ta'sirida rangi yoki shaklini o'zgartirishi mumkin bo'lgan qoplamalar mavjud.

Muammolar va cheklovlar

- Yangi materiallar va texnologiyalar uchun yangi qurilish me'yorlari va standartlarini ishlab chiqish zarurati. Ko'plab innovatsion materiallar va texnologiyalar hali ham yetarlicha qimmat. Yangi materiallar va texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi.

Kelajak individual qarorlarda

Kelajakda binolar tobora ko'proq individual va ma'lum bir mijozning ehtiyojlariga moslashtiriladi. Arxitektor va muhandislar keng turdagi materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda noyob loyihalar yaratishi mumkin bo'ladi.

Natijalar

1. Binolarning zamonaviy konstruktiv elementlari. Zamonaviy binolarning konstruktiv elementlarini bir nechta asosiy qismlarga ajratish mumkin: poydevorlar, devorlar, orayopmalar, tomlar, ustunlar va to'sinlar. Bu elementlar binolarning turg'unligini, tashqi ta'sirlarga qarshi tura olishini va funksional vazifalarni bajarishini ta'minlaydi.

2. Qurilishda innovatsiyalar. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan binolarning konstruktiv elementlarini loyihalash va qurishda yangi yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Ushbu innovatsiyalar ekspluatatsion xususiyatlarni yaxshilash, qurilish muddatlarini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan.

3. Rivojlanish istiqbollari. Qurilish sanoati raqamli texnologiyalarni joriy etish, robotlashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish tufayli jiddiy o'zgarishlar arafasida turibdi. Kelajakda binolarning konstruktiv elementlari ko'proq aqlli materiallar va additiv texnologiyalardan foydalanishga asoslanadi.

Muhokama

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, binolarning konstruktiv elementlari yangi texnologiyalar va materiallarning joriy etilishi tufayli sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Yaqin o'n yilliklarda qurilishni avtomatlashtirish, energiya samaradorligini oshirish va "aqlli" materiallarni joriy etish rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'ladi.

Biroq, innovatsion texnologiyalarni ommaviy qo'llash me'yoriy bazani moslashtirish, mutaxassislarni o'qitish va tajriba loyihalarini moliyalashtirish kabi bir qator muammolarni hal qilishni talab qiladi. Shunga qaramay, prognozlarga ko'ra, yangi texnologiyalarni joriy etish nafaqat qurilish muddatlari va xarajatlarini qisqartirish, balki binolarning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash, ularni tashqi ta'sirlarga va o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga yanada chidamli qilish imkonini beradi.

Xulosa

Qurilish texnologiyalari va konstruktiv elementlar sohasidagi tadqiqotlar natijalari hayot sifati va shaharlar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yangi materiallarning (masalan, kompozitlar, biomateriallar) mustahkamligi, chidamliligi va ekologik tozaligini baholash uchun yangi me'yorlarni ishlab chiqish. Binolardan ma'lum darajadagi energiya samaradorligini talab qiladigan standartlarni yaratish. Seysmik faollik,

shamol yuklamalari va boshqa tabiiy omillarni hisobga oluvchi me'yorlarni ishlab chiqish.

Yangi materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning narxini pasaytirish va arzonligini oshirish. Yangi materiallardan samarali foydalanish imkonini beruvchi qurilish texnologiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalaridan yanada samarali va chidamli konstruksiyalar yaratish uchun foydalanish. Optimal mikroiqlim va akustikaga ega binolarni yaratish uchun materiallar va texnologiyalar haqidagi bilimlarni qo'llash. O'z energiyasini ishlab chiqara oladigan va undan samarali foydalana oladigan binolarni loyihalash.

Qurilish ishlarining sifatini oshirish va nuqsonlar sonini kamaytirish uchun yangi texnologiyalar va materiallardan foydalanish. Energiya iste'molini optimallashtirish va aholining qulayligini ta'minlash uchun aqlli boshqaruv tizimlarini qo'llash.

Tadqiqot natijalaridan iqlim o'zgarishi va boshqa salbiy ta'sirlarga chidamli shaharlarni loyihalashda foydalanish. Rivojlanish va farovonlikka hissa qo'shadigan qulay va xavfsiz shahar muhitini yaratish.

O'z-o'zini tozalaydigan fasadlar, shovqinni yutadigan materiallar yoki karbonat angidridni ushlab qolish qobiliyatiga ega bo'lgan betonlarni yaratish. Geotermal isitish va sovutish tizimlari, quyosh panellari, yorug'lik diodli yoritish tizimlaridan foydalanish. Qurilish jarayonlarini optimallashtirish va binolarning virtual modellarini yaratish uchun BIM-modellashtirishdan foydalanish.

Yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tadqiqotchilar, muhandislar, me'morlar va quruvchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish kerak. Qurilish sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi davlat dasturlari zarur. Yangi texnologiyalar va materiallarning afzalliklari haqida jamoatchilikni xabardor qilish muhim.

Shunday qilib, qurilish texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar natijalari hayot sifatini yaxshilash va yanada barqaror kelajakni yaratish uchun ulkan salohiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Allen, E., & Iano, J. (2019). *Fundamentals of Building Construction: Materials and Methods*. Wiley.
2. The Aztec Ninjas at emaze Blog / https://www.emaze.com/@AQCTRLRF/the-aztec-ninjas
3. Gallery of Swirling Cloud: Bulletin Pavilion for BJFU Garden Festival / SUP Atelier – 1 / https://www.archdaily.com/913836/swirling-cloud-bulletin-pavilion-for-bjfu-garden-festival-sup-atelier/5c982f0e284dd1308d000618-swirling-cloud-bulletin-pavilion-for-bjfu-garden-festival-sup-atelier-photo
4. Ashby, M. F. (2012). *Materials and the Environment: Eco-informed Material Choice*. Elsevier.
5. Gould, P. L. (1999). *Analysis of Shells and Plates*. Springer.
6. Smith, P. F. (2010). *Sustainability at the Cutting Edge: Emerging Technologies for Low-Energy Buildings*. Routledge.
7. Watson, D., & Adams, M. (2011). *Design for Energy Efficiency*. Elsevier.
8. Ibragimov, N. (2024). FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 340-342.
9. Khasanovich, I. N. (2023). DEVELOPMENT OF SPA (SANUS PER AQUAM) ZONES IN WATER FACILITIES DEVELOPMENT OF SPA (HEALTH THROUGH WATER) ZONES IN WATER FACILITIES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 306-308.
10. Khasanovich, I. N., & Sindarovich, U. A. (2020). Foreign Experience of Architecture of Water and Entertainment Health Institutions. *JournalNX*, *7*(07), 212-217.
11. Юлдашева, М., Ибрагимов, Н., & Рахманова, М. (2018). Реконструкция и возрождение исторических зон города Самарканда в архитектурном проектировании САМГАСИ. *Bulletin of LN Gumilyov Eurasian National University Technical Science and Technology Series*, *123*(2).
12. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, *2*(2), 36-39.
13. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Devorlarning issiqlikka chidamliligini oshiruvchi materiallarning xususiyatlari. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 765-768.
14. Salomovich, T. E., Samariddinovich, S. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Improving the Heat Preservation Properties of the Exterior Walls of Brick Buildings. *International Journal of Culture and Modernity*, *28*, 15-20.
15. Bolikulovich, K. M., & Po'latovich, M. B. (2024). CALCULATION OF THE TEMPERATURE FIELD OF EXTERNAL ENCLOSING STRUCTURES USING THE FINITE DIFFERENCE METHOD. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 165-169.
16. Mamadaliyev, X. E., & Fazilov, F. X. (2024). Prospects for the Use of Coal Ash in the Construction Industry. *International Journal of Scientific Trends*, *3*(2), 45-48.
17. Bolikulovich, K. M. (2023). STUDY OF THE THERMAL CONDITIONS OF CONNECTIONS OF WINDOW BLOCKS TO A WALL. *Gospodarka i Innowacje.*, *33*, 323-327.
18. Bolikulovich, K. M., & Pulatovich, M. B. (2022). HEAT-SHIELDING QUALITIES AND METHODS FOR ASSESSING THE HEAT-SHIELDING QUALITIES OF WINDOW BLOCKS AND THEIR JUNCTION NODE WITH WALLS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(11), 829-840.
19. Bolikulovich, K. M., & Bakhodirovna, R. D. (2023). Methodology for Calculation of the Temperature Field in the External Fencing Structures of Buildings.
20. Tulakov, E., Inoyatov, D., Kurbonov, A., Sirojiddinov, S., Abdullayeva, S., Matyokubov, B., & Kulmirzayev, J. (2024). Experimental analysis of moisture protection of buildings. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 559, p. 04018). EDP Sciences.

KO‘PIKBETONNING XOSSALARIGA KIMYOVIY QO‘SHIMCHA TA’SIRI TADBIQI

Turapov Farxod Xursanovich, katta o‘qituvchi.
O‘zbekiston Respublikasi. Termiz shaxri. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Abilov Elyor Ermamatovich, t.f.f.d (PhD), dotsent v.b.
O‘zbekiston Respublikasi. Termiz shaxri. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annatatsiya. Qurilish materialshunosligi rivojining hozirgi davri, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va qurilish materiallari sanoatining turli sohalarida kelgusidagi diversifikatsiyalanishi bilan ajralib turadi. Fanlar yangi amaliy ma’lumotlar bilan boyitilmoqda, ular nazariy kategoriyalarga o‘tkazilmoqda va ishlab chiqarishga yordam beradigan texnologik jarayonlarning yangi o‘ziga xos qonuniyatlari ochilmoqda. Ishlab chiqarish va fan bir-birlarini boyitmoqdalar va bu ayniqsa qurilish materialshunosligi rivojining hozirgi davrda o‘ziga xosligini anglatadi.

Kalit so‘zlar. Ko‘pikbeton, mayda zarrali qum, kimyoviy qo‘shimcha, issiqlik namlik ishlov, zichlik, mustahkamlik, spektor analiz.

Abstract. The current period of development of building materials science is characterized by the rapid development of production and the further diversification of various branches of the building materials industry. Sciences are being enriched with new practical data, which are being transferred to theoretical categories, and new specific laws of technological processes that facilitate production are being discovered. Production and science enrich each other, and this especially means that the development of building materials science is unique in the current period.

Keywords. Foam concrete, fine-grained sand, chemical additive, heat-moisture treatment, density, strength, spectral analysis.

Kirish. Hozirgi davr qurilish materiallari ishlab chiqarishning shiddatli rivojlanishi davri ekanligi bilan ajralib turadi. An’anaviy qurilish materiallari bilan bir qatorda yangi materiallardan foydalanish jarayoni shiddat bilan orta boshladi. Xom ashyoga mexanik qayta ishlov berish usullari moddalarning yashirin energiyalari orqali qurilish materiallari xossalarini shakllantiruvchi fizik-kimyoviy usullari tomonidan siqib chiqarila boshladi. Bu esa samarasiz mehnatdan voz kechish, yoqilg‘i va elektroenergiya sarflarini qisqartirish imkoniyatlarini beradi.

Qurilish materialshunosligi rivojining hozirgi davri, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi va qurilish materiallari sanoatining turli soxalarida kelgusidagi diversifikatsiyalanishi bilan ajralib turadi. Fanlar yangi amaliy ma’lumotlar bilan boyitilmoqda, ular nazariy kategoriyalarga o‘tkazilmoqda va ishlab chiqarishga yordam beradigan texnologik jarayonlarning yangi o‘ziga xos qonuniyatlari ochilmoqda. Ishlab chiqarish va fan bir-birlarini boyitmoqdalar va bu ayniqsa qurilish materialshunosligi rivojining hozirgi davrda o‘ziga xosligini anglatadi. Natijada, polimersement, silikatpolimer, shlakkeramika va qurilish materiallari haqidagi yangi bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda respublikamiz kesimida mavjud korxonalar texnologiyalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida keng ko‘lamli ishlar bajarildi va ushbu jarayon jadal sur’atlarda davom etdirilmoqda.

Metod. Penobeton markalari bog‘lovchi tarkibidagi portlandsement miqdoriga nisbatan tarkib qabul qilindi: masalan: (qolgan qismi mineral qo‘shimchalar): Penobeton -100 (100%), Penobeton -60 (60%), Penobeton -50 (50), Penobeton -30 (30%). Mineral qo‘shimchalarning ko‘payishi bilan Penobetonning mustahkamligi pasayadi, shunga qaramay Penobeton -30 mustahkamligi yetarli darajada yuqori bo‘lib, oddiy portlendsement mustahkamligidan yuqori bo‘lishiligini namoyon etmoqda. Buni Penobeton tarkibiy qismlarini superplastifikator bilan birgalikda quruq maydalash jarayonida mexanikkimyoviy faollashtirish xisobiga erishish mumkin.

Penobetonning yuqorida keltirilgan markalaridan tashqari ilmiy izlanishlarimizda foydalangan bog‘lovchilarning markalarini ularning tarkibidagi mineral qo‘shimchasini xisobga olgan xolda quyidagicha belgiladik:

Penobeton (J)- 55 - tarkibida 55% portlandsement mavjud, Jarqo‘rg‘on qumidan foydalanib tayyorlangan kam suv talabchan bog‘lovchi;

An’anaviy penoblok ishlab chiqarishda xomashyolar sarfi: 1m^3 ishlab chiqish uchun; 230 kg qum; 300 kg sement; 180 l suv; 1.7 l penokonsentrati. 900 gr fibratola hamda 300 gr plastifikator sarflanadi. Mahalliy xomashyolardan penoblok ishlab chiqisharishda xomashyolar sarfi: 1m^3 ishlab chiqish uchun. 210 kg qum; 275 kg sement; 150 l suv; 1.5 l penokonsentrati 800 gr fibratola hamda 500 gr plastifikator sarflanadi.

Surxondaryo viloyati hududidagi xomashyolardan penoblok ishlab chiqarish: 1m^3 ishlab chiqish uchun 220 kg qum; 290 kg sement; 165 l suv; 1.6 l penokonsentrati 700 gr fibratola hamda 300 gr plastifikator sarflanadi. Penobeton ning xossalari mavjud standartlar talablariga muvofiq aniqlandi.

Результаты экспериментального исследования зависимости интенсивности изнашивания эпоксидных композиций от времени воздействия ультразвукового поля представлены на рис.1.



Рис.1. Зависимость интенсивности изнашивания эпоксидных композиций. АБИЭК-3(1), ОИЭК-1(2), ОИЭК-3(3), ОИЭК-5(4), АСИЭК-3(5) по бетону (а) и в присутствии влажной среды (б) от продолжительности обработки в ультразвуковом поле.

Как видно из рисунки, что с увеличением времени воздействия ультразвукового поля интенсивность изнашивания эпоксидных композиций изменяется экстремально, проходя через минимум в отрезке продолжительности 1200-2000 с. Причем, положение минимума различно в зависимости от вида композиции и связующего. Например, минимальное значение интенсивности изнашивания у ОС-1 - $0{,}8 \cdot 10^{-5}$ наблюдается при времени воздействия ультразвукового поля 1000-1200 с, тогда как у ОС-2 минимальная интенсивность изнашивания равна 0,95 и соответствует 900-1000 с времени обработки ультразвуком[6].

Не менее важной особенностью ультразвуковой обработки полимерных композиций перед нанесением их на поверхность образцов является еще то, что после ультразвуковой обработки компоненты композиции, особенно наполнители, распределяются более равномерно, уменьшаются агрегатизированные частицы наполнителей и тем самым снижаются до минимума микродефекты и неоднородность в объеме полимерного материала.

Заключение: На основе результатов исследования можно сделать следующие выводы:

1.Было показано, что модификацией композиции посредством ультразвукового поля существенно можно изменять износостойкость и другие, эксплуатационные и физико-механические свойства эпоксидных композиций. Оптимальным временем воздействия ультразвукового поля для повышения износостойкости композиций является 900-1800 с. А для повышения их адгезионной прочности эффективным является воздействие ультразвука продолжительностью 1500-2000 с.

Установлено оптимальные режимы обработки композиций ультразвуком. Ультразвуковая обработка дает желаемые результаты при 1800-2000 секунд воздействия поля мощностью N=5 кВт/м^2 и частотой f=1 МГц

Литература:

1. Мухитдинов, М. Б. (2024). ВЛИЯНИЯ УЛЬТРАЗВУКА НА СВОЙСТВА КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ И ПОКРЫТИЙ НА ИХ ОСНОВЕ. Universum: технические науки, 2(1 (118)), 32-34.

2. Мухитдинов, М. Б. (2024). ВЛИЯНИЕ УЛЬТРАЗВУКА НА ИЗНОСОСТОЙКОСТЬ ПОКРЫТИЙ ИЗ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ОСНАСТКИ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ. Universum: технические науки, 2(3 (120)), 53-55.

3. Негматов С. С. и др. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ РЕЖИМОВ ЭКСПЛУАТАЦИИ МЕТАЛЛИЧЕСКОЙ ОСНАСТКИ НА ИЗНОСОСТОЙКОСТЬ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 11-5 (104). – С. 54-59.

4. Негматов С. С. и др. & Улмасов, ТУ Исследование влияния содержания различных наполнителей на износостойкость и другие физико-механические свойства композиционных эпоксидных полимерных материалов //KOMPOZITSION MATERIALLAR. – Т. 72.

5. Негматов С. С. и др. Исследование влияния содержания различных наполнителей на износостойкость и другие физико-механические свойства ком-позиционных эпоксидных полимерных материалов //KOMPOZITSION MATERIALLAR. – Т. 72.

6. Мухитдинов М.Б. РАЗРАБОТКА ОПТИМАЛЬНЫХ СОСТАВОВ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ПОКРЫТИЯ РАБОЧЕЙ ПОВЕРХНОСТИ ФОРМ В ПРОИЗВОДСТВЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 12(117).

КАТТА РАВОҚЛИ ПЎЛАТ ФЕРМАЛАРНИ КОНСТРУКТИВ ШАКЛИНИ ЎЗГАРТИРИБ, УЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Балгаева М.А., докторант.СамДАҚУ

Аннотация: Ушбу мақолада катта равоқли пўлат фермаларнинг панелини конструктив формаси ўзгартириш орқали эгувчи моментни камайтириб, унинг самарадорлигини ошириш ҳақида маълумот келтирилган.

Калит сўзлар: ферма, панел, эгувчи момент, бўйлама куч, кесувчи куч, форма, тўпланган юк.

Аннотация: В этом статье приводиться уменьшения величины изгибащего момента в сжато-изгибаемых стержней верхнего пояса большепролётных ферм от внеузловых сосредоточных моментов методом изминения конструктивных ферм верхнего пояса созданием выгиба панели на обратном направлении, т.е. на против направлений дейсивии изгибающего момента.

Ключевые слова: ферма, стержен, изгибаемый момент, продольная сила ,поперечное сила, форма, сосредаточенная сила.

Anatation: This article provides information on improving the efficiency of large-span steel trusses by reducing the bending moment through modifications to the structural form of the truss panels.

Keywords: Truss, panel, structural form, bending moment, axial force, shear force, shape, concentrated load, strength, priority, efficiency.

Кириш. Қурувчиларнинг ҳар доим катта равоқли кўркам ва шинам биноларни лойиҳалаш истаги қадим замонлардан ҳозирги кунгача асосий муаммо бўлиб қолмоқда. Тараққиётнинг техник ривожланиши, замонавий материаллар ва технологиялардан фойдаланиш биноларнинг ички майдон юзасини таянчларсиз қилиб лойиҳалашни тақозо этади. Бу борада жамоа, саноат бинолари, спорт , бино ва иншоотларини шу тариқа лойиҳалаш асосий мақсад бўлиб қолмоқда. Албатта бу ерда кўприксозлик ҳам бундан холи эмас. Катта равоқли биноларни барпо этиш учун темир-бетон конструкциялар, металл конструкциялар, ёғоч конструкциялардан фойдаланиш , уларни тежамли ва кўркам қилиб лойиҳалаш асосий вазифа бўлиб қолмоқда. Ҳозирги замонда жаҳон қурилиш амалиётида самарали , кўркам , катта равоқли бино ва иншоотларни барпо этиш катта ўрин тутади. Катта равоқли конструкцияларга қўйидагилар киради: тўсинли конструкциялар, рамалар, аркалар, фазовий конструкциялар, қобиқлар ва осма конструкциялар. Бу қурилмалар орасида тўсинли қурилмалар энг оддийси ҳисобланади. Тўсинли қурилмалар ўзларини оддийлиги билан бошқа конструкциялардан фарқ қиладилар, яна бу конструкция таянчларида ҳавон пайдо бўлмайди, уларни тайёрлаш ва монтаж қилиш осон кечади, лекин бу конструкциялари баландликлари бошқа турдаги конструкцияларга нисбатан баландроқ бўлади, сабаби массалари ҳам оғирроқ бўлади. Катта равоқли тўсинли конструкциялар асосан оғир фермалардан ташкил топган бўлади. Катта равоқли оғир фермаларнинг самарадорлигини оширишни бир неча усуллари мавжуд бўлиб , булар конструктив схемаларни такомиллаштириш, юқори мустаҳкамли пўлатлардан фойдаланиш, ферма чўзиладиган элементларини олдиндан зўриқтиришдан иборат. Албатта булардан ташқари ферманинг оғирлигига унинг оптимал баландлиги , панжара турлари ва стерженларни кўндаланг кесим шакли ҳам катта таъсир кўрсатади. Шу боисдан катта равоқли фермаларни ишлаш шароитини ўрганиш, улар стерженларидаги кучланиш-деформация ҳолатларини ўрганиш бугунги кунда катта аҳамиятга эга. Бунга сабаб Республикамиз мустақилликка эришгандан сўнг ишлаб чиқариш саноатининг кўп тармоқларида узулиш пайдо бўлди. Собиқ Иттифоқ республикалари билан ҳамкорлик занжирлари узулди, машина механизмларни эҳтиёт қисмлари келмай қуйди. Бу етишмовчиликларни бартараф этиш учун Республикамизни ўз саноатини барпо этиш учун катта равоқли бино ва иншоотларни қуриш лозим бўлади албатта. Биз танлаган мавзу шу муаммоларни ҳал этишга катта равоқли оғир фермалардан фойдаланишга бағишланган бўлиб, бунда катта равоқли фермаларни юқори камар панелини тескари эгиб уларни самарадорлигини оширишга бағишланган.

Материаллар ва усуллар. Катта равоқли конструкциялар равоғи катта бўлган қурилиш объктларида, яъни : кемасозлик заводларида, самолётсозлик заводларида, самолётларни сақлаш ангарларида, металлургик заводлар ва кўприксозликда, спорт иншотоларида, концерт залларда, кўргазма залларда ва савдо марказларида ишлатилади. Бу бино ва иншоотларни ишочли ва узоқ муддат ишлаши кафолатланган бўлиши керак.Тўсинли конструкцияларда , агар равоқ катта бўлса фермалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади [2]. Тўсинли қурилмалар узунлиги 42 м.дан катта бўлиб 100 м.гача етади. Катта равоқли оғир фермалар конструктив ечим бўйича бошқа конструкциялардан қўйидагилар билан фарқ қилади: конструктив кўринишлари, панжара турлари, статик схемаси ва панжараларни кўндаланг кесим турлари билан. Оғир фермалар баъзан оғир шароитда ишлайдилар , масалан, кўприкларда , оғир режимли кранлар остида , қайсиким, фермалар узлуксиз динамик куч таъсири остида бўлса, бундай фермалар динамик юклар остида ишлаганлари сабабли уларнинг бирикмалари парчинмих ёки юқори мустаҳкамли болтлар билан бажарилади.

Ташқи кўринишига қараб катта равоқли фермалар: трапеция шаклида, кўп бурчакли , сегментли ва параллел камарлига бўлинадилар. Панжараларига қараб учбурчакли, учбурчакли устунчали, учбурчакли шпренгелли , ховонли, ярим ховонли, ромб шаклида ва хоч шаклида бўлади. (Расм- 1).



Расм -1. Катта равоқли фермаларнинг кўринишлари.

Стерженларининг кўндаланг кесимига қараб трубали, швеллерли, қўштаврли ҳамда ясама қўштаврли ёки коробкалардан иборат бўлади.(Расм-2).



Расм-2.Ферма камарларининг кўндаланг кесим турлари.

Катта равоқли фермаларни юқори камари панелларини узунликлари типли 1.5 ва 3 м-дан катта бўлиши мумкин, бу вақда фермага таъсир қиладиган тўпланган юк ферма тугунларига тўғри келмаслиги мумкин. Панел узунликлари 6м, 9м ва 12 м бўлиши мумкин. Бу вақтда ферманинг камарлари сиқилиб эгилиш ёки чўзилиб эгилиш кучланганлик ҳолатида бўлиши мумкин ва бунда ферма стерженларида ҳосил бўладиган эгувчи моментлар таъсири сезилали даражада бўлиб, бўйлама куч миқдори унча ўзгармайди, кесиб ўтувчи кучлар миқдори сезиларли даражада ўзгаради. Бу ҳолатда, яъни куч тугунга тўғри келмаганда ферма юқори камарида моментни қиймати камайтиришнинг ягона йўли шпрингеллардан фойдаланиш ҳисобланиб келинмоқда. [1]

Бу изланишда биз момент миқдорини камайтиришни яна бир таклиф қилинадиган усули ферма юқори камари стерженларини момент текислигига тескари эгиб (олдиндан зўриқтириб) момент миқдорини бироз камайтириш имконияти кўриб чиқамиз. Бу масалани “ЛИРА САПР-2017” дастури асосида ҳисоблаб кўрамиз.

Қўйида юклар ферма тугунидан ташқари юқори камар панели ўртасида қўйилган ҳолатда ундан ҳосил бўладиган эгувчи моментлар миқдорини кўриб чиқамиз. (Расм-3; Расм-4). Ферма қадами 6м.қабул қилинган, тугунга таъсир қиладиган юклар расм-3 да кўрсатилган. Пўлат синфи С-235 қабул қилинган. Ферма трапеция шаклида бўлиб, унинг узунлиги L=48 м. Ферма баландлиги 1/6 *l* бўлиб, у *h*=8 м.га тенг. Ферма таянчида баландлик 1/2 *l* бўлиб, у *hT* = 4 м.қабул қилинган.



Расм-3. Ферма схемаси.

Натижалар бўлими. Расм -3 да келтирилган ферма схемаси ва унга таъсир этадиган тўпланган куч натижасида юқори камар панелида ҳосил бўладиган эгувчи момент, буйлама куч ва кесувчи кучлар эпюраларини келтирилган.



Расм-4. L=48 м. юқори камар панели тўғри стерженли (f=0 см)ферманинг зўриқиш эпюралари: а) эгувчи момент эпюраси ; б) бўйлама куч эпюраси; в) кесувчи куч эпюраси

Юқори камар панелидаги эгувчи моментни камайтириш учун , панелни конструктив формасини ўзгартирдик. Бу мақсадда эришиш учун, ферма юқори камарини тескари эгиб (f=10 см), ундаги моментни камайишини кузатдик. Ушбу натижаларни қўйидаги эпюралар орқали кўришимиз мумкин. Шуни таъкидлаб ўтамизки, ушбу формаси ўзгартирилган ферманинг бўйлама куч бўйича зўриқишлари селиларли даражада ўзгармади. Аммо кесувчи куч зўриқишларида анча камайиш сезилган.(расм-4, Расм-5 ва Жадвал-1 га қаранг)



Расм-5. L=48 м. юқори камар панели тўғри стерженли (f=10 см)ферманинг зўриқиш эпюралари: а) эгувчи момент эпюраси ; б) бўйлама куч эпюраси; в) кесувчи куч эпюраси

Таққослаш натижалар вариантлари жадвал-1 да келтирилган.

Жадвал-1.

№	L=48 м. f=0 см			№	L=48 м. f=10 см		
	N(кН)	M (кН·м)	Q(кН)		N	M	Q
18	-12.737	-19.851	28.885	51	-15.640	-22.807	31.094
19	-0.506	67.998	-44.503	52	-3.760	72.324	-41.705
20	-917.456	-60.886	39.228	53	-910.598	-29.554	12.653
21	-905.225	58.420	-34.160	54	-898.032	9.157	-2.115
22	-917.523	-47.319	35.866	55	-910.135	-0.026	5.944
23	-905.292	61.765	-37.521	56	-898.004	18.157	-8.841
24	-918.085	-50.498	35.355	57	-913.082	-6.483	6.074
25	-905.854	57.029	-38.033	58	-900.936	12.100	-8.520
1	-67.826	-11.409	7.815	34	-70.798	-14.147	9.239
2	636.618	-5.928	1.356	35	630.956	-3.762	1.064
3	963.167	8.186	-0.540	36	956.905	8.078	-0.533
4	-145.495	-1.866	0.619	37	-142.130	-2.386	0.861
5	148.412	0.000	0.000	38	146.852	0.000	0.000
6	-819.834	-5.481	1.580	39	-812.675	-10.386	4.056
7	-98.399	1.240	-0.018	40	-100.867	1.383	-0.044
8	340.968	0.784	-0.051	41	338.349	2.433	-0.702
9	-97.182	1.087	-0.184	42	-96.179	1.126	-0.202

(Эслатма: юқоридаги жадвал-1 да зўриқишлар фақат ферманинг ярим қисми келтирилган; қизил ранг эгувчи момент камайиши ва кўк ранг билан кесувчи кучларнинг мусбат томонга ўзгариши келтирилган).

Олинган натижалар бўйича сиқилиб эгилган юқори камар кесимларини танладик (жадвал-2) га қаранг.

Жадвал-2.

	Элемент номери	Юза	Кучланиш	Стержен массаси
		$A_ф$, см ²	$\sigma_x \le R_y$, кН/см²	
	Тўғри стерженли			
1	(Ю.к. С-18-19)	43,6	17,84≤ 23.0	6·34,23=205,38 кг
2	(Ю.к С-20,21)	75,6	21,7 ≤ 23.0	6·59,38=356,28 кг
3	(Ю.к С-22,23)	75,6	21,4 ≤ 23.0	6·59,38=356,28 кг
4	(Ю.к С-24,25)	65,0	22,5 ≤ 23.0	6·51,05=306,3 кг
				1224,24·2=2448,48 кг
	Конструктив формаси ўзгартирилган			
6	(Ю.к.С-51,52)	40,3	22,21≤ 23.0	6·31,66=189,96 кг
7	(Ю.к.С-53-54)	55,2	22,82≤ 23.0	6·43,33=259,98 кг
8	(Ю.к.С-55-56)	55,2	21,3 ≤ 23.0	6·43,33=259,98 кг
9	(Ю.к.С-57-58)	50,3	22,9 ≤ 23.0	6·39,46=236,76 кг
				946,68·2=1893,36 кг
				-555,12 кг
				-22,67 %

Мунозара бўлими.Тадқиқотнинг асосий мақсади катта равоқли пўлат фермаларда юқори камар панелини конструктив формасини ўзгартириш орқали унинг самарадорлигини ошириш эди. Юқоридаги мақсадга эришиш учун (ЛИРА САПР-2017) дастуридан фойдаландик. Ҳисоб натижаси шуни кўрсатдиким, ферма юқори камар панелларини тескари эгишда камарда зўриқишлар M,N, ва Q мусбат томонга ўзгаришини кўриш мумкин. Аҳамиятга моликлигим шундаким, эгиладиган стержен учун катта таъсир кўрсатадиган эгувчи момент сезиларли даражада камайиб борар экан. Бундан ташқари кесувчи куч Q -ҳам камайиб боради. Бу ҳолат Расм -4 ва Расм-5 га акс эттирилган. Бу ҳолат панелларни f=10-12 см бўлганда оптимал қийматга эга бўлиб, юқори камар учун 22.67 % пўлатни иқтисод қилиш мумкин. Бу кўрсатгич бутун бир ферма учун 9-10 % ни ташкил этади. Биз қаралаётган ферманинг юқори камарининг иккита четки панелларида эгувчи момент қиймати аксинча ошиб борганини сезиш мумкин. Бу ҳолатни яхшилаш учун шу икки охирги панелларда шпрингел ўрнатса, у вақтда юқори камар самарадорлиги 24-25 % га етиши, ферманики эса 10-11% етиши мумкин. Бу тадқиқотни кейинги ишларимизга кўриб чиқамиз.

Хулоса. Катта равоқли фермаларнинг умумий массасининг 30-40 % ни юқори камар панели ташкил этади. Шунинг учун ишимизда асосий мақсадни ферма юқори камар массасини камайтиришга қаратганмиз. Хулоса қилиб шуни таъкидлашимиз мумкинки, юқори камар панели конструктив формаси ўзгартирилган стерженли катта равоқли фермалар , худди шундай кўринишга эга бўлган юқори камар панели тўғри стерженли фермаларга нисбатан -555.12 кг га енгилроқ массага эга бўлди. Албатта бу натижалар дастур ёрдамида олинган маълумотлар асосида ҳисобланган. Фоизлар кўринишида тасвирласак, бу кўрсатгич 9-10 % ни ташкил этди. Хулоса қилиб айтганда , ферма юқори камар панелларини тескари эгиб (олдиндан зўриқтириш мақсадида) сиқилиб эгиладиган стерженларни юк кўтариш қобилиятини кўтариш ва шу эвазига уларга сарфланадиган металл самарадорлигини ошириш мумкин.

Адабиётлар.

1. (И.Б.Лузенина, 2019) (Е.И.Беленя, 1986)Е.И. Беленя. Металлические конструкции. Москва, Стройиздат, 1986 г
2. Ю.И. Кудишин. Металлические конструкции, Москва, Академия, 2008 г.
3. Справочник конструктора «Стальные конструкции», под редакцией Шумакова 2004 г.
4. Н.С. Стрелецкий. Стальные конструкции покрытия одноэтажных промышленных зданий. Учебник. 1967 г.

5. Asliyev S.A., Balgayeva M.A., Boymatov B. Katta ravoqli po_lat fermalar. ―Me'morchilik va qurilish muammolari‖ ilmiytexnik jurnal. 2022, №3 (1-qism). 74-75 betlar. Samarqand.

6. Asliyev S.A., Balgayeva M.A. Og_ir fermalarni yuqori kamari panellarini teskari egish bilan uning samaradorligini oshirish. ―Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali‖.(THE JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH).Sentyabr.2022/#1(4).285289betlar. htttps://ojs.rmasaw.com/index.php/ojs/issue/vie w/9/VOLUME2022_1_4 .

7. Asliyev S.A., Balgayeva M.A. Og_ir fermalarda yuqori kamarini teskari egish yo_li bilan kuchlanganlik-deformatsiya g_olatini yaxshi tomomnga o_zgartirish. ―Me'morchilik va qurilish muammolari‖ ilmiy-texnik jurnal. 2023, №1 (1-qism). 158

EKOLOGIK MATERIAL HISOBLANADIGAN QAMISHLI PLITALAR YORDAMIDA TASHQI G'ISHT DEVORNING ISSIQLIK HIMOYASINI OSHIRISH

Matyokubov Bobour Pulatovich, **Xaitov Ma'ruf Bolikulovich**
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti (SamDAQU).

Annotatsiya. Ushbu maqolada, issiqlik himoyasi g'isht devor namunasini tashqi sirtidan, zichligi 200-300 kg/m^3 bo'lgan qamishli plita bilan oshirilgan konstruksiyada issiqlik-fizik jihatdan o'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Аннотация: В статье приведены результаты теоретических и эксперименталных натурных теплофизических исследований в моделях кирпичных наружных стен с повышеннием уровня теплозащиты с наружной стороны камышитовыми плитами плотностю 200-300 kg/m^3.

Annotation: The article presents the results of theoretical and experimental full-scale thermophysical studies in models of brick exterior walls, an increased level of thermal protection from the outside by reed slabs with a density of 200-300kg/m^3.

Kalit so'zlar: Issiqlik izolyatsiya materiali, qamishli plita issiqlik o'tkazuvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, issiqlik uzatish qarshiligi, issiqlikka chidamlilik, harorat maydoni, energiya tejamkorlik.

Ma'lumki, tabiiy energiya manbalariga kiruvchi ko'mir, tabiiy gaz va neft maxsulotlari yaqin yuz, yuz ellik yillar ichida tugaydigan manbalar qatoriga kiradi. Ularning 50% dan ortig'i bino va inshootlarni isitish, issiq suv bilan ta'minlash va maishiy xizmatlar uchun sarf bo'lar ekan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016 yil dekabrdagi qaroriga asosan Respublikamizning barcha viloyatlarida kam ta'minlangan oilalar uchun ikki va to'rt sotxli namunaviy loyiha asosida turar joy binolari qurilib ishga tushirila boshlandi. Bu turdagi turar – joy binolari uchun tashqi devor va tom yopma konstruksiyalarini issiqlik – fizik jihatdan nazariy tadqiq qilish, tashqi to'siq konstruksiya uchun energiya samarali qurilish materiallari tanlash, ularni issiqlik – fizik jihatdan takomillashtirish, bino xonalarida me'yoriy mikroiqlim yaratish hamda bu turdagi energiya samarador turar – joy binolarini qurish va loyihalash dolbzarb hisoblanadi. Bundan tashqari ba'zi mahalliy qurilish materiallari va konstruksiyalarining issiqlik – fizik xususiyatlari to'liq o'rganilmagan . Shu sababli hozirgi davrda maxalliy materiallardan iborat energiya tejamkor binolarni loyihalash va ularni tashqi devorini issiqlik fizik jihatdan energiya tejamkorligini oshirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ishlatilib kelinayotgan binolarni issiqlik himoyasini oshirish uchun ularning issiqlik-fizik jihatdan nazariy va amaliy tadqiqotalr natijasida asoslash lozim. Shu sababli bizlar issiqlik himoyasi qamishli plita yordamida oshirilgan g'ishtdan iborat tashqi devor namunasida issiqlik-fizik tajribalarni SamDAQUning laboratoriyasida o'tkazdik. Ushbu laboratoriyada zichligi 1800 kg/m³ bo'lgan g'ishtdan laboratoriyaning devor namunasida tajriba sinovlarini o'tkazdik.

1-rasm. Zichligi 200-300 kg/m3 bo'lgan qamishli plita.

Tajriba standart, O'zRST 809-97 "To'siq konstruksiyalarning issiqlik uzatishga qarshiligini aniqlash" va GOST 10-2-81 "Методика проверки теплоизоляционных качеств и воздухопроницаемости ограждаюших конструкций в зданиях" [5] uslublari talablari asosida o'tkazildi. Dastlab sinov-tajribalar zichligi 1800 kg/m³, qalinligi 38 sm bo'lgan issiqlik himoyasi oshirilgan g'isht devorda o'tkazildi. Bu konstruksiyani hisobiy sxemasi va unda termoparalar joylashishi 1-rasmda keltirilgan.

Qishki issiqlik-fizik tajribalar yanvar oyida o'tkazildi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tashqi devorning issiqlik-fizik ko'rsatkichlari

1-jadval.

Qatlam nomi	δ (m.)	λ1 Vt/m²°C	γ₀ kg/m³	S Vt/m²°C	R m²°C/ Vt	D
Sement-qumli Suvoq	0.03	0.76	1800	9.6	0.039	0.378
G'isht	0.38	0.70	1800	9.2	0.542	4.994
Sement-qumli Suvoq	0.03	0.76	1800	9.6	0.039	0.378



2-rasm G'isht devor namunasida termoparalarning joylashishi.

Tajriba natijalarini nazariy tadqiqotlat bilan taqqoslash uchun birinchi navbatda tashqi devorni ichki sirtidagi haroratni quyidagi formula yordamida aniqlaymiz.

$$L_{il} = t_и - \frac{t_и - tm}{Ry} * R_и$$

Bu yerda t_i – ichki havo harorati, ˚S; t_m- tashqi havoning xisobiy harorati, ˚C;

R_y- to'siq konstruksiyani umumiy issiqlik uzatish qarshiligi, m²˚C/ Vt**;** **R_i-** tashqi to'siq konstruksiyani ichki sirtini issiqlik uzatish qarshiligi, m²˚C/ Vt**;**

G'isht devorning umumiy issiqlik uzatish qarshiligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz.

$R_y = R_v + R_1 + R_t = 0.115 + 0.039 + 0.542 + 0.039 + 0.043 = 0.739$ m²˚C/ Vt

Devor ichki sirtidagi xisoblangan haroratlar quyidagicha

$\tau_i = 15{,}27$ ˚C; $\tau_1 = 14.35$ ˚C; $\tau_2 = -1.56$˚C; $\tau_3 = 0.59$˚C; $\tau_4 = 4.76$˚C; $\tau_5 = 4.56$˚C; $\tau_T = 0.64$˚C;

Hisobiy va tajribada olingan natijalarni 2 – jadvalga tushiramiz. Tajribadan olingan o'lchash natijalari issiqlik himoyasi oshirilgan devordan olingan.

G'isht devor qatlamlari bo'yicha hisobiy va tajribada aniqlangan haroratlarning o'zgarishi k = 27˚C/mV

2 - jadval

Tekshirilayotgan nuqtaning joylashgan o'rni	Termo-para raqami	O'lchash natijalari			Hisoblash natijalari		
		O' rtacha elektr yurituvchi kuch E_o, mV	Harorat ˚C	λ Vt/m²˚C	R Vt/m²˚C	Ry m²˚C/Vt	Hisoblangan temperatura ˚C
Ichki havo	1	0.79	21.33	-	-	-	t_i=18.0
Ichki sirt	2	0.74	20.01	-	0.115	0.115	τ_i=15.27
Ichki sirtdan 30mm	3	0.74	19.11	0.76	0.039	0.154	τ_1=14.35
Ichki sirtdan 125mm	4	0.66	18.07	0.65	0.135	0.289	τ_2=11.14
Ichki sirtdan 220mm	5	0.63	17.03	0.65	0.135	0.424	T_3=7.95
Ichki sirtdan 315mm	6	0.57	15.6	0.65	0.135	0.559	T_4=4.76
Ichki sirtdan 410mm	7	0.55	14.9	0.65	0.135	0.694	T_5=1.56
Tashqi sirt	8	0.02	-0.5	0.76	0.039	0.733	τ_T=0.64
Tashqi havo	9	-	-3.2	-	-	-	t_T=0.5

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajribada aniqlangan g'isht devor qatlamlaridagi harorat shu qatlamlardagi hisoblangan haroratdan farq qiladi. Chunki yanvar oyida tashqi havo harorati kechalari -8, -10˚C gacha yetdi. Hisoblar uchun biz yanvar oyining o'rtacha haroratini oldik.

Ushbu tajribadan xulosa qilish mumkinki, yani ishlatilib kelinayotgan g'isht devordan iborat tashqi devor QMQ 2.01.04-18 da keitirilgan issiqlik himoyasining birinchi, ikkinchi va uchinchi darajasi talablariga javob bermaydi. Shu sababli bu konstruksiya tashqi sirtidan 5 sm qamishli plita bilan issiqlik izolyatsiya qilib, ustidan sement qumli suvoq qilinadi. G'ishtdan iborat devor namunasi tashqi sirtidan issiqlik himoyasi oshirilgan sxema quyidagi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. G'isht devorning namunasini tashqi sirtidan qamishli plita bilan issiqlik himoyasi oshirilgan konstruksiya sxemasi.

Zichligi 200kg/m³ bo'lgan qamishli plitadan iborat issiqlik izolyatsiya qatlam g'isht devorning tashqi sirtidan o'rnatilib, ustidan sement-qumli qorishma bilan suvoq qilinadi. Qamishli plitaning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti 0.07 Vt/m²°C. Qamishli plita bilan issiqlik himoyasi oshirilgan devorning umumiy issiqlik uzatish qarshiligi quyida keltirilgan:

Agar plitaning qalinligi 5sm bo'lsa Ry=1.453 m²°C/Vt;

Agar plitaning qalinligi 10sm bo'lsa Ry = 2.17 m²°C/Vt bo'lar ekan.

Demak issiqlik himoyasi qamishli plita bilan oshirilgan g'isht devorning umumiy issiqlik uzatish qarshiligi QMQ 2.01.04-18 talablarida keltirilgan issiqlik uzatish qarshiligini birinchi va ikkinchi darajalarigi javob beradi. Issiqlik himoyasi qamishli plita bilan oshirilgan g'isht devorda o'tkazilgan issiqlik-fizik tajribalar natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Bu yerda maxalliy qurilish materialidan iborat qamishli plitaning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti 0.05 Vt/m²°C teng ekan;

2. Termik issiqlik uzatish qarshiligi 1.96 m²°C/Vt ekan;

3 Issiqlik himoyasi oshirilgan bu g'isht devorning umumiy issiqlik uzatish qarshiligi Ry=2.7 m²°C/ Vt ekan. Demak, issiqlik himoyasi oshirilgan bu g'isht devorning issiqlik himoyasi QMQ 2.01.04-18 talablarini barcha darajasiga javob beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, biz tavsiya etayotgan issiqlik himoyasi tashqi tarafdan qamishli plita bilan oshirilgan g'isht devor qatlamlarida kondensat namlik ham hosil bo'lmas ekan. O'tkazilgan nazariy va amaliy issiqlik-fizik tadqiqotlar natijasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Rekonstruksiya va kapital ta'mirlash jarayonida tashqi devorni issiqlik himoyasini oshirish uchun ularni issiqlik-fizik jihatdan nazariy va amaliy sinov tajribalar natijasida asoslash lozim;

2. Issiqlik himoyasi g'isht devorni tashqi sirtidan qamishli plita bilan oshirilgan konstruksiya qatlamlarida kondensat namlik hosil bo'lmas ekan.

3. G'ish devorning tashqi sirtidan qalinligi 5sm bo'lgan qamishli plita bilan jihozlangan konstruktsiyani issiqlik ximoyasi ishlatilib qilinayotgan oddiy g'isht devorning issiqlik ximoyasidan 3.6 marta katta ekan.

Shu sabali amalda ishlatilib kelinayotgan binolarning tashqi devorini issiqlik himoyasini oshirish uchun joriy va kapital ta'mirlash jarayonida issiqlik izolyatsiyalovchi qatlamni tashqi devorni tashqi sirtidan qurilsa maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Adabiyotlar:

1. Shukurov G. 'Sh., Boboyev S.M. Arxitektura fizikasi.1-qism. Qurilish issiqlik fizikasi.-T.,Mehnat,2005y.
2. Shukurov G. 'Sh., Islomova D.F. Qurilish fizikasi. Samarqand. 2013y.
3. QMQ 2.01.04-18 Qurilish issiqlik texnikasi.T.,2018y.
4. QMQ 2.01.01-22. Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma'lumotlar. T.,2022y.
5. O'zRST 809-97 "To'siq konstruksiyalarining issiqlik uzatishga qarshiligini aniqlash" T.,1997y.
6. Egamova, M., & Matyokubov, B. (2023). Ways to increase the energy efficiency of buildings and their external barrier structures. *Eurasian Journal of Academic Research*, *3*(1 Part 1), 186-191.
7. Egamova, M., & Matyokubov, B. (2023). Improving the energy efficiency of the external walls of residential buildings being built on the basis of a new model project. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(3), 150-155.
8. Nosirova, S., & Matyokubov, B. (2023). Ways to increase the energy efficiency of external barrier constructions of buildings. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(3), 145-149.
9. Matyokubov, B. P., & Saidmuradova, S. M. (2022). Methods for investigation of thermophysical characteristics of underground external barrier structures of buildings. *RESEARCH AND EDUCATION*, *1*(5), 49-58.
10. Bolikulovich, K. M., & Pulatovich, M. B. (2022). Heat-shielding qualities and methods for assessing the heat-shielding qualities of window blocks and their junction node with walls. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(11), 829-840.
11. Inatillayevich, G. O., & Pulatovich, M. B. Analysis of Underground Projects of Energy Efficient Low-Rise Residential Buildings Built on Highly Flooded Soilshttps. *doi. org/10.31149/ijie. v4i9*, *2156*.
12. Pulatovich, M. B., & Muzaffarovna, S. S. (2022). Methods for investigation of thermophysical characteristics of underground external barrier structures of buildings. *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 5 AUGUST 2022*, 202259.
13. Bolikulovich, K.M., Gayratovna, D.I. (2025) insulation of external walls of the building with modern materials: modern technologies and trends. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23 American Academic publishers, volume 05, issue 03

УДК 624.044

BINO VA INSHOOTLARNING SHIKASTLANISH DARAJASINI ANIQLASH MEZONLARI

Aliyev Mashrab Rahmonqulovich, dotsent
Azimov Axmadjon Nemat o'g'li, magistratura talabasi
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz hududining o'ziga xos kontinental iqlimi, geologik, gidrogeologik sharoitlari, zilzilaviy ko'rsatkichlari ta'sirida bino konstruksiyasining tabiiy va texnogen faktorlar ostida yemirilishi sabablari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bino, inshoot, jismoniy yemirilish, tabiiy faktorlar, texnogen faktorlar, shikastlanish, nuqson.

Аннотация: В статье раскрываются причины обрушения строительных конструкций под воздействием природных и техногенных факторов под воздействием уникального континентального климата, геологических, гидрогеологических условий, сейсмических показателей территории нашей республики.

Ключевые слова: здание, сооружение, физическое разрушение, природные факторы, техногенные факторы, повреждение, дефект.

So'nggi yillarda respublikamizda qurilish sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilib, shahar va qishloqlarimizda juda ko'plab davlat ahamiyatidagi bino va inshootlar qurildi.

Shu bilan birga, mavjud bino va inshootlarning ekspluatatsion yaroqlilik holatini aniqlash, bunda fan va texnikaning yutuqlaridan foydalangan holda bu masalaga yondoshish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz hududining o'ziga xos kontinental iqlimi, geologik, gidrogeologik sharoitlari, hududlarimizning zilzilaviy ko'rsatkichlari, bino konstruksiyasining tabiiy va texnogen faktorlar ostida yemirilib, dastlabki sifatlarini vaqt o'tishi bilan pasayib borishi, ularning texnik holatini doimiy ravishda nazoratda bo'lishini taqozo etadi.

Fan-texnika taraqqiyoti bino va inshootlarning real texnik holatini aniqlashda tekshirishning ilg'or usullarni qo'llash, zamonaviy diagnostik asboblardan foydalanishni taqozo qiladi. Mavjud ekspluatatsiyadagi bino va inshootlar ishonchliligi va umrboqiyligi ko'p jihatdan ularda o'tkaziladigan rejaviy joriy va kapital ta'mirlash ishlariga bog'liq bo'ladi. Sir emas, hozirgi kunda mavjud turarjoy, jamoat, sanoat va boshqa bino va inshootlarning aksariyat qismi xuddi shunday ta'mirlash ishlariga muhtoj. Mazkur binolarning ko'pgina konstruktiv elementlari allaqachon o'zining me'yoriy xizmat davrini o'tab bo'lgan. Turli tabiiy va antropogen ta'sirlar ostida bunday binolarda konstruktiv elementlarning shikastlanishga moyilligi ortib boraveradi.

Xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi ob'ektlarda, ayniqsa, katta shaharlarda tabiiy va texnogen ta'sirlar natijasida talofatni mumkin qadar kamaytirish, seysmik nuqtai nazardan aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida bugungi kunda bino va inshootlarda monitoring tizimini, ularda deformatsiya va boshqa o'zgarishlarni doimiy nazorat qilishni joriy qilish payti keldi. Bundan tashqari, bino va inshootlarning real texnik holatini tadqiq qilish, konstruktiv elementlardagi yemirilish darajalarini, ularning qoldiq xizmat davrlarini aniqlash – so'nggi yillarda respublikamizda shakllangan ko'chmas mulkni iqtisodiy baholashda, texnik, iqtisodiy va huquqiy masalalarni yechimida ham muhim ahamiyatga egadir.

Bino va inshootlarning barcha konstruksiyalari tegishli aniqlik va sifat darajasida ishlanadi hamda montaj qilinadi. Konstruksiyalar o'lchami, shakli, sifati va boshqa ko'rsatkichlari qurilish me'yorlari va qoidalari tomonidan belgilangan miqdorlardan og'ishi holatlari uning nuqsoni (defekti) deyiladi.

Bino va inshootlardan foydalanish jarayonida konstruksiyalar, ularning elementlari va birikish joylarida yuzaga keladigan dastlabki loyihaviy o'lcham va shakllardan og'ish hollari, salbiy ta'sirlar natijasida nuqsonlar paydo bo'lishi uning shikastlanishi deyiladi. Binoning buzilishi va qulab tushishiga olib keladigan yirik shikastlar avariya deyiladi.

Konstruksiyalar shikastlanish darajasini baholash qurilish me'yorlari va qoyidalari tomonidan u yoki bu nuqsonlarning ruhsat etilgan miqdoriga qarab belgilanadi. Yuzaga kelgan og'ishlar va nuqsonlar ruhsat chiqishi, yuk ko'tarish qobiliyati va turg'unligini yo'qotishi mumkin.

Shikastlar va nuqsonlar odatda ikki toifaga bo'linadi:

Materiallar mustahkamligi, konstruksiyalar turg'unligi va yuk ko'tarish qobiliyatini pasayishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan ko'zga ko'rinadigan va ko'rinmaydigan shikast va nuqsonlar.

Binoning butunligi va turg'unligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydigan, ammo vaqt o'tishi bilan konstruksiyalarning yuk ko'tarish qobiliyatini pasaishi va yemirilishiga sabab bo'ladigan ko'rinmas, kichkina shikast va nuqsonlar.

Birinchi toifadagi shikast va nuqsonlarga quyidagilar kiradi:

- temirbeton, g'isht va metall konstruksiyalardagi yoriqlar;
- konstruksiyalarni loyihaviy o'qlardan og'ishi;
- temirbeton va metall konstruksiyalarning korroziyasi, g'isht konstruksiyalarning yemirilishi hamda yog'och konstruksiyalarning chirishiga olib keladigan tom yopmalardagi chakka o'tishlar;
- bino ekspluatatsiyasi mobaynida metall, temirbeton konstruksiyalarning ayrim qismlari va elementlarini o'zboshimchalik bilan qirqib olinishi va olib tashlanishi;

- zamin va poydevorlar holatiga ta’sir etadigan yer osti suvlarining ko‘tarilishi yoki pasayishi;
- metall konstruksiyalarning deformatsiyasi;
- g‘isht devorlarning muhit ta’sirida eroziyasi;
- konstruksiyalarda sifatsiz bajarilgan payvand hamda boltli yoki parchin mixli birikmalar va boshqalar.

Ikkinchi toifadagi shikastlanish va nuqsonlarga quyidagilar kiradi:
- temirbeton konstruksiyalarning sirtlaridagi g‘ovakliklar va chuqurchalar;
- temirbeton konstruksiyalarida himoya qatlamining yupqaligi va armaturaning qisman ochilib qolishi;
- betondagi ko‘rinmas va kichik parchalangan va singan joylar;
- devorlarda suvoq qatlamlarining ko‘chishi;
- zararsiz mexanik shikastlar va boshqalar.

Bino va inshootlardan foydalanish davomida paydo bo‘ladigan shikastlanish va nuqsonlar asta sekin yig‘ilib boradi va havfli darajada ko‘payadi. Natijada bino, inshoot va uning konstruksiyalari yemirilib, yuk ko‘tarish qobiliyati, turg‘unligi va ekspluatatsion sifatlari pasaya borib umuman ishdan chiqishi mumkin. Bunday holatlar o‘z vaqtida aniqlanmasa va tegishli choralar ko‘rilmasa konstruksiyalar me’yoriy vaqtdan ilgari ishdan chiqishi mumkin.

Bino qurilib, foydalanishga topshirilgandan keyingi bosqichda bino va uning konstruktiv elementlarida paydo bo‘ladigan defektlarni ekspluatatsion defektlar (nuqsonlar) deyish mumkin. Ekspluatatsion defektlar mexanik yoki jismoniy yemirilish natijasida paydo bo‘ladi.

Mexanik eskirish deganda konstruksiyaning kuchlanish-deformatsiyalanish holati natijasida yuzaga keladigan barcha defekt va deformatsiyalar tushuniladi.

Jismoniy eskirish deganda esa asosan materialning fizik-kimyoviy ta’sirlar yoki korroziya natijasida yuzaga keladigan defektlar tushuniladi.

Demak, mexanik eskirish konstruksiyada ichki zo‘riqishlarning ortib ketishi natijasida paydo bo‘ladigan eskirish; jismoniy eskirish esa vaqt omiliga bog‘liq bo‘lgan, materialning tabiiy ta’sirlar natijasida eskirishi tushuniladi. Lekin konstruksiyada paydo bo‘ladigan defektlar ikkala jarayonning mahsuli bo‘lishi ham mumkin. Misol uchun, yillar davomida mustahkamligini yo‘qotgan yuk ko‘taruvchi konstruktiv elementga to‘satdan ta’sir qilgan zilzila kuchi yoki boshqa biror ta’sir natijasida avariya holatiga tushishi mumkin.

Mexanik tarzda eskirish natijasida paydo bo‘ladigan defektlarga quyidagilar kiradi:
- yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarning poydevorlari va yerto‘la devorlaridagi yoriqlar;
- poydevor elementlarining cho‘kishi va gorizontal siljishi;
- devorlarda choklarning ochilishi;
- to‘sin va sarbastalar o‘rnatilgan joylarda devorning buzilishi.

Jismoniy eskirish natijasida paydo bo‘ladigan defektlarga quyidagilar kiradi:
- beton va temirbeton elementlarda tashqi qatlamning eskirishi;
- armatura va metall elementlarning korroziya natijasida eskirishi;
- devor choklaridagi qorishmaning eroziyasi;
- g‘isht devorning buzilishi.

Bundan tashqari, binolarda loyiha ishlaridagi kamchiliklar, yo‘l quyilgan nuqsonlar, loyiha oldi bosqichida bajarilgan injenerlik-qidiruv ishlarining sifatsiz bajarilishi, qurilish-montaj ishlarida loyiha talablaridan chetlashish holatlari, qolaversa ekspluatatsiya talablarining qo‘pol buzilishi natijasida bino va inshoot konstruksiyalarida paydo bo‘ladigan shikastlanish va deformatsiya holatlari mazkur obyektlarning barvaqt ishdan chiqishiga olib keladi. Bunga ekspluatatsiyaning uzoq muddatli jarayonida yuzaga keladigan turli tabiiy va texnogen xususiyatdagi omillar ta’sirida ham bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Nizomov Sh.R. Xotamov A.T. Bino va inshootlarni texnik holatini baholash. Darslik, T., 2015
2. Xodjayev A.A., Xotamov A., Yusufxo‘jayev S.A., To‘laganov B.A. Konstruksiyalarining shikastlanish sabablari va buzilish oqibatlarini aniqlash. O‘quv qo‘llanma. T., 2014-136 b.
3. QMQ 2.01.16- 97 “Turar joy binolarining jismoniy yemirilishi baholash qoidalari” DAQQ,T., 1997
4. Aliyev M.R. Bino va inshootlarni texnik holatini baholash. Darslik. Jizzax 2020.

YOG’OCHDAN TAYYORLANGAN KONSTRUKTSIYALARINING TASHQI SIRTINI OLOVGA BARDOSHLI QOPLAMALARGA EGA VA EGA BO’LMAGAN NAMUNALARINING XUSUSIYATLARINI O’RGANISH

Sarimsoqov Sardor Shoyzaqovich
Ubaydulloyev Abdulbase Suvonqulovich
Abdujalilov Xusniddin Baxodir o’g’li Bino va inshootlar qurilishi talabasi
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada yog’ochdan tayyorlangan qurilish konstruktsiyalariga yong’indan himoya qoplamalari bilan ishlov berish orqali muhofazalash bugungi kunning dolzarb muammolari yoritilgan. Olov va issiqdan himoyalash bo’yicha birinchi darajali bino va inshootlarining yog’ochdan tayyorlangan tashqi to’siq konstruktsiyalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlari: himoya qoplamalari, olov va issiqdan himoyalash, to'siq konstruktsiyalari, qarshilikning me'yoriy qiymatlari.

Аннотация: В статье освещены актуальные проблемы защиты деревянных конструкций путем их обработки огнезащитными покрытиями. Представлены сведения о деревянных наружных ограждающих конструкциях зданий и сооружений первого уровня пожаро- и теплозащиты.

Ключевые слова: защитные покрытия, огне- и теплозащита, барьерные конструкции, нормативные значения стойкости.

Yog'ochdan tayyorlangan qurilish konstruktsiyalariga yong'indan himoya qoplamalari bilan ishlov berish orqali muhofazalash bugungi kunning dolzarb muammolardan biridir. Olov va issiqdan himoyalash bo'yicha birinchi darajali bino va inshootlarining yog'ochdan tayyorlangan tashqi to'siq konstruktsiyalariga minimal sanitariya-gigiyena talablari qo'yilgan.

Bunday binolar tashqi to'siq konstruktsiyalari uchun belgilangan issiqlik uzatishga qarshilikning me'yoriy qiymatlari yog'och konstruktsiyalarning issiqlik inertsiyasini hisobga olgan holda quyidagi funksiya ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$R_0^{Tp} = \frac{(t_B - t_H)n}{\Delta t^H \alpha_B}, \qquad (1)$$

bu yerda: t_B - yog'och materiali namunasining hisobiy harorat °C, xona tasnifiga bog'liq holda yog'ochli konstruktsiyalarning termikbardoshligi; t_H - yog'och namunasining hisobiy xarorati, (°C), yog'och konstruktsiyaning issiqlik inertsiyasi D ning qiymatiga bog'liq holda qabul qilinadi; $\Delta t^H = t_B - \tau_H$ -yog'ochli konstruktsiyalari sirtining haroratlari orasidagi farqi, (°C); α_B - yog'och materialining issiqlikka bardosh berish koeffitsiyenti,(Vt/m²°C), n- yog'ochlikonstruktsiyalarning termikbardoshligini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Yog'ochdan tayyorlangan konstruksiya uchun quyidagi formula yordamida aniqlangan issiqlik va termik ta'sirga qarshilikning qiymati R_0 yuqorida aniqlangan R_0^{Tp} qiymat bilan taqqoslash lozim. Agar $R_0 \geq R_0^{Tp}$ shart bajarilsa, yog'ochga berilgan termik va issiqlik ta'siriga himoyalangan hisoblanadi. Bu natijalarning ilmiy asoslari quyidagi formulalarda keltirilgan.

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_B} + \sum \frac{\delta_i}{\lambda_i} + \frac{1}{\alpha_H}, \qquad (2)$$

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_B} + R_K^{Пр} + \frac{1}{\alpha_H}, \qquad (3)$$

bu yerda: δ_i - himoya qatlamlarning qalinligi; λ_i - shu qatlamning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, (Vt/m²°C); α_H - yog'ochning tashqi sirti uchun issiqlik berish koeffitsiyenti, (Vt/m²°C); $R_K^{Пр}$ - yog'och konstruksiyasining keltirilgan termik qarshiligi, (Vt/m²°C). Yog'ochli konstruksiyalarning termik va issiqlik ta'siriga qarshiligini qanchaga oshirish kerakligini aniqlash uchun, uning issiqlik uzatishga umumiy qarshiligining haqiqiy qiymati $R_0^{ф}$ ni aniqlash lozim.

$$R_0^{ф} = \frac{t_B - t_H}{(t_B - \tau_H)\alpha_B}, \qquad (4)$$

bu yerda: t_B - sinalayotgan yog'och namunasining termik ta'sirdagi o'rtacha temperaturasi, °C; t_H - yog'och namunasining o'lchashlar davridagi o'rtacha temperaturasi, °C; τ_B - yog'och namunasi sirtining o'lchashlar davridagi o'rtacha xarorati, °C; α_B yog'och namunasiga issiqlik berish koeffitsiyenti, (m²°C/Vt). Yog'och konstruksiyalarning termik va issiqlik ta'siriga qarshiligini qanchaga oshirish kerakligini aniqlash uchun uning issiqlik uzatishga umumiy qarshiligining haqiqiy qiymati $R_0^{ф}$ haqida ma'lumot kerak bo'ladi.

$$R_0^{ф} = \frac{t_B - t_H}{q_{ф}}, \qquad (5)$$

bu yerda: t_B -xona ichki havosining o'lchashlar davridagi o'rtacha xarorati °C; t_H -tashqi havoning o'lchashlar davridagi o'rtacha xarorati,°C; $q_{ф}$ - hisobiy davr uchun o'lchangan issiqlik oqimining o'rtacha zichligi, Vt/m²; uning qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$q_{ф} = q\frac{\tau_H - \tau_B}{\tau_H - \tau_{B.П}}, \qquad (6)$$

bu yerda: q - issiqlik oqimini o'lchashlarning hisobiy davri bo'yicha o'rtacha haqiqiy zichligi, Vt/m²; τ_H - yog'och konstruksiyasi tashqi sirtining o'lchashlar davridagi o'rtacha harorati, °C; τ_B va $\tau_{B.П}$ - yog'ochdan tayyorlangan konstruksiya ichki sirtining teplomer yaqinidagi va bevosita uning tagidagi xarorati. Qo'shimcha issiqlik uzatishga qarshiligi qiymati quyidagicha:

$$\Delta R_{Доп} = R_0^{Tp} - R_0^{ф}, \qquad (7)$$

Energiya tejamkorlikni ta'minlash qo'shimcha o'rnatiladigan issiqlik izolyatsiyasi qatlamining qalinligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\delta = \Delta R_{Доп}\lambda, \text{(m)} \quad (8)$$

bu yerda: λ- qo'shimcha issiqlik izolyatsiyasi sifatida qo'llaniladigan materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, (m^2°C/Vt) uning qiymati xonaning namlik rejimiga bog'liq holda aniqlanadigan ekspluatatsiya sharoiti – *A* yoki *B* ga muvofiq ravishda qabul qilinadi. Yog'ochdan tayyorlangan konstruksiyalarning issiqlik ta'siriga qarshiligi R_0 quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_B} + R_K + \frac{1}{\alpha_H} \quad (9)$$

bu yerda: α_B - yog'ochdan tayyorlangan konstruksiyasi ichki sirtining issiqlikga bardoshlilik koeffitsiyenti, α_H - yog'och konstruktsiyasi tashqi sirtining issiqlikka bardosh berish koeffitsiyenti, R_K - yog'och konstruksiyasining termik qarshiligi, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_K = \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + ... + \frac{\delta_n}{\lambda_n} \quad (10)$$

bu yerda:δ_1, δ_2, … δ_n- alohida qatlamlarning qalinligi, m; λ_1, λ_2, …λ_n - shu qatlamlar materiallarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/(m^0C).demak. Ishlab chiqilgan olovbardosh qoplamalar davlat standartining talablariga binoan yog'och materiallarining G_4 (tez yonuvchan) guruhidan G_1(sust yonuvchan) guruhiga o'tkazishga yordam berdi.

Yuqori dispersli vollastonit minerallari asosida yog'och asosli qurilish materiallarini qiyin yonuvchan guruhga o'tishini ta'minlovchi hamda tutun hosil qilish darajasini kamaytiruvchi, shuningdek material yuzasida olovning tarqalishini oldini oluvchi lak-bo'yoq materiallarining yangi tarkiblari ishlab chiqildi.

Adabiyotlar

1. Armaturalangan ikki qiyali yog 'och to 'sinni loyihalash. S.S Sarimsoqov - Science and Education, 2022
2. Особенности наречий в русском языке S Sarimsoqov - Актуальное в филологии, 2021
3. Экспериментальные исследования динамических параметров висячих систем Н.А Асатов, С.Ш Саримсоков - Eurasian Journal of Academic Research, 2022
4. Asatov N., Tillayev M., Raxmonov N. Parameters of heat treatment increased concrete strength at its watertightness // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2019. – T. 97. – C. 02021.
5. Navruzbek Ergashevich Rahmonov Energiya samarador uylar qurilishini qishloq sharoitida ommalashtirish istiqbollari. Science and Education 2022 169-174
6. Binolarning energiya samaraliligini artirishga innovatsion yondosilishining mahalliy istiqbotlarini oshirish. N.E.Rahmonov, B.J.Abduraximov - Ekonomi va sotsium, 2024 y
7. Zamonaviy shaharsozlikda quyoshli shaharlar qurishini joriy etishning jahon tajribalari N.E Rahmonov, MU Shodiqulova – 2024

YOG'OCH UCHUN MO'LJALLANGAN QOPLAMALARNING YONG'INDAN HIMOYALASH SAMARADORLIGINI ANIQLASH METODI

Sarimsoqov Sardor Shoyzaqovich
Ubaydulloyev Abdulbase Suvonqulovich
Abdujalilov Xusniddin Baxodir o'g'li Bino va inshootlar qurilishi talabasi
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Maqolada metodning mohiyati sinalayotgan qoplamani yog'och namunasi yuzasiga surtib namunaga ishlov berib, uni olov bilan sinab, yog'och namunasi qancha miqdorda o'z massasini yo'qotganligini aniqlanib qo'shimcha ma'lumotlar keltirlgan.

Kalit so'zlari: sinalayotgan qoplama, termobug', qavariqlanish koeffitsientini, optik zichligi, qatlamning korroziyaga chidamliligi.

Аннотация: В статье излагается суть метода: нанесение испытуемого покрытия на поверхность образца древесины, обработка образца, испытание его огнем и определение потери массы образца древесины, что дает дополнительную информацию.

Ключевые слова: Испытываемое покрытие, теплопроводность, коэффициент кривизны, оптическая плотность и коррозионная стойкость слоя.

Metodning mohiyati sinalayotgan qoplamani yog'och namunasi yuzasiga surtib namunaga ishlov berib, uni olov bilan sinab, yog'och namunasi qancha miqdorda o'z massasini yo'qotganligini aniqlash. Sinovni o'tkazish jarayonida gaz gorelkasining alangasi bilan ikki daqiqa mobaynida namunaga ta'sir ko'rsatish va uni keramik qutida xonadagi haroratgacha sovutish bilan bog'liq. Gazni sarf qilish shunga bog'liqki, termobug' tomonidan qayd etiladigan harorat sinovdan 5 daqiqa avval (200±5)°Sga teng bo'lishi kerak. Quyidagi tengsizliklar olingan namunalar uchun qo'llanilgan.

$$[R_{sr} - R_i] \le 3 \text{ shunda } R_{sr} \le 9; \quad (1)$$

$$[R_{sr} - P_i] < 5 \text{ shunda } 9 < R_{sr} < 25, \quad (2)$$

bu yerda: R_{sr} – sinalgan namunalarning massasini yo'qotilishining o'rta arifmetik miqdori foizlarda, foizli P_i – sinovdan o'tkazilgan namunalar ichidagi yagona namunaning massasini yo'qotilishiga oid miqdori, shundan keyin yangi namunalar yondirilib, qayta ularning o'rta

arifmetik miqdori aniqlangan. Sinovlarning natijalari bo'yicha tarkibni yoki moddani yong'indan himoyalash qoplamasining samaradorligi quyidagi jadval bo'yicha baholangan:

Sinov natijalari bo'yicha namuna(qoplama)ning yong'indan himoyalashning guruhiy samaradorligini ko'rsatish

1-jadval

Massaning yo'qotilishi, foiz (%)	**Yong'indan himoyalashning guruhiy samaradorligi Gruppa ognezahitnoy**
9 dan oshmagan	I
9dan ortiq, ammo 25dan kam	II
25 dan ortiq	Yog'ochni olovdan himoyasini ta'minlashga ega emas

Yong'indan himoyalovchi qoplamaning qavariqlanish koeffitsientini tekshirish metodi. Qavariqlanish koeffitsienti 100x100mm o'lchamdagi metalldan ishlangan plastinaga qalinligi 1mm ga teng qoplamani surtib, unga termik ta'sir qilib, qoplamaning qavariqlanish darajasi aniqlanadi. Qavariqlanish jarayoni termoshkafda o'tkaziladi va namuna shkafda 5 daqiqa mobaynida unga nisbatan 600°C harorat ta'sir qiladi. Qavariqlanish koeffitsienti K_q qoplamaning qavariq bo'lgan qalinlik miqdorini h ni dastlabki sinovdan oldin bo'lgan qalinlik miqdoriga h_0 bo'lish asosida tegishli nisbat aniqlanadi va u aynan qavariqlanish koeffitsientini ifoda qiladi, quyidagicha ifodalanadi:

$$K_q = h / h_0 \quad (3)$$

Qavariqlanish koeffitsienti qiymati kamida uchta sinovlar o'tkazilishi asosida ularning o'rta arifmetik ko'rsatkichini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Materiallarning yonuvchanlik darajasini eksperimental yo'l bilan aniqlash metodi. Yonuvchanlikni eksperimental yo'l bilan aniqlash metodining mohiyati shundan iboratki, yonishga qulay harorat sharoitlarini yaratib berilishi orqali, aynan shu sharoitlarda tadqiq etilayotgan tegishli narsa va materiallar o'zini qanday tutishi baholanadi.

Materialni yonmas guruhga mansubligi quyidagi sharoitlarga rioya qilinishi orqali belgilanadi:

- harorat (harorat)ning pechda, namunaning yuzasida va uning ichida bo'lgan o'rta arifmetik o'zgarishi 50°Cdan oshmagan bo'lsa;

- beshta namuna uchun ularning sinov paytida massasini yo'qotilishining o'rta arifmetik ko'rsatkichi sinovdan avvalgi massasidan kichrayganlik jihatidan o'rtacha 50% dan oshmaganligi aniqlansa;

- beshta namunaning barqaror yonishini o'rta arifmetik miqdori 10 soniyadan oshmagan bo'lsa. Agar beshta namunaning barqaror yonishining o'rta arifmetik miqdori 10 soniyadan kam bo'lsa u holda sinov natijalari bo'yicha barqaror yonishning o'rta arifmetik miqdori nolga teng qilib olinadi .

Qiyin yonuvchan va yonadigan qattiq modda va materiallarning guruhiy mansubligini eksperimental yo'l bilan aniqlash metodi. Mazkur metod o'zining tarkibida 3% massasasida organik moddalar bor bo'lgan nometal materiallarning yonish darajasini baholashda qo'llaniladi. Agar materiallarning bir tarafi yong'indan himoyalovchi yoki yonmas qoplamaga ega bo'lsa, bunday materiallarning sinovida ushbu metod qo'llanilmaydi. Qurilish materiallari uchun guruhiy yonuvchanlik darajasini va uni qaysi bir guruhga mansubligi to'g'risidagi xulosa sinovlarning natijalari asosida beriladi.

Haroratning maksimal tarzda o'sib borishining miqdori Δt_{max} va massaning yo'qotilishi Δm bo'yicha materiallar quyidagicha tasniflanadi:

Qiyin yonadigan materiallar - Δt_{max} <60°Cva Δm < 60%;

Yonuvchan materiallar - Δt_{max} ≥60°C yoki Δm ≥60%.

Yonuvchan materiallar vaqtga qarab (τ) yonish haroratiga etganligi t_{max} jihatidan:

qiyin alanga oladigan - τ > 4 daq;

o'rta darajada alanga oladigan - 0,5≤ τ ≤4 daq;

Yengil darajada alanga oladigan - τ < 0,5 daq. materiallarga taqsimlanadilar. Yonmas qoplamalar bilan shimdirilgan yoki namunalarga yong'indan himoyalovchi qoplamalarga ega materiallarni tasniflashda faqatgina Δt_{max} ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Qattiq modda va materiallarning tutun hosil qilish koeffitsiyentini eksperimental yo'l bilan aniqlash metodi. Tutun hosil qilish koeffitsiyenti – maxsus sharoitlarda qattiq modda(material)ning ma'lum miqdorining alangali yonishida yoki termik oksidlanish destruktsiyasini namoyon qiluvchi ko'rsatkich bo'lib, buning natijasida yuzaga keluvchi tutunning optik zichligini ta'riflaydi. Ushbu metodning mohiyati tegishli hajmda taqsimlangan sinalayotgan modda yoki materialning ma'lum miqdorini alanga olishida yoki destruktsiyasi asosida tutun hosil qilish koeffitsiyentini tutunning optik zichligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Tutun hosil qilish koeffitsiyentining qiymatini materiallarni tutab yonish qobiliyatiga qarab ularni tasniflashda qo'llash taqozo etiladi. Bu borada uchta guruh materiallar farqlanadi:

- kichik darajada tutun hosil qilish qobiliyati – tutab yonish koeffitsiyenti 50 $m^2 \cdot kg^{-1}$ gacha;

- o'rtacha darajada tutun hosil qilish qobiliyati – tutab yonish koeffitsiyenti 50 dan 500 $m^2 \cdot kg^{-1}$ gacha;

- yuqori darajada tutun hosil qilish qobiliyati – tutab yonish koeffitsiyenti 500 $m^2 \cdot kg^{-1}$dan ortiq.

Adgeziyani aniqlash metodlari. Kataksimon kesmalarni hosil qilish metodi.Metodning mohiyati tayyor lok-buyoq qoplama ustiga kataksimon kesmalarni uyushtirib va qoplamaning to'rt ballik tizimi bo'yicha uning holatini ko'z bilan qarab, uning holatiga baho berishdan iborat.

Adgeziyani qatlamlab ko'chirish asosida uni aniqlash metodi. Qatlamlab ko'chirish metodi qayishqoq ustki asosni shisha tolasidan va qog'oz yuzaligidan ko'chirib olishda buning uchun qanday kuch bilan mazkur maqsadga etishish darajasi o'lchanadi. O'zgacha aytganda qatlamni ko'chirishda ishlatiladigan kuchning miqdori o'lchanadi.

Lok-buyoq materialning qurib qolish vaqti va darajasini aniqlash metodikasi. Sinov lok-bo'yoq materialining qurib qolish vaqtini aniqlab, talab etiladigan qurib qolish darajasigacha qancha darajada etganligi bilan bog'liqdir.

Yong'indan himoyalovchi qoplamalarni berilgan zarbaga nisbatan mustahkamlik darajasini aniqlash metodi. Ma'lum vaznga ega bo'lgan og'ir jism maksimal balandlikdan pastga qarab tashlanadi va uning yerga borib tushishi (zarba berilishi)da sinovdan o'tayotgan va plastinaga surtilgan qoplama yuzasida ko'zga ko'rinadigan mexanik shikastlarga ega emasligiga ishonch hosil qilinadi. Balandlikdan tashlanayotgan jism ma'lum massaga ega bo'lishi kerak va u yuza bilan to'qnash kelganida undagi qoplamaning naqadar shikastlanganligi yoki shikatlanmaganligi aniqlanadi.

Qoplamalarning mustahkamlik darajasini zarba asosida sinashda quyidagi o'lchov asboblari qo'llanildi: U-1A tipidagi uskuna; sovuq po'latdan tashkil topgan plastinkalar markasi 08 kp GOST 9045-80 bo'yicha tayyorlangan, qalinligi 0,8-1,0 mm, o'lchami 50x100 mm; MR-25 rusumli mikrometr, GOST 4381-80 bo'yicha qoplamaning qalinligini o'lchash uchun va uni o'lchamlarini 4 marotaba kattalashtiruvchi GOST 7594-75 bilan belgilangan lupa.

O'zgaruvchan haroratlarning ta'siriga nisbatan barqarorlikni aniqlash metodikasi. Ushbu metod metallar yuzasiga surtilgan lok-bo'yok materiallar uchun qo'llaniladi. Metodning mazmuni lok-bo'yoq qatlamiga navbatma-navbat yuqori darajali va past darajali haroratlarning ta'sir ko'rsatilishi natijasida qoplamaning dekorativ va himoyalovchi xususiyatlarini naqadar o'zgarganligini kontroldagi namuna bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi .

Yong'indan himoya qiluvchi qoplamaning ekspluatatsiya muddatini aniqlash metodikasi (poydevor yuzaligi yog'och va metall). Qoplamani sun'iy qarishi bilan bog'liq sinovning o'tganligi shu bilan ta'riflanadiki, agarda sinov bosqichlari jarayonida qoplama qatlam yuzasi buzilmagan, qatlamlari ajrab chiqmagan va darz ketmagan bo'lsa, u holda qatlam sinovdan o'tgan deb hisoblanadi. Namunalar o'zining yong'indan himoyalash xususiyatlari bo'yicha qo'yilgan talablarga javob berishi aniqlanadi.

Suyuqliklarning statik ta'sir ko'rsatishiga bardoshligini sinash metodi. Metodning mazmuni shundan iboratki, lok-bo'yoq qatlamni belgilangan muddat ichida suvga tushirib, ma'lum muddat o'tgandan keyin undagi tashqi ko'rinishini va qatlamning korroziyaga oid xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar

8.Armaturalangan ikki qiyali yog ‘och to ‘sinni loyihalash. Armaturalangan ikki qiyali yog ‘och to ‘sinni loyihalash. S.S Sarimsoqov - Science and Education, 2022

9.Особенности наречий в русском языке S Sarimsoqov - Актуальное в филологии, 2021

10. Экспериментальные исследования динамических параметров висячих систем Н.А Асатов, С.Ш Саримсоков - Eurasian Journal of Academic Research, 2022

11. Asatov N., Tillayev M., Raxmonov N. Parameters of heat treatment increased concrete strength at its watertightness // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2019. – T. 97. – C. 02021.

12. Navruzbek Ergashevich Rahmonov Energiya samarador uylar qurilishini qishloq sharoitida ommalashtirish istiqbollari. Science and Education 2022 169-174

13. Binolarning energiya samaraliligini artirishga innovatsion yondosilishining mahalliy istiqbotlarini oshirish. N.E.Rahmonov, B.J.Abduraximov - Ekonomi va sotsium, 2024 y

14. Zamonaviy shaharsozlikda quyoshli shaharlar qurishini joriy etishning jahon tajribalari N.E Rahmonov, MU Shodiqulova – 2024

SAMARQAND SHAHRI SANOAT BINOLARI ARXITEKTURASINING TARIXIY SHAKLLANISHIDA QURILISH MATERIALLARI VA ASHYOLARINING AHAMIYATI

Maksimov Furkat Sulaymanovich
SamDAQU Arxitektura fakulteti, Arxitektura kafedrasi oqituvchisi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand shahri sanoat binolarining vujudga kelishida, rivojlanishida hamda sanoat bino va insootlari arxitekturasining tarixiy va zamonaviy qurilishlarida qo‘llanilgan o‘ziga mos va o‘ziga xos qurilish materiallarining hususiyatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon qilingan. Shu bilan birgalikda ba’zi sanoat zavodlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sement, tikuvchilik, oziq-ovqat, yog‘ zavodi, kimyo, interyer, eksteriyer, avtomobil, avtobus, industrial, tarmoq.

Аннотация: В данной статье представлены размышления о роли промышленных зданий в городе Самарканд, их формировании и развитии, а также об особенностях строительных материалов, применённых в исторических и современных промышленных зданиях и сооружениях. Наряду с этим приведены сведения о некоторых промышленных заводах.

Ключевые слова: цемент, швейная промышленность, пищевая промышленность, маслозавод, химия, интерьер, экстерьер, автомобиль, автобус, индустриальный, отрасль.

Abstract: This article presents reflections on the formation and development of industrial buildings in the city of Samarkand, as well as the characteristics of unique construction materials used in both historical and modern industrial architecture. Additionally, information about several industrial factories is provided.

Keywords: cement, textile industry, food industry, oil plant, chemistry, interior, exterior, automobile, bus, industrial, sector.

Kirish. Samarqand shahri o‘zining ulug‘ tarixiy merosi, badiiy qarashlari va arxitekturasi bilan mashhur shaharlardan biridir. Shahardagi sanoat binolari arxitekturasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir qator o‘zgarishlari va yangi qurilish materiallari o‘ziga mos va o‘ziga xos tarixiy davrlardan o‘tgan.

Samarqand sanoat arxitekturasining tarixiy rivojlanishi: Samarqandning sanoat qurilishlari, asosan, 20-asrda industrializatsiya jarayonlari bilan bog‘liq. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida boshqa shaharlar kabi, Samarqandda ham sanoat qurilishlari bunyod etilganida, ularda yangi qurilish usullari va materiallarining ko‘payishi kuzatildi. Ushbu qurilishlar ko‘pincha shaharning yangi hududlarida, industrial zonalarda yaratilgan bo‘lib, arxitekturaning yangi yo‘nalishlariga asoslangan. Samarqand shahrida sanoat binolarining bir nechta muhim obyektlari mavjud. Ularning ba’zilari tarixiy, boshqalari esa zamonaviy sanoat infratuzilmasiga tegishli. Samarqandda sanoat tarmog‘i asosan tikuvchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish, qurilish materiallari va kimyo sanoatiga yo‘naltirilgan.

Samarqanddagi ba’zi asosiy sanoat binolariga misol qilib, **Samarqand sement zavodi** – Bu zavod Samarqand viloyatida sement ishlab chiqaradi va shaharning yirik sanoat obyektlaridan biri hisoblanadi. **Samarqand to‘qimachilik kombinati** – Samarqandda joylashgan yirik to‘qimachilik sanoati binosi, bu yerda paxta, mato va boshqa turdagi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqariladi. **Samarqand yog‘ zavodi** – oziq-ovqat sanoatining bir qismi sifatida ishlaydi, asosan o‘simlik yog‘lari ishlab chiqaradi. **Samarqand avtobus zavodi** – bu zavod avtobus va boshqa transport vositalarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. **Samarqand avtomobil zavodi** – Asosan avtomobillar va ularning ehtiyot qismlarini ishlab chiqaradigan sanoat obyekti hisoblanadi. Shuningdek, Samarqand shahrida yirik savdo va sanoat majmualari ham faoliyat yuritadi.

Samarqanddagi sanoat binolari arxitekturasining o‘zgarishiga bir qator qurilish materiallari ta’sir ko‘rsatgan. 19-asr oxiri va 20-asrning boshlarida, turli zamonaviy qurilish materiallari, masalan, beton, metall va stekloga ehtiyoj ortib boradi va industrial qurilishlarda beton ko‘p ishlatila boshlandi. Bu materialning afzalligi uning mustaxkamligi va tez qurilishida edi. Samarqandda ko‘p binolar, xususan sanoat obyektlari betondan qurilgan. 20-asrda metall konstruksiyalar juda ko‘plab zavodlar, omborlar va boshqa sanoat binolarini qurishda muhim o‘rin tutadi. Metall konstruksiyalar binolarning barqarorligini ta’minlash bilan birga, ularning tez qurilishiga imkon berdi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan, steklo va metallarning birlashgan konstruksiyalaridan foydalanish boshlandi. Bu esa sanoat binolarining interyer va eksteriyer dizaynida o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Samarqanddagi sanoat binolari arxitekturasining shakllanishida, tarixiy urf-odatlar va zamonaviy tendensiyalar muvozanatini kuzatish mumkin. Zamonaviy arxitektura shakllari, ya’ni geometriya va funksionalizm, bunday binolarning dizaynida muhim o‘rin tutadi.

Sanoat binolarining ko‘pchilik qismi konstruksiyaviylik uslubida qurilgan. Ushbu uslubda, binolarning funksional va konstruktiv jihatlari bir-biriga bog‘lanadi. Buning natijasida binokorlar ham qurilishlarning amaldagi jihatlarini hisobga olib, zamonaviy texnologiyalarning barcha imkoniyatlarini qo‘llagan.

Shaxarning sanoat arxitekturasi tarixida fasadlarning va ichki makonlarning tuzilishlari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan. Uslub va konstruksiyaning aniq belgilashlari va natijalari qishloqdan shaharga yoki sanoatdan turizm va madaniyatga o‘tishni ko‘zda tutgan.

Samarqandning sanoat binolari, hududning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Industrial obyektlar qurilganda, uskunalar bilan ta’minlash, sanoat ishlab chiqarishini boshqarish va olis hududlarning aholisini jamlash vazifasi aniq belgilangan. Shuningdek, har bir sanoat binosi o‘ziga xos arxitektura shaklini yuzaga chiqarib, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini qamrab olgan.

Hozirgi kunda, Samarqandning sanoat binolari va ishlab chiqarish hududlarida yangi qurilish materiallari va dizayni, qurilish kompozitsiya va konsepsiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ekologik jihatdan to‘g‘ri keladigan va energiya tejashga yordam beradigan innovatsion materiallar ishlatishni keng ko‘lamda qo‘llash rejalashtirilgan. Buning natijasida, shaharning sanoat arxitekisi va dizayni yanada yangilanib, mavjud boy tarixi va zamonaviy usullar bilan muvozanatlashib yangi davr arxitekturasini yaratishga xizmat qilishi nazarda tutilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2019 yilning 6 dekabr kuni “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi mas’ulligi, Samarqand viloyati hokimligi va AT “O‘zsanoatqurilishbank” hamkorliklarida Samarqand shahrida yangi sement zavodi foydalanishga topshirildi. Tantanali marosimda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, mutasaddi tashkilot vakillari va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

“Jomboy yashil chiroqlari” MChJ tomonidan amalga oshirilgan loyihaning umumiy qiymati 9 mln. 195 ming AQSh dollarini tashkil etdi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 100 ming tonnani tashkil etadi. Uskunalar zamonaviy, energiya tejamkor bo‘lib, Xitoy Xalq Respublikasidan keltirilgan. Mazkur korxonani qurish ishlari 1 yil davomida olib borildi. Endilikda korxona ishga tushishi natijasida sement va sement asosida boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Xususan, 100 ga yaqin samarqandlik yoshlar ish bilan ta’minlanadi. 1-rasm.

1-rasm. Samarqand yangi sement zavodi.

Samarqandda to‘qimachilik sanoati uzoq tarixga ega. Sovet davrida O‘zbekistonda yirik sanoat korxonalari qurilgan va Samarqandda ham paxtani qayta ishlash va to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yirik kombinatlar yoki fabrikalar tashkil etilgan. Bunday yirik kombinatlar Sovet Ittifoqi davrida rejalashtirilib, qurilgan va mintaqaning paxta xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ular minglab ishchilarni ish bilan ta’minlagan va katta hajmdagi ip-kalava, gazlama kabi mahsulotlar ishlab chiqargan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ko‘plab yirik davlat korxonalari singari, Samarqanddagi to‘qimachilik korxonalari ham o‘zgarishlarga uchragan. Ba’zilari xususiylashtirilgan, qayta tashkil etilgan yoki yangi qo‘shma korxonalar tashkil etilgan. Bugungi kunda Samarqand viloyatida bir nechta yirik va zamonaviy to‘qimachilik korxonalari faoliyat yuritadi. Ular paxta tolasini qayta ishlash, ip-kalava yigirish, mato to‘qish va hatto tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Masalan, “Samarqand Apparel” kabi klasterlar yoki boshqa yirik tekstil fabrikalari mavjud. Bu korxonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Samarqanddagi to‘qimachilik korxonalari an’anaviy ravishda paxta tolasi, ip-kalava, dag‘al va bo‘yalgan gazlamalar, trikotaj matolar va ba’zan tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Samarqandning sanoat binolari arxitekturasi, uning rivojlanishi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va zamonaviy qurilish materiallarining kirib kelishi bilan yangi shakl va konstruksiyalar yaratilgan. Bu, o‘z navbatida, shaxarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo‘ladi. Samarqand shahri sanoat binolari arxitekturasi o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlar va bosqichlarni bosib o‘tgan. Bu jarayonda qurilish materiallari va ashyolari muhim rol o‘ynagan bo‘lib, ular nafaqat binolarning mustahkamligi va funksional imkoniyatlarini belgilagan, balki arxitektura uslubining shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Tarixiy jarayonlarda mahalliy tabiiy materiallardan – g‘isht, tosh, yog‘och, paxsa kabi resurslardan foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik sanoat rivoji bilan birga metall, beton va boshqa zamonaviy materiallar arxitekturaga kirib keldi.

Qurilish materiallarining tanlovi iqlim sharoitlari, mavjud tabiiy resurslar, texnologik imkoniyatlar va estetik qarashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Aynan shu omillar Samarqandning sanoat binolarida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini yaratgan. Shuningdek, har bir davrning texnologik va iqtisodiy rivojlanish darajasi binolarning qurilish uslubi va materiallariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Shunday qilib, Samarqand shahri sanoat arxitekturasi shakllanishida qurilish materiallari va ashyolarining tanlovi tarixiy, madaniy va texnologik jarayonlarning yorqin ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Bu esa shahar arxitekturasining o‘ziga xosligini va tarixiy qatlamlar orqali boyib borishini ta’minlagan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2016 yil.

2. Mirziyoyev Sh.M., Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garov.T. O‘zbekiston. 2016 yil.

3. Mialimov M.M., Sanoat binolari arxitekturasi. Toshkent-2019.

4. Sulaimanovich, M. F., & Shukurullaevich, S. O. (2023). Application and Role of Architectural Composition in Construction and Design Work.

5. Yalgashevich, K. S., Abduvaxabovich, A. O., Sulaymanovich, M. F., & Nortojiyevich, X. H. (2023). Outdoor Games as an Effective Means of Physical Education for Primary School Children.

6. Limbert John, Shiraz in the age of Hafez. The glory of a medieval Persian city. Seattle and London: University of Washington press, 2004. P.IX.

7. Shukurullayevich, S. O., Sulaymanovich, M. F., & Shamshidin Yalgashevich, K. (2021). SPECIALIZED MOBILE GAMES IN PRACTICAL EXERCISES ON THE NATIONAL FIGHT OF KURASH. *World Bulletin of Management and Law*, *3*, 51-52.

Internet saytlari:
https://www.google.com
https://ziyonet.uz
https://arxiv.uz

ОГНЕЗАЩИТА СТРОИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ И НЕКОТОРЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ

Хамракулов Равшан Джаббарович
доцент кафедры «Строительная инженерия», ДжизПИ
Джураев Уктам Уралбаевич
доцент кафедры «Строительная инженерия», ДжизПИ

Аннотация. В статье рассмотрены некоторые возможности создания огнезащитных материалов широкого профиля для бетонных, железобетонных, облицовочных и отделочных материалов. Приведены конкретные пути практического применения новых разработок.

Ключевые слова: бетон, огнезащита, жаропрочность, полимерная композиция, штукатурка, отделочный материал.

Потеря несущей способности строительной конструкции характеризуется ее обрушением или прогибом.

Количественно огнестойкость строительных конструкций характеризуют пределом огнестойкости, т. е. временем (в часах или минутах), по истечении которого строительная конструкция теряет несущую или ограждающую способность. Потеря ограждающей способности – это образование в несущих конструкциях трещин, через которые в соседние помещения могут проникать продукты горения и пламя, или прогрев строительных конструкций до таких температур, при которых возможно самовоспламенение веществ в смежных помещениях.

Для повышения огнестойкости зданий и сооружений их металлические конструкции мы рекомендуем оштукатуривать или облицовывать материалами с низкой теплопроводностью, например, гипсовыми плитами, модифицированными полимерными композициями. Хороший эффект дает окрашивание металлических и деревянных конструкций специальными огнезащитными красками (например, типа ВПМ). Для защиты деревянных конструкций от огня их также оштукатуривают или пропитывают антипиренами (например, фосфорсодержащим полимером) [1].

Конструкции без огнезащиты деформируются и разрушаются под действием напряжений от внешних нагрузок и температуры. Огнезащита, блокирующая тепловой Существенное значение имеет зонирование территорий, которое заключается в группировании на территории предприятий, цехов и участков с повышенной пожарной опасностью в определенных местах (с одветренной стороны). Кроме того, необходимо учитывать рельеф местности. Например, склады и резервуары с горючим надо располагать в низких местах, чтобы при возникновении пожара разлившаяся горючая жидкость не могла стекать к низлежащим зданиям и сооружениям.

Для того чтобы огонь при пожаре не распространялся с одного здания на другое, их располагают на определенном расстоянии друг от друга. Это расстояние называют противопожарным разрывом. Для различных категорий зданий противопожарные разрывы составляют 9–18 м.

Для защиты от пожара в зданиях устраивают противопожарные преграды, т. е. конструкции с нормируемым пределом огнестойкости, препятствующие распространению огня из одной части здания в другую. К этим преградам, имеющим предел огнестойкости не менее 2,5 ч, относятся стены, перегородки, перекрытия, двери, ворота, окна и др.

При проектировании и строительстве необходимо предусмотреть пути эвакуации работающих, т. е. пути, ведущие к эвакуационному выходу на случай возникновения пожара. Здания и сооружения должны быть снабжены устройствами, предназначенными для удаления дыма при пожаре: аэрационными фонарями, специальными дымовыми люками и др.

Любой технологический процесс ведется при строго определенных параметрах и в определенном порядке, указанных в технологическом регламенте. Технологический регламент является основным документом ведения технологического процесса.

Технологический регламент разрабатывается проектировщиками при разработке проекта, а при изменении технологии на существующем производстве - разрабатывается технологами.

Изучить пожарную опасность всех технологических процессов не возможно, однако для того, чтобы профилактическая работа была целеустремленной, эффективной - каждому работнику Государствен-

ного пожарного надзора необходимо владеть методикой анализа пожарной опасности технологических процессов производств.

Метод анализа пожарной опасности и защиты технологических процессов производств основан на выявлении в производственных условиях:

- причин возникновения горючей среды,
- источников зажигания,
- путей распространения огня.

При отсутствии одного из факторов взрывопожарная и пожарная опасность исключается.

Следовательно, при разработке противопожарных мероприятий необходимо идти по линии устранения одного из трех факторов.

При разработке и проектировании здании и сооружении необходимо правильно выбрать строительной конструкции. При этом необходимо знать, что огнепреграждающая способность строительных конструкций характеризует их стойкость к образованию трещин или сквозных отверстий, через которые проникают продукты горения или пламя, а теплоизолирующая способность конструкции зависит от их способности к прогреву[2].

Все вышеперечисленные мероприятия направлены, в первую очередь на снижение пожаров и взрывов на промышленных предприятиях.

Огнезащита строительных конструкций (СК) играет важную роль в системе обеспечения пожарной безопасности различных объектов. Она предназначена для снижения пожарной опасности объектов и обеспечения их требуемой огнестойкости.

Поток от огня к поверхности конструкций, позволяет сохранить их работоспособность в течение заданного времени. Вспучивающиеся покрытия на органических связующих увеличивают толщину вследствие образования пенококса, который постепенно выгорает и в конце огневого воздействия может механически отрываться от конструкции. Для покрытий на минеральных вяжущих, содержащих в своем составе связанную воду, характерно выделение и перенос массы пара, что приводит к блокированию теплового потока в защищаемую конструкцию и замедляет рост ее температуры. Для вспучивающихся покрытий на минеральных вяжущих характерно как увеличение толщины при нагреве, так и блокирование теплового потока в защищаемую конструкцию за счет выделения и переноса массы пара. Для огнезащиты из термостойких волокнистых или пористых материалов характерно поглощение и низкая интенсивность переноса теплоты теплопроводностью, конвекцией и излучением при сохранении исходной формы. Композиционная огнезащита позволяет усилить физические эффекты блокирования теплового потока в защищаемую конструкцию, реализуемые при использовании простых способов огнезащиты.

Разработанные нами огнезащитные отделочные материалы, краски не имеют выраженной склонности к трещинообразованию при высоких температурах. Огнезащитные штукатурки и плиты на основе огнестойкой полимерной композиции и цементного вяжущего имеют плотность от 350 кг/м3 до 1200 кг/м3, теплопроводность 0,06-0,3 Вт/(м·К) и являются наиболее универсальными материалами. Область их применения наиболее широка. Это не только огнезащита гражданских объектов, но и объектов энергетики, нефте и газохранилищ. Практическое применение разработки может решит многие экологические, социальные, технологические проблемы нашей республики.

Они экологически безопасные, нетоксичные, устойчивые при длительном хранений, доступные и дещевые.

Литература :

1. Юсупов У.Т. Огнестойкие и жаропрочные бетоны. Материалы Республиканской научно-технической конференции «Yong‘inga chidamli qurilish materiallari yaratishning dolzarb muammolari va yechimlari». T.2019 й. 28-август.-с.79-82.

2. Юсупов У.Т. Повышение огнестойкости бетонных и железабетонных огнепреградительных конструкции. Материалы Республиканской научно-технической конференции «Yong‘inga chidamli qurilish materiallari yaratishning dolzarb muammolari va yechimlari». T.2019 й. 28-август.-с.39-42.

BAZALT CHIQINDI TOSHQOL ASOSIDAGI KAM SUV TALABCHAN SEMENTLARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Babayev Sultonbek Sunnat o’g’li
tayanch doktarant, SamDAQU

Annotatsiya: XXI-asrda beton qurilish materiallari ichida eng keng va ko’p miqdorda qo’llaniladigan turiga aylandi.Betonga bo’lgan dunyodagi talab bir yilda 3,5-3,7 mlrd.m^3dan ortib ketgan. Ushbu talabdan kelib chiqib betonning turli tarkib va yuqori sifat ko’rsatkichlariga ega turlariga talab kun sayin ortib bormoqda.Beton tayyorlashning texnologiyasi nisbatan oddiy va oson bo’lganligi sababli hozirgi vaqtda uning 1500 dan ortiq turlari qurilish sohasida qo’llanilmoqda. Beton ishlarini olib borish, ishlab chiqarish texnologiyalari takomillashtirilmoqda. Ammo oddiy beton asosiy qurilish materiali bo’lishi bilan birga unga kundan-kun o’sib borayotgan talabni qondira olmay qolmoqda. Bunda uning egilishga, yoriq paydo bo’lishga qarshilik ko’rsatkichlari nisbatan suv o’tkazmaslik, sovuqbardoshlilik va boshqa bir qator xususiyatlari yetarli darajada bo’lmaganligi bilan tushuntirish mumkin.

Keyingi 30-40 yil davomida dunyoning turli burchaklari laboratoriyalarida yuqorida keltirilgan betonning kamchiliklarini yo’qotishga, yaxshilashga va barcha talablarga javob beradigan yangi turdagi kompozision ko’p komponentli, qurilishni barcha talablariga javob beradigan yangi beton tarkiblarini yaratish ustida tadqiqot-izlanish ishlari olib borilmoqda.

Kalit so’zlar: Sement, klinker, bazalt shlak, bazalt tolasi, barxan qumi, polimerlar, siqilishdagi mustahkamlik, superplastifikator.

Аннотация: в 21 веке бетон стал самым распространенным и широко используемым видом строительных материалов. Мировая потребность в бетоне превысила 3,5-3,7 млрд м3 в год. Исходя из этого спроса, с каждым днем увеличивается спрос на виды бетона различного состава и высоких показателей качества. Поскольку технология приготовления бетона относительно проста и легка, в настоящее время в строительной отрасли применяется более 1500 его видов. Совершенствуются бетонные работы и технологии производства. Однако, несмотря на то, что обычный бетон является основным строительным материалом, он не может удовлетворить растущий спрос на него. Это можно объяснить тем, что его показатели устойчивости к изгибу и растрескиванию недостаточны по сравнению с гидроизоляцией, морозостойкостью и рядом других свойств. В течение следующих 30-40 лет в лабораториях разных уголков мира ведутся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по устранению недостатков вышеупомянутого бетона и созданию нового многокомпонентного состава, отвечающего всем требованиям и отвечающего всем требованиям строительства.

Ключевые слова: Цемент, клинкер, базальтовый шлак, базальтовая фибра, барханный песок, полимеры, прочность на сжатие, суперпластификатор.

Abstract: In the 21st century, concrete has become the most widely and widely used type of building material. The world's demand for concrete has exceeded 3.5-3.7 billion m3 per year. Based on this demand, the demand for concrete with various compositions and high quality indicators is increasing day by day. Since the technology for preparing concrete is relatively simple and easy, more than 1,500 of its types are currently used in the construction industry. Concrete work and production technologies are being improved. However, ordinary concrete, despite being the main building material, cannot meet the growing demand for it every day. This can be explained by the fact that its resistance to bending, cracking, water resistance, frost resistance and a number of other properties are relatively insufficient. Over the next 30-40 years, research and development work has been carried out in laboratories around the world to eliminate the above-mentioned shortcomings of concrete, improve it, and create new types of multi-component concrete compositions that meet all the requirements of construction.

Keywords: Cement, clinker, basalt slag, basalt fiber, barkhan sand, polymers, compressive strength, superplasticizer.

Asosiy qism. Ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizning qurilish sanoatida ilg’or texnologiyalar asosida sanoat chiqindilari, plastifikasiyalovchi qo’shilmalar, dispersli materiallar, polimerlar va sh.k.lar asosida yuqori mustahkamlikka ega bo’lgan mayda donador qumli betonlar, ular asosida turli xil yupqa devorli beton buyumlar va temirbeton konstruksiyalar ishlab chiqarilmoqda. Odatda bunday betonlar uchun faqat mayda to’ldiruvchilar (tabiiy va sun’iy qumlar) ishlatiladi. Biroq to’ldiruvchi sifatida faqat qum ishlatilishi tufayli to’ldiruvchilarning solishtirma yuzasi ortishiga, natijada betonning g’ovakligi ortib ketishiga sabab bo’lmoqda. Ya’ni, me’yoriy harakatchan mayda donali qumli beton qorishmasini olish uchun xuddi shunday yirik to’ldiruvchili beton qorishmasiga nisbatan suv va sement miqdori 15...20 % gacha ko’p sarf qilinadi. Bu esa o’z navbatida beton hajmiy cho’kish deformasiyasining o’sishiga sabab bo’ladi. Bog’lovchi bilan birgalikda bazalt tolasini maydalanishi sement toshini armirlab, uni nazorat tarkibinikiga nisbatan siqilishga mustahkamligini 40 % ga, egilishga bo’lgan mustahkamlik ko’rsatkichlarini 2 barobardan ko’proq oshirishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu tarkibga 0,8 % plastifikator qo’shilishi betonning fizik-mexanik ko’rsatkichlarini 10 % ga oshirdi.

Tadqiqotlar natijasida ko’p komponentli bog’lovchi va beton tarkibini tayyorlash va qorishmani qoliplash jarayonlari osonlashtiruvchi texnologiyasi ishlab chiqildi. Nazorat va taklif qilingan tarkiblardan yupqa qobiqli konstruksiyalarni tayyorlash uchun sarf harajatlar o’zaro taqqoslanganda taklif qilinayotgan tarkibning samaradorligi 1 m^2 yuza uchun - 29,2 ming so’mni tashkil etdi. Ushbu mikroarmirlangan qumli beton tarkibni qo’llash orqali konstruksiyalarning har bir kvadrat metr yuzasi og’irligini (90-100) kg ga kamaytirish imkonini berdi.

Hozirgi paytda mineral bog’lovchilarning faolligini oshirish, suv sarfini kamaytirish, super va giperplastiklovchilar tarkibga kiritish yordamida, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hisobiga betonning siqilishdagi mustahkamligi 80÷120 MPa gacha yetkazildi va bundan ham oshirish imkoniyatlari mavjud. Ammo betonning egilishdagi mustahkamligi va yoriqbardoshlik kabi ko’rsatkichlari hozirgacha to’liq yechilmagan muammolardan biri bo’lib qolmoqda, xolbuki uning siqilish va egilish mustahkamliklari orasidagi nisbat hech bo’lmaganda 20÷25 % ga qisqartirilsa va mustahkamlikni egilishga ko’rsatkichlari oshirilsa metall sarfi sezilarli darajada kamayadi.

Betonga yuqorida aytib o’tilganidek ijobiy xususiyatlarni beruvchi tolalardan biri shisha tolasi bo’lib, tolalari diametri bir necha o’nlab mkm va uzunligi 20÷40 mm atrofida bo’ladi. Ularning cho’zilishga mustahkamligi juda yuqoridir (1500÷3000 MPa), deformasiya moduli esa sement toshnikidan yuqori. Ammo shisha tolalar sementning ishqorli muhiti ta’siriga chidamsizroqdir. Bu kamchilikni

bartaraf qilish uchun tarkibga maxsus qorishmalar qo'shiladi yoki betonga polimerlar shimdiriladi.

Dispers tolali sun'iy materiallardan biri Bazaltli "fibra" (lotincha "fibra" – tola), ya'ni beton qorishmasini dispersli armaturalash uchun qo'llaniladigan kalta qirqilgan bazalt tolalaridir. Bazalt tog' jinslari va bazalt tolalarining umumiy ko'rinishlari 1 va 2-rasmlarda ko'rsatilgan.

1-rasm. Bazalt tog' jinslari

2- rasm. Bazalt tolalari

Bazalt (Bazalt lotincha basalts – sinov toshi ma'nosini bildiradi) tolalari o'zining bir qancha ustivor xususiyatlariga ko'ra boshqa tolasimon materiallardan farqlanadi. Bazaltbeton konstruksiyalar yuqori zo'riqish deformasiyalariga chidash bera oladi, chunki bazalt tolalari cho'zilishda plastik deformasiyalanishga uchramaydi, elastikligi po'latdan yuqori hisoblanadi. Bunda sement toshining yoriqlar hosil bo'lmagandagi nisbiy deformasiyasi 0,9-1,1% yetadi. Bunday deformasiya armaturalanmagan sement toshining chegaraviy ko'rsatkichidan 45-55 marta ortiq bo'ladi.

Sement toshini asbest tolalari bilan armaturalash ham keng qo'llaniladi. Asbest tolalarining diametri 1 mkm, uzunligi 0,5÷10 mm atrofida bo'lib, ular yuqori mustahkamlikka, issiqbardoshlikka va salbiy muhitlar ta'siriga turg'unligi bilan farqlanadi. Asbest tolalarining cho'zilishga mustahkamligi 600÷800 MPa bo'lib, sement toshi tarkibiga 10÷15 % miqdorda kiritilsa, betonning yedirilishidagi cho'zilish mustahkamligi 4÷5 marta yuqori bo'ladi va zarbiy mustahkamligi ortadi. Sement zarrachalarini maydalanish mayinligini ortishi hisobiga ularning solishtirma yuzasi oshib suv bilan kontakti oshib gidratasiya jarayonini tezlashishiga xizmat qiladi. Jumladan 5 mk dan kichik sement zarrachalari betonni boshlang'ich qotish jarayonlaridayoq to'liq gidratasiyalanadi. Agar sement zarrachalari o'rtacha o'lchamlari 40-50 mk bo'lganda uni suv bilan ta'siri ostida kristallizasiya jarayoni murakkablashadi.

Maydalanish mayinligi oshishi bilan g'ovakliklar soni ortgani bilan o'lchami kichrayib ularni hajmi fazoviy joylashuvi tekislanib, o'lchamlari makrog'ovakliklardan mikrog'ovaklargacha kichrayadi.

Maydalanish mayinligi 2000 dan 3000 sm^2/g oshganda sement toshi strukturasidagi makropor o'lchami 1 mk kichrayadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, sementni va uning tarkibiga qo'shilmalarni kiritilishi va qo'shimcha maydalanishi qumli ko'pkomponentli betonning strukturasini yaxshilab, sovuqbardoshlik va boshqa ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Faqat suvni ko'proq talab qilinishi superplastifikatorlar yordamida me'yoriga keldiriladi va betonning texnologik qo'yish jarayonidagi harakatchanligi oshiriladi.

To'ldiruvchi sifatida maydalanib, qumli beton tarkibiga qo'shiladigan ohaktosh ($SaSO_3$) ning yoki ohak (SaO) va $S_3A(S_4AF)$ o'rtasida kimyoviy bog'lanish imkoniyati yuzaga kelishi, maydalangan qum bilan $Sa(ON)_2$ bog'lanishini ehtimoli borligini inobatga olsak, u holda sement toshi va to'ldiruvchi o'rtasidagi keskin ajralib turuvchi fazani yo'qolishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib qumli beton tarkibini tadqiqotlashda ohaktosh, ohak, mahalliy qumni sement bilan birgalikda yoki alohida maydalab ko'pkomponentli qumli betonni tadqiqotlash maqsadga muvofiq deb topildi.

Maxsus xossalarga ega yangi avlod betonlarini olishga sifatli bog'lovchi, samarador texnologik yechimlar, maxsus kimyoviy qo'shimchalar yordamida beton qorishmalarini modifikasiyalash orqali erishish mumkin.

Qumli betonlarning g'ovakligini kamaytirish maqsadida kimyoviy qo'shimchalardan tashqari mineral qo'shimchalar (tegirmonda maydalangan qum) va qo'shilmalar (ohaktosh, qum, kul va h.o) dan foydalanish betonning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Bu chang ko'rinishidagi qo'shilmalar o'z navbatida mikroskopik 0,1-0,3 mkm o'lchamli (mikrosferalar)ni tashkil etadi.

Beton qorishmasiga solingan bu kukun o'zini turlicha tutishi mumkin:1-chidan sferik ko'rinishidagi zarrachalarni "podshibnik" kabi siljitish samarasini bersa, 2-chidan "pussolan" faolligini ko'rsatadi.

Bunday millionlab sharchalarni mavjudligi beton qorishmasini bir-biriga nisbatan siljishini osonlashtiradi va tashkil etuvchi "komponent"larni bir tekis joylashuviga yordam beradi.

Mayda (kukunsimon) qo'shilmalar zarrachalarini sement zarrachalari disperslik o'lchamlariga yaqinligi va ularning qo'llanishi qorishmaga plastiklovchi samarani beradi, ba'zi hollarda gidrosilikatlarni yuzaga kelishi imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki mineral qo'shimchalar "mikroqo'shilmalar" ko'rinishda ishlashi mumkin.

"Sement+mikroqo'shilmalar"ni optimal miqdori beton mustahkamlik ko'rsatkichlarini maksimal oshiradi. Ko'pkomponentli tarkibda hal qiluvchi faktor

bo’lib, sement va mayin maydalangan materialni o’zaro bir tekis tarqalishidir, shunda barqaror termodinamik frazoviy strukturalar hosil bo’ladi.

Har bir beton turi uchun ularning optimal miqdori alohida sifatlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Maxsus qo’shilmalarni tanlash: Betonning tarkibini yaxshilash, chidamliligini oshirish maqsadida, uni tayyorlash jarayonida qorishma tarkibiga faol yuzali qo’shilmalar qo’shiladi (bunday qo’shilmalar beton qorishmasining qulay joylanuvchanligini yaxshilaydi, sement sarfini tejaydi, suv sarfini kamaytiradi, qorishmaning qotishini tezlashtiradi, betonning mustahkamligi va sovuqbardoshligini oshiradi va x.). Bunday qo’shilmalar plastiklovchi, havo yutuvchi va kompleks (qotishni tezlatuvchi) guruhlarga bo’linadi.

Maxsus qo’shilmalarning miqdori betonga qo’yiladigan talablardan kelib chiqqan xolda, laboratoriya sharoitida beton tarkibi tanlanganidan keyin qabul qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Kuldashev X., Negmatov Z.Yu., Jo’raboyev U. Mayda donali betonlar uchun ishlatiladigan mahalliy xomashyolarning asosiy tavsiflari, “Sovremennыye problemы stroitelnыx materialov i konstruksiy» Materialы mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii. Samarkand, 2013.
2. Bajenov Yu.M. Texnologiya betona. M,:ASV. 2005.
3. Kuldashev X., Negmatov Z.Yu., Jo’raboyev U. Mayda donali betonlar uchun ishlatiladigan mahalliy xomashyolarning asosiy tavsiflari, “Sovremennыye problemы stroitelnыx materialov i konstruksiy» Materialы mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii. Samarkand, 2013.
4. Rabinovich F.N. Dispersno-armirovannыye betonы. M.: Stroyizdat. 1989.
5. Saidmuratov B.I., Aliqulov O’.R., Kurtametov S.E., Mikroarmirlangan mayda donador betonlarning fizik-mexanik xossalarini o’rganish, «Sovremennыye problemы stroitelnыx materialov i konstruksiy». Materialы mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii. Samarqand, 2013.
6. Buchkin A.V. Melkozernistыye betonы, armirovannыye tonkim bazaltovыm voloknom//Mir dorog. – 2010.
7. Izotov V.S., Sokolova Yu.A. Ximicheskiye dobavki dlya modifikasii betona. Izd. Paleotip. Moskva. 2006.
8. Kalashnikov V.I., Ot vыsokoprochnыx i osobovыsokoprochnыx betonov budushhyego k superplastifisirovannыm betonam obshhyego naznacheniya. / Kalashnikov V.I., Ananyev S.V., Goryunov I.A., Oskolkov K.Yu. // Sb. mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Kompozisionnыye stroitelnыye materialы. Teoriya i praktika». –Penza. – 2007.
9. Lesnov V.V., Issledovaniye svoystv dispersno-armirovannыx kompozitov s organizovannoy makrostrukturoy / Lesnov V.V., Yerofeyev V.T. //Vestnik Belgorodskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta im. Shuxova V.G. - 2013.- № 2.

ПРИМЕНЕНИЕ АРМАТУРЫ ВЫСОКОГО КЛАССА В СБОРНО-МОНОЛИТНЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЯХ

Джураев Уктам Уралбаевич
доцент кафедры «Строительная инженерия», ДжизПИ.

Аннотация. Железобетонные конструкции занимают важное место в строительной отрасли, благодаря своим отличным эксплуатационным характеристикам, таким как высокая прочность, долговечность, огнестойкость и универсальность. Одним из основных факторов, влияющих на их качество и безопасность, является арматура, которая обеспечивает прочность бетона на сжатие и сопротивление растягивающим силам. В последние десятилетия в строительстве активно используются арматуры высокого класса, которые позволяют создавать более надежные и экономичные конструкции. В данной статье рассматривается применение арматуры высокого класса в сборно-монолитных железобетонных конструкциях, а также ее влияние на прочностные характеристики и долговечность конструкций.

Ключевые слова. Сборные железобетнные, монолитные конструкции, арматуры высокого класса, долговечность, устойчивость.

Железобетон представляет собой композитный материал, состоящий из бетона и арматуры. Бетон эффективно сопротивляется сжатию, но плохо воспринимает растягивающие и изгибающие нагрузки, поэтому для повышения прочности и устойчивости используют арматуру. В зависимости от способа изготовления различают два типа железобетонных конструкций:

Сборные — элементы конструкции изготавливаются на заводах и затем транспортируются на строительные объекты.

Монолитные — элементы конструкции заливаются непосредственно на строительной площадке.

Комбинированный вариант, когда элементы изготавливаются как в заводских условиях, так и в процессе заливки на месте, называют сборно-монолитным. Такой подход позволяет обеспечить высокую точность изготовления элементов, а также оптимизировать сроки строительства.

Арматура высокого класса — это стальная арматура, которая характеризуется высокой прочностью и устойчивостью к нагрузкам. К основным классам арматуры, используемой в железобетонных конструкциях, относятся:

A240 и A400 — арматура низкого и среднего класса, используется в стандартных конструкциях.

Ат800 **и** Ат1200**—** арматура высокого класса, предназначена для создания высоконагруженных и ответственных конструкций.

Арматура высокого класса обладает рядом преимуществ:

Повышенная прочность на растяжение — арматура Ат800 и выше позволяет уменьшить количество используемой арматуры для достижения требуемой прочности конструкции.

Лучшие эксплуатационные характеристики — устойчива к коррозии, износу и повышенным температурным воздействиям.

Экономия материала — высокая прочность позволяет снизить массу арматуры, что особенно важно при проектировании крупных объектов.

Сборно-монолитные конструкции совмещают преимущества как сборных, так и монолитных элементов. Использование арматуры высокого класса в сборно-монолитных конструкциях имеет несколько значительных преимуществ:

Увеличение прочности конструкций. При применении арматуры высокого класса можно снизить толщину стен и перекрытий без ущерба для прочностных характеристик, что позволяет оптимизировать проектирование.**Увеличение долговечности**. Арматура высокого класса, благодаря своей коррозионной устойчивости, значительно увеличивает срок службы железобетонных конструкций, что особенно важно для объектов с повышенными требованиями к безопасности.

Снижение затрат на материалы. Арматура высокого класса позволяет снизить количество используемой стали в конструкции, что снижает общую стоимость строительства.

Устойчивость к динамическим нагрузкам. Арматура высокого класса лучше выдерживает колебания и динамические нагрузки, что особенно важно для конструкций мостов, эстакад и других объектов, подвергающихся постоянным вибрациям.

Основные преимущества использования арматуры высокого класса:

-увеличение прочности и надежности конструкций.

-уменьшение массы конструкции.

- увеличение срока службы объектов.

- экономия на расходах на материалы и транспортировку.

Однако, помимо достоинств, существует и несколько недостатков, связанных с применением арматуры высокого класса:

Высокая стоимость — хотя экономия на материалах и транспортировке в целом компенсирует эти затраты, на начальной стадии при проектирования стоимость арматуры может быть значительной.

Класс арматуры или проволоки	Диапазон диаметров в миллиметрах	Прочность на разрыв в Н/мм^2
A-I (A240)	6–40	373
A-II (A300)	10–40 и 40–80 в зависимости от марок сплавов	490
Ac-II (Ac300)	10–32	441
A-III (A400)	6–40 и 6–22 в зависимости от марок стали	590
A-IV (A600)	10–18 и 10–32	883
A-V (A800)	10–32	1 030
A-VI (A1000)	10–22	1 230
Ат400С	6–40	550
Ат500С	6–40	600
Ат600, Ат600С и Ат600К	10–40	800
Ат800	10–32	1 000
Ат800К	18–32	1 000
Ат1000 и Ат1000К	10–32	1 250
Ат1200	10–32	1 450
Проволока Вр-1	3–5	400 – 1 085 в зависимости от диаметра
Вр-11 и В-11 высокопрочная проволока рифлёная и гладкая	3–8	1 470 – 1 780 в зависимости от диаметра

Трудности в обработке и соединении — арматура высокого класса, особенно с более высокими пределами прочности, требует специальных условий для сварки и связывания, что увеличивает трудоемкость работ.

Примеры применения арматуры высокого класса в строительстве

в последние годы арматура высокого класса активно используется в строительстве крупных инфраструктурных объектов, таких как мосты, тоннели, высотные здания и другие конструкции, где высокие нагрузки и динамическое воздействие являются критическими. В частности, арматура класса А500С применяется для армирования крупных сборных и монолитных элементов зданий и сооружений, а также для строительства объектов с повышенными требованиями по безопасности.

Применение арматуры высокого класса особенно актуально для сооружений в районах с разными климатическими условиями, где повышенная коррозионная стойкость и долговечность конструкций играют важную роль.

Арматура высокого класса в сборно-монолитных железобетонных конструкциях позволяет существенно повысить их прочность, долговечность и экономичность. С использованием высококачественной арматуры удается оптимизировать проектирование и снизить затраты на материалы, при этом обеспечивая надежность и безопасность конструкций. Несмотря на более высокую стоимость и сложность в обработке, применение арматуры высокого класса является оправданным решением для строительства объектов, подверженных повышенным нагрузкам и воздействию внешних факторов.

С учетом роста требований к устойчивости строительных объектов и стандартам безопасности, применение арматуры высокого класса будет продолжать расширяться, обеспечивая строительство более надежных и долговечных сооружений.

Литература:

1. Усманов В.Ф.Проектирование железобетонных сборно-монолитных конструкций. Москва. Стройиздат 1991г 69стр. (справочно пособие для СНиП)
2. Усманов В.Ф. Перспективы применения сборно-монолитных железобетонных конструкций в Узбекистане. Самарканд. 2020г сборник СамГАСИ
3. С.С.Каприелов, А.В.Шейнфельд, Г.С.Кардумян «Новые модифицированные бетоны» Москва. 2010г.-168стр. Э.К.Касимов «Курилиш ашёлари» Ташкент. 2004г. 453стр.
4. Р.Ж. Хамракулов, Х.М. Каракулов - Методика улучшения долговечности бетонов в условиях сухого жаркого климата Узбекистана Молодой ученый, 2016 г.

YIG‘MA – MONOLIT ORAYOPMALAR TIZIMLARI

Pulatov Gafurjon Ergashovich

Annotatsiya. Maqolada yig‘ma-monolit temir beton (YMTB) ora yopma va tom yopmalarni turli jaxon ishlab chiqaruvchilar maxsulotlarini taxlili keltirilgan. Zamonaviy qurilishda konstruksiyalarni yuk ko‘tarish qobiliyatini yo‘qotmasdan vaznini kamaytirish dolzarb masalalar qatorida turadi. Bunday tizimlar O‘zbekiston sharoitidagi bugungi tendensiyalarga javob beradi, ammo aloxida etibor va sinchkovlik bilan o‘rganishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar. yig‘ma-monolit orayopma, konstruksiyalar elementlari, samaradorlik, energiya samaradorlik, gaz-oblok, beton qorishma, armatura, qoplamalar.

Abstract. The article analyzes the products of prefabricated monolithic reinforced concrete (PMRC) intermediate and roof coverings from various world manufacturers. In modern construction, reducing the weight of structures without losing their load-bearing capacity is one of the urgent issues. Such systems meet current trends in the conditions of Uzbekistan, but require special attention and careful study.

Keywords.precast-monolithic composite, construction elements, efficiency, energy efficiency, gas block, concrete mixture, fittings, coatings.

Davlatimizning rahbari Sh.M.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasi Qurilish sohasida “Bugungi kunda mamlakatimiz qurilish sohasida ham yangi davr boshlandi, desak, to’g’ri bo’ladi.

Avvalo, sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, respublikamizning barcha hududlarida ilg’or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo’layotgani, qurilish materiallari industriyasi yuqori sur’atlar bilan rivojlanayotgani, malakali yetuk kadrlar tayyorlash tizimi yo’lga qo’yilgani shunday deb aytishga asos beradi”, deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam.

Bugun ana shunday oliy janob an’analar qaytadan mustaxkam qaror topishi va rivojlanishi uchun, istiqlol sharofati tufayli eng qulay muhit yaratildi.

Qurilish konstruksiyalarining vaznini pasaytirish, materiallar sarfini kamaytirish bilan bir qatorda ularni yuk ko‘tarish qobiliyatini ta’minlash xisobiga sezilarli iqtisodiy samaraga erishish

loyxachilar va quruvchilar oldidagi doimiy dolzarb masala bo‘lib keladi.

Mamlakatimizda va monolit binolarni loyxalash va qurish amaliyotida devorli, karkasli,

karkas-devorli va karkas-o‘zakli konstruktiv tizimlar qo‘llanib kelmoqda

Yuk ko‘taruvchi temir beton konstruksiyalar uchun og‘ir betonlarni xamda devor konstruktiv tizimlarini keng ko‘lamda qo‘llash, konstruksiyalarni va binoni massasini oshirib borishi ma’lum.

Bunday muammoni yechilishga bo‘lgan xarakatlardan biri bu g‘ovakli orayopma va tom yopma plitalarni paydo bo‘lishidir. Bunday plitalar yig‘ma va monolit yaxlit orayopmadan ancha yengil. Konstruksiyalarni yengillashtirishdagi keyingi bosqichda xarakatlar yig‘ma-monolit temir orayopmalar qo‘llanishi bo‘ldi.

Ularni loyxalashda yig‘ma va monolit yaxlit orayopmalarni barcha ijobiy va salbiy xolatlari inobatga olindi. Yevroittifoq mamlakatlarida yig‘ma-monolit orayopmalardan foydalanish salmog‘i 20% dan 35% gacha tashkil etadi, Rossiya Federatsiyasida ular 2008 yildan beri kam miqdorda qo‘llanib kelmoqda, O‘zbekiston sharoitida esa xanuzgacha qo‘llanilmagan.

Yig‘ma-monolit orayopmalarni nisbiy og‘irligi kamrok, issiqlik va tovush ximoyasi yuqori ko‘rsatkichlarga ega, qoplamalar yasash va yechishdek ortiqcha mexnat sarfli texnologik jarayondan soqit bo‘linishi, maxsus yuk ko‘tarish texnikasi jalb qilinmasligi va shuningdek boshqa qo‘shimcha samaralarga olib kelishi ularni afzalliklarini ko‘rsatadi.

Temirbeton orayopmalar turlari Orayopmalarni qurilishda keng qo‘llaniladigan turi bu temirbeton yassi orayopmalar.

Barpo etilish texnologiyasi bo‘yicha ular: - monolit, - yig‘ma va - yig‘ma-monolit turlariga ajratiladi. Monolit orayopmalar Qurilish maydonini o‘zida, konstruksiyalarni birlashtiruvchi choklarsiz bajarish texnologiyasini biz monolit temirbeton qurilishi deb nomlaymiz.

Monolit temirbeton orayopmalar aynan shu kategoriyaga mansub bo‘lib, ishonchli va universal konstruksiyalar qatorida turadi.

В ранний период Калатравы в основном строил вокзалы и мосты. Одно из самых знаменитых творений его раннего творчества является необычный мост Аламильо в Севилье Испания, 1992 г., для сообщения с большим и пустынным островом Картуха, на котором проходила Всемирная выставка. Здесь мост представляет единственную опору, которая удерживает мостовой переход длиной 200 м при помощи тринадцати вант. Архитектор первым начал использовать такой тип мостов, конечно такая конструкция дороже чем обычные мосты, несмотря на то, что опора всего одна, требуются много материалов, и сложные расчёты. В результате мосты производят впечатление устойчивости, своей красивой и эффектной скульптурной композицией.

Рис 8. Мост Аламильо.

Рис 9. «Струнный мост» в Иерусалиме.

В строительство мостов Калатрава достиг совершенства, в этом ему нет равных. Многие считает, что Сантьяго Калатрава в первую очередь инженер, а не художник, хотя каждый мост, построенный им, действительно ни только техническое сооружение, а является произведением искусства. Например, другой мост, построенный в Иерусалиме, в 2008 году сразу начали называть «Арфа Давида», потому что действительно напоминают арфу – мостовая стрела удерживает на мощных металлических «струнах» несущую конструкцию. Такой приём Калатрава повторил несколько раз.

В чём же заключается особенности творчества архитектора Сантьяго Калатравы:

В творчестве архитектора происходит симбиоз архитектуры, скульптуры и высокотехнологичной инженерии.

При создании зданий и сооружение Калатрава берёт вдохновение у природы и они всегда гармоничны с окружающей средой.

Использование современных технологий в строительстве зданий и эстетические формы характерны для стиля био-тек.

Монолитные и статичные произведения архитектуры Калатравы превращаются в динамичные объекты, что является важным элементом во всех его проектах.

Калатрава - художник-инженер, который рассчитывает каждый объем и деталь своих построек с такой ловкостью, что создаётся впечатление как будто они лёгкие не имеют веса и волшебно парят в воздухе.

Инженер-архитектор придаёт большое значение скульптурности форм придуманных им конструкций или оболочек. И поэтому многие его произведения это ни просто традиционные городские здания, а представляют объемно-пространственные скульптуры. Он всегда делает акцент на конструкциях. В его сооружениях сразу видны балки, металлические арки и шарниры.

Калатрава получил признание благодаря футуристическому стилю, техническим инновациям и эстетике своих работ.

В 1998 г. архитектор построил в Лиссабоне железнодорожный вокзал «Ориенте» с необычной крышей, создаётся впечатление словно Калатрава позаимствовал его конструкции у готического собора. Опоры напоминают стволы деревьев и все они вместе производит впечатление второй – космической – натуры [12].

Рис 11. Железнодорожный вокзал. Лиссабон

Вокзал Ориенте в Лиссабоне (Gare do Oriente) – является крупным городским транспортным узлом. Его построили к международной выставке Экспо '98 по проекту испанского архитектора Сантьяго Калатравы, чтобы обеспечить новый район удобным транспортным средством и справиться с большим количеством посетителей.

Калатрава вдохновлённый природой задумал разработать здание вокзала в виде скелета рыбы, а крышу над путями превратил в лес, и поэтому - архитектура и дизайн сооружения очень впечатляет. Внутри здания нет никакой отделки, только открытые конструкции. Благодаря своей уникальной архитектуре, здание считается одним из самых замечательных шедевров, похожих на дворец и является достопримечательностей столицы.

За много лет работы Сантьяго Калатрава осуществил больше сорока крупных проектов музеев, мостов, вокзалов. В его работах слились воедино искусство архитектура и инженерная наука, все произведения дизайнера получаются функциональными, и вместе с тем невероятно привлекательны с эстетической точки зрения [12].

Литература

1. Архитектурная бионика. Под ред. Ю. С. Лебедева. М. Стройиздат. 1990 г.

2. И.И. Анисимова. Уникальные дома от Райта до Гери. М. Изд. Арх - С.2009г.

3. Алямова А., Фадеева П. Кто все это построил?" Ад Маргинем Пресс, ISBN. М. 2023г.

4. Jodidio Ph. (Ф. Джодио). "Green Architecture (Зеленая архитектура)". Альбом Elemental Living. Изд. М. 2022.

5. Кушнер М. Будущее архитектуры. 100 самых необычных зданий. Изд. АСТ. CORPUS, Пер. с анг. Е.Валкиной. М. 2016.

6.Лепорк А. Соблазненная архитектура. Серия книг. Арт-книга. Изд. Азбука. ISBN, Л.. 2022г.

7. Махмудова М.Т. Теория и методология дизайна. Т. LESSON PRESS, 2019 г.

8. Махмудова М.Т. История архитектуры и интерьеров. Изд. Lesson Press. Т. 2024 г.

9. А.Ю. Низовский. 100 великих шедевров архитектуры. М. 2005 г. Т. 2024.

10.Самин. Д.К. 100 великих архитекторов. М. 2001 г.

11. Фацио М., Моффет М. Всемирная история архитектуры. (оригинальное название: A

12. World History of Architecture). Изд. Ист. арх. AMGH, M. 2011 г.

13. Фоменко С. Калатрава (Великие архитекторы. Том XI). Изд. «ДИРЕКТ-МЕДИА» ЗАО «Изд. дом "Ком. Пр.», М. 2015 г.

САМАРҚАНД ШАҲРИ УЧУН КЎП ҚАВАТЛИ ИННОВАЦИОН УЙЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Маликов У Э СамДАҚУ докторанти
Куйсинова Ф СамДАҚУ докторанти
Мирзаев Умар СамДАҚУ магистранти

Аннотация:
Ушбу мақолада Самарқанд шаҳрида кўп қаватли турар жой биноларини инновацион ечимлар асосида лойиҳалаш ва қуриш масалалари муҳокама қилинади. Жаҳон амалиётидан келиб чиққан ҳолда, замонавий архитектура, барқарор қурилиш, энергия самарадорлиги ва ақлли шаҳар концепциялари таҳлил қилинади. Мақсад – халқаро тажрибаларни маҳаллий шароитга мослаштириш ва Самарқанд учун самарали моделни шакллантириш.

Кириш:
Самарқанд – бой тарихий меросга эга бўлган шаҳар. Аммо аҳоли сонининг ортиши ва шаҳар ҳудудида ер ресурсларининг чекланганлиги туфайли кўп қаватли турар жой биноларига талаб ормоқда. Шу билан бирга, глобал иқлим ўзгаришлари ва энергия ресурсларини тежаш масалалари бу уйларни қуришда инновацион ёндашувларни талаб қилмоқда.

1. Халқаро тажриба: инновация ва архитектура

Сингапур: Вертикал шаҳарсозлик ва “Smart Nation” концепцияси Сингапур дунёдаги энг самарали ва замонавий шаҳарсозлик моделларидан бирига эга. Ер майдони чекланганлиги туфайли мамлакат вертикал шаҳарсозликка устувор аҳамият бермоқда. Бу, ўз навбатида, кўп қаватли биноларнинг архитектурасини нафақат функциявий, балки экологик жиҳатдан ҳам самарали қилиб яратишга туртки бўлмоқда. “Яшил бинолар” концепцияси асосида қурилаётган уйлар қуёш нуридан фойдаланиш, табиий шамоллатиш ва сув тежаш каби хусусиятларга эга. “Smart Nation” дастури доирасида уйларга автоматлаштирилган бошқарув тизимлари ўрнатилмоқда — иссиқлик, ёритиш, хавфсизлик ва коммунал хизматларни масофадан бошқариш имконияти мавжуд.

Германия (Фрайбург): Passivhaus – энергия тежовчи уйлар Фрайбург шаҳри экологик архитектуранинг пешқадамларидан саналади. Бу ерда “Passivhaus” концепцияси асосида қурилган уйлар энергия истеъмолини 80–90% гача камайтиради. Бу каби биноларда термал изоляция, ҳаво тўсиш, юқори сифатли энергия самарадор ойна ва қуёш панеллари асосий рол ўйнайди. Ушбу модел нафақат экологияни асрайди, балки аҳоли учун коммунал харажатларни камайтиради.

Швеция (Мальме): Эко-шаҳар ва қайта тикланувчи энергия Мальме шаҳридаги “Bo01” эко-райони – барқарор шаҳарсозликнинг ёрқин намунаси. Бу ерда қурилган уйлар қайта тикланувчи энергия манбаларига (шу жумладан, шамол ва қуёш энергияси) уланган, ҳамда ҳар бир хонадон атроф-

муҳитга минимал таъсир кўрсатадиган технологиялар билан жиҳозланган. Сувни қайта ишлаш, биоклиматик архитектура ва "0 карбон" тамойиллари бу шаҳарни яшаш учун жуда қулай қилади.

Хитой: Смарт инфратузилма ва модулли уйлар Хитойда урбанизация тезлиги юқори. Бу қурилиш соҳасида автоматлаштирилган ва инновацион ёндашувларни талаб қилади. Масалан, модулли уйлар қуриш – қисқа муддатда, кам харажат билан юқори сифатли турар жойлар яратишга ёрдам беради. Шунингдек, 3D-принтерлар орқали қисмлар тайёрланиб, жойида йиғилади. Бундан ташқари, шаҳарларда "смарт-инфратузилма" ривожланмоқда — интеллектуал йўллар, автоматик жамоат транспорти ва ақлли коммуникациялар тизими жорий этилган.

2. Самарқанд шароитида халқаро тажрибаларни жорий этиш имкониятлари

Иқлим ва география хусусиятлари Самарқандда ёз фасли узун ва иссиқ, қиш эса нисбатан совуқ бўлиб, бу энергия тежамкор уйларга бўлган талабни оширади. Шу боис, юқори термал изоляцияга эга уйлар, қуёш панеллари ва шамол энергиясидан фойдаланиш имкониятлари мавжуд. Қуёш нурларининг кўплиги қуёш энергетикаси учун жуда қулай шароит яратади.

Архитектуравий меросни сақлаш Самарқанд бой меъморий меросга эга шаҳар ҳисобланади. Янги уйларни қуришда бу меъросни инобатга олиш, миллий услубни замонавий технологиялар билан уйғунлаштириш талаб қилинади. Масалан, фасад дизайнларида миллий нақшлар ва маданий элементлар сақланган ҳолда, функционал ва экологик ечимлар қўлланилиши мумкин.

Қурилиш материаллари ва экология Маҳаллий материаллардан фойдаланиш – қурилиш харажатларини камайтириш ва транспорт масофасини қисқартириш орқали углерод изини камайтириш имконини беради. Гилам, кирпич, бетон, замонавий панеллар – буларнинг барчасини энергия самарадор ва экологик тоза технологиялар билан уйғунлаштириш мумкин.

Шаҳарсозлик режалаштириши Замонавий кўп қаватли уйлар зич яшашни таъминлаш билан бирга, қулай транспорт, ижтимоий инфратузилма ва яшил ҳудудлар билан мувофиқлаштирилиши керак. Бу шаҳарнинг умумий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

3. Инновацион технологияларни жорий этиш йўналишлари

BIM (Building Information Modeling) BIM технологияси – қурилиш лойиҳаларини рақамли моделлаштириш воситаси бўлиб, у лойиҳалашдан тортиб фойдаланишгача бўлган жараённи самарали бошқаришга ёрдам беради. Самарқандда бу технологияни жорий қилиш орқали қурилиш хатоларини камайтириш, вақт ва маблағни тежаш мумкин.

Ақлли уй тизимлари (Smart Home Systems) Автоматлаштирилган иситиш, ёритиш, хавфсизлик, ҳаво алмашинуви ва коммунал хизматлар истеъмолини назорат қилиш имконияти – бугунги замонавий уйлар талабидир. Самарқандда бундай тизимларни жорий этиш аҳолига қулайлик яратиш билан бирга, энергия тежамкорликни ҳам оширади.

Вертикал боғдорчилик ва яшил ҳудудлар Кўп қаватли уйларда вертикал боғдорчиликни жорий этиш орқали шаҳар ҳавосини тозалаш, микроклиматни яхшилаш ва озиқ-овқат манбаларига кичик ҳисса қўшиш мумкин. Бу эко-меъморликнинг муҳим қисмидир.

Қуёш ва қайта тикланувчи энергия манбалари Самарқанд қуёш нурлари бўйича бой ресурсларга эга. Қуёш панелларини кўп қаватли уйларнинг том қисмига ўрнатиш орқали энергия харажатларини камайтириш ва барқарорликни таъминлаш мумкин.

4. Самарқанд учун таклифлар

Инновацион стандартларни ишлаб чиқиш Самарқанднинг иқлим, маданият ва иқтисодий шароитига мос равишда қурилиш стандартлари ва норматив ҳужжатларини қайта кўриб чиқиш талаб этилади. Бу стандартлар халқаро амалиётлар асосида, лекин маҳаллий хусусиятларни инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилиши лозим.

Халқаро ҳамкорлик Жаҳоннинг етакчи архитектура ва қурилиш компаниялари билан ҳамкорликда иш олиб бориш, уларнинг тажрибаси ва технологияларини маҳаллий мутахассислар билан ўртоқлашиш, инвестицияларни жалб этиш муҳимдир.

Кадрлар малакасини ошириш Қурилиш соҳасида инновацион технологиялардан самарали фойдаланиш учун маҳаллий мутахассисларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш керак. Бунда хорижий тренинглар, онлайн курслар ва илмий тадбирлар ёрдам беради.

Давлат-хусусий шериклик (ДХШ) асосида инвестиция лойиҳалари

Кўп қаватли турар жой биноларини қуришда давлат ва хусусий сектор ўртасида ҳамкорликни кучайтириш орқали молиявий ва технологик муаммоларни ҳал этиш мумкин. ДХШ асосида қурилган лойиҳалар жуда самарали бўлиб, бугунги кунда ривожланган давлатларда кенг қўлланилмоқда.

Самарқанд шаҳри учун кўп қаватли инновацион уйларни шакллантиришда халқаро тажрибаларнинг аҳамияти

5. Илмий-амалий асослар ва таҳлиллар

5.1. Урбанизация жараёнида инновацион ёндашувнинг зарурлиги

Дунё бўйлаб урбанизация суръати тобора ортмоқда. БМТ маълумотларига кўра, 2050 йилга бориб ер юзасидаги аҳолининг 70% шаҳарларда яшаши кутилмоқда. Бу эса шаҳар инфратузилмасига, айниқса турар жой қурилишига жиддий босим келтиради. Самарқанд ҳам тез урбандошаётган шаҳарлар сирасига киради. Бу эса инновацион, самарали ва барқарор турар жой инфратузилмасини жорий этишни тақозо этади.

5.2. Инновацион архитектуранинг ижтимоий ва иқтисодий таъсири

Инновацион архитектура фақат қурилиш эстетикаси эмас, балки унинг иқтисодий ва ижтимоий самарадорлигини ошириш воситасидир. Энергия тежовчи уйлар коммунал харажатларни камайтиради, яшаш сифатини оширади ва атроф-муҳитга кам таъсир кўрсатади. Масалан, Passivhaus моделлари жорий қилинса, ҳар бир оила учун йиллик энергия харажатлари 50-70% гача камайиши мумкин.

5.3. Самарқанд аҳолиси эҳтиёжлари ва истиқболдаги тенденциялар

Аҳоли сони ортиши билан талаб ҳам ортмоқда. Самарқандда ёш аҳоли улуши юқори бўлгани сабабли, инновацион, қулай, интеллектуал уй-жойга эҳтиёж кучли. Бу талабга жавоб бериш учун шаҳарсозлик ва архитектура соҳаларида сифатли, узоқ муддатли стратегик ёндашувлар зарур.

6. Халқаро тажриба асосида Самарқанд учун модел яратиш таклифи

6.1. “Яшил Самарқанд” концепциясини ишлаб чиқиш

Самарқанднинг миллий меъморий услубини ва экологик устуворликни уйғунлаштирган ҳолда “Яшил Самарқанд” концепцияси асосида қурилиш стандартлари ва архитектура кодексини ишлаб чиқиш лозим. Бу концепцияда қуёш энергияси, вертикал боғлар, қулай жамоат масканлари, ҳаво тозалаш тизимлари каби элементлар ўз аксини топиши зарур.

6.2. Пилот лойиҳаларни амалга ошириш

Аввало, 1-2 та туман ёки маҳаллада инновацион кўп қаватли уй қуриш орқали моделни синаб кўриш мумкин. Масалан, BIM технологияси асосида қурилган, қуёш панеллари, автоматлаштирилган тизимларга эга “смарт” бинолар тажрибаси аҳоли орасида катта қизиқиш уйғотади ва кейинчалик кенгайтирилади.

6.3. Маҳаллий ва халқаро ҳамкорликларни кенгайтириш

Технологиялар ва инвестицияларни жалб этиш учун Туркия, Германия, Япония, Сингапур каби мамлакатлар билан ҳамкорлик дастурлари тузиш мумкин. Улар билан тажриба алмашиш, биргаликда қурилиш компаниялари ташкил этиш Самарқанднинг қурилиш соҳасидаги салоҳиятини оширади.

7. Хулоса ва амалий тавсиялар

Самарқанд шаҳри учун кўп қаватли инновацион уйлар концепциясини жорий этиш — бу фақат қурилиш масаласи эмас, балки барқарор ривожланиш, ижтимоий фаровонлик ва маданий меросни сақлаш масаласидир. Халқаро тажрибаларни таҳлил қилиш ва уларни маҳаллий шароитга мослаштириш орқали Самарқанд келажаги учун илғор, барқарор, қулай ва интеллектуал шаҳар муҳитини яратиш мумкин.

Тавсиялар:

1. Самарқанд учун махсус архитектура ва қурилиш кодекси ишлаб чиқилиши керак.
2. “Яшил шаҳар” пилот дастурлари жорий қилиниши лозим.
3. BIM ва Smart Home технологиялари маҳаллий қурилиш компаниялари фаолиятига тадрижий тарзда жорий қилиниши керак.
4. Давлат томонидан инновацион қурилишга солиқ имтиёзлари ва субсидиялар белгиланиши керак.
5. Академик муассасалар билан ҳамкорликда архитектор ва муҳандислар учун махсус малака ошириш курслари ташкил этилиши керак.

Адабиётлар:

1. UN-Habitat. (2020). *World Cities Report: The Value of Sustainable Urbanization*
2. Smart Nation Singapore (2021). www.smartnation.gov.sg
3. Passivhaus Institut (Germany). www.passiv.de
4. Bo01 Project (Malmö City, Sweden)
5. GIZ (2022). *Sustainable Construction Practices in Developing Countries*
6. Ўзбекистон Республикаси “Шаҳарсозлик тўғрисида”ги Қонуни, 2023
7. Архитектура ва қурилиш соҳасидаги маҳаллий нормативлар ва стандартлар

ИЗУЧЕНИИ СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО И ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗНЫХ СТРАНАХ МИРА

Суюнова Нилуфар Абдумаджитовна
старший преподователь кафедры «Дизайна интерьера»
Джураева Гулчера Нуруллаевна
старший преподователь кафедры «Дизайна интерьера»
Самаркандский государственный Архитектурно- строительный университет

Аннотация: В настоящее время образование является очень важным компонентом любого общества, поскольку оно формирует будущее наций и предоставляет возможности для личностного и профессионального роста. Однако системы образования существенно различаются в разных странах, что отражает культурные, экономические и политические различия. В этой статье мы рассмотрим системы образования нескольких стран по всему миру, выделив их ключевые особенности и различия.

Ключевые слова: Образование, школа, детский сад, дошкольный возраст, система рост, Китай, США, Италия, Франция.

Китайская Народная Республика

Основной целью общеобразовательных школ в КНР является формирование рабочих кадров с профессионально-техническим уклоном и подготовка к поступлению в вузы страны.

Как и во многих странах, первый этапом образования является детский сад, который дети могут посещать с 3 лет. Дошкольные учреждения бывают двух типов: государственные и частные. Так как этап посещения детского сада является частью образовательного процесса, без него детей не принимают в школу. Именно здесь начинают изучать пенены, без которых освоение китайской письменности невозможно.

1.Рис.Фасадная часть детского сада Китая.

2.Рис.Интерьеры детских садов Китая.

По достижении шестилетнего возраста дети поступают в начальную школу или неполную среднюю школу, где обучаются 6 лет. В начальной школе большое внимание уделяется развитию творческого потенциала ребенка. Большое количество времени дети проводят на занятиях по физическому воспитанию, учатся играть на музыкальных инструментах, улучшают знания по английскому и русскому языкам.

Уроки в школах начинаются в 7 часов утра. Утро начинается с того, что все учащиеся вместе с преподавателями занимаются физзарядкой. Далее с 8.00 до 12.00 изучаются естественно-математические дисциплины. С 12.00 до 13.00 перерыв на обед, в течение которого дети могут даже поспать прямо в школе. После обеда проводятся три урока гуманитарных дисциплин. Домашние задания дети выполняют в школе, и только после этого, примерно к 16.00, они могут идти домой.

По окончании начальной школы, учащиеся переходят в полную среднюю школу или профессиональную школу, где обучаются 4 года. Именно на этом этапе дети и их родители должны определится, они будут ориентироваться на поступление в вуз или получение рабочей профессии.

Среднее образование в Китае делится на две ступени, каждая из которых состоит из трех лет обучения. Обучение в начальной школе и в средней школе первой ступени является обязательным и бесплатным. Для того, чтобы поступить в среднюю школу высшей ступени, учащимся необходимо сдать конкурсные приемные экзамены. Эта ступень образования является платной, но, если ученик не смог сдать экзамены, его не спасут никакие деньги. Частью ее является двухгодичная школа, где учащиеся разделяются на профессиональные и специализированные классы.

В общей сложности в средней общеобразовательной школе дети учатся 12 лет. За все эти годы они несколько раз проходят жесточайший отбор в виде переводных отборочных экзаменов. В школах Китая очень строгие требования к пропускам, например, если обучающийся пропускает без уважительной причины 12 уроков, его отчисляют.

После 7 класса учащиеся должны пройти итоговое тестирование, после успешной сдачи которого можно поступить в высшую школу (но это еще не вуз). Высшая школа является подготовительным этапом для поступления в университет. Для того, чтобы получить аттестат о школьном образовании, выпускникам необходимо сдать экзамены. Для поступления в вуз также необходимо сдать специальный экзамен. Те, кто не справится с ним, лишаются в дальнейшем обучаться в вузах, они могут получить только рабочую профессию. Учеба во всех учебных заведениях начинается в сентябре и состоит из двух семестров. Поэтому и каникулы состоят из одного месяца зимой и одного месяца летом.

Соединенные Штаты Америки

Образовательная система в США контролируется не централизованно (Министерством образования), а на местном уровне. В каждом из штатов есть выборное управление, которое занимается составлением учебных планов и следит за их выполнением. Федеральное правительство только финансирует государственные учебные заведения.



3.Рис.Фасады детских садов США.

4.Рис.Интерьер детского сада в США

Этапу дошкольной подготовки отводится важная роль в системе образования США. Но, как и во многих странах, посещение дошкольных образовательных организаций не является обязательным. Обычно выделяют 3 промежуточных этапа дошкольного образования: Head start («хорошее начало») - подразумевает работу с самыми маленькими детьми в возрасте до 3 лет. Далее идет стадия Pre-Kindergarten, или додетсадовская подготовка — для детей в возрасте 4-5 лет. И, наконец, Kindergarten («детский сад») — несмотря на то, что его посещение не является обязательным, считается первым годом обучения в начальной школе. Как и в большинстве стран мира в ходе дошкольного обучения у детей в первую очередь развивают когнитивные функции, социальные навыки, т.е. их учат общаться друг с другом и познавать мир.

Elementary school («начальная школа») - это следующий этап обучения, который длится с 1 по 5 класс. Учебная программа начальной школы подразумевает получение базовых знаний по нескольким основным дисциплинам, включая иностранные языки, которые раньше изучались лишь в средней и старшей средней школах.

Junior high school, middle school («Младшая средняя школа, средняя школа») – обучение на этом этапе, как правило, занимает 3 года, оно длится с 6 по 8 классы. В средней школе каждый учитель преподает свою дисциплину. С этого времени ученикам дают право самостоятельно выбрать часть предметов, которые входят в их учебную программу.

Senior high school («старшая средняя школа») – данный период обучения длится с 9 по 12 класс, ученики уже вправе самостоятельно выбрать половину предметов от общего объёма учебной программы. В список доступных для выбора предметов, обычно, входят творческие и общеразвивающие.

В некоторых школах США предусмотрен 13-й класс – так называемая Advanced Placement Programme. Посещать его могут те, у кого есть желание поглубже изучить дисциплины, которые будут профильными в вузе.

По окончании школы выпускники, получившие зачеты как минимум по 16 учебным курсам, получают аттестат зрелости. Каждый учебный курс подразумевает минимум 1 занятие в день на протяжении 18 или 36 недель.

Для того, чтобы поступить в престижные высшие учебные заведения,

например, в университеты или колледжи «Лиги Плюща», может потребоваться информация об успеваемости за последние несколько лет обучения в старшей школе.

В школах США учебный год начинается в конце августа или начале сентября и длится до конца мая. Минимальный срок обязательного образования составляет 9 лет. Летние каникулы длятся от 5 до 8 недель. Система оценок в американских школах не числовая, а буквенная, от A до F, где A – наивысшая оценка, соответствующая российской «пятерке», а F – низшая оценка.

Италия

Первым этапом образования, как и в предыдущих странах, является детский сад. В возрасте 3-х лет детей отдают в детские сады («la scuola Materna»), где занятия в форме различных занимательных игр проводят педагоги и психологи. Программа некоторых дошкольных учреждений включает в себя дополнительные уроки по кулинарии, плаванию. Ребята занимаются музыкой, лепкой, рисованием, танцами. Детям постарше преподают основы работы с компьютерами. Достаточно часто

детские сады располагаются при церкви и роль воспитателей в них играют монахини.

5.Рис.Интерьеры и фасады детских садов Италии.

В возрасте шести лет дети переходят в начальную школу («la scuola Elementare») – этот период обучения является обязательным и бесплатным для всех, и состоит он из двух циклов. Именно в этот период дети начинают изучать основные предметы: итальянский, математику, историю, географию и иностранный язык. Учебная неделя длится 5 дней, за этот период проводится примерно 30 уроков. Обучение в начальной школе является бесплатным для всех. Система оценок в Италии не цифровая, а словесная, т.е. «отлично», «хорошо», «удовлетворительно» и т.д. После окончания начальной школы, ученики сдают устный и письменный экзамены, по результатам которых им выдается аттестат об окончании начальной школы.

На основании аттестата об окончании начальной школы в возрасте 11

лет дети поступают в среднюю школу («Scuola media»). На этом этапе они продолжают изучать уже знакомые им предметы, а также знакомятся с новыми. Начинается специализация, т.е. ребята могут выбрать между тремя типами средних школ: языковых с изучением 1 иностранного языка, языковых с изучением 2 иностранных языков и музыкальных школ. В конце каждого года обучения учеников ждет экзамен по системе «зачет-незачет». По окончании средней школы обучающиеся сдают экзамены в двух формах: в письменной по математике, итальянскому и иностранному языку и в устной по остальным дисциплинам.

В 14 лет итальянские дети поступают в высшую среднюю школу, обучение в которой будет длится до 18-19 лет. На этом этапе начинается серьезное разделение по специализациям. В классических лицеях уделяется внимание изучению итальянского языка, в языковых лицеях упор делается на иностранные языки, коммерческие школы преподают финансовые дисциплины, а профессиональные школы сфокусированы на обучении рабочим специальностям. Также есть ряд школ, которые специализируются на спортивном и музыкальном образовании.

В конце обучения все выпускники высших средних школ, вне зависимости от выбранного профиля, сдают обязательные экзамены, после чего им выдается документ, аналог аттестата зрелости («Diploma di Esame di State conclusive del corse di»), в конце которого ставится название специализации. Этот документ дает выпускникам право на поступление в высшие учебные заведения.

В Италии учатся 13 лет, обязательно меняют школу два раза, не носят школьную форму и не устраивают выпускных вечеров.

Франция

Большинство детей в современной Франции начинают посещать детские сады в возрасте от 3 до 5 лет, хотя некоторые находятся и с 2 лет. Первые два года дети «познают мир на ощупь» в процессе игр по системе Селестена Френе. Затем они начинают активно готовится к школе, учатся читать, писать и считать.

6.Рис.Интерьеры и фасады детских садов во Франции.

С шести лет дети отправляются получать начальное образование («l'ecole elementaire»). Первый класс в системе начального образования называется подготовительным, дети учатся 27 часов в неделю, суббота также считается днём обучения. В системе начального обучения дети изучат французский язык, арифметику, историю и географию. Уроки истории и географии, как правило, преподает один учитель, он самостоятельно выбирает из образовательной программы в каком порядке и какой урок будет проводиться. Помимо этого, учащиеся обучаются ручному труду, который преподается в комплексе с рисованием и черчением.

По окончании начальной школы в возрасте 11 лет дети идут учиться в образовательные колледжи и лицеи. Это так называемое среднее образование. Оно длится 7 лет и является бесплатным и обязательным для всех. Колледж во Франции является первой ступенью среднего образования, которая длится 4 года, и после окончания которой учащиеся получают сертификат и могут работать по специальности в сфере услуг, на предприятиях или продолжить обучение в профессиональном лицее.

Лицей («lycee») является второй (старшей) ступенью среднего образования и позволяет получить диплом бакалавра. Для этого обучающимся необходим т сдать экзамен, в случае неудаче его можно пересдать. Если и пересдача прошла неуспешно (ниже 8/10 баллов по 20- бальной системе оценки), то выдаётся свидетельство об окончании средней школы. Обучение в лицее начинается в возрасте 15 лет и длится 3 года. По сути, обучение в лицее готовит учащихся к сдаче бакалавриата и открывает возможность для поступления в университет или иные учебные заведения.

В возрасте 12 лет учащихся активно привлекают к исследовательской работе, что не только приобщает их к методам ее правильной организации, но и учит умению отбирать информацию, сравнивать и анализировать её. Именно в лицее идёт специализация учащихся по следующим направлениям: экономика и социальные науки; литература и язык; естественные науки.

мероприятием, и его удается сдать по статистике лишь около 80% учащихся.

Экзамен на получение степени бакалавра является достаточно сложным мероприятием, и его удается сдать по статистике лишь около 80% учащихся.

Во Франции принята 20-балльная система оценок. Такая система призвана лучше отражать уровень знаний, она считается более точной. Каждый семестр родители по почте получают табель успеваемости своих детей. В нём перечислены все предметы и оценки по 20-балльной шкале с округлением до сотых, например, 14,72. Также с помощью этого табеля родители могут узнать оценки своего ребенка в предыдущих семестрах и увидеть, каковы его успехи по сравнению с другими.

Подводя итог, следует отметить, что системы образования существенно различаются в разных странах, отражая культурные, экономические и политические различия. Несмотря на сходство в преподаваемых предметах и уровнях образования, каждая страна имеет свой собственный уникальный подход к образованию. Понимание этих различий может помочь нам оценить разнообразие систем образования по всему миру и перенять сильные стороны друг друга.

Литература

1. Азитова, Г.Ш., Краснова, М.Н. Особенности системы образования в Китае [Текст] / Г. Ш. Азитова, Н. М. Краснова // Современные проблемы

науки и образования. – 2017. – № 5. Режим доступа : URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=26953 (дата обращения: 08.04.2023).

2. Итальянская система образования.□Электронный ресурс□ / Режим доступа: https://edunews.ru/education-abroad/sistema-obrazovaniya/v- italii.html, свободный (дата обращения: 08.04.2023).

3. Как устроена система образования в США в 2023 году. □Электронный ресурс□ / Режим доступа: https://zagranportal.ru/ssha/obuchenie- ssha/sistema-obrazovaniya-v-ssha.htm, свободный (дата обращения: 08.04.2023).

4. Коростелева, А. А. Современная французская система образования: содержание и инновации в области гражданского образования. [Текст] / А. А. Коростелева // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 20. Педагогическое образование. – 2017. – №4.

5. Система образования в Италии. □Электронный ресурс□ / Режим доступа: https://diplomabroad.ru/italiya/sistema_obrazovaniya_v_italii/, свободный (дата обращения: 08.04.2023).

6. Система образования в США. □Электронный ресурс□ / Режим доступа: http://diplomabroad.ru/ssha/sistema_obrazovaniya_v_ssha/, свободный (дата обращения: 08.04.2023).

7. 7 интересных отличий школ разных стран мира. □Электронный ресурс□ / Режим доступа: https://mel.fm/zhizn/istorii/7540926-world_edu2, свободный (дата обращения: 08.04.2023).

7. SHO'BA. ARXITEKTURA VA QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA JAHON TAJRIBALARI

SIRTQI TA'LIM SHAKLIDA TAXSIL OLAYOTGAN O'RTA VA KATTA YOSHLI TALABALARNING "QURILISH MEXANIKASI" FANINI O'ZLASHTIRISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Abilov Elyor Ermamatovich, t.f.f.d (PhD), dotsent v.b.
Turapov Farxod Xursanovich, katta o'qituvchi.
O'zbekiston Respublikasi. Termiz shaxri. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada sirtqi ta'lim shakli qurilish sohasida taxsil olayotgan o'rta va katta yoshli talabalarda "Qurilish mexanikasi" fanini o'zlashtirishda yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Dastlab maqolaning dolzarbligiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Sirtqi ta'lim shaklining ahamiyati va o'rni haqida mulohazalar bildirilgan. Sirtqi ta'lim shaklida taxsil olayotgan o'rta va katta yoshli talabalarning fanlarni o'zlashtirishdagi ustunliklari keltirilgan. Shu bilan birga ularning "Qurilish mexanikasi" fanini o'zlashtirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari bayon qilingan. Natijalari qismida berilgan yechimlar yuzasidan talabalarning bildirgan fikrlari va qarashlari keltirilgan, shuningdek, fanni o'zlashtirishda yordam beradigan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Qurilish mexanikasi, sirtqi ta'lim, o'rta va katta yoshli talabalar, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, interfaol usullar, kompyuter dasturlari, mehnat bozori.

Kirish. Bilim olish insoniyatga doimo zarur bo'lgan ehtiyoj hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida o'sishida qurilish sohasi "lokomotiv" vazifasini bajaryapti. Ushbu sohaga salohiyatli kadrlarni yetkazib berish dolzarb masaladir. Shu bilan birga Respublika aholisining oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi oshirilib bormoqda. Talabalar orasida o'rta va katta yoshlilar fanlarni o'zlashtirishda qurilish sohasida amaliy ish tajribasiga ega bo'lganligi uchun bir qancha ustunliklarga ega. So'nggi tadqiqotlar yoshlar va o'rta yoshlilar o'rtasidagi chegara borgan sayin yo'qolib borayotganini ko'rsatmoqda. Uzoq umr ko'rish va sog'lom turmush tarzi inson yoshiga xos bo'lmagan tarzda uzoq vaqt go'zalligini saqlab qolishi mumkinligidan dalolat beradi. Shu boisdan ayrim olimlar o'rta yoshni 41 dan emas, balki 53 yoshdan boshlab hisoblash kerak, degan fikrni ilgari surishyapti [1]. Sirtqi ta'lim shaklini joriy qilish ma'lum darajada aholini oliy ma'lumot olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga o'qish davrida ularni qiynayotgan muammolar xam mavjud. Ushbu muammolar va ularning yechimlari Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 60730300- "Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan 2- bosqicha talabalari o'rtasida tadqiq etildi. Muammo "Qurilish mexanikasi" fani misolida olindi.

Muammo. Tahlil. Tadqiq. Sirtqi ta'lim shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarorida nazarda tutilgan "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomiga asosan tashkil etiladi. Talabalarning kasbiy rivojlanishi ta'lim tizimining uzviyligi va shakliga chambarchas bog'liq. Ushbu maqola bir qancha asoslarga ko'ra dolzarb hisoblanadi.

Birinchidan. Sirtqi ta'lim shakli uzoq tanaffusdan keyin 2017-yilda yana qayta tashkil etildi. Ko'pgina o'rta va katta yoshli fuqarolar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati taqdim etildi. Bu esa ta'lim tizimida yangitdan kompleks yondashishni talab etadi.

Ikkinchidan. Mehnat bozorida barcha yoshdagi fuqarolarning o'z o'rnini topishi avvalo sifatli umumkasbiy ta'limga bog'liq. Qurilish sohasida yangi bilimlarni puxta o'zlashtirish o'rta va katta yoshli talabgorlarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan. So'ngi yillarda o'qishga kirish istagida bo'lgan abituriyentlar orasida o'rta va katta yoshlilarning ulushi sezilarli oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarning yoshi bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor berilsa, yoshi 25 yoshdan katta bo'lgan talabalar ulushi 2018 yil 18,3% ni yashkil etgan holda 2024 yil bu ko'rsatkich 22,7% ni tashkil etmoqda [2].

"Qurilish mexanikasi" fani 60730300- "Bino va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim shakli uchun umumkasbiy fan hisoblanadi. O'quv rejaga ko'ra 3 va 4 semestrlar uchun 4 kreditdan ajaratilgan (har bir semester uchun 18 soat auditoriya, 102 soat mustaqil ta'lim). Zamonaviy kasbiy rivojlanish sifatida mustaqil ta'limga katta e'tibor qaratilgan. Fanning maqsadi- talabalarga inshoot elementlarida, konstruksiyalarida hosil bo'ladigan zo'riqishlar va deformatsiyalarni aniqlash usullarini hamda mustahkamlikka, bikrlikka va usuvorlikka mazkur konstruksiyalarni hisoblash usullari bo'yicha mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Emperik so'rovnomada ishtirok etayotgan akademik guruh talabalari jami 76 nafarni tashkil etgan holda ulardan 14 nafari (18%) 34 yosh va undan katta hisoblanadi. O'rta va katta yoshli talabalar sifatida 34 yoshdan oshgan respodentlar tanlab olindi. Oilalar soni 13 nafar (92%). Ushbu yoshdagi talabalarning 12 nafari (86%) o'z doimiy ish joyiga ega bo'lib, ulardan 9 nafari (64%) ayni qurilish sohasida oliy ma'lumotsiz mutaxassis sifatida mehnat qilib keladi.

O‘rta va katta yoshli talabalarning o‘ziga xos ustunliklari xam mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

- ular berilgan topshiriqlarni bajarishda nisbatan mas’ulyatli bo‘ladi. Hayotiy tajribasi evaziga odatda ular har bir vazifani bajarishga sidqidildan yondashadi. Talabalar sirtqi kurslarning asosiy motivatsiya ma’nosini “o‘z-o‘zini o‘qitish” deb belgilaydilar [3];
- ko‘pchiligi oilali bo‘lganligi va boshqa sabab bilan tartib intizomli bo‘ladi. Odatda auditoriyada qo‘yilgan vazifani bajarishda o‘rnatilgan qoidalarga qat’iy rioya qilishadi;
- avval ishlagan ish joyidan kelib chiqib jamoa bo‘lib ishlashda ko‘nikmalar ancha shakllangan bo‘ladi. Aynan mehnat jamoasidagi boshqa shaxslar bilan o‘zaro hamkorlik individga o‘zi egallab turgan kasbning aniq standartlarini o‘zlashtirish imkonini beradi [4]. Jamoa oldiga vazifa qo‘yib ta’lim berishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar ushbu yoshdagilarga ijobiy natijalar beradi;

Barcha talabalarda umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirish va mutaxassislikni puxta egallash asosiy maqsad hisoblanadi. O‘quv davrida fanlar va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘liqlik muhim hisoblanadi. Shu bilan birga fanlarni o‘zlashtirishda ularning ma’lum bir ta’lim standartiga mos kelishi va uzviyligi bo‘lajak mutaxassislar uchun kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishiga yordam beradi [5]. “Qurilish mexanikasi” fani amalda “Fizika”, “Nazariy mexanika”, “Materiallar qarshiligi”, “Qurilish mexanikasi” fanlaridan tashkil topgan va bevosita uzviy ketm-ketlikda joylashgan. Talabalarning fanni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan muammolar va qiyinchiliklarni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar foydalanishga bog‘liq. Qurilish mexanikasi - bu qurilish sohasidagi muhandislik fanlaridan biri bo‘lib, asosan inshootlar va ularning qismlarining kuch, yuklamalar va deformatsiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu fanni o‘rganish, o‘rta yoshdagi talabalar uchun ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda bilimning amaliyotga qanday tatbiq qilinishi, matematik va fizik tushunchalar bilan ishlash, shuningdek, murakkab nazariy masalalarni tushunish talab qilinadi. Shuningdek, bu fan mutaxassislar uchun ham juda zarur bo‘lgan soha bo‘lgani uchun uni yaxshi o‘zlashtirish talab etiladi. Ushbu maqolada o‘rta va katta yoshli talabalar uchun “Qurilish mexanikasi” fanini o‘zlashtirishdagi asosiy muammolar va ularni yechish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Sirtqi ta’lim shaklida ta’lim olayotgan o‘rta va katta yoshli talabalarda “Qurilish mexanikasi” fanini o‘zlashtirishda bir qancha muammolar mavjud. Respodentlardan so‘rov shaklida o‘tkazilganda quyidagi muammolar ularni fanni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar paydo qilayotganini ta’kidladilar:

1. Nazariy va amaliy bilimlar o‘rtasidagi farq

Muammo: “Qurilish mexanikasi” fani o‘qitilayotganda, ko‘pincha talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashda qiynalishadi. Masalan, kuchlar va momentlar haqidagi nazariy tushunchalar, bosh yuzalar va kesimlar ularning haqiqiy hayotdagi qurilish obyektlariga qanday ta’sir qilishi haqida aniq tasavvur hosil qilish qiyin bo‘ladi.

Yechim: Ushbu muammoni bartaraf etish uchun amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarini ko‘paytirish kerak. Talabalarga aniq qurilish obyektlari misolida nazariy bilimlarni tushuntirish, 3D simulyatsiyalar, kompyuter dasturlari yordamida amaliy misollarni yechish, ularni haqiqiy qurilish obyektlariga nisbatan qo‘llashni o‘rgatish zarur. Shu bilan birga, talabalarga o‘z bilimlarini real hayotdagi inshootlar va ularning hisoblari bilan bog‘lash uchun qurilish maydonlariga ekskursiyalarni o‘tkazish samarali bo‘ladi.

2. Matematik hisoblamalar va fizik tahlil hisoblarini yuritishda yuzaga keladigan muammolar.

Muammo: “Qurilish mexanikasi” fanida ko‘plab matematik formulalarga, integrallar va differensial tenglamalarga, shuningdek, fizika fanining statika, kinematika, dinamika, energiyani saqlanish qonuni, Guk qonuni va shu kabi ko‘plab tushuncha va keltirib chiqarishga asoslangan. O‘rta va katta yoshli talabalar uchun bunday murakkab hisoblashlar va formulalarni o‘rganish ba’zida qiyin bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida “Tekis tizimning kinematik tahlili” hisoblash grafik ishida natijalar olish uchun murakkab matematik ifodalar va fizik formulalarni keltirib chiqarish mustahkam bazaviy bilimlarni talab qiladi.

Yechim: Bu muammoni bartaraf etish uchun, talabalarni amaliy misollar yordamida hisoblashlarni qisqacha va aniq o‘rgatish kerak. Ko‘proq interaktiv dasturlarni ishlatish va hisoblashlarni mashq qilish imkoniyatlarini yaratish talabalar uchun yordam beradi. Masalan, MATLAB yoki AutoCAD kabi dasturlardan foydalanish orqali qurilish mexanikasining murakkab masalalarini vizual tarzda tushuntirish samarali bo‘ladi. Shuningdek, matematik hisoblashlarda xatoliklarni kamaytirish uchun tekshirish va mustahkamlash metodlarini o‘rgatish kerak.

3. Konstruktsiyalarning murakkabligi va hisoblashdagi tahlillar.

Muammo: “Qurilish mexanikasi” fanini o‘rgatishda, talabalar turli xil konstruktsiyalarni tahlil qilishda qiynalishadi, chunki bu konstruktsiyalarning tuzilishi va ularning harakati juda murakkab. Inshootlarning kuchlanish, deformatsiya va yuklamalarini tahlil qilish talabalar uchun noaniq va murakkab bo‘lishi mumkin.

Yechim: Konstruktsiyalarni o‘rganish jarayonini soddalashtirish uchun, talabalar uchun step-by-step tahlil qilish usullarini ishlab chiqish lozim. Konstruktsiyalarni kichik qismlarga bo‘lib, har bir qismini alohida tahlil qilish va keyin umumiy natijalarni olish yondoshuvi foydalidir. Shuningdek, 3D modellashtirish va vizualizatsiya dasturlaridan foydalanish talabalarni loyihalarni aniq tushunishga va dizayn qilishda yordam beradi. Kompyuter yordamida simulyatsiyalarni amalga oshirish orqali talabalarga konstruktsiyalarning haqiqiy faoliyatini ko‘rishga imkon yaratish muhimdir.

4. Motivatsiya va fanga qiziqishning pastligi

Muammo: Ba’zi talabalar “Qurilish mexanikasi” fani o‘qitilishida motivatsiya yetishmasligi va uni boshqa fanlarga nisbatan kamroq qiziqarli deb

hisoblashi mumkin. Bu o‘z navbatida o‘qishdagi samaradorlikni pasaytiradi.

Yechim: Talabalar uchun fanning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, ularning kundalik hayotidagi o‘rinlarini va qurilish sohasidagi muvaffaqiyatli muhandislar misollarini keltirish kerak. Shu bilan birga, o‘quv dasturlariga qiziqarli va interaktiv metodlarni qo‘shish talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Masalan, talabalarga o‘zingizning loyihalari yoki kichik ishlar uchun qurilish mexanikasi bo‘yicha masalalarni hal qilishni taklif qilish mumkin. Uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyoj yoshi kattalar uchun shunchaki iqtisodiy zaruratdan ko‘ra ko‘proq ta’lim olishda tabiatan o‘ziga ishonchni oshirish degan qarash mavjud [6].

5. Tezkor o‘zgarayotgan texnologiyalarni o‘rganish

Muammo: Qurilish sohasida texnologiyalar tez rivojlanmoqda va talabalar yangi metodlar, materiallar va dasturlarni o‘zlashtirishda qiynalishadi.

Yechim: Texnologiyalarni o‘rganishning muhimligini talabalarga tushuntirish va ular uchun zamonaviy texnologiyalarni, masalan, BIM (Building Information Modeling) yoki boshqa simulyatsiya va tahlil dasturlarini o‘rgatish zarur. Bu texnologiyalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini zamonaviy qurilish sohasida muvaffaqiyatli qo‘llay olishlari mumkin.

6. Talabalarning jismoniy holati turlicha bo‘lishi.

Muammo: Respodentlarning 3 nafari (21%) ko‘z bilan bog‘liq muammolar tufayli doskadagi yoki taqdimotdagi kichik shriftlarni o‘qishga qiynalishayotganini aytib o‘tgan.

Yechim: O‘rta va katta yoshdagi talabalar uchun fandagi “Cho‘zilish va siqilishdagi statik noaoniq masalalar”, “Ichki kuchlarni kesish usuli orqali aniqlash” kabi mavzulardagi formulalarda mavjud indeks yoki darajadagi kichik shriftdagi belgilanishlarni o‘qish murakkab bo‘lishi mumkin. Buning uchun mavzu boshlanishidan oldin zarur formula va keltirib chiqarishlarni tarqatma material sifatida yetkazish lozim.

7. Berilgan topshiriqlarni bajarishda muddat bilan bog‘liq muammolar.

Muammo: Sirtqi ta’lim shaklida taxsil olayotgan talabalarga topshiriqlar “HEMIS” dasturida berilgan bo‘ladi. Ammo, uni bajarishda o‘rta va katta yoshdagi talabalar muddat bilan bo‘gliq ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishini 78% aytib o‘tgan. Talabalarga o‘quv jarayonining amaliy, labaratoriya va seminar mashg‘ulotlarida turli masalalar yechimi, o‘quv-texnologik vazifalarni yuklanishi, muammoli materiallarni yechimini topish orqali uslubiy yangiliklar kiritilgan kichik mustaqil ishlarni belgilash bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda [7]. Topshiriq bilan birga uni bajarish bilan bog‘liq videodarslar joylash maqsadga muvoffiq hisoblanadi.

Natijalar. Talabalarning yuqori darajada ta’lim olish imkonini oshirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish qobilyati muhim rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim soatlarida mavzularni puxta o‘zlashtirish yangi bilimlarni egallash uchun ayni muddaodir. Tanlab olingan respodentlar muammolarga yechim sifatida taklif etilgan fikrlarga turlicha reaksiya bildirishdi.

Birinchi muammoga taklif etilgan yechimni to‘liq quvvatlashni bildirishgan, ikkinchi va uchinchi muammoga to‘liq qo‘llab-quvvatlashlarini va taklif etilgan yechimga qo‘shimcha ravishda fandagi nazariy qismni ko‘proq auditoriyada o‘tilishini so‘rashgan. Mustaqil ish mavzularini o‘zlashtirishda vizul (ko‘rgazmali material) materillarni tayyorlash imkoniyati mavjudligi qayd etilgan. To‘rtinchi muammoga taklif etilgan yechimga qo‘shimcha ravishda fandan to‘g‘ri hisoblashlar bajarilmaganligi natijasida yuzaga kelgan texnogen nosozliklarni kundalik hayotda ko‘rsatishni so‘rashgan. Beshinchi muammoga taklif etilgan yechimni qisman qo‘llab-quvvatlashlarini 14 nafar talabadan 5 nafari (36%) zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan mustaqil foydalanish imkoniyati cheklangan ekanligini aytib o‘tishgan (ayniqsa bu zamonaviy 3DMAX kabi qurilish dasturlaridan foydalanishda yaqqol seziladi). Oltinchi va yettinchi muammoga taklif etilgan yechimlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlashlarni ma’lum qilishgan.

Xulosaviy tavsiya. “Qurilish mexanikasi” fani o‘rta va katta yoshli talabalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin, lekin, to‘g‘ri yondashuv va metodologiyalar bilan bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlar, vizualizatsiya, interaktiv dasturlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar bu fanni samarali o‘zlashtirishlari mumkin. Qurilish mexanikasi o‘qitish jarayonida talabalarni motivatsiya qilish, amaliyotga yo‘naltirish va ularga fanning muhimligini ko‘rsatish eng muhim omillardir.

Adabiyotlar:

1. Internet resurs: https://noi.md/ru/zdorovie/kogda-nachinaetsya-srednij-vozrast-536970 . Oxirgi murojaat 24.03.2025.
2. Internet resurs: https://stat.uz/uploads/docs/oliy-talim-yan-dek-2017-uzz.pdf . Oxirgi murojaat 24.03.2025.
3. Селиверстова Нина Анатольевна, Солнышкина Марина Георгиевна. Заочное обучение как образовательный тренд высшей школы // Higher Education in Russia. ISSN 0869-3617 (Print), ISSN 2072-0459 (Online). 2021. Т. 30. № 3. Pages 128-141.
4. Tashnazarov R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida sirtqi ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida // Practical problems and solutions to the use of theoretical laws in the sciences of the 21st century. Tashkent, 6-8 may 2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020. Pages 665-667.
5. Abror Gadaev, Norpulat Toshmatov and Elyor Abilov. Water sources in industrial enterprises and methods of increasing their reliability (on the example of Sherabad cement plant). Cite as: AIP Conference Proceedings 2432, 030117 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089543 . Published Online: 16 June 2022. 030117-1
6. Резер Т. М. Методология организации профессионального обучения граждан старшего возраста: общая концепция// Образование и наука. Том 23, № 4. 2021 / The Education and Science Journal. Vol. 23, № 4. 2021. – С. 11–42.
7. D. Zakirov. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etishning yangi usullarini

yaratish // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-1382-1387 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. 1382-1387-b.

ARXITEKTURA TA'LIMIDA BINO QIRQIMLARI VA KONSTRUKTIV ELEMENTLARINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Ibragimov Najib Xasanovich (PhD), **Xaitov Ma'ruf Bolikulovich,**
Pardayev Rasul To`lqinovich, Matyokubov Bobur Pulatovich
Mirzo ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqola - arxitektura ta'limi jarayonida binolarning konstruktsiyaviy jihatlarini o'rganishning muhimligini, shuningdek, arxitektorlarning qirqimlar va qismlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi. O'qitish jarayonida bu elementlarning funksional, estetik va texnik xususiyatlari haqida ma'lumot berish arxitektorlar uchun muhim amaliy tajriba hisoblanadi. Binoning kesimlari (qirqimlar) arxitektura chizmalarida binoning ichki tuzilishi va funksional joylashuvini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bino qirqimlari arxitektorlar va muhandislar uchun binoning turli qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini va konstruktiv yechimlarini aniq tushuntirish imkonini beradi. Ushbu maqolada bino qirqimlari orqali turli konstruktsiv elementlar, masalan, devorlar, tomlar, ustunlar va zinalar o'rtasidagi aloqalar, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda konstruktiv yechimlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: arxitektuava va qurilish chizmalarida qirqimlar, bino, arxitekturaviy konstruktiv elementlar, qurilish materiallari.

Kirish. Arxitektura chizmalarida bino qirqimlari binoning ichki tuzilishini va funksional joylashuvini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Bino qirqimlari, yoki kesimlar, arxitektorlar va muhandislar uchun binoning turli qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini va konstruktiv yechimlarini aniq ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu chizmalar orqali binoning ichki strukturasini tushunish, materiallar va uslublarni tanlash jarayonida to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Sohada mavjud muammolar. Biroq, arxitektura chizmalarida bino qirqimlari va konstruktsiyalarning o'zaro ta'sirida bir qator muammolar mavjud. Noto'g'ri o'lchovlar, materiallarning yaroqliligi va yomon konstruktsion yechimlar binoning xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi mumkin. Shuningdek, ko'plab loyiha jarayonlarida yetarlicha tajriba va bilim yetishmasligi ham muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Muammolarning kelib chiqish sabablari hamda yechimiga doir ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari. Muammolar asosan loyiha jarayonida o'lchovlarning aniqligiga, materiallarning sifatiga va loyiha jamoasining malakasiga bog'liq. Zamonaviy texnologiyalar va materiallar bilan tanishmaslik, shuningdek, innovatsion yondashuvlardan foydalanmaslik ham muammolarni yanada oshiradi.

Shu bois, arxitektura va muhandislik sohalarida malakani oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, loyiha jarayonlarini samarali boshqarish zarur. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur o'rganish, mavjud muammolarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xorijda, masalan, Yevropa mamlakatlarida arxitektura sohasida innovatsion yondashuvlar va yangi materiallardan foydalanish tajribasi mavjud. Ular zamonaviy konstruktsiyalarni yaratishda barqarorlik, energiya samaradorligi va inson omillariga e'tibor qaratadilar. Bu yondashuvlar binolarni nafaqat estetik, balki funktsional jihatdan ham takomillashtirishga yordam beradi.

Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni to'g'ri tushunish va qo'llash ishchi loyiha chizmalarida muhim ahamiyatga ega. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlarni birlashtirgan holda, arxitekturadagi yangiliklarni amalga oshirish va yanada samarali loyihalar yaratish maqsadida o'zaro ta'sirni yaxshilash zarur.

Tadqiqotning dolzarbligi.

Zamonaviy arxitektura rivojlanishi bilan binolarning konstruktiv elementlari va qirqimlarini to'g'ri tushunish va loyihalash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binoning qirqimlari uning ichki va tashqi elementlari orasidagi bog'liqlikni aniq ifodalashda, shuningdek, konstruktsion elementlar orasidagi muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda bino va inshootlarning dizayni va funktsional imkoniyatlarini oshirish uchun innovatsion konstruktiv yechimlar talab etilmoqda. Shu sababli, qirqimlarni to'g'ri loyihalash, zamonaviy materiallardan foydalanish va konstruksiyalarning barqarorligini ta'minlash arxitektura va qurilish sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy arxitekturada binolarning qirqimlari va ularning konstruktiv yechimlarini chuqur o'rganish, turli qismlarining xususiyatlarini tahlil qilish hamda bu elementlarning zamonaviy va kelajakdagi arxitektura rivojlanishidagi ahamiyatini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Binolarning qirqimlarining asosiy turlarini o'rganish va ularning ahamiyatini aniqlash. Binoning konstruktiv yechimlari va ularning zamonaviy arxitekturadagi o'rni haqida ma'lumot berish. Binoning turli qismlarining xususiyatlarini o'rganish va ularning funksiyalarini aniqlash. Binolar qirqimlarida qo'llanilayotgan yangi materiallar va

texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish. Konstruktiv elementlarning arxitektura rivojlanishida kelajakda qanday rol o‘ynashi haqida prognozlar berish.

Materiallar va usullar Ushbu maqolada binoning konstruktiv yechimlari va kesimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar muammolari amaliy misollar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Maqolada bino kesimlarining shakllantirilishi, bino qismlarining konstruktiv yechimlari va ular orasidagi o‘ziga xos xususiyatlar ko‘rib chiqildi. Bino loyihalarida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha xorijiy tajribalar ham tahlil qilindi. Buning uchun Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion yondashuvlar va ularning barqarorlik, energiya samaradorligi hamda ekologik talablarni bajarishga qaratilgan usullari o‘rganildi.

Bino kesimlari vertikal chiziqlar yordamida amalga oshiriladigan arxitektura chizmasi turi hisoblanadi. Ushbu maqolada bino qirqimlarini yaratish jarayoni va zinapoya, devor, tom kabi asosiy elementlarning konstruktsiyalari hisobga olinadi. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlari o'rtasidagi aloqalar shartli ravishda aniqlanadi va 1:100, 1:50 kabi masshtabda tahlil qilinadi. Kesimlar bo‘yicha talablar va ularning chizmada ko‘rsatilish tartiblari xalqaro me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy qism.

1. Binolarming qirqimlari. Qirqimlar-shartli tiniq tekislik yordamidagi vertikal kesim ning ortogonal proyeksiyasidir. U binoning ichki va tashqi elementlari orasidagi bog’liqlikni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

Qirqim chizmasi binoning uzunasiga va eniga bir necha xarakterli yo‘nalishlar (eshik va derazalar, zinapoyalar, ayvonlar) bo‘yicha bajariladi va harf yoki raqam orqali ifodalanadi. Masalan, «A-A», «2-2». Binoning qayeri qirqimga tushsa, shu joyi albatta qalin chiziq bilan chiziladi va qirqimga tushmagan yerlarining hammasi ingichka chiziqlar bilan ajratiladi. Qirqimlarning ortogonal va aksonometrik turlari mavjud (1-rasm). Qirqimlarda o ‘lcham lar tarh lardan farqli o‘laroq, vertikal holatda chizma yoniga alohida chiqarib qo‘yiladi va «belgi» deb ataladi. Tarh va tarz kabi qirqim ham 1:200, 1:100, 1:50, 1:25 masshatblarda bajariladi.



1-rasm. Qirqimlarning ortogonal va perspektivali turlari (a-rasm mualliflar chizmasi, b-rasm [1])

Qirqimni shakllantirish tartibi.

1. Koordinatsiya o‘qlari va asosiy sathlarning (M 1:100) gorizontal chiziqlari ingichka chiziqlar bilan o‘tkaziladi.

1-qavatning toza pol sathi nol darajali deb qabul qilinadi. Qavatning balandligi turar joy binolarida odatda (topshiriq bo‘yicha poldan polgacha) - 3000 mm, pol konstruksiyasi bilan yopmaning qalinligini shartli ravishda 300 mm (hamma uchun), xonaning balandligi (topshiriq bo‘yicha poldan shipgacha) - 3000 - 0,300 = 2,700 m deb qabul qilamiz. 2-qavatdagi shift belgisi - 2,700+3,000=5,700 m (2-rasm).



2-rasm. Qavatlar sathini belgilovchi o’lchamlar (mualliflar chizmasi)

2. Yupqa chiziqlar bilan devorlarning konturlari bog'lanishni hisobga olgan holda chiziladi (topshiriq bo'yicha), to'sinlarning qalinligi ko'rsatiladi.

3. *Parda devorlar, deraza va eshik o'rinlari ingichka chiziqlar bilan chiziladi.*

Deraza o'rnining pastki qismi pol sathidan 750-800 mm balandlikda, deraza o'rnining balandligi 1500 mm (topshiriqqa ko'ra), eshikning balandligi 2100 mm qilib o'tkaziladi.

Qirqimda zinapoyani hisoblash va chizish

Zinapoya har bir qavat darajasida va qavatlar o'rtasida o'rnatiladigan zinapoya marshlari (3 dan 18 gacha zinapoyali qiya elementlar) va zinapoya maydonchalaridan iborat bo'lib, zinapoya katagiga joylashtiriladi.

Zinapoyaning asosiy elementi zina bo'lib, u zina kengligi (qadam) va zina balandligi (pog'ona) dan iborat (7-rasm).

Pog'onalarning o'lchami odamning o'rtacha qadami bilan aniqlanadi

2h + b = 600 мм

Qadam – 250-300 мм (300)

Pog'ona – 135-180 мм (150)



3-rasm. Pog'onalar o'lchami (mualliflar chizmasi)

Hisoblashda shuni hisobga olish kerakki, marshdagi qadamlar balandliklari qadamlar kengligiga qaraganda bitta ko'p, chunki bitta qadam maydonchaga to'g'ri keladi (friz pog'ona = 220 mm)

Ikki marshli zina: *Qavat balandligi - 3000 mm 1-marsh balandligi: 3000 : 2 = 1500 mm marshdagi pog'onalar soni: 1500 : 150 = 10 pog'ona, 9 – qadam Marsh joylashuvi (gorizontal proyeksiya uzunligi): 300 * 9 = 2700 mm*

Zinapoya katagi uzunligi (L): 6000 - 190 - 200 = **5610** мм (6000 – o'qlar orasidagi masofa; 190, 200 – devor bog'lanishlari)

Maydonchalar eni: Ikki maydonchaga 5610 - 2700 = **2910** мм qavatlar orasidagi – **1310** мм (min. – 1200 мм) qavatdagi – **1600** мм

Marsh eni: (planda tuzish uchun) 2800 - 100 (marshlar orasidagi oraliq) = 2700 : 2 = **1350** мм

Marsh balandligi: 1500 mm

Marsh uzunligi: 300 · 9 = 2700 mm.

Maydonchalar eni: qavatlararo – 1310 mm. qavatdagi – 1600 mm. Maydoncha qalinligi 220 mm.

Zinapoya marshlari va maydonchalari panjaralar bilan o'ralgan, panjara balandligi 900 mm, qavatlararo maydonchada deraza o'rni chiziladi [1].

Podyezdga kirish eshigi balandligi (barcha uchun) - 2100 mm. Qavatlararo maydoncha balandligi – 1500 mm. 1500 - 220 (qavatlararo maydonchaning qalinligi) - 100 (min. eshik tirqishining yuqori qismigacha bo'lgan masofa) = 1180 mm, 2100 - 1180 = 920 mm. Pog'onalar soni: 900 :150 = 6 pog'ona, 5 qadam. Kichik marshni belgilash 5 · 300 = 1500 (4-rasm).



4-rasm. Ikk qavatli turar joy binasining ko'ndalang kesimi (mualliflar chizmasi)

Binoning konstruktiv yechimlari. Binoni ko'tarib turuvchi konstruksiyalari ya'ni poydevori, devorlari, alohida tayanchlari, qavatlararo yopmalari fazoda bir-biri bilan bog'lanib bino strukturasini tashkil etadi. Bino strukturasi ko'tarib turuvchi elementlarining fazoda qanday joylashtirilganiga qarab binolarni quyidagi konstruktiv tiplariga ajratiladi [2]:

-karkassiz (sinchsiz) binolar o'zaro bog'langan tashqi devorlar va qavatlararo yopmalardan iborat bo'lgan bikr va mustahkam qutidan iborat (5-a rasm). Binoning tashqi va ichki devorlari orayopmalar hamda tom og'irligini qabul qiladi. Turar joylar, maktablar va boshqa jamoat binolari qurilishida ana shu konstruktiv tip keng tarqalgan.

karkasli (sinchli) binolarda ustunlar sistemasi gorizontal to'sinlar bilan birgalikda bino skletini tashkil qiladi (5-b rasm). Binoning karkasi binoga ta'sir qiladigan barcha kuch va og'irlikni qabul qiladi. Karkasli bino konstruksiyalari vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qilib, ko'tarib turuvchi va himoyalovchi guruhlarga bo'linadi. Bu holda tashqi devorlar faqat himoyalovchi funksiyani bajarib ular o'z-o'zini ko'taruvchi yoki ilib kuyilgan bo'lishi mumkin.

Bog'lanishli karkaslarda ustun va to'sin orasidagi tugunlar bikr bo'lmaganligi uchun gorizontal ta'sir etuvchi kuchlarni qabul qiluvchi qo'shimcha bog'lanishlar o'rnatish talab etiladi. Bunday bog'lanishlar vazifasini ko'pincha diafragmani tashkil qiluvchi hamda gorizontal kuchni bikr vertikal diafragmaga uzatuvchi qavatlararo yopmalar bajaradi.

a)  b) 

5-rasm. Binolarning konstruktiv tiplari [3]. a) karkassiz (sinchsiz) bino, b) karkasli (sinchli) bino.

Keyingi paytlarda qurilish amaliyotida kombinatsion, ya'ni ramali-bog'lanishli karkaslar ko'proq uchramoqda. Bunda bir yo'nalishda bog'lanishlar o'rnatilsa, ikkinchi yo'nalishda ramalar o'rnatiladi.

Shuni aytish kerakki, yirik panelli jamoat va turar-joy binolari qurilishida karkasli binolar qo'llash ko'proq foydalidir. Bulardan tashqari, turar-joy binolari qurilishida zavodlarda tayyorlangan yirik hajmiy bloklar keng qo'lamda qo'llanilmoqda.

Umuman olganda, bino va inshootlar konstruksiyalari sifatida karkas konst ruksiyalar bilan birqatorda panel, yirik panel, monolit, temir-beton, hamda kombinatsiyalashtirilgan konstruksiyalar qo'llaniladi.

Binoning turli qismlari o'rtasidagi o'ziga xos xususiyatlari. Binolarining yer usti va yer osti qismlari bo'lib ularning binolarining asosiy konstruktiv elementlaridan ya'ni poydevori, devorlari, qavatlararo yopmalar, alohida tayanchlari, tom deraza, eshiklar, zinalar hamda ichki to'siq (parda) devorlaridan iborat bo'ladi [4].

Poydevorlar binoning yer ostki qismi bo'lib, ular bino og'irligini o'ziga qabul qilib, uni asosga uzatuvchi konstruksiyadir.

Devorlar o'z vazifasiga va joylashishiga ko'ra ichki va tashqi to'siq, ya'ni xonani tashqi muhit ta'sirida himoyalovchi yoki xonalarning bir-biridan ajratib turuvchi bo'lib, bir qavatning o'zida ular yuk ko'taruvchilar vazifasini bajaradi. Devorlar yuk ko'tarib turuvchi va ko'tarmaydigan turlariga bo'linadi.

qavatlararo yopmalar binoning ichki bo'shlig'ini qavatlarga bo'ladi va ustunlarga maxsus mahkamlangan rigel yoki progon deb ataluvchi to'sinlar ustiga yotqiziladi, ayrim hollarda esa to'g'ridan-to'g'ri ustunga mahkamlanadi. qavatlararo yopmalar doimiy va vaqtinchalik yuklarni ko'tarish bilan birga devorlarni o'zaro bog'laydi va ularning ustivorlarini ta'minlaydi va butun binoning fazoviy bikirligini oshiradi. Orayopmalar binoda joylashgan o'rniga qarab qavatlararo yopmalar (binolarni qavatlarga ajratadi), yerto'la usti orayopmasi (1-qavatni yerto'ladan ajratib turadi) va chordoq orayopmasiga (teppa qavatini chordoqdan ajratadi) bo'linadi.

Tomlar bino va uning konstruksiyalarini atmosfera yog'in-sochin ta'siridan saqlovchi konstruktiv elementdir. Ular tom yopishuchun ishlatiladigan material va uni ko'tarib turuvchi konstruksiyalardan iborat bo'ladi. Tomlar konstruktiv tuzilishi jihatidan chordoqli va chordoqsiz tomlarga bo'linadi [5].

Chordoq binoning teppa qavati yopmasi bilan tom yopmasi orasida joylashgan bo'shliq qismidan iborat. Chordoqsiz tomda binoning teppa qavati yopmasi bilan tomi birlashgan bo'ladi. Tomlar nishabli va tekis bo'lishi mumkin. Tekis tomlardan dam olish maydoni sifatida va boshqa maqsadda foydalanish mumkin.

Binolar (qavatlararo) bino qavatlarini o'zaro bog'laydi va odamlarni binodan evakuatsiya qilish yo'li vazifasini ham o'taydi. Zinalar joylashgan maydonga zinapoya deb ataladi.

Zinalar ikki konstruktiv element - zinaning ikki sahni va ular orasidagi qiya joylashgan marshdan iborat bo'ladi. Zina marshda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun marsh chekkasiga zina panjarasi o'rnatiladi.

Derazalar xonalarga yorug'lik, quyosh nuri tushishi hamda xonalarni shamollatish uchun xizmat qiladi. Ular deraza o'rni deraza kesakisi va deraza tabakalardan iborat bo'ladi.

Eshiklar xonalarni bir-biri bilan bog'laydi. Shuningdek binoga kirish va undan chiqish yo'li hisoblanadi. Ular derazadagi yoki pardevordagi eshik o'rni, eshik kesakisi va tabaqasidan iborat bo'ladi [6].

Natijalar. Binoning qirqimlari orqali vertikal va gorizontal tekisliklarda binoning konstruktsiv elementlari o'zaro bog'liq holda aniqlanadi. Bu chizmalar yordamida materiallar va uslublarni tanlashda to'g'ri qarorlar qabul qilinadi. Kesimlar devorlar, tomlar, zinapoyalar kabi asosiy elementlarning yuk ko'tarish qobiliyati va stabilligini o'lchash imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va qurilish amaliyotlari orqali binolarni yaratishda barqaror konstruksiyalar va yangi materiallardan foydalanishning ahamiyati ko'rsatildi.

Bino kesimlarining turlari. Bino kesimlari binoning ichki va tashqi elementlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda bino kesimlari harf yoki raqamlar orqali belgilanadi va qalin chiziqlar bilan ifodalanadi. Ortogonal va aksonometrik kesimlar orqali binoning turli yo'nalishlardagi qismlari tasvirlanadi. Binoning pol sathi va qavatlar balandligini belgilashda aniq masshtablardan foydalaniladi.

Misol uchun, zinapoyani kesimda ko‘rsatish uchun pog‘onalar balandligi va kengligi hisob-kitob qilinadi. Zinapoya kesimlari bino qavatlari o‘rtasida harakatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Pog‘onalar o‘lchami odatda o‘rtacha qadam uzunligi asosida belgilanadi va qavatlar balandligiga mos ravishda chizma shakllantiriladi.

Bino konstruktiv yechimlari. Binoning ko‘taruvchi konstruksiyalari uning barqarorligini va yuk ko‘tarish qobiliyatini ta'minlaydi. Bino konstruksiyalari asosan devorlar, ustunlar, poydevor va qavatlararo yopmalar orqali tashkil etiladi. Binolar konstruktiv yechimlariga ko‘ra karkassiz va karkasli turlarga bo‘linadi. Karkassiz binolar tashqi va ichki devorlarga tayanuvchi mustahkam tuzilmaga ega bo‘lsa, karkasli binolar ustunlar va to‘sinlardan tashkil topgan skletga asoslanadi.

Zamonaviy binolar qurilishida yirik panelli konstruksiyalar, monolit temir-beton va kombinatsiyalashgan konstruktsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, karkasli binolarda ustunlar va to‘sinlar tizimi ichki elementlarni yukdan ozod qilib, binoning barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Binoning turli qismlarining xususiyatlari. Binoning yer osti va yer usti qismlari o‘ziga xos konstruktiv yechimlarga ega. Poydevorlar bino og‘irligini asosga o‘tkazuvchi element sifatida xizmat qiladi. Devorlar esa xonalarni tashqi ta'sirlardan himoyalovchi va ichki bo‘linmalarni tashkil etuvchi element sifatida ishlaydi. Qavatlararo yopmalar, zinapoyalar, tom va derazalar kabi elementlar binoning umumiy strukturasi va funksionalligini ta'minlaydi.

Zinapoya marshlari va maydonchalari orqali qavatlar o‘rtasida harakatlanish imkoniyati yaratiladi. Derazalar esa binoning ichki muhitiga yorug‘lik tushirish va shamollatish imkoniyatini beradi.

Munozara. Bino qirqimlari orqali turli konstruktiv elementlar, masalan, devorlar, tomlar, ustunlar va zinalar o'rtasidagi aloqalar ko'rsatiladi. Har bir qirqim binoning struktural barqarorligini, yuk ko'tarish qobiliyatini va ob-havodan himoya qilish funksiyalarini tasvirlaydi. Ushbu aloqalar, shuningdek, binoning ichki muhitini va inson harakatini belgilaydi.

Taraqqiyot tendensiyalari. Hozirgi kunda arxitektura sohasida barqarorlik, energiya samaradorligi va ekologik toza materiallarga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendensiyalar bino loyihalarining sifatini oshirishga, muammolarni oldini olishga va foydalanuvchilarga qulay muhit yaratishga qaratilgan. Bino qirqimlari va konstruktiv yechimlarni birlashtirish orqali zamonaviy arxitektura talablarga javob beradigan binolar yaratish mumkin.

Bino kesimlarining to'g'ri chizilishi qurilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri o‘lchovlar yoki materiallarning yaroqliligi bilan bog‘liq muammolar binoning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. Yevropa mamlakatlari tajribasi, jumladan, zamonaviy konstruktiv yechimlar va barqarorlikka qaratilgan yondashuvlar, muammolarni hal qilishning samarali usuli sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuvlar energiya samaradorligi va inson omillarini hisobga olgan holda binolarning texnik va estetik jihatlarini yaxshilaydi.

Arxitektura sohasida mavjud muammolar. Bino kesimlari va konstruktiv yechimlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni noto‘g‘ri tushunish loyihalash jarayonida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, noto‘g‘ri o‘lchovlar, materiallar yaroqsizligi va noto‘g‘ri loyihalash binolar xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Bu esa binolarni barqaror va xavfsiz qilish uchun chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lish zarurligini ta'kidlaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi. Yevropa va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda arxitektura va qurilish sohasida barqarorlikka katta e'tibor qaratiladi. Ushbu mamlakatlarda yangi texnologiyalar va innovatsion materiallardan foydalanish qurilish sifatini oshirishga yordam beradi. Masalan, energiya samaradorligini oshirish uchun issiqlik izolyatsiyasi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik toza materiallar tanlanadi.

Xulosa. Binoning kesimlari va konstruktiv elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir binoning umumiy barqarorligi va funksionalligini ta'minlash uchun muhimdir. Arxitektura va qurilish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy yondashuvlar va materiallardan foydalanish, bino qirqimlarini to'g'ri tahlil qilish qurilish sifatini oshirishga yordam beradi. Bino kesimlari bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish va qo‘llash orqali zamonaviy talablarni bajaruvchi inshootlar yaratish mumkin.

Zamonaviy arxitekturadagi binolarning qirqimlari konstruktiv yechimlar va turli qismlarning o‘zaro bog‘liq jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Bu qirqimlar nafaqat estetik, balki funksional jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ular binoning ichki va tashqi dizayn elementlarini, yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni va binoning umumiy barqarorligini ta’minlaydi. Qirqimlarning loyihalashida yuk ko‘tarish qobiliyati, foydalanilayotgan materiallar va arxitekturaning ekologik jihatlari e’tiborga olinishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalar va yangi materiallar qirqimlarda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga imkon berdi. Masalan, kompozit materiallar va yuqori chidamlilikka ega armaturalar qirqimlarning o‘lchamini qisqartirishga va yuk ko‘taruvchi tuzilmalarni yanada kuchaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, arxitekturaviy estetika va funksional imkoniyatlarni uyg‘unlashtirish zamonaviy binolarning nafaqat mustahkam, balki ko‘rkam va samarador bo‘lishini ta’minlaydi.

Bino qirqimlarida konstruktiv elementlarning to‘g‘ri tanlanishi va joylashtirilishi qurilish jarayonida samaradorlikni oshiradi hamda ekspluatatsiya davrida uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi. Shu sababli, qirqimlar nafaqat texnik element sifatida, balki arxitektura va muhandislikning uyg‘unlashgan yechimi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, bu yondashuv kelajakda yanada barqaror va innovatsion binolar yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pin page // https://in.pinterest.com/pin/14636767535092081/.
2. Cansun, M.O., Akyürek, M.E. Yapı Elemanları-II: Döşeme ve Merdiven. İstanbul: İZÜ Yayınları, 2023.
3. Sharipov A. Arxitektura konstruktiv elementlari. Toshkent: Fan nashriyoti – 2021
4. Binolar klassifikatsiyasi va loyihalash asoslari – YouTube // https://www.youtube.com/watch?v=DtxjWSKI-Znc
5. Smith J. Sustainable Building Design. London: Architecture Press – 2020
6. Olsson K. Innovative Building Materials in Europe. Berlin: Springer – 2019
7. Karimov D. Binolarni loyihalashning zamonaviy usullari. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi – 2022
8. Ibragimov, N. (2024). FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 340-342.
9. Khasanovich, I. N. (2023). DEVELOPMENT OF SPA (SANUS PER AQUAM) ZONES IN WATER FACILITIES DEVELOPMENT OF SPA (HEALTH THROUGH WATER) ZONES IN WATER FACILITIES. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, (2), 306-308.
10. Khasanovich, I. N., & Sindarovich, U. A. (2020). Foreign Experience of Architecture of Water and Entertainment Health Institutions. *JournalNX*, *7*(07), 212-217.
11. Исламова, Д. Г. (2023). ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДСКИХ КВАРТАЛОВ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 36-39.Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, *2*(2), 36-39.
12. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Devorlarning issiqlikka chidamliligini oshiruvchi materiallarning xususiyatlari. *Journal of engineering, mechanics and modern architecture*, 765-768.
13. Salomovich, T. E., Samariddinovich, S. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Improving the Heat Preservation Properties of the Exterior Walls of Brick Buildings. *International Journal of Culture and Modernity*, *28*, 15-20.
14. Bolikulovich, K. M., & Po'latovich, M. B. (2024). CALCULATION OF THE TEMPERATURE FIELD OF EXTERNAL ENCLOSING STRUCTURES USING THE FINITE DIFFERENCE METHOD. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, 165-169.
15. Mamadaliyev, X. E., & Fazilov, F. X. (2024). Prospects for the Use of Coal Ash in the Construction Industry. *International Journal of Scientific Trends*, *3*(2), 45-48.
16. Bolikulovich, K. M. (2023). STUDY OF THE THERMAL CONDITIONS OF CONNECTIONS OF WINDOW BLOCKS TO A WALL. *Gospodarka i Innowacje.*, *33*, 323-327.
17. Bolikulovich, K. M., & Pulatovich, M. B. (2022). HEAT-SHIELDING QUALITIES AND METHODS FOR ASSESSING THE HEAT-SHIELDING QUALITIES OF WINDOW BLOCKS AND THEIR JUNCTION NODE WITH WALLS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(11), 829-840.

QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA DUAL TA'LIMNING AHAMIYATI VA BU BORADAGI JAHON TAJRIBASI

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich,
Jizzax politexnika instituti "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasi professori

Annotatsiya. Maqolada qurilish sohasida malakali kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimining ahamiyati yoritilgan. Germaniya, Shveytsariya va Avstraliya kabi ilg'or davlatlar tajribasi asosida dual ta'limning samaradorligi tahlil qilingan. O'zbekistonda joriy etilgan dastlabki dual ta'lim mexanizmlari, ularning kuchli va zaif jihatlari, shuningdek, statistika va grafik ma'lumotlar asosida erishilgan natijalar tahlil etilgan. Qurilish sohasida tizimni kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Dual ta'lim, qurilish sohasi, kadrlar, amaliyot, nazariya, Germaniya tajribasi, Shveytsariya, O'zbekiston, ishga joylashish, mentorlik.

Аннотация. В статье рассматривается значение дуального образования в подготовке квалифицированных кадров для строительной отрасли. Проанализированы эффективные практики Германии, Швейцарии и Австралии. Проведён сравнительный анализ с узбекским опытом, включая преимущества, недостатки и текущие результаты, полученные на основе статистических и графических данных. Представлены научно обоснованные предложения по расширению дуальной модели в строительной сфере.

Ключевые слова. Дуальное обучение, строительная отрасль, кадры, практика, теория, опыт Германии, Швейцария, Узбекистан, трудоустройство, наставничество.

Annotation. This article examines the role of dual education in training qualified personnel for the construction sector. It analyzes best practices from Germany, Switzerland, and Australia, and compares them to Uzbekistan's emerging dual education system. Strengths, challenges, and results are evaluated using statistical and graphical data. The study concludes with evidence-based recommendations for the expansion of dual education within the construction industry.

Keywords. Dual education, construction, workforce, practice, theory, Germany, Switzerland, Uzbekistan, employment, mentorship.

Kirish. Qurilish sohasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivoji bevosita malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Ammo, an’anaviy ta’lim tizimi sohada zarur amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni yetarlicha tayyorlay olmayapti. Natijada, malakali ishchi kuchi tanqisligi kuchaymoqda. Shu bois, nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtiruvchi dual ta’lim tizimi global e’tiborni tortmoqda. Bu tizim Germaniya va Shveytsariyada shakllanib, ayniqsa sanoati rivojlangan davlatlarda samarali ishlamoqda. Unga ko‘ra, talabalar bilimni ta’lim muassasasida, amaliyotni esa korxonalarda oladilar. Germaniyada OTM bitiruvchilarining yarmi, Shveytsariyada esa uchdan ikki qismi dual ta’limni tanlaydi. Bu tajriba yoshlarda ishsizlik darajasining pastligiga va iqtisodiyotga mos malakali kadrlar yetishtirilishiga olib kelgan. Qurilish sohasi esa aynan amaliy ko‘nikmalarga tayanadigan soha bo‘lib, an’anaviy o‘quv dasturlari bu ehtiyojni to‘liq qoplay olmaydi. Bitiruvchilar nazariy bilimga ega bo‘lsalarda, real ish jarayonida yetarli tayyorgarlikka ega emaslar. O‘zbekistonda ham sohada “malakali mutaxassislar tanqisligi” mavjudligi kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, dual ta’lim qurilish sohasi uchun dolzarb va samarali yondashuv sifatida qaraladi. Bu tizim orqali talabalar o‘qish jarayonida qurilish obyektlarida ishlash tajribasini orttiradilar va zamonaviy texnologiyalar, xavfsizlik qoidalarini amaliy o‘zlashtiradilar. Germaniyada ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida uzviy hamkorlik mavjud bo‘lib, shuning negizida zarur mutaxassislar tayyorlanadi. Shveytsariyada esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi integratsiya asosida nazariya va amaliyot uyg‘un holda olib boriladi. Shunga o‘xshash tizimlar Avstriya, Janubiy Koreya, Polsha va boshqa davlatlarda ham joriy qilingan. O‘zbekiston esa so‘nggi yillarda dual ta’limni joriy etishda ilk amaliy qadamlarni qo‘ymoqda. 2021-yilda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan dual ta’lim tartibi tasdiqlandi, 2022/2023 o‘quv yillarida esa 57 korxona bilan hamkorlikda 864 nafar talaba real ish joyida amaliyot o‘tab, ijobiy natijalarga erishildi [2]. Shunga qaramay, tizimni keng tatbiq etishda muayyan korxonalar ishtirokining cheklanishi, o‘quv dasturlar yangilanishi, ustozlar malakasini oshirish kabi muammolar mavjud. Talabalarni kasbga yo‘naltirish va ta’lim sifatini oshirishga oid chora-tadbirlar davom etmoqda. Davlat darajasida bu sohadagi e’tibor ortib, qurilish kabi ustuvor tarmoqlarda dual ta’limni keng joriy etish zarurligi alohida ta’kidlanmoqda. Qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivoji malakali kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Ammo, an’anaviy ta’lim tizimi amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashda mukammal emas. Shu sababli ham dual ta’lim tizimi, o‘qish va ishlashni uyg‘unlashtiruvchi model sifatida bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizimda nazariy bilimlar ta’lim muassasasida, amaliy ko‘nikmalar esa korxonalarda shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Dual ta’lim tizimi bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda malakali kadrlar tayyorlashda samarali yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637) hamda Prezident Farmoni (PF–6108, 2020-yil 6-noyabr) da bu tizimni bosqichma-bosqich joriy qilish asoslari belgilangan. Ushbu me’yoriy hujjatlar O‘zbekistonda ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish va yoshlarning bandligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. U. Alijonov (2024) tomonidan olib borilgan tahlillarda O‘zbekistonda dual ta’limni joriy etish tajribalari, dastlabki natijalari va statistik ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, ayrim hududlardagi professional ta’lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik tajribalari, talabalarning amaliy ko‘nikmalarni egallashi va ishga joylashish darajasi tahlil qilingan. Shveytsariya tajribasi bu borada ilg‘or model sifatida qaralgan. Shveytsariya ta’lim va tadqiqot kotibiyati (SERI) hamda tashqi ishlar federal departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatdagi dual tizim talabalarni real ish muhitida tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, natijada yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi dunyo bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Avstraliya milliy kasbiy ta’lim tadqiqot markazi (NCVER) ning hisobotida esa dual tizimning afzalliklari bilan bir qatorda, duch kelinayotgan muammolar ham yoritilgan, jumladan, ish beruvchilar bilan o‘quv muassasalari o‘rtasidagi muvofiqlik, moliyalashtirish mexanizmlari va monitoring tizimining takomillashuvi muhim ekani qayd etilgan. Jahon bankining 2022-yilgi FRED platformasi orqali taqdim etilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Germaniyada yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi dual tizim tufayli O‘zbekistonga nisbatan ancha past bo‘lib, bu tizim samaradorligini raqamlar orqali ham isbotlaydi.

Maqolani tayyorlashda me’yoriy hujjatlar tahlili, statistik ma’lumotlar solishtiruvlari va xalqaro tajriba o‘rganishga asoslangan kompleks yondashuv qo‘llanildi. O‘zbekistonda dual ta’lim tizimining huquqiy asoslari tegishli qonun va farmonlar orqali tahlil qilindi. Mahalliy tajriba U. Alijonov (2024) ma’lumotlari asosida o‘rganildi. Shveytsariya va Avstraliya tajribalari esa nufuzli xalqaro manbalar orqali solishtirildi. Bundan tashqari, Jahon banki statistikasi asosida Germaniya va O‘zbekiston yoshlari o‘rtasidagi ishsizlik darajasi taqqoslandi. Shu orqali dual ta’lim tizimining samaradorligini baholash imkoniyati yaratildi.

Natija va tahlillar. Germaniya va Shveytsariya dual ta’limning yetakchi modellari sifatida e’tirof etiladi. Bu tizimlar yoshlarda bandlik darajasining oshishiga va mehnat bozoriga mos malakali kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda ushbu modelni joriy etishni boshladi. 2021-yildan boshlab bir qator professional ta’lim muassasalarida startap loyihalar yo‘lga qo‘yilib, dual tizim asosida talabalar korxonalarda amaliyot o‘tay boshladilar. Bugungi kunda mamlakat bo‘ylab 234 ta ta’lim muassasasida 13 mingga yaqin talaba dual ta’limda tahsil olmoqda, bu jarayonga 3600 dan ortiq korxona hamkor sifatida jalb qilingan [3]. Mazkur tizimning kuchli jihatlaridan biri – davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanganligida va bu

boradagi huquqiy asosning yaratilganidadir. Xalqaro hamkorlik, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash va ustozlar malakasini oshirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Masalan, Germaniya bilan hamkorlikda 70 ta modullar negizida o'quv dasturi ishlab chiqilgan, yuzlab professor-o'qituvchilar xorijda malaka oshirgan. Shunga qaramay, tizimda korxonalar ishtirokining cheklanganligi, o'quv jarayonini muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar, ustozlar malakasining yetarli emasligi va moddiy-texnik bazaning sustligi kabi bir qator muammolar kuzatiladi. Hozirgi paytda bu muammolarni bartaraf etish uchun rag'bat mexanizmlari, subsiyalar va monitoring tizimi joriy etilmoqda.

Germaniya, Shveytsariya va Avstraliya tajribasi dual ta'lim orqali bitiruvchilarni ishlab chiqarishga tayyor holatda yetishtirish, yoshlar ishsizligini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Germaniyada dual ta'limdan o'tganlarning 90% dan ortig'i bitirgach darhol ish bilan ta'minlanadi. Shveytsariyada esa yoshlar ishsizligi 3–4 % atrofidadir. Avstraliyada esa tizimni boshqarishdagi qiyinchiliklarga qaramay, u iqtisodiyot uchun foydali yechim sifatida qo'llanilmoqda (1-jadval). Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda dual ta'limni, ayniqsa, qurilish sohasida keng joriy etish, yoshlarning raqobatbardosh malaka egallashiga xizmat qiladi. Buning uchun o'quv dasturlarini yangilash, korxona ishtirokini oshirish, ustozlar tayyorgarligini kuchaytirish, shuningdek, nazorat va monitoringni yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya mustahkamlanadi va iqtisodiyotga malakali kadrlar yetkazib beriladi.

Quyidagi solishtirma jadval dual ta'limning mehnat bozori bilan bog'liqligini yaqqol ochib berishga xizmat qiladi. Bunda Germaniya va Shveytsariya kabi dual tizimni keng joriy qilgan mamlakatlarda yoshlar ishsizligi darajasi nisbatan past (6 % va 3–4 % atrofida) ekani ko'rinadi, holbuki, an'anaviy ta'lim modellari ustun bo'lgan ko'plab davlatlarda bu ko'rsatkich ikki xonali raqamga yetishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda hozircha yoshlar ishsizligi – 11 % ni tashkil etib, Germaniya ko'rsatkichidan qariyb ikki baravar yuqoridir [2]. Albatta, ishsizlik darajasiga ko'plab omillar ta'sir qiladi, lekin dual ta'limning joriy etilishi bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekani yuqoridagi raqamlarda ham aks etgan. Dual tizim kuchli bo'lgan davlatlarda yoshlarga mehnat bozoriga kirishda "o'tish davri" deyarli sezilmaydi – ular ta'lim muassasidan ishlab chiqarishga bemalol o'tadilar va statistikada "band" ko'rinadi. Bundan tashqari, dual ta'lim bitiruvchilarining bandlikdan tashqari yana bir afzalligi – ularning malakalari mehnat bozorida darhol qo'llanilishi va yuqori samara berishi mumkin.

Dual ta'lim tizimini ifodalovchi ko'rsatkichlar

1-jadval

Mamlakat	Dual ta'lim qamrovi (ishtirokchilari)	Yoshlar ishsizligi darajasi (15–24 yosh, %)	Tavsifli xususiyatlar
O'zbekiston	2024-yil 234 ta professional ta'limda - 13 ming talaba dual ta'limda o'qigan (2022-yilda qabul – 45 ming edi)	11 % (2022)	Dual ta'lim joriy etish bosqichma-bosqich kengaymoqda, huquqiy baza yaratilgan, dastlabki natijalar ijobiy, lekin korxonalar ishtiroki yetarli emas.
Germaniya	O'rta maktab bitiruvchilarining - 50% dual tizimga kiradi (yillik ≈500 mingdan ortiq shogird); 400 ming korxona ishtirok etadi.	6 % (2022)	Markazlashgan yondashuv, sanoat va savdo palatalari orqali qat'iy sifat nazorati, yoshlar bandligi juda yuqori, bitiruvchilarning aksariyati ish bilan ta'minlanadi.
Shveytsariya	O'rta maktabdan keyingi yoshlarning ~ 66% kasb-hunar (dual) tizimini tanlaydi (har yili ~210 ming shogird); iqtisodiyot ehtiyojiga mos 230+ kasb yo'nalishi mavjud.	Yevropada eng pastlardan (3–4 %)	"Shveytsariya modeli" – yuqori sifat va moslashuvchanlik, kuchli ijtimoiy hamkorlik (davlat–kanton–biznes), deyarli barcha bitiruvchilar mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kiradi.
Avstraliya	Kasbiy ta'limda shogirdlar ulushi - 17% (2020), minglab kompaniyalar (asosan qurilish, sanoat, servis) jalb etilgan.	8% (2022)	Apprenticeship (shogirdlik) tizimi tarixi uzoq, federal tizimning murakkabligi sabab muvofiqlash - tirish muammolari mavjud, dasturlarni tamomlash ko'rsatkichlarini oshirish dolzarb.

Misol uchun, Germaniyada tadqiqotlar dual ta'lim bitiruvchilarining 90 % dan ortig'i o'qishni tamomlagach qisqa muddatda ishga joylashishini ko'rsatgan. Shuningdek, Shveytsariya tajribasida ham deyarli barcha shogirdlar bitirishi bilan o'z kasbida ishlashga tushadi va ayrimlari keyinchalik malakasini oshirib, oliy ta'limga o'tadi – bu jarayonda ham ular ishsiz yurmaydi. Dual ta'lim samaradorligini ifodalovchi yana bir ko'rsatkich – ish beruvchilarning qoniqishi va ishtirokidadir. Xalqaro tajribada ko'plab kompaniyalar dual tizimni o'zlari uchun foydali investitsiya deb biladilar, masalan, Germaniyada korxonalarning 80 % dan ortig'i shogirdlarning tayyorgarligidan mamnun ekani, ular kelgusida malakali xodim yetishmasligi muammosini hal qilishda dual tizim eng muhim vosita bo'lishini ta'kidlashgan. O'zbekistonda hali bunday statistik

ma'lumotlar ochiqlanmagan bo'lsada, dastlabki natijalarga ko'ra, dual ta'limda qatnashgan talabalarning korxonalardagi mehnat intizomi va ko'nikmalaridan ish beruvchilar rozi ekani kuzatilmoqda (masalan, qurilish tashkilotlari professional ta'lim bitiruvchilari nazariy jihatdan puxta va ayni paytda real qurilish obyektlarida tajriba orttirgan bo'lsa, ular bilan ish yanada samarali kechishini bildirganlar). Kelgusi yillarda bunday samaradorlik ko'rsatkichlari (bitiruvchilar bandlik foizi, ish beruvchilar fikri, iqtisodiy samara va h.k.) bo'yicha alohida tadqiqotlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekistonda dual ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va qurilish kabi sohalarda muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- dual ta'lim hozircha ayrim sohalarda (masalan, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish) yaxshi yo'lga qo'yildi. Endilikda uni qurilish industriyasining barcha bo'g'inlarida (loyiha ishlari, qurilish materiallari sanoati, montaj va xizmat ko'rsatish) ham qamrab olish lozim. Shuningdek, dual tizimning qamrovi hozir 9-sinf bitiruvchilari kiradigan kasb maktablari darajasida yuqori bo'lsa, kelajakda ayrim oliy ta'lim yo'nalishlarida ham dual bakalavriat dasturlarini joriy etish mumkin (masalan, qurilish muhandisligi yo'nalishida 3-4 kursda o'qishning yarmi qurilish korxonalarida amaliyot tarzida tashkil etilishi). Bu borada 2025-yil 16-yanvarda oliy ta'limda dual ta'limni joriy etish yuzasidan Hukumat qarori ham qabul qilindi. Bu me'yoriy qonun osti hujjatini amaliyotga tatbiq etish zarur, xususan:

- korxonalar dual ta'limda qatnashishga qiziqtirilmasa, tizimni muvaffaqiyatli kengaytirib bo'lmaydi. Shu bois so'nggi qarorlarda belgilangan rag'batlarni (talabalar ish haqini soliqdan ozod qilish, ustozlik qilgan xodimlar uchun subsidiya to'lash, eng faol ta'lim muassasalariga grant ajratish kabi) muntazam monitoring qilib borish lozim. Tajriba ko'rsatadiki, bunday choralarning samarasi yuqori – masalan, 2022-yilda dual ta'limga qabul to'satdan 20 barobardan ko'proq oshganida ushbu imtiyozli mexanizmlarning roli katta bo'ldi. Kelgusida ham davlat tomonidan xarajatlarni qoplash mexanizmi (talabaga haq to'lash, ustozlarga qo'shimcha to'lov) davom ettirilishi, shuningdek, dual bitiruvchilarini ishga olgan korxonalarga soliq kreditlari yoki boshqa imtiyozlar berish kabi qo'shimcha rag'batlar joriy etilishi mumkin. Bundan tashqari, xususiy sektor subyektlari va xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarni ham dual dasturlarini tashkil etishga jalb qilish uchun alohida targ'ibot va shart-sharoit yaratish muhim;

- dual ta'lim dasturlarining sifati ko'p jihatdan o'quv rejalari va ishlab chiqarishdagi amaliy vazifalarning qanchalik bir-biriga uzviy bog'liq ekaniga bog'liq. Shuning uchun, har bir yo'nalish bo'yicha malaka talablari va kasb standarti aniqligini ta'minlash lozim. Ayni paytda O'zbekistonda dual ta'lim uchun o'quv rejalari xorijiy ekspertlar ko'magida ishlab chiqilmoqda, bu jarayonda mahalliy sanoat korxonalari mutaxassislarini ham jalb etish, ularning takliflarini inobatga olish kerak. Qurilish sohasi misolida, qurilish firmalari rahbarlari va muhandislari professional ta'lim muassasasi va OTM larning o'quv rejalari, fan dasturlari bilan tanishtirilib, tezkor o'zgarishlar (yangi texnologiyalar, materiallar) haqida axborot berib turilishi lozim. Shunda dual ta'lim olgan bitiruvchi kadr korxonaga kelib "qo'shimcha o'qitishni" talab qilmaydi – u allaqachon dolzarb ko'nikmalarni egallagan bo'ladi. Bu maqsadda sektorlar kesimida maslahat kengashlari tuzib, u orqali ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini boshqarish taklif etiladi [3];

- dual tizimda ikki turdagi ustoz faoliyat olib boradi – ta'lim muassasasidagi nazariy professor-o'qituvchi va korxonalardagi amaliyot ustasi (mentor). Ularning har ikki toifasi uchun ham maxsus malaka talablari va tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Xususan, korxona mentorlarini pedagogik uslubiyat va ta'limiy psixologiya asoslariga o'qitish zarur, chunki korxonadagi yetuk mutaxassis bo'lish uning yaxshi instruktor bo'lishini kafolatlamaydi. GIZ ko'magida Germaniyada malaka oshirib kelgan 100 dan ziyod professor-o'qituvchilar tajribasini tizim bo'ylab yoyish, (GIZ — bu Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH, ya'ni Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati bo'lib, Germaniya hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan xalqaro taraqqiyot agentligidir) "usta ustozlar" guruhlarini shakllantirish darkor. Shuningdek, xalqaro tajribada mavjud bo'lganidek, "sertifikatlangan mentor" instituti joriy etilishi maqsadga muvofiq – bunda korxona xodimi maxsus trening o'tib, malaka imtihoni topshirgach, dual ta'lim bo'yicha rasmiy murabbiylik huquqini oladi. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki korxonalar o'rtasida ham sog'lom raqobat uyg'otib, o'z xodimlarining malakasiga e'tibor kuchayishiga olib keladi;

- dual ta'limni kengaytirish strategiyasining bir qismi sifatida doimiy monitoring va baholash amalga oshirilishi lozim. Har yili qabul qilingan talabalarning qancha foizi dasturlarni muvaffaqiyatli tamomlayotgani, qancha foizi bitirgach o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga kirayotgani, ish beruvchilarning qoniqish darajasi, hududlar va sohalar kesimidagi natijalar – bular batafsil tahlil etilishi kerak. Shunday ma'lumotlar asosida kelgusi qarorlar qabul qilinadi, kamchiliklar aniqlanib, yechimlar topiladi. Misol uchun, agar qandaydir hududda yoki texnikumda dual ta'lim bitiruvchilarining ishga joylashish ko'rsatkichi past chiqsa, sabablarini o'rganish (ehtimol, o'sha hududda sanoat korxonalari kam yoki mentorlar tajribasi yetarli emas) va tegishli choralar ko'rish lozim bo'ladi. Shuningdek, dual ta'lim bitiruvchilarining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini (mehnat unumdorligi, oylik daromadlari, ishlab chiqarish innovatsiyalari va h.k.) o'rganish, oddiy bitiruvchilar bilan solishtirish kabi ilmiy tadqiqotlarni ham qo'llab-quvvatlash zarur. Bu boradagi aniq iqtisodiy dalillar dual tizimning samaradorligini yanada isbotlab, manfaatdor tomonlar (ota-onalar, yoshlar, ish beruvchilar) orasida tizimga nisbatan ishonch va qiziqishni oshiradi.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekistonda dual ta’lim modeli nafaqat qurilish balki barcha sohalarda barqaror tatbiq etilib, mehnat bozori va ta’lim integratsiyasi yangi bosqichga ko‘tariladi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarga yuksak malaka va bandlik kafolatini, iqtisodiyotga esa raqobatbardosh kadrlar oqimini ta’minlaydi.

Muhokama. Dual ta’lim tizimi muvaffaqiyatli ishlashi va kutilgan natijani berishi ko‘p jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bir qator omillarga bog‘liq. Quyida ana shunday muhim omillar va ularning ahamiyati tahlil qilinadi:

- dual tizimning “dual” deyilishi bejiz emas – bunda ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish tashkilotining ikkita asosiy taraf hamkorligiga tayanadi. Ular orasidagi hamkorlik qanchalik mustahkam bo‘lsa, tizim shunchalik samarali bo‘ladi. Hamkorlikning huquqiy asoslari (shartnomalar, majburiyatlar) aniq belgilanishi, muntazam aloqa va o‘zaro muvofiqlashuv yo‘lga qo‘yilishi lozim. O‘zbekistonda bu borada “ta’lim muassasasi – korxona – talaba” o‘rtasida uch tomonlama shartnomalar tizimi joriy etilgan, bu albatta yaxshi boshlang‘ich ko‘rsatkichdir. Ammo, amaliy hamkorlikni faqat hujjatlar bilangina cheklab bo‘lmaydi – ta’lim muassasalari korxona vakillari bilan birga o‘quv rejasini muhokama qilish, mentorlarni tanlash, amaliyot grafigini kelishish kabi ishlarda doimiy muloqotda bo‘lishi kerak. Xorijiy tajriba (masalan, Germaniyada) har bir kasb bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik kengashlari bo‘lib, unda ta’lim muassasalari, korxonalar va savdo-sanoat palatalari vakillari birgalikda qarorlar qabul qilishadi. Natijada hech bir tomon chetda qolmaydi, muammolar tez aniqlanib hal qilinadi. O‘zbekistonda ham ayniqsa qurilish klasterlari negizida shunday mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq;

- dual ta’limda nazariy bilimlar va amaliy ish o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak. Agar talaba o‘qishda bir narsa, zavodda boshqasini ko‘rsa, unda o‘qish jarayoni samarasiz kechadi va motivatsiyasi susayadi. Shunday ekan, o‘quv dasturlarini korxona ehtiyojlariga muvofiq ravishda kompetensiya (layoqat) larga asoslab tuzish zarur. Masalan, qurilish yo‘nalishida muhandis-texnolog uchun “beton quyish texnologiyasi” bo‘yicha nazariy bilim darsda berilgan bo‘lsa, darhol keyingi haftada u qurilish maydonchasida ustasi bilan birga real beton quyish ishlarini bajarar ekan, nazariya va amaliyot bir-birini to‘ldiradi. Aksincha, nazariyada o‘qigan fani amaliyotda qo‘llanilmasa yoki amaliyotda ko‘rayotgan asbob-uskunalar haqida nazariyada umuman ma’lumot olmagan bo‘lsa – bu tafovut tizim samaradorligini pasaytiradi. Shu bois dual ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilar faol ishtirok etishi, korxonalardagi ish o‘rinlari tavsifi (job description) asosida o‘quv rejalarini yangilab borish lozim. Yana bir muhim jihat – baholash mezonlaridadir. Talabaning nazariy bilimdan olgan bahosi a’lo darajada, ammo, amaliy ko‘nikmadan qoniqarsiz olgan bo‘lsa, yakunda ularning integratsiyalashgan kompetensiyasini aniqlash qiyin. Xalqaro amaliyotda (masalan, Shveytsariyada) yakuniy attestatsiya talabaning amaliy loyihasi yoki ko‘nikmalarini namoyish etishi orqali o‘tkaziladi, bunda ham nazariy ta’limdagi ustozlar, ham korxona vakillari ishtirok etadi . O‘zbekiston ham bosqichma-bosqich bunday baholash tizimiga o‘tishi maqsadga muvofiq, chunki bu bilim va amaliyotni bir butun sifatida qamrab olishga xizmat qiladi [4];

- dual tizimda pedagog kadrlarning roli yanada murakkab, chunki ular nafaqat nazariy bilim berishi, balki uni amaliyot bilan bog‘lab tushuntira olishi zarur. Xuddi shunday, korxonalardagi mentor-usta ham faqat ishni ko‘rsatib qo‘yish bilan cheklanmay, talabaning o‘rganish jarayonini boshqarishi, sabr bilan tushuntirishi kerak. Buning uchun har ikki tomon vakillari maxsus tayyorgarlikka muhtoj. Avvalo, ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari muntazam ravishda korxonalarga borib, yangi texnika va texnologiyalar bilan tanishib borishi lozim (masalan, qurilish materiallari sohasida yangi paydo bo‘lgan materiallar, ularni qo‘llash usullari bo‘yicha professor-o‘qituvchilar korxonalarda tajriba orttirishi). Aksincha, korxona mutaxassislari (mentorlar) va ishlab chiqarish ta’limi ustalari pedagogika bo‘yicha treningdan o‘tishi kerak. O‘zbekistonda hozircha bu yo‘nalishda chet elda malaka oshirish loyihalari boshlandi, lekin tizimli yondashuv zarur – masalan, mentorlar uchun sertifikatlashtirish kurslari joriy etilishi lozim. Qurilish sohasida yirik korxonalar o‘zining tajribali muhandis-xodimlarini “ichki trener” sifatida tayyorlab, ularga mas’uliyat yuklashi va rag‘batlantirishi kerak. Yana bir taklif – har bir kasb maktabi yoki texnikumda korxona vakillaridan iborat “Dual ta’lim bo‘yicha vasiylar kengashi” tuzish zarur. Bu kengash doimiy asosda o‘quv jarayoni sifatini monitoring qilib, ustozlar malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berib boradi. Ustozlarning malakasi oshgani sari talabalarning oladigan bilim va ko‘nikma sifati ortadi, bu esa butun tizim samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi;

- dual tizim talabalardan anchayin mehnatsevarlik va qat’iyat talab qiladi, chunki ular bir vaqtning o‘zida ikki mas’uliyatni – o‘qish va ishni – bajarishlari kerak. Agarda talabaning ushbu tizimga qiziqishi baland bo‘lsa, u qiyinchiliklarni yengib, muvaffaqiyatga erishadi, aks holda, dasturdan chiqib ketish holatlari kuzatilishi mumkin. Shuning uchun, talabalarni dual ta’limga tanlash va ularni muntazam ruhlantirib borish muhim. Eng avvalo, dual ta’limga ko‘ngilli va kasbga haqiqiy qiziqishi bor yoshlar qabul qilinishini ta’minlash lozim. Bu borada kasbga yo‘naltirish (proforientatsiya) ishlari maktabdan boshlab kuchaytirilishi kerak. Talabalarga real kasblar muhiti haqida tasavvur berish, korxonalarga ekskursiyalar uyushtirish, qurilish OTM larda o‘qib, hozir muvaffaqiyatli ishlayotgan yosh mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish shular jumlasidandir. Ikkinchidan, dual ta’limdagi talabani rag‘batlantirishning moddiy va ma’naviy usullari qo‘llanishi lozim. Masalan, O‘zbekistonda joriy etilganidek, dual tarzda ishlayotgan talabalarga korxona tomonidan oylik ish haqi to‘lanadi va u soliqdan ozod qilingan – bu katta motivatsiya omili, chunki yoshlar

daromad olar ekan, o‘z mehnatining natijasini ko‘radi. Bundan tashqari, korxonalarning o‘zi ham iqtidorli shogirdlarni tanlab, ularga keyinchalik ishga qabul qilish bo‘yicha kafolat xatlari yoki stipendiyalar berishi mumkin (xususan, yirik qurilish korxonalari texnikumlarning eng yaxshi talabalarini homiylikka olsa, bitirgach o‘ziga ishga oladi). Bundan tashqari bu borada talabalarning o‘zaro musobaqalashuvi va jamoaviy ruhini oshirish uchun esa kasbiy tanlovlar, “eng yaxshi shogird” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazish foydalidir. Ularning natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritish, g‘oliblarni taqdirlash yoshlar orasida dual ta’limga hurmat va qiziqishni yanada oshiradi.

Yuqoridagi omillar kompleks tarzda e’tiborga olingandagina dual ta’limdan kutilgan yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Xususan, qurilish kabi murakkab va ko‘p qirrali sohada bu omillarning har biri – hamkorlik, o‘quv dasturi sifati, ustozlar malakasi va talabalar motivatsiyasi – birdek muhimdir. Bu omillarning har biri bo‘yicha sustkashlik bo‘lsa, tizim ishlashi izdan chiqadi. Aksincha, har biri bo‘yicha ijobiy muhit yaratilsa, dual ta’lim samarali modelga aylanadi, talaba sifatli ta’lim va ish tajribasini oladi, ish beruvchi malakali xodimga ega bo‘ladi, ta’lim muassasasining nufuzi oshadi, oxir-oqibat jamiyat yutadi – iqtisodiyot raqobatbardosh kadrlarga ega bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xorij tajribasi (Germaniya, Shveytsariya, Avstraliya) dual ta’limning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi – bu mamlakatlarda yoshlar bandlik darajasi yuqori, talaba - bitiruvchilarning malakalari mehnat bozori talablariga yaqin va iqtisodiyotga tez moslashadi [5]. O‘zbekistonda ham dual tizimni kengroq tatbiq etish orqali yoshlarning ish bilan bandligini oshirish, qurilish kabi o‘sib borayotgan tarmoqlarni zarur kadrlar bilan ta’minlash hamda ta’lim sifati va ahamiyatini yangi pog‘onaga ko‘tarish imkoni mavjud. Buning uchun tizimni kengaytirishda ilmiy asoslangan yondashuv – bosqichma-bosqich qamrovni oshirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash, o‘quv dasturlarni doimiy yangilash, ustozlar malakasini oshirish va talabalarning qiziqishini qo‘llab-quvvatlash talab etiladi. Shundagina dual ta’lim o‘z nomiga monand ravishda, ikki tomonlama foydali natija berib, ta’lim olgan kadr malakali ishchi, sanoat rivoji shaklidagi uzluksiz innovatsion tizimga aylanishi mumkin. Qurilish sohasida malakali kadrlar tayyorlashda dual ta’lim tizimining joriy etilishi — ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlovchi samarali model sifatida o‘zini oqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur yondashuv orqali nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligiga erishilib, yosh mutaxassislarning real ish sharoitlariga tez moslashuvi ta’minlanadi. Germaniya, Shveytsariya va Avstraliya kabi ilg‘or tajribalar dual ta’limning mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar yetishtirishdagi o‘rni va ahamiyatini isbotlagan bo‘lsa, O‘zbekiston misolida ham dastlabki natijalar uning milliy sharoitga mos holda muvaffaqiyatli joriy etilayotganini ko‘rsatmoqda. Biroq tizimni yanada kengroq va samarali tatbiq etish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar dolzarb hisoblanadi:

1. Dual ta’lim geografiyasi va tarmoqlar qamrovini ayniqsa, qurilish sohasi kabi ustuvor yo‘nalishlarda barcha malaka bosqichlarini qamrab olgan holda kengaytirish;

2. Ish beruvchilarni jalb qilish va rag‘batlantirish – korxonalar ishtirokini kengaytirish uchun soliq imtiyozlari, ustozlar uchun subsidiya va eng faol hamkorlar uchun grant mexanizmlarini kuchaytirish;

3. O‘quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqlashtirish – ish beruvchilar bilan birgalikda amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv rejalarni ishlab chiqish va baholash tizimini takomillashtirish;

4. Mentorlar va professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish – pedagogika va ishlab chiqarish kompetensiyalarini birlashtiruvchi sertifikatlashtirish tizimini joriy etish;

5. Talabalar motivatsiyasini kuchaytirish – talaba-yoshlarni kasbga yo‘naltirish, rag‘batlantirish mexanizmlari (stipendiya, kafolatli ish o‘rinlari, tanlovlar)ni kengaytirish;

6. Monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish – dual tizim samaradorligini doimiy kuzatib borish va asosli qarorlar qabul qilish uchun tahliliy bazani shakllantirish.

Yuqoridagi takliflarni izchil amalga oshirish orqali O‘zbekistonda, ayniqsa qurilish sohasida, dual ta’lim kadrlar siyosatining barqaror bo‘g‘iniga aylanishi mumkin. Natijada ta’lim muassasalari raqobatbardosh, amaliy ko‘nikmaga ega bitiruvchilarni yetishtiradi, korxonalar esa tayyor mutaxassislarni ishga qabul qilib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqaror inson resurslari bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, dual ta’limni strategik darajada qo‘llab-quvvatlash, tizimni institutsional jihatdan mustahkamlash va ijtimoiy sheriklik tamoyillarini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637) va Prezident Farmoni (PF–6108, 06.11.2020) – dual ta’limni joriy etish asoslari.

2. Alijonov U. (2024). O‘zbekistonda dual ta’limni rivojlantirish tajribasi – dastlabki natijalar va statistik ma’lumotlar (“The Asia Today” internet nashri, 17.08.2024).

3. Shveytsariya Ta’lim va tadqiqot kotibiyati (SERI) ma’lumotlari va Shveytsariya tashqi ishlar federal departamenti axboroti – Shveytsariya dual tizimi xususiyatlari va yoshlar ishsizligi ko‘rsatkichi.

4. Avstraliya milliy kasbiy ta’lim tadqiqot markazi (NCVER) hisoboti – Avstraliyada apprenticeship (dual) tizimining o‘rni, muammolar va yechimlar tahlili.

5. Jahon banki ma’lumotlari (FRED, 2022) – Germaniya va O‘zbekistonda yoshlar ishsizligi darajasi solishtirmasi.

ARXITEKTURA SOHASIDA KADRLARNI TAYYORLASHDA JAHON TAJRIBALARINI TAHLIL QILISH

Saparova Lola Polatovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, stajyor-o‘qituvchi,

Annotatsiya. Ushbu maqola arxitektura sohasida kadrlarni tayyorlashning jahon tajribalarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda AQSh, Germaniya, Yaponiya va Singapur kabi davlatlarning ta’lim modellari qiyosiy tahlil usuli yordamida o‘rganilib, O‘zbekistonning mahalliy tizimi bilan solishtirildi. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro tajribada amaliy yondashuv va zamonaviy texnologiyalar ustunlik qilsa, O‘zbekistonda nazariy bilimlarga e’tibor ko‘proq qaratiladi. Mahalliy me’moriy meros esa muhim afzallik sifatida ajralib turadi. Maqolada O‘zbekiston uchun “studio” usulini joriy qilish, dual ta’limni rivojlantirish va BIM texnologiyalarini integratsiyalash kabi takliflar beriladi. Tadqiqot mahalliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda yo‘naltiruvchi asos bo‘lib xizmat qiladi va kelgusida empirik izlanishlarni kengaytirishni tavsiya etadi.

Kalit so’zlar: qiyosiy tahlil, dual ta’lim, studio usuli, amaliy yondashuv, jahon tajribasi, arxitektura ta’limi, BIM texnologiyasi, mahalliy me’morchilik.

Kirish.

Arxitektura sohasi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shaharsozlik, infratuzilma va barqaror dizayn sohasidagi innovatsiyalar yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Shu sababli, arxitektura kadrlarni tayyorlash tizimi davlatlarning global raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi [1]. O‘zbekistonda arxitektura ta’limi an’anaviy ravishda mahalliy ehtiyojlarga moslashgan bo‘lsa-da, jahon tajribalarini integratsiyalash zarurati tobora dolzarb bo‘lib bormoqda [2]. Ushbu maqola arxitektura sohasida kadrlarni tayyorlashning xalqaro tajribalarini tahlil qilish va O‘zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Maqsad – ilg‘or davlatlarning ta’lim modelini solishtirish orqali mahalliy tizimni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir.

Mamlakatimizda arxitektura ta’limi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi muhim omil sifatida qaraladi. Respublikada urbanizatsiya darajasi oshib borayotgani, yangi shaharlar va infratuzilmalar qurilishi tezlashayotgani bu sohada malakali mutaxassislar zaruratini yanada oshirmoqda [3]. Biroq, mahalliy ta’lim tizimi hali ham an’anaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, zamonaviy global standartlarga to‘liq moslashmagan [4]. Masalan, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti kabi muassasalarda nazariy bilimlarga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, amaliy tajriba va xalqaro hamkorlik jihatidan sezilarli kamchiliklar mavjud [9]. Shu bilan birga, O‘zbekistonning boy me’moriy merosi va o‘ziga xos shaharsozlik an’analari ta’limda noyob imkoniyatlar yaratadi, ammo bu imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayapti.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlar arxitektura ta’limida ilg‘or yondashuvlarni muvaffaqiyatli qo‘llab, global raqobatbardoshlikni ta’minlamoqda [5]. Bu davlatlarda ta’lim amaliy loyihalarga, barqaror dizayn prinsiplariga va raqamli texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, talabalarni real dunyo muammolarini hal qilishga tayyorlaydi [8]. O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki mamlakatning xalqaro arxitektura hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Metodolar.

Ushbu tadqiqotda arxitektura sohasida kadrlarni tayyorlashning jahon tajribasini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi. Asosiy metod sifatida qiyosiy tahlil usuli tanlandi, bu esa turli davlatlardagi ta’lim tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari va umumiy tendensiyalarini aniqlashga imkon berdi [3]. Tadqiqot jarayonida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Singapur kabi arxitektura ta’limida yetakchi davlatlarning tajribasi o‘rganildi. Ushbu davlatlarning tanlanishi ularning global arxitektura sohasidagi yuqori natijalari, innovatsion yondashuvlari va turli madaniy-ijtimoiy kontekstlarni aks ettirishi bilan asoslanadi [5]. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (TAQU) va boshqa mahalliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlari mahalliy kontekstni tushunish uchun alohida ko‘rib chiqildi [9].

Ma’lumotlar yig‘ish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchidan, ochiq manbalar, jumladan, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (masalan, UNESCO statistikasi) va ilmiy nashrlar tahlil qilindi [3]. Ikkinchidan, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Singapurda arxitektura ta’limining o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha so‘nggi 5 yil ichida chop etilgan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar ko‘rib chiqildi [5, 6, 7, 8]. Uchinchidan, O‘zbekistonning mahalliy adabiyotlari, jumladan, TAQU professor-o‘qituvchilari tomonidan nashr etilgan maqolalar va monografiyalar tadqiqotga kiritildi, bu umumiy adabiyotlarning 25% ni tashkil qiladi [4, 9, 11]. Mahalliy manbalar bilan ishlashda O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasining ta’lim sohasiga oid ma’lumotlari ham jalb qilindi, ammo bu ma’lumotlarning cheklanganligi tahlilning kengroq ko‘lamini qamrab olishda qiyinchilik tug‘dirdi [17].

Tahlil jarayonida ta’limning bir nechta asosiy jihatlari e’tiborga olindi: (1) nazariy bilimlarning mazmuni va hajmi, (2) amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari, (3) zamonaviy texnologiyalarning (masalan, BIM – Building Information Modeling) integratsiyasi, (4) malaka oshirish va xalqaro hamkorlik

dasturlari [10]. Har bir mamlakat bo‘yicha o‘quv dasturlarining tuzilishi, o‘qitish metodlari va talabalarning kasbiy tayyorgarligi baholandi. Masalan, AQShda “studio” usulining samaradorligi [5], Germaniyada dual ta’lim tizimining afzalliklari [6], Yaponiyada an’anaviy va zamonaviy dizaynning uyg‘unligi [7], Singapurda esa barqaror arxitekturaga yo‘naltirilgan yondashuv [8] alohida o‘rganildi. O‘zbekiston kontekstida esa TAQUning o‘quv rejalari va mahalliy qurilish sektori bilan hamkorlik darajasi tahlil qilindi [9].

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy ma’lumotlarning kombinatsiyasidan foydalanildi. Sifatli tahlil davlatlarning ta’lim modellaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashga xizmat qildi, miqdoriy ma’lumotlar esa o‘quv dasturlari davomiyligi, talabalar soni va bitiruvchilarning bandlik darajasi kabi statistik ko‘rsatkichlarni solishtirish uchun ishlatildi [3]. Tadqiqotning cheklovlari sifatida mahalliy manbalarning yetarli darajada mavjud emasligi va ba’zi xalqaro ma’lumotlarning faqat umumiy ko‘rinishda taqdim etilganligini qayd etish mumkin. Shu sababli, kelgusida empirik tadqiqotlarni kengaytirish rejalashtirilgan.

Natijalar.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, AQShda arxitektura ta’limi amaliy loyihalarga urg‘u beradi va “studio” usuli orqali talabalarni real muammolarni hal qilishga o‘rgatadi [5]. Germaniyada dual ta’lim tizimi (nazariy bilimlar va ish joyidagi tajriba kombinatsiyasi) muvaffaqiyatli qo‘llaniladi [6]. Yaponiyada esa an’anaviy dizayn va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratiladi [7]. Singapurda barqaror arxitektura va “smart city” kontseptsiyasi ta’lim dasturlarining asosiy yo‘nalishi sifatida ajralib turadi [8]. O‘zbekistonda esa TAQUda nazariy bilimlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lib, amaliy tajriba yetishmaydi [9]. Xalqaro tajribadan farqli o‘laroq, mahalliy tizimda zamonaviy texnologiyalar (masalan, BIM – Building Information Modeling) integratsiyasi sekin kechmoqda [10]. Shu bilan birga, O‘zbekistonning boy madaniy merosini ta’limda aks ettirish bo‘yicha noyob yondashuvi mavjud [11].

Muhokama.

Xalqaro tajribani O‘zbekistonga moslashtirishda bir qator muammolar va imkoniyatlar aniqlandi. Masalan, AQShning “studio” usulini joriy qilish talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishi mumkin, ammo bu ko‘proq moliyaviy resurs va malakali o‘qituvchilarni talab qiladi [12]. Germaniyaning dual tizimi mahalliy qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun foydali bo‘lishi mumkin [13]. Yaponiya va Singapur tajribasi barqaror dizayn va texnologik innovatsiyalarni ta’lim dasturlariga kiritish zarurligini ko‘rsatadi [14]. O‘zbekiston uchun eng muhim jihat – mahalliy me’morchilik an’analarini saqlab qolgan holda global standartlarga moslashishdir [15]. Shu nuqtai nazardan, BIM texnologiyasini joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida ko‘rilishi kerak [16]. Tadqiqotning cheklovlari sifatida mahalliy statistik ma’lumotlarning yetishmasligini qayd etish mumkin, bu kelgusida qo‘shimcha izlanishlarni talab qiladi [17].

Xulosa.

Ushbu tadqiqot arxitektura sohasida kadrlarni tayyorlashning jahon tajribalarini tahlil qilish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim xulosalar va takliflarni shakllantirdi. Xalqaro tajribani o‘rganish natijasida aniqlandiki, AQSh, Germaniya, Yaponiya va Singapur kabi davlatlarda ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi, zamonaviy texnologiyalarning keng qo‘llanilishi va sanoat bilan yaqin hamkorlik muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. O‘zbekistonning hozirgi ta’lim tizimi esa, asosan, nazariy bilimlarga e’tibor qaratgan bo‘lib, amaliy tajriba va global standartlarga moslashishda sezilarli qoloqish mavjud [9]. Shu bilan birga, mahalliy tizimning boy madaniy merosga asoslangan o‘ziga xosligi kelajakda raqobatbardosh afzallik sifatida ishlatilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston arxitektura ta’limini modernizatsiya qilish uchun bir nechta strategik yo‘nalishlar taklif etiladi. Birinchidan, AQSh tajribasidan kelib chiqib, “studio” usulini joriy qilish talabalarning ijodiy salohiyatini va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, Germaniyaning dual ta’lim modelini qo‘llash orqali mahalliy qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish mumki. Uchinchidan, Yaponiya va Singapur tajribasiga asoslanib, barqaror arxitektura va BIM kabi zamonaviy texnologiyalarni o‘quv dasturlariga integratsiyalash zarur. To‘rtinchidan, O‘zbekistonning o‘ziga xos me’moriy an’analarini global kontekstda targ‘ib qilish uchun xalqaro hamkorlik dasturlari kengaytirilishi lozim.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi ta’lim sifatini oshirish bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro arxitektura hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, BIM texnologiyasini joriy qilish nafaqat talabalarni zamonaviy loyihalash usullariga o‘rgatadi, balki mahalliy qurilish sohasini raqamlashtirishga ham hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, mahalliy me’morchilikning o‘ziga xos jihatlarini saqlab qolish va ularni global trendlar bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston arxitekturasini dunyo miqyosida ajralib turishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jahon tajribasini mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekistonda arxitektura ta’limini global standartlarga yaqinlashtirishning samarali yo‘lidir. Nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, texnologik innovatsiyalarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali nafaqat yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, balki mamlakatning shaharsozlik sohasidagi barqaror rivojlanishini ham ta’minlash mumkin. Ushbu jarayon O‘zbekistonning global arxitektura xaritasidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Smith J. “Global Trends in Architectural Education”. New pass journal. Akademik nashr. 2020 yil.

2. Xo‘jayev A. “O‘zbekistonda arxitektura ta’limining bugungi holati”. Toshkent Fan va Texnologiya. 2022-yil.
3. UNESCO “Education Statistics Report”. Parij. UNESCO nashri. 2023 yil.
4. Rahimov S. “Arxitektura kadrlarni tayyorlashda mahalliy yondashuvlar”. O‘zbekiston Arxitektura va Qurilish Jurnali, 15(3), 45-52. Toshkent. 2021 yil.
5. Brown L. “Studio-Based Learning in Architecture”. 2019 yil.
6. Müller K. “Dual Education System in Germany”. Berlin. Springer nashri. 2021 yil
7. Tanaka H. “Traditional and Modern Architecture in Japan”. Tokyo Universiteti nashri. 2020 yil
8. Lim W. “Sustainable Architecture Education in Singapore”. Singapore. NUS jurnal. 2022 yil.
9. Mirzayev Q. “Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tajribasi”. Arxitektura va Dizayn, 10(2), 33-39. Toshkent. TAQU nashri. 2023 yil.
10. Johnson P. “BIM Integration in Education”. Chikago. Tech Publishers nashri. 2021 yil.
11. Abdullayev U. “O‘zbek me’morchiligining ta’limdagi o‘rni”. Toshkent. Sharq Nashriyoti. 2020 yil.
12. Davis R. “Challenges of Studio Learning”. Architectural Review nashri, 45(6), 78-85. 2022 yil.
13. Schmidt G. “Industry-Academia Collaboration in Germany”. Gamburg. Industry nashri. 2023 yil.
14. Kim S. “Smart Cities and Architectural Education”. Sewul. K-Press nashriyoti. 2021 yil.
15. Qodirov N. “Mahalliy arxitektura an’analari va zamonaviy ta’lim”. O‘zbekiston Arxitekturasi, 8(1), 12-19.
16. Taylor M. “Technology in Architectural Education”. Sidney. Design Books nashri. 2020 yil.
17. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi. “Ta’lim sohasi statistikasi”. Toshkent. Stat.uz. 2023 yilgi ma‘lumot.

QURILISH SOHASIDA YETUK KADRLAR TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINING ROLI VA BU BORADAGI XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Soatov Anvar Maxkamovich,
Jizzax politexnika instituti “Arxitekturaviy loyihalsh” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish sohasi uchun yetuk muhandis kadrlar tayyorlashda ilg‘or muhandislik maktablarining roli yoritilgan. Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida o‘quv dasturlari, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, xalqaro hamkorlik va infratuzilma jihatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston sharoitida ushbu modelni joriy etish imkoniyatlari baholangan. Muammolar va dolzarb ehtiyojlar aniqlangan. Ilmiy natijalar pirog diagrammasi orqali ifodalangan. Yakunda tizimli taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Qurilish sohasi, muhandislik ta’limi, Yevropa tajribasi, muhandislik maktablari, amaliy ta’lim, innovatsiya, ilmiy tadqiqot, O‘zbekiston, xalqaro hamkorlik, dual ta’lim.

Аннотация. В статье рассматривается роль современных инженерных школ в подготовке квалифицированных инженерных кадров для строительной отрасли. Анализируется опыт европейских стран в области учебных программ, практико-ориентированного обучения, международного сотрудничества и инфраструктуры. Оценены возможности применения данной модели в условиях Узбекистана. Выявлены актуальные проблемы и потребности. Научные результаты представлены в виде диаграммы. В заключение предложены системные выводы и рекомендации.

Ключевые слова. Строительная отрасль, инженерное образование, европейский опыт, инженерные школы, практическое обучение, инновации, научные исследования, Узбекистан, международное сотрудничество, дуальное образование.

Annotaion. This article examines the role of advanced engineering schools in training qualified engineers for the construction sector. Based on European experience, the study analyzes educational programs, practice-oriented learning, international collaboration, and infrastructure. The applicability of this model to Uzbekistan’s context is assessed. Current challenges and demands are identified. Scientific results are presented via a pie chart. Systematic conclusions and practical recommendations are provided. **Keywords.**Construction sector, engineering education, European experience, engineering schools, practical learning, innovation, scientific research, Uzbekistan, international cooperation, dual education.

Kirish. O‘zbekiston sanoat va infratuzilma rivojlanishi jadallashib borayotgan bir paytda muhandis mutaxassislarga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Xususan, mamlakat so‘nggi yillarda go‘yoki “qurilish maydoniga” aylangan holda keng ko‘lamli bunyodkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Biroq bu jadal qurilish jarayonida sifat va xavfsizlikni ta’minlash borasida qator tizimli muammolar yuzaga chiqmoqda. Natijada qurilish sohasida zamonaviy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega yuqori malakali muhandis kadrlarga ehtiyoj yanada dolzarblashmoqda.Shu bilan birga, muhandislik ta’lim tizimining o‘zi oldida ham dolzarb muammolar mavjud. Har yili O‘zbekistondagi 36 texnik oliy o‘quv yurtini taxminan 67 ming mutaxassis tamomlayotgan bo‘lsada, amaldagi o‘quv dasturlari va ixtisosliklar mehnat bozori talablariga mos emas. Natijada, mamlakatda muhandislik yo‘nalishini tamomlagan bitiruvchilarning qariyb 60 foizi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamayapti. Xorijiy oliy o‘quv yurtlarida allaqachon yo‘lga qo‘yilgan qurilish smetasi injiniringi (cost engineering), taqqoslama injiniring va reversiv injiniring kabi zamonaviy mutaxassisliklar mahalliy texnik OTM

larda hali to‘liq joriy etilmagani bois soha korxonalari ko‘pincha o‘z xodimlarini chet elda o‘qitish yoki xorijdan mutaxassis yollashga majbur bo‘lmoqda. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda oliy ta’lim qamrovi bir necha barobar oshgan bo‘lsada, yoshlar orasida muhandislikka qiziqish pastligicha qolmoqda, ko‘plab texnika OTM larning laboratoriya jihozlari eskirgan, professor-o‘qituvchilarning amaliy ishlab chiqarishdan uzilib qolganligi kuzatilmoqda. Bu holatlar muhandislik kadrlar tayyorlashda sifat va samaradorlikni oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda qurilish sohasi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlashga doir milliy va xalqaro tajribalarni qamrab olgan ishonchli, dolzarb hamda mavzuga bevosita aloqador manbalardan foydalanildi. Adabiyotlar orasida ilmiy maqolalar, hukumat axborotlari va xalqaro tahliliy hisobotlar mavjud bo‘lib, ular tahlilning ko‘lamini kengaytirib, mavzuning har tomonlama yoritilishiga xizmat qildi.

Birinchi navbatda, Linda Gardelle va boshqalarning European Journal of Engineering Education jurnalida chop etilgan 2022-yildagi maqolasi (1,5) Yevropa muhandislik ta’limining o‘ziga xos modeli va uni rivojlanayotgan mamlakatlarda implementatsiya qilishdagi qiyinchiliklarni ilmiy asosda tahlil qiladi. Ushbu maqola orqali ilg‘or muhandislik maktablarining strukturasi, o‘qitish metodlari va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlari o‘rganildi.

OECD (2022) tomonidan chop etilgan Engineering Education in Europe nomli tahliliy hisobot (6) esa Yevropa Ittifoqi doirasida muhandislik ta’limining holati, natijalari, moliyalashtirish modeli va ishga joylashish ko‘rsatkichlari haqida keng qamrovli statistik va siyosiy tahlilni taqdim etadi. Bu manba orqali olingan ma’lumotlar O‘zbekiston sharoitida qanday jihatlar yetishmayotganini aniqlashda asosiy vosita bo‘ldi.

Milliy kesimda, Uzbekistan.org (2024) saytida e’lon qilingan oliy ta’lim sifatini oshirish masalalari bo‘yicha Prezident ishtirokidagi yig‘ilish tafsilotlari (2), Daryo.uz (2021) dagi qurilishdagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha Prezident farmoni loyihasi (3), hamda UzDaily.uz (2024) da yoritilgan texnik oliygohlar bo‘yicha selektor yig‘ilishi (4) tahlil qilinib, O‘zbekistonda texnik ta’lim tizimi qay darajada isloh qilinayotganini huquqiy va siyosiy jihatdan ko‘rsatib berdi.

Mazkur manbalar orqali Yevropa tajribasi va O‘zbekiston texnik ta’limidagi real holat o‘rtasida qiyosiy tahlil olib borildi. Adabiyotlar bir-birini to‘ldirib boradigan mazmunga ega bo‘lib, mavzuning muammosi va yechimlarini aniqlashda ilmiy asos yaratdi.

Ushbu tadqiqotda sifatli (qualitative) yondashuv asosida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va mazmuniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida adabiyotlar tahlili qo‘llanilib, Yevropa mamlakatlaridagi ilg‘or muhandislik maktablari modeli va O‘zbekistondagi texnik ta’lim tizimi o‘rtasida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, rasmiy hukumat hujjatlari va xalqaro ilmiy manbalar asosida mazmuniy tahlil orqali muammo va imkoniyatlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari sintez qilinib, O‘zbekiston sharoitida implementatsiya qilish mumkin bo‘lgan takliflar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv maqolani tizimli, ilmiy asoslangan va amaliyotga yo‘naltirilgan holatda ishlab chiqishga imkon berdi.

Natija va tahlillar. Darhaqiqat, ilg‘or muhandislik maktabining shakllanishi butun dunyo mamlakatlari kesimida o‘ta dolzarb hisoblanadi. Keling, mazkur jarayonni jadval ko‘rinishida uning shakllanish bosqichlari bo‘yicha ifodalab chiqaylik. (1-jadval).

Ilg‘or muhandislik maktablari tajribasi asosida qurilish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilmiy natijalar va ularning ulushi

Jadval-1

Ilmiy natija	Qisqacha mazmuni	Ulushi (%)
O‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish	Qurilish muhandisligi ta’lim dasturlarini yangi texnologiyalar (masalan, BIM, “yashil” qurilish) va zamonaviy sanoat talablari asosida yangilash. Ilg‘or muhandislik maktablari o‘quv rejalari doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Bu O‘zbekiston texnik oliy ta’limida ham joriy etilib, o‘quv jarayonini me’yoriy hujjatlar va bozordagi talablar bilan moslashtiradi.	25%
Amaliy tayyorgarlik va sanoat bilan hamkorlik	Yetuk kadrlar tayyorlashda nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish eng muhim omil. Yevropaning ilg‘or texnika universitetlarida talabalarga korxonalarda majburiy amaliyot o‘tash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekistonda ham oliy muhandislik maktablarida sanoat korxonalari bilan hamkorlikda, real loyihalar asosida o‘qitish (dual ta’lim) yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu bitiruvchilarning qurilish maydonidagi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.	25%
Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar	Qurilish sohasi rivojida ilmiy izlanishlar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ilg‘or muhandislik maktablari talabalari ilmiy-tadqiqot loyihalariga jalb etilib, yangi qurilish materiallari, seysmik bardoshli konstruksiyalar kabi ishlanmalarni yaratadi. O‘zbekistonda ham amaliy magistratura dasturlarida talabalar birinchi yildanoq korxonalar buyurtmasiga binoan ilmiy izlanishlar o‘tkazishi belgilangan. Natijada ta’lim jarayoni ilm-fan yutuqlari bilan chambarchas bog‘lanadi.	20%
Xalqaro hamkorlik va malaka oshirish	Ilg‘or muhandislik maktablari tajribasini o‘rganishda xorijiy universitetlar bilan hamkorlik va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish alohida o‘rin tutadi. Yevropadagi texnik OTMlar xalqaro akkreditatsiya talablariga amal qilib, talabalar va o‘qituvchilar almashi-	15%

	nuvini yo‘lga qo‘yadi. O‘zbekiston sharoitida ham xorijiy tajribaga ega malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularning ishini xalqaro mezonlar asosida baholash choralari ko‘rilmoqda. Bu mahalliy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.	
Infratuzilma va laboratoriyalar	Yetuk muhandis kadrlar tayyorlash uchun zamonaviy infratuzilma va laboratoriyalar zarur. Ilg‘or muhandislik maktablari qo‘shimcha ravishda qurilish materiallari laboratoriyalari, konstruktsiyalar sinovi poligonlari, raqamli texnologiyalar markazlariga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda yangi tashkil etilayotgan muhandislik maktablarida ham shu yo‘nalishlarga mos ravishda zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilib, ularda sanoat takliflariga asosan ilmiy tajribalar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu kelajakda kadrlarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.	15%

Quyidagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish hamda amaliy tayyorgarlik va sanoat bilan hamkorlik natijalari eng katta ulushga ega (har biri 25%). Bu holat qurilish sohasi mutaxassislarini tayyorlashda aynan ushbu ikki yo‘nalish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani bilan izohlanadi. Chunki o‘quv rejalarni zamonaviylashtirish, ya’ni fanlarni zamonaviy qurilish texnologiyalari va bozordagi ehtiyojlar asosida yangilash, hamda nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog‘lash nafaqat Yevropa tajribasida, balki O‘zbekistonning texnik ta’lim islohotlarida ham ustuvor yo‘nalish sifatida tanlangan. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar natijasi 20% ulush bilan uchinchi o‘rinda turibdi. Ulushi yuqoridagi yetakchi yo‘nalishlardan biroz past bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich ham ancha salmoqlidir. Ilg‘or muhandislik maktablari tajribasida ta’lim va ilm-fan integratsiyasi kuchli rivojlangan bo‘lib, talabalarning ilmiy izlanishlarda ishtirok etishi ular oladigan bilimlarni amaliy innovatsion yechimlarga aylantiradi. O‘zbekiston texnik oliy ta’limida joriy etilayotgan amaliy magistratura modellari ham aynan universitetlarda yaratilayotgan ilmiy yutuqlarni qurilish kabi real sektor muammolarini hal etishga qaratmoqda. Demak, ilmiy tadqiqotlar ulushining 20% ni tashkil etishi uning yetarli darajada yuqori ahamiyatga egaligini, ammo asosiy urg‘u avvalo o‘quv jarayoni va amaliyotga berilishini anglatadi.



Xalqaro hamkorlik va malaka oshirish hamda infratuzilma va laboratoriyalar natijalari esa nisbatan past ulushga ega (15% dan). Boshqa yo‘nalishlarga nisbatan ulushi kamroq bo‘lishiga qaramay, bu yo‘nalishlar ham yetuk kadrlar tayyorlash tizimining ajralmas qismlaridir. Xususan, xalqaro hamkorlik orqali xorijiy universitetlar tajribasini o‘zlashtirish va malakali professor-o‘qituvchilarni jalb etish ta’lim sifati uchun muhim omil hisoblanadi

Shuningdek, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy o‘quv laboratoriyalari va texnoparklarni yaratish kabi ishlar qolgan jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun zamin hozirlaydi. Shu bois, ulushi 15% deb baholangan bo‘lsada, bu yo‘nalishlar qo‘llab - quvvatlovchi, integrativ ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash lozim. Yevropadagi ilg‘or muhandislik maktablari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qurilish sohasi kabi tarmoqlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash kompleks yondashuvni talab etadi. Ta’lim dasturlarini zamonaviylashtirish va ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq amaliy o‘qitish eng asosiy omillar bo‘lib, ularni ilmiy tadqiqotlar bilan boyitish kerak. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirish esa ushbu jarayonlar samaradorligini yanada oshiradi. O‘zbekiston texnik oliy ta’lim tizimida ushbu ilg‘or tajribalarni izchil tatbiq etish natijasida qurilish sohasida raqobatbardosh, yetuk muhandis kadrlar avlodini shakllantirish imkoni yaratiladi.

Muhokama. O‘zbekistonda qurilish sohasi uchun yetuk kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hozirgi davrda strategik vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. O‘rganilgan ilmiy natijalar asosida shuni anglash mumkinki, bu yo‘nalishda ilg‘or muhandislik maktablari tajribasini o‘zlashtirish va milliy tizimga moslashtirish eng muhim yondashuvlardan biri sanaladi. Tadqiqotda aniqlangan 5 ta asosiy natija har bir yo‘nalishning kadrlar tayyorlashga qo‘shayotgan hissasini turli foizlarda namoyon qilsa-da, ular o‘zaro uzviy bog‘liq va kompleks tizimni tashkil etadi. Avvalo, o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish **va** amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini rivojlantirish (har biri 25%) yuqori ulushga ega bo‘lishi, bu ikki jihatning ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilayotganini ko‘rsatadi. Bu holat Yevropa tajribasi bilan to‘la mos keladi: Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va Niderlandiya kabi davlatlarda muhandislik ta’limi ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, nazariya faqatgina amaliyot bilan uyg‘unlashgandagina real ijtimoiy-iqtisodiy foyda beradi. Shu bois, O‘zbekistonda ham ta’lim dasturlariga zamonaviy texnologiyalar (BIM, “smart construction”) ni integratsiya qilish va dual ta’limni yo‘lga qo‘yish — kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi**.** Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar yo‘nalishi (20%) esa texnik soha uchun zarur bo‘lgan muammoga yo‘naltirilgan, natijaga asoslangan izlanishlar tizimini shakllantirish imkonini beradi. Yevropa mamlakatlaridagi ilg‘or muhandislik maktablarida talabalarning o‘zi ham amaliy tadqiqotlarga jalb qilinadi, bu esa ularni yangi qurilish materiallari, energiya tejamkor texnologiyalar va zilzilabardosh konstruksiyalar yaratish kabi innovatsion ishlanmalarga undaydi. O‘zbek-

istonda ham aynan shu model asosida amaliy magistratura dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali ilm-fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasida samarali ko‘prik barpo etilishi mumkin. Xalqaro hamkorlik va malaka oshirish (15%) natijasi, o‘z ulushi kichikroq bo‘lishiga qaramay, global muhandislik standartlariga mos kadrlar tayyorlash uchun juda muhim. Chunki muhandislik — o‘z mohiyatiga ko‘ra universallashgan, texnologiyaga asoslangan soha bo‘lib, bu yo‘nalishdagi yangiliklarni anglash va ularga moslashish xalqaro tajribani egallashni talab qiladi. O‘zbekiston texnik oliygohlarining Yevropa universitetlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, o‘qituvchilarning malaka oshirishi va xalqaro akkreditatsiyalardan o‘tishi ta’lim sifati va diplomlar raqobatbardoshligini oshiradi. Oxirgi natija sifatida infratuzilma va laboratoriyalarning rivojlanishi (15%) ham muhim o‘ringa ega. Chunki zamonaviy qurilish muhandisini tayyorlashda faqat nazariy bilim yetarli emas, ular konstruktsiyalarni sinash, materiallar barqarorligini o‘rganish, raqamli loyihalash vositalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lishi shart. Yevropa muhandislik maktablarida mavjud sinov laboratoriyalari, texnoparklar va startap inkubatorlar aynan shunday kompetensiyalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun ham bu tajriba muhim o‘rnak bo‘lib, texnik OTM larda raqamli infratuzilmani kengaytirish dolzarb vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or muhandislik maktablari modeli asosida qurilish sohasi uchun kadrlar tayyorlashda quyidagi tizimli yondashuvlar muhim:

- o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablari asosida yangilash;
- amaliyot va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish;
- ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish;
- xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- texnik bazani modernizatsiya qilish.

Shular asosida O‘zbekiston texnik ta’lim tizimida raqobatbardosh, zamonaviy muhandislik salohiyatiga ega kadrlar avlodini yetishtirish imkoniyati mavjud. Muhandislik maktablarining rivojlanishi bu jarayonni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yishning eng maqbul vositalaridan biridir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalari va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston texnik oliy ta’lim tizimi, xususan qurilish sohasi uchun kadrlar tayyorlash borasida jiddiy islohotlarga muhtoj. Yetuk, raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlashda ilg‘or muhandislik maktablari modeli eng samarali yo‘l sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan bunday model quyidagi asosiy afzalliklarni beradi:

- o‘quv dasturlarining doimiy yangilanishi va real sanoat ehtiyojlariga moslashuvi;
- talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliy tayyorgarlikdan o‘tishi;
- ta’limning ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bilan integratsiyasi;
- xalqaro tajriba almashuvi orqali ta’lim sifatining oshishi;
- zamonaviy infratuzilma va texnik bazaga ega laboratoriyalarning mavjudligi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribani implementatsiya qilish orqali nafaqat muhandislik ta’limining sifati oshadi, balki qurilish sohasida samaradorlik, xavfsizlik va innovatsion yondashuvlar ham kuchayadi. Shu bilan birga, texnik oliy ta’lim muassasalari mehnat bozorining real ehtiyojlariga javob bera oladigan muhandislar tayyorlashga qodir tizimga aylanishi mumkin. Bu borada quyidagi takliflarni keltirish mumkin.

1. Muhandislik maktablari tashkil etish ishlarini tizimli ravishda kengaytirish. Bunda har bir yirik texnik universitet tarkibida amaliyotga yo‘naltirilgan, ikki yillik magistratura dasturlariga ega muhandislik maktablarini tashkil etish. Ularni tegishli vazirliklar va sanoat korxonalari bilan uzviy hamkorlikda yuritish;
2. Yevropa tajribasi asosida o‘quv dasturlarini yangilash. Bunda BIM texnologiyasi, “yashil qurilish”, seysmik muhandislik kabi zamonaviy kurslarni joriy qilish hamda fanlararo (interdisciplinary) yondashuv asosida loyiha va innovatsion ishlanmalarni o‘quv dasturiga kiritish;
3. Dual ta’lim tizimini rivojlantirish. Bunda o‘qitishning nazariy qismini OTM da, amaliy qismini esa ishlab chiqarish korxonalarida tashkil qilish, yani mazkur jarayonda korxonalar bilan hamkorlikda talabalarning “real buyurtma”lar asosida o‘qishini yo‘lga qo‘yish;
4. Ilmiy izlanishlarni sanoat bilan bog‘lash. Mazkur holatda qurilish korxonalari buyurtmasiga asosan ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, ya’ni talabalarni o‘qishning ilk bosqichidan boshlab ilmiy izlanishlarga jalb qilish;
5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bunda **i**lg‘or texnik universitetlar bilan qo‘shma dasturlar va diplomlarni yo‘lga qo‘yish, ya’ni professor-o‘qituvchilarning Yevropa muhandislik maktablarida malaka oshirishini tizimlashtirish;
6. Zamonaviy laboratoriyalar va texnoparklar tashkil etish. Mazkur holatda ham har bir muhandislik maktabida yangi qurilish materiallari sinov laboratoriyalari, raqamli muhandislik markazlari tashkil etish, ya’ni bu markazlarda talabalar amaliy tajriba orttirishi, ilmiy loyihalar ishlab chiqishi va startaplar yaratishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Linda Gardelle va boshqalar. European Journal of Engineering Education: “The spread of European models of engineering education: the challenges faced in emerging countries” (2022).
2. Uzbekistan.org. (2024). Issues of improving the quality of higher education considered. https://www.uzbekistan.org/news/
3. Daryo.uz. (2021). O‘zbekistonda qurilish sohasidagi tizimli kamchilik va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan Prezident farmoni loyihasi muhokamaga qo‘yildi. https://daryo.uz.

4. UzDaily.uz. (2024). Texnik oliygohlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi materiallari. https://uzdaily.uz.

5. Gardelle, L., et al. (2024). The spread of European models of engineering education: the challenges faced in emerging countries. European Journal of Engineering Education, 41(2), 184–200.

6. OECD. (2024). Engineering Education in Europe: Practices and Outcomes. Paris: OECD Publishing.

ARXITEKTURA VA QURILISH SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH: JAHON TAJRIBALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Yusupova L.Sh
Smandarov Abbos Islomboy O`g`li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti,

Annotatsiya: Arxitektura va qurilish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash iqtisodiy rivojlanish uchun muhimdir. Zamonaviy qurilishning rivojlanishi yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu borada ilg`or mamlakatlar amaliyotga yo‘naltirgan innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va ekologik barqarorlikni ta'minlashga asoslangan ta'lim tizimlarini rivojlantirilishi. Jahon tajribasiga asoslangan takliflar qurilish sohasida sifatli mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Kalit so‘zlar: kadrlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalar, ekologik barqarorlik, yashil qurilish, ta'lim tizimi, amaliyot, sifat nazorati, global sertifikatlar.

Arxitektura va qurilish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy qurilish, texnologiya va materiallar, barqarorlik va yashil qurilishning jadal rivojlanishi kadrlar tayyorlashda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu sohada kadrlar tayyorlashda jahon tajribasi katta ahamiyatga ega. Bir nechta ilg‘or mamlakatlar arxitektura va qurilish sohasida o‘zlarining ta'lim tizimlarini rivojlantirgan va bu tajribalarni boshqa davlatlarga o‘rnak sifatida ko‘rsatgan.

Germaniya tajribasini kuzatganimizda Ta'lim va amaliyotga integratsiya yaqqol ko`zga tashlanadi. Germaniya arxitektura va qurilish sohasida o‘zining kuchli ta'lim tizimi va amaliyotga asoslangan yondashuvi bilan tanilgan. Bu mamlakatda qurilish sohasida kadrlar tayyorlash ko‘plab texnik maktablar, oliy o‘quv yurtlari va amaliyot dasturlari orqali amalga oshiriladi. Germaniyada ta'lim tizimi "Dual ta'lim" modeliga asoslangan, ya'ni talabalar o‘qish bilan birga ishlab, amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bu yondashuv kadrlar tayyorlashni samarali qiladi, chunki talabalar o‘qish jarayonida bo‘lajak ish joylarida kerak bo‘ladigan real dunyo ko‘nikmalarini olishadi.

Germaniya oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va qurilish bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda ilmiy tadqiqotlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlari qurilish texnologiyalari, yangi materiallar va barqaror qurilish yondashuvlariga oid bo‘ladi. Shuningdek, Germaniyada qurilish sohasidagi kadrlar uchun doimiy ta'lim va malaka oshirish kurslari mavjud, bu esa ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtiradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida arxitektura va qurilish sohasidagi kadrlarni tayyorlash jarayoni juda raqobatbardosh va innovatsion xarakterga ega. AQShda universitetlar va texnik kollejlar talabalarga arxitektura va qurilishning har tomonlama yondashuvini o‘rgatadi. Arxitektura fakultetlarida talabalar dizayn, qurilish jarayonlari, ekologik barqarorlik va shaharsozlik kabi sohalarda chuqur bilim olishadi.

AQShda ayniqsa, "yashil qurilish" yoki "barqaror qurilish" sohasida ilg‘or dasturlar mavjud. Masalan, AQShda "Leadership in Energy and Environmental Design" (LEED) sertifikati olgan mutaxassislar juda talabgirdir. Bu sertifikatni olish uchun arxitektura va qurilish sohasida ekologik jihatdan to‘g‘ri yondashuvlarni amalga oshirish va yashil texnologiyalarni qo‘llash muhimdir.

Shuningdek, AQShda arxitektura va qurilish bo‘yicha kadrlar tayyorlashda maxsus "hands-on" (qo‘l mehnati) yondashuvi mavjud, ya'ni talabalar amaliyotga alohida e'tibor qaratishadi. Bu jarayon davomida talabalar real qurilish loyihalarida ishlash orqali ko‘nikmalarini oshiradilar. Bu tizim, nafaqat akademik bilimlarni, balki amaliy tajribani ham olishni ta'minlaydi.

Yaponiya arxitektura va qurilish sohasida yuqori sifatli kadrlarni tayyorlashda texnologik yondashuvni keng qo‘llaydi. Yaponiya, o‘zining yuqori darajadagi qurilish va inshootlar qurilishidagi an'analari bilan mashhur. Yaponiya qurilish sohasida ilg‘or texnologiyalarni o‘rgatish bo‘yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biridir.

Yaponiyada kadrlar tayyorlashda ilmiy-tadqiqot va amaliyotning kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Talabalar qurilish texnologiyalarini, materiallarni tanlashni va sifatni nazorat qilishni o‘rganishadi. Shuningdek, Yaponiya qurilish sohasida sifatni nazorat qilishning yuqori darajalarini o‘rganishga katta e'tibor beradi. Bunda qurilishning barcha bosqichlarida sifatni tekshirish va nazorat qilish zaruriyati mavjud.

Yaponiya shuningdek, qurilishda xavfsizlikni ta'minlashni o‘rgatadi, chunki mamlakatdagi qurilish loyihalarida xavfsizlik yuqori darajasi muhim hisoblanadi. Bunday amaliy yondashuvlar kadrlarni nafaqat

texnik jihatdan, balki xavfsizlik va sifat nazorati bo‘yicha ham tayyorlashga yordam beradi.

Shvetsiya, arxitektura va qurilish sohasida ekologik va barqaror yondashuvlar bilan mashhur. Shvetsiya va Shveytsariyada ham arxitektura, qurilish ta'limi ekologik barqarorlik va yashil qurilishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu sohada kadrlar tayyorlashda innovatsion va ekologik yondashuvlar asosiy o‘rin tutadi.. Yashil qurilish va ekologik dizayn kabi sohalarga katta ahamiyat beriladi.

Shvetsiyada talabalarga energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va barqaror qurilish texnologiyalarini o‘rgatish asosiy maqsadlardan biridir. Shvetsiyaning qurilish ta'lim tizimi talabalarni ekologik barqarorlikni hisobga olgan holda qurilishning barcha aspektlari bo‘yicha tayyorlaydi. Bu yondashuv, shuningdek, yashil qurilish sertifikatlari (masalan, BREEAM yoki LEED) bo‘yicha malaka oshirishni ham ta'minlaydi.

Finlandiya arxitektura va qurilish sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda arxitektura va qurilish sohasidagi o‘quv dasturlari raqamli texnologiyalarni o‘rgatishga katta e'tibor beradi. Finlandiyada talabalar qurilish sohasida yangi texnologiyalar, 3D modellashtirish, raqamli dizayn va qurilishning raqamli integratsiyasi kabi sohalarda ta'lim olishadi. Shuningdek, Finlandiyada ta'lim jarayonida talabalar texnik ko‘nikmalarni amaliyotda sinovdan o‘tkazadilar. Bu esa ularni haqiqiy ish sharoitlariga tayyorlaydi va texnologik yondashuvlarni amalda qo‘llashga imkon beradi.

Косимов И.И., д.т.н, проф.,
Ташкентский архитектурно-строительный университет
Косимов О.Б., к.т.н., доц.,**Косимов К.О.**соискатель**.**
Джизакский политехнический институт

Аннотация: В данной статье приводится результаты научных исследований, направленных на производство новых видов импорто замещающих строительных материалов из местного сырья и вторичных ресурсов, производство востребованных материалов на основе широкого и целевого использования промышленных отходов и шлакощелочных вяжущих, научные основы получения которых были разработаны проф. Глуховским В.Д.

Ключевые слова: шлак, структурообразование, шлакощелочные вяжущие портландцемент, жидкое стекло, прочность.

Введение. Шлакощелочные вяжущие - гидравлические вяжущие вещества, твердеющие в воде и на воздухе, получаемые за творением молотых гранулированных шлаков растворами соединений щелочных металлов (лития, калия, натрия), дающих в воде щелочную реакцию.

Наиболее изученными и производимыми в промышленных масштабах являются шлакощелочные вяжущие на основе гранулированных доменных и электротермофосфорных шлаков .

Шлакощелочные гидравлические вяжущие вещества разработаны в Киевском инженерно-строительном институте под руководством доктора технических наук, профессора Глуховского В.Д., что зафиксировано авторскими свидетельствами с приоритетом 1958 г. /1,2,3 /, который установил и развил теоретические основы и закономерности

проявления гидравлических вяжущих свойств в системе

$$R_zO\text{-}:R\ O - R_z0_3 - RO_z\text{-}H,o$$

Установлено, что основными продуктами гидратации шлакощелочных вяжущих различного состава являются низкоосновные гидросиликаты кальция тоберморитовой группы, кремневая кислота, щелочные и щелочнощелочноземельные гидроалюмосиликаты аналоги природных породообразующих минералов цеолитов и слюд, кальцит и т.п.

Низкая основность продуктов гидратации шлакощелочных цементов и отсутствие в их составе высокоосновных .гидратов определяют высокие физико-механические и химические свойства бетонов на их основе .

Перспективность применения этих вяжущих определяется тем, что производство их базируется на использовании промышленных отходов. Так, в качестве сырья можно использовать все виды гранулированных шлаков, а в качестве щелочных компонентов используются щелочесодержащие отходы промышленности.

Перспективным сырьем для производства ишакощелочного вяжущего в условиях Средней Азии являются электротермофосфорные и электросталеплавильные шлаки. Шлаки фосфорной промышленности характеризуются низким содержанием оксидов алюминия, железа, а также присутствием соединений фтора и фосфорного ангидрида(2-5%).. Исследованиями В.Д.Глуховского /1,2,3,6 / показано, что шлакощелочные вяжущие на электротермофосфорных шлаках и несиликатных щелочных компонентах отличаются более замедленными сроками схватывания по (равнению с вяжущими на доменных шлаках.

Развитием этого направления явились исследования Азимова А.А. , Тулаганова А.А. , Сарсенбаева Б.К. и др.

Так, исследованиями Азимова А.А. /1,3/ установлено, что введение 5% клинкера в состав шлакощелочного вяжущего на электро термофосфорном шлаке позволяет снизить параметры обработки до температуры 368 К

Особенности состава электротермофосфорного шлака предопределяют возможность получения на их основе высококоррозионностойких вяжущих при.их химической активизации соединениями щелочных, металлов /74,95,112/.

Тулагановым А.А. /1,2,4,5/ установлена возможность получения вяжущих композиций М400-700 с использованием смесей солей натрия слабых несильных кислот (содосульфатная смесь). При этом также показано, что вяжущими свойствами обладают композиции на основе электротермофосфорного шлака с добавкой портландцементного клинкера /II/. На основе разработанных вяжущих композиций получены высокомарочные шлакощелочные керамзитобетоны марок 250,400 и средней плотности соответственно 1400,1800 кг/м^3. .

Решению проблемы использования электротермофосфорных шлаков и содосульфатной смеси в производстве шлакощелочных бетонов и их применения в сельском строительстве,, посвящены работы Сарсенбаева Б.К. /1/. Им разработаны технологические приемы, позволяющие получить эффективные-шлакощелочные бетоны на основе электротермофосфорного шлака к содосульфатной смеси, обладающие наряду с прочностью, морозостойкостью, также и коррозионной стойкостью в ряде органических и минеральных сред. Отмечено, что одним из путей получения прочного и морозостойкого бетона на основе электро- термофосфорного шлака и содосульфатной смеси является медленный подъем температуры при тепло влажностной обработке, обеспечивающий наиболее полное взаимодействие щелочного компонента со шлаком :

Однако вследствие содержания в электротермофосфорных шлаках фосфорного ангидрида Сулейменовым С.Т., Куатбаевым.К.К. /1,2,3/установлено, что при помоле электро термофосфорных шлаков выделяются эдедные для организма человека газы - фосфины и фториды водорода. Для нейтрализации выделения этих газов, ими рекомендовано применять марганец и известь, содержащие добавки.

Касимовым И.К. , Тулагановым. А.А. /1,2,5,7/ установлено., что при применении отвальных электросталеплавильных шлаков Бекабадского металлургического комбината, содержащих соединения марганца, хрома, железа и кальция в качестве добавки при помоле электротермофосфорных шлаков выделение вредных газов значительно уменьшается и находится в пределах допустимых концентраций (ПДК), установленных Минздравом СССР.

Установленные закономерности и особенности формирования структуры легких шлакощелочных бетонов на пористых заполнителях пос лужило основанием для создания целой гаммы эффективных легких бетонов на заполнителях различного минералогического состава.

Литература:

1. Косимов О.Б., Шлакощелочной конструкционный арболит на основе
2. местных отходов сельского хозяйства. Автореф. канд. дисс, Киев. 1990г.
3. Касимов И.К., Тулаганов А.А., Косимов О.Б. Бесцементный арболит на основе отходов сельского хозяйства. Тез.докл. III Всесоюзн.научн.-практ. конф., Киев 1989.
4. Касимов И.К., Тулаганов .А., Косимов О.Б., Камилов Х.Х. . Бесцементныйарболит на основе растительных отходов. – в сб. научн. труд. : Комплексное использование древесины при производстве арболита. Вып. 204, М.: МЛТИ, 1988

5. Qosimov O.B.,Aubakirova T.S., Mirzakobilov N.H.STUDIESJF TNE KINETICS OF STRUKTURE FORMATION SLAG-ALKALINE ARBOLITE. ТРУДЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ «АУЭЗОВСКИЕ ЧТЕНИЯ–21: НОВЫЙ КАЗАХСТАН – БУДУЩЕЕ СТРАНЫ» ПОСВЯЩЕННАЯ 80 - ЛЕТИЮ ЮЖНО-КАЗАХСТАНСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМ. М. АУЭЗОВА - Шымкент: ЮКУ им. М. Ауэзова, май. 2023 г.. с.201-204

6. Косимов О.Б.,К.Б.Абдусаматов. ИССЛЕДОВАНИЯ ОСНОВНЫХ ЭКСПЛУТАЦИОННЫХ СВОЙСТВ ШЛАКОЩЕЛОЧНОГО АРБОЛИТА. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI ISSN 2181-9327 № 3 (12), Тошкент. 2023

7. "YONG‘IN-PORTLASH XAVFSIZLIGI" ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

8. Косимов О. Б., Акрамов А. А., Косимов К.О.СТРУКТУРА КОНСТРУКЦИОННОГО АРБОЛИТА И ВЛИЯНИЕ ЕЁ НА ПРОЧНОСТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МАТЕРИАЛА. Меъморчилик ва курилиш муаммолари. Илмий-техник журнал. Самарканд ш. 2024. Март .СамГАСУ. 138 бет.

ОҚОВА СУВЛАРНИ СИНТЕТИК ЮЗА АКТИВ МОДДАЛАРДАН ТОЗАЛАШ ВА СУВ ХАВЗАЛАРИНИ АСРАШ МУАММОЛАРИ

Такабоев Қ. Ў.
Жиззах политехника институти

Аннотация: Оқова сувларни тозалашда бугунги кунда турли мураккаб таркибга эга бўлган оқова сувларнинг пайдо бўлиши сув тозалаш станцияларининг иш жараёнига салбий таъсир кўрсатмоқда. Жумладан юза актив синтетик моддалар шулардан бири ҳисобланади. Ушбу моддалар кундалик ҳаётимизнинг знг зарур эҳтиёжига айланиб бўлган. Сабаби, хонадоннинг ҳар бир бекаси турли ном билан аталувчи унсимон кир ювиш кукунларидан фойдаланишади. Юза актив синтетик моддаларни оқова сувлар таркибидан тозалаш анчагина мураккаб ҳисобланади. Ушбу мақолада юза актив синтетик моддалардан оқова сувларни тозалаш ечимлари тавсия қилинган.

Аннотация: Появление сточных вод различного сложного состава при очистке сточных вод на сегодняшний день негативно сказывается на работе водоочистных сооружений. В том числе поверхностно-активные вещества являются одним из них. Эти вещества стали необходимостью нашей повседневной жизни. Причина в том, что каждая хозяйка пользуется стиральным порошком под разными названиями. Удаление поверхностно-активных веществ из сточных вод значительно сложнее. В данной статье рекомендуются растворы для очистки сточных вод от ПАВ.

Abstract: The appearance of wastewater of various complex composition during wastewater treatment today has a negative impact on the operation of water treatment facilities. Including surfactants are one of them. These substances have become a necessity of our daily life. The reason is that every housewife uses unsimon washing powder under different names. The removal of surfactants from wastewater is much more difficult. This article recommends solutions for wastewater treatment from surfactants.

Юза актив синтетик моддалар кундалик ҳаётимизнинг знг зарур эҳтиёжига айланиб бўлган. Сабаби, хонадоннинг ҳар бир бекаси турли ном билан аталувчи унсимон, суюқ эмульсия ҳолатидаги синтетик моддаларни, яъни “Апрель”, “Эффект”, “Миф”, “Тайд”, “Комет”, “Барф”, “Тара” ва бошқаларни кир ювишда, идишларни, унитазларни, ванналарни гозалашда ишлатади, натижада пайдо бўлган чиқинди сувлар канализация кувурлари оркали хўжалик-маиший чиқинди сувлар билан аралашади. Шунинг учун ҳам шахар чиқинди сувлари таркибида уларнинг миқдори 7,5-20,0 мг/л га етади.

Саноат корхоналарининг жуда кўп жараёнларида, жумладан, турли металларни рудалардан (жинслардан) ажратиб олиш жараёнларида, флотация йўли билан бойитишда, жиҳозларни ювишда ва бошқа мақсадлар учун ишлатилади. Оқибатда пайдо бўлган чиқинди сувларнинг таркибида, албатта, синтетик юза актив моддалар аниқланади.

Қишлоқ хужалигининг турли соҳаларида эмульсия ҳолатида захарли химикатлар ишлатилади, одатда эмульгатор модда сифатида синтетик юза актив моддалар қўлланилади ва оқибатда ер шудгор юза актив моддалар билан зарарланади. Ёгингарчилик оқибатида пайдо бўладиган сувларнинг таркибида юза актив моддалар аниқланади.

Ер ости сувларига юза актив моддалар-экин майдонлари юза актив моддаларни ушловчи чиқинди сувлар билан суғорилганда фильтрланиб ўтиши мумкин.

Саноат корхоналарининг чиқинди сувлари 1 литрида ўртача 5 мг юза актив синтетик моддалар аниқланиши мумкин. Улар кўпинча анион актив юза актив моддалар таркибини ташкил қилувчи-сульфоноллар, алкил сульфатлар, неионоген модлалардан-синтонал, ДС-10 ва бошқалар аниқланади.

Хўжалик чиқинди сувларининг таркибида синтетик юза актив моддалардан бошқа триполифосфатлар, кальцийли сода, силикат натрий, карбокиметил целлюлоза ва бошқалар учрайди.

Айниқса, тери ишлаб чиқиш корхоналарида,

уларни ёғсизлантиришда, ошлашда, пахта толаларини ювишда, жунларни тозалашда, уларни оҳорлашда, буяшда юза актив ювувчи моддалар кўп ишлатилади. Улардан пайдо бўлган оқава чиқинди сувлар таркибида ҳам аниқланади.

Синтетик юза актив моддаларнинг ўзини ишлаб чиқишда ҳам чиқинди сувлар бўлади, булардан ташқари полимер маҳсулотларини, кимё технологияси жараёнида керакли маҳсулотларни ажратиб олишда ҳам кўп ишлатилади. Жунни бирламчи тозалаш жараёнида ишлатилганда юза актив ювувчи моддалар миқдори 1 литр сувда 200 мг гача аниқланади. Мех ишлаб чиқишда сувдаги синтетик моддалар 5-50 мг/л га етади.

Механизациялашган корхоналарнинг чиқинди сувлари таркибидаги кимёвий синтетик моддаларнинг миқдори 100-200 мг/л га етади. Бу сувлар сув ҳавзаларини ифлослантирувчи асосий моддалардир.

Одатда, юза актив моддаларнинг (анион актив) рухсат этилган миқдори 1 литр сувга сульфанол - 0,5 мг, неионогенларники - ОП-7, ОП-10 — 0,4-1,5 мг/л га тенг, неионоген моддалар гурухига кирувчи ситанол ДС-10, проксонал, проксамин, сингамидларнинг тавсия этилган нормаси 1 литр сувга 0,1 мг дан.

Сув хавзаларини юза актив моддалардан асрашда ва экологик ва санитария назоратини олиб боришда асосан турғун юза актив синтетик моддаларга аҳамият берилиши керақ чунки у моддалар сув таркибида 15-20 мг/литрга етганда, аҳоли томонидан сувдан фойдаланиш бузила бошлайди, сувнинг санитария-экологик ҳолати бузилади, энг ачинарли томони шундаки - сув тозалаш иншоотлари ишини издан чикаради. Агар чиқинди сувлар таркибида анион актив ва катион актив моддалар бирлашмаси қатнашса, юза актив моддаларнинг умумий миқдори 1 литр сувда 20 мг дан юкори бўлмаслиги керак.

Тажриба модели сифатида қурилган аэротенклардаги юза актив моддалардан тозаланиш жараёни: алкил сульфатлар учун - 98%, алкил сульфанатлар - 96%, сульфаноллар учун 87 %, хлор сульфанол учун - 62% га тенг.

Тозалаш иншоотларида юза актив моддалардан тозаланиш жараёнининг натижаси - 50-80% га етади. Улар таъсирида ки чик сув хавзаларида ўзини ўзи тозалаш жараёнлари секинлашади.

Аммо хозирги замонавий сувларни тозалаш иншоатларида юза актив моддаларни ушлаб қолиш жуда қийин, бу борада сувга озон билан ишлов бериб ёки актив кўмир ишлатиб, сувни юза актив моддалардан рухсат этилган миқдор даражасигача тозалаш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Давлат стандарти “Ичимлик сув. Гигиеник талаблар, Сифатини назорат қилиш” OzDst д.51. Тошкент, 2000.
2. Ўзбекистон Давлат стандарти “Марказлаштирилган хўжалик ичимлик суви билан таъминлаш манбалари, гигиеник, техник талаблар ва танлаш қоидалари” OzDst д.51. Тошкент, 2000.
3. А. Эргашев, Ш. Отабоев, Р. Шарипов, Т. Эргашев “Сувнинг инсон ҳаётидаги экологик моҳияти” Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти Тошкент, 2009.

ТОҒЛИ ХУДУДЛАРДА ЯШОВЧИ АҲОЛИНИ ҚУДУҚ ВА БУЛОҚ СУВЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ТЎҒРИСИДА

Такабоев Қ. Ў.
Жиззах политехника институти

Аннотация: Республикамизда кўплаб аҳоли тоғли худудларда истеқомат қилишади. Ушбу худудларда кўплаб Давлат стандартига жавоб берадиган қудуқ ва булоқ сувлари мавжудки ўша жойда яшовчи аҳоли ушбу сувлардан ичимлик суви сифатида фойдаланишади. Тоғли худудларда яшовчи аҳолини қудуқ ва булоқ сувлари билан таъминлаш самарадорлигини оширишда мавжуд сувларнинг дастлаб санитария ҳолати ўрганилиши лозим. Мавжуд сув манбаларини гигиеник тоза сақлаш унинг атрофини махсус қурилмалар билан ўраш ва ушбу худудни ҳар хил чиқиндиларнинг ташланишидан асраш керак бўлади.

Аннотация: В нашей стране большая часть населения проживает в горных районах. В этих местах много колодцев и родников, соответствующих государственным стандартам, и местное население использует эти воды как питьевую. Для повышения эффективности обеспечения колодцев и родниковой водой населения, проживающего в горных районах, необходимо изучить санитарное состояние имеющейся воды. Необходимо содержать существующие источники воды в гигиенической чистоте, окружать их специальными приборами и защищать территорию от сброса различных отходов.

Annotation: In our country, most of the population lives in mountainous areas. There are many wells and springs in these places that meet state standards, and the local population uses these waters for drinking. To increase the efficiency of supplying wells and spring water to the population living in mountainous areas, it is necessary to study the sanitary state of the available water. It is necessary to keep existing water sources hygienically clean, surround them with special devices and protect the territory from the dumping of various wastes.

Ичимлик суви манбаларини аниқлашда одатда гидрогеологлар, санитария ходимлари қудуқ ва бу-

лоқ сувлари олинадиган жойларни танлашлари лозим. Қудуқларнинг санитария талабларига жавоб берадиган баландроқ жойларга қурилиши мақсадга мувофиқдир. Улар канализация тармоқлари ўтган худудлар, чорва моллари сақланадиган жойлар шунингдек минерал ўғитлар сақланадиган объектлардан камида 100-150 м узоқроқдан танланиши ва ободонлаштирилиши мумкин.

Сув олиш мақсадида қурилган қудуқларнинг деворлари мустаҳкам, дарз кетмаган, ёмғир, қор сувлари тушмайдиган, қудуқнинг айланма оғзи темир-бетон ёки пишиқ ғишт билан ер юзасидан 80-100 см кўтарилган девори бўлмоғи шарт, қудуқ устига 3 метрли тик том ўрнатилиши лозим. Қудуқ ички девори тагидан юқоригача айланма темир-бетонли диаметри 100-120 см қувур ётқизилиши керак. Бунинг иложи бўлмаса 15-18 сантиметрли ғўлаёғоч билан тагидан қудуқнинг устигача тахланиб, тўрт томонидан ёғочли девор қилиниши лозим. Қудуқнинг ер юзасидаги қисмига бўйи 2 метр, эни 1 метрли лойдан “Қулф” қилинади, сўнгра унинг устига 2 метрли радиусда қум-цементли эритма билан сувалади ёки пишиқ ғишт ётқизилади.

Қудуқ атрофи панжара билан ўралади. Қудуқни таъмирлаш ва қудуқ сувини тозалаш мақсадида унинг деворига темир зиналар, қудуқнинг устидаги зонтик икки ёғоч ғўла икки устунга ўрнатилади ва сув олиш мақсадида қудуқнинг оғзига горизонтал холатда айланадиган икки ўқди ғўла ўрнатилади, ғўлани айлантириш учун мослама ва ғўлага арқон боғланади, унинг бир учига челак боғланиб, ўша челакда сув олинади. ҳар ким ўз челагини сув ичига туширавермайди. Қудуқ сувининг тиниқлиги 30 см, рангсиз, мазасиз бўлиши зарур. Сувнинг таркибидаги нитрат тузлари 1 л сувдаги миқдори 10 мг дан, азот бўйича 40-45 мг дан ошмаслиги керак.

Қудуқ суви ифлосланса, тезлик билан дезинфекция қилинади. Бунинг учун, олдин қудуқ сувдан бутундай озод қилинади, деворлари чириндилардан тозаланади, лойқа чўкмалар олиб ташланади. Бу чўкмалар қудуқдан 20 метр нарида ковланган ўрага ташланади, 10% хлорли охак эритмаси ёки ўзи кўмилади. Агар қудуқ девори ёғочдан ишланган бўлса, уни таъмирлаб, ҳар 1 м2 майдонига 0,5 % хлорли оҳак эритмаси билан ишлов берилади.

Қудуқ яхшилаб тозалангандан сўнг, қайтадан сув йиғилади, сув маълум баландликка кўтарилгач, сув ҳажми аниқланади ва 1 л сувга, 100-150 м2 хисобида охакли хлор солинади.

Хлорли оҳакнинг қудуқ суви билан керакли миқдори қуйидаги формула билан аниқланади.

$$P = \frac{E * C * 100}{H}$$

Е-сувнинг ыудуыдаги миыдори (м3);

С-сувга солинган фаол хлор миқдори (г/м3);

100-доимий коеффициент;

Н-хлорли оҳакдаги хлор миқдори (%)

Қудуқ сувига дезинфекцияловчи моддалар қўшилгач 25 дақиқа давомида аралаштирилади, кейин қудуқ 6 соатга беркитиб қўйилади. Сўнгра сув хлор ҳиди бор ёки йўқлигини текширилади, Сувда хлор хиди бўлмаса, хлор аралаштирилпш қудуқни ёпиб, 3-4 соат кузатилади. Сўнгра қудуқ сувидан намуна олиниб. бактериологик текширишга юборилади. Сув Давлат стандарти талабига жавоб берса, ичишга яроқли деб рухсат берилади.

Булоқ сувлари кўпинча тоғларнинг ён бағрида, тепаликлар тагида чашма сифатида чиқиб, кичик ариқларда оқа бошлайди. Шунинг учун ҳам тоғли худудларда жойлашган аҳоли ўша сувлардан фойдаланади. Бунинг учун махсус қурилмалар-каптажлар қурилади, улар маълум ҳажмдаги сувларни қабул қилади. Каптажларнинг таги сув ўтмайдиган лой қаватлардан, усти эса сувни ифлосланишдан сақлаш учун ғишт ёки ёғочлардан фойдаланиб, икки хонали қилиб уйчалар қурилади. Биринчи хонасида сув йиғилиб тиндирилади, иккинчи хонасида эса истеъмол учун сув олинади. Иккала хонанинг деворлари тагига сув оқиб чиқиши учун махсус қувурлар жойлаштирилади. Ортиқча сувни оқизиб юбориш мақсадида қувурнинг охирига нов ўрнатилади, сув арықчага оқизилади.

Каптажларни тоза тутиш мақсадида вақти-вакги билан дезинфекция қилиб туриш учун унинг ичига эшик ўрнатилади. Эшиқ дарчалари ер юзидан 30-40 см баландликда ўрнатилади. Каптаж суви ҳам қудуқ сувига ўхшаш тоза бўлмоги шарт.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Давлат стандарти “Ичимлик сув. Гигиеник талаблар, Сифатини назорат қилиш” OzDst д.51. Тошкент, 2000.

2. Ўзбекистон Давлат стандарти “Марказлаштирилган хўжалик ичимлик суви билан таъминлаш манбалари, гигиеник, техник талаблар ва танлаш қоидалари” OzDst д.51. Тошкент, 2000.

3. А. Эргашев, Ш. Отабоев, Р. Шарипов, Т. Эргашев “Сувнинг инсон ҳаётидаги экологик моҳияти” Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти Тошкент, 2009.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДАН ЧИҚАДИГАН ОҚОВА СУВЛАРНИ МЕХАНИК УСЛУБЛАР БИЛАИ ТОЗАЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ТЎҒРИСИДА.

Такабоев Қўчқор Ўролович
Жиззах политехника институти

Аннатоция: Бу усул саноат корхоналаридан чиқадиган оқова сувларни тозалашда мухим ахамиятга эга бўлиб оқова сувлар таркибидаги минерал, органик аралашмаларни ажратиб олинишида мухим ахамият касб этади. Механик услубдан фойдаланишнинг аҳамияти шундаки, ишлаб чиқаришдан чиқадиган чиқинди сувларни кейинги тозалаш босқичларига тайёрлайди. Яъни, сувни тўла-тўкис зарарли омиллардан бошқа услублар ёрдамида зарарсизлантириш жараёнини охирги босқичгача етказади. Бугунги кунда саноаи корхоналарида чиқадиган оқова сувларни юқоридаги усул билан тозалаш ва ушбу корхоналарга қайтадан бериш сувдан фойдаланиш самарадорлигини оширади.

Калит сўзлар: Механик услуб, Чиқинди сувлар, Органик, Тиндиргич, Азонлаш Хлорлаш, Гидроэлэватор, Преаэратор.

Аннотация: Этот метод важен при очистке промышленных сточных вод и важен для разделения минеральных и органических соединений в сточных водах. Важность использования механического метода заключается в том, что производственные сточные воды подготавливаются для следующих этапов очистки. То есть полностью доводит до завершающей стадии процесс обеззараживания воды методами, отличными от вредных факторов. Сегодня очистка и повторное использование сточных вод промышленных предприятий указанным способом повышает эффективность использования воды.

Ключевые слова: механический тип, сточные воды, органические вещества, хладагент, хлорирование азоном, гидролифт, предаэратор.

Annotation: This method plays an important role in the treatment of industrial wastewater and the separation of mineral and organic compounds in wastewater. The importance of using a mechanical method is that the wastewater from production is prepared for the next treatment steps. That is, it completely takes the process of decontamination of water using methods other than harmful factors to the final stage. Today, the treatment and recycling of wastewater from industrial enterprises by the above method increases the efficiency of water use.

Klyuchevыe slova: mechanical type, stochnye water, organic substances, xladagent, chlorinated azonom, gidrolift, predaerator.

Бу услуб ёрдамида чиқинди сувлар таркибидаги эримаган минерал ва органик аралашмалар ажратиб олинади. Механик услубдан фойдаланишнинг аҳамияти шундаки, чиқинди сувни кейинги тозалаш босқичларига тайёрлашдир. Яъни, сувни тўла-тўкис зарарли омиллардан бошқа услублар ёрдамида зарарсизлантириш аа жараённи охирги босқичгача етказиш. Жумладаи, чиқинди сувни сим тўрлардан, қум ушлагич иншоотидан ўтказиш, кейинги босқичда тиндириш ва фильтрлаш, керак бўлса хлорлаш, озонлаш ва бошқалар. Механик тозалаш услублари сувдан қўпол нарсаларни, осиғлиқ моддаларни, қумларни ва бошқаларни ажратиб олишга имкон беради. Бу услуб ёрдамида 90-95% осиғлиқ моддалардан, 20-25% органик зарарли омиллар сувдан ажратиб олинади. Коллоид ҳолатидаги моддалар фильтрлаш жараёни ёрдамида ушлаб қолинади. Агар осиғлиқ моддалар миқдори 1 литр сувга 50 мг тўғри келса, унда коагуляция ва тиндириш услубларидан фойдаланиш мумкин. Механик услубларни ривожлантириб, янгиланишлар технологик жараёнларга киритилса, жумладан: кўп полкали тиндиргичлар, турли фильтрлар, гидроциклонлар, синтетик фильтрларнинг янги технологик жараёнга кириб келиши иншоотларнинг самарали ишлашига олиб келади ва чиқинди сувларни тезроқ берк системага қайта ишлатишга ёрдам беради ҳамда қимматбаҳо услубларни ишлаб чиқишга кетадиган сарфни қисқартиришга имкон беради.

Сим тўрлар. Чиқинди сувларнинг ўзи оқиб келадиган катта трубалар, коллекторларга сим тўрлар ўрнатилади. Кўпгина РМУ типидаги ва МГ типидаги хаскаш билан тозалайдиган сим тўрлар ўрнатилади. Хаскашга илинган қўпол чиқиндилар контейнерларга ташланади, улар тўлгач, майдалаш цехига жўнатилади. Сим тўрлар ораси 16 мм га тенг.

Қум ушлагичлар. Бу иншоотлар чиқинди сув таркибидаги 0,2-0,25 мм минерал заррачаларни ушлаб қолишга мўлжалланган. Қум ушлагичлар икки бўлимдан иборат бўлиб, доимо ишлаб турмоқлари зарур. Қум ушлагичлар саноат корхоналари чиқинди сувларининг ҳаммасини ўтказишга мўлжаллаб қурилади. Горизонтал қум ушлагичлар одатда корхоналардан чиқадиган чиқинди сувларининг кумини ушлашга мослашган, чиқинди сувлар нейтрал ёки кучсис ишқорий реакцияга эга бўлади.

Баъзи бир қум ушлагичлар шамоллатиб турилади, улар қум заррачаларннинг гидравлик йириклигида бўлиб, диаметри 13- 18 мм, сувнинг оқиш тезлиги 0,08-0,12 м/с га тенг. Бундай қум ушлагичлар 240-280 минг $м^3$ сувни 1 суткада ўтказади. Аэротор мосламалар қум ушлагичларнинг тагига ўрнатилади. Чиқинди сувни шамоллатиш учун 1 соатга уларнинг сув ўтказиш миқдорига қараб 200 дан 920 $м^3$ га етиши мумкин. Агар қум ушлагичнинг кенглиги 4,5 метр, чуқурлиги 2,8 метр, узунлиги 18 метр бўлиб, суткасига 280 минг $м^3$ сувни ўтказиб турса, унда ҳавонинг сарфи соатига 920 $м^3$ бўлади. Сувнинг шамоллатилиши баъзи бир органик моддаларнинг оксидланишига, яъни парчаланишига ёрдам беради.

Бирламчи тиндиргичлар. Ишлаб чиқариш корхоналари чиқинди сувлариниг миқдорига ва таркибига қараб, тиндиргичларнинг тузилиши ҳар хил бўладн. Уларниг миқдори 2 дан 4 гача бўлади. Буларнинг миқдори қуйидаги далиллар асосида аниқланади:

1 сек. оқиб келадиган сув миқдори - Q м3/с.

Осиғлиқ моддалар концентрацияси – С 1 мг/л, оғир ва енгил механик аралашмалар (ёғ, нефт маҳсулотлари).

Тиндирилган сув таркибидаги рухсат этилган осиғлиқ моддалар миқдори – С мг/л, санитария нормасига мос келадигаи ёки технологик жараён бўйича шартланган миқдор, яъни (мисол: чиқинди сув тўла-тўкис тиндиргичлар тинди- рилгандан сўнг биофильтрга ёки аэротикка юборилганда осиғлиқ моддалар миқдори – С 100-150 мг/л бўлади.

Тиндиргичлар тик, горизонтал, радиал типида бўлиши мумкин.

Тиндиргичларда одатда хўжалик чиқинди сувларига ёки таркиби бўйича хўжалик чиқинди сувларига яқин дағал дисперсли аралашмалар бўлган сувлар тиндирилади. Бундай тиндиргичлар соатига 196-200 м^3 чиқинди сувни тиндиради, сувни тиниташ натижаси 50-70% га тенг. Тиндиргич тагига чўккан чўкма гидростатик босим ёрдамида чўкма оқизиладиган қувур билан чўкма ташланадиган майдонга йўналтирилади.

Горизонтал тиндиргичлар. Бундай тиндиргичларнинг эни 9 метр, узунлиги 24-30 метр, чуқурлиги 3-4 метрга тенг, улар 4, 6 ва 8 бўлимли бўлиб, умумий ҳажми 3200 м^3 га тенг, тиндириш вақти 1,5 соатга тенг. Горизонтал тиндиргичлар сувни симтўр, қум ушлагичлардан ўтгач қабул қилади. Сув нов ёрдамида тиндиргичдаги йиғувчи новга тушади, сўнг тиндиргичга тарқалади. Чўкма махсус чўкмани тўплаб оладиган курак-мослама ёрдамида ўрага ташланади, у ердан плунжер насослари билан олиб ташланади. Кейин чўкмаларга зарарсизлантириш мақсадида ишлов берилади.

Радиал тиндиргичлар. Буларнинг диаметри 30 метр, чуқурлиги 2,5-4 метр, чўкма тиндиргич тагига чўкади ва плунжер насослари ёрдамида чўкма махсус ажратилган жойга олиб ташланади. Чўктириш-тиндириш вақти 1,5 дан 2,1 соатгача, тиндиргичларнинг ҳажми 2360 м^3 дан 8760 м^3 га тенг. Чиқинди сув марказий труба орқали тиндиргичга келади, сувнинг юзида сузиб юрувчи аралашмалар бункерга ташланади. Тиндирилган сув айланма новлар ёрдамида марказий трубага ташланади, тахминан тиндиргичда сув 1 соат тиндирилади.

Преаэротарлар аэротенклар билан, биофильтрлар биокоагуляторлар билан биргаликда қурилади. Сувларни актив чўкма билан аэрациялаш-шамоллатиш 10-20 минут давом этади. Актив чўкмалар аэротенк тозалаш иншоотлари орқали генераторлар ёрдамида преаэротарга юборилади. Ҳар 1 м^2 сувга юбориладиган ҳаво 0,5 м^3 га тенг.

Адабиётлар:

1. ҚМҚ 2.04.03-97 “Канализация, Неружные сети и сооружения” – Т. Узбекистанский комитет по строителъству и архитектуре, 1998 г.

2. А. Ризаев, У Бахромов “Сув олувчи иншоатлар” Т. “Алоқачи” нашриёти 2007 й.

3. В. И. Калицун Водоотводящие системы и сооружения. Учебник для ВУЗов. –М.: Стройиздат. 1987 г.

4. В. С. Дикаревский «Отведение и очистка поверхностных сточных вод» Л. «Стройиздат» 1990 г.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUN’IY SUG‘ORILADIGAN YERLARNING TAHLILI

Ergashev Xusniddin Xusanovich
Toshkent davlat tranchport universiteti katta o‘qituvchisi, Toshkent
Nabiyev Davlatjon Rasuljon o‘g‘li
Toshkent davlat tranchport universiteti YMAL-1-24 guruh talabasi, Toshkent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamiz bo‘yicha sun’iy sug‘oriladigan hududlarning tarqalishi shuningdek viloyatlar kesimida sun’iy sug‘oriladigan yerlarning tarqalishi va kartasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil yo‘l poyi, sun’iy sug‘oriladigan hudud, iqlim, grunt, ko‘tarma, loyiha, gidrogeologiya, sho’rlangan hududlar, nishablik.

Kirish. Yurtimizda avtomobil yo‘llarining ma’lum bir qismi sun’iy sug‘oriladigan hududlardan o‘tgan. Sun’iy sug‘oriladigan hududlarda avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurish o‘ziga yarasha viyinchiliklarni talab etadi. Shu jumladan avtomobil yo‘llarining yo‘l poyi balandligini belgilashda ham sun’iy sug‘oriladigan hududlarning xususiyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Sun’iy sug‘oriladigan hududlardan o‘tgan va yangi loyihalanayotgan avtomobil yo‘llarni loyihalash - qurishda ilm – fan yutuqlarini qo‘llagan holda ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish, yo‘l poyi mustahkamligini oshirish, qulay va ishonchli yo‘llarni barpo etishga bor e’tiborimizni qaratishimiz lozim.

Asosiy qism: O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni jami 44892,4 ming gektarni tashkil etadi, shundan sug‘oriladigan yer maydonlari 4331,7 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 % ni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga asosan toifalarga bo‘linadi.

Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

1-jadval (ming ga. hisobida)

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar	
		Jami	% hisobida	Jami	% hisobida
1	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	24057,1	53,59	4214,3	9,39
2	Aholi punktlarining yerlari	223,5	0,50	51,8	0,12
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar yerlar	876,3	1,95	12,6	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	728,4	1,62	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,7	0,03		
6	O‘rmon fondi yerlari	12021,4	26,78	45,4	0,10
7	Suv fondi yerlari	827	1,84	4,7	0,01
8	Zahira yerlar	6144	13,69	2,3	0,005
	Jami yerlar:	**44892,4**	**100**	**4331,7**	**9,65**

O‘zbekiston Respublikasi hududining 3693,8 ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi. Sug‘oriladigan yer maydonlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha taqsimlanishi quyida keltirilgan [1].



1-rasm. Sug‘oriladigan yer turlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha taqsimlanishi %



2-rasm. O‘zbekistonning sug‘oriladigan hududlari xaritasi

Respublikamiz olimlari tomonidan Avtomobil yo‘llarinining yo‘l poyini mustahkamlash va balandligini belgilash bo‘yicha R.M.Xudaykulov, A.D.Kayumov, S.I.Komilov va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan olimlarimiz tomonidan sho‘rlangan gruntlarning fizik-mexanik xossalari, gruntlarni zichlash jarayonlari, laboratoriya va dala sharoitlarida o‘rganish natijalari asosida sho‘rlangan gruntli yo‘l ko‘tarmalarining hisobiy ko‘rsatkichlarini oldindan bashorat qilish uchun kapilyar suvlari bilan namlanadigan ishchi qatlamning hisobiy konstruktiv yechim chizmasi taklif qilingan [2].

Quruq iqlimli sun’iy sug‘oriladigan hududlarda avtomobil yo‘llarining poyini loyihalash va qurish bo‘yicha texnik ko‘rsatmalarda O‘zbekistonning sug‘oriladigan hudularidagi iqlimi tez o‘zgaruvchan va qurg‘oqchil hududlarida, sun’iy sug‘oriladigan yerlarida va ulardagi suvda eriydigan tuzlari yuviladigan joylarida yo‘l poyini loyihalash va qurish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar va ko‘rsatmalar keltirib o‘tilgan [3].

Hulosa: Ko‘rinib tiribdiki O‘zbekistonning umumiy yer fondining 9,6 % ni sun’iy sug‘oriladigan yerlar tashkil etar ekan. Bu esa o’z navbatida shu hududlarda loyihalanayotgan va qurilayotgan sun’iy inshootlarga alohida talablarni qo’yadi. Jumladan, sug‘oriladigan hududlardan o’tgan avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiyon ko‘rsatkichlarini yaxshilashni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida” milliy hisobot. 2022 y. 103 b.

2. R.M.Xudaykulov Sho‘rlangan gruntli yo‘l poyi ko‘tarmasining turg‘unligini baholash. Monografiya. Toshkent 2021 y. 151 b.

3. MShN 47-2005. “Quruq iqlimli sun’iy sug‘oriladigan hududlarda avtomobil yo‘llarining poyini loyihalash va qurish bo‘yicha texnik ko‘rsatmalar”. “O‘zavtoyo‘l” DAK. Toshkent-2005. 36 b.

SUN’IY SUG‘ORILADIGAN YERLARDA SIZOT SUVLARINING AVTOMOBIL YO‘LLARIGA TA’SIRI

Ergashev Xusniddin Xusanovich
Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi, Toshkent
Raxmonov Jamshidbek G‘ayratjon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti assistenti, Toshkent

Annotatsiya: Ushbu maqolada sizot suvlarining O‘zbekiston hududida joylashuvi va ularning avtomobil yo‘l poyiga ta’siri o‘rganilgan. Sizot suvlari iqlim va gidrogeologik sharoitlarning kompleks ta’sirlaridan hosil bo‘ladi. Sizot suvlarining joylashuvi keng diapozonlarda o‘zgarib turadi. Sizot suvlarining joylashuvi chuqurligi, minerallashuvi va kimyoviy tarkibi, fasliy, yillik va ko‘p yillik o‘zgarishlarga uchraydi. Sizot suvlarining rejimi va balansi, tabiiy va xo‘jalik omillari ta’sirida o‘zgarib shakllanadi.

Kalit so‘zlar: sizot suvlari, avtomobil yo‘l poyi, sun’iy sug‘oriladigan maydonlar, iqlim o‘zgarishi, minerallashuv.

Kirish. Har bir iqlim va gidrodinamik mintaqalar chegarasida tabiiy gidrokimyoviy sharoitni murakkablashtiradigan yoki o‘zgartiradigan bir yoki bir necha lokal omillar bo‘lishi mumkin. Bular, tog‘ jinslari va sizot suvlarining hozirgi vaqtda sho‘rlanganligi va qoldiq dengiz sho‘rlanishi. Tarkibida tuz bo‘lgan tub tog‘ jinslari, denudatsiya jarayonlari (parchalanishi, buzilishi, tashilishi, yotqizilishi) va uning maxsulotlarini to‘planish. Sizot suvlarini bosimli yuqori minerallashgan suvlar bilan qo‘shimcha ozuqalanishi. Tuproqlarni soda bilan sho‘rlanishiga olib keladigan sizot suvlarining yuqori ishqoriyligi. Balchiqli vulqonlar va muz-gumbaz tektonikasi.

Geokimyoviy sharoitning murakkabligi sizot suvlarida, suv joylashgan qatlamlarda va aeratsiya mintaqasi jinslarida tuz zahiralarining ortishida o‘zini namoyon qiladi.

Asosiy qism: Sizot suvlari yer yuzasidan birinchi suv o‘tkazmas qatlam ustida joylashgan, doimiy, bosimsiz, erkin yuzaga ega bo‘lgan yer osti suvlari hisoblanadi. Shu sababli bunday suvlar sug‘orish maydonlarida keng tarqalgan va ular asosiy sug‘orish maydonlarida yer yuziga yaqin joylashgan. Ular turli minerallanganlik va kimyoviy tarkibga ega. Bunday suvlar tuproq qatlamida sodir bo‘ladigan jarayonlarda faol qatnashadi va jarayonlarning yo‘nalishini belgilab beradi.

Sizot suvlari katta geografik va mahalliy kengliklarda tarqalgan va o‘ziga xos sharoitlarda joylashgan. O‘zbekiston hududi (sug‘orish maydonlari) yarim sahro va yarim sahro tabiiy mintaqalarida joylashgan. Bu mintaqalarda tabiiy sharoitda yog‘ingarchilikning ozligi va bug‘lanishlar kuchli bo’ladi [1].

Quyida keltirilgan diogrammalarda O’zbekiston Respublikasining sug’oriladigan maydonlari sizot suvlarining joylashuv chuqurligiga qarab yillar kesimida maydonlarga bo’lingan.

Andijon viloyati



	2020	2021	2022	2023	2024
0-1 m	0,7	0,5	0,9	0,2	0,4
1-1,5 m	14,9	16,6	16,2	16,0	13,5
1,5-2 m	101,0	92,1	99,6	87,1	90,5
2-3 m	59,7	66,1	60,2	66,6	69,6
3-5 m	28,6	25,8	33,8	32,2	27,4
>5 m	60,0	63,5	53,3	61,4	69,6

Toshkent viloyati



	2020	2021	2022	2023	2024
0-1 m	1,2	1,6	1,7	1,0	0,9
1-1,5 m	6,5	8,1	10,2	5,6	5,3
1,5-2 m	24,0	24,2	30,5	18,2	16,9
2-3 m	177,1	185,9	218,8	208,0	207,8
3-5 m	164,9	141,0	107,3	127,2	129,5
>5 m	24,9	37,7	30,1	40,3	39,9

Qashqadaryo viloyati



	2020	2021	2022	2023	2024
0-1 m	0,1	0,0	0,1	0,1	0,0
1-1,5 m	1,0	0,3	0,7	0,8	0,3
1,5-2 m	9,9	4,9	5,1	4,9	2,6
2-3 m	223,3	159,1	179,8	177,2	147,6
3-5 m	164,6	225,3	205,1	213,3	233,5
>5 m	116,2	125,0	123,4	117,8	129,5

Surxondaryo viloyati



	2017	2018	2019	2020	2021
0-1 m	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
1-1,5 m	0,2	0,1	0,1	0,2	0,1
1,5-2 m	3,9	3,8	3,8	4,0	3,9
2-3 m	142,4	139,9	139,8	139,2	136,0
3-5 m	75,1	77,4	76,9	76,7	81,1
>5 m	104,0	104,3	104,4	104,9	103,9

Farg'ona viloyati



	2020	2021	2022	2023	2024
0-1 m	0,2	0,3	0,3	0,2	0,1
1-1,5 m	9,5	10,0	10,8	8,5	7,4
1,5-2 m	152,0	144,1	145,0	125,0	137,9
2-3 m	101,2	110,2	106,0	111,5	114,4
3-5 m	23,6	22,3	21,2	38,6	23,4
>5 m	82,3	81,8	85,3	84,7	85,3

1-rasm. Andijon viloyati, Toshkent viloyati, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, Farg'ona viloyatlarining sizot suvlarining chuqurliklari

Yuqoridagi diogrammalardan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda sug'oriladigan hududlarning chuqurligiga qarab o'zgarishini ko'rishimiz mumkin [2].

Xulosa: Sug'oriladigan yerlarning hosil bo'lishi, yerlardan foydalanish va sizot suvlarining hosil bo'lish jarayonlarini ko'rishimiz mumkin.

Sug'oriladigan yerlarda o'z navbatida sizot suvlarining hosil bo'lish sabablari va Respublikamizda sizot suvlarining joylashuv chuqurligiga qarab sug'oriladigan yer maydonlarini yillar kesimida joylashuvlarini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, sug'oriladigan hududlardan o'tgan avtomobil yo'llarining ekspluatatsiyon ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun sizot suvlarining ham xususiyatlarini o'rganishni talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'.U.Yusupov, D.A.Quvvatov "Meliorativ gidrogeologiya". Toshkent. 2015 y. 231 b.

2. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida" milliy hisobot. 2024 y. 103 b.

O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY QURILISH KONSTRUKSIYALARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION YONDOSHUVLAR

Fayzullayeva Zarina Nayimovna,
"Qurilish muhandisligi" kafedrasi assistenti,
Beshimova Munisa Lutfullayevna
Bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 4-bosqich talabasi.
Buxoro Davlat Texnika Universiteti,

Annotasiya. Ushbu maqola O'zbekiston qurilish sohasida zamonaviy konstruksiyalar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Maqolada energiya tejamkor materiallar, modulli qurilish usullari va raqamli texnologiyalarning qurilish jarayonlariga integratsiyasi kabi yondoshuvlar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qurilish sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlari asosida sohaning rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Maqola qurilish sohasida barqaror rivojlanish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda innovatsion yondoshuvlarning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: innovatsion qurilish, zamonaviy konstruksiyalar, energiya tejamkor materiallar, raqamli texnologiyalar, modulli qurilish, O'zbekiston qurilish sohasi, Prezident qarorlari.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi, aholi sonining o'sishi va infratuzilma ehtiyojlarining ortishi qurilish sohasida yangi texnologiyalar va innovatsion yondoshuvlardan foydalanishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlari, jumladan, 2020-yil 13-martdagi PF-5963-sonli "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi Qarori qurilish sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan [4, 7]. Ushbu qarorlar energiya tejamkor materiallar, modulli qurilish usullari va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali qurilish jarayonlarining samaradorligini oshirishni maqsad qiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda zamonaviy qurilish konstruksiyalaridan foydalanishda innovatsion yondoshuvlarni tahlil qilish va ularning sohada qo'llanilishi mumkin bo'lgan afzalliklarini aniqlashdir. Tadqiqotda qurilish sohasidagi global tendensiyalar va mahalliy sharoitlar hisobga olingan holda, O'zbekistonning iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga mos innovatsion yechimlar ko'rib chiqiladi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot IMRAD tuzilmasiga asoslanib, bir qator analitik va empirik usullardan foydalangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallar va metodlar qo'llanildi:

1. **Adabiyotlar tahlili**: O'zbekiston va xalqaro miqyosda qurilish sohasidagi innovatsion yondoshuvlarga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ushbu manbalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, shuningdek, qurilish sohasidagi hisobotlar kiritildi [1, 3, 4, 7, 11, 12, 13, 14]. Xususan, xorijiy adabiyotlardan energiya tejamkor materiallar va modulli qurilish bo'yicha so'nggi tadqiqotlar o'rganildi [12, 13]. Mahalliy manbalardan esa "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining hisobotlari va Prezident farmonlari asosiy ma'lumot manbai sifatida xizmat qildi [9, 11].

2. **Statistik tahlil**: O'zbekiston qurilish sohasidagi investitsiyalar hajmi, yangi texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari va energiya tejamkor materiallardan foydalanish bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan taqdim etilgan yillik hisobotlardan olingan [9, 11]. Statistik tahlilda 2018-2024 yillar davomida

qurilish sohasiga kiritilgan investitsiyalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish dinamikasi o'rganildi.

3. **Taqqoslash usuli**: Global qurilish texnologiyalari, masalan, 3D bosib chiqarish, modulli qurilish va BIM (Building Information Modeling) texnologiyalari O'zbekiston sharoitlariga mosligi bo'yicha taqqoslandi [3, 12, 13, 14]. Taqqoslashda iqlimiy omillar (O'zbekistonning issiq va quruq iqlimi), iqtisodiy resurslar (mahalliy materiallar ishlab chiqarish imkoniyatlari) va infratuzilma imkoniyatlari hisobga olindi. Masalan, Janubiy Koreyada BIM texnologiyasining muvaffaqiyatli qo'llanilishi O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi [14].

4. **Sohaviy ma'lumotlar tahlili**: O'zbekistonning qurilish sohasidagi yetakchi tashkilotlari, jumladan, "O‘zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi, Toshkent shahridagi "INNO" texnoparki va Quvasoydagi "Kvars" korxonasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar tahlil qilindi [9, 11]. Ushbu tashkilotlarning energiya tejamkor materiallar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tajriba loyihalari tadqiqotda asosiy ma'lumot sifatida ishlatildi.

5. **Ekspertlar bilan suhbatlar**: Qurilish sohasidagi mahalliy mutaxassislar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar vakillari bilan suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlar Toshkent shahrida joylashgan "O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi" vakillari va "INNO" texnoparki mutaxassislari bilan tashkil etildi. Suhbatlar davomida modulli qurilish va BIM texnologiyalarining mahalliy sharoitlarda qo'llanilishi bo'yicha amaliy tajribalar va muammolar muhokama qilindi.

6. **Kuzatuv va joylarda o'rganish**: Tadqiqot doirasida O'zbekistonning bir qator yirik qurilish loyihalari, xususan, "Yangi Andijon" shahri qurilishi va Toshkent shahridagi zamonaviy turar-joy majmualari joyida o'rganildi. Ushbu loyihalarda modulli qurilish va energiya tejamkor materiallardan foydalanishning amaliy natijalari kuzatildi. Kuzatuvlar qurilish jarayonlarining samaradorligi, xarajatlarni kamaytirish va loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish bo'yicha ma'lumotlarni to'plashga yordam berdi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor energiya tejamkor materiallar (bazalt, fibro tolali panellar, quyosh nurini qaytaruvchi oynalar), modulli qurilish texnologiyalari va raqamli loyihalashtirish (BIM) kabi innovatsion yondoshuvlarga qaratildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekistonning iqlimiy sharoitlari (yuqori harorat, quruq iqlim) va iqtisodiy imkoniyatlari (mahalliy xomashyo resurslari) hisobga olindi. Tadqiqotning ma'lumotlari 2023-2024 yillar davomida to'plangan bo'lib, tahlil uchun Microsoft Excel va SPSS dasturiy ta'minotidan foydalanildi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda zamonaviy qurilish konstruksiyalaridan foydalanishda innovatsion yondoshuvlarning samaradorligi bo'yicha quyidagi muhim topilmalar aniqlandi:

1. **Energiya tejamkor materiallar**:
   - Bazalt va fibro tolali panellar kabi materiallar binolarda issiqlik yo'qotilishini 20-30% ga kamaytirishi mumkin, bu esa O'zbekistonning issiq va quruq iqlimida energiya tejashga katta hissa qo'shadi [11, 12]. Masalan, Quvasoydagi "Kvars" korxonasida ishlab chiqarilayotgan quyosh nurini qaytaruvchi oynalar binolarda yozgi issiqlik ta'sirini 15% ga kamaytiradi va konditsionerlardan foydalanishni qisqartiradi. Ushbu oynalar Toshkent shahridagi bir qator yangi turar-joy majmualarida sinovdan o'tkazildi va energiya sarfini 12% ga kamaytirishga erishildi [9].
   - Mahalliy ishlab chiqarilgan bazalt tolali materiallar an'anaviy beton panellarga nisbatan 25% yengilroq bo'lib, qurilish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. 2023-yilda Farg'ona viloyatida qurilgan ko'p qavatli uylarda ushbu materiallardan foydalanish qurilish narxini 10% ga pasaytirdi [11].
2. **Modulli qurilish**:
   - Modulli qurilish texnologiyalari qurilish muddatlarini 40% ga qisqartiradi va umumiy xarajatlarni 15-20% ga kamaytiradi [3, 13]. "Yangi Andijon" shahri qurilishida modulli konstruktsiyalardan foydalanish loyihasi sinovdan o'tkazildi, natijada 100 ta turar-joy binosini qurish muddati an'anaviy usullarga nisbatan 6 oyga qisqardi [4].
   - Modulli qurilishning afzalliklari orasida transport xarajatlarni kamaytirish va qurilish maydonchasida chiqindilarni 30% ga qisqartirish kiradi. Ushbu texnologiya Samarqand viloyatidagi infratuzilma loyihalarida qo'llanilib, qurilish chiqindilarini 25% ga kamaytirishga erishildi [9].
   - Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, modulli qurilish O'zbekistonning seysmik faol hududlari (masalan, Farg'ona vodiysi) uchun xavfsiz va samarali yechim bo'lib, konstruktsiyalarning mustahkamligini ta'minlaydi [13].
3. **Raqamli texnologiyalar**:
   - BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi loyihalashtirish xatolarini 25% ga kamaytiradi va qurilish jarayonlarini optimallashtiradi [1, 14]. Toshkent shahrida "INNO" texnoparkida BIM texnologiyasi yordamida loyihalashtirilgan ofis binosi qurilishi xarajatlarni 18% ga kamaytirishga imkon berdi. Ushbu loyihada loyihalashtirish vaqtida aniqlangan 50 dan ortiq muhandislik xatolari tuzatildi, bu esa qurilishda qayta ishlash xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirdi [6].
